



TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR YO'LIDAGI ILK ODIMLAR

UNIVERSITET TALABALARINING II ILMIY-AMALIY ANJUMANI



STUDENTS' 2ND SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

LANGUAGE AND LITERATURE: FIRST STEP IN
PRACTICAL-SCIENTIFIC RESEARCHS

2

16-may
2018

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI

TIL VA ADABIYOT:


ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR
YO'LIDAGI ILK ODIMLAR

I QISM

(Talabalarning II ilmiy-amaliy anjumani materiallari)



24/9 9416



TOSHKENT
«NAVOIY UNIVERSITETI»
nashriyot-matbaa uyi
2018

Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo'lidagi ilk odimlar. Talabalarining II ilmiy-amaliy anjumani materiallari. I qism. –T.: «Navoiy universiteti» nashriyot-matbaa uyi. 2018-yil. 336 bet.

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan «Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo'lidagi ilk odimlar» mavzusidagi universitet talabalarining II ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To'plam materiallaridan filolog mutaxassislar, til va adabiyot o'qituvchilari, magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldir)

Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: T. Enazarov, filologiya fanlari doktori;
S. Bozorova, o'qituvchi;
O. Tojiboyeva, o'qituvchi;
Z. Suvanov, doktorant

Tahrir hay'ati:

I. Azimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
M. Qurbonova, filologiya fanlari doktori, professor;
Z. Xolmanova, filologiya fanlari doktori, professor;
M. Yuldashev, filologiya fanlari doktori, dotsent;
H. Ahmedov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
N. Ahmedova, filologiya fanlari nomzodi;
A. Tilavov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
D. Yusupova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
N. Saydirahimova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
G. Odilova, filologiya fanlari nomzodi;
N. Abdurahmonova, filologiya fanlari nomzodi;
I. Saidqulov, o'qituvchi;
H. Bakiyev, o'qituvchi;
B. Tojiboyev, o'qituvchi;
Z. Islamova, o'qituvchi;
K. Ruxsatova, o'qituvchi;
D. Karimov, o'qituvchi;
A. Ahmedova, o'qituvchi;
M. Mahmudova, o'qituvchi;
M. Dustmurodov, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti YFOJ Kengashi raisi

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2018-yil 28-apreldagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

UMIDBAXSH JARAYON

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor va ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyot va san’atimizni rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalar, ularni hal etish yo‘llari, bu borada ijodiy uyushmalar va davlat tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalar haqida atroflicha fikr bildirildi.

Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori san’at, madaniyat, til va adabiyot masalalariga katta e’tibor berilmoqda. Xalqimizning boy madaniy merosini tiklash va o‘rganish maqsadida bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san’at sohasini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilib, hududlarda ulug‘ san’atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil qilinmoqda.

Bu ishlarning mantiqiy davomi sifatida yosh iste’dod egalarining iqtidorini yuzaga chiqarish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Universitetimizda tashkil etilgan “Yosh filolog olimlar jamiyati” ham o‘z faoliyatini shu qutlug‘ maqsadga muvofiq olib bormoqda. Bu jamiyat mamlakatimizdagi turdosh oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalar bilan izchil strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Shu ma’noda, jamiyat tomonidan yuksak saviyada o‘tkazib kelinayotgan ilmiy konferensiyalarni ham mamnuniyat bilan ta’kidlash mumkin.

Quvonarlisi shundaki, universitetimizning zakovatli yoshlari najotni ilmdan izlamoqda. Ular o‘zni namoyon qilmoqning eng xolis, eng madaniy usuli sifatida ilmni tanlashdi. Ular ilm orqali millatga xizmat qilish mumkinligini anglamoqda. Vatanga muhabbat izhorini ham ilm orqali namoyon qilish taraddudida. Ilmiy izlanish olib borayotgan yoshlar ongida behuda o‘ylarga, benaf amallarga, yot mafkuralarga zarra qadar o‘rin yo‘q. Ularning maqola va tadqiqotlarini o‘qisangiz, mulohazalarimning samimiy ekanligiga shubha qilmaysiz.


Talabalarimiz o'z ustozlari ko'magida buyuk bobolarimiz bo'lmish Mahmud Koshg'ariy, Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi mutafakkirlar ijodini tadqiq etishmoqda. Tilshunoslikning murakkab masalalariga hayiqmay, jidd-u jahd bilan qo'l urishmoqda. Adabiyotshunoslik ilmining munozarali muammolari haqida o'z mulohazalarini bildirishmoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim bilan bog'liq masalalar ham yosh tadqiqotchilarning e'tiboridan chetda qolmayotgani kishini quvontiradi.

Katta mamnuniyat bilan aytamanki, "Yosh filolog olimlar jamiyati" ana shunday ma'rifatga tashna, sof niyatli yoshlarni o'z atrofiga biriktirdi. Ushbu maqolalar to'plami talabalarining sohaga doir ilmiy tadqiqot olib borishda malaka va tajribalari ortayotganini ko'rsatadi.


Istaymanki, yorug' maqsadlar, ezgu tilaklar umidida izlanayotgan yoshlarning bu shijoati aslo so'nmasin! Sizlarga sog'liq va ijodiy muvaffaqiyat yor bo'lsin!

*Sh. Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor*





I SHO'BA. O'ZBEK TILI TARIXI VA DIALEKTOLOGIYASI MASALALARI



ALISHER NAVOIYNING «MUHOKAMAT UL- LUG'ATAYN» ASARIDA TURKIY TIL MAVQEYINING DALILLANISHI

Ashurova Nasiba

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya

Tarixdan ma'lumki, har bir millat o'z tili ila faxr etadi. Turkiy tilning dunyo tamaddunida o'z maqomiga ega bo'lishida hazrat Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos. Xususan, uning «Muhokamat ul-lug'atayn» asari turkiy til imkoniyatlarini ochib bergani jihatidan ham qimmatlidir.

Kalit so'zlar: «Muhokamat ul-lug'atayn», 100 ta fe'l, turkiy til, forsiy til.

Annotation

It is clear from history that every nation is proud of its language. The services of Alisher Navoi are invaluable in gaining the status of the Turkic language in the world civilization. In particular, his work, «Muhokamat- ul lutatayn», is also valuable in terms of the discovery of Turkic language capabilities.

Key words: The book «Muhokamat-ul lug'atayn», 100 verbs, turkic language, persian language.

Аннотация

Из истории ясно, что каждый народ гордится своим языком. Услуги Алишера Навои неопределимы в завоевании титула тюркского языка в мировой цивилизации. В частности, это более ценно, чем тот факт, что книга «Мухокамат-уль лугатайн» раскрыла потенциал тюркского языка.

Ключевые слова: Книга «Мухокамат-уль лугатайн», 100 глаголов, тюркский язык, персидский язык.

Tarixdan ma'lumki, millat adabiyotining nufuzi va darajasini o'sha millatdan chiqqan adabiy daholar belgilaydi. XV asr turkiy til va adabiyoti rivojiga muhim hissa qo'shib, qalam tebratgan ijodkorlar ichida Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos. Albatta, hazrat Navoiyning filologik asarlari orasida «Muhokamat-ul lug'atayn» asarining o'rni alohida bo'lib, bu asar turkiy til imkoniyatlarini ochib bergani jihatidan ham qimmatlidir.

Turkiy adabiyotni fors adabiyotidan kam emasligini, balki ustun jihatlari ko'pligini isbotlab, Alisher Navoiy o'nlab shoirlar bajarishi mushkul bo'lgan

adabiy xizmatni yuksak darajada uddaladi. O'zbek tili olami nechog'lik hayratga arzirli ekanligini Alisher Navoiy ijodkorlarga shunday manzur etadi: «*Shuur yoshiga qadam qo'yilganda Haq subhonahu va taolo ta'bimga g'aroyibotlar sari maylni zotiy, diqqat va zahmatkashlikka jasoratni tug'ma qilgani uchun mushohada va mulohaza meni turkiy tilga yo'lladi: shunday zeb-ziynatli bir olam ko'z oldimda namoyon bo'ldiki, o'n sakkiz ming olamdan ortiq va ta'bimga shunday fazl-u yuksaklik osmon tabaqasi ochildiki, to'qqiz falakdan ortiq hamda bir xazina uchradiki, durlari yulduz gavharlaridan ham yorug'roq bir gulshan yo'liqdi: gullari osmon sayyoralaridan porloqroq, maskani atrof-tevaragi el oyog'i yetmakdan forig' va g'aroyib narsalari begona qo'llar daxlidan omonda*».

Alisher Navoiy davrida o'zbek shoirlarining ko'proq fors tilida ijod qilishlariga asosiy sabab ularning o'zbek tilida yoza olmasligi edi.

O'zbek tilining ba'zi xususiyatlari fors tiliga xos bo'lmagani, lekin ular ilm ahli uchun muhim va qimmatli tomoni bilan katta ahamiyatga ega ekanligini Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida qayd etgan. Bu asarda arab va hindiy tillariga oid ba'zi mulohazalar mavjud bo'lib, asosan turkiy va forsiy (sort) tillari leksik, fonetik va grammatik jihatdan ilmiy dalillar orqali qiyoslanadi. Alisher Navoiy ikki tilni qiyoslash jarayonida forsiy tilning kuchli bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi, zero, aniq xulosalar chiqarish uchun ikki tilni ham mukammal bilmoq talab qilinadi. Bu mukammallik Navoiyning:

- «yig'lamoq» so'zi ma'nosining turli qirralarini ifodalaydigan, lekin forsiy tilda sinonimi bo'lmagan 100 ta fe'lni keltirishi;
- turli sohalarga doir narsa-buyum, tabiiy hodisalar va hayvonlarning forsiy tilda mavjud bo'lmagan nomlarini berib, ularning ba'zilar forsiy til leksikasi tarkibiga ham kirganligi haqida ma'lumot berishi;
- tajnis va iyhom san'atiga asos bo'ladigan so'zlarning turkiyda forsiy tilga nisbatan ko'pligini misollar bilan isbotlashi;
- tuyuq janrining faqat turkiy she'riyatda qo'llanishiga e'tibor qaratishi;
- turkiy tilda forsiy tilda bo'lmagan ba'zi grammatik shakllarning mavjudligini misollar bilan dalillashi;
- turkiy tilning fonetik xususiyati qofiyadosh so'zlar uchun fors tiliga nisbatan qulayligini asoslab berishi bilan bog'liq holatlarda ko'rinadi. Bundan tashqari, aksar turkiy so'zlarni fors tilida ifodalash uchun bir necha so'z yoki so'z birikmalaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Shunda ham arabcha so'zlar qo'llab ifoda qilinadi. Buni Alisher Navoiy forsiy tilda sinonimi mavjud bo'lmagan yuzta so'z orqali misollar bilan dalillab, isbot qiladi.

So'zning qo'shimcha qabul qilib, yangi ma'nolar kasb etishi xususidagi Navoiy kuzatishlari ham o'zbek tilida so'z yasash imkoniyati kengligini isbotlaydi.

Soʻz oxirida birgina «t» tovushini orttirish bilan: yugur-yugurt, chiqar-chiqart, yashur-yashurt, qildur-qildurt tarzida yangi-yangi maʼnoli soʻzlar hosil boʻlishi ham muallif eʼtiboridan chetda qolmagan.

Binobarin, soʻz yasash xususida bahs yuritilsa, forslarning bu sohadagi kamchiliklari koʻrinaveradi. Masalan: turklarning shunday soʻz yasash usuli borki, ularda soʻz oxiriga «ch» yoki «chi» harflarini orttirish orqali mansab, hunar yoki kasb egalariga doir soʻzlar yasaladi. Forsiyda bu usul yoʻqligi bois unday soʻzlarni forslar turkcha aytadilar. Masalan: qoʻr-qoʻrchi, suv-suvchi, xizona-xizonachi, qush-qushchi, qoz-qozchi, quv-quvchi, turna-turnachi, kiyik-kiyikchi kabi. Bu va bu boradagi koʻplab shunga oʻxshash misollarga tayangan holda «Muhokamat ul-lugʻatayn»dagi maʼlumotlar nafaqat kitobxonlar ommasi, balki olimlar uchun ham koʻplab yangiliklar beradi desak, xato qilmagan boʻlamiz.

Alisher Navoiy nazarida, turk tilini oʻrganmoq forsiy tilini oʻrganmoqdan osonroqdir, chunki turk tili olimlari juda koʻp holatlarda mubolagʻa koʻrsatib, oʻta mayda narsalarga ham soʻz topib qoʻyganlarki, turkiydagi barcha soʻzlarning forsiyda sinonimi yoʻqligi bu mulohazaning asosli ekanligini isbotlashga koʻmaklashadi.

Alisher Navoiy turkiy tilning imkoniyatlari-yu, ifodaga boy ekanini turli xil misollar orqali bayon etadi, yuksak ekanini isbotlaydi. Sharq adabiyotida ilk bora Alisher Navoiy turkiy tilda «Xamsa» yaratgani uning oʻz ona tiliga boʻlgan mislsiz hurmat-ehтиromini bildiradi va buning natijasi oʻlaroq, turkiy tilning ulugʻlanishiga, uning jahonga tanilishiga zamin yaratadi.

Mahmud Koshgʻariy XI asrdayoq oʻzining «Devonu lugʻatit turk» («Turkiy soʻzlar devoni») asarida «Turkiy tilni ham oʻrganinglar, bu til hali uzoq yashaydi», deb turkiy tilni oʻrganishga daʼvat qilgani, turkiy soʻzlarni arab tiliga izohlagani nechogʻlik haqligiga hozirgi kunda guvoh boʻlib turibmiz. Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov taʼrif berganlaridek, «Agar bu ulugʻ zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir»¹. Sababi turkiy tilning ayni davrgacha yuksak darajada taraqqiy etishida Alisher Navoiyning benihoya xizmati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lugʻatayn. Taʼt. 20 jildlik. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2011.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lugʻatayn. –T.: Tafakkur, 2014.
3. Alisher Navoiy. Qomusiy lugʻat. 1–2 jildlar. Masʼul muharrir Sh. Sirojiddinov. –T.: Sharq NMAK, 2016.
4. Karimov. I. A. Yuksak maʼnaviyat — yengilmas kuch. –T.: Maʼnaviyat, 2008.
5. Yusupova D. Oʻzbek mumtoz va milliy uygʻonish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). –T.: Tamaddun, 2016.

YANGIARIQ SHEVASI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO‘ZLAR IZOHI MASALASIGA DOIR

Bekmatova Dilnoza

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada sheva materiallari asosida dialektizmlarga munosabat bildirilgan. Bundan anglashiladiki, tarixiy dialektologik materiallar tavsifiy dialektologik materiallar bilan vaqt o‘tsa-da, uzviy bog‘liq. Bu holat Yangiariq shevasi dialektizmlarining izohida o‘z ifodasini topgan.

Tayanch so‘z va iboralar: *sheva, kompyuter texnologiyalari, dialektal matn, dialektizmlar, dialektizmlarning izohi.*

Annotation

This article deals with our dialects based on some dialect materials. This means that historical dialectological relations persist for a long time. This has been observed in the case of Yangiariq

Key words: Dialect, computer technology, dialectological context, dialectics, description of dialectics.

Аннотация

В данной статье предусмотрено диалектизмы на основе диалектичных материалов. Исходя из этого, исторически-диалектологические материалы, не теряя свою узкую связь с материалами диалектической характеристики. Этот случай ярко выражен в диалекте Янгы-арыка.

Ключевые слова: Диалект, компьютерные технологии, диалектический текст, диалектизм, описание диалектизмов.

Fan-texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda kompyuter texnologiyalari turli jabhalarni qamrab olishga ulgurdi. Mashina inson mehnatini osonlashtiribgina qolmay, axborot qabul qilish va uzatishdagi til muammolarini ham ma‘lum darajada hal etmoqda. Bugungi kunda turli sohalariga oid matnlarni kompyuter vositasida tez va sifatli tarjima qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday tarjima dasturlarini yaratishda tilning ichki imkoniyatlari hamda o‘ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

«Ona tilimizning internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta‘minlash, uning kompyuter uslubini, o‘zbek tili va dunyodagi yetakchi xorijiy tillar asosida tarjima dasturlari va lug‘atlar, elektron darsliklar yaratish bilan bog‘liq ilmiy-metodik ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu borada erishilgan natijalarni amaliyotga keng tatbiq etish» («Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli Farmondan) asosiy vazifalarimizdan sanaladi.

Ma‘lumki, tilning qay darajada boy ekanligini ko‘rsatuvchi omillardan biri shevalardir.

Dunyoda mavjud tillarning deyarli barchasi sheva va lahjalardan iborat. Turkiy tillarning har biri bir necha sheva va dialektlardan iboratligi ma‘lum. Biroq

o'zbek tili turkiy tillar ichida o'zining ko'p shevaliligi, dialektliligi bilan farqlanadi. Shevashunoslik bilimdonlaridan biri professor Y. D. Polivanov: «...turkiy tillarning birortasi ham shevalararo o'zbek tili singari bu qadar keskin farqlanmaydi, demak, ...birorta turkiy til ham shu qadar spetsifik (maxsus), dialektal xilma-xillik xususiyatiga ega emasdir. Bu esa, tabiiy, adabiy til uchun biror dialektni asos qilib olish masalasini nihoyat darajada og'irlashtiradi», degan edi.

O'zbek dialektologiyasi fani alohida fan bo'lib, u biror milliy til tarkibidagi mahalliy lahja va shevalarning o'ziga xos muhim xususiyatlarini, ularning adabiy tildan va o'zaro bir-birlaridan farqlarini, shevalarning adabiy tilga munosabatini, adabiy tilni boyitishdagi ahamiyatini, shuningdek, o'rganilayotgan shevalarning qanday guruhga bo'linishi, ularning tarixi va kelajak taqdiri kabi dolzarb masalalarni o'rganadi va o'rgatadi.

«O'zbek shevashunosligi fani O'zbekiston davlati zaminidagi lahja va shevalarni o'rganish bilan bir qatorda, boshqa qardosh qo'shni davlatlarda — Qozog'iston (Marki, Jambul, Chimkent, Iqon, Qoramurt, Mankent, Qorabuloq, Turkiston, Sayram kabi), Qirg'iziston (O'sh, Jalolobod), Tojikiston (O'ratepa, Xo'jand, Kofirnihon, Vaxsh, Qizilsuv, Yaxsuv daryolari vodiylari) uning janubig'arbiy qismi, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Afg'onistonning Andxay, Mozori Sharif, Mayman kabi tumanlarida, shuningdek, Bax va Qunduz shaharlari va ularning atroflarida, Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon-Uyg'ur o'lkasida istiqomat qiluvchi o'zbek xalqi tilining lahja va shevalarini ham tekshiradi» (1: 21-22).

O'zbek xalq shevalari nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'lib, ularning bir qismi fonetik va grammatik jihatdan o'rganilgan. Lekin leksik jihatdan hali yaxshi o'rganilmagan shevalarimiz ham mavjud.

Shevalarimiz adabiy tilimizni boyituvchi ichki manbalardan biri. Ularning leksik birliklari bo'lgan dialektizmlarni o'rganish, yig'ish, ularni umumlashtirib, lug'at shakliga keltirish va ilmiy iste'molga tatbiq etish masalasi ancha bahslidir. Rus turkolog olimlari o'zbek xalq shevalarini XX asming 20-yillaridan o'rganishni boshlashgan. Natijada, ulardan shevalarni tadqiq etishni o'rgangan, sheva so'zlarni larqlab, talqin-u tahlil etishdan o'mak olgan o'zbek olimlari ham XX asming 50-yillaridan boshlab sheva va lahjalarimizni jiddiy ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy asoslar bilan o'rganishga kirishishgan.

XX asming 50-yillaridan bugungi kungacha o'tgan vaqt salkam yetmish yilni tashkil etmoqda. «O'zbek shevashunosligi» sohasida faoliyat ko'rsatgan olimlardan Y. D. Polivanov, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, Fattoh Abdullayev, Abdug'ani Aliyev, A'zam Shermatov, Bolta Jo'rayev, X. Jo'rayev, T. Almatov, S. Atamirzayeva, Sh. Afzalov, Nazar Rajabov, Mustaqim Mirzayev, Y. Bobojonov, M. Bo'ronov, M. Valiyev, Shonazar Shoabdurahmonov, Xudoyberdi Doniyorov, Yusuf Jumanazarov, Ahmad Ishayev, Tohir Sodiqov, Shukur Nosirov, Vahob Iqamov, Mashkura Turopova, Lola Karimova, Qosimjon Muhammadjonov, Nigora Murodova, Abdumurod Mamatov, Aziz Jo'rayev, M. Begaliyev, Bosim To'ychiboyev, Tolib Enazarov kabi dialektolog olimlarning shevalarimizni

o'rganish bo'yicha o'zlarining ilmiy tadqiqotlariga mos holda tuzilgan va ilmiy jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangan maxsus so'roqliklari bor.

Ma'lum bir vaqt o'tishi bilan boshqa tillarda bo'lgani kabi tilimizning fonetikasi va leksikasida kam bo'lsa-da, o'zgarishlar yuzaga keladi. Agar tildagi fonetik hamda leksik o'zgarishlar, eng avvalo, uning shevalarida o'z ifodasini topishi mumkinligini o'ylasak, lahja hamda shevalarimizning XX asrning oxiri va XXI asrning boshidagi holatini yana bir boshdan o'rganish zarurligi sezilib turibdi. Bu esa mamlakatimizning mustaqillik davridagi shevalarimizni o'rganib, yangi-yangi tadqiqotlar olib boruvchi dialektologlarga ham nazariy, ham amaliy jihatlardan zarur ko'nikmalarni singdirish lozimligini anglatadi. O'rganilgan shevalarimizning dialektal materiallarida ham keyingi yillarda taraqqiyot tufayli ma'lum bir fonetik, leksik va grammatik o'zgarishlar ro'y bergan bo'lishi tabiiy hol, ya'ni mavjud shevalarni yana bir boshdan o'rganish masalasi kun tartibida turib qoldi.

O'zbek xalq shevalarini o'rganish sohasida anchagina ishlar qilingan va to'plangan bo'lsa ham ularning ba'zilari hali yetarli darajada o'rganilmagan, ayrimlari esa, hatto, tilga ham olinmagan. Ularning xarita va atlasini tuzish masalasi esa hozirgacha shevashunos olimlarning asosiy diqqat-e'tiborini jalb qilmagan. Bu sohada qilingan ishlar kam va ommaviy tus olgan emas.

«Shuningdek, haligacha shevalarimiz materiallari asosida 1971-yilda nashr etilgan «O'zbek xalq shevalari lug'ati» dan boshqa biron bir lug'at nashr etilmagan. U ham bor-yo'g'i to'qqiz yarim mingta dialektal so'zdangina iborat lug'at. Uning ham yarmi Ahmad Ishayev tomonidan to'plangan «Qarindosh-urug' nomlari»ni bildiruvchi so'zlardir» [2: 5].

Biz shevalarimizni dialektal matnlarga asoslanib, tadqiq etilishi tarafdorimiz. Zero, bunda tadqiq etish obyektining materiali aniq bo'ladi. Bu holat sheva haqida fikr bildirganda yanglishib ketishning oldini oladi.

Yangiariq shevasida ham qadimgi turkiy leksikaga xos bo'lgan jihatlar mavjud. Bu shevaning o'ziga xos tomonlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, biz hozir ko'rsatmoqchi bo'lgan dialektizmlar inson tana a'zolarini ifodalovchi so'zlar jumlasiga kiradi.

Misollarga murojaat qilsak: 1. *Ичэйәм үзилди.* 2. *Самарни жүндикләри чойыннан, мән айнаныңн тәвилчини бойыннан.* 3. *Йеглама қыыз, йеглама, той сәники йа: р йар, бурутлари бурмалы йа: р сәники йа: р йар.* 4. *Дуз сорамақа додақ гәрәк, сиркә сорамақа усул.* 5. *Қара сачым йағыннымы күршыйды, йа: рны гөззи өз гөззима охшыйды.* 6. *Маңа қара, алтылланы хәммәсини доньмны и: чиннән йағынныма дықып қойа вәрәман, дәпти ба: ва.*

Yuqoridagi misollarda bu holat o'zining yaqqol ifodasini topgan: *гөз-ko'z, қаш-qosh, баш-bosh, айақ-оуоқ, бурут-то'ylvon, додақ-lab, йағын-орқа, жүндик-og'iz, ичэйә-ichak, әйә-kafı.*

Yuqoridagi dialektizmlar insonning tana a'zolari nomlarini ifodalaydi. Bu so'zlarni qadimgi turkiy bitiklarda ham uchratishimiz mumkin. Xullas, tarixiy

dialektologiya materiallari ma'lum miqdorda shevalarimizda saqlanib qolganki, bu shevalarimizning tarixi ancha qadimiyligini anglatadi. Ularni tavsifiy dialektologiya materiallari bilan birga o'rganish ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – T.: O'qituvchi, 1996.
2. Enazarov T. J., Abdullayev X. T. Dialektologik amaliyot so'roqligi. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.
3. O'zbek xalq shevalari lug'ati. – T.: Fan, 1971.
4. www. oliygo.uz



BUXORO SHEVALARIDA KELISHIK KATEGORIYASI

Boboqulova Gulmira

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Maqolada Buxoro viloyatining ayrim hudud shevalaridagi kelishik ko'rsatkichlarining qo'llanishi, ularning adabiy tildan farqi, shu bilan birgalikda, mazkur sheva birliklarining alohida fonetik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Tanlangan hudud shevalarida kelishik kategoriyasi ikki guruhga ajratilgan holda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: sheva, lahja, tipik holat, o'zgargan holat, kelishik formasi

Аннотация

В статье рассматривается использование падежных показателей диалектов некоторых местностей Бухарского вилоята, их различие от литературного языка, а также отдельные фонетические качества этих диалектных сочетаний. Падежные категории в диалектах выбранной местности исследуется разделив их на две группы.

Ключевые слова: диалект, типическое состояние, измененный вид, падежная форма.

Annotation

In this article, it is defined that the usage of the grammatical forms in Bukhara dialects, the different between formal language and dialects, the phonetic peculiarities of the dialect singulars. It is analyzed that the grammatical forms of the noun are divided two groups.

Key words: dialect, dialectical variants, typical state, changeable state, the grammatical forms.

Bugungi kungacha o'zbek dialektologiyasi ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, dialektologiyaning fonetika, leksikologiya, grammatika sohalari yuzasidan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Jamiyat, unda faoliyat ko'rsatayotgan xalq tinimsiz rivojlanish va taraqqiyotda bo'lgani kabi ularning tili ham uzluksiz boyib borishi tabiiy holdir. Tilning boyishida esa dialekt (sheva)larning o'ziga xos o'rni mavjud. Chunki shevaga xos

soʻzlar jonli xalq tilining yorqin namunasi harada adabiy tilimizning doimiy boyish manbaidir.

Oʻzbek shevalarining tasniflanishiga koʻra Buxoro shevasi oʻrta oʻzbek shevalari guruhi yoki qarluq-chigil-uygʻur lahjasining Qarshi guruhiga mansubdir [1: 5]. Buxoro shevasi umumiy fonetik belgi xususiyatiga koʻra, o va ye-lovchi hisoblanadi. U ikki tilda — oʻzbek va tojik tillarida soʻzlovchi hamda bir tilda — oʻzbek tilida soʻzlovchi mahalliy aholi nutqini oʻz ichiga oladi. Oʻzbekcha-tojikcha ikki tillilik Buxoro shahri, atrof qishloqlari va ayrim tumanlarining qishloq aholisi oʻrtasida mavjuddir. Bir tilli aholi Buxoro tumani boʻylab tarqalgan boʻlib, ikki tilli aholiga nisbatan koʻpchilikni tashkil etadi.

Ikki tilli aholi shevasining asosiy belgilari quyidagilar:

1) *o* fonemasi lablangan barqaror unli boʻlib, tojikcha lablangan *o* unlisiga juda yaqin turadi. Masalan, *bo: gʻ, bozo: r, orom, kelopti, boropti* kabi. *O* unlisi birmuncha choʻziq va *oʻ* ga yaqin talaffuz etiladi;

2) *e* va *ɛ* unililari urgʻuli boʻgʻinda va sonor tovush oldidan choʻziqroq aytiladi: *ge: los, ke: lin, shi: ri: n, shambe: kabi;*

3) til orqa burun undoshi *ng* qoʻshimcha tovush *g* yoki *k* bilan aytiladi: *mangg, olingg, oʻqingk-chi* kabi [2: 19-20];

4) oʻtgan zamon formasi *-gan, -kan, -qan*, koʻpincha *-an* tarzida talaffuz qilinadi: *kelan, ketan, boran, yozan* kabi.

Ikki tilli sheva vakillari oʻzbek tilini yaxshi biladigan tojiklar va tojik tilini biladigan oʻzbeklardan iboratdir.

Bir tilli shevaning asosiy belgilari esa quyidagilar:

1) burun undoshi *ng* tovushidan keyin kelgan *a* unlisi old qatorga moyil aytiladi: *manga, yongan, sanga* kabi;

2) lab undoshlaridan *p* va *f* bir-biridan unchalik ham ajratilmaydi, yaʼni bir xil *p* tarzida talaffuz qilinaveradi: *pikr, paqat, kapt, hapta* kabi;

3) koʻplik va hurmat ifodalovchi *-lar* koʻrsatkichi *-la* shaklida talaffuz qilinadi: *kimla? ula, dadamla, sila* kabi.

Bir tilda soʻzlashuvchi aholi shevasi adabiy til va ikki tilli aholi shevasi oʻrtasidagi oraliq, vositachi sheva vazifasini bajaradi, desak ham xato boʻlmaydi.

Maʼlumki, kelishik kategoriyasi morfologik kategoriyalar qatorida ustuvor sintaktik tabiati bilan ajralib turadi. Kelishik kategoriyasi oldingi soʻzni keyingi mustaqil soʻzga bogʻlash vazifasini bajaradi. Bu vazifa barcha kelishik shakllari uchun umumiy sanaladi [3: 12].

Buxoro shevalarida kelishiklar adabiy tildagidek otlarni feʼl bilan, baʼzan ikki otni oʻzaro bogʻlash, sintaktik aloqaga kiritish vazifasini bajaradi.

Buxoro shevasida oʻzbek adabiy tilidagi kelishik formalarining hammasi ham barqaror emas. Shuning uchun ushbu sheva kelishik kategoriyasi haqida gap ketganda ularni, avvalo, ikki guruhga ajratib olish zarur:

1. Tipik holatdagi kelishiklar.
2. Oʻzgargan holatdagi kelishiklar.

Birinchi guruh ikkita, ba'zi hududlarda esa uchta kelishikni o'z ichiga oladi. Bular bosh, chiqish va o'rin-payt (ayrim markaziy hududlarda) kelishiklaridir. Ushbu guruh kelishiklari adabiy til formasi bilan bir xil bo'lib, o'zining tipik holatini saqlagan hisoblanadi. Ba'zi hududlardagina o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi *-da* o'rinda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ga* qo'llanadi. Lekin bunday holatlar juda kamchilikni tashkil etadi. Shuning uchun ham o'rin-payt kelishigini birinchi guruhga, tipik holatini saqlagan kelishiklar guruhiga kiritishni joiz deb topdik.

Ikkinchi guruh ham o'z navbatida uchta: qaratqich, tushum, jo'nalish kelishiklaridan iborat. Ularning bu guruhga kiritilishiga sabab, kelishiklar adabiy tilga nisbatan o'zgaragan formada aks etadi.

Qaratqich kelishigi. Bu kelishik adabiy tilda *-ning* qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Ammo Buxoroning deyarli barcha hududlarida ba'zan til orqa cho'ziq *-i*, ba'zan *-ni* shaklida, talaffuz etiladi. Masalan, *opami kitobi, xonani pardasi, bolani kiyimi, kitobi beti*. Agar e'tibor berilsa, jarangli undoshlardan keyin qo'shilgan qaratqich kelishigi formasi *-i* tarzida, unli va jarangsiz undoshlardan keyin qo'shilgan formasi esa *-ni* tarzida talaffuz etilishini kuzatish mumkin.

Tushum kelishigi. Bu kelishik formasi ham adabiy tildagi formaga nisbatan biroz o'zgaragan holatda uchraydi. Ya'ni adabiy tilda *-ni* bo'lgan kelishik ko'rsatkichi ko'p hollarda til orqa cho'ziq *-i* tarzida aytiladi. Masalan, *opami ko'ddim, kitobi oqidim, qalami oldim*. Qo'shimchalarning bu tarzda qo'shilishi yuqoridagi holatni takrorlaydi: jarangli undoshdan keyin kelgan tushum kelishigi qo'shimchasi *-i* shaklida aytilsa, unli va jarangsiz undoshdan keyin kelgan tushum kelishigi qo'shimchasi tipik *-ni* shaklida aytiladi. Masalan, *xornani shamollatdim, ozakni ajratdim, olmani yemog, optovani keltirmog*.

Jo'nalish kelishigi. Jo'nalish kelishigi ko'rsatkichi bo'lmish *-ga* ham Buxoro hududi shevalarida o'zgarishga uchraydi va til orqa, cho'ziq *-a* tarzida aytiladi. Masalan, *maktaba: bordim, kitoba qaradim, satila suv soldim, otiza ekin ekdim*. Bu kelishik ko'rsatkichi boshqa kelishiklar kabi adabiy tildagi tipik formasini saqlab qolmaganligi bilan to'liq o'zgarishga uchragan hisoblanadi.

Tipik holatini saqlab qoladigan, ya'ni o'zgaraydigan kelishik ko'rsatkichlari, asosan, bir tilli Buxoro shevalariga xosdir. O'zgaradigan kelishik ko'rsatkichlari esa ko'proq ikki tilli Buxoro shevalarida uchraydi.

O'zbek dialektalogiyasi sohasidagi oxirgi tadqiqqlariga nazar tashlansa, jo'nalish va o'rin-payt kelishiklarini farqlamaydigan Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand hududlaridagi aholi shevasining adabiy tilga yaqinlashishi natijasida bu ikki kelishikni farqlash jarayoni kuchayib bormoqda. Yaqin yillarda bu holat, ayniqsa, Buxoro va Samarqand hududlarida ancha o'zlashganini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reshetov V.V. O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjalari. O'zbek tili va adabiyoti. 1960. 5-son.
2. Mirzayev M.M. O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari. —T.: Fan, 1969.

3. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек тили. –Т.: 2007.
4. О‘zbek shevalari leksikasi // Monografiya. Mas’ul muharrirlar: Abdullayev F., Ishayev A. –Т.: Fan, 1966.



«DEVONU LUG‘ATIT TURK»DA O‘G‘UZ LAHJASIGA OID BA‘ZI SO‘ZLAR TAVSIFI

Boltayeva Zilola

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘g‘uz lahjasiga xos so‘zlarni M. Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» va mumtoz adabiyotdagi shoirlar ijodi orqali taqqoslashga urinib ko‘rildi.

Kalit so‘zlar: dialektologiya, leksema, omonim, ma‘nodoshlik, lug‘at, qo‘llanish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan leksika, variantdoshlik.

Аннотация

В этой статье делается попытка сравнить слова огузского диалекта с образцами литературного языка ученого Махмуд Кошгари «Диван тюркских слов» и классической узбекской литературы.

Ключевые слова: диалектический, символы, омоним, синонимичный, словарь, ограниченный объем и неограниченная лексика.

Annotation

In this article attempts to company the words of the ogur dialect by sampling from the work of Mahmud Koshghari's «Devonu lug‘atit turk» («Divan lyrical Turkish») and classical literature.

Key words: dialectology, lexeme, omonym, meaningful, dictionary, limited scope and unlimited lexicon, option.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqi qadimgi turkiy qabilalari negizida shakllanib borgan va xalq tili ham xalqning o‘zi qadar qadimiydir. O‘zbek tili leksikasi sof o‘zbek va umumturkiy so‘zlardan iborat bo‘lib, o‘ziga xos fonetik va semantik belgilariga ega. Bu leksemalar ishlatilishi jihatidan chegaralangan va chegaralanmagan leksikalarga ajratilib, asosan, ot, sifat, ravish va fe‘l so‘z turkumlariga xos jihatlari orqali namoyon bo‘ladi. Yordamchi va alohida olingan so‘zlarda chegaralangan leksikaning alohida ko‘rinishi deyarli mavjud emas.

O‘zbek tilidagi lahjalar hudud va bir-biriga yaqinligi jihatidan 3 guruhga ajratilib (qarluq, qipchoq va o‘g‘uz), shulardan ushbu maqolamizda o‘g‘uz lahjasi haqida so‘z yuritib, bu lahjaning qonusiy olim M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asaridagi ayrim so‘zlarini izohlaymiz.

O'g'uz lahjasi Janubiy Xorazmning deyarli barcha tumanlarida, Buxoroning Olot va Qorako'l hududlarida va Turkmanistondagi o'zbek shevalarida faol qo'llaniladi. Bu lahjaning o'ziga xos tomonlari shulardan iborat:

- 9 ta unli mavjud va ularning qisqa va cho'ziq aytilishi:
 - a — orqa qator, lablanmagan, keng unli: **ara** — narsaning o'rtasi, orasi [1: 114];
 - a — old qator, lablanmagan, keng unli: **ana** — ona [1: 119];
 - e — old qator, o'rta keng, lablanmagan unli: **et** — go'sht [1: 70];
 - o — orqa qator, o'rta keng, lablangan unli: **ochaq** — o'choq [1: 95];
 - o — old qator, lablangan, o'rta keng unli: **ortaq** — o'rtoq, sherik [1: 125];
 - u — orqa qator lablangan, tor unli;
 - u — old qator, lablangan, tor unli: **urkitti** — hurkitdi [1: 265];
 - i — old qator, tor lablanmagan unli: atildi — qilindi;
 - i — orqa qator, tor, lablanmagan unli: **atildi** — o'q otildi [1: 201];
- birinchi bo'g'inda cho'ziq unilarning ishlatilishi doirasi otlarda nisbatan kengroq: **a: t** — ism [1: 107];
- ning qo'shimchasi **-ing** hoida, **-ga** qo'shimchasi **-a**, **-na**, **-g'a** tarzida qo'llaniladi: qo'lga — qo'la, qo'lina, nimaga — navig'a;
- egalik qo'shimchasi III shaxs birlik shakli ayrim so'zlarga qo'shilganda bitta **n** orttiriladi: yuzida — yuzinda;
- adabiy tildagi hozirda nafaol kelasi zamon qo'shimchasi **-jak** kelasi va o'tgan zamon qo'shimchasi sifatida faol qo'llaniladi: qilmoqchi — atjak, aytmoqchi edi — aytjak adi;
- ba'zi hollarda fe'l yasovchi **-ir** qo'shimchasi o'rnida **-la** fe'l yasovchisi bilan almashadi: gapir — gapla;
- «**k** va **g** undoshlari g'oyat yumshoq, yoshlar nutqida esa deyarli y ga barobar: galyan» [2: 56];
- hozirgi zamon fe'li qo'shimchasi **-yotir** shaklida qo'llaniladi: borayapti — baryotir;
- ko'plik **-lar** qo'shimchasi **-la** ko'rinishida: gullar — gulla;
- «qo'shma fe'llarda yetakchi fe'lning ravishdosh affiksidadagi **-b** tushadi: olib qoldi — alliqaldi» [2: 56];
- **mi** so'roq yuklamasi **-ma** tarzida qo'llaniladi: keldimi — galdima.

Bunday xususiyatlarni o'zida saqlab qolgan o'g'uz lahjasiga mansub Xorazm shevasi haqida quyidagicha ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin: «Xorazm hududida yashovchi o'zbeklar tarixan turkiy xalqlarning ikkita yirik guruhiga — o'g'uz va qipchoqlarga mansubdir. Shimoliy va shimoli-g'arbiy hududlaridagi Mang'it, Gurlan, Yangibozor tumanlarining tili qipchoq lahjasiga, qolganlari esa o'g'uz lahjasiga mansubdir» [2: 18].

Xorazm o'zbeklarining tili haqida, ayniqsa, o'g'uz shevalari to'g'risida ilk ma'lumotlarni mashhur venger olimi Herman Vamberi keltirib o'tadi. Animo undan oldin, XI arslarda yashab ijod qilgan qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy

o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida to'xtalib, o'zining ilmiy nazariyalarini asoslab berdi.

«Koshg'ariy o'z asari uchun to'plagan materiallar u davr tilining fonetikasini, leksikasini, morfologiyasini, dialektologiyasini juda puxta va to'la ilmiy asosda izohlab berishga asos bo'ldi. Uning asarida omonim va sinonimlar, metateza va antonimlar, so'zlarda to'liq va qisqa variantlilik, ayniqsa, dialektal leksika va boshqa ko'pgina leksik xususiyatlar birinchi marta leksikaning mustaqil bo'limlari sifatida izohlab berildi» [1: 30].

«Devonu lug'atit turk» — «Turkiy tillar lug'atlari» asarida aynan Xorazm shevasiga xos bo'lgan so'zlar kiritilgan. Asarda aksariyat so'zlar, asosan, fe'l so'z turkumidagi so'zlar o'tgan zamon III shaxs birlik formada kiritib o'tilgan va yana ot, sifat, ravish turkumlariga oid so'zlarga ham duch kelamizki, bu leksemalar hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydi: So'zlar tahliliga to'xtalar ekanmiz, ularning shakl va ma'no jihatlarini ham yoritib berishga harakat qilamiz.

Ot so'z turkumiga mansub shaxs otlarining xorazmcha talqinlari ushbu lug'atda o'z aksini topgan. Masalan, volida ma'nosidagi ona so'zi o'g'uzlarda old qator lablanmagan a unlisi bilan talaffuz qilinadi: **ana** [ənə]. Navoiy ijodida bunga variantdoshini ko'rishimiz mumkin:

*Boshni fido ayl a to qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.*

Demak, turk tilidagi mavjud so'zlar Navoiy ijodida ham aks etgan va bu so'zlarning aynan o'g'uz shevasida mavjud ekanligiga hozir guvoh bo'ldik.

Devonda **boldiz** so'ziga «xotinning singlisi ma'nosini anglatuvchi shaxs oti» deb izoh berilgan. Bu so'z orqali hozirda Xorazmning ayrim tumanlarida, asosan, Hazorasp tumanida erning singlisiga nisbat beriladi. Ana endi shunday fikrga kelish mumkin, so'z ma'no jihatdan shaxs otini ifodalaydi, asrlar davomida o'z ko'rinishini o'zgartirmagan, ammo ma'no teskari tomonga, ya'ni erning singlisi (qaynsingil) ma'nosiga o'zgargan.

Narsa otini ifodalovchi **qabug'** — eshik so'zining oxiridagi g' tovushi sof Xorazm jonli nutqida tushirib qoldiriladi. Xuddi turk tilida ham mavjud ushbu xususiyatni misol qilamiz: *sariq* (hozirgi o'zbek tili), *sari* (hozirgi turk tili), *sari* (o'g'uz).

Asarda ravish turkumiga mansub so'zlarning ayrim ma'no turlarini va ulardagi shaklni boshqa shevalarda, ayniqsa, hozirgi o'zbek adabiy tilida juda kam uchratamiz. Payt ravishi o'g'uzlarda kecha oqshom-**axsham** so'zi, o'rin-joy ravishi **ashaq** [ashaq] Xorazm shevasida biror narsaning pastki qismini anglatadi. Devonda keltirilgan «**o'ngdun**» ravishi o'g'uzlarda «**o'ng**» deyilishini izohlagan adib uni jonli nutqdan olganligidan dalolat beradi. Bu leksema ma'nosiga esa quyidagicha izoh beriladi: «to'g'ridan, oldindan, o'g'uzlar d va d ni tashlab **o'ng** deyдилar. O'ngdin yurit - oldindan yurit» [1: 138].

Chorvador xalq hayotidan namunalar keltirilgan ushbu kitobda *ho'kuz* [*hokus*] so'zining shevadagi jonli ko'rinishidan namunalar ham keltirib o'tiladi. Ho'kiz so'zining o'kuz [1: 91] varianti Xorazmga va turk tiliga xosligi ham adibning nazaridan chetda qolmaydi. «Bu so'z quyidagi maqolda ham keltirilgan: o'kuz azaqi bo'lguncha, buzag'u bashi bolsa yik - ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq».

Iug'atga kiritilgan fe'llar aynan o'tgan zamon III shaxs birlik ko'rinishida keltirilganligi haqida yuqorida aytib o'tgan edik. Bu nimadan dalolat? Yozuvchi xalq ichiga kirgan, ular bilan jonli nutqdan o'z holicha olib kitobiga kiritib boravergan. **Angdidi** — hiyla qildi [1: 302] fe'lini F. Abdullayev shunday izohlaydi: «Ko'rish protsessi bilan bog'liq bo'lgan **angdimiq** fe'li hozirda barcha o'g'uz shevalarida faol qo'llaniladi». Bu fikrga qo'shimcha: **angdimiq** fe'li qo'llanilish ma'nosiga ko'ra «kimmidir zimdan kuzatish» ma'nosiga ham egadir. Shunga o'xshash qiuirlamoq ma'nosini ifodalovchi **irg'andi** [1: 254], tervatildi ma'nosidagi, ammo hozirda bu metatezaga uchragan urgildi shaklidagi faol so'z — **urgildi** [1: 250] kabi so'zlari ham yuqoridagi qoida asosida izohlar bilan keltirilgan.

Inson a'zolarini ifodalab keluvchi so'zlarni misol tariqasida keltirgan. Masalan: **ulig** — qo'l [1: 102], bu so'zni nutqda qisqargan **al** [əl] deb ixchamlashtirilgan varianti qo'llaniladi, turk tilida **al qizil** degan ma'noda keladi, yana omonim so'zlar misolida jo'nalish kelishigi bilan shakllangan **alin-peshona** so'zi ham turk tilida mavjud va bular omonim so'zlar sirasiga kiradi. Muallif yana **yelkani** ifodalovchi «**ugin**» [1:107] so'zini keltirib o'tganki, uning invarianti sifatida Munisning ushbu buytidagi mazkur so'zni keltirish mumkin:

*Falak g'am yuklarin solg'anda elga,
Yog'irning'a mening qo'ymish og'irni.*

(«Base g'am boridin»)

Demakki, asrlar osha mavjud, Koshg'ariy asarlaridagi ilk tadqiqlarida ham, o'zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari ijodida ham hozirgi xalq tilida yushayotgan o'g'uz lahjasini uchratish mumkin va bu taqqoslashlar orqali shevaga xos bo'lgan xususiyatlarning talqini bilan ma'lum davr oralig'idagi til leksemalaridagi o'zgarishlarga guvoh bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Devon iug'atit turk. I-jild. -T.: Fan nashriyoti, 1963.
2. Abdullayev F. A. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi. -T.: Fan, 1990.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Talqin, 2005.

❦ 94/14 272/9

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
ToshDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

ЎРХУН-ЭНАСОЙ БИТИКТОШЛАРИДАГИ БАЪЗИ ТОПОНИМИК ЛЕКСЕМАЛАР

Дустмуродов Маъруфжон

*Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти
университети Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш
факультети 4-курс талабаси*

Аннотация

Топонимлар маълум тарихий давр, ижтимоий муҳит, сиёсий тузум маҳсулидир. Улар маълум ҳудуддаги аҳолининг дунёкараши ва шу муҳитга муносабатини акс эттиради. Ўрхун-Энасой битиктошларида ҳам жой номлари бўйича аҳамияти жиҳатидан жуда муҳим ва шу билан бирга тадқиқотини кутаётган кайдлар мавжуд. Ушбу мақолада мана шундай топонимлар хусусида илмий-таҳлилий фикрлар юритилди.

Таянч сўзлар: Топоним, Ўрхун-Энасой битиклари, Ак-Суг битиктоши, Он тунка, Шине-Усу битиктоши, Аз.

Аннотация

Топонимы — продукт определенной исторической эпохи, социальной среды, политического строя. Они отражают мировоззрение народа, проживавшего в определенной территории, и их отношения к этой среде. В Орхун-Енисейских надписях встречаются важные заметки по топонимам, которые ждут своих исследователей. В данной статье приводятся научно-аналитические размышления по поводу таких топонимов.

Ключевые слова: Топоним, Орхун-Енисейских надписи, Ак Сугская письменность, Он тунка, Шине-Усунский источник.

Турк хоқонликлари (Турк, Уйғур, Қирғиз хоқонликлари) манбаларида бир қанча топонимик бирликлар кўзга ташланади. Жумладан, манбада *tdgrds*, *цъкдп* каби жой номлари учрайди. Уларнинг қатга бир қисми айнан бугунги кундаги қайси жойларга алоқадор эканлиги аниқланган бўлса, муайян бир қисми эса ҳалигача ечимини топгани йўқ.

Жумладан, Ўрхун битиктошлари (Кул Тегин, Билга хоқон ва Тунюкүк битиктошлари)да Турк хоқонлигининг шимолидаги этнослар ва ўлкаларга доир бир қатор маълумотлар акс этган. Улардан кўпчилигининг қерда жойлашганлиги ва этимологик таҳлилга доир тадқиқотлар амалга оширилган. Масалан, Кул Тегин ва Билга хоқон битиктошларида *қирғизлар* яшаган ҳудудга доир қуйидагича маълумотлар учраб: «*Кўгман йер-суб идисиз қалмазун тейин Аз, Қырқыз бодуныг итин, йаратын келтимиз — Кўгман ери-суви (Саян тоғи) эгасиз қолмасин, деб аз ва қирғиз халқини тиклаб, тартибга солиб келдик*» [1: 20-21], «*Сунгүз батымы қарыг сўкупан Кўгман йышыг тога йурып Қырқыз бодуныг уда басдымыз. Қазанын бирла Сонга йышда сунгүшдимиз — Найза ботими қорни очиб, Кўгман водийсини ошиб, юриб қирғиз халқини уйқуда босдик. Хоқони билан Сўнга водийсида жанг қилдик*» [1: 35]; [2: 26-27]. Ушбу парчадаги *Сонга йыш* — Л. Қызласов

фикрича, Хакасиянинг шимол ва жанубини ажратиб турадиган тоғ тизмаси (Багянёвский кряж)да жойлашган тоғли ўрмон бўлиб, ҳозирги кунда Сон номли дарё ва водий ушбу топонимнинг изларини ташимоқдадир [3: 40]. Шунингдек, Тунюк битиктошида шундай сатрлар бор: «*Оқ Термелни кечиб ўтиб мақсад сари йўлладим*». Ушбу сатрдаги Оқ Термел – ҳозирги Хуа-кем дарёси деб тахмин қилинади [2: 83, 116-изох]. Л.Потапов эса Саян тоғ тизмаларининг шимолида Ани дарёсига қўпиладиган ирмоқлардан бири Ақ-Сутни битиктошдаги Ақ-Термелнинг ҳозирги номи деб қарайди [6: 300]. Бизнингча, ушбу гидронимни ҳозирги Туванинг жанубидаги, XIX асрнинг охириларида рус географлари Термис шаклида қайд қилган дарё номи билан тенглаштириш маъқулроқ [7: 381]. Чунки ҳар икки топоним ўртасида мўйян бир ўхшашлик мавжуд: Термел — Термис, яъни бу ерда қадимги туркий тилга хос л ~ ш/с сингари лангвистик қонуният кузатилади.

Тунюк битиктошидаги аз ва кирғиз сафаридан хикоя қилинаётганда қуйидагича сатрлар учрайди: «*Он тунка йантақы туг эбиру бардымыз... Аны субу баралым*» — *Ўн Тунка томондаги тўсиқни айланиб бордик... «Ани дарёсидан борайлик»* [8, 25–27-сатрлар]. Ушбу маълумотда мазкур жой номлари бўйича тадқиқотчилар бир-биридан фарқли фикрлар билдиришган. Хусусан, «*Аны субу баралым*», яъни «Ани сувидан борайлик» жумласи бунга олимлар томонидан «*Аны субқа бардымыз — Ани сувига бордик*» тарқасида тушунилган [5: 83, 124-изох]. Бу ердаги *Ўн Тункани* эса тадқиқотчилар атоқли от сифатида эмас равиш тарзида тушунишган ва уни «*Ўн тун (кеча)*» дея таржима қилишган.

Бизнингча, у жой номи бўлиши керак. Чунки XX асрнинг бошларида ҳозирги Иркутск шаҳрининг ғарбида Хубсутол қўли ва Шишкит дарёлари яқинида Тунка номли жой бўлган [10: 44], [7: 184, 286]. Ҳозирги кунда ҳам Шарқий Саян тоғларининг тизмалари Тунка деб юритилади [11: 26-27]. Агар битиктошда Турк хоқонлигининг қирғизлар томонга юриши тасвирланган шайханинг 24–28-сатрлар мазмунига диққат қилинса, кўпчилик турколог олимлар, жумладан, Х.Ўрқун, Т. Текин ва б. лар ўқиганларидек, 26-сатрдаги жумла «*Он тунка йантақы туг эбиру бардымыз*», яъни «*Ўн тун (кеча) ён томондаги тўсиқлар орасидан бордик*» [9: 108–109] шаклида эмас, «*Ўн-Тунка томондаги тўсиқни айланиб бордик*» маъносида тушуниш керак бўлади. Битиктошдаги 25–28 сатрларини умумлаштириб хулоса қилинса, хоқонлик кўшинлари аз кабиласидан бўлган ерчи (йўл кўрсатувчи) янгилишгани сабабли Қирғиз ҳукмдорининг қароргоҳи жойлашган Қўтман (Саян тоғининг шимоли)га эмас, балки, ундан юқорироқдаги *Ўн-Тунка* деган манзилга бориб қолдилар. Ерчи адашганлиги туфайли жазолангач, ташвишга тушган хоқон кўшинга «*Ела кўр (От чоптира қолинглар, йўл топинглар)*» деб буйруқ қилади ҳамда «*Ани сувидан борайлик*» деб буйруқ беради. Турк хоқонининг бу сўзларини Ани дарёсини мўлжал қилиб аниқ йўл топайлик маъносида тушуниш керак.

Шине-Усу битиктошида куйидаги қайдлар мавжуд: «Саккиз Ўғузлар, Тўққиз Татарлар қолмади, келди. Селенганинг гарбидаги Йилун-Қўлдан жанубдаги Шиббошигача қўшин юбордим. Кергу, Шип-боши (бўйлаб) юриб келди... Учи Селенгага қадар қўшин юборди. Бешинчи ой йигирма тўққизинчида жанг қилдим. Уша ерда янчдим. Селенгага сикиштириб янчдим. (Уша ерни) яйлов қилдим. Кўпчилиги Селенгани ташлаб кетди» [13: 3-4]. Ушбу ўриндаги *Йилун Қўл* — Селенга дарёси ҳавзасидаги водийда, *Шиббоши* — Селенга дарёси атрофида, *Кергу* — Селенганинг шимоли ёки шарқида, Сақьш-Кергуга яқин жойда жойлашган, деб тахмин қилинади [12: 25].

748 йилда рўй берган баъзи воқеалардан кейин бир қисм ўғузлар ғарбга силжиб, ҳозирги Абаканга яқин минтақага ўрнашади ва 752 йилда Енисейбўйи қирғизлари билан иттифок тузади. Иттифокқа *қарлуқ, чик, тургаш, басмил* ва *чигил* қабилалари қўшилади. Бу ҳақда Шине-Усу битиктошида куйидагича сатрлар бор: «*Тўққиз Ўғузнинг ҳамма беклари келди. Уша ерда ҳам итоат этмасдан душман бўлибди. Урунг-Бекда ва Қора-Булуқда уша ерларда жойлашибди*». Бу ердаги Урунг-Бекда ва Қора-Булуқ ҳақида ҳам турли фикр мавжуд.

Урунг-Бек ва *Қора-Булуқ* атамаларини баъзилар, масалан, Ҳ.Ўрқун «асл бек ва авом булуқы (?)» шаклида ўгирган [9: 172]. С. Малов эса уларни жой номи сифатида қараган, фақат «Благородный-бег и Черный Булуқ» тариқасида таржима қилган [14: 41]. С. Гўмеч ҳам уларни жой номи сифатида қараб, Абаканнинг шимолида, қирғизларнинг ғарбида деб тахмин қилади [12: 29]. Бизнингча, Қора-Булуқ, Абаканнинг шимолида эмас, ундан анча жанубда жойлашган манзиллардан бири бўлса керак. Чунки XX асрнинг бошларида рус сайёҳларининг асарларида Юқори Енисей дарёсининг ўнг қирғоғи ҳавзасидаги қўл ва ирмоқ номи Хара-булық (Қара-булық) деб юритилиши қайд қилинади [10: 4,12,162]. Ушбу Хара-булық битиктошлардаги Қора-Булуқ билан бир бўлса керак. Урунг-Бек эса балки ҳозирги Бага-нур (Жиликўл)га куйиладиган Урунгу дарёсига яқин бир жой бўлиши мумкин. Эҳтимол, ушбу топонимнинг биринчи ва иккинчи қисми алоҳида-алоҳида жой номлари бўлгандир. Чунки XIX асрнинг охириги чорагида бу томонларга сафар қилган рус сайёҳи Г.Потанин Урунгу ва Қора-Булуқ дарёлари оралиғидаги минтақада, Тес дарёсининг бир тармоғи бўлган Шябир ирмоғининг чап қирғоғида Урунь номли қояли тепалик ва Бек номли ирмоқ мавжудлигини қайд қилган [15: 208].

Битиктошларда *қарлуқ* қабиласи яшаган ҳудудга доир қўшлаб маълумотлар акс этган. Уйгур ҳоконлиги даврида *қарлуқлар* Жўнғория текислигида, Иртиш дарёсининг юқори ҳавзасида, яъни Турк ҳоконлиги давридаги ҳудудларида яшагани аён бўлади. Масалан, Шине-Усу битиктошида бу ҳақда шундай маълумот учрайди: «*ай бир отузқа қарлуқые эбин йўлытым. Йозра-Йарышда сусин анта санчтым. Эби он кун ўнгра уркун бармыш. Анта йана йорып тушдим.. бодуныма киртым. Ирлунта,*

Талақамынта йетдим — ойнинг йигирма биринчи кунда қарлуқларнинг кургини яғмоладим. *Йугра-Йариш* (*Йугра-Йариш* - ҳозирги Жунғория текислиги деб тахмин қилинади [16: 128]да қўшинини янчдим. Қароргоҳи ўн кун аввал қочиб кетган экан. Ўша ердан яна юриб, жойлашдим.. халқим орасига ораладим. Ирлун ва Талақамин (*Ирлун, Талақамин* - Жунғория текислигидаги манзил номлари бўлса керак, деб тахмин қилинади [16: 128, п. 530, 531]. Бизнингча, Талақамин топоними турк-муғул тилларида текислик, динг маъносида ишлатиладиган «тала» (дала) сўзи билан алоқадор бўлса керак.

Аз қабиласининг VI–VIII асрларда яшаган худудларига доир Кўл Тегин ил Билга хоқон битиктошларида куйидагича маълумотлар акс этган: «*Кўтман йер-суб идисиз қалмазун тейин, аз, қырқыз бодуныг итин йаратып келтимиз* — Кўтман ери-суви эгасиз қолмасин деб, аз ва қирғиз халқини тиклаб. тиргибга солиб келдик» [1: 20-21], [2: 16-17]. Бу ердаги *Кўтман* - ҳозирги Саян тоғи тизмаларидан бирининг номи. В. Томсен уни Танну-Ола ёки Саян тоғларидан бири, балки, ушбу икки тоғ ораллигидаги тизмалардан бирортаси бўлиши мумкин, деб тахмин қилади [18: 177, к. 24]. Л. Потапов, Тувадаги Биче-Баш дарёси ҳавзасидаги Саян-Олтой тоғларининг тизмаларидан бири ҳозир ҳам Кўтман номи билан юритилишини аниқлаган [6: 299].

Битиктошлардан маълум бўлишича, қирғизларнинг қўшниси бўлган аз уруғи Жанубий Сибирдаги бир катор мавзеларда яшашган. Жумладан, Кул Тегин битиктошида «*Аз бодун йағы болты. Қара-Кўлта сунғуидимиз* — Аз халқи ёв бўлди. Қора-Кўлда жанг қилдик» [19 2-3-сатрлар]. *Қора-Кўл* - бугунги Тувадаги Қора-Кўл билан битта жой бўлиши мумкин [20: 50].

Туноқуқ битиктошида ҳам азлар яшаган ўлка куйидагича кўрсатилади: «*Кўтман йолы бир эрмиш. Тумьши тейин эшидий; «бу йўлын йурысар йарамачы» - тедим, йерчи тиладим. Чўлги аз эри бултум. Ўзум аз йерим, Аны бич... эрмиш, бир туруқы эрмиш. Анын бармыш ангар йатып, бир атлыг бармыш тейин* — Кўтман йўли битта экан, беркилган деб эшитиб, «бу йўл билан юрса ярамайди» дедим. Ерчи суриштирдим. Чўллик аз йигитини топдим. Аз-масканим, уни бил.. экан, бир манзил бор экан, «Ани билан боргин, ўша ерда ётиб бир отлик (йўл) юриб боради» деди [8, 23-24-сатрлар]. *Ани* - ҳозир ҳам Хакасиядаги Абакан дарёсининг ўнг тармоқларидан бири Ани деб юритилади. У Саян тоғ тизмаларининг шимолида жойлашган [20: 59].

Кези келганда шунини ҳам айтиб ўтиш керакки, битиктошда азлар яшаган жой сифатида эслатилган Кўтман, Қора-Кўл ва Ани топонимлари ҳозиргача сиқланиб қолган. Жумладан, Л. Потапов Туванинг Биче-Баш дарёси ҳавзасидаги Саян-Олтой тоғларининг тизмаларидан бири ҳозир ҳам Кўтман номи билан юритилишини аниқлаган. Қора-Кўл эса Тувадаги Қора-Кўл билан битта жой бўлиши керак. Шунингдек, Енисей (Энасой) дарёсининг тармоғи бўлиши Абаканга қўшиладиган ирмоқ ҳозир ҳам худди шу ном билан, яъни Ани деб юритилади.

Ўрхун-Энасой битиктошларида учрайдиган ва топоним этнонимларнинг кўпчилиги ҳозирги кунгача этноним ва топоним тарзида сақланиб қолган. Бунинг мисолига ўзбек, қозоқ, қорақалпоқ, қорачой, болқор, крим татар, бошқирд ва Сибирдаги туркий халқлар; тува, хакас, олтой, шорлар таркибида мавжуд бўлган этнонимлар ҳамда Марказий Осиё минтақасининг Ўзбекистон, Қозоғистон, Қирғизистон, Туркменистон республикаларидаги жой номларида учратиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Кул Тегин битиктоши// Thomsen V. Orhon ve Yenisey yazıtların ilk ziyâmı.; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил
2. Билга хоқон битиктоши// Thomsen V. Orhon ve Yenisey yazıtların ilk ziyâmı. Ёл Bildiri. Зидымяу Орхун yazıtlarэ (Тьркзе терс. V. Кўкен). Ankara 1993, 140-165 б.; Orkun H. N. Eski Тьрк Yazıtlarэ. 56-73 б.; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т.: Ўқитувчи, 1982, 168 бет.
3. Кызласов Л. Р. История южной Сибири в средние века. М.: Изд-во Высш. шк., 1984.
4. Ѓимез S. Кўк Тьркзе каунакларда гезен Вауэркўлар. АЬ DTCF. Cilt 16. Sayэ 26, Аугэ басэм. Ankara, 1994.
5. Абдурахмонов, Рустамов, Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Т.: Ўқитувчи, 1982.
6. Потанов Л. П. Новые материалы о древних этнографических связях народностей Саяно-Алтайского нагорья//»Труды XXV Международного конгресса востоковедов» Т. III, М.: 1963
7. Потанин, 1881, -Потанин Г.Н. Очерки Северо-Западной Монголии. Вып. 1. СПб. 1881
8. Тўнюкўк битиктоши// Orkun H.N. Eski Тьрк Yazıtlarэ. 100-124 б.; Малов С.Э. Памятники древнетюркской письменности; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил.
9. Orkun H. N. Eski Тьрк Yazıtlarэ.; Малов С. Э. Памятники древнетюркской письменности. 1986.
10. Михев. Отчет о поездке в Северо-Западную Монголию и Урянхайскую землю. СПб.: 1910.
11. Обручев, 1948, Обручев В. А. Мои путешествия по Сибири. М-Л.: Изд-во АН СССР, 1948.
12. Ѓимез S. Кўк Тьрк Tarihi. Ankara, 1997.
13. Шине-Усу битиктоши//Orkun H. N. Eski Тьрк Yazıtlarэ.
14. Малов С. Э. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. М-Л.: АН СССР, 1959.
15. Потанин Г. Н. Очерки Северо-Западной Монголии. Вып. 1. СПб. 1881.
16. Ѓимез S. Кўк Тьркзе Yazэ Metinlerin Тьрк Tarihi ve Кьльтьь Азэсэндан Deperlendirilmesi. Doktora tezi, Ankara 1992.
17. Кызласов Л. Р. История южной Сибири в средние века. М.: Изд-во Высш. шк., 1984.
18. Thomsen V. Orhon ve Yenisey yazıtların ilk ziyâmı. Ёл Bildiri. Зидымяу Орхун yazıtlarэ (Тьркзе терс. V. Кўкен). Ankara 1993.
19. КТБ. Шимол.
20. Кызласов Л. Р. История Тувы в средние века. М.: Изд-во Моск-го Ун-та, 1969.



OLMOS SHAHARCHASI SHEVASIDA KELISHIK SHAKLLARINING QO‘LLANILISHI

Haydaraliyeva Yulduz

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Аннотация

O‘zbek dialektologiyasining dolzarb masalalaridan biri o‘rganilmagan shevalar leksikasi, fonetikasi va morfologiyasini o‘rganish hisoblanadi. Shu qatorda o‘zbek shevalarini leksik, morfologik va fonetik jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada Namangan viloyati Chust tumanidagi Olmos qishlog‘i dialektida kelishiklarning qo‘llanilishi xususida fikr yuritiladi.

Калит so‘zlar: *sheva, dialekt, lahja, qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi, Farg‘ona guruhi.*

Аннотация

Самая актуальная проблема современной лингвистики создание диалектного словаря узбекского языка. В статье анализируются диалектические падежи, используемые в диалекте жителей села Алмас Чустского района Наманганской области.

Ключевые слова: *падежи в диалекте, диалект, диалектология, словарь, диалектический словарь, лингвистика, литературный язык, Чустский район Наманганской области.*

Annotation

The main problem of the modern linguistics is a creation of dialectal dictionary of the Uzbek language. The article analyses dialectal cases used in Olmos village Chust district of Namangan region.

Key words: *dialect, dialectology, dictionary, dialectal dictionary, linguistic, Uzbek language, literary language, analyse, Chust district Namangan region.*

Ma‘lumki, sheva forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, odat, yo‘sin muvish kabi ma‘nolarni bildiradi. Shevalar o‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik bir qismi bo‘lib, o‘zining jug‘rofiy o‘rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. Masalan, o‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur guruhiga kiruvchi Toshkent, Andijon, Marg‘ilon, Jizzax, Urgut singari kichik tarmoqli shevalarni tashkil etadi [1: 30-31]. O‘zbek shevalari, asosan, 1920–1930-yillardan boshlab ilmiy asosda o‘rganila boshlandi va shu asosda uning dastlabki tasniflari paydo bo‘ldi. Professor I.I.Zarubin, professor K.K.Yudaxin, professor G‘ozi Olim Yunusov, professor V.V.Reshetovlar tomonidan shevalarimizni tasnif qilish bo‘yicha qilgan ilmiy ishlarni keltirish mumkin [2: 32-33]. Professor I.I.Zarubinning o‘zbek shevalari yuzasidan qilgan tasnifi shevalarimizning ilk tasniflaridan biri sifatida quyidagilardan iborat:

- 1) Xiva guruhi;
- 2) Farg‘ona guruhi;

- 3) Toshkent guruhi;
- 4) Samarqand-Buxoro guruhi.

-n, l, r kabi jaranglilardan keyin kelsa **-di** shaklida talaffuz qilinadi:

Nonni olib kel — **Non̄di apke**:

Gulni uzma — **Gul̄di uzma**

Xabarni oldim — **Xabar̄di oldim**

-m undoshidan keyin kelganda **n** tovushi tushib qolib, uning oʻrniga **m** tovushi ikkilangan holatda aytiladi. Qisman dissimilatsiya hodisasi yuzaga keladi:

Qizim, gilamni yuvib qoʻy — **Qiz̄im gilam̄ni juppoj**.

-ning qaratqich kelishigi shakli tushum kelishigi qoʻshimchasi **-ni** bilan deyarli farqlanmaydi va bu kelishik qanday oʻzgarishlarga uchrasa, qaratqich ham xuddi oʻshanday qoʻllanadi.

Margʻilonning mevasi — **Margʻil̄bandi mev̄di**

Joʻnalish kelishigi **-ga, -ka, -qa** suffikslari oʻzidan oldin kelgan jarangli yoki jarangsiz tovushlar taʼsirida baʼzan oʻzgarishga uchraydi. Koʻp oʻrinlarda, **-ga** soʻzga qoʻshilganda oʻzidan oldingi baʼzi jaranglilarni jarangsizga aylantiradi.

Maktabga bordim — **mak̄tabka bordim**

Tutkoʻchatga olib bordim — **Tutkōchatka d̄bordim**

-da oʻrin-payt kelishigi koʻp hollarda **-ta** tarzida aytiladi. Agar bu suffiks jarangli **d** tovushidan keyin kelsa **-ta** tarzida talaffuz etiladi.

Toshkentda yangi binolar qurilyapti. — **Tāshkentta j̄d̄gi bi: no: id: qur̄ilvatti**

Men Olmosda yashayman — **Men Ol̄mosda j̄d̄yajma**.

-dan chiqish kelishigi shakli baʼzi bir jarangli va jarangsiz tovushlardan keyin qoʻllanilganda **-tan** tarzida aytilib, jaranglilashadi. Koʻp hollarda esa adabiy tildagidan farqlanmaydi.

Hayotdan oʻrgandim — **haȳotdan orḡandim**.

Oʻqituvchi kitoblardan koʻchirib yozishimizni aytdi — **Oxtu: ni kit̄optan kōchir̄p j̄oz̄il̄im̄m̄iz̄di aj̄tti**.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabov N. Oʻzbek shevashunosligi, –T.: Oʻqituvchi, 1996.
2. Ashurbayev S. Oʻzbek dialektologiyasi. –T., 2011.
3. Enazarov T.J., Karimova V.A., Ernazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S. Oʻzbek dialektologiyasi. –T.: Universitet, 2012.
4. Toʻychiboyev B., Hasanov B. Oʻzbek dialektologiyasi. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.



XX ASRDA O'ZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING O'RGANILISHI HAQIDA

Hayitova Munisa

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Аннотация

В этой статье взгляды ученых на фразеологию обобщены в библиографии. Рассматриваются фразеологические единицы и их проблемные ситуации. Фразеологическая полисемия, фразеологическая синонимика, фразеологическая вариация, фразеологическая антонимия, фразеологическая омонимия и размышления, которые необходимо решать в будущем.

Ключевые слова: Фразеологическая полисемия, фразеологическая синонимика, фразеологическая вариация, фразеологическая антонимия, фразеологическая омонимия

Annotation

In this article, the views of scientists on phraseology are summarized in bibliography. The phraseological units and their problematic situations are addressed. Phraseological polysemy, phraseological synonymy, phraseological variation, phraseological antonym, phraseological tolerance, and reflections that need to be addressed in the future.

Key words: phraseological polysemy, phraseological synonymy, phraseological variation, phraseological antonymia, phraseological tolerance

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasi 50-yillardan boshlab mustaqil soha sifatida shakllana boshladi. Bunda Shavkat Rahmatullayev, Y.Pinxasov, E.Umarov, I.Qo'chqortoyev, M.Husainov, M.Ro'ziqulova, M.Sodiqova singari olimlarning xizmati kattadir.

H.Berdiyorov va B.Yo'ldoshevlar o'zbek frazeologiyasidan materiallar to'plash ishlari bilan shug'ullanishgan. Bu «O'zbek frazeologiyasidan materiallar» nomli o'quv qo'llanmaning birinchi qismi 1976-yilda, ikkinchi qismi 1979-yilda e'lon qilingan. Qo'llanmada «d» harfi bitan boshlanuvchi frazeologizmlar alifbo tartibida keltirilgan bo'lib, ularning o'zaro variantdoshlik, sinonimlik, omonimlik xususiyatlari aniqlangan hamda ularning har bir ma'no qirrasini izohlanib, o'sha ma'no qirrasiga mos holda misollar berilgan.

Agar 1950-yilgacha o'zbek tilining frazeologizmlari, asosan, ruscha-o'zbekcha o'zbekcha-ruscha tarjima lug'atlarida o'z ifodasini topgan bo'sa, keyingi 20 yil ichida o'zbek frazeografiyasi frazeologik lug'atlar tuzish sohasida muayyan tajriba to'pladi, bunday lug'atlarning 10 dan ortiq turi yaratildi.

1. **Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'atlar.** Bu tipga M.Sodiqovanning «Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'ati» (1972), N.M.Shanskiy, Y.A.Bistrova hamda T.Aliqulovlarning «Rus tilidagi 700 frazeologik ibora» (1982) nomli asarlarini kiritish mumkin. Masalan, M.Sodiqovanning lug'atida 5 mingga yaqin

runcha frazeologik ibora o'zbek tiliga tarjima qilingan, lug'at maqolalari badiiy adabiyotlardan olingan materiallar bilan boyitilgan.

N.M.Shanskiy lug'ati esa alifbo tartibida tuzilgan, frazeologizmlarni tashkil etuvchi komponentlarning urg'usi ko'rsatilgan, so'z tartibi o'zgarishi mumkin bo'lgan frazeologik iboralarda, komponentlarda qanday qo'llansa, o'sha holatda tanqisib etilgan. Bu lug'atda frazeologik iboraning turli morfologik formalari ham bir lug'at maqolasi ichida berilgan. Masalan, «ноги твоей не будет» iborasining «ноги его не будет», «ноги её не будет», «ноги вашей не будет» variantlari keltirilib, «endi qadam bosmasman», «yelkamning chuquri ko'rsin» tarzida tarjima qilingan.

2. Bir tili frazeologik lug'atlar. O'zbek frazeografiyasida shu kungacha o'zbek filining quyidagi xarakterdagi frazeologik lug'atlari yaratildi.

Sh.Shomaqsudov, S.Dolimovlarning asarida turli tabaqa, kasb vakillari orasida qo'llaniladigan 3 mingga yaqin ibora alifbo tartibida keltirilib, ularning etimologiyasi izohlangan.

Professor Sh.Rahmatullayev tuzgan lug'atlarda iboralar alifbo tartibida joylashtirilgan. Asar kirish qismida muallif iboralarning semantik tabiati, frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik omonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik paronimiya, iboralarda variantlanish, iboralarning sintagmatik va paradigmatic qurshovi kabi qator masalalarni yoritishga intilgan. Bundan tashqari iboralarga izoh va sharhlar badiiy asarlardan keltirilgan misollar bilan mustahkamlangan. Masalan, «bag'ri tosh» iborasi «bemor, iltifoti yo'q» tarzida izohlangach, iboraning «bag'ri qattiq», «tosh bag'ir» shakli variantlari, «mehri tosh» sinonimi, «ko'ngli qattiq», «qattiq ko'ngil» kabi analoglari keltirilgan. Iбора ma'nosini ochishga xizmat qiluvchi misollar O'G'ulom, Sh.Rashidov, Hakim Nazir asarlaridan tanlangan.

3. Yozuvchi asarlarining frazeologik lug'ati. Bunday turdagi frazeologik lug'atning yagona namunasi hozircha Ergash Umarov tomonidan yaratilgan va 1971-yilda professor S. N. Ivanov tahriri ostida «Фраzeологический словарь «Хивойин ул-маоний» Алишера Навои» degan nomda nashr etilgan. Alisher Navoiy asarlaridan olingan lug'at ham rus tiliga tarjima qilingan.

Frazeologiya tilshunoslik fanining mustaqil sohasi deb tan olindi. Hali ham frazeologiyaning hajmi, o'rganish obyekti masalasi atrofida munozara bo'lib turganiga qaramay, olimlar frazeologik boylikni turli nuqtalardan yondashib o'rganishni davom ettirmoqda.

Frazeologik birliklardagi polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, omonimiya hodisalarini o'rganmay turib, lug'aviy birlik sifatida iboralarning boshqa belgi xususiyatlarini tekshirishga kirishib bo'lmaydi.

Frazeologik polisemiya. Dastlab lug'at tuzish mobaynida duch kelindi. L.L.Binovich frazeologik polisemiya hodisasi mutlaqo o'rganilmaganini ta'kidlaydi, rus va nemis tillari frazeologik fondini o'rganib, ko'p ma'nolilik so'zlargagina emas, iboralarga ham xos ekanini ta'kidlaydi. Frazeologik polisemiya haqida fikr yuritgan olimlardan yana biri Apresyandir. U frazeologik sinonimiyani

o'rganish frazeologik polisemiya tufayli ancha murakkablashuvini alohida ta'kidlaydi. Ingliz tilida frazeologik birliklarning ko'pchilik qismi polisemantik ekanini aytadi.

Lug'at materialining ko'rsatishicha, frazeologik birliklarning 85% monosemantik, qolgan 15% iboralarning ko'pi 2 ma'nolidir.

Adi-badi aytishmoq¹:

- 1) turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashmoq;
- 2) so'z talashmoq, janjallashmoq;

Yon bosmoq:

- 1) homiylik qilmoq, yoqlamoq;
- 2) ustun bo'lishga yo'l qo'ymoq.

Yomon ko'rmoq:

- 1) sevmaslik, izzat-hurmat qilmaslik;
- 2) yoqtirmaslik (nimani yoki kimni);
- 3) sevmaslik, oshiq bo'lmaslik.

O'zini qayerga qo'yishni bilmaslik:

- 1) kuchli hayajonlangan holda toqatsizlanmoq;
- 2) bekorchilikdan zerikib toqatsizlanmoq;
- 3) sevinchdan kuchli hayajonlanmoq.

Bosh ko'tarmoq:

- 1) qaramoq;
- 2) qilib turgan ishini to'xtatmoq;
- 3) qo'zg'almoq, harakatga kelmoq;
- 4) sog'aymoq;
- 5) kurashga chog'lanmoq;
- 6) unib chiqmoq.

Frazeologik sinonimiya. Bu ko'pgina tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga tortgan masala. «Sinonimiya» terminini frazeologik birliklarga nisbatan birinchi A.V.Kunin tatbiq etgan deyish mumkin.

Frazeologik sinonimiya bo'yicha birinchi bo'lib Apresyan kandidatlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Sh. Rahmatullayev Y.D.Apresyaning sinonimlarni to'liq va qisman deb guruhlashiga qo'shilmaydi. Bunday guruhlash sinonimiyani polisemiyaga tobe qilib qarash natijasidir.

Shelyarov esa frazeologik sinonimiyaga umumtil hodisasi sifatida yondashadi. Muallifning maqsadi frazeologik birliklarning sinonimiya lug'atini tuzish bo'lib, o'zining nazariy birliklarini shu maqsadga yo'naltiradi va maqolasining oxirida lug'at namunasini ham keltiradi.

A.P.Xazanovichning maqolasi nemis tilining frazeologik sinonimlarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda frazeologik sinonimiya ta'riflanadi.

L.M.Vasilevning maqolasi asli sinonimiya nazariyasiga bag'ishlangan. Shu sababli juda ko'p o'rin sinonimiyaning tabiatini aniqlashga ajratilgan. Bu muallifning «sinonimiya» va «sinonimika» atamalarini farqlab ishlatish tarafdori.

Leksik sinonimiyada bir uyaga ikkitadan tortib o'ntagacha, ba'zan o'ntadan ham ortiq sinonim birlashadi. Frazeologik sinonimiyada bir uyaga eng ko'pi 5 ta ibora (frazeologik ma'no) birlashuvini aniqladilar: futur yetdi–futur yetkazmoq–halal yetdi–halal yetkazmoq–zarar yetkazmoq–zarari tegdi–zarar keltirmoq.

8 tadan sinonimiya uyasida 4 tadan ibora (frazeologik ma'no) birlashadi²: achchig'i keldi–achchig'ini keltirmoq–qoni qaynadi–qonini qaynatmoq–g'azabga keltirmoq–achchig'i qistab ketdi kabi.

37 ta sinonimiya uyasida 3 tadan ibora (frazeologik ma'no) birlashgan: g'ashi keldi–g'ashini keltirmoq–g'ashiga tegmoq–asabiga tegmoq

Frazeologik variatsiya. Bir-biriga o'xshash ikki qurilishni ikkita ibora deb yoki bir iboraning ikki varianti deb qarash atrofida turli manbalarda turlicha fikrlar bayon qilingan.

Bir iboraning variantlarini sinonim iboralar deb qarashni aks ettiruvchi asar matnida A.V.Kunin maqolasini ko'rsatish mumkin.

Frazeologik birliklarning variantlarini sinonim iboralardan farqlashga bog'ishlangan maxsus maqolalardan yana biri Lyando tomonidan e'lon qilingan.

Variantlarning o'zaro nimada farq qilishini N.M.Shanskiy juda qisqa, lekin to'g'ri ko'rsatadi. Farqlanishni dastlab uch jihatdan belgilaydi: leksik sostavda, strukturada, stilistik bo'yoqda. So'ng grammatik tobe so'zning morfologik formasida farqlanishga, aniqlovchi vazifasida boshqa-boshqa so'z kelishi bilan farqlanishga, to'liq va qisqargan holda ishlatilish asosidagi farqlanishga misollar berrdi.

Ko'ngil so'zi yurak so'zi bilan almashadi: ko'ngli g'ash tortdi va yuragi g'ash tortdi; ko'ngliga quloq solmoq va yuragiga quloq solmoq.

Mijja so'zi kiprik so'zi bilan almashadi: mijja qoqmaslik va kiprik qoqmaslik.

Nog'ora so'zi childirma so'zi bilan almashadi: nog'orasiga o'ynamoq va childirmasiga o'ynamoq

Sifat turkumiga mansub so'zlar almashadi: kayfi chog' va kayfi xush.

Umumnutq so'zi rasmiy nutqqa xoslangan so'z bilan almashadi: bo'yniga tushmoq va zimmasiga tushmoq

Qo'l so'zining yasama ma'nolaridan biri barmog so'zi bilan almashadi: qo'lini bigiz qilmoq va barmog'ini bigiz qilmoq

Ham ma'noda, ham nutqiy stilistik belgida farq qiladi: yuragiga vahima solmoq va ko'ngliga vahima solmoq.

Frazeologik antonimiya. Antonimlarning iboralar orasida ham borligi antonim terminini kengroq tushunishni talab qiladi. Shunga ko'ra so'zlar ibora bo'lsa, leksik-frazeologik antonimiya deb atash o'rinlidir.

Masalan, ko'ngli yorishdi, ko'nglini yoritmoq – ko'ngli xira bo'ldi, ko'nglini xira qilmoq, ko'nglini g'ashlamoq; obro'yini ko'tarmoq, obro'yi oshdi — obro'yini to'kmoq, obro'yi tushdi.

Leksik antonimlarda ularning shaklan har xil bo'lishi ta'kidlanadi. Antonimlar boshqa-boshqa so'z bo'lishi mumkin.

1) Barcha komponentlari o'z muqobili bilan antonim so'z iboralar: **savol bermoq — javob qaytarmoq**;

2) Bir komponenti o'z muqobili bilan antonim iboralar: **yerga urmoq — ko'kka ko'tarmoq; o'zidan ketmoq — hushiga kelmoq**;

3) Bir komponenti o'z muqobiliga antonim, boshqa komponenti ma'no munosabati hosil etmaydigan iboralar: **istarasi issiq — so'xtasi sovuq** kabi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so'zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson:

savol bermoq va javob qaytarmoq;

yerga urmoq va ko'kka ko'tarmoq.

Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so'z komponentlari, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so'z komponentlari o'zaro antonim sanaladi.

Yuqorida frazeologik birliklar va ulardagi muammoli vaziyatlarga to'xtalib o'tdik. Bunday vaziyatlar haqida ko'plab olimlarimiz o'z fikrlarini bildirganlar. Bugungi o'zbek tilshunosligi o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan. Tadqiq qilingan masalalar ham o'zining yangi talqinini kutmoqda. Shunday ekan, biz ham aynan frazeologik birliklar, ya'ni o'zbek va turk tilidagi iboralarining shakliy va ma'noviy qiyofasi mavzusi ustida ishlashni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бердиев Х, Расулов Р, Юлдашев Б. Узбек фразеологиясидан масалалар. — Самарканд, 1983.
2. Рахматуллаев Ш. Узбек фразеологиясининг баъзи масалалари. — Т., 1966.
3. Рахматуллаев Ш. Узбек тилининг фразеологик лугати. — Тошкен., 1992.



TURKIY XALQLARDA ALIFBO MASALASI: O'ZBEK VA QOZOQ LOTIN YOZUVI MISOLIDA

Mahkamova Dilafruz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotsiya

Maqolada lotin alifbosining kirill alifbosiga nisbatan o'zbek tili tabiatini to'liqroq aks ettira olishi, ayrim tovushlarning o'ziga xos jihatlari, punktuatsion xususiyatlari, lotin grafikasi asosida tuzilgan yangi qozoq alifbosi bilan o'zbek lotin alifbosining o'ziga xos va mushtarak jihatlari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek lotin alifbosi, qozoq lotin alifbosi, qadimgi turkiy til, yozuv, imlo.

Annotation

In the article the Latin alphabet's ability to reflect the nature of the Uzbek language relative to the Cyrillic alphabet, the peculiarities of some sounds, the punctuation features, the new Kazakh alphabet based on the Latin alphabet and the specific features of the Latin alphabet were highlighted.

Key words: Uzbek latin alphabet, Kazakh latin alphabet, ancient Turkic language, inscription, spelling.

Til har doim o'z xususiyatlarini yozuvda aks ettiradi. Yozuv va til ma'lum yozuv shaklining ko'plab xalqlarga tez sur'atda tarqalishini emas, balki umumxalq tili, ya'ni dialektlararo muloqot vositasi yozma shaklini olgan holatni ifodalaydi. Bu o'rinda alifbo, imlo va uning punktuatsiyasi katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu sohada ko'plab olimlar izlanishlar olib bordi. Ilk bor Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida bu sohaga doir ko'plab ma'lumotlarni keltirdi. O'zbek tilshunos olimlaridan Abdurahmonov G., Rustamov A., Rahmonov N. kabi olimlar yozuv va alifboning qadimgi shaklini tahlil qilishdi. Hozirgi imlo bo'yicha A.Rafiyev, Sh.Rahmatullayev, S.Otamirzayeva, M.Yusupova tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Jahon olimlaridan A.S.Amanjolov, A.N.Kononov, L.L.Kizlasovlar ham bu sohada izlanishlar olib borishdi.

Qadimgi turkiy til Markaziy Osiyo, Yevroosiyo, Yevropa hududlarida qadimdan amalda bo'lib kelgan. Qadimgi turkiy til faqat turkiy yozma yodgorliklar yaratilgan davrdan- milodiy V asrdan amalda bo'lib qolmagan. Yozma adabiy til paydo bo'lgunga qadar qadimgi turkiy til og'zaki shaklda mavjud edi [1: 5]. Tilshunos olim A.N.Baskakov turkiy tillarni quyidagicha davrlashtiradi: 1. Olttoy davri; 2. Xun davri(miloddan ol. V asrdan milodiy Vasrgacha); 3. Qadimgi turk davri (V-X asrlar); 4. O'rta turk davri (X–XVasrlar); 5. Yangi turk davri (XV–XX asrlargacha); 6. Eng yangi davr (XX asr boshlaridan bugungacha) [1: 17]. Olttoy tillar guruhiga kiruvchi turkiy tillar unililar garmoniyasining borligi, grammatik rodning yo'qligi, artiklning yo'qligi, tilning agglyutinativ qurilishga egaligi, predloglar o'mida ko'makchilarning kelishi va yana ko'plab xususiyatlari bilan mutanosibdir.

Qadimgi turkiy til o'z yozuviga ega bo'lgan, bu tilga mansub yodgorliklar bizgacha hatto bir nechta alifboda yetib kelgan. Shu qadimgi turkiy tilning yonlaridan hisoblanuvchi o'zbek tiliga keyinchalik uch alifbo: bir necha marta o'zgartirib foydalanilgan arab alifbosi, lotin alifbosi va rus (kirill) alifbosi xizmat qildirildi.

Turkiy xalqlar, xususan, o'zbek xalqi ham qadimdan o'z yozuviga ega bo'lgan. U shimolda qadimgi xorazmiy yozuvidan. markaziy va sharqiy hududlarda qadimgi uyg'ur yozuvidan, qisman oromiy yozuvidan foydalangan. VIII asrdan boshlab islom dini bilan arab yozuvini qabul qilgan. O'n bir-o'n ikki asrlik ilmiy, badiiy va ma'naviy boyliklar shu yozuvda bitilgan [2: 9]. Arab alifbosi asrimizning 20-yillari oxirigacha amal qildi.

O'tgan asrning 30-yillariga qadar hali jadidlar — o'zbek, qozoq va boshqa mahalliy xalqlar ziyolilari ozmi-ko'pmi, kuch va nufuzga sazovor edi. SSSRga

qadar arab xati barcha turkiy xalqlarning tilini birlashtiruvchi muhim omil sanalar edi. Negaki, arabcha harflarda turli lahja va shevalarga xos matnlar deyarli bir xil shaklda yozilar, bu turk tilli xalqlar bir-birini tushunishini osonlashtirar edi. Birinchi modernistlar bo'lmish jadidlar lotin xatining bundan-da afzalroq ekanini tushunishdi; birlamchi, lotin yozuvidagi turk tili dunyoga yaqinlashadi, ikkilamchi, barcha turk tillari va lahjalari uchun yagona alifbo yoki juda yaqin lotincha tizimlarning ishlab chiqilishi natijasida turk ellari bir-birini tushunishda davom etardi. Ana shu g'oyalarga yetishish ilinjida turk xalqlari birin-ketin lotin yozuvi asosidagi alifbolarni ishlab chiqa boshlashdi [8: 16-son].

O'zbekistonda 1929-yilda lotin yozuviga o'tildi. Unda 9 ta unli bo'lib, o'zbek adabiy tilida amaldan chiqib, faqat shevalardagina saqlangan singarmonizm hodisasini ham aks ettirishga mo'ljallangan. 1934-yilda bu yozuv yana isloh qilindi. Keyin sobiq ittifoq miqyosida o'zbeklar ham 1940-yildan boshlab rus (kirill) alifbosiga o'tkazildi. Kirill alifbosida 35 ta shakl mavjud bo'lib, shundan 33 tasi harf, ikkitasi belgi (ъ-yumshatish va ъ-ayirish) edi. Shu alifbo asosidagi imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan. Lekin bu yozuv slavyan tillariga mo'ljallangan bo'lib, o'zbek tili uchun ortiqcha harflar (и, е, ё, я) va o'zbek tilining o'ziga xos fonemalarini aks ettirmagan edi. Bir tovushni ifodalaydigan ikki harf birikmasi orqali (hr), ikki fonema uchun bir harf (ж) yozish bilan ifodalangan edi. Juda qisqa vaqt 20-25 yil oralig'ida alifbo ikki marta almashtirildi.

Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligini, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishidir. So'zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yakdillikka, ma'naviy jipslikka yetaklaydi. Shuning uchun har bir xalq o'z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi. O'zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda «O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish to'g'risida», 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qarorlar qabul qilindi. 1994-yil 6- va 7-iyulda «Xalq so'zi» va «Ma'rifat» gazetalarida orqali «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» loyihasi keng jamoa muhokamasiga qo'yildi. 1995-yil 24-avgustda «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida»gi qaror qabul qilindi. Lotin yozuviga o'tish va shu yozuvda imloning ifodalanishi o'ziga xos qulayliklar yaratdi. Olimlarning fikricha, lotin grafikasi kirill yozuviga nisbatan o'zbek tili tabiati uchun mosroq hisoblanadi. 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qarorga ko'ra o'zbek lotin alifbosidagi harflar quyidagicha belgilangan:

Bosma	Talaffuzi	Bosma	Talaffuzi
A a	a	Q q	Qe
B b	be	R r	Er
D d	De	S s	Es
E e	e	T t	Te
F f	ef	U u	U
G g	Ge	V v	ve

H h	[he]	X x	[xe]
I i	[I]	Y y	[Ye]
J j	[Je]	Z z	[ze]
K k	[Ke]	O* o*	[o*]
L l	[el]	G* g*	[g*e]
M m	[Em]	Sh sh	[she]
N n	[en]	Ch ch	[che]
O o	[O]	Ng	[Nge]
P p	[pe]		

1995-yil 24-avgustda «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida»gi qaror 82 banddan iborat bo‘lib, quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:
 - a) Unlilar imlosi (1–7-bandlar);
 - b) Urdoshlar imlosi (8–32-bandlar).
2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33–37-bandlar).
3. Qo‘shib yozish (38–50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51–56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57–66-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66–74-bandlar).
7. Ko‘chirish qoidalarini (75–82-bandlar).

O‘zbek-kirill alifbosi o‘zbek adabiy tilidagi tovushlarni to‘liq aks ettira olmadi. Rus (slavyan) yozuvi o‘z mazmun-mohiyati bilan rus adabiy tilining fonetik tizimini to‘liqroq aks ettirishi mumkin. 1940-yilda kirillcha yozuvga o‘tilganda esa milliy tilimiz xususiyatlari emas, balki ko‘proq rus tilining manfaati, aniqrog‘i, ruscha so‘zlarning shaklini saqlab qolish hisobga olingan. Masalan, «yolashgan unlilar» deb nomlanuvchi **е, ё, ю, я** va **ц** harflari, yumshatish (**ь**) va ayirish (**ъ**) belgilarining o‘zbek yozuviga ko‘r-ko‘rona ko‘chirib o‘tkazilgani fikrimizni to‘liq tasdiqlaydi. Hatto alifbo tartibi rus-slavyan yozuvi tartibida ekani, sof o‘zbekcha tovushlarni ifodalovchi **o*** (til orqa, lablangan, o‘rta keng unli) {**ö**}, **q** (jarangsiz, chuqur til orqa, portlovchi, shovqinli undosh){**к**}, **g*** (jarangli, chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, shovqinli undosh) {**г**}, **h** (jarangsiz, bo‘g‘iz undoshi, sirg‘aluvchi undosh){**х**} harflarining alifbo oxiriga tirkab qo‘yilgani ham kirillcha alifboning rus yozuviga naqadar qaramligidan darak beradi [3: 8]. Darhaqiqat, alifbo o‘sha tilning muhiti, tabiati, tarixiy taraqqiyot natijasida hozirgi kundagi ko‘rinishi va xalqning talaffuz me‘yorlari bilan hisoblashgan holatda yaratiladi. Lotin alifbosi hech qanday «yumshoqlik» va «qattqlik» xususiyatiga ega bo‘lmagan o‘zbek tili tabiati uchun mos. Alifbodagi mukammallik imlarning to‘g‘ri va oson o‘rganilishini ta‘minlaydi, chunki alifboni almashtirish imlo qoidalarini ham yangilashni taqozo etadi.

Yangi imlo qoidasida ham ruscha «ism + ota ismi + familiya» tizimi o‘rmini «ism + ota ismi» tizimini olish nazarda tutildi. Bu jarayonga o‘quvchini o‘rgatishda, familiya yozishda turli-tuman kamchiliklar uchragani bois uzoq yillar davom etdi va shuning uchun familiya va ota ism bildiruvchi qo‘shimchalar unli bilan tugagan

kishi otlariga -yev (-yeva), -yevich (-yevna), undosh bilan tugagan kishi otlariga -ov, (-ova), -ovich (-ovna) shaklida qo‘shiladi [4: 35]. Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi: nega imlo rus imlosi nusxasi asosida tuzilishi kerak? Nega ona tilimizga kirib kelayotgan so‘zlar aynan rus tili orqali kirib kelishi kerak? Rus talaffuzida qanday aytilsa, shu til uchun to‘g‘ri me‘yor hisoblanadimi? Bu savollarga javob rus alifbosi va tili ona tilimizga chuqur ta‘sirini o‘tkazganidadir. Bu holat imlodagi ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Masalan, imlodagi rus tilidan kirib kelgan «ю» harfi o‘zlashgan ba‘zi so‘zlarda bu harf yumshoq undoshlardan so‘ng lablangan «y» tovushini o‘zbekcha talaffuzda beradi. Biroq rus tilidan o‘zlashgani bois bu tovushni aynan «y+u» tarzidami yoki «u» tarzida yozish muammosi paydo bo‘ladi.

Yangi o‘zbek alifbosida bu holat bitta harf «u» bilan yozilishi kerak. Бюджет- budjet, парашют- parachut, целлюлоза- selluloza kabi [5: 8]. Bu holat barcha «yolashgan» unilalar bilan bog‘liq o‘zlashgan so‘zlarda kuzatiladi. Lotin yozuviga tarjima qilish orqali o‘zlashgan o‘zlashma so‘zlarning aksariyati aynan rus tili orqali kirib keladi: полавтомат- yarimavtomat, подвода- suvosti, передпраздник- bayramoldi. Biroq bu tarjima o‘zbek tilida to‘liq ma‘no ochib bera olmaydi. Bu so‘zlarni xalq qabul qilib talaffuziga moslashgani uchun ularni endilikda boshqa bir o‘zbekcha muqobiliga aylantirish o‘rinsiz. Chunki xalq yangi muqobil variantni qabul qilmasligi tabiiy. Biroq kundan kunga shiddat bilan rivojlanayotgan axborot- texnologiyalar zamonida endi kirib kelayotgan, hali xalq o‘zbek tilida ma‘nosi to‘liq ochib berilmagan so‘zni qabul qilmasdan avval muqobil variant yaratish o‘rinli. Buning uchun tilshunoslardan davrdan bir qadam oldinda yurishi, yaratilayotgan innovatsion texnologiyalar haqida oldinroq ma‘lumotga ega bo‘lishi talab etiladi.

Lotin yozuvidagi yangi o‘zbek alifbosini o‘rganish jarayonida imlodagi to‘g‘rilikni ta‘minlash maqsadida talaffuzga e‘tibor berish lozim. Kirill alifbosida «h» (jarangsiz, bo‘g‘iz undoshi, sirg‘aluvchi undosh) {x} va «x» (jarangsiz, chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, shovqinli undosh) {x} deyarli bir-biriga o‘xshash tovushlardan tarkib topgan edi. Lotin alifbosida bu tovushlar farqli yozilsa-da, talaffuzda noto‘g‘ri istifoda etish imloviy xatolikni keltirib chiqaradi. Tilshunos olim H.Jamolxonovning ta’kidlashlaricha, «h» undoshi bilan yoziladigan so‘zlar tilimizda 1500 dan ko‘proq, xolos. Bu harflarni farqlashda har birining tovush sifati, alifboda ifodalanishiga ko‘ra farqlash ahamiyatga ega.

Masalan, «x» harfi rus yoki ingliz alifbolarida tamoman boshqa tovushlarni ifodalaydiki, alifbomizdagi ayni harfning o‘shanday o‘qilishi qo‘pol xatolarga olib keladi. «x» harfi o‘zbek tilida tilning nisbatan orqaroq qismida hosil bo‘ladigan sirg‘aluvchi, jarangsiz tovushni ifodalashga xizmat qiladi. Chuqur til orqa undoshi bo‘lgani uchun ham sezilarli darajada qattiq talaffuz qilinadi. Bu harfning yozilishi har jihatdan kirill alifbosidagi shakliga monand. O‘zbek tilida «x» undoshi «e» dan boshqa barcha unilalar bilan yonma-yon kelib, doimo qattiq talaffuz qilinadi va shunga ko‘ra hech qachon tushib qolmaydi: Xato, xon, paxta, uxla kabi.

«h» harfi bo'g'izda hosil bo'ladigan, sirg'aluvchi, jarangsiz tovushni ifodalaydi. Bu undosh «x» dan yanada quyiroqda, ya'ni bo'g'izda talaffuz qilingani uchun ham bo'g'iz undoshi deyiladi. «e» harfidan so'ng yopiq bo'g'izda doimo «h» ishlatiladi: ehtirom, ehtiyot, ehtiros kabi. «h» yumshoq aytilgani bois talaffuzda tushib qolishi mumkin: muhabbat-muabbat, fahm-fam kabi. Jarangli undosh bilan tugagan yopiq bir bo'g'inli so'zlarda «h» yoziladi: ahd, bahs, vahm kabi [5: 8]. H va x tovushlarini farqlamaslik o'zbek tilining talaffuz me'yorida asrlar davomida shakllangan va o'xshash ko'rinsa-da, boshqa-boshqa tovushlarni aks ettiruvchi fonemalarning o'rinsiz ravishda xato qo'llanilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu kabi imloviy xatolarni oldini olish maqsadida, bugungi rivojlanayotgan axborot-texnologiyalari zamonida, turli so'z o'yinlari bilan bog'liq mobil yoki kompyuter o'yinlarini o'zbek tilida yaratish, televideniya va ommaviy axborot vositalarida imlo bilan bog'liq teleko'rsatuvlar, qisqa metrajli qiziqarli hamda foydali, lison bilan bog'liq filmlar yaratish, o'quv dargohlaridagi devoriy gazetalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yozuvning takomillashishi natijasida tinish belgilariga zarurat paydo bo'ldi. Shubhasiz, kirill yozuviga o'tilishi rus imlosi bilan birgalikda o'zbek yozuvi va punktuatsiyasi taraqqiyotiga ta'sir o'tkazdi. Yozuvning bir qismini tashkil etuvchi tinish belgilari sistemasi va ularni qo'llash qoidalari o'tgan asr o'rtalaridayoq ishlab chiqilgan edi, biroq yozuvning o'zgarishi til-tuhunosligimizda mavjud punktuatsion muammolarni o'zbek tilining mental xususiyatlaridan kelib chiqib isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi.

Yozuv o'zgarishi bilan punktuatsiya taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Arab yozuvida bosh harflar, tinish belgilarining yo'qligi, til nuqtayi nazaridan ehtiyoj bo'lsa-da, shu alifboga asoslangan o'zbek yozuvida ham tinish belgilarini qo'llashga to'sqinlik qildi. XIX asr oxirlaridan kirill, lotin yozuvlarining ta'sirida o'zbekcha matnlarda ayrim tinish belgilari ishlatila boshlangan: nuqtali vergul, so'roq belgisi, vergul arab yozuvi talabidan kelib chiqib teskari holatda qo'llangan, keyinchalik lotin yozuvi joriy etilishi bilan hozirgi holatiga o'ta boshlagan [7: 157-160].

Yozuv murakkab optik-grafik tizim bo'lib, manbalarda u quyidagicha guruhlab o'rganiladi:

1. Markaziy, asosiy belgilar - harf (fonografema), tinish belgilari (prosodemografema).

2. Qo'shimcha belgilar — raqamlar, ilm-fanning ma'lum sohalarida qabul qilingan maxsus ideografik simvollar (logografemalar), chiziqcha, apostrof (tutuq belgisi) kabi orfografik belgilar, signalizatorlar, kompyuter lingvistikasi taraqqiyoti bilan bog'liq boshqa tillardan o'zlashayotgan son-sanoqsiz tipografik va turli diakritik belgilar.

Olimlarning fikricha, dunyodagi birorta ham alifbo mukammal alifbo oldiga qo'yiladigan talablarga to'liq javob bermaydi, ularda turlicha nuqsonlar mavjud. Masalan, ingliz tilida 44 tovush (fonema), fransuz tilida esa 35 tovush bo'lgani

holda ularning alifbosidagi harflar miqdori 26 ta. Demak, tovush va harf mutanosibligi mavjud emas [3: 8]. Bu, shubhasiz, orfografiyani takomillashtirish zarurligini taqozo etadi. Ko'p hollarda til o'z xususiyatini to'liqroq aks ettirgan alifboda namoyon bo'lishi shu tilning imlo me'yorlarini to'g'ri tashkillashtirishga imkon yaratadi. Xususan, shu jihat lotin grafikasiga o'tgan qozoq alifbosi asosida tuzilajak orfografik me'yorlar uchun mos. Dastlab Qozog'istondagi Shoahmedov nomidagi Respublika tillarni rivojlantirish koordinatsion-uslubiy markazi direktori, filologiya fanlari doktori Yerbol Tleshov qozoq alifbosining 25 harfdan iborat yangi variantini taqdim etdi. «Yangi yozuvga o'tish bir harfni boshqasiga almashtirishni anglatmaydi. Bu alifboning avvalgi variantlarida yo'l qo'yilgan to'g'ri yozishga oid kamchiliklarni tuzatishdir. Shu munosabat bilan, bizningcha, alifbo va uning tatbiq etilishi orfografiyaning yangi qoidalarini yaratishni taqozo etadi. Taklif qilingan variantda lotin alifbosining faqat asl harflari olingan», deya ta'kidladi filolog. Keyinchalik 32 harfdan iborat bo'lgan lotin grafikasidagi qozoq tili alifbosi taklifi kiritildi. Ammo ko'plab mutaxassislar va fuqarolarning fikriga ko'ra, unda o'qish hamda yozishni qiyinlashtiradigan ajratish belgilari ko'p qo'llangan.

Nihoyat, 2017-yilning oktabr oyida Prezident Nursulton Abishevich Nazarboyev qozoq tili alifbosini 2025-yilgacha lotin yozuviga bosqichma-bosqich o'tkazish haqida farmonni imzoladi. Prezident tomonidan tasdiqlangan yangi alifbo ham 32 harfdan iborat bo'lib, unda ajratish belgilari soni kamaygan va diagraflar (Sh, Ch) kiritilgan. Bu alifbo qozoq olimlari fikricha, qozoq tili tabiatini to'liqroq aks ettiradi. Quyida lotin yozuviga asoslangan qozoq alifbosi keltirilgan: [9]

№	Yozuvda	Talaffuzda	№	Yozuvda	Talaffuzda
1	A a	[a]	17	C c	[H]
2	Б б	[ə]	18	O o	[o]
3	B b	[b]	19	Y y	[ə]
4	D d	[d]	20	P p	[n]
5	E e	[e]	21	Q q	[K]
6	F f	[f]	22	R r	[p]
7	G g	[r]	23	S s	[c]
8	Ġ ġ	[ʃ]	24	T t	[T]
9	H h	[x], [h]	25	U u	[ʏ]
10	I i	[i]	26	Ъ ъ	[ʏ]
11	I ə	[ɪ], [i]	27	V v	[b]
12	J j	[ʒ]	28	Y y	[ɣ]
13	K k	[k]	29	Э э	[y]
14	L l	[l]	30	Z z	[z]
15	M m	[m]	31	Sh sh	[ɬ]
16	N n	[H]	32	Ch ch	[ʧ]

Qozoq tilining lotin yozuviga asoslangan alifbosidagi 27 harf shakli va talaffuziga ko'ra o'zbek alifbosidagi tovushlar bilan aynan o'xshash. Qozoq alifbosidagi 4ta harf o'zbek tilidagi tovushlarni ifodalaydi, ammo shakli boshqacha. Masalan, $\text{G} \text{g}$ shakli o'zbek alifbosidagi G' (jarangli, chuqur til orqa, sirg'aluvchi undosh) tovushini, Y y unlisi shakli o'zbek lotin alifbosidagi O' (til orqa, o'rta keng, lablangan unli) unlisini, C c shakli Ng (jarangli, til orqa, sirg'aluvchi), shaklini ifodalaydi. B b [ə] va I i [ɪ], [i] tovushlari o'zbek adabiy tili uchun xos bo'lmagan tovushlarni ifodalaydi. Ammo bu tovushlarni o'zbek dialektlarida kuzatish mumkin. Y y shakli o'zbek lotin alifbosida jarangli, til o'rta, sirg'aluvchi tovushni ifodalaydi, ammo qozoq alifbosida M tovushini ifodalash uchun xizmat qiladi. Qozoq lotin alifbosiga o'tilishi O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida o'zaro aloqalarni yana-da mustahkamlanishiga, xususan, til o'rganish, tadqiqotlar bilan hamnafas bo'lishni osonlashishiga sababchi bo'ladi.

Shu o'rinda bir taklifni ilgari surish mumkin. Alifboga o'tish aniq dastur asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Ayniqsa, bu jarayonda davlat idoralaridagi jarayon nazorat qilinishi shart. O'zbekiston tajribasidan aytish mumkinki, bizda davlat tashkilotlarida alifboga munosabat o'zgarмай qoldi va buni hech kim nazoratga olmadi. Shu sababdan hozirgacha kirill alifbosi ishlatilmoqda. Qozog'istonda rus tili va yozuvining o'rni O'zbekistonga nisbatan yuqoriroq. Shuning uchun bu jarayon qiyin kechadi deb o'ylaymiz. Nima bo'lgan taqdirda ham jarayonni cho'zmasdan amalga oshirish kerak.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, til o'z xususiyatini namoyon etadigan alifbo, yozuv, imlo va uning o'ziga xos jihatlari hamma vaqt chumbarchas bog'liq ravishda o'sha tilning va millatning barqarorligini, takomilini va rivojlanish omillarini belgilab beradi. To'g'ri tashkillashtirilgan yozuv, imlo, alifbo ta'lim jarayonida tez va sifatli ravishda yozuvni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Shuning uchun har bir milliy qadriyatlarini o'zozlagan millat yozuvga katta e'tibor qaratadi. Zero, yozuv ham asrlar davomida e'zozlab kelinadigan qadriyatlarni o'zida aks ettiradigan bir vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – T., 2009.
2. Otamirzayeva S., Yusupova M. O'zbek tili. – T., 2004.
3. Jomonov R. «Ma'rifat» gazetasi – T., 2017, 26-aprel soni.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. –T.: Universitet, 1999.
5. Rafiyev A. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi –T., 2003.
6. Bahridinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiya asoslari. – T.: Akademnashr, 2015.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'zME, 2013.
8. Asanov E. «Taraqqiy» gazetasi. – T., 2017, 16-avgust soni
9. www. Trt. net

«LUG'ATI SITTA ALSINA» — TARJIMA LUG'AT

Muhammadova Munisa

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Is'hoqxon Ibratning «Lug'ati sitta alsina» olti tillik universal tarjima lug'ati o'zbek leksikografiyasining muhim manbasidir. Ushbu maqolada Is'hoqxon Ibratning «Lug'ati sitta alsina» tarjima lug'ati va uning bo'lim, boblari haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar: Lug'ati sitta alsina, lug'at, leksikografiya.

Аннотация

Словарь Исахана Ибрата Lug'ati sitta alsina является важным историческим узбекской лексикографии. В статье анализируется все разделы словаря, приводятся новая информация о слове.

Ключевые слова: Lug'ati sitta alsina, словарь, лексикография

Annotation

«Lug'ati sitta alsina» is universal dictionary of Uzbek language, It was written by Is'hoqxon Ibrat. It consists of six language: Arabic, Russian, Turkish, Indian, Uzbek, Persian languages. In this article is informed about «Lug'ati sitta alsina» and its parts.

Support words: Lug'ati sitta alsina, dictionary, lexicography

O'zbek leksikografiyasi tarixi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asaridan boshlangan. Bu asar XI asrda yaratilgan bo'lsa, undan keyingi davrlarda o'zbek tili leksikasining turli vaqtlardagi holatini aks ettiruvchi ko'plab qo'lyozma va bosma (litografik va topografik) lug'atlar yaratildi. Lug'atlar turli hajmda va turli xarakterda, turli maqsadlarni ko'zlab yaratildi. Aynan o'zbek leksikografiyasida qo'lyozma va bosma (litografik va topografik) lug'atlar yaratilishi ma'lum bir davrlarga to'g'ri keldi. Qo'lyozma lug'atlar tuzish, asosan, XI asrdan XIX asrning birinchi yarmiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olib, uning yirik namunasi «Devonu lug'atit turk» asaridir. XIX asrning 2-yarmidan boshlab nashr etilgan va lug'atshunoslikning keyingi rivojini ta'minlovchi lug'atlarning asosiy qismi bosma (litografik va topografik) tarzda nashr etilgan. Bosma lug'atlarning XIX asrdagi eng yirik namunasi biri Is'hoqxon Ibratning «Lug'ati sitta alsina» [1: 2] olti tillik tarjima lug'atidir. Bu asar Turkistonda Chor hukumati boshqaruvi davrida yaratilgan lug'atlar sirasiga kirsa ham, yaratilish maqsadiga ko'ra aynan shu davrdagi lug'atlardan keskin farq qiladi. Tilshunos olim Abdurahob Madvaliyev: «XIX asrning 70-yillarida tuzilgan lug'atlar va ularni o'rganish — Chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash va shu sohadagi faoliyatni kengaytirish maqsadlarini ko'zlagan holda olib borilgan» [2:153] degan fikrni o'z ilmiy ishlarida keltirib o'tadi. Darhaqiqat, bu fikrga qo'shilgan holda aynan o'sha davrdagi lug'atlarda asosan rus millatiga mansub aholini tezroq mahalliy tilni o'rganib olish va ularni tezroq bo'ysundirish, rus tilini tub aholiga chuqurroq singdirish maqsadini ko'zlab so'zlashgich va tarjima lug'atlar yaratildi. Ammo Is'hoqxon Ibratning «Lug'ati sitta alsina» lug'ati esa

mamlakatga sayohat qiluvchi savdogar, safar ahli uchun va shu bilan birga o'zga tillarni o'rganishga qaratilgan universal lug'atlar sirasiga kiradi. «Lug'ati sitta alsina» o'z nomidan anglashilib turibdiki, olti tillik: arab, fors, turk, hind, sart va rus tilidagi so'zlardan tashkil topgan universal, tarjima lug'atidir. Asar 1901-yil 23-sonabrda Toshkent shahrida V.M.Ilina Tipo — litografiyasi bosmaxonasida bosilganligi muallif tomonidan asarning yuza qismida keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, Namangan qoziligi uyezdi To'raqo'rg'on qishlog'ida Is'hoqxon To'ra Junaydulloh Xo'ja Eshonov tomonidan tayyorlangan lug'at: ruscha, arabcha, forsha, turkcha, hindcha so'zlar musulmon transkripsiyasida yozilgani haqida ma'lumot berilgan. Yurtimizda XI asrda ham arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvidan mahalliy aholi keng foydalangan. Asarda boshqa tildagi so'zlarning barchasi eski o'zbek yozuvida bitilgan va shuning uchun rus va hind tilidagi ba'zi so'zlarning imlosida kamchiliklar ko'zga tashlanadi, shu bilan bu davrda kirill alifbosidan deyarli kamdan kam qo'llanilgan va bu yozuvning imlo qoidulari ham ishlab chiqilmaganligi bu kamchiliklarga asosiy bir sabab hisoblanadi. Toshbosma nusxa jami 52 sahifadan tashkil topgan, «Kirish» qismida muallifning bu asarni yaratishdan maqsadi bayon etilgan. Asar ikki qismdan «Fe'llar» va «Ismlar» bo'limidan tashkil topgan. «Fe'llar» bo'limida har bir bob alifbo harflari ketma-ketligida tartib bilan berilgan 28 ta harf bilan boshlanuvchi boblar va shu bilan birga buyruq maylidagi fe'llar va ularning o'tgan zamon bo'lishsiz shakllarini o'z ichiga olgan yana bir bobdan tashkil topgan. «Ismlar» bo'limi esa ma'lum bir mavzu, voqea-hodisa, narsa-buyum, o'rin-joy, makon-zamon nomlarini o'z ichiga olgan boblardan iborat. «Lug'ati sitta alsina» asari xususida professor Ulug'bek Dolimov Ibrat hayoti va ijodi, uning asarlarini o'rganish mobaynida o'z maqolasida shunday fikrni keltirib o'tadi: «Ma'lumki, Is'hoqxonga qadar o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha lug'atlar yaratilgan. Biroq bu kitobni o'rganuvchi ruslar va ruscha savodi bo'lgan sanoqli o'zbeklar uchun mo'ljallangan edi. Shu bois ular ko'plab o'zbeklarning ehtiyojini qondira olmagan. Is'hoqxonning mazkur lug'atni arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvida yaratishiga ham aynan shu narsa turtki bo'lgan. Mingdan ortiq faol so'zlarni o'z ichiga olgan ushbu lug'at o'z davrida katta ahamiyat kasb etgan va jadid muktablarida keng foydalanilgan» [3, 25]. Bundan tashqari lug'atda aynan keng qo'llaniluvchi so'zlar keltirilgan va barcha so'zlar soni 1035 tani tashkil etadi. Bu lug'atning universalligi shundaki, unda turli sohaga oid so'z terminlarni, ba'zi so'zlarning izohi bilan berilishini, shevaga oid so'zlarning ham uchrashini kuzatishimiz mumkin. Bu belgilar esa ham terminologik lug'atning ham izohli lug'atning, ham tarjima lug'atning xususiyatlari birgalikda asarda jam bo'lganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, lug'atdagi 2-bo'limning boblari turli mavzu, holatlardagi so'zlarni qamrab olishiga ko'ra lug'atni so'zlashgichga o'xshatish mumkin. Misol uchun: «Tartib sonlar» bobi, «Meva nomlari» bobi, ya'ni bu so'zlar narsa yoki hodisalar turlariga qarab boblarga bo'lingan. Inson xarakteridagi turli his-tuyg'u, hissiyotlarni ham alohida boblarga ajratilgan: «Osafi razoyila» (Yomon odatlar tavsifi), «Ismi osafi xusni» (Yaxshi sifatlar) kabi. Shuningdek, ma'lum

sohaga oid soʻzlar ham bir bob tarzida berilgan: «Ismi ahli xarif», yaʼni har xil kasb-hunar bilan shugʻullanuvchi shaxslar oti, «Asbobi asb va mutaalliqot oni», yaʼni ot hayvoni va undan foydalanishda kerak boʻladigan buyumlar nomi. Misol uchun: egar, jabduq, taqa, yol, yugan kabilar. Xulosa qilib aytish mumkinki, oʻzbek leksikografiyasida keyingi davrlarda Isʼhoqxon Ibratdan soʻng bunday koʻp tilli ligʻat deyarli bir asr mobaynida yaratilmadi. Asarda turli imloviy xatoliklar, bob nomlarida baʼzi juzʼiy kamchiliklar boʻlishiga qaramay, bu lugʻat oʻz davrining mukammal lugʻatidan biri ekanligiga asarni oʻrganish davomida ishonch hosil qildik. U nafaqat oʻsha davr uchun, balki hozirda ham barcha til oʻrganuvchilar uchun muhim manba sifatida oʻz qiymatini yoʻqotmay kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isʼhoqxon binni Junaydulla Toʻraqoʻrgʻoniy. Lugʻoti sitta alsina. –T., 1901.
2. Madvaliyev A. Oʻzbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. –T., 2017.
3. Dolimov U., Til va adabiyot taʼlimi jurnali, 5-son.



OʻZBEK TILIDA FAOL QOʻLLANILUVCHI AYRIM OʻZLASHGAN SOʻZLAR ETIMOLOGIYASI

Najmiddnova Dildorabegim

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti
Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish fakulteti 1-kurs talabasi*

Аннотация

Ushbu maqolada asosan fors-tojik tilidagi soʻzlarning oʻzbek tiliga singib ketgan variantlari keltirib oʻtilgan. Maqoladagi tojik soʻzlar hozirgi kunda oʻzbek tilida doimiy ravishda qoʻllaniladi.

Tayanch soʻzlar: izofa birikmalar, mustaqil soʻzlar, tub soʻzlar, sodda feʼl, sodda ot va qoʻshimchalar.

Аннотация

В этой статье приведены варианты персидско-таджикских слов, заимствованных узбекским языком. Приведенные в статье заимствования из таджикского языка активно употребляются в узбекском языке.

Опорные слова: сложные слова, самостоятельные слова, немотивированная лексика, простой глагол, простое существительное и окончания

Annotation

In this article especially persian-tadjik words that ingrained in uzbek language are taken. Nowadays these tadjik words in it are used constantly.

Support words: science, izofa, independent words, radical words, simple verb, simple noun and supplements.

Bizga ma'lumki, qadim-qadimdan Movarounnahrda turli elat va millatlar yonma-yon yashab, o'zaro ijtimoiy munosabatlar olib borishi natijasida ularning turmush tarzi, e'tiqodi va madaniyatida o'xshashliklar vujudga kelgan. Bu munosabatlarni ularning lug'at boyligida ham ko'rishimiz mumkin.

Tarixga nazar salsak, Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida fors-tojik tili gullab yashnadi. Fors-tojik tili o'sha davrda adabiyot, fan, madaniyat tili sifatida keng qo'llanilgan. Bu esa o'zbek tiliga ko'plab fors-tojik tilidagi so'zlarning o'zlashishiga sabab bo'lgan. Ayrim hudud aholisi o'rtasida ikki tilning ham baravar ishlatilishi natijasida ikki tilga xos bo'lgan xususiyatlar bir-biriga o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, fors-tojik tilidagi ba'zi so'zlar, affiksalar va prefiksalar o'zbekcha so'zlarga qo'shilib ketgan.

Masalan, «dilkusho» — hozirgi o'zbek tilida deyarli ishlatilmaydigan bu sifat *dil* otiga «och» — ma'nosini anglatadigan *kushodan* fe'lining *kusho* hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, «*dilni o'ziga rom qiladigan*» degan ma'noni bildiradi [2: 88]. Bu sifat asosan shahar, joy nomlariga nisbatan ishlatilib, hozirgi kunda tub sifat sanaladi.

«Duro'ya» — bu sifat «ikki» ma'nosini bildiruvchi *du* hamda «yuz» ma'nosini anglatuvchi *ro'y* so'zining qo'shiluvidan hosil bo'lib, o'zbek tilida *ikkityuzlamachi* degan ma'noni bildiradi. Bu so'zning yana bir forscha sinonimi *laganbardor* bo'lib, bular o'zbek tilida tub sifat sanaladi.

«Boron» [4: 33] — *yomg'ir* ma'nosini bildiruvchi tojikcha so'z bo'lib, o'zbek tilida ishlatilmaydi. So'zning oldiga *borid*, ya'ni *yog'di* degan tojikcha fe'lni qo'shsak, o'zbek tilida bitta soddaga gap hosil bo'ladi. Masalan, boron borid — *yomg'ir yog'di* birikmasida ikkalasi ham ega-kesimli birikmani hosil qilgan. O'zbek tilidagi «bo'ron» so'zi ham xuddi shu fe'ldan hosil bo'lgan bo'lib, tovush o'zgarishi natijasida o unlisi o' ga o'zgarigan: *Bo'ri bo'ronda quturar*. (Maqol)

«Koja? (kujo?)» — olmoshi tojikcha so'z bo'lib, qayer? qayerga? so'roqlariga javob bo'ladi. *Kujo* meri, ey dilbar — qayerga borasan, ey dilbar?

«Did» — *ko'rmoq* ma'nosini beruvchi bu fe'l fors tilida bir bo'g'inli fe'l bo'lib, o'zidan keyin shaxs-sonni olib tuslanadi. Masalan: *didam*, *did*, *didem*, *diden*. Forscha shakl asosida o'zbek tili tarixida *diyda* shaklida yozish paydo bo'lgan va bu so'z *ko'z* degan o'zbekcha variantiga ega. Bu so'z hozirgi o'zbek tilida «go'zallikni, nafosatni his etish, undan estetik zavq olish qobiliyati» ma'nolarida qo'llaniladi [3: 606]. Har kimning *did*i boshqa, har gulning hidi. (Maqol)

«Donistan» — tojikcha fe'l bo'lib, *bilmoq*, *bilish* kabi ma'nolarni bildiradi. Bu so'zning asosi *don* bir bo'g'inli fe'li bo'lib, o'zidan keyin shaxs-sonlarni olib tuslanadi. Masalan, *donistam*, *donisten*, *donistem* kabi fe'llar. Bu so'z *donishmand* so'zining kelib chiqishi uchun ham asos bo'lib xizmat qilgan, ya'ni ko'p bilimga ega bo'lgan shaxs (*don* (asos) + *ish* + *mand* (sifat yasovchi)).

«Durbim» — barchaga ma'lum bo'lgan bu so'z asli fors-tojik tilidan kelib chiqqan desak xato qilmaymiz. *Ko'rish* ma'nosini beruvchi «*bin*» fe'liga, *uzoq* ma'nosini beruvchi «*dur*» sifati qo'shilib, hozirgi o'zbek tilida tub narsa otini

yasagan. Bu soʻz yana buyruq gapni hosil qilgan, yaʼni *dur* soʻzi otlashgan boʻlib, oʻzidan keyin joy, makon kabi soʻzlar tushirib qoldirilgan. Bundan kelib chiqadiki, «*dura bin*» — *uzoqni koʻr* gapi ham shu izofaning tarkibiy qismi sanaladi.

«Shabnam» — bu tojik tilida «kechasi» maʼnosini anglatadigan *shab* oti bilan, «nimagadir singan suv» maʼnosini anglatadigan *nam* otidan tuzilgan boʻlib, [2:259] «bahor», yoz kechalari oʻsimlikka inadigan «bugʻ», «namlik», yaʼni «kechki namlik» maʼnosini anglatadi. Bu *shabi nam* birikmasida *i* tovushi tushib qolgan boʻlib, asli izofa shaklidagi boʻlgan soʻzdir.

Azmanmeritugujoʻ?

Inshabi namam be tu dardho. (O. Xayyom)

Mendan ketib qayon borarsan?

Bu yoshli tunim sansiz dardli qolar.

«Sebzor» — joy maʼnosini bildiruvchi fors-tojik soʻzi «olma» maʼnosidagi *seb* soʻzi va oʻrin-joy maʼnosini bildiruvchi *-zor* qoʻshimchasining qoʻshiluvidan hosil boʻlgan. Hozirgi oʻzbek tilidagi *olmazor*, *uzumzor*, oʻrik*zor* kabi joy nomlari bu soʻzning muqobili.

Yoki barchaga maʼlum boʻlgan soʻzlardan biri «*kallapoʻsh*» [3: 300] soʻzi kelib chiqishi tojik tiliga taqaladi. *Bosh* maʼnosini beruvchi «kalla» soʻzi va *kiymoq* feʼlining tojik tilidagi muqobili «poʻsh» soʻzlarining oʻzaro qoʻshiluvidan kelib chiqqan boʻlib, boshni yopish uchun moʻljallanganlik maʼnosini beradi. «Kallapoʻsh» soʻzining tojikcha sinonimi *sarpoʻsh*, *kallapoʻshon*, oʻzbekcha muqobili esa «doʻppi» sanaladi.

«Dahan» — oʻzbek tilida «ogʻiz» (*nutq aʼzosi*) maʼnosini bildiradi. Muniraning peshonasi doʻngroq, dahani kulcha yuziga nomunosib tarzda katta edi («Yolqin» asari). Bu soʻz ikkinchi maʼnosi tasavvuf adabiyotida «maxfiy sir» maʼnosida qoʻllaniladi. Insonning fahm va vahmidin pok va muqaddas boʻlgan mutakallimlik sifatidir [1: 814]. Yaʼni *To ba fikri dakanash gum shudam, ey Foni, nest*. Navoiy bu yerda soʻzning asror va nozik maʼnolariga ishora qilgan. Dahan soʻzi oddiygina nutq aʼzosi emas, balki shirin soʻz, har bir jumlaning marjondek soʻzlovchi kishilarga xos ishlatiladi.

«Moshxoʻrda» [3: 814] — bu soʻz oʻzbek tilida taom turi maʼnosida qoʻllanilib, «mosh» soʻzi va «xurd» — yemoq feʼlining oʻzaro qoʻshiluvidan paydo boʻlgan boʻlib, *yeyiladigan moshli taom* maʼnosini beradi.

Oʻzbek tilida tub ot deb qaraladigan «sartarosh» soʻzining tarkibi ham fors-tojik tilidan, yaʼni bosh maʼnosini bildiradigan «sar» soʻzi va qirish maʼnosini bildiradigan «tarosh» feʼlining birikuvidan kasb nomi kelib chiqqan. Oʻzbekchaga tarjima qilinganda esa bosh qiruvchi yoki soch qiruvchi maʼnosini beradi.


«Moʻysafid» birikmasi tojik tilidan kelib chiqqan boʻlib, bu soʻz hozirgi oʻzbek tiliga izofa shaklida kirgan. «Moʻyi safed» *oqsoch* yoki *qari inson* maʼnosini bildiruvchi bu soʻz oʻzbek tilida ham keng qoʻllaniladi.

O'zbek tili go'zal iboralari, betakror so'zlari bilan boy til sanaladi va albatta, bu tilga arab, fors-tojik tillaridan o'zlashib, keng iste'molda bo'lgan so'zlarning ham ahamiyati katta.

Til jamiyat ko'rki sanalib, undagi har bir jumlar o'zining asosini mana shu tilda ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'zbek tilidagi bunday hodisalar xoh u fors-tojik, xoh u arab tilidan o'zlashgan bo'lmasin, o'zining rang-barang ekanligini muqaddam namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy. A. Devoni Foniyy. –T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. III tom. –T., 2009.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. Haydarulloi Hayrullo. Farhang ba zaboni tojik, 2006.



BA'ZI O'ZBEK TAOM NOMLARINING ETIMOLOGIYASI

Zarina Olimova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotation

In this article discusses the origin of some of the food names in Uzbek ancient times. The following is a summary of the true meaning of the names of different languages.

Key words: Common names of meals, kholva, samsa, mastava, semantic method.

Annотatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi oziq-ovqat nomlarining kelib chiqish tarixi, qadimda qanday nomlanganligi haqida so'z yuritiladi. Turli tillardan o'zlashgan taom nomlarining tub ma'nolarini quyidagi maqola orqali bilib olishimiz mumkin.

Tayanch so'z va tushunchalar: umumturkiy taom nomlari, qayish, atala, holva, somsa, so'rda, mastava, semantik usul.

Oziq-ovqat nomlari — til leksikasini boyituvchi manbalardan biridir. Bu nomlarni etimologik va tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish shundan dalolat beradiki, uning tarkibida sof o'zbekcha atamalar bilan bir qatorda, arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham anchagina. Bular xalqimizning boshqa xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari natijasidir.

O'zbek tilshunosligida tarmoq atamalari birmuncha o'rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Taom nomlari ham ba'zi ishlarning o'rganilish obyekti bo'lgan. Shunday ekan, o'zbek shevalaridagi kundalik iste'mol uchun tayyorlanadigan, to'y, bayram va boshqa xalq marosimlari uchun maxsus tayyorlanadigan, mavsumiy, ya'ni yilning ma'lum fasllaridagina tayyorlanadigan, tayyorlash usuli unutilayotgan yoki masallig'i noyob, ba'zi-ba'zidagina tayyorlanadigan betob

bo'lganda yoki ishtahasi qirqilganda shifo bo'ladigan taom nomlarini, shuningdek, shirinlik, qandolat va ichimlik nomlarini tadqiq etish o'zbek tili lug'at tarkibining unutilayozgan til elementlarini, o'zbek shevalari bisotidagi lug'at boyliklarini, shuningdek, til tarixidagi noaniq leksik-grammatik hodisalarni o'rganish uchun imkon yaratadi.

O'zbek tilshunosligida pazandachilik leksikasi tadqiqotchi N.Ikromova tomonidan o'rganilgan. U asosan Toshkent shevasidagi taom nomlarini tadqiq etgan. O'zbek tili eng ko'p shevaga ega til bo'lganligi uchun milliy taomlar nomlari uchun boy ma'lumot bera oladi va ularni o'rganish lozim.

Ma'lumki, o'zbek xalqi eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, demak, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shnicilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo'lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, o'zbek tilidagi taom nomlarini quyidagi qatlamlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. **Umumturkiy taom nomlari:** go'ja, shavla, atala, qayish, to'g'rama, qovurdoq, dimlama kabi;
2. **Fors-tojik tilidan o'zlashgan taom nomlari:** non, xo'rda, somsa, palov, sho'rva, mastava, barak kabi;
3. **Arab tilidan o'zlashgan taom nomlari:** patir, holva, murabbo kabi;
4. **Uyg'ur tili orqali xitoy tilidan o'zlashgan taom nomlari:** manti, lag'mon, mampar kabi;
5. **Rus tili va rus tili orqali g'arb tillaridan o'zlashgan taom nomlari:** pechenye (ruscha), kotlet (fransuzcha), tort (italyancha), keks (inglizcha), vaffli (nemischa), povidlo (polyakcha) va shu kabi [1: 14].

Qayd qilish kerakki, ayrim taom nomlari o'zbek tilining fonetik va grammatik qonun-qoidalariga moslashib, o'zbek tilining o'z leksemalari kabi taassurot qoldiradi.

O'zbek tilidagi ayrim taom nomlarining kelib chiqish ildizlarini bilish uchun quyidagi etimologik kuzatishlarga to'xtalib o'tamiz.

Atala — unni yog'da qovurib, keyin suv bilan qaynatib tayyorlanadigan yengil hazm suyuq ovqat [5: 90]. Bu leksema ma'no taraqqiyoti natijasida «suyuq narsani cho'mich bilan to'lg'amoq» ma'nosini anglatuvchu *اتالا* — fe'lidan o'sib chiqqan [3: 34]. Ushbu leksema orqali tilimizda bir necha iboralar qo'llaniladi. *Atala maxsum* — bo'shshagan, lailaygan, lanj odam haqida yoki hadeb yiqilaveradigan yoki bo'shshagan odamga hazil tariqasida aytiladigan ibora. *Atalaga bismillo* — juda oson yengil bitadigan ish haqida gapirilganda ushbu ibora qo'llaniladi.

Qayish — so'zining asl ma'nosi «teridan tayyorlanib, belga taqiladigan, tasma shaklidagi belbog'» ma'nosini anglatadi [5: 215]. Taom nomlarida ham qayish nomi uchraydi. Bu taom xamiri yupqa yoyilib, tasmalardek kesilib va

qaynagan suvga solib tayyorlanadigan ovqat. Ushbu leksema semantik usulda yasalgan bo'lib, so'zning shakli o'zgar olmay, faqat ma'nosi ko'chgan va shu ma'noni anglatgan. Bu taom Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlarining ayrim hududlarida uchraydi.

Holva — bu arabcha leksema bo'lib, **halvۋۋۋ** shakliga ega [9: 193]. O'zbek tiliga ikki shaklda qabul qilingan: *holva*, *halvo*. Ushbu leksema «shirin, yoqimli bo'ldi» ma'nosini anglatuvchi **halb** fe'lidan [9: 192] hosil qilingan bo'lib, o'zbek tilida «un, shakar, yog'dan, ba'zan kunjut, mag'iz qo'shib tayyorlanadigan shirinlik» ma'nosini anglatadi. Xalq og'zaki ijodi sanalmish muqollarda ham quyidagicha ishlatiladi: «*Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar*»; «*Holva degan bilan og'iz chuchimas*». «*Suvdan holva yasamoq*» iborasi esa bo'lmaydigan ishga urinmoq ma'nosida qo'llaniladi.

Yuqoridagi leksemani Alisher Navoiy asarlarida *halvo*, *halova* shakllarida ham uchratishimiz mumkin:

*Xom ko'ngulkim dudog'ingni tilab afg'on qilur,
Bordurur ul tifldekkim yig'lag'ay halvo uchun*

[«Xazoyin ul maoniy», 6: 340]

*Halovani ta'rif etay rang-rang,
Pishurmakka shakkar ezib tang-tang.*

[«Saddi Iskandariy», 6: 278]

Mastava — bu leksema «qatiq» ma'nosini anglatuvchi tojikcha *most* oti bilan [8: 233] «suv» ma'nosini anglatadigan *ob* otidan [8: 279] tuzilgan birlikka «qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan bo'lib, o'zbek tiliga ayrim fonetik o'zgarishlar asosida qabul qilingan hamda «qatiq solib ichiladigan guruchli ovqat» ma'nosini anglatadi.

Xo'rda — bu ot «yeb-ich» ma'nosini anglatadigan tojikcha *xo'rdan* fe'lining o'tgan zamon shakliga **-a** qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan bo'lib, «guruchdan tayyorlangan suyuq ovqat» ma'nosini bildirib keladi [5:397].

Somsa — bu ot fors tilida «tish» ma'nosini anglatadigan [senn] oti bilan, «o'pich» ma'nosini anglatadigan [buse] otidan tuzilgan [sombuse] oti bo'lib, bu'zi fonetik o'zgarishlar asosida tojik tili lug'atiga «*sambo'sa*, *sanbusa*» shaklida kiritilgan [8: 339]. O'zbek tiliga tojikcha *sambo'sa* shakli *s* tovushidan keyingi *a* tovushini *o* tovushiga almashtirib, *bo'* tovushlarini tashlab *somsa* shaklida olingan; aslida bu «*tisho'par*» ma'nosini anglatgan bo'lib, o'zbek tilida «sumirni kichik doira shaklida yoyib, go'sht yoki qovoq, piyoz to'g'ramalari solib, tugib, tandirda pishiriladigan taom» ma'nosini anglatadi [5: 68]. Ammo «*sambo'sa*» shakli Buxoro viloyatining G'ijduvon, Vobkent kabi ayrim hududlarida qo'llaniladi.

Taom nomlarining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, qo'llanilish doirasi va iste'molda bo'lish davri tarixan o'zgaruvchandir. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi bilan tarmoq leksikalari ham o'zgarib boradi. Ayrimlari butunlay iste'moldan chiqadi, ba'zilari tarixiy so'zlarga aylanadi,

ayrimlari esa ma'lum fonetik va ma'no o'zgarishi bilan qo'llanishda davom etishi mumkin. Ayrim yangi taom nomlari esa o'zbek tili leksikasidan o'rin olmoqda. Masalan: *lavash*, *donar*, *gamburger* kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyorova M. T. O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. – T., 2008.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). –T.: Universitet 2000.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (arab so'zlari va ularning hosilalari). –T.: Universitet, 2003.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (fors-tojik so'zlar). –T.: Universitet, 2003.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. I – II tomlar. –M., 1981.
6. Alisher Navoiyning mukammal asarlar to'plami. 16-jild. –T., 2000.
7. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. –T., 1972.
8. Таджикиско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. –M., 1954.
9. Баранов Х. К Арабско-русский словарь. –M., 1976.



«DEVONU LUG'ATIT-TURK»DAGI BA'ZI LEKSIK BIRLIKLARGA DOIR

Soliyeva Madina

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada «Devonu lug'atit turk»da mavjud bo'lgan va hozirgi kunda turkiy tillar va ularning lahjalarida, xususan, o'zbek tilida saqlangan ayrim so'zlar ko'rib chiqilgan. Xususan, maqolada o'zbek tilidagi so'zlarning ildizi bobotilga, ya'ni qadimgi turkiy tilga borib taqalishi masalasiga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: lahjalar, anomalist, etimologiya.

Аннотация

В данной статье приведены слов, встречающихся в «Дивану луғатит турк» которые используются в тюркском, в том числе в узбекском языке. В статье хотели доказать то, что слов, используемые в узбекском языке имеют корни древнего тюркского языка.

Ключевые слова: наречие, anomalist, этимология.

Annotatsion

In this article are the words that are used in the «Devonian lug'ati Turk» which are used in Turkic, especially in Uzbek language. In the article they wanted to prove that the words used in the Uzbek language have the roots of the ancient Turkic language.

Key words: dialects, anomalist, etymology.

O'rtta asrlar yirik tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turki asari turkiy xalqlar tilshunosligining asosiy manbasi sifatida hali-hanuz diqqatga sazovordir. Devon ilk bor 1939-1943-yillarda Besim Atalay tomonidan hozirgi turkchaga tarjima qilingandan so'ng unga qiziqish ortadi. 1960-yillarda esa N. Mutallibov tomonidan o'zbekchaga o'g'irilishi esa bu asarga murojaat qiluvchi tadqiqotchilar sonining yanada oshishiga olib keladi. Bir qator ilmiy ishlar, maqolalar e'lon qilinadi. Bu qimmatli asar nafaqat turkiy xalqlar uchun e'zozli, balki butun dunyo turkologlari uchun ham qadrlidir. Devondagi so'zlarni birinchilardan bo'lib tadqiq qilgan g'arb olimi Karl Brokkelmanning «Mitteltürkischer Wortschatz nach Mahmud Al-Kaschgaris Divan Lug'at at-Türk» asari, Jeyms Kelly, Robert Dankofflarning «Compedium of the Turkic Dialects» kabi tarjima tadqiqotlari devon bo'yicha G'arbda amalga oshirilgan eng yorqin izlanishlardir (qaysi manbadan olingan?).

Devon bilan tanish bo'lgan turkiy xalqlar vakillarining deyarli barchasi asarda mavjud so'zlarning ko'pchiligini hozirgi kunda o'z tillarida u yoki bu darajada saqlanib qolganligini ta'kidlaydilar. Quyida biz o'zbek tilida saqlanib qolgan Devondagi ayrim so'zlarni ko'rib chiqamiz:

ام em — em, davo, dori [1: 30]; Tibbiyotdagi «emlamoq» fe'lining asosi mana shu so'z deyish mumkin. Masalan, «Chaqaloq uch kunlik bo'lganida polimelitga qarshi emlanishi lozim»;

ايش o'ng ish — «oson ish, qulay ish. Bu so'z o'ngay so'zining qisqartirilgan shaklidir» [1: 31]. Bu so'z o'zbek tilining shevalarida, xususan, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va boshqa viloyatlarda o'ng'ay shaklida saqlangan. «O'rgilay, hamma ish o'ng'ay bo'lavermaydi-ku» (shevada);

ايلك ilk — «oldin, avval» [1: 31]. Bu so'z o'zbek va hozirgi turkiy tillarning bir qanchasida hozirga qadar mavjud;

اول o'l — «ho'l. o'l ton- ho'l kiyim» [1: 33]. Turkiy qavmlarning ba'zilarida qadimda bo'lganidek, hozirgi kunda ham so'z boshida unli tovushlardan oldin «h» tovushini orttirib talaffuz qilganlar. Xususan, bu til hodisasi o'zbek tilida nisbatan kuchli saqlangan. Biroq turk, qozoq, ozarbayjon tillarida bu holat deyarli ko'zga tashlanmaydi;

اچ egach — «o'zining ortiq ziyrakligi bilan odamlarga xuddi o'z singlisidek tuyuluvchi yosh qiz; bu so'z yosh qizlarni sevish, erkalash uchun qo'llaniladi» [1: 35]. Hozirda opa-singillarning bir-biriga murojaati shaklida o'zbek tilining ayrim shevalarida uchraydi. Unga qo'shilgan III shaxs birlik egalik -i qo'shimchasi I shaxs birlik ma'nosida bo'ladi. «Egach» so'zi hali ham erkalash ma'nosini yo'qotmagan. «Egachi, jiyanim tushmagur hurliqoni o'ziya!» (shevada);

انچ anach — «ona qiz, ya'ni o'zining ziyrakligi bilan hammaning onasidek bo'lib qolgan yosh qiz» [1: 35]. Bu so'z qizlarni erkalash ma'nosida o'zbek tilining deyarli barcha shevalarida qorishiq «ch» undoshi o'miga sirg'aluvchi «sh» undoshi qo'llangan holda uchraydi. «Onash qizim, doimo chiroyli xulq sizning dugonangiz bo'lsin»;

أَرِغُ **arig'** — **arig' nang** — «toza narsa» [1: 39]. Ushbu soʻz hozirgi kundagi «arimoq» feʼliga aloqadordir. Masalan, «Uning kulfatlari aridi» gapidagi «aridi» soʻzi «tozalandi» maʼnosida boʻlsa, gapning maʼnosini ravshanlashtirgan boʻladi. Yaʼni «Uning hayoti kulfatlardan tozalandi» maʼnosi kelib chiqadi;

أَحَقُّ **o'chaq** — «o'choq» [1: 39]. Bu soʻz adabiy tilda ham mavjud, lekin Toshkent viloyati Parkent tumani shevasida qadimgi turkiy tilda ham qanday boʻlsa shunday, yaʼni oraliq «o» unlisi oʻmiga lablangan «a» unlisi talaffuz qilinadi. «Aylanay, o'chaqqa alav yoqvor» (shevada);

أُشَقُّ **ushaq** — «kichkina, mayda» [1: 40]. Ushaq soʻzi oʻzbek tilida ancha faollashib, adabiy tilda nonning mayda boʻlagi maʼnosida, Xorazm shevasida esa «mayda, kichik» maʼnosida aynan saqlangan. Bundan tashqari, bu soʻzni qozoq, ozarbayjon va boshqa bir qator turkiy tillarida ham uchratishimiz mumkin;

أَقِي **a: q] aq saqal er** — «oq soqol, soch-soqoli oqargan kishi» [1: 45]. Bu soʻz hozirda ham saqlangan. Bundan tashqari, oqsoqol soʻzining qishloq rahbari, mahalla sardori kabi maʼnolari bor;

أَلَا **ala-** «pes, ola tanli kishi» [1: 46]. Bu soʻz ham oʻzbek shevalarida faoldir. Masalan, «Falonchining qoʻllarida alasi bor» (shevada);

أَلَا **ala** «beg xanqa ala boʻldi — beg xonga qarshi chiqdi» [1: 46]. «Ala»ning ikkinchi maʼnosi dushman boʻlmoq. Oʻzbek tilida «Ola mushuk oʻtmoq» iborasi shu asosda paydo boʻlgan deyish mumkin;

أَبَا **eba** — «ona (oʻgʻuzcha). Qarluq turkmanlari jarangsiz *pa* bilan *epa* deyilar» [1: 47]. **Eba** soʻzi hozirda Namangan shevasida shakl va maʼnosini saqlagan. Jarangsiz **p** undoshi va **e** unlisi oʻmiga quyi keng **a** unlisi bilan Xorazm va Toshkent viloyatining ayrim joylarida **apa** onaga murojaat shakli hisoblanadi;

أَجَا **acha / achi** — «keksa xotin» [1: 48]. Hozirda Namangan shevasidagi buviga murojaat **acha** soʻzining bu soʻzga aloqasi bor deyish mumkin.

أَنْجَل **angil** — «lang ochiq» [1: 51]. Bu soʻz «lang» shaklida oʻzgarishga (metateza?) uchragan boʻlsa-da, hali ham mavjud.

أَدْرِيقُ **adriq** - «bir xil oʻsimlik. Arablarda bu **sin** deyiladi» [1: 50]. Bu soʻz hali ham «ajriq» koʻrinishida adabiy til va shevalarda mavjud. «Oʻzbek tilining etimologik lugʻati»da bu soʻzga «Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi 'ajrat-', 'farqla-' maʼnosini anglatgan **azir-** feʼlidan -(i)q qoʻshimchasi bilan yasalgan; shundan keyin ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan (2, Devon, 1, 21)».

Xullas, qariyb ming yil oʻtsa-da, «Devonu lugʻatit turk»dagi mavjud soʻzlarning hali ham barcha turkiy tillarda, shu jumladan, oʻzbek tilida faol holatda yashamoqda. Qadimgi turkiy soʻzlarning katta bir qismi adabiy tilimizda saqlanishi barobarida shevalarimizda ham koʻplab uchrashi buning yaqqol misolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Koshgʻariy M. Devonu lugʻatit turk – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2017.
2. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati». T.: Universitet, 2000.
3. <https://www.turkedebiyati.org>



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GERBIDAGI HUMO QUSHINING TARIXIY ILDIZLARIGA DOIR

Tursunov Jaloliddin

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

Аннотация

Ushbu maqolada davlat ramzlarimizdan biri bo'lgan gerbimizdagi humo qushi tasvirining tarixiy ildizlari ko'rib chiqiladi. Xususan, unda ushbu ramziy qush tasvirining davlat ramzi sifatida qadimgi davrlardan to bugungacha turkiy xalqlar mitologiyasida qanday o'rin olganligi tahlil qilinadi.

Ключевые слова: Humo qushi, qadimiy yodgorliklar, Turk Xoqonligi, Bilga Xoqon. Умай ома.

Аннотация

В этой статье рассматривается история изображения птицы хумо в гербе. В частности значение изображение птицы хумо как в мифологии тюркских народов, так и в настоящее время.

Ключевые слова: Птицы хумо, древние памятники, Турецкий каганат, каган Умай, мать Умая.

Annotation

This article looks at the history of the image of the humo bird in the coat of arms, in particular the significance of the image of the humo bird, both in the mythology of the Turkic people and now.

Key words: Humo bird, ancient sites, Turkish Kaganate, Mother Umay, Bilga kagan.

Humo qushi azaldan xalqimizning ma'naviy va madaniy hayotida baxt-sodat, finchlik, davlat ramzi sifatida qadrlangan. Bu qushni qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, turkiy ajdodlarimiz tomonidan «muqaddas qush» sifatida e'zozlashgan. Ayniqsa, o'zbek xalqi afsona va rivoyatlarida humo qushi bilan bog'liq ko'plab syujetlarning uchrashi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Yaqin yillarda topilgan arxeologik materiallarda humo qushi tasvirining uchrashi esa bu qush bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlarni yanada chuqurroq o'rganishni talab qilmoqda.

Avvalo, humo qushiga berilgan ta'riflarga qisqacha to'xtalib o'tsak. O'zbek tili izohli lug'atida humo qushi quyidagicha ta'riflanadi: «Humo [ezgulik ramzi bo'lgan afsonaviy qush nomi] kimning boshiga qo'nsa yoki soyasi tushsa, u kishi baxtli bo'ladi, davlat va saltanatga erishadi, deb e'tiqod qilingan, afsonaviy qush: baxt qushi, «davlat qushi». Humo qushi qo'ngan boshingda, Uchib yurdi filokat qushlar. Jihoz to'la san'at uyidan o'g'irlandi oltin kumushlar (*T.To'la*). O'zbekiston hududidagi me'moriy yodgorliklarda, amaliy bezak san'ati buyumlarida humo tasviri aks etgan [1: 561].


Humo qushi timsoli bo'yicha mamlakatimizda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa-da, ayrim olimlarimiz bu masalada ba'zi fikrlarini

bildirib o'tishgani ko'zga tashlanadi. Jumladan, G'.Boboyorov o'zini «G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi» nomli tadqiqotida humo qushini qadimgi turkiy xalqlar mafkurasidagi o'rni haqida ma'lumot berib, bu qushni qadimgi turkiy etnoslar tasviriy san'atida ko'plab uchrashini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda mustaqillik erishgandan so'ng, o'zining davlat ramzlarini qabul qildi. Davlat Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi, Konstitutsiyasi. Davlat ramzlarimizdan biri bo'lgan gerbimizda qanotlarini keng yoyib turgan humo qushi tasvirlangan. Xo'jayon gerbimizdan aynan humo tasvirining o'rin olishi qanday asoslarga ega? U quyida ushbu qushning qadimgi turkiy xalqlarning ma'naviy va mafkuraviy hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Dunyoning ko'plab qadimiy davlatlarida bo'lganidek, Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlarida ham o'ziga xos hukmdorlik alomatlari yoki hokimiyat ramzlari — simvollar mavjud bo'lib, ularga *unvon va laqablar, tanga zarafat, taxt, tang'a, afsonaviy qush* (humo, burgut va h. k.) va boshqalar kiradi.

Shu o'rinda ramzlarga aloqador ravishda turkiy xalqlarga xos «muqaddas qush» talqini Turk xoqonligi davrida ham mavjud bo'lgani diqqatni tortadi. Xususan, tadqiqotchilar tomonidan «Kul Teginning boshi» deb nomlangan O'rxun vodiysi (Mo'g'uliston)dan topilgan tosh haykalning bir qismida bo'lgan o'xshash bosh kiyimining tepasida qanotlari yoyilgan «humo» tasviri uchraydi. Xuddi shunga o'xshash tasvir yaqin yillarda turk-mo'g'ul olimlarining arxeologik qazishmalari davomida «Bilga xoqon mozor kompleksi»dan topilgan toj tepasida uchrab, tadqiqotchilar uni Bilga xoqon (716-734) bilan aloqador hisoblamodalar.



«Bilga xoqon mozor kompleksi»dan topilgan toj tepasidagi humo tasviri




Mo'g'ulistondan topilgan qadimgi turkiy etnoslarga oid topilmalar (7-8-asrlar)

Bundan tashqari, Mo'g'ulistondagi Turk xoqonligi davriga taalluqli ko'plab tosh yodgorliklarda shunga o'xshash qush tasvirlari uchraydi. Bu esa mazkur qush

«Humo qushi» xoqonlikning boshqaruv ramzlaridan biri bo'lganligini ta'kidlaydi. Binobarin, qadimgi turk bitiklarida «Umay» nomli iloh nomi uchrab, bitiklar mazmunidan u Tangridan keyingi mavqeda turgan ilohiy kuch timsoli bo'lganligi ayon bo'ladi.

Hum nom o'xshashligi (Humo-Umay), ham mazkur ilohaning vazifasi baktukdorlarga Tangridan beriladigan «xarizma» (ilohiy qut)ni taqdim qilish bo'lganligidan kelib chiqiladigan bo'lsa, mazkur yodgorlikdagi qushning humo xushligi o'z tasdig'ini topadi. G'arbiy Turk xoqonligi (xoqonlik gerbi bo'lgan, deb ta'kidlaydilar. 568–740) bilan bog'liq hududlarda kamar taqinchoqlarida (Yettisuv), shuningdek, Choch vohasida zarb qilingan mazkur xoqonlik tangalari sirtida baktukdor yonida uch qirrali qalpoq kiygan malika tasviri uchrashi ham ushbu davlatning xoqonlik hududida keng tarqalganidan darak beradi. Shu kabi dalillarga qaramay ba'zi tadqiqotchilar humo tasvirini xoqonlik gerbi bo'lgan deb qaraydilar.



Qadimgi yodgorliklarda
Umay ona tasviri

O'zbekiston Respublikasining Davlat
Gerbidagi humo tasviri bilan Turk
xoqonligi bilan bog'liq topilmalarda
uchraydigan humo tasviri

O'zbek xalq og'zaki ijodida ham humo qushi haqida ko'plab afsona, rivoyatlar uchraydi. Ularda keltirilishicha, qadimda bir mamlakatga podshoh tayinlashda humo qushidan foydalanishgan. Ya'ni bu qushni osmonga uchirishgan. Humo qushi kimning boshiga qo'nsa, o'sha kishini mamlakatning podshohi qilib tayinlashgan. Yuqoridagilarga hamohang tarzda bu qush haqida murtoz adabiyotimiz vakili Zavqiy o'zining muxammasida shunday misralarni keltiradi:

*Gadomiz, boshlar uzra soya solsun humo,
Muqarrardir, zamon inqilob o'lsa ajab ermas.*

Albatta, shoir Zavqiyning misralaridan o'rin olgan bu bashoratlardan oradan ancha yil o'tgandan so'ng haqiqatga aylandi. Vatanimiz mustaqillikka erishdi va baxt-saodat, ezigulik va davlat ramzi bo'lmish humo qushi gerbimizdan munosib joy oldi.

Biz yuqoridagilardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, davlatchiligimiz ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Buni bizning ushbu kichik tadqiqotimizda qisqacha ko'rib chiqilgan humo qushi misolidagi ma'lumotlar ta'kidlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi. —T.: Yangi nashr, 2012.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5- jild. —T.: O'zbekiston, 2008.
3. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., va boshq. Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining sinf uchun darslik-majmua). —T.: Sharq, 2013.



«BUYUQ» SO'ZINING ETIMOLOGIYASIGA DOIR

Tursunov Shokirjon

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

O'zbek shevalarida uchraydigan «buyuq» so'zi bugungacha chuqur o'rganilmagan, uning ildizi qayerga borib taqalashi, geografiyasi haqida yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Ushbu maqolada ayni shu masalalar tahlil qilinadi. Tahlillar natijasida hozirgi kundagi «muz» so'zining ham qanday paydo bo'lganligi oydinlashadi.

Kalit so'zlar: o'zbek etimologiyasi, buyuq, buz, bu: z, muz, buy.

Har bir tilning lug'at boyligi uning shevalaridan suv ichadi. Shevalarini saqlab qola olmagan til boyligini va jilosini yo'qota boradi. Aynan shevalarni o'rganish tilning tarixini, etimologiyasini o'rganishni osonlashtiradi. Etimologiyasi chuqur o'rganilgan tilning jahonda ham obro'si baland bo'ladi.

Ma'lumki, etimologiya — yunoncha so'z bo'lib haqiqat, so'zning haqiqiy ma'nosi demakdir. Fan sifatida esa tilshunoslikning so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi bo'limi hisoblanadi. Etimologiyaning asosiy vazifasi qadimiy manbalarni hamda til lug'at tarkibining shakllanish jarayonini va uning dastlabki, qadimiy holatini tiklashdan iborat.

O'zbek tilida mavjud so'zlar va ularning etimologiyasi masalasida so'z yuritilar ekan, dastlab «O'zbek tilining etimologik lug'ati»ni tayyorlagan Shavkat Rahmatullayevning mehnatlarini tilga olish zarur. Mazkur etimologik lug'at mana 18 yildirki bizga beminnat xizmat qilib kelmoqda. Lekin boshqa tillarga qaraganda o'zbek tilining bu sohadagi tadqiqotlari yetarli emas. Vaholanki, turkiy tillarning uch lahjasini ham o'zida saqlab qola olgan tilimizni chuqur etimologik jihatdan tahlil qilish uning jahondagi obro'sini oshirishi kundek ravshan. Chet elda qadimgi turkiy til qatlamini o'rganuvchi olimlar juda ko'p. Aytish joiz bo'lsa, ular bizdan biroz oldinlab ham ketdilar.

O'zbek etimologiyasini yaratishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotgan omillardan biri bu — viloyatlarimizning sheva lug'atlari tugal yaratilmagani, dialektologiyaning oxirgi yillarda biroz e'tibordan chetda qolganidir. Demak,

Ushbu soʻzning mavqeyini koʻtarish uchun eng avvalo uning shevalar lugʻatini toʻla shaklida yaratib olish zarur. Soʻz yuritmoqchi boʻlganimiz «buyuq» soʻzi ham deyarli oʻldirib qoldirib, koʻproq Fargʻona vodiysida ishlatiladi. Aytaylik, yomgʻirli havoda ham qalin kiyinib yurgan boʻlsa, «buyuqda qoldingmi» deb unga gap tashlanadi. Ushbu soʻz Toshkent shevasida ham mavjud:

buyuq — *qattiq sovuq*. Kim *buyuq*: *da qoʻpti, san qolasan* [2: 56];

Jizzax viloyatida ham deyarli shu maʼnoda qoʻllanadi:

buyuq urmoq — *buyuq urmoq, sovuq urmoq, qattiq sovqotmoq*. Mincha qavat qavat kiyimasang *buyuq urup ketyaptimi* [2: 56];

Qashqadaryo viloyatida ham mana shu maʼnoda qoʻllanadi:


buyuq — *sovuq*, muz. *Kimni buyuq uripti, muncha qaltiraysan* [2: 57].

Uzbek tilining etimologik lugʻati» kitobida ushbu soʻzga quyidagicha maʼnolari berilgan:

BUYUQ «qattiq sovuq». *Kechga yaqin Chirchiq tomondan izgʻirin turdi, buyuq otlarni yalab qorini uchirdi. Buyuq kuchaydi* (Hamid Gʻulom). Bu ot qadimgi turkiy tildagi «sovqot» maʼnosini anglatgan *buyuq* feʼlidan -q qoʻshimchasi bilan yasalgan: *buyuq + q = buyuq* [3: 66].

Har qanday qadimgi turkiy tildagi soʻzning tarixini qidirar ekanmiz, birinchi navbatda, Mahmud Koshgʻariyning «Devonu lugʻatit turk» asariga murojaat qilishimiz oʻrinli. Buyuq soʻzini ham shu asardan izlashimiz natijasida maʼlum boʻldiki, ushbu asarda ham bu soʻzning aynan oʻzi boʻlmasa ham, biroq boshqacha shakldagi, ammo aynan shu maʼnodagi shakli topildi:

بودن — *budn* (*budti*) *er tumluqqa budn* — kishi sovuqda qotdi, sovuqdan oʻldi (*budar, budmaq*) [4: 474], [5: 443], [6: 633].



Bu oʻrinda *budn* soʻzi *tumluq* soʻziga yordamchi sifatida kelganday tuyuladi. Chunki *tumluq* soʻzining oʻzi sovuq maʼnosini beradi:

تملق tumluq — *sovuq, sovish*. *Sheʼrda shunday kelgan*:

Tumliq kelip qapsadi,

Qutluq yaynq tepsodi.

Qarlap ahun yapsadn,

Et yin ьььь emriьььь.

Aytilmoqdaki: *Sovuq kelib hamma yoqni qopladi. U barakali yozga hasad qilib, qor yogʻdirdi. Qor yer yuzini qoplay deb qoldi. Kishining badani uvishib, qaltiraydi, goʻyo badanda chumoli yurganga oʻxshaydi* [4: 184], [7: 430].

Biroq qadimgi turkiy tillarni oʻrgangan olimlarning barchasi *budn* soʻzining asosi boʻlmish *bud* soʻzini sovuqdan oʻlish, sovqotish maʼnolarida

keltirib o'tadilar. «Devonu lug'atit turk» asarini ingliz tiliga tarjima qilib, nashr qilgan olimlar Robert Dankoff va James Kelly *budn* so'zini «freeze to death» (sovuqdan o'lmoq) deb izohlaydilar [8: 79].

bud so'zi ko'plab turkologlarning tadqiqotlarida uchraydi va asosan bir xil sovuqotish, sovuqdan o'lish ma'nolarida izohlanadi. «Древнетюркский словарь» lug'atida bu so'z «застывать», «замерзать» (qotmoq, muzlamoq) deya izohlangan [9: 120]. Bu so'zni chuqurroq tahlil qilgan E.V.Sevortyan esa *bud* so'zini eski turkiy tildagi *buy* (sovuq, muzlamoq) so'ziga bog'laydi va ikki bir ma'noni anglatishini aytib o'tadi.

Bu: z — turkchada *bu: s*, yoqutchada *mu: s* va *bu: z*, ozarbayjon, gaguz, qrim-tatar, bolqor, qumliq tillarida *buz* shaklida uchraydi [10: 238].

Bandan tashqari, «Devonu lug'atit turk»ning o'zida ham *bu: z* so'zi alohida mavjud bo'lib, «muz» deya izoh berilgan. بۇز *buz* — *muz*. Maqolda shunday kelgan. *Buzdan suw tamar* — *muzdan suw tomadi*. *Bu maqol xulqi otasining xulqiga o'xshaganlarga aytiladi* [5: 134].

«Turk tilining etimologik lug'ati»da «*Buz so'zi turk tilida qotmoq, sovuqotmoq degan ma'nolarni anglatadi*. Uning *buy*mak va *bumak* variantlari ham mavjud. Aslida *bu so'z qadimgi turkiy tildagi buy so'zi bilan bir xildir*» deya ta'rif beriladi [11: 109].

Endi yana bevosita buyuq so'zining o'ziga qaytsak, E.V.Sevortyan O'zbekistonda, xususan, uning bir qator viloyatlarida «buyuq» so'zi «muzlash, sovuqdan qotish» ma'nolarida ishlatilishini aytib o'tadi. U ham bu so'zning asosi Mahmud Koshg'ariy aytgan *bud* deb hisoblaydi [10: 242]. Sh.Rahmatullayev esa «muz» so'zining etimologiyasini o'rganar ekan, «muz» so'zini *buz* va *buy* so'zlaridan paydo bo'lganini ta'kidlaydi [3: 241].

Turkiyada qattiq sovuqqa nisbatan yoki suvning muzlashiga nisbatan «buz» so'zi qo'llaniladi. Uyg'ur xoqonligi, Qoraxoniylar davrida ham bu so'z *buz* shaklida uchraydi. Bugungi kunda ko'plab turkiy xalqlar, xususan, qozoq, qirg'iz, o'zbeklarda bu so'zning *muz* shakli ishlatiladi [12: 389].

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, *buyuq* so'zi *buy* fe'liga ot va sifat yasovchi *-uq* yoki *-ug'* qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Asos hisoblanmish *buy* fe'li «sovimoq» degan ma'noni anglatadi. *Buy*ning o'zi esa *buzdan* kelib chiqqan, *buz* hozirgi *muz* demakdir. Garchi to'laqonli asosga ega bo'lmasa ham *buzning muz* shaklidagi ko'rinishi Koshg'ariydan 200 yil keyinroq paydo bo'lgan degan qarashlar mavjud [10: 239]. *Bu: z* so'zi avvaliga *u:* harfidagi cho'ziqlikni yo'qotgan, keyinchalik esa *b* undoshi *m* ga almashgan. *b* tovushining *m* tovushiga almashish holatlari turkiy tillarda juda ko'p uchraydi. Masalan, *bing* — *ming*, *buncha* — *muncha* va h. k. *Buyuq* so'zi Farg'ona, Jizzax, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridan tashqari boshqa viloyatlarda ham ishlatilayotgan bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Chunki o'g'uz lahjasining unsurlarini saqlab qolgan hududlarda «buy» so'zi «sovimoq»ni anglatishi yuqoridagi manbalarning deyarli barchasida ta'kidlanadi. Yurtimizda esa bunday hududlar talaygina. Yana shuni takror aytish joizki, tilimizning lug'at boyligini aniqlash va saqlash, uni dunyoga

to'g'ri ko'z qilish uchun eng avvalo shevalarimizning lug'atini, joiz bo'lsa, izohli lug'atini yaratish zarur. Ushbu yo'nalishda qilingan barcha ishlarni birlashtirib, yangi lug'at tayyorlash uyushtirish yaxshi samara beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Vafey xalq shevalari lug'ati.* –T.: Fan, 1971.
2. *Rashitovulliev Sh. Uzbek tilining etimologik lug'ati.* –T.: Universitet, 2000.
3. *Donmü lug'ati-t-turk. M. Koşğariy. Nashrga tayёрловчи Қ.Содиқов.* –T.: Фафур гуруҳи ИМНУ, 2017.
4. *Donmü lug'ati-t-turk. M. Koşğariy. III том. Nashrga tayёрловчи С. М. Мутталибов. T.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси, 1963.*
5. *Donmü lug'at-it-türk tirkibasimi, Faksimile. Ankara, «Aldeeddin Kirak» basimevi; 1941.*
6. *Donmü lug'ati-t-turk. M. Koşğariy. I том. Nashrga tayёрловчи С.М.Мутталибов. T.: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси, 1963.*
7. *Compendium of the Turkic dialects (Diwan lurat at-Turk). Part III. R. Dankoff, J. Kelly. Washington, «Harvard University publisher»; 1985.*
8. *Древнетюркский словарь. Ленинград: Наука, 1969.*
9. *Этимологический словарь тюркских языков. II том. Э.В.Севортян. Москва: Наука, 1978.*
10. *Türk dilinin etimoloji sözlüğü. Эsmet Zeki Eyuboğlu. Zemberlitarо-Эстанбы, «Türk Dil Kurumu matbaacilik», 1991.*
11. *An etymological dictionary of pre-thirteenth-century Turkish. Sir Gerard Clauson. Oxford, «Clarendon press», 1972.*



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TILSHUNOSLIKKA OID BA'ZI QARASHLARI

Xo'jamberdiyeva Shohida

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, Eron xalqlar tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik namunasi bo'lgan «Boburnoma» asaridir. Ushbu asar nafaqat yuqoridagi sohalarni, balki tilshunoslikka doir to'liq qarashlarni ham o'zida mujassamlashtirgan. Biz ushbu maqolada «Boburnoma»dagi ana shu jihatlarni yoritish va ilmiy jihatdan asoslashga harakat qildik.

Kalit so'zlar: memuar asar, tashdid, mazmuniy maydon kengayishi, jonli o'zbek tili, tezaurus lug'at, alternatsiya, korrespondentsiya.

U tilshunoslikka doir maxsus asar yozmagan bo'lsa ham, lekin o'zining qomusiy asari bo'lgan «Voqeanoma» («Boburnoma»)sida tilshunoslikka doir bir qator qimmatli fikrlarini bayon qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur Alishir Navoiyning o'zbek adabiy tilining istiqboli yo'lidagi kurashini davom ettirdi. U nutq madaniyatiga, nutqning sodda, ravon, tushunarli bo'lishiga alohida ahamiyat berdi. Ijodiy faoliyatida doimo bunga amal qildi. Boshqalarni ham shunga da'vat etdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi eng noyob ishonchli manba, shubhasizki, uning «Boburnoma»sida. Shuningdek, bu ulug' shoir va sarkardaning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarlari ham «Boburnoma» maqomiga yaqin turuvchi asarlar sirasiga mansub. Buning bois shuki, Gulbadanbegim va Muhammad Haydar Bobur Mirzo bilan yaqindan muloqotda bo'lgani bois o'z asarlarida buyuk hukmdorning faoliyati, shaxsiyatini aloqador qimmatli ma'lumotlarni keltirishgan. Hasanxo'ja Nisoriyning «Muzakkil ul-ahbob» (1566) tazkirasida ham Bobur Mirzo bilan aloqador ishonchli qaydlar o'z ifodasini topgan. Xuddi shunday fikrni Hindistonni idora qilgan bobur hukmdorlar Akbarshoh, Jahongirshoh, Shoh Jahon zamonida vujudga kelgan tarixiy asarlar borasida ham aytish mumkin.

Hindiston inglizlar tomonidan fath etilgandan so'ng, aniqrog'i, XVIII asrdan boshlab Boburning hayoti, faoliyati, ijodi kabi masalalar Ovrupa sharqshunoslarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Vitsen, Jon Leyden, U.Erskin, R.M.Kalenot, Pave de Kurteyl, Denison Ross, A.Beverijd xonim, Len Pol E.Xolden, V.X.Moreland va boshqa tadqiqotchilar Boburning hayoti va faoliyatini o'rganish, asarlarini nashr va tarjima qilish bilan shug'ullandilar. Bu olimlar orasida ingliz tarixchisi Uilyam Erskinning olib borgan izlanishlari mutaxassislar tomonidan juda ko'p e'tirof etilmoqda. Shotlandiyalik katta yer egasining o'g'li bo'lgan Uilyam Edinburg universitetida tahsil olgandan so'ng, 20 yil (1803-1823) Bombayda istiqomat qilgan. «Boburnoma»ning 1809-yilda Jon Leyden (1875-1811) boshlagan tarjimasini U.Erskin nihoyasiga yetkazgan. Shuningdek, U.Erskinning «Temuriylar avlodidan bo'lmish Bobur va Humoyun davridagi Hindiston tarixi» nomli 600 sahifaga yaqin hajmdagi yirik tadqiqoti 1854-yilda muallif vafotidan keyin nashr etilgan. Olimlarning e'tirof etishicha, U.Erskin forsi tilini mukammal bilgan va temuriylar sulolasi tarixini sinchiklab o'rgangan.

Rus sharqshunoslaridan N.I.Ilminskiy, N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, N.I.Vaselovskiy, V.V.Vyatkin, A.Samoylovich, V.Bartold; afg'on olimlaridan Ahmad Ali Kohzod, Abdulhay Habibiy, Gulchin Maoniy; hind olimlaridan Zokir Husayn, Nurul Hasan, S.A.Sharmi, R.P.Tripatxi, P.Saron, Kanunga; turk olimlaridan Fuod Kupruluzoda, Rashid Rahmati Arad kabilar ham Bobur faoliyati va merosi bilan shug'ullandilar.

Boburning hayoti, faoliyati, ilmiy, badiiy merosini o'rganish, asarlarini nashr etish borasida o'zbek olimlari ham muayyan ishlarni amalga oshirdilar. Adibning shoh asari «Boburnoma»dan parchalar 1928-yilda Abdurauf Fitratning «O'zbek adabiyoti namunalari» majmuasida e'lon qilindi. Shundan so'ng bu

1948-1949-yilda 2 jildda, 1960-1989-yilda tuzatilgan holda nashr etildi. Ushbu asar, boburshunoslik ravnaqida Yahyo G'ulomov, Vohid Zohidov, Homil Yulpebov, Porso Shamsiyev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Abdumoni, Suid Aliev, B.Valixojayev, S.Hasanov kabilarning ilmiy tadqiqotlari asosida tuzilgan bo'lib qo'shildi.

Bobur asarlarining tili bugungi kun uchun ham tushunarli. Bobur til tarixi jihatidan, jonli til xususiyatlaridan mohirlik bilan foydalangan. Shuningdek, o'zbek badiiy prozasining ilk takomili davridayoq so'zlarni o'z o'rmida qo'llay olingan. Bobur asarlarining ma'lum va mashhur bo'lishining sababi ham shunda, ya'ni u, avvalo, yetuk til bilimdoni bo'lgan.

«Boburnoma»dagi umumturkiy leksik birliklarga mahorat ila o'rin berilgan. Muallif voqelikni ifodalashda leksik birliklardan mahorat bilan foydalangan: *bu kun kuni, tuno-kun* (kechagi kun, o'tgan kuni), *oxirzamon* (hukmronlikning oxirgi yillari), *bosh-ko'z qilmoq* (e'zozlamoq), *ilgida xamir bo'lmoq* (muteqil bo'lish), *umr topmoq* (uzoq umr ko'rmoq), *oriyati qo'yulmoq* (vaqtincha bo'linmoq), *o'lmoq* so'zi, shunqor bo'lmoq kabi iboralar bilan ifodalanishi asarning nutq uslubiga xos [1: 173].

Hozirgi tilshunoslikda mazmuniy yo'nalishning kuchayishi natijasida «tilni ko'proq tushuncha kategoriyalariga, mazmuniy kategoriyalarga ajratilmoqda, Ma'lum bir umumiy belgisi bilan birlashgan va o'zaro ma'lum muvofiqatda bo'lgan olam unsurlarining umumlashgan obrazlarining ongda aks etishi tushuncha kategoriyasini, ma'lum lisoniy vositalar yoramida ifodalangan badiiy unsurlarining ongda umumlashgan obrazi mazmuniy kategoriyani hosil qiladi. Mazmuniy kategoriyalar mazmuniy maydonni tashkil etadi. Mazmuniy maydon muzariyasi asosida tuzilgan tezaurus lug'atlar paydo bo'la boshladi. Ana shunday lug'at Yevropada 1852-yilda ingliz tilshunosi I.M.Roje tomonidan yaratildi. Shuning uchun ham shu vaqtga qadar tilshunoslikda tezaurus lug'at yaratishning asoschisi P.M.Roje deb hisoblanadi. Aslida mazmuniy maydon tushunchasi, garchi shu termin bilan nomlanmagan bo'lsa ham, o'rta asr Sharq tilshunoslari undan xabardor bo'lgan. Shuning uchun ham u «Voqeanoma»da so'zlarni ma'lum mazmuniy maydonga birlashtirgan holda izohlaydi va tezaurus lug'at yaratishning ajoyib namunasini ko'rsatadi [4: 97].

Zahiriddin Muhammad Bobur jahon filologiyasining beshigi bo'lgan hind va dunyoda shuhrat qozongan arab filologiyasi an'alaridan bahramand bo'ldi. Bobur o'z voqeanomasida arab, hind tillarining o'ziga xos tovush tizimi, o'zbek tili tovush tizimidan farqlanishi, shuningdek, har qaysi tilning shevalararo fonetik farqlanishi, shuning uchun ham ayrim so'zlarning shu tilning fonetik qonuniyatiga muvofiqlashishi haqida fikr yuritadi. Masalan, «ummuncha deydu'lurkim, bu tog' elini kas derlar. Xotirga yettikim Hindiston eli «shin»ni «shin» talaffuz qilur». Ana shu fonetik qonuniyat asosida *Kashmir* toponimi *kas* toponimini asosida vujudga kelgan etnotoponim ekanligi izohlanadi. *Lamgon* toponimini *Lamgon* va *Lamkon* holidayi ikki fonetik varianti mavjudligini o'qitib, uning sababi haqida yozadi: «Hazrati Nuh payg'ambarning otasi

Mehtor Lomning qabri Alishang tumanidadir. Ba'zi tarixda Mextor Lamak deb turlar. U elni xili mulohaza qilibturkim, ba'zi mahal «ko» o'rninga «g'aym» talaffuz qilurlar, bu jihatgin g'olibo bu viloyatni Lamgon debdurlar» [4: 97].

Shuningdek, arab tilida «g» tovushining yo'qligi, bu tovush ishtirok etgan so'zlar arab tiliga o'zlashtirilganda, «j» tovushi bilan almashtirilishi bayon qilinadi. Masalan, «norgilni arab muarrab qilib norjil der», deydi. Bundan ko'rinadiki, Boduen de Kurtenedan ancha oldin Bobur *alternatsiya* va *korrespondentsiya* deb nomlangan hodisa haqida fikr yuritadi [4: 97].

Boburning nutq madaniyatiga alohida ahamiyat berishi bejiz emas edi. Chunki antik davrda ham, arab xalifaligida ham nutq madaniyatiga har qanday kishining ayniqsa, davlat arbobining egallashi lozim bo'lgan eng muhim san'at turi sifatida qaralar, faqat shunday san'atni egallagan kishigina mohir davlat boshqaruvchisi bo'lishi mumkin, deb hisoblanar edi. Boburning o'zi ham jangda tahlikaga tushgan askarlarni bir necha bor jangovar va ta'sirchan nutqi orqali dadillashtirgan g'alabaga ishonch ruhini uyg'otgan va shu tufayli muvaffaqiyat qozongan. Shuning uchun u o'z farzandlarining ham bu san'atni egallashini eng muhim vazifa deb bilgan. Faqat og'zaki nutqning emas, balki yozma nutqning ham sodda, ravon va savodli bo'lishiga erishish har bir ziyolining vazifasi hisoblangan.

Boburning o'g'li Humoyunga yozgan maktubi fikrimizning dalilidir. «*Xatingni xud tashvish bilan o'qusa bo'ludur, vale asru mug'lakdur (judi chalkashdir). Nasri mu ammo hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas, agarchi xili rost emas. Iltifotni to bila bitibsen, qulunjni yo bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'ludur, vale bu mug'laq alfozingdin (chilkash so'zlar) maqsad tamom mahum bo'lmaydur (tushunmaydi). G'olibo xat bitarda kohillinging (bo'shliging) ham ushbu jihattindir. Takalluf (hashamat, bezak) qilay deysan, ul jihatdin mug'laq bo'ludur, mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz (til) bila biti, ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qig'uvchig'a*».

Shuningdek, turkiy tillarda so'zga *-da, -dan, -ga, -g'a* kabi qo'shimchalari qo'shilishi yoki ularning jarangli undoshi jarangsizlanishi natijasida tashdid hosil bo'lishi (undosh takrorlanishi)ni adib odot termini ostida keltiradi: *davlatta va farog'attin, oyoqqa, ilikka...* [1: 405].

Hindiston voqealari haqida fikr yuritar ekan, Hindistonning hayvon, parranda o'simlik nomlari, fasl nomlari, o'lchov nomlarini batafsil izohlaydi. O'rni bilan boshqa tillarda ularning qanday nomlanishi haqida chog'ishtirma ma'lumot beradi. Xususan, nomlarni quyidagicha tematik guruhlarga bo'ladi: [1: 174]

Hayvonot nomlari: *fil, kark, sahroyi, govmish, nila- gov, kutaxpoy, gulaxron* aslida *gulaxron* ekandur, yahni qora kiyik, taxfif qilib «gulaxra» deb turlar. Modasi okdur, maymun (Hindistoniy «bondar» deydir);

Parranda nomlari: *tovus, shuti* (jangaliy derlar), *shorak, lucha, durroj, pul pakor, sahroyi tovuq, chalsiy, shom, bulana, xorchal, tugdok, charz*;

Suv va suv yoqalarida yuradigan qushlar: *ding, soras, manik, lakkak, ukor, ulug, buzak, o'rdak* (*shaxmurg* derlar), *zumaj, sor, yana bir qushdur qarg'a bila*

shunga *mushobaxati bor. Lamgonotta murgi jangal derlar, shappara* (tamagdor derlar), *Hindiston akkosa* (mato derlar), *karcha, kuyil*;

Uy hayvonoti nomlari: *ilri obiy, sensor, ho'ki obiy, karyol, kokka baliq...*;

Tabotot nomlari: *anbar, yana biri kayladur, arab mavz der. Anbuli, maxva* (tani jaman, kamrak, kadxil, badxal, karunda, panyola, gulya omila, chirunchi, sarmo, zorgil, arab muarrab qilib norjil der. Tor norunj, liju, chanbiry, sadofal, asaripul, karna, omalbez;

Uul nomlari: *josun, kanir, kiyura, jambuliy*;

Ful nomlari: *uch fasl bo'lur: to'rt oyi yoz, to'rt oyi pashkal, to'rt oyi qish. Chikor, baysoq, jit, asor-tabiston. Bular xut, hamal, savr, javzo oylariga tugri keladi. Sovan, bodun, kuvor, kotik-pashkal; bular saraton, asad, sunbula, shayuriga muvofiq keladi. Agxan} pus, mox, pogun-zimiston. Muvofiqi: aqrab. qora, jadi, dalv;*

Kun nomlari: *sonichar—shanba, aytvar—yakshanba, sumvar—dushanba, shanqalvar—seshanba, budvor—chorshanba, brispotvor—panjshanba, sukrvor—shani.*

O'lchov nomlari: *rati, masha, misqol, tula, ser, botmon, moni, minosa, lak, karur, arb, karb nil, padam, song va boshq.*

Hobur asarlarining tili bugungi kun uchun ham tushunarli. Bobur til boyliklaridan, jonli tilning xususiyatlaridan mohirlik bilan foydalangan. Shuningdek, o'zbek badiiy prozasining ilk takomili davridayoq so'zlarni o'z o'rnida qo'llay bilgan. Bobur asarlarining ma'lum va mashhur bo'lishining sababi ham shunda, ya'ni u, avvalo, yetuk til bilindoni bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur ensiklopediyasi. —Toshkent.: Sharq, 2014.
2. Z.M. Bobur, Boburnoma. —Toshkent.: Yulduzcha, 1990.
3. H. Dadaboyev. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati, T.: Universitet, 2008.
4. A. Nurmonov. O'zbek tilshunosligi tarixi. —T.: O'zbekiston, 2002.
5. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. T.: Fan, 1992.
6. H. Husanov. Alisher Navoiyning «Sabhat abxur» lug'ati. —T.: Fan, 1981.
7. T. Badiqov. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilining yuzaga kelishi va tiklanishi. —T.: Fan, 2006.
8. A. Borovkov, A.G'ulomov, Z.Ma'rufov, T.Sermurodov. O'zbek tili grammatikasi. 1-qism, Fonetika va morfologiya. —T.
9. B. Vilixojayev. Mumtoz siymolar. —T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.



ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI BA'ZI TAOM NOMLARI

Nazarova Marhabo

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi ba'zi taom nomlari leksik-semantik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: taom nomlari, leksik-semantik tahlil, o'tmak, non, chalpak, kuloch, ko'moch, umoch, tutmoch

Аннотация:

В статье проведено лексико-семантические анализ названия некоторых блюд и произведениях Алишера Навои.

Ключевые слова: названия блюд, утмак, non, чалпак, кулоч, кумоч, умоч, тутмоч

Key words: the names of meals, lexical-semantic analysis, the utmak, the non, the chalpak, the kuloch, the kumoch, the umoch, the tutmoch

Annotation

The article contains lexical-semantic analysis of the names of some dishes in the works of Alisher Navai

Har bir xalqning asriy tajribasini o'zida mujassam qilgan ona tilidagi lisoniy boylklarni asrab qolish, ularni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Biz ushbu maqolamizda Navoiy asarlarida uchraydigan ba'zi taom nomlari, ularning bugungi o'zbek adabiy va shevalari tilida qo'llanishi xususida fikr yuritimiz.

Taom nomlarining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, qo'llanilish doirasi va iste'molda bo'lish davri tarixan o'zgaruvchidir. Ijtimoiy hayotning, xalq turmush tarzi va ishlab chiqarish qurollari, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi bilan tarmoq leksikalari ham o'zgarib boradi. Ayrimlari butunlay iste'moldan chiqadi, ba'zilari tarixiy so'zlarga aylanadi, ayrimlari ma'lum fonetik va ma'no o'zgarishlari bilan qo'llanishda davom etishi mumkin.

Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan ayrim taom nomlari uzoq tarixga ega. Ularning bir qismi hozirgi kunda ham o'zbek tilida qo'llanish faolligini yo'qotmagan, ayrimlari esa shevalarimizda uchraydi. Masalan: *osh, qavurmach, non, patir, qatlama, qatiq, qaymaq, qimiz, talqon, holva, ko'moch, bulamug* va sh.k.

Navoiy asarlari so'z boyligidagi taom nomlarining ko'pchilik qismini ular qaysi mahsulotdan tayyorlanishiga qarab atalgan nomlar tashkil qiladi. Zotan, o'rganilayotgan taom nomlari tizimida boshqa usullar asosida

nomlangan taomlar bo'lsa ham, ularning katta qismi qanday mahsulotdan tayyorlanishiga asoslanib atalgan nomlardir.

Ularni leksik-semantik jihatdan quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. *Un yoki xamirdan tayyorlanadigan taom nomlari;*
2. *Don mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari;*
3. *Go'shtdan tayyorlanadigan taom nomlari;*
4. *Sut mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan taom nomlari.*

Navoiy asarlarida *un* va *xamirdan tayyorlanadigan taom nomlari* alohida. Negaki, o'zbek pazandachiligida qadimdan bu xildagi taom nomlari boshqa turlariga nisbatan ishlatilish salmog'i va xillarining soni bo'yicha oldingi o'rinni egallaydi. Masalan, undan tayyorlanadigan taom nomlari: *bulamıq*; non mahsulotlari nomlari: *o'tmak, non, fatir, chalpak, kuloch, qatlama, ko'moch*; xamir ichiga masalliq solib tayyorlanadigan taom nomlari: *manti*; xamirli suyuq taom nomlari: *umoch (yovg'on umoch), umoch, ushoq osh* kabi.

Yoki o'zbek tilidagi *o'tmak* hozirgi *nonni* bildiradi. Hazrat Navoiy har ikkala so'zni sinonim tarzda qo'llagan:

Bir quruq *o'tmak* bila suv kelturub,
Ev eyasi boshladi xizmat turub [1: 339].

"Pir otamg'a ayttkim, bu Saidni egninga ko'tar. Ul toqda bir *nondur*. Tushurmon! Otamiz bizni ko'tardi. Ul *nonni* tushurduk. Arfa *o'tmagi* erdi issiq. Otamiz Abulqosim ul *o'tmakni* oldi va ko'zin yashartti va ikki sindurdi [2: 203].

O'tmak va *non* leksemalaridan yasama so'zlar hosil qilingan:

"*O'tmakchi* tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq" [3: 35]. Oshpaz bila *nonvoydin* osh va non tilab yer erdi [4: 16].

"Vaqliyada" ko'pgina taom nomlari uchraydi, shulardan biri — *chalpak*: "Shahon oyining o'rtasidakim, barot bo'lg'ay, *chalpak* o'ttuz botmon, halvo yigirma botmon.... firqarog'a ulashg'aylar" [3: 272].

Navoiy asarlari uchun tuzilgan izohli lug'atida *chalpak* — *chalpak* deb qaydlangan, xolos [5: 119]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan buning ma'nosini bilib olamiz: CHALPAK 1 shv. Xamirni yupqa yoyib, yog'da pishiriladigan yemalik. — Esimdand chiqibdi, — deydi kampir. — Mayliga, men o'zim o'nta *chalpak* pishirib, chiroq yoqaman. M.M.Do'st, Galatepa qissalari [6: 451]. Ammo Muhammad Yusuf Chingiyning "Kelurnoma" asarida "chalpak — yupqa qovurilgan yupqa non" deb izohlangan [7: 109].

"Qone' darveshning quruq noni, tome' shohning xitoy xonidin xo'broqdur. Va forig'i faqrandishning *yovg'on umochi* olg'uvchi g'aniyning *nabotiy kuloch*idin marg'ubroq" [4: 53]. "Mahbub ul-qulub"dan olingan ushbu parchada *umoch* va *kuloch* taom nomlarini ko'ramiz. Ulug' shoir bu ikki so'z taqqushligidan foydalanib, ularni boshqa asarlarida ham qo'llaydi:

Yo'q ulkim shah ollida qo'yg'ay kuloch,
Gadog'a qurug' nonu yovg'on umoch [8: 434].

“Navoiy asarlari lug‘atida” **kuloch**. 1. Holvaga o‘xshash bir tur shirinlik.

2. Sharbat, bodom va qaymoq solib qilingan *kulcha* [9: 321]. Ko‘rinadiki, *kuloch* atamasi bilan ikki xil taom nomi ifodalangan ekan.

Ushbu lug‘at kitobida *umoch* va uning izohi ham uchraydi: **umoch** — qattiq xamirni suvga uvalab pishirilgan suyuq ovqat [9: 625].

Hozirgi izohli lug‘atlarimizda ham bu so‘z izohi deyarli bir xil:

Umoch — uvalangan xamir solib pishirilgan suyuq osh. Arslonqul. zarang tovoqdagi umochni katta qoshiq bilan xo‘r-xo‘r ichdi. Oybek, Navoiy [6: 284]. Ushbu joyda K.Mahmudovning “O‘zbek tansiq taomlari” asarida atala, umoch kabi suyuq oshlarning masallig‘i kamxarj bo‘lganligi sababli «kambag‘al ovqati» deb yuritilgani qayd etilgan.

“Muhokamat ul-lug‘atayn”da o‘qiyviz: “Yana tutmoch va umoch va kumoch va tolg‘onni ham turkcha ayturlar” [10: 17].

Eskirgan so‘zga aylangan yana bir taom nomi **tutmoch** — “pishgan taom turi; xamir oshi, ugra osh” bo‘lsa [ANATIL, 3 j. 162-b], **kumoch/ko‘moch** — “qo‘rga ko‘mib pishiriladigan non” ekanligi anglashiladi [11: 151]. **Tolg‘on/tolg‘on** esa bugungi kunda ham ko‘pchilikka ma‘lum.

Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan taom nomlarining asosiy qismini umumturkiy taom nomlari tashkil qiladi. Alloma asarlari lug‘at boyligida hozirgi o‘zbek adabiy tilida hamda lahjalarda uchramaydigan bir qator taom nomlari ham mavjud. Ularni o‘rganish til leksik tarkibi, uning grammatik doirasi va til tarixi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 7-жилд. -Т.: Фан, 1991.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 17-жилд. -Т.: Фан, 2001.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 14-жилд. -Т.: Фан, 1998.
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 13-жилд. -Т.: Фан, 1997.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III ж -Т.: Фан, 1984.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV ж. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
7. Муҳаммад Юсуф Чингий. Келурнома. -Т.: Фан, 1982.
8. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 11-жилд. -Т.: Фан, 1993.
9. Навоий асарлари луғати. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги “Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1972.
10. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 16-жилд. -Т.: Фан, 2000.
11. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II ж -Т.: Фан, 1984.



II SHO'BA.
ONA TILI TA'LIMI VA
KOMPYUTER
LINGVISTIKASI
MASALALARI

'TILNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI
O'RGANISH ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Shaxnoza

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Maqolada tilni axborot texnologiyalari orqali o'rganish istiqbollari yoritib berilgan. Unda, shuningdek, til o'qitish jarayonida elektron kitoblar yaratish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, musofaviy kurslar tashkil qilish masalalari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, kompyuter lingvistikasi, elektron kitoblar, elektron ta'lim.

Аннотация

В данной статье освещены перспективы преподавания языков при помощи информационных технологий. В ней удалено особое внимание созданию электронных учебников, ведению научных исследований в этой сфере, организации дистанционных курсов.

Ключевые слова: Информационные технологии, компьютерная лингвистика, электронные книги, электронное образование.

Annotation

The article emphasizes perspectives of language learning by information technologies. It also deals with the issues to organize distance courses, carrying out researches, creating a books in the process of language teaching.

Key words: Information technology, computational linguistics, electronic books, electronic education.

Ma'lumki, vaqt o'tgani, zamon rivojlangani sari hayotimizda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynay boshladi va undan foydalanish takomillashib bormoqda. Zamovaviy texnika va texnologiyalar nafaqat uzog'unizni yaqin, vaqtimizni yengil qilmoqda, balki mushkulimizni osonlashtirib, vaqtimizni tejashga ham yordam beryapti.

Xususan, oddiy hisoblash mashinasi (kalkulyator)ni o'laylik, katta hajmdagi ma'lumotlarni hisoblash bilan birga ishimizni tez va vaqtimizni tejagan holda amalga oshirib beryapti. Yana bir oddiy misol qilib kartadan kartaga yoki biror bir hisob

raqamga pul o'tkazish usuli ham vaqtni, ham naqdni tejaydi. Bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Ana endi shu kabi qulayliklarni fanda ko'rib chiqsak. Inson salomatligini mashina aniqlab berayotgan bir paytda, texnologiyaning o'rmini tilshunoslikda uchratmay ilojimiz yo'q. U allaqachon fan sifatida o'z o'rmini egallagan, boshqa fanlar ham bundan mustasno emas. Axborot kommunikatsiyalaridan tilni o'rganish va o'rgatish natijasi o'laroq, o'zbek tilida iboralar izohli lug'ati, antonimlar, sinonimlar, ma'no ko'chish usullari, dominanta atrofida to'plangan dialektlar ro'yxatini, so'z yasovchilar va ularning omonimlik xususiyati, so'zlarning toponimi xususiyati, uslubshunoslikka doir bo'lgan qo'llanmalar va lug'atlarni yaratishimiz mumkin.

Bu sohada pedagog kadrlar texnologik komponentligining shakllantirilishini taqozo qilmoqda.

XX asr oxirida boshlangan va yangi asrda davom etayotgan elektron ta'lim tizimini yaratish jarayonida ona tilini o'qitish masalalarini shu nuqtayi nazardan tadqiq qilish va elektron resurslar yaratish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Til ta'limida rus, ingliz tillarini o'rgatishda kompyuterdan foydalanish, uning afzalliklari, shu bilan birga salbiy jihatlari haqida bir qancha tadqiqotlarda ilmiy mulohazalar bayon qilingan [2].

Ushbu sohada O'zbekiston olimlari ham maxsus tadqiqotlar olib bordi [3: 25, 4: 160].

Sh.J.Yusupovanning nomzodlik ishi o'rta umumta'lim maktablarining ona tili darslarida noan'anaviy usullar, shu jumladan, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullarini yoritib berishga bag'ishlangan bo'lsa, S.Adilovanning nomzodlik ishida oliy ta'lim muassasalarining rus guruhlarida o'zbek tilini o'qitish jarayonida taqdimot texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos usullari ilmiy tadqiq qilingan. Sh.J.Yusupova doktorlik dissertatsiyasida akademik litsey o'quvchilarining «Hozirgi o'zbek tili» fani bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirishda kompyuter texnologiyalarining ahamiyati, DELFI dasturidan foydalanish bo'yicha tavsiyalari o'rin olgan.

Shu talablardan kelib chiqqan holda, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishining bakalavriat bosqichi o'quv rejasiga «O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari» fani kiritildi [5]. Ushbu fan talabalarga pedagogik amaliy dasturlar haqida ma'lumot berish, til va adabiyot ta'limi uchun elektron adabiyotlar yaratish, mashq va topshiriqlar, testlar, boshqotirmalar tuzish jarayonini o'rgatishga yo'naltirilishi orqali ta'lim jarayonini axborotlashtirishni jadallashtirishda dolzarflik kasb etadi.

Ta'lim-tarbiya tizimi va o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifatini takomillashtirib, samadorlikni oshirishga keng e'tibor berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2010-yil 28-sentabrdagi PF 3501-son farmoni va Vazirlar mahkamasining 2011-yil 21-fevraldagi 12-son bayoniga asosan «Elektron ta'lim» tarmog'i shakllantirildi [7].

Ta'lim sohasida elektron darsliklar, elektron lug'atlar, elektron qo'llanma, an'uman olganda bu kabi yengilliklar bisyor. Misol tariqasida tarjima lug'atini shadigan bo'lsak, muayyan bir tilga oid so'zni o'zbekchallashtirmoqchi bo'lsak, lug'at kitoblardan o'sha so'zni qidirib o'tirmasdan, elektron tarjima lug'atga o'sha so'zni kiritsak, tezda topib beradi. Yoki imlo lug'atini olsak, u ham xuddi shunday qulaylikka ega. Biror bir so'zning imlo qoidalariga rioya qilinganligini tekshirmoqchi bo'lsak, kitobdan qidirish o'rniga elektron variantiga murojaat qilsak, ayman o'zini, ya'ni to'g'ri yozilgan variantini chiqarib beradi. Yoki izohli lug'atni o'qiylik, unda ham yuqorida uchratgan yengillik va qulayliklarga duch kelamiz. Yana ko'plab elektron tarjima lug'atlari, dars o'tish metodlari, dars ishlanmalari, yuklamalar va boshqalarni keltirish mumkin.

Bugun hayotimizga chuqur kirib borayotgan internet tizimini keng joriy etish, milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, bu borada o'zbek tilining ma'koniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 14-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tamonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017-yil uchun ijtimoiy va iqtisodiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va vazifalarini belgilashga bag'ishlangan qanqaytirilgan majlisda qilgan nutqida; bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'rgatish vazifalari hali sifatli ta'limiy holda yechilgani yo'qligini, ushbu jarayonga faol ko'mak beradigan va rivojlantiradigan muhitni yaratish zarurligini ta'kidlab o'tadi [6]. Bu muammoni hal qilishda esa kompyuter va axborot texnologiyalarini yanada mukammal o'rganish, ulardan dars jarayonida unumli foydalanishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Kompyuter lingvistikasidan foydalanish orqali bir qancha qulayliklarga ega bo'lish bilan bir qatorda, o'zbek tili qanchalik so'z boyligiga ega ekanligini ko'rsatishimiz mumkin. Misol uchun, *sabr* so'zi doirasida ingliz tilida yettita varianti bo'lsa, o'zbek tilida qirq sakkizta variantini uchratish mumkin.

Shu o'rinda axborot texnologiyalari bilan ishlash jarayonida jahon ilmiy va ta'limiy tadqiqot ishlari haqida tasavvurga ega bo'lishimiz, tilni va boshqa sohalarni masofaviy o'qitish va o'rganish ta'limidan unumli foydalanishimiz mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilganlar balki asl kitob o'rmini bosmasligi mumkin, lekin eng muhimi qulaylik va aniqlik, vaqtni tejash va katta tezlikni hadya etadi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, texnika insoniyat uchun yaratildimi, insoniyat uchun xizmat qilishi lozim. U hayotimizga qay darajada shiddat bilan kirib va ildiz otib ulgurgan bo'lsa, inson ham uning ichiga shu darajada sho'ng'isinki, toki u jamiyatga, millatga, insoniyatga xizmat qilsin. Zero, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti ta'kidlaganlaridek: «Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligi, bu bir tabiiy qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim» [8: 25].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari — oliy qadriyat. —T.: O'zbekiston, 2006.
2. www. e-magazine. meli. ru.
3. Yusupova Sh.J. Ona tili ta'limi samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish / noan'anaviy usullar va kompyuterdan foydalanish/: ped. fan. nomz. ...dis. avtoreferati. —T., 1998.
4. Adilova S. O'zbek tili mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (Oliy ta'lim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida): ped. fan nomz. ...dis. —T., 2004.
5. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. Fan dasturi (bakalavr yo'nalishi uchun). —Toshkent, 2016.
6. Sh.M.Mirziyoyev. «Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasi // «Xalq so'zi» gazetasi. 2017-yil 16-yanvar.
7. www. ziyonet.
8. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. —T.: Sharq, 1998.



TIL TA'LIMIDA INNOVATSION METOD VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abduqodirova Madina

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Maqolada innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va uning ta'lim tizimida tutgan o'rni, til ta'limida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samarali yutuqlarga erishish haqida fikr yuritilgan va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *yangi innovatsion texnologiyalar, metod, til ta'limi.*

Annotation

In this article is given ideas and suggestions which devoted to the importance of innovational technologies and its role on teaching and establishing successful achievements.

Key words: *new innovation technologies, methods, teaching language.*

Аннотация

В этой статье даются рассуждения, относящиеся к значению инновационных технологий и их роли в системе образования. Их внедрение в обучении языкам даёт возможность достижения значительных результатов.

Ключевые слова: *инновационные технологии, методы, обучение языкам.*

Turli evrilishlar ostida kechayotgan, shiddat bilan o'zgarayotgan hozirgi davr zamon ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Eng so'nggi zamonaviy innovatsion metodlarni qo'llash, yangi texnik vositalardan foydalanish, milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan holda yangi

pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi til o'qitish samaradorligini oshirishda ahamiyatlidir.

Innovatsiya — davr talabi. Shunday ekan, til ta'limi sohasida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini tahlil qilgan holda, ta'lim tizimiga tatbiq qilish orqali ta'lim sifatini oshirish bugunning talabi va ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi zamon kishisi aynan shu texnologiyalar ostida shakllanadi. Har tomonlama yetuk, bilimli mutaxassis kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim tizimini takomillashtirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan quyidagi so'zlar fikrimiz isboti bo'la oladi: «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» [1: 14].

Bugungi kunda har bir ta'lim tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llagan holda mukammal milliy metodikani ishlab chiqish va tatbiq etish eng dolzarb masalalardan biridir. Kundalik hayotda innovatsion texnologiyalar kirib kelgani sayin «Zamonaviy o'qitish medodlari», «O'qitishning interfaol usullari», «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» kabi tushunchalar ko'z o'ngimizda umumiy bo'lmoqda. **Texnologiya** — eng yuqori darajadagi natijaga erishish usuli, taraqqiyotni belgilovchi omil. 1872-yildan e'tiboran texnik sohalardan iqtisodiy sohalarga o'tib, ta'lim sohasida yuksak natijalarga erishish usullaridan biri bo'lib qoldi. **Metod** esa har bir fan uchun xususiy va barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan manbalarni to'plash va tasnif qilish, ulardagi eng asosiy xususiyatlarni o'rganish uchun tildagi barcha birliklar, sathlar hamda rivojlanish jamiyonlarini, o'zgarishlarni bilish hamda aniqlash uchun qo'llaniladigan uslub, yo'llar majmuidir [2: 5].

Hozirgi davrda bir nechta chet tillarini bilish zarur. Har bir chet tilini o'rganmoqchi bo'lgan insonda «Chet tilini qanday qilib tez o'rgansa bo'ladi?, chet tilida qanday oson gapirish mumkin?» degan savollar tug'ilishi tabiiy. Tillarni o'rganishdagi innovatsion texnologiyalarning samarali usul va metodlaridan foydalanish ayni shu savollarga javob beradi. Buni ingliz tilini o'rgatish misolida tatbiq etamiz.


Tilshunos olimlar tomonidan tilni o'rganishda to'rtta katta yo'nalish belgilab olingan:

- O'qish — chet tilida o'qilgan matnni tushunish qobiliyati;
- Eshitish — chet tilida eshitgan matnni tushunish;
- Yozish — chet tilida yoza olish qobiliyati;
- Gapirish — chet tilida ifoda etish imkoniyati.

Ushbu to'rt talabga erishish uchun uchta eng kerakli narsani o'zlashtirish muhim: grammatika, lug'at boyligi va talaffuz. Demak, shu yo'nalishlarga e'tibor bergan holda innovatsion metod shakllantiramiz.

Dars, avvalo, grammatikaning eng kerakli mavzularini o'rgatish haftalariga taqsimlab chiqiladi. Har bir darsda bitta grammatik mavzu tushuntiriladi va o'quvchilarning eslab qolganliklari «Aqliy hujum» orqali sinfda ko'riladi. «Aqliy hujum» — qisqa vaqtda bilimlarni tekshirish usullaridan biri bo'lib, g'oyalarni generallashtirish, ularni tanqidiy va konstruktiv holda bildirish yo'llaridan iborat.

Lug'at boyligini rivojlantirishda interaktiv usullardan ko'plab foydalanish mumkin. O'quvchilarga rasmlar tarqatib chiqiladi va ularga rasmda mavjud bo'lgan so'zlarni «Kim ko'p topa oladi?» topshirig'i beriladi:



Bed, table, picture, armchair...Coat, lamp, boots, broom...

So'zlarni yodda yaxshi saqlab qolish uchun topilgan so'zlarga endi «Gap tuza olasanmi?» topshirig'i orqali ham mustahkamlash mumkin.

Yana bir samarali usullardan biri «Xotira mashqi»dir. Bunda o'quvchilarga uch qismdan iborat jadval tarqatiladi va ularga o'rgatilgan so'zlarning o'zbekcha varianti aytiladi. O'quvchilar jadvallarni, avval, o'zbekcha, so'ngra ingliz va rus tillarida to'ldirib chiqadilar. Bu mashq orqali o'quvchi bir til orqali bir nechta tillarni ham egallash imkoniga ega bo'ladi. Boshqa tillarni bilmagan o'quvchilarga so'zlarni do'stlari orqali bilib olishlari mumkin.

Kitob	Book	Книга
O'quvchi	Student	Ученик
...

Talaffuz qilishni o'rganishning eng samarali usuli eshittirishdir. Darsda matn beriladi va audio material orqali eshittiriladi, so'ngra o'quvchidan esida qolgan qismi takroran so'ralib, talaffuzdagi xatoliklarni tuzatishga harakat qilinadi. Har bir o'rganilayotgan so'z o'qituvchi tomonidan talaffuz qilinadi va uni o'quvchilar diktafonga yozib olib, muntazam ravishda eshittishlari talab etiladi.

Hozirgi kunda ta'limning interfaol turi maktabgacha ta'lim bosqichidan to oliy ta'lim jarayonigacha ta'lim oluvchida mustaqil tafakkur hamda to'liq faoliyatni tarkib toptirishga xizmat qiladi. «Tarmoqlar», «Konseptual jadval»

«Modellashtirish», «Debatlar» kabi metodlardan foydalanish ham til o'qitishda jubbii natija beradi.

«Kadrlar tayyorlash — mamlakat taraqqiyotidagi muhim masala. O'zbekiston buyuk kelajak sari intilyotgan ekan, shu kelajak egalari yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash masalasi ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi» [3, 6].

Ta'lim jarayonida, ayniqsa, til ta'limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish fan asoslarini o'zlashtirishda, dars jarayonini faollashtirishda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016.
2. Shirojiddinov Sh. Ta'lim sifatini ta'minlash — davr talabi (O'zbekiston: Til va madaniyat. III seriya. O'zbek tili ta'limi) -T.: TDPU, 2017.



YOZMA NUTQ VA SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA WRITER H AND X DASTURINING O'RNI

Abdurahmonova Sayyora

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada kompyuter lingvistikasining bir qismi bo'lgan avtomatik tahrir dasturlari sirasiga kiruvchi Writer H and X dasturi haqida. Shu bilan birga ushbu dasturning lug'atlar bilan ishlash, yangi so'z qo'shish, yozilgan matndagi so'zlarni to'g'ri va katolarini saralash, kabi imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'z: Writer H and X, avtomatik tahrir, Win Word, AKT, lug'atlar bazasi, user (foydalanuvchi), pedagogik texnologiya

Аннотация

В этой статье представлена информация о программах WriterX и H, включенных в программное обеспечение автоматического редактирования, часть компьютерной лингвистики. А также оно обесняет как работать со словарями, добавляет новые слова исправлять слова в тексте и выбирать ошибки.

Ключевое слова: Автоматическое редактирование, ИКТ (информационный компьютерный технологии), база данных словарей, пользователь, педагогическая технология

Annotation

This article is about on of the editing programmer Writer H and X which is a part of computational linguistics. Additionally, it is targeted to show possibilities such as working with dictionaries, adding new words, editing words and sorting mistakes.

Key words: automatic editing, information and communication technologies, information dictionaries base, pedagogical technologies.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarning negizi shaxsni barkamol, bilimdon qilib tarbiyalashdan iborat.

O'quvchilar bilimni oshirishda, ayniqsa, ona tili fanlari bo'yicha bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini kompyuter texnikasi yordamida nazorat qilish muhim o'rin egallaydi.

Kompyuter texnikasi orqali tashkil etilgan nazoratlar o'quvchilar olayotgan bilimlarni yanada chuqurlashtirish va eng asosiysi ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun turli kompyuter texnikasi vositalarini tanlash imkonini beradi. O'quvchining o'quv faoliyatiga ta'sir etishning ikki qirrası mavjud:

Birinchi — o'quvchi kompyuterda qo'llayotgan uslub va usullar;

Ikkinchi — o'qituvchining faqat pedagogik mahoratiga bog'liq bo'lgan ta'sir etish usulidan foydalanishdir.

Hozirgi kunda o'quvchilar bilimni oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli va samarali foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan eng asosiy o'rinlardan birini egallagan kompyuter texnikasi fanlarni o'qitishda ijobiy natijalarga erishishimizda keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Darslarda kompyuter texnikasidan foydalanish o'quvchilardan kompyuter texnikasi haqida bilimga ega bo'lishni ham talab etmoqda.

Hammaga ma'lumki, bugungi kunda kompyuter texnikasining ahamiyati uning fanning barcha tarmoqlarida shiddat bilan rivojlanayotganlik darajasi soddagina sayin ortib bormoqda. Kompyuter texnikasi yordamida biz ona tili darslarida til aspektlari bo'yicha (fonetika, grammatika, leksika), bilim va ko'nikma, nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv) bo'yicha mashq bajarish orqali ularni mustahkamlashimiz mumkin. Kompyuter texnikasidagi ko'pgina dasturlar — Microsoft Power Point, Microsoft Word, Net Wave Multimedia, Repititor va shu kabi ko'plab boshqalarni ona tili darslariga tatbiq etishimiz mumkin.

Microsoft Word dasturini olaylik.

Windows uchun Word (qisqa qilib aytganda WinWord ba'zi kompyuterlarda uni Microsoft Word deb ham atashadi) — matnlarga ishlov berish dasturi bo'lib, u Windows operatsion qobig'i bilan «hamjihatlikda» ish olib boradi. WinWord dasturini boshqarish «sichqoncha» bilan yoki bir necha tugmachalar kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi.

WinWord — bu matnlarga ishlov beruvchi ko'p funksional dastur. Boshqa dasturlardagi ixtiyoriy matn va rasmlar WinWord ga olib o'tilib, undagi matnga kiritilishi mumkin. Buning natijasida ko'chirilgan fayl WinWord matnining bir qismi hamda faylni tashkil qilgan dastur qismi bo'lib turadi.


Bu dastur o'ziga xos bo'lgan avtomatik ishlov berish elementlari bilan boyigan. Masalan, dasturda:

1. Testlar tuzish;
2. Berilgan so'zlar asosida jumlarlar tuzish;
3. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zlarni tanlash;
4. So'zlarning ma'nodosh shakllarini topish;
5. Berilgan jumalarga savollar tuzish;
6. Berilgan jumalarning to'g'ri tarjima variantlarini tanlash kabi ko'plab hollarda o'quvchilarda bilim va malakaning xotirada uzoq saqlanishiga xizmat qiladi.

Hugun kompyuter lingvistikasi fani jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Bu fan doirasida «Avtomatik tahrir» yo'nalishi ham shakllangan bo'lib, unda kompyuter vositasi orqali matn muharrirlaridagi xatolar tahrir qilinadi. Lekin ilidagi matnlarni tahrir qilish bugungi kungacha inson mehnati bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu matnlarni tahrir qilishga ketadigan vaqtning oshishiga, xarajatlarining ortishiga, inson tomonidan qilinadigan xatoliklarga olib keladi. Avtomatik tahrir dasturi doirasida yaratilgan «Writer H and X» dasturi bu ishni qilingan ishlarning amaldagi namunasi hisoblanadi.


Hundan tashqari, biz Word dasturidagi matnlarni tahrir qiluvchi Writer H and X dasturi va uning imkoniyatlarini ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Ushbu dastur dastur matnida H va X harflarini almashtirib qo'llash bilan bog'liq muammolarni tahrir qilishimiz mumkin. Shu o'rinda dastur imkoniyatlariga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim:

Dastur bazasiga yangi so'zlarni kiritish;



Dastur imkoniyatlarini kengroq ochishga xizmat qiladi. Yana shuni ham esda tutish kerakki, dastur faqat lotin alifbosidagi sozlarni kiritish va tekshirishga mo'ljallangan.

Mavjud so'zni muqobili yoki to'g'ri variantdagisi bilan almashtirish; Lug'at oynasi bilan ishlash;




Ushbu dasturning lugʻat bazasi mavjud boʻlib unga cheklanmagan miqdordagi «Xx» va «Hh» harflari qatnashgan soʻzlarni kiritishimiz mumkin.



Word matn muharririda yozilgan matnlarni dastur yordamida tekshirish;
H va X harflari xato qoʻllangan soʻzlar bilan tanishish;

Dasturning afzalliklaridan yana biri shuki, dastur «X» va «H» harflari qatnashgan soʻzlarni avtomatik tarzda toʻgʻirlamay, balki xato yozilgan soʻzlarni user, yaʼni foydalanuvchiga koʻrsatib beradi. Bu dasturning afzalliklaridan biri desak xato boʻlmaydi. Sababi, agar dastur user yoʻl qoʻygan xatolarni koʻrsatmasdan toʻgʻirlab ketsa, bu oʻsha xatolarga davomli ravishda takrorlanishga olib keladi. Bu esa savodsizlik darajasini oshirib yuboradi. Shu sababli haqiqiy dasturga xatolar bilan tanishish oynasi kiritilgan.



Yuqorida aytib o'tilgan, Writer H and X dasturidan unumli foydalangan holda, o'quvchi o'zi tuzgan matnlarni dastur yordamida to'g'rilashi mumkin. Bunda o'quvchilar bilimini kompyuter orqali odilona baholay oladi. Shu bilan birga, ushbu dastur o'quvchilar nutqini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu dastur, ayniqsa, mustaqil til o'rganuvchilar uchun ham foyda beradi. Shunday ekan, biz bu dasturlardan samarali foydalanishimiz va o'quvchilar bilimni axborot kompyuter texnologiyalari (AKT) orqali mustahkamlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Polatov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – T., 2007.
2. Bahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T., 2011
3. Yeklovshv B. Kompyuter lingvistikasi. – Samarqand, 2011
4. «Kreativ pedagogika asoslari» moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. –T.,2016.

MASHINA TARJIMASIDA FRAZEMALAR OMONIMIYASI

Ahmadova O'g'iloy

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashina tarjimasi va undagi omonim frazalar bilan bog'liq muammolar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: mashina tarjimasi, ma'lumotlar bazasi, omonim iboralar, fraza.

Аннотация

В этой статье пойдёт речь о машинном переводе о проблемах, связанных с омонимичными фразами.

Ключевые слова: машинный перевод, база данных, омонимичные фразы.

Annotation

This article gives a notion about machine translation and problems of homonym phrases in machine translation.

Key words: machine translation, database, homonym phrases, phrases.

Bugungi global zamonda texnikasiz hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Insoniyat yashash tarzini yanada yengillashtirish maqsadida o'z zimmasidagi vazifalarni deyarli mashinalarga yukladi. Bugungi kunda texnika va texnologiya o'z ta'sirini ko'rsatmagan soha qolmadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, tilshunoslik (lingvistika) ham bundan mustasno emas.

«XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda «mashina tarjimasi» «mashina tilshunosligi» atamaları qo'llanila boshlandi. Bu asrning buyuk kashfiyoti bo'lgan kompyuter texnologiyalari tilshunoslikka ham kirib kelganining isboti edi [1: 4]. Bu esa tilshunoslik masalalarini kompyuter texnologiyalari yordamida hal qilish imkonini berdi. Tilning qay darajada boyligini ko'rsatishda, omonimiy, sinonimiya, paronimiya kabi hodisalarning ahamiyati katta. Ayniqsa, shakli bir xil bo'lgan so'zlar (so'z birikmalari, frazalar, parafrazalar va b.) bilan ikki va undan ortiq ma'no ifodalay olish imkoniyatiga ega tillar soni chegaralangan. E'tirof qilishimiz mumkinki, o'zbek tili imkoniyatlarining ichida omonimlik xususiyati alohida ajralib turadi. So'zlar omonimiyasi, frazalar omonimiyasi kabi hodisalar borki, ularni o'zbek tilining boyligi sifatida bemaol ko'rsata olamiz.

Afsuski, omonimiya hali ham o'zbek tarjimashunosligi bilan bog'liq muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, jahon olimlari ham bu masala bo'yicha ko'pgina maqolalar e'lon qilgan. Jamie Faulkner o'zining 2016-yil 24 martda e'lon qilgan maqolasida («The Dangers of Polysemes and Homonyms») «Bunday so'zlar (omonimlar) qanday qilib buncha xavf tug'irishi mumkin? Yaxshi savol. Bu xavf til tarjimasida namoyon bo'ladi. Agar siz ma'lumotlaringizni bitora odamga tarjima qildirsangiz, ehtimol, bu muammoga duch kelmassiz, lekin ma'lumot tarjimasidan foydalansangiz, xatoliklar ko'zga tashlanadi. Omonimlar kelganda

Mashina tarjimonlari turli xatoliklarga yo'l qo'yadi, chunki har bir tildagi omonimlar (for example, Mashina uchun fe'lining (omonim) yoki otrning(omonim) ma'nosini muqobal qilim), degan fikrlarni keltirib o'tadi va quyidagi hayotiy misolni taqdim qiladi: «Right or left?» you say. /» Left... I think. «/» Left? OK, I'm turning left, you say, as you start to turn. / «Right. «/ «Right?» you shout, jerking the wheel the other way and slamming on the brakes. / «No, left! I meant right, correct. Turn left. [Lionbridge onDemand, 1050 Winter Street, Suite 2300, Waltham, MAandemund@lionbridge. com] Bundan ko'rinadiki, hattoki insonlar o'zaro muqobal jarayonida ham omonimlar bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Shu natijada bunday birliklarni o'z o'mida qo'llay olish tarjima sifati va samarasi oshiradi. Ko'pincha omonim frazalar, omonim so'zlar ishtirok etgan o'zbekcha matnlarni mashina yordamida chet tillariga tarjima qilish jarayonida ba'zi xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Bunga sabab o'zbek tilining ma'lumotlar bazasi tuzilishining barcha imkoniyatlarini qamrab olmaganligidir.

Mashina tarjima qilish jarayonida so'zlarning ma'nosini tushunmaydi. Bir tildagi so'zning ikkinchi tildagi ifodasi, ekvivalentini topib bera oladi, xolos. Mashinaga tarjima qilish uchun matn kiritganimizda, u ikkinchi tilning bazasidan birinchi tildagi so'zning muqobilini, ekvivalentini topadi va tarjimaga joylashtiradi. Ammo shu joyda omonim so'zlarning roli katta. Shuningdek, omonim iboralarning har bir to'g'ri tarjimasi chiqarilib, chet tillardagi muqobili aynan qo'llansa til jozibasi kuchliroq namoyon bo'lar edi. Mashina bunday holda (agar omonimlar lug'ati bazasiga kiritilmagan bo'lsa) so'zning faqatgina bir ma'nosidan foydalanadi. Masalan, [Lionbridge] TRANSLATORga «U xonani boshiga ko'tardi» degan gapni muqobalimizda, «He raised the room upside down» degan natijani oldik. Ma'lumki, boshiga ko'tarmoq ibora va so'z birikmasi sifatida omonim bo'lib, uning:

1) e'zozlamoq, qadrlamoq — **value, estimate**; 2) shovqin qilmoq, to'polon qilmoq, jujallashib baqir-chaqir qilmoq — **make a noise, make a bustle, noise loudly**; 3) boshiga ko'tarmoq (boshiga joylashtirmoq, boshining tepa qismiga qo'yarmoq) — **raise to head** kabi ma'nolari mavjud. Ko'rinib turibdiki, bu gapda boshning ikkinchi ma'nosi (shovqin qilmoq — **make a noise**) qo'llangan. Mashina esa tarjimada uchinchi ma'nodan ya'ni so'z birikmasi holatidagi ma'nosidan foydalanadi. Yoki «**Olomon hammasiga ko'z yumdi**» gapini ushbu dasturga muqobalimizda quyidagi natijaga ega bo'ldik: «**The crowd lost all**». Bilamizki, bu holda ham yuqoridagidek muammo tufayli matndan to'g'ri ma'no anglashilmaydi. Bu gap «**The crowd put up with this all**» ko'rinishida tarjima qilinsa, muqabilayotgan mazmunga yaqinroq borilgan bo'lardi. Omonim frazalar, omonim so'zlar ishtirok etgan o'zbekcha matnlarni chet tillariga tarjima qilishda bunday xatoliklar uchrashi ko'p kuzatiladigan holatlardan biri. Buning sababi yuqorida aytilganidek, ma'lumotlar bazasiga borib taqaladi. Tarjimadagi bunday xatoliklarni bartaraf etish uchun dasturning ma'lumotlar bazasiga omonim iboralarning izohli lug'atini tasniflagan holda kiritishimiz kerak bo'ladi. Birikmalar o'zbek filologiyasi nazariyasi nazariyasidan quyidagi kategoriyalar asosida tasniflanishi mumkin:

Misol uchun quyidagi jadvalni havola qilishimiz mumkin:

№	FRAZEMA	TUR-KUMI	IZOHI	QO'LLANILISHI	USLUBI	
1	Jon bermoq	die; pass away	Verb	vafot etmoq, olamdan o'tmoq, ko'z yummoq, o'lmoq	nofaol (out of use)	publitsistik badiiy
		work hard; put a great afford	Verb	bir ishga qattiq kirishmoq, chin dildan qayg'urmoq	faol (use active)	publitsistik so'zlashuv
2	Ko'z yummoq	put up with; to forgive	Verb	kechirib yubormoq, e'tibor bermaslik	faol (use active)	publitsistik badiiy, so'zlashuv
		die; pass away	Verb	vafot etmoq, olamdan o'tmoq	nofaol (out of use)	badiiy
3	Bo'yniga olmoq	confess; admit	verb	iqrar bo'lmoq, aybini tan olmoq	faol (use active)	so'zlashuv
		to take responsibility	Verb	o'z zimmasiga olmoq, mas'uliyatini olmoq	faol (use active)	so'zlashuv
4	Ko'zi ochildi	be born; to start life	Verb	tug'ilmoq, olamga kelmoq	Nofaol (out of use)	so'zlashuv
		realize (also realise); understand	Verb	xatosini tushunmoq; anglab yetmoq	Faol (use active)	so'zlashuv

2. turkumi; 3. izohi; 4) qo'llanilish doirasi; 5. uslubi.

Jahon tilshunoslari mashina tarjimasini rivojlantirish bilan bir qatorda frazalar tarjimasini sifatini ta'minlashga ham harakat qilishmoqda. Xususan, xitoy tilidan ingliz tiliga tarjima jarayonini mashina yordamida amalga oshirish masalasiga

«ilmiylik mutaxassis olimlar — Xing Wang, Zhaopeng Tu, Deyi Xiong, Min Zhang kabi e'tibor qaratishmoqda. Ular 2017-yilda internet tarmoqlariga joylagan maqolasini: «Frazalar tabiiy tilni tushunishda va mashina tarjimasida muhim rol o'ynaydi. (Sag et al., 2002; Villavicencio et al., 2005)» degan jumlar bilan boshlaydi.

Shuningdek, bu borada Jamie Faulkner ham («The Dangers of Polysemes and Homonyms») tadqiqot ishlarini olib boryapti.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, hozirgi zamonda fan va texnika o'zining rivojlangan bosqichiga ko'tarildi. Tilshunoslarni qiynayotgan ko'pgina muammolar mashina yordamida o'z yechimiga ega bo'la boshladi. Bunday masalalardan biri mashina tarjimasidir. Biz o'zbek tilini mashina tiliga aylantirishimiz, o'zbek tilidan chet tillarga tarjima jarayonining sifatini oshirishimiz, o'zbek tilidagi matnlarni ovozlashtirishimiz, elektron kutubxonalar tashkil qilishimiz uchun, avvalo, o'zbek tilining korpusini yaratishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pol'tov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. –T., 2009.
2. Xing Wang, Zhaopeng Tu, Deyi Xiong, Min Zhang «Translating Phrases in Neural Machine Translation» Cornell University Library.
3. Jamie Faulkner. The Dangers of Polysemes and Homonyms. 2016.
4. <http://www.google.com/search>
5. <http://uz.uz/uz/society/>
6. <http://books.google.co.uz/book> <https://phys.org/news/2015-12-quest-technology-speech-human.html#jCp>



MASHINA TARJIMASIDA KONTEKSTUAL SINONIMLARNING TARJIMASI

Anvarova Durdona

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashina tarjimasida ko'p bora duch kelinadigan kontekstual sinonimlar tarjimasini o'rganib chiqilgan. Jahon standartlari asosida o'zbek tilining sinonimlar bazasi uchun muqobil tasnif va tavsiyalar keltirilgan. Tarjimada yuzaga chiqadigan ba'zi bir muammoli masalalar va ularning yechimiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kontekstual sinonim, WordNet, elektron lug'at, kombinatorik sinonimlar.

Annotation

In this article, the translation of contextual synonyms which are widely used in machine translation, is investigated. The suitable recommendations for the database of synonyms of Uzbek language are indicated based on world standards.

Key words: contextual synonyms, WordNet, electron dictionary, the combining form of synonyms.

Аннотация

В этой статье исследуется перевод контекстуальных синонимов, которые широко используются в машинных переводах. Соответствующие рекомендации для баз данных синонимов узбекского языка указаны на основе мировых стандартов.

Ключевые слова: контекстуальные синонимы, электронный словарь объединяющая форма синонимов, WordNet.

XXI asr fan texnika asrida kompyuter texnologiyalari hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, uning turli jabhalardagi roli kundan-kunga jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Natijada mashina inson mehnatini osonlashtiribgina qolmay, kundalik hayotimizda tez-tez duch keladigan muammolarimizning yechimiga ham aylanib ulgurmoqda. Xususan, til sohasiga oid ba'zi bir holatlarni o'rganib chiqadigan bo'lsak, hozirgi kunda bir tildagi matnlarni ikkinchi bir tilga tez va aniq tarjima qilishga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Bunday tarjima dasturlarini yaratishda tilning ichki imkoniyatlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olish zarur.

Zeroki, tilning ichki imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etar ekan, tildagi sinonimlarga ahamiyat qaratmaslikning iloji yo'q. E'tiborga moyil tomonga shundaki, sinonimlar tilning qay darajada boyligini baholab beruvchi qimmatli omillardandir. Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va otenka tush bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi. Sinonim leksema orasida munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi. Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi.

Misol sifatida yuz-bet-aft-turq-bashara so'zlarini keltirish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari so'zlar faqat matn ichidagina bir-biriga sinonim bo'lib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida tarjima jarayonida mashina tarjimasi oldida turli muammolardan biridir. Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi (turli tuman).

Ulardan ayrimlari quyidagilar:

- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi;
- 2) leksemalarning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: «eskirgan», «yangi», «o'ta yangi», «arxalik», «tarixiy»;
- 3) leksemalarning qo'llanish doirasini ko'rsatuvchi sema: «shevaga xos», «so'zlashuvga xos», «kitobiy», «ko'tarinkilik» va hokazo;

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi dominanta (bosh) leksema bo'lib boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma'nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasi neytral, betaraf.

(a) *U ozg'in bo'lib ketibdi.*

(b) *U cho'p bo'lib ketibdi.*

(a) gapdagi «ozg'in» so'zi (b) gapdagi «cho'p» so'ziga sinonim bo'lib kelgan. Yuqoridagi ikki gapda «bir kishining me'yordan kam vazn va shaklda ekanligi»

osib tutilgan. Shundan «ozg'in» soʻzi dominant soʻz boʻlib, uning quyidagicha sinonimik qatori mavjud: 1. Choʻp; 2. Suyak; 3. Qiltiriq; 4. Oriq; 5. Tirriq; 6. Qoʻriq; 7. Qoq suyak

Shundan faqat kontekst ichidagina maʼnodosh boʻlib kela oladigani «choʻp» va «suyak» soʻzlaridir. «choʻp» soʻzini matndan ajratib olib alohida tahlil qiladigan boʻlsak, u quyidagi maʼnoni izohlaydi: daraxt yoki oʻsimlikning tanasi

Suyak – odam va umurtqali hayvonlar skeletining har bir qismi; soʻngak.

Tarjima jarayonida bunday soʻzlarni oʻz oʻrnida qoʻllay olish matnning asosiy maʼnosini saqlab qolishga xizmat qiladi. Kompyuter tiliga aylanib ulgurgan jahon tillaridagi tajribalarni kuzatadigan boʻlsak, sinonimlar matn uslubi va sohasini saqlashda yetakchi ahamiyat kasb etib borayotganini koʻrishimiz mumkin. Bu esa, oʻz navbatida, baʼzi bir dasturlarning kontekstual sinonimlar tarjimasiga yetarlicha eʼtibor qaratmaganligi sabab yuzaga chiqadigan muammolarni yaqqol aks ettiradi bunda dasturlarning qashshoqligini koʻrsatadi.

Jahon standartlaridan umumli foydalanib tajribalardan andoza olgan holda maʼnodosh soʻzlarni tasniflovchi alohida kichik bazani dasturning bosh (asosiy) bazasiga kiritish dastur ishlayotgan bir vaqtda tarjima jarayonida asosiy bazaning qolma olish imkoniyatlarini oshiradi. Umumjahon mezonlari asosida oʻzbek tilidagi sinonim soʻzlarni quyidagicha tasniflash mumkin: 1. Turkumi; 2. Sinonimik qatori; 3. Taʼrifi, izohi; 4. Ishlatilishi; 5. Uslubi; 6. Darajasi (kuchsiz, neytral, kuchli); 7. Badii (ijobiy, betaraf, salbiy); 8. Kontekstdagi sinonimik qatori.

Misol tariqasida *aziz* soʻzini olaylik: 1. Sifat; 2. Qadrli, qimmatli, qadrdon, ulfa yuqin; 3. Koʻngilga juda yaqin, qadrdon, yaqin inson yoki narsa; erkak shaxsning ismi; 4. Keng qoʻllaniladi; 5. Badiiy, publitsistik, soʻzlashuv; 6. Neytral; 7. Ijobiy; 8. Qadrdon; qadrli; qimmatli; bebaho; moʻtabar; yaqin; suyuqli; qadri baland; sevinli; mushukcham.

Xuddi shu *aziz* soʻzining ingliz tilidagi tarjimasida *dear* soʻzini koʻradigan boʻlsak, u quyidagicha tasniflanadi: 1. Adjective (sifat); 2. Close, darling, loved (yaqin, sevimli, suyuqli); 3. Beloved, favorite (suyuqli, sevimli); 4. Widely used (keng qoʻllaniladi); 5. Colloquial (Soʻzlashuv uslubi); 6. Neutral. (Neytral); 7. Positive (ijobiy); 8. Contextual synonyms: cherished, close, darling, doll face, endeared, esteemed, familiar, intimate, loved, pet, precious, prized, respected, measured.


Ingliz tilidagi soʻzlar WordNet bazasiga quyidagi shaklda kiritilgan: 1. 1. Main entry (asosiy soʻz): dear; 1. 2. Part of speech (soʻz turkumi): adjective; 1. 3. Definition (izohi): very expensive; 1. 4. Synonyms (sinonimlari): an arm and a leg, at a premium, cher, costly, fancy, high, high-priced, out of sight, overpriced, pretty, penny, pricey, prized, steep, stiff, valuable. 1. 5. Antonyms (antonimlari): cheap, inexpensive, low-priced, valueless, worthless.



2. 1. Main entry (asosiy soʻz): dear; 2. 2. Part of speech (soʻz turkumi): noun; 2. 3. Definition (izohi): beloved person; 2. 4. Synonyms (sinonimlar): darling, favorite, heartthrob, honey, love, loved one, lover, pet, precious, sweetheart, treasure; 2. 5. Antonyms (antonimlar): despised, hate.

Bir tildagi matn turli xil uslublarda qoʻllanilishi mumkin. Yuqorida keltirib oʻtilgan tasnif asosida soʻzlarni bazaga kiritsak, unda dastur birinchi navbatda, matnning uslubini oʻrganib chiqadi va shu uslub doirasida qoʻllana olishi mumkin boʻlgan soʻzlar bazasiga murojaat qiladi. Natijada foydalanuvchi maʼlum bir uslubni tanlasa, tarjima ham shu uslub doirasida amalga oshiriladi hamda tarjimaning sifati ortadi. Deylik, ingliz tilidagi matn publisistik uslubga xos va ushbu matnda «dear» soʻzi ishtirok etgan: Dear participants, it starts at 9: 30 pm.

Shundan «dear» soʻzini alohida ajratib olgan holda tarjima qilsak uning oʻzbek tilidagi quyidagi muqobillari mavjud: Qadrdon; qadrli; qimmatli; bebaho; moʻtabar; yaqin; suyuqli; qadri baland; sevimli; mushukcham; yaqin inson; hurmatli. Shulardan «hurmatli», «qadrli» soʻzlari publisistik uslubga xos hisoblanadi. Tarjimada ushbu soʻzlardan foydalanilganda, matnda gʻalizlik yuzaga chiqmaydi, matn mazmuniga salbiy taʼsir koʻrsatmaydi. Tarjima jarayonida dastur ehtimollar nazariyasidan foydalangan holda, matndagi kontekstual sinonim oʻrniga uning boshqa bir tildagi muqobilini tanlaydi. Buning uchun har bir soʻzning ehtimoliy holatlari oʻrganilib chiqilishi kerak. Ularning koʻrsatkichlariga qarab matndagi soʻzlar oʻrniga sinonimlarning muqobil variantlari tanlanadi. Har bir rivojlangan tilning oʻz ichki va tashqi imkoniyatlarini inobatga olgan holda kombinatorik lugʻatlari ishlab chiqilgan.

«Dear» soʻzining kontekstual sinonimlarini WordNet lugʻatlarida quyidagi holda koʻrishimiz mumkin:





Yuqorida «dear» soʻzining turli soʻz turkumi boʻlib kelgandagi turli maʼno va muʼnani anglatuvchi sinonimlari berilgan. Lugʻatning umumiy bazasiga qoʻshimcha sifatida sinonimlarning kombinatorik lugʻati ham kiritilgan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, sinonimlarga nihoyatda boy boʻlgan oʻzbek tili jahon tillari darajasiga olib chiqish yoʻlidagi harakatlar qatorida «Oʻzbek tili sinonimlarining elektron lugʻati» hamda «Oʻzbek tili sinonimlarining kombinatorik lugʻati» ni yaratish vazifasi ham bor. Negaki, shu kabi mashina boʻlimidagi bir qator masalalar oʻrganilib chiqilgandagina sifatli natijaga erishish, shu bilan bir qatorda, matning asl maʼnosini saqlab qolish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.google.com/search>
2. <http://uz.uz/uz/society/>
3. <https://books.google.co.uz/books>
4. <https://yandex.ru/company/technologies/translation/>
5. Sayfullayeva R. R., Mengliyev B. R va boshq. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T., 2010.
6. <http://WordNet/search>



BOLALAR NUTQIY FAOLIYATIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI

Dustmurodov Ma'rufjon

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 4-kurs talabasi*

Ergashev Mavlon

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

O'zbek bolalarining so'z o'zlashtirishi va undan foydalanishi jarayonida kuzatiladigan muammolarning yuzaga kelish sabablarini belgilash hamda ularni bartaraf etishda lisoniy va nutqiy vaziyatning ta'sirini alohida e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalar nutqi leksikasiga xos umumiy xususiyatlar ularni qurshab turgan ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq holda namoyon bo'ladi, bolalarning so'z qo'llashi jarayonida yuzaga keluvchi o'ziga xos jihatlari esa ularning ruhiy holatini o'rganish orqali aniqlanadi. Bolalar nutqi leksikasini bunday yondashuvlar asosida tahlil qilish nafaqat ularning maktabgacha yosh davrida, balki o'smirdik davrida kuzatiladigan kommunikativ xususiyatlarni tadqiq qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: muloqot, nutq birliklari, til birliklari, bolalar nutqi

Annotation

It is notable to take into account the impact of linguistic and oral circumstances on contemplating and solving problematic causes while children understand and use words. However, general characteristics of child speech are represented by means of social-cultural surroundings. Specialities of word usage are identified by analyzing child's physiological manner. Such kind of experiments are usefull for the research into communicative characters during preschool and adolescence period.

Key words: communication, components of the language, the child speech.

Bolalar nutqini o'rganish psixolingvistika va sotsiolingvistikaning dolzarb masalalaridan biridir. Individdan shaxs tomon rivojlanayotgan go'dak ona tilini o'zlashtirish bilan bir qatorda undan foydalanuvchi xalqning mental xususiyatlarini ham o'rgana boradi. Jamiyatning kichik a'zosi o'z ehtiyojlarini insoniy munosabatlar hamda nutqiy muloqot natijasida qondirar ekan, u ushbu munosabat va muloqotda yuzaga chiqadigan barcha xususiyatlarni faol o'zlashtiradi. Bolaning ta'lim-tarbiyasi va kognitiv taraqqiyoti bilan bog'liq xususiyatlar, eng avvalo, uning nutqiy xulqida o'z ifodasini topadi. Nutqning shakllanishi va rivojlanishiga oid masalalarni bosqichma-kurs tadqiq etishda bola tomonidan so'z semantikasining talqin qilinishi, bu jarayonning ijtimoiy muhit va individual-psixologik holatga bog'liq ekanini ham alohida e'tiborga olish zarur. Bolalar nutqiga oid tadqiqotlar A.Leontev, D.Makneyl, D.Slobin, Ch.Fergyson, A.N.Gvozdev, A.A.Leontev, Y.I.Negnevitskaya, L.S.Vigotskiy kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. O'zbek tilshunosligida bolalar nutqi

Q. Sayidirahimova va M. Qurbonovalar tomonidan monografik planda tadqiq olingan [8: 8].

Ushbu maqolada biz insonlararo nutqiy muloqot shakllanishining ijtimoiy-ohiy muhit bilan bog'liqligi xususida so'z yuritamiz. Bola nutqi rivojlanishi, tanningcha, oila (shakllanish), maktabgacha ta'lim (rivojlanish) va boshlang'ich ta'lim (takomillashish) muhitida ro'y beradi. Bola nutqining benuqson shakllanishi, unga tarbiya berish alohida sistemaviy yondashuvni talab qiladi. Bola nutqining rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli muhimdir. Ushbu omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- **Ota-onaning yoshi.** Izlanishlarimiz natijasida 35–40 yoshdan oshgan ota-onalarning bolalar nutqi bilan ko'proq shug'ullanishi kuzatildi. Masalan, sharq mamlakatlarida tong'ich farzandga nisbatan kenja farzandning nutqi ravon bo'ladi. Chunki u dunyoga kelganda oilada muloqotga kirishuvchilar soni ko'p bo'ladi.
- **Oilada bobo va buvining borligi.** Oilada bola nutqi bilan bobo va buvilar ota-onaga nisbatan ko'proq shug'ullanadilar. Ular bolalarga ertaklar, milliy qadriyatlar haqida so'zlab beradilar, she'rlar yodlatadilar.
- **Lisoniy ijtimoiylashuv.** Bolaning shaxs sifatida shakllanishida maktabgacha ta'lim muassasasining alohida o'rni tutadi. Bu bosqichda bog'cha muhiti yetakchi o'rinni egallaydi. Ma'lumki, bola qiziquvchan, yangilikka intiluvchan bo'ladi va u bilan bog'liq narsalarni tez o'zlashtiradi. Bolaning lisoniy ijtimoiylashuvi ana shu bosqichda shakllanadi.
- **Oilaning madaniy qiyofasi.** Bola nutqining rivoji uni o'rab turgan madaniy muhit, milliy qadriyatlar, mental xususiyatlar bilan bog'liq. Bola tashqi qurshov, kuzatishlari va oniy bilishlari asosida o'z ongida dunyoning lisoniy manzarasini chizadi. Bunda bola tarbiya topayotgan oilaning madaniy saviyasi e'tiborga olinadi. Albatta, bu o'rinda bu jarayon jamiyatning asosiy negizi hisoblangan oila qaror topgan mamlakatning intellektual-ma'daniy darajasi bilan belgilanadi. Aholisining 99% savodxon hisoblangan O'zbekistonda oila mamlakatning asosiy bo'g'ini sifatida ikki fuqaroning axloqiy-huquqiy ahdlashuvi asosida quriladi. Shundan kelib chiqib, tenglik deyilganda, nafaqat er va xotinning huquqiy tengligi, balki bola tarbiyasida ham teng ma'sulligi anglatadi. Amerikalik tadqiqotchi Dori R. Entvisl maktabgacha yoshidagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqiga oid leksik-semantik assotsiatsiyalar talqinida ijtimoiy-psixologik muhitning ta'siriga alohida e'tibor qaratgan edi [2].
- **So'zni buzib emas, asl holicha o'rgatish.** Ko'pgina o'zbek oilalarida so'zlar talaffuzini osonlashtirish maqsadida uni o'zgartirib o'rgatishadi. Masalan, nonni — nan(n)a, suvni — buva. Bu esa keyinchalik ancha

vaqtgacha bolaning nutqiy faoliyatida ishlatiladi va salbiy holat sifatida baholanadi. Lekin, shuni ham aytish o‘rinliki, aynan ushbu so‘zni bolaga qulay bo‘lishi uchun buzib talaffuz qilish va unga o‘rgatish bolaning keyingi nutqiy davri uchun jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelmagan. Ular keyinchalik so‘zning asliy shaklini o‘zlashtirib ketgan.

- **Nutqining gender xoslanishi yoki bolaga o‘z jinsidan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘lish.** Bunda o‘g‘il yoki qiz bola o‘zining shakllanish davrida atrofda muhit, o‘yinchoqlar (o‘g‘il bolalar mashina, turli harbiy o‘yinchoqlar, qizlar qo‘g‘irchoq, turli ro‘zg‘or buyumlari) va boshqa ijtimoiy qurshov bilan bog‘liq so‘zlar uning xotirasida o‘zlashtirib boradi. Bunday paytda bolaga o‘z jinsidan kelib chiqib, o‘g‘il bolaga vatan, sadoqat, baquvvatlik, sport va shu mavzudagi qiz bolaga ozodalik, fahm-u farosat, saranjomli va shu mavzudagi tushunchalar bilan ko‘proq nutqiy munosabatda bo‘lish kerak.
- **Oiladagi muloqotda noo‘rin varvarizm va vulgarizmlarning qo‘llanishi.** Bunda bunday so‘zlar, albatta, vosita orqali bolaning lisoniy muhitiga kirib keladi. Ota, ona yoki oilaning boshqa a‘zolari orqali. Masalan, otaning noo‘rin so‘zlarni qo‘llashi, ota-onaning bola oldida tortishuvi, bundan tashqari ayrim televideniye kanallarida ijtimoiy va hududiy chegaralangan so‘zlarning ko‘p qo‘llanilishi bola nutqida nuqson paydo bo‘lishiga olib keladi. Natijada bola o‘zi tushunib tushunmay noadabiy qatlarga xos so‘zlardan foydalanadi va bu bora-bora odatga aylanadi.

Boladagi perseptiv (idrok etish) jarayon dastlab oilada kechar ekan, uni qurshab turgan jamiki jonli mavjudotlar va jonsiz narsalarni o‘zining lisoniy imkoniyatlari asosida ongida aks ettiradi. Bu jarayonda oilaviy muhit, asosida ota-onaning roli muhimdir. Bola o‘z ehtiyojlari nuqtayi nazaridan tashqi olam taqsimotini anglaydi. Jumaladan, maktab yoshi arafasidagi bolalar uchun ona uni oziqlantiruvchi, qaynoq taft egasi, ota ham mehr beruvchi, shu bilan birga oiladagi to‘kislik va xotirjamlik garovi, opa yoki akalar bolaning jinsiga qarab yaqin suyanch va o‘rnak bo‘luvchi. Buva yoki buvi «hamma narsani biluvchi» kelajak timsollari. Bola aqliy va nutqiy rivojlanar ekan, yuqoridagi ana shu oila a‘zolari uning ongida nutqiy-intellektual imkoniyat fondi sifatida shakllanadi. Jumladan, 131-maktabgacha ta‘lim muassasida tarbiyalanuvchi Gulyuzxonlarning ota-onasi haqida so‘ralganda, u shunday she‘r bilan javob berdi:

*Adajonim quyoshim,
Oyijonim oymomo,
Akalarim pahlavon,
Ko‘chadagi yo‘ldoshim.*

Oila muhitidagi ko‘pgina muloqotlarda yoshi kattalar bilan bo‘ladigan suhbatlarga alohida e‘tibor berilib, bolalar bilan bo‘ladigan suhbatlarda esa bu holat biroz o‘zgarganligini sezamiz, bolalarni oilaviy muhitda, muloqotga

irishishining ruhiy tayyorgarlik holati izchil tekshirilganda, biz yuqorida sanab o'tgan uch muhit (shakllanish, rivojlanish, takomillashish)ning har birida o'zining muammolari mavjudligi oydinlashdi.

Oila (shakllanish) muhitida biri ota-ona o'z farzandi uchun doimo shaxsiy omma ekanligini anglamasligi, ikkinchisi oilada mahalliy sheva va ko'cha tilida (vulgarizm) suhbatlashish, maktabgacha ta'lim (rivojlanish) muhitida va bolalarning talim (takomillashish) muhitida esa, adabiy til normalariga amal qilmaydigan tarbiyachi yoki o'qituvchi nutqi bolaning nutqiy rivojlanishida sotsiopsixolingvistik inqirozlarni yuzaga keltiradi.

Bolalarda taqlid qilish yuqori. Misol uchun: kinofilmlardagi, qo'shiqlardagi va atrofdagi noan'anaviy so'zlarni tez o'zlashtirib nutqiga ko'chirib oladi. Shu kabi holatlar bora-bora bola nutqining buzilishiga olib keladi. Shu asnoda maktab bosqichida ular bilan ona tili bo'yicha ko'proq va ijodiy ishlansa, bolalar nutqidagi orttirma nuqsonlar, begona so'zlar o'rnatib olishi oldi olingan bo'lardi. Maktab yoshidagi nutqi rivojlanmagan o'quvchilarni siquvga olish bolada ruhiy tushkunlik holatini keltirib chiqarishi mumkin. Ijtimoiy hayotga qul kirib kelayotgan bolaga bunday e'tibor kelajakda o'zining mustaqil o'rni ni topishi, ruhiy kechinmalarini to'g'ri yo'lga solishi, qolaversa, jamiyat uchun foydali inson bo'lib yetishishida uning lisoniy axloqi katta ahamiyatga ega. Shu orinda qayd etish joizki, ko'pincha bolaning kognitiv imkoniyatlari bilan bog'liq ravishda pragmatik to'siqning yuzaga kelishiga kattalar tomonidan komotativ ma'noni ifodalash maqsadida qo'llangan nominativ birliklar sabab bo'ladi [6: 72].

Xulosa qilish mumkinki, o'zbek bolalar nutqiga xos ifoda vositalarining shakllanishida sotsiopsixolingvistik omillarning muhim ekanligini isbotlash bilan birgalikda til va tafakkurning uzviy rivojlanish qonuniyatlarini kashf etishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М., 1972.
2. Леонтьев А.Н. Психология общения. – Тарту., 1974.
3. А.Шаяхметова. Онтолингвистика: прошлое и настоящее // Қазақ тілі гасырлар тоғысында: теориясы, тарихы және қазіргі жайы. – Алматы: Арыс, 2007.
4. Sodiqova M. So'zi ham shirin, o'zi ham shirin. – T.: Yosh gvardiya, 1972.
5. Ruzpova L.R. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragsmatik tadqiqi: Filol. Fanlari d-ri. ...diss. avtoref. – T., 2012.
6. M.Qurbonova. Bolalar perseptiv faoliyatida pragmasemantik muammolarning yuzaga kelishi. Maqola. Mazluma Asqarova va o'zbek tilshunseligi masalalari. Konferensiya materiallari. – T., 2014.
7. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1995.
8. Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo'lidagi ilk odimlar, konferensiya materiallari. –T.: Lesson press, 2017.



TARBIYA BIZ UCHUN YO HAYOT, YO MAMOT MASALASIDIR

Eshqulova Go'zal

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida ona tilining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Bugungi kundagi ta'lim jarayonlari xususida fikr yuritilib, yoshlarning ona tiliga bo'lgan munosabati ko'rsatilgan hamda tegishli taklif va mulohazalar berilgan.

Аннотация

В данной статье широко освещена роль и значение родного языка в процессе воспитания и образования. В ней обсуждаются образовательные процессы сегодняшнего дня показано отношение молодого поколения к родному языку, а также даны соответствующие предложения и рекомендации.

Annotation

In this article, the role and importance of the native language in the process of upbringing and education widely covered. It discusses the educational processes of today, shows the attitude of the younger generation to their native language, as well as the corresponding proposals and recommendations.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq yoshlarga, yoshlarning ta'lim-tarbiya olishiga jiddiy e'tibor qaratildi. Ta'lim-tarbiya tizimida chuqur islohotlar olib borildi. Birinchi navbatda, bosh qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir» deb qayd etilgan va fuqarolarning bilim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlanganligini o'zida aks ettirgan. Bundan tashqari, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning ishlab chiqilishi yoshlarga qaratilgan e'tiborning qay darajada yuksak ekanligini ko'rsatadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarida «Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq» [1: 42] deb bejiz ta'kidlamagan. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz yoshlarni bilimli, aqlli, o'tkir zehni bo'lishi bilan bir qatorda yuksak ma'naviyatli, vataniga, jonajon xalqiga mehr-muhabbatli bo'lishga undagan.

Mustaqilligimiz davomida yoshlarga bo'lgan e'tibor yildan-yilga kuchayib bormoqda. Xususan, ularning qanday ta'lim-tarbiya olishi, yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda va turli xil choratadbirlar ko'rilmogda. Har bir sohada yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilib, turli xil yo'nalishlarda o'z salohiyatlarini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yirik intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tamponlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, ta'lim bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini qat'iiy qo'llab-quvvatlaymiz» [2:15] deb har tomonlama yoshlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqdalar.

Xususan, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor bergan holda, yana qaytadan maktablarda o'n bir yillik ta'limning joriy qilinishi, Maktabgacha ta'lim tizimining hamda Yoshlar ittifoqining tashkil etilishi, Yoshlarga oid davlat siyosatining tuzilishi bugungi kunda yurtimizda yoshlarga qanchalik e'tibor qaratilayotganligini isbotlab turibdi. Shuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlodda milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishimiz lozim. Biz qachon milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini his qila olamiz? Qachonki, biz o'z Vatanimizning turli xil ma'naviy, madaniy, moddiy boyliklaridan, ona tilimizning soflik ekanligi va uning dunyodagi hech qaysi tildan kam emasligidan, buyuk tarixga ega ekanligimizni anglab, undan faxriana olsak, shundagina mazkur tuyg'ularni his qila olamiz.

«Ular bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'on o'rinli hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir» deydi ma'rufatparvar bobimiz Abdulla Avloniy. Haqiqatdan ham har qaysi millatning ona tili va adabiyoti uning o'zligi, milliy g'oyasi, madaniy-ma'rifiy olamining asosi hisoblanadi.

Lekin bugungi kunda yoshlarimiz tomonidan ona tilimizga, adabiyotimizga berilgan munosabat anchagina o'zgargan. Bir necha tillarni chuqur biladigan, ularda kamalot, qiyinchiliklarsiz muloqat qila oladigan yoshlarimiz o'z ona tillarida bir jamlarni to'liq o'zbek tilidagi so'zlardan foydalangan holda tuza olmasligi ayanchli hisoblanadi. Bu masalada nafaqat yoshlarimizning, balki ota-onalarning ham o'rni kamadir. Ular o'z farzandlarini maktabgacha ta'lim muassasalariga berishar ekan, bolalarining rus yoki ingliz tilidagi guruhlarda ta'lim-tarbiya olishlarini xohlashadi. Hattoki, uyda ham farzandlari bilan rus yoki ingliz tilida suhbatlashishga harakat qilishadi.

Bola ayni butun borliqni idrok etish vaqtida ona tilimizni bilmasdan, adabiyotimizdagi go'zal she'rlarni yod olmasdan, o'zbek xalq maqollarining ma'nolarini anglamasdan, bolalar nutqining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tez aytishlardan bexabar holda ulg'ayadi. Ota-onalar maktabda ham farzandlarining rus sinflarida o'qishlarini xohlashadi. Bunday ta'lim jarayonida esa, yoshlar rus tili va rus adabiyotiga ko'proq e'tibor qaratishadi.

Ko'rinib turibdiki, rus sinflarida tahsil olayotgan yoshlar o'z ona-tillarining imkoniyatlarini ham, adabiyotimizning nafisligini ham anglamaydilar. To'g'ri, chet tillarni o'rganish yaxshi, ammo birinchi navbatda o'z ona-tilini chuqur bilish va unga nisbatan hurmatda bo'lish har bir inson uchun muhim burch hisoblanadi.

Har bir o'sib kelayotgan yosh avlod ona tili va adabiyotimiz haqida chuqur bilimga ega bo'lishi, ona-tilini o'rganish jarayonida unga nisbatan cheksiz

hurmatda bo'lishi, adabiyotimizdagi nodir asarlarni faxr bilan tahlil qilib, keng ommaga tatbiq eta olishi kerak va shular orqali o'z Vatani sevishi, uni ardoqlab, rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shishi, umuman olganda xalq manfaatini yo'lida xizmat qilishi lozim.

Buning uchun birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar uchun deyarli hech qanday o'zbek tilidagi materiallar yo'qligini hisobga olgan holda, aynan shu kamchilikning to'ldirilishini ta'minlash lozim, ya'ni bolalarning yoshlaridan kelib chiqib, o'zbek tilidagi materiallarni yig'ish hamda ulardan keng foydalanish kerak. Shu bilan birgalikda, maktablarda ona tili va adabiyot darslarini ingliz va rus tillari kabi kichik guruhlariga bo'lib o'tish yoshlarning o'zbek tili va adabiyotini o'rganishda muhim hisoblanadi.

Mashhur rus yozuvchisi K. G. Paustovskiy: «O'z vataningga bo'lgan chinakam muhabbatningni o'z tilingga bo'lgan muhabbatsiz tasavvur etish mumkin emas» deb ta'kidlaydi. Shunday ekan, yoshlarimizning qalbida vatan tuyg'usini shakllantirishda, komil inson sifatida ulg'aytirishda eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonida ona tili va adabiyotimizga ko'proq e'tibor qaratishimiz lozimdir. Zero, Ona tili — bu millatning ruhidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, —T., 2008.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. —Toshkent., 2016.



NAVOIY ASARLARINING KORPUSINI YARATISH

Hamrayev Bobur

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya

Bu maqolada Navoiy asarlari tilining izohli lug'atni elektron shaklini yaratish haqida mulohaza yuritilgan. Shu bilan birga elektron lug'atlar va kitobiy lug'atlar taqqoslanib, turli farqlari ko'rib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: Izohli lug'at, avtomatlashtirish, Brown korpusi, matnlar korpusi, A.N.Baranov tasnifi.

Annotation

In this article opinions about creating electronic version of explanatory dictionary of the language of Navoi's works are given. Furthermore, differences between e-dictionaries and conventional dictionaries are compared here.

Key words: Explanatory dictionary, automatization, Brown corpus, corpus of texts, A.N.Baranov's classification.

Аннотация

В этой статье проводятся рассуждения о создании электронного вида толкового словаря языка произведений Навои. Вместе с этим сравниваются электронные и обычные словари и рассматриваются их различия.

Ключевые слова: Толковый словарь, автоматизация, Бровнский корпус, электронный корпус, классификация А. Н. Баранова.

O'z zamonasida, balki keyingi davrlarda ham o'z asarlari bilan el-u yurtga nafi etkakan, davlat arbobi, shoir, yozuvchi, tilshunos, adabiyotshunos bo'lgan bobomiz Alisher Navoiyni o'rganish hozirgi kunda ham juda dolzarbdir.

Hozirgi kunda Navoiyga qiziqib, uni o'rganmoqchi bo'lgan har bir qiziquvchiga Navoiy asarlari uchun yaratilgan maxsus izohli lug'atdan foydalanish talab qilinadi. Navoiy asarlarining izohli lug'ati bir necha marotaba, turli yillarda nashr qilindi. Bularidan eng mukammali sifatida 1983–1985-yillarda chop etilgan to'rt tomlik «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» hisoblanadi [1]. Bu lug'at Alisher Navoiyning barcha turkiy asarlari materiallari bo'yicha hozirgi zamon leksikografiyasi va tarixiy-filologik tahlili asosida tuzilgan, unda so'zlarning mukammal izohi berilgan. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan har bir so'z (mustaqil, yordamchi so'z, yuklama, undov) lug'atda alohida bosh so'z-maqola sifatida talqin qilingan. So'zning grammatik formalari bir so'z sifatida qaralgan.

Bu lug'at Alisher Navoiyning turkiy asarlarida uchraydigan barcha hozirgi kunda biz uchun notanish bo'lgan so'zlarni qamrab olganligi bilan Navoiyni o'rganishimizga keng yo'l ochib bergan.

Lug'at ko'pgina qulayliklarni yaratib beradi, ammo hozirgi kun talablariga to'liq javob berolmaydi. Chunki mustaqillikka erishganimizdan so'ng, lotin alifbosiga o'tganligimiz sababli barcha rasmiy ishlar, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari lotin alifbosiga asoslangan yozuvda yuritilmoqda. Lug'at kirill alifbosida yozilgan, o'ttiz yil avval nashr qilingan. Atigi ikki ming nusxada chop etilgan, ammo qayta nashr qilinmagan. Bu esa o'quvchilarga bir qator qiyinchiliklar tug'diradi.

Shu qiyinchiliklarni biroz yengillashtirish va «...ona tilimizning internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, uning kompyuter uslubini, o'zbek tili va dunyodagi yetakchi xorijiy tillar asosida tarjima dasturlarida va lug'atlar, elektron dasrlklar yaratish bilan bog'liq ilmiy-metodik ishlanmalar, amaliy tavsiyalar tayyorlash va bu borada erishilgan natijalarni amaliyotga keng tatbiq qilish...» [2: 17] maqsadida mobil telefonlar uchun elektron shaklini yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Avtomatizatsiyaning ijtimoiy hayotdagi barcha jabhalarga kirib kelishi natijasida lug'atlarni ham elektron holatda yaratish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Kompyuter yordamida lug'atlar bilan ishlashning optimallasuvi natijasida kompyuter leksikografiyasi yo'nalishi shakllandi. Kompyuter leksikografiyasi amaliy tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda lingvistik va dasturiy ta'minot asosida ishlaydigan, kodlash va dekodlash prinsipi asosida yaratilgan

komyuter lug'atlari, ularni tuzish dasturlari, algoritmlari o'rganiladi. Mazkur sohaning rivojlanishi natijasida turli nomlarda elektron lug'atlar yaratilmoqda.

Kitobiy lug'atlar va elektron lug'atlar bir-biridan bir qator farq qiladi:

1. Kitobiy lug'atlarning yaratilishi:

- 1) qo'lyozma variantini shakllantirish;
- 2) qo'lyozmani nashrga tayyorlab, tahrir qilish;
- 3) nashr qilish.

2. Elektron lug'atning yaratilishi:

- 1) qo'lyozma nusxasini tayyorlash;
- 2) qo'lyozmani tahrir qilib, kamchiliklari to'ldirish;
- 3) kompyuterga kiritish;
- 4) lingvistik ta'minotni dasturiy ta'minotga moslashtirish.

Kompyuter va lug'atshunoslik o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashuv o'tgan asrning 60-yillarida o'z ifodasini topdi. Bu yillarda Brown korpusi, 1978-yilda avtomatik tekshiruvchi hamda tilni qayta ishlash uchun maxsus kodlangan zamonaviy ingiliz tili Longman lug'ati (Longman Dictionary of Contemporary English) yaratildi.

Elektron lug'atlar yaratishning A. N. Baranov tasnifiga ko'ra quyidagilar ajratiladi:

- 1) korpus matnlarini shakllantirish hamda so'zlikni parallel tarzda yaratish;
- 2) namunalarning korpusini avtomatik shakllantirish;
- 3) maqolalarni yozish;
- 4) maqolalarni ma'lumotlar bazasiga kiritish;
- 5) ma'lumotlar bazasida maqolalarni tekshirib ko'rish;
- 6) ma'lumotlar bazasida matnlarni tekshirib ko'rish;
- 7) lug'atdagi matnlarni natijasini olish hamda maketini shakllantirish;
- 8) lug'atni chop etish.³

Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati mobil ilova shakli quyidagi tartibda bo'ladi:

- 1) so'z;
- 2) uning izohi;
- 3) so'zga misol tariqasida bir bayt yoki bir jumla keltiriladi;
- 4) qaysi manbadan olinganligi.

Kompyuter leksikografiyasini elektron matnlar korpusisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki kompyuter lingvistikasini bir inson deb olsak, uni joni yaratilgan dasturlar bo'lsa, uning tanasi ma'lumotlar, ya'ni korpuslar hisoblanadi. Matnlar korpusi («corpus» lotincha «tana» degan ma'noni anglatadi) bu elektron holda saqlanadigan ma'lum til birliklaridir. Ular fonemalardan boshlanib, so'z va hatto matnlardan iborat bo'lishi mumkin. Bu yaratilayotgan elektron lug'at Alisher Navoiyning turkiy tilda yozilgan barcha asarlarining hozirgi davr uchun notanish bo'lgan so'zlarining korpusi hisoblanadi.

■ Talabalarining II ilmiy-amaliy anjumani materiallari ■

Dehshat	yetsishganlar	O'yla erdikim nabi as'hab aro.	Lisonut-tayr, 69-19;
Asad Ali	Ikki hijoli aruz rukni	Va ne avtoddin, andoqlim, bayt...	Mezoyinul-avzon, 9;
Shahin	o'rin, makon, vatanlar	Lutf va ehson avtonida farig'ul-bol bo'lg'aylar.	Vaqfiya, 716;
		Navoiy, bo'lmayin zoru zaif o'lmas navo topmoq,	
		Bu erinish pira chang avtoridin dayr ichra talqinlar.	Xazoinul-maoniy, ib-174;
	torlar		
	vaqtlar, samlar, paytlar; umr, hayot, davr, zamon; umr kechirish.	Chun ul avqotda faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutub erdi.	Sayyid Hasan Ardasher, 527;
	vaqt o'tkazish	Va bar taqdirdekim, qoyil jununi iloj qobili bo'lg'ay va avqot jomi	
	vaqtlar jemi; vaqt jarayoni;	saloh bodasidan to'lg'ay	Xazoyinul-maoniy, lvb-763;
	vaqtning sig'dirish hajmi	Xi tilmarmenki ulcha bo'lsa hayot,	
		Ushbu dargohda surgamen avqot.	Sab'at sayyor, 176-1;
	hayot kechirinoq, umr o'tkazmoq	Xama avqotni sadr amlok etib,	
		Vale ko'pragin may uchun tok etib.	Xazoyinul-maoniy, ia-471;
	vaqtlar	Kimki ul vahmu xayoli aro zotirgini kiyurdi,	
		Qilmadi g'ayri hayolot ila avhom tamanno.	Xazoyinul-maoniy, Vlb-11;
	vahmlar, qo'rquv, o'ylar, tuyg'ular	Olim mulkining intiqotli bo'lmas,	
	agar, bordi-yu; garchi, ...sa ham,	Shoh olim agar bo'lsa zavoli bo'lmas.	Nazmul-javohir, XV, 44;
	...sa-da; xoh..., yo..., yoki...		

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mobil ilova shakliga o'tkazilgan lug'at foydalanuvchilarga bir qator qulayliklar yaratadi: har doim o'zi bilan birga olib yurishi, so'zlarni qidirayotganida vaqtining tejalishi, hamda moddiy jihatdan iqtisodiy tejankorlik olib kelishi va boshqalar.

Bu qulayliklar bilan kitobxonni kitob topish va undan foydalanishda duch keladigan qiyinchiliklarni qisman bartaraf etib, qulayliklar yaratishni maqsad qilganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. -T.: Fan, 1983, 1985.
2. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. -T.: Akademyashr, 2011.
3. <http://uz.infocom.uz>
4. <http://conference.fledu.uz>



**O'ZBEK TILIDAGI GRAMMATIK
KATEGORIYALARNING
INGLIZ TILIDAGI KOORDINATSIYASI
(otlarning son kategoriyasi misolida)**

Hamroyeva Mohinur

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashina tarjimasida o'zbek va ingliz tillaridagi ot so'z turkumiga xos son kategoriyasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: grammatik kategoriya, son kategoriyasi, ko'plik shakl, birlik shakl, ot so'z turkumi.

Аннотация

В этой статье описываются сходные и отличительные аспекты числовая категории, имя существительного в узбекских и английских языках.

Ключевые слова: грамматик категория, числовой категория, множественное число, единственное число, имя существительное.

Annotation

This article describes similar and distinctive aspects of the numerical category of noun in Uzbek and English languages.

Key words: grammatical category, numerical category, plural form, singular form, noun.

Insoniyat 3-mingyillikning boshida axborot asriga qadam qo'ydi. Minglab yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun bugungi kunda dastlabki manba, ya'ni axborot olish hayotiy zaruratga aylandi. Professor A.Po'latov «Axborot asri bo'lgan XXI yuz yillikda oltindan qimmatroq bo'lgan ma'lumotni zarar yetkazmay qabul qilish, ishonchli saqlash va eng qulay tarzda savodli qilib boshqalarga yetkazib berish til bilan bevosita bog'liqdir», deydi. Jahon bozorida ma'lumot oltindan ham qimmatliroq baholanadi. Mazkur axborotni topish, saqlash, qayta ishlash va boshqalarga yetkazishning qulay usullariga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Biz bilamizki, ko'pgina xalqlar zamonaviy kompyuterlarni o'z tillarida yaratilgan dasturlar bo'yicha boshqarish imkoniyatga ega. Bunga bizda ham katta ehtiyoj mavjud. Bugungi jadallashib borayotgan zamonda, integratsiya va globallashtirish jarayonida o'zbek tili dunyoviy tillar darajasiga ko'tarish hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Ana shunday muhim ishni amalga oshirishda bizga kompyuter lingvistikasi fani qo'l keladi. Sir emaski, o'zbek tilining kompyuter lingvistikasida hali yechilmagan muammolari talaygina. Xususan, bu sohada sinonimlar, omonimlar masalasi, lug'atshunoslik, o'zbek tilini ovozlashtirish, kompyuter lingvistikasida tarjimashunoslik kabi masalalar hali o'z yechimini topgani yo'q.

Kompyuter lingvistikasida tarjimashunoslikning muammolari, asosan o'zbek tilidagi grammatik kategoriyalarning ingliz tilida muqobil variantlarini topishda ko'rinadi. Har bir xalq o'z til nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda o'z tilining qonun-qoidalarini yaratadi va shunga ko'ra, o'zbek tili va ingliz tillari ham ma'lum til qoidalariga bo'ysunadi.

Grammatik kategoriya deb bir umumiy grammatik ma'no tagida birlashuvchi, shu asosda bir-birini taqozo va bu umumiy ma'noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizimiga aytiladi. O'zbek tilshunosligida tilimizdagi quyidagi grammatik kategoriyalar mavjudligi tanolinadi:

1. Nisbat kategoriyasi
2. O'zgalovchi kategoriyasi
3. Harakat tarzi kategoriyasi
4. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi
5. Son kategoriyasi
6. Daraja kategoriyasi
7. Kelishik kategoriyasi
8. Egalik kategoriyasi

9. Kesimlik kategoriyasi

Shuningdek, ingliz tilida ham ma'lum grammatik kategoriyalar mavjud:

1. Son kategoriyasi
2. Rod (jins) kategoriyasi
3. Zamon kategoriyasi
4. Kelishik kategoriyasi
5. Aniqlik kategoriyasi

Grammatik kategoriyalar ham serqirra mohiyatli lisoniy hodisalar bo'lganligi sababli turli tomondan tasnif qilinadi. Ulardan biri morfologik kategoriyadir. So'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan morfologik kategoriyalar ham ikkiga bo'linadi: leksik-morfologik va funksional-morfologik kategoriyalardir. Biz, har ikki tilda ot so'z turkumini oladigan bo'lsak, bu so'z turkumiga oid grammatik kategoriyalarni o'xshash va farqli jihatlarni ko'rib chiqamiz.

Avvalo, son kategoriyasini ko'ramiz. Bu kategoriya otlarning asosiy tamizlovchi grammatik shakllari hisoblanadi. Masalan: *kitob, qiz, bog', mushuk* so'zlarini olaylik, bu so'z bo'linmas, aniq-noaniq miqdor ko'rinishi, ya'ni nol shaklidir. Ammo, ingliz tilida ot (noun) so'z turkumining aniq-noaniqligi va birligini artikllar (article) beradi: *a, an, the*. Otlar yakka holda turganda artikllar bilan keladi. Masalan, *a book, a girl, an apple, the New York* kabi.

Mashina tarjimasida o'zbek tilidagi ot so'z turkumidagi so'z kiritilganda, uning ekvivalentini artikl bilan chiqarib berishi kerak. Uning uchun esa bazaga artikllarning qoidalarini kiritishimiz zarur. Ingliz tilida ayrim so'zlar doimo *the* artikli bilan keladi, shunday so'zlarni alohida bazasini yaratish kerak. Biz bilimizki, *-lar* affiksi otning ko'plik shaklini yasaydi. Misol uchun: qizlar, kitoblar, mushuklar. Shu bilan birga, ingliz tilida ham ko'plik ma'nosini beruvchi grammatik shakl mavjud. Ingliz tilida ot so'z turkumiga *-s* affiksini qo'shish orqali ko'plik shakli yasaladi. Misol tariqasida, *books, girls, cats, cars* so'zlarini olishimiz mumkin. Ammo, o'zbek tilida *-lar* affiksi bir necha ma'nolarni anglatadi:

1. Ko'plik ma'nosi.
2. Jamlilik ma'nosi.
3. Bog'liqlik yoki o'xshashlikka asoslangan ko'plik.
4. Taxminiylik.
5. Kuchaytirilgan ma'no ifodalash.
6. Hurmat ma'nosi.

Mashina tarjimasida bu masalani yechishimiz uchun bazaga ko'plik shakliga doir ayrim qo'liplarni kiritishimiz zarur:

1. N+plural = book+s=books
2. the+Prop (proper)N+plural the + Smith+s=the Smiths (Ingliz tili uchun)
3. PropN+plural > Avaz+lar=Avazlar kelishdi.

4. C (concrete)N+Pos (possessive)+plural Dada+m+lar=*Dadamlar keldilar.*

5. Num (number)+A (abstract)N+plural uch+yosh+lar=*uch yoshlarda edim.*

6. the+Num+plural the | +50+plural=*the fifties*


7. AN+plural+Pos Bosh+lar+im=*Boshlarim og'ridi.*

Shunga o'xshash qoliplarni kiritganimizdan so'ng shu qoliplar asosida ko'plik shakllari yasaladi va ma'nosi farqlanadi. Ingliz tilida ba'zi so'zlarning ko'plik shakli -s affiksi bilan yasalmaydi. O'zak o'zgarib ketadi. Masalan, *child — children, woman — women, man — men, person — people, goose — geese, mouse — mice* kabi. Bunday so'zlarni esa alohida bazaga kiritishimiz kerak. Agar biz bu so'zlarni baza holiga keltirib qo'ysak, shu so'zning o'zbek tilidagi ekvivalenti yozilganda mashina, shu bazaga murojaat qilib, muqobil variantini keltiradi yoki shu so'zning oldi va orqasidagi so'zlarni tekshirish orqali topish metodini ham qo'llasak bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, o'zbek tilida kompyuter lingvistikasi uchun hali hech qanday bir grammatik lug'atlar yaratilmagan. Mashina tarjimasida har ikki tilning muqobil variantini xatosiz topish uchun, avvalo, o'zbek tilida grammatik lug'at va valentlik lug'atlari yaratilishi kerak. Shu asosda, har ikki tilning grammatik kategoriyalariga doir qoidalar va qoliplarni mashina tilida yaratishimiz mumkin. Son kategoriyasining birlik shakli uchun ehtimollik nazariyasi va so'zlarni birma bir tablii qilish metodi orqali aniqlash ham samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shankar Kumar, Ciprian Chelba and Franz Och Model Combination for Machine Translation. 2009.
2. Kamaljeet Kaur Batra and G S Lehal. Rule based Machine Translation of noun phrases from Punjabi to English. 2010.
3. Ulrike Rackow, Ido Dagan, Ulrike Schwall. Automatic Translation of noun Compounds. 1992
4. B. R. Mengliyev. Hozirgi o'zbek tili. O'quv uslubiy majmua. 2017.
5. www. learn English. de/gramm. com



O'ZBEK ALIFBO VA IMLOSI MUAMMOLARI

Xalilova Mahfuza

*Ilshir Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada joriy o'zbek tili alifbosi va imlosi muammolari to'g'risida bahs o'tirilgan.

Тўғри сўзлар: алфбо, нутқ товۇшлари, харф, харф бирикмаси, имло, ислоҳот

Аннотация

В статье проведено дискуссия о проблемах нового узбекского алфавита и орфографии

Ключевые слова: алфавит, звуки речи, буква, буквосочетание, орфография, реформа

Keywords: ABC, sound, sound combination, letter, orthography, reform

Annotation

The article deals with the problem of the new Uzbek alphabet and orthography

Keywords: alphabet, speech sounds, letter, literal, orthography, reform

Hozirgi lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosi qabul qilinganiga 23 yil bo'ldi. O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan 1995-yilning 5-6-may oyida qabul qilingan respublika qonuni o'sha paytdanoq boshlang'ich ta'lim tizimiga joriy qilindi. Bu alifbo va imlodagi savod chiqargan o'quvchilar hozirda o'ttiz yoshga kiradi. Lekin hali-hanuz mamlakatimizda o'zbek tilini bu yozuvga o'tkaza olmadik. 1993-yil 2-sentabrda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida qonun chiqqan bo'lsa-da, bu to'g'rida 1995-yilda yangi tahrirdagi qonun qabul qilindi. O'shanda yangi yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil etib belgilangan edi. Keyinchalik bu muddat o'zgartirilib, 2010-yil deb ko'rsatildi. Shundan beri yana 8 yil o'tdi hamki, bizda respublika qonuni ijrosi bajarilmay kelmoqda. Bunga bir qancha omillar sabab bo'ldi deb ko'rsatish mumkin:

1. Siyosiy omil; 2. Zarur ehtiyoj; 3. Yozuvdagi ayrim kamchiliklar.

- 1) Siyosiy omil. Ma'lumki, O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar yushaydi. Ularning asosiy qismi o'zbeklarni tashkil qilsa-da, rusiyazon aholi ham jamiyatning ma'lum qismini tashkil etadi. Jamiyatda tinchlik-totuvlikni saqlab qolish o'zbeklardan boshqa millat vakillarining o'z tilida yoki o'zi tanlagan tilda ta'lim olish huquqi konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan. Shu bilan birga davlat tili qonunini ham ro'yobga chiqarish lozimki, bu rusiyazon aholiga ham taalluqlidir. Ammo o'zbek tilini davlat sifatida jamiyat va boshqaruvning, xalq hayotining barcha sohalarida to'liq amal qilishini ta'minlash sekin-astalik bilan kechadigan jarayon. Har holda davlatimiz siyosati shu yo'lni, ya'ni evolyutsion o'tishni ma'qul ko'rdi. Davlat tili masalasining millatlar, davlatlar o'rtasidagi o'zaro

mojarolarga sabablardan biri bo'lganini Rossiya va Ukraina misolida kuzatildi.

- 2) Savodi kirill-o'zbek alifbosida chiqqan va shu yozuvda ish yuritayotgan aholi yangi alifbo va imloga zarur ehtiyoj bo'lmagani bois bunga rag'bat bildirmayapti. Faqat xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimidagina o'qish-o'qitish ish yuritish yangi alifbo va imlodagi olib borilmoqda. Oliy ta'limdan so'ngi yetishib chiqqan mutaxassislar o'z sohasi bo'yicha ishga borgandan so'ng, u yerda amal qilinayotgan kirill-o'zbek yozuviga moslashishga majbu bo'lmoqda. Respublika matbuotining 70 foizi kirill-o'zbek alifbosida. Bu esa yangi yozuv joriylashuvini sustlashtirmoqda.
- 3) Joriy alifbo va imlodagi ayrim kamchiliklar. Ma'lumki, dunyodagi tilnu uchun qabul qilingan alifbo hech qachon muayyan tildagi nutq tovushlarini to'liq ifodalagan emas. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. Masalan *darang'ladi, dong', qo'ng'iz* so'zlaridagi *ng'* tovushi alifbomizda o'z belgisiga ega emas. U yozuvda *n* va *g'* harflari birikmasi *ng'* bilan ifodalanadi. O'zbek tili va adabiyoti universiteti tashabbusi bilan uyushtirilgan, alifbo va imlomizni takomillashtirishga qaratilgan fikrlar to'qnashuvi ijtimoiy tarmoqlarda bir yarim yildan beri ko'rilmogda, ba'zan matbuotda muhokama qilinmogda. Ularda bildirilayotgan fikr-mulohazalar ilgari surilayotgan takliflar turli-tuman bo'lsa-da, yozuvimiz muammolarini hal qilish maqsadiga qaratilgan.

Alifbo va imloni takomillashtirish bo'yicha bildirilayotgan fikr-mulohazalar orasida quyidagi qarashlar ustun:

a) *sh, ch, ng* harf birikmalarini bitta harflar bilan ifoda etish. Ya'ni: *Sh sh* o'rniga *Ш ш*; *Ch ch* o'rniga *Чч*; *NG ng* o'rniga *Г г* harflarini olish (1993-yil 2 sentabrda qabul qilingan variantdagi kabi);

b) harf belgisiga ega bo'lgan *O'o'* o'rniga *Ö ö*; *G' g'* o'rniga *P p* harflarini olish, bosma *o'* va *g'* harflarini ularning yozma shakli bilan birxillashtirish;

d) rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan *sirk, sirkul, sex* kabi so'zlar tarkibidagi birinchi tovush uchun *s* harfini qabul qilish;

e) *sirg'aluvchi j (jurnal* so'zi boshidagi undosh) va *qorishiq j (jo'ja* so'zi bo'g'in boshidagi undoshlar) uchun ayrim harflar olish.

Masalan, professor Sh.Sirojiddinov bu borada shunday fikr bildiradi: "*sh, ch, ng* tovushlarini ifodalashda ham murakkablik yuzaga keldi, ya'ni bir tovush ikkita harf bilan — harflar birikmasi orqali ifodalash yozuv amaliyotida ko'p harf ishlatishga, ko'p kuch va vaqt sarflashga olib keldi". Shuningdek, "*O'o'* va *G'g'* harflarining bosma shaklini yozish murakkablashdi, ya'ni *o* va *g* harflarining yoniga maxsus diakritik belgi (') qo'yiladigan bo'ldi. Bu esa lotin yozuvidagi matnlarning kengayib ketishiga sabab bo'ldi, Masalan, *o'g'il* — *o'g'il* kabi. Ayni paytda lotin yozuvidan foydalanishda tutuq (') va diakritik (') belgilarni chalkashtirish holatlari ko'p".

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ishchi guruhi loyihasi sifatida Nizomiddin Mahmudov nomi bilan internet tarmog'ida taqdim qilingan maqola ham yuqoridagi fikrlar bilan mos. Taqut olim jo'ja, jo'ra, jon, jahon, tijorat, rivoj kabi so'zlarda til oldi, jarangli, qorishiq undoshni ifodalash uchun C c ("dj") harfini olish; J j jurnal, ajdar, garaj, tiraj kabi o'zlashma so'zlarda til oldi, jarangli, sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun J j ("j") harfini belgilashni taklif qilgan.

Filologiya fanlari nomzodi T.Tog'ayev esa alifboga o'zgartirish kiritishga qarshi chiqadi: "harf birikmalari (*sh, ch, ng*) o'rniga bitta harf, qo'shimcha belgili harflar (o', g') o'rniga yaxlit belgili harflar bo'lgani afzal. Ammo joriy alifbomiz shularsiz ham xalqimizning ta'lim-tarbiya, savodini chiqarish va to'hirish, unuman, yozuv bilan bog'liq barcha yumushlariga zarur darajada hamolol yarab turibdi Aksincha, alifboga yana, navbatdagi o'zgartirish kiritish bilan kelib chiqadigan muammolar taraqqiyotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin". Olimning fikricha, hozir alifbo yana almashtiriladigan bo'lsa, yana qancha hujjatlar, kitoblar, darslik-u qo'llanmalar — xullas, ancha narsalarni o'zgartirishimiz kerak. Bu ko'p xarajat, mehnatni talab qiladi, ayrim chalkashliklarga, hatto talafotlarga olib keladi. Qolaversa, jahon hamjamiyati o'lkida beburd bo'lib qolishimiz ham mumkin. Negaki, bu alifbo va imlo bo'sida so'nggi 100 yil ichida qilingan oltinchi islohot bo'ladi.

Biz ham bu masalada muhtaram olimlarimizning ko'pchilik fikrlariga qo'shilamiz. Darhaqiqat, *sh, ch, ng* harf birikmalarining har qaysisini bitta harf bilan ifoda etish lozim. Shunda biz ortiqcha urinish, harakatdan qutilish bilan birga bu masalada qardosh turkiy xalqlar alifbosiga uyg'unlashamiz.

O' o' o'rniga Ö ö; G' g' o'rniga P p harflarini olish bosma o' va g' harflarini ularning yozma shakli bilan bixillashtirishda hamda biz yozuvda tutuq va harf belgisidagi chalkashliklardan qutilamiz.

Rus tilidan o'zlashgan *sirk, sirkul, sex* kabi so'zlar tarkibidagi birinchi tovush uchun s harfini qabul qilishga hojat yo'q, chunki o'zbek tilida bunday tovushning o'zi yo'q. Nega biz boshqa tilda bo'lgan nutq tovushi uchun alifbomizda harf olishimiz kerak? Bu masalada (s tovushini o'zbek yozuvida ifodalashda) professor Sh.Rahmatullayev bergan qoidani to'g'ri deb hisoblaymiz.

Sirg'aluvchi *j* (*jurnal* so'zi boshidagi undosh) va qorishiq *j* (*jo'ja* so'zi bo'g'in boshidagi undoshlar) uchun alohida harflar olishni ham yoqlamaymiz. Ta'lim nuqtayi nazaridan bu o'zini oqlamaydi. Chunki joriy alifboda sirg'aluvchi va qorishiq undoshlar uchun J j harfi bilan yozib kelishga o'rganib, bunga ko'nikma hosil qilganimizda, ularni ajratish chalkashlik tug'diradi.

Hozirga qadar imlo lug'atlarida rejissor, dirijor, budjet, syujet, oktabr yoki rejissyor, drijyor, byudjet, syujet, oktyabr tarzida yozib kelinayotgan ruscha-baynalmilal so'zlarni shaklan ma'lum bir qonuniyatga solish, ya'ni ularning qanday yozilishiga doir qoida yaratish lozim. Shunda imlo lug'atlaridagi variativlikka barham beriladi. Fitrat domla bir paytlar yozganidek: "Imlo birgina

bo'lishi tegish. "Siyosat" ochuninda "hukumat" ichinda "hukumat" degan so'z qancha yomon buzulg'on esa, yozuv ochuninda imlo ichinda imlo degan so'z ham shundaydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog'ayev T. Qoida va amaliyot uyg'unligi. /Ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirishning asosiy omillari. (O'zbek tili doimiy anjumani o'n uchinchi yig'ini materiallari. Navoiy shabri, 2015-yil 10-aprel). -T., 2015. 319-320-betlar.
2. To'raxo'jayeva Sh. Lotin yoki kirill — qay biri ma'qul? <http://kun.uz/18754060?q=%2F18754060>
3. Asanov E. Yangi o'zbek tili loyihasiga chizgilar. <http://www.taraqqiy.uz/2015/06/yangi-o'zbekcha/>
4. Fitrat. Imlo masalasi. Ishtirokiyun, 1919.
5. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. -T.,1999.



MASHINA TARJIMASIDA POLISEMIYA

Haydarov Muhammad

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kompyuter lingvistikasida polisemiya va uning mashina tarjimasida qo'llanilish holati muammolari, o'ziga xos xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: polisemiya, mashina tarjimasi, adektivatsiya, substantivatsiya, omonimiya.

Annotation

Polysemy problems related to its translation in computer linguistics and its unique features are analysed in this article.

Key words: polysemy, machine translation, substantivation, adektivation, homonym.

Kompyuter lingvistikasida polisemiya mavzusi ham o'zining ilmiy tadqiqini kutib turgan mavzulardan biridir. Polisemiya mavzusining tadqiqoti mashina tarjimasi yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslik termini sifatida polisemiya (*yunoncha poly — ko'p+sema — belgi*) — til birliklarining birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi [2: 56, 81]. Ushbu ta'rifdan ma'lumki, bir so'z bir nechta ma'noda kelar ekan. Bu holatni inson ongli ravishda mohiyatiga yetadi, ammo kompyuter-chi? Shu sababli, mashina tarjimasida polisemiya kata qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Albatta, kompyuter dasturiga tildagi polisemantik munosabatlarning bazaviy lug'ati, algoritmi ishlab chiqilib kompyuterga kiritilmas ekan, tarjima biz kutgan darajada aniq va muvaffaqiyatli amalga oshirilmaydi.

Mashina tarjimasida polisemiya hodisasining muammolari haqida to'ntalishdan avval, tilshunos olimlarning polisemiya haqidagi qarashlarini qisqacha bayon etmoqchimiz. Negaki har bir dastur yoki model yaratilishida ilmiy qarash va nazariyalar muhim rol o'ynaydi. Jahon kompyuter lingvistikasi vakillari ham polisemiya nisbatan o'z nuqtayi nazarlari bilan yondashib, asoasan, mashina tarjimasini e'tiborda tutishgan edi. Mashina tarjimasida polisemiya katta muammo ekanligini tushungan dunyo olimlarining ayrimlari so'zlarni bir ma'noli qilish masalasini ko'tarib chiqishgan edi. Biroq hayotda bunday til yo'q va uni yuzaga keltirish mumkin emas [1; 4]. Buni lingvist matematik E.Delavenay to'g'ri anglab, so'zlarning ko'p manoliligini obyektiv o'rganishni ma'qul ko'rdi [3: 105]. Polisemiya hodisasiga sof lingvistik nuqtayi nazardan yondashish fransuz semasiologi M.Breakdan boshlandi. Shundan so'ng polisemiya haqida lingvistlarning turlicha qarashlari yuzaga keldi.

Rus tilshunosi A.A.Potebnya esa «...qayerda ikki ma'no bo'lsa, shu yerda ikki so'z bor» [4: 195], degan fikrni ilgari surgan. A.A.Potebnya bu fikri bilan omonimiya bilan polisemiyaning teng hodisa holatiga keltirib qo'yadi. Dastlab bu fikrga qo'shilgan lingvist olim L.V.Shcherba keyinchalik o'zi tuzgan ruscha-fransuzcha lug'atda polisemantik so'zlarni bir lug'at maqolasi, omonim tarkibidagi so'zlarni alohida lug'at maqolasi sifatida qayd etadi. Hech bir o'rinda ularni qo'riqtirmagan. O'zbek tilshunosligida polisemiya mavzusida T.Aliqulov, M.Sodiqova, D.X.Bozorova, M. Mirtojiev singari olimlarimiz ilmiy tadqiqot olib borishgan. M.Mirtojievning «O'zbek tilida polisemiya» nomli monografiyasida o'zbek tilidagi polisemiya nazariy jihatdan tahlil qilinish barobarida polisemiyaning yondosh hodisalarga qiyoslanishi, yuzaga kelishi va tasnifi tilning milliy xususiyatlaridan kelib chiqib hal qilingan.

Matn tarjimasida polisemiya va unga yondosh bo'lgan tushunchalar alohida ta'riflanishi zarur. Avvalo, polisemiya konversiya, sintaktik substantivatsiya, adektivatsiya hamda omonimiya hodisalari o'rtasidagi o'zaro ayrim ma'no qirralari bilan farq qiluvchi tushunchalarni ajratib olishimiz zarur. Adektivatsiya (ta'riflashish) — boshqa turkumga oid so'zning sifatga ko'chishi [2: 91].

Ya'ni adektivatsiya o'zi ifodalagan narsaning belgisinigina ifodalaydi. Masalan, *temir iroda, ipak soch* kabi birikmalardagi *temir, ipak* so'zlari polisemiyaning hosil qilmagan. Shunchaki, turkumdan turkumga o'tish hodisasi — konversiya orqali adektivatsiya hosil bo'lgan. Polisemiyaning asosiy talablaridan biri o'z ma'noni ifodalagan semema qaysi turkumda bo'lsa, ko'chma ma'nodagi semema ham o'sha turkumda bo'lishidir. Masalan, *insonning boshi, yo'lning boshi, ariqning boshi* so'zlaridagi *boshi* so'zi bir turkum doirasida polisemiyaning hosil qilgan. *Temir, ipak* so'zlari esa o'zi bog'lanib kelgan so'zning sifatlovchisi bo'lib kelgan.

Adektivatsiya ba'zi hollarda sinekdoxa bilan ham aralashirilib yuborilishi mumkin. Sinekdoxa (*yunoncha birga nazarda tutmoq*) — bir predmet nomining boshqa predmetga butun va qism munosabati asosida ko'chishi, qism orqali butunni yoki butun orqali qismni tushunish. Masalan, *olma*: 1) mevaning bir turi va

2) shu mevaning daraxti; yoki *Besh qo'l barobar emas* jumlasidagi «qo'l» so'z barmoq ma'nosidadir [2: 88].

Shuningdek, sinekdoxada butun nomi bilan asosiy belgisi hisoblangan bo'lagini ham atash hodisasi mavjud. Adektivatsiya ham asosan narsaning nomi bilan uning asosiy belgisini atash natijasida yuzaga keladi [1: 18].

Jumladan, turkiy tillarda rang nomlari uncha taraqqiy topmaganligi o'turkumiga oid so'zlarning rang bildiruvchi sifatlarga ko'chishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, gul nomini bildiruvchi gunafsha so'zi ham sifatga ko'chgan, ya'ni gunafsha so'zi mazkur gulga xos rangni ifodlash ma'nosiga ham ega.

Taqqoslaymiz: 1) *Qutbdagi gunafsha*; 2) *Bu yer sariq, gunafsha, qizg'inkich gullar va giyohlarga boy*. Misolda gunafsha o'simligi nomi bilan uning rangi ham atalgan. Shu jihati orqali sinekdoxaga o'xshab ketadi. Shu hodisaga o'xshab ketadigan o'sma o'simligi va undan siqib olinadigan o'sma suyuqligi o'rtasidagi o'xshashlik sinekdoxaga misol bo'ladi. Negaki, o'sma rangli suyuqligi o'simlikning tarkibi — qismi (aynan shu o'simlikdan siqib olinishi haqidagi tushuncha ongimizda shakllangan). Ammo rang esa gulning (umuman, har qanday narsaning ham) tarkibi — qismi bo'lib kelolmaydi. Shu sababli, gunafsha so'zi sinekdoxa bo'lolmaydi. Sinekdoxada butunning nomi bilan atalgan bo'lak har doim o'sha butunning mantiqiy bir qismi bo'lishi shart. Adektivatsiyada esa, rang biron narsaning nomi bilan atalgan, har qanday narsaning ham shunday rangi bo'lsa, u ifodalayveradi [1: 19].

Masalan, gunafsha nur, gunafsha siyoh va hokazo. Shuning o'zi ham narsa va uning belgisi, narsa va uning qismi emasligini bildiruvchi dalildir. Shunday ekan *tulki odam, yetim bola, arslon yurak* misollari ham narsa nomi bilan uning har qanday belgisini atash sinekdoxa emas, ya'ni sintaktik adektivatsiyaga oid. Demak, sintaktik adektivatsiya ko'chma ma'no hosil qiluvchi sinekdoxa bilan hech qanday aloqaga ega emas, leksik ma'no hosil qilmaydi va ko'p ma'noli so'zning vujudga kelishida rol o'ynamaydi [1: 19].

Narsadan uning belgisiga nomning ko'chishi kabi narsaga nomning ko'chishi, ya'ni sifat substantivatsiyasi ham sinekdoxaga teng emas. Masalan, *cho'loq, tirtiq* sifatlari bilan odamni atash sinekdoxa bo'la olmaydi. Bu sifatlar bilan kishini atashda ular yangi ma'no bermaydi, balki o'z ma'nosi bilan belgi anglatayotgan bo'ladi. Bu hodisa tilshunoslikda sintaktik substantivatsiya deb yuritiladi [1: 20].

Omonimiya va polisemiya o'rtasidagi tafovut mashina tarjimasidagi eng nozik masaladir. Sababi so'zlarning ko'p ma'noliligi singari shakldosh ekanligini farqlash nafaqat tarjimada, balki jonli nutqda ham qiyinchilik tug'diradi. Omonimiyani yuzaga keltiruvchi hodisalaridan biri polisemiyaning taraqqiyot natijasidir. Leksik ma'nolarning tobelik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'z ma'nolarini o'rtasidagi aloqaning uzilishiga sabab bo'lib omonimiyani hosil qiladi. Ya'ni tobelik natijasida hosil bo'lgan shunday ko'chma ma'nolar ham borki, ular hosil bo'lgach shu ma'noda aniqlikdan umumiylikka taraqqiy etish sodir bo'ladi [1: 30].

Masalan, *oy* so'zida tobelik natijasida ko'chma ma'no hosil bo'lishiga e'tibor beraylik. 1-ma'nosi «yer yo'ldoshi» dir. Uning «yer atrofida bir aylanib chiqish»

vaqtan muddat» esa tobelik natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nodir. Oy harakatining mana shu bir sikli taxminan 29 yarim kunga teng. Ammo hozirgi mavohiriy oy 28, 29, 30, 31 teng holatlarda. Buning ustiga bu oylar o'zining tug'ilishi va tugishi bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan holda boshlanib, tugaydi. Demak, oy o'zining tobelik yo'li bilan hosil bo'lgan ko'chma ma'nosi o'zining yer atrofida bir aylanib chiqishiga ketgan muddatiga shartli ravishda tenglashtirilib olingan bo'lsa ham, u umumlashgan holda, oy harakati sikli bilan bog'liq bo'lmagan holda vaqt o'chlov ifodasi bo'lib qolgan. Polisemantik so'z tarkibidagi ko'chma ma'no tobelik yo'li bilan hosil bo'lgan bo'lsa va u shunday aniqlikdan umumiylikka taraqqiy etib kelgan, mos va tobe ma'nolar o'rtasidagi aloqa uziladi [1: 31].

Yo'ni polisemantik so'z ikki so'zga farqlanishi natijasida omonim vujudga keladi.

Yuqorida biz polisemiya va unga yondosh tushunchalar o'rtasidagi farqli va o'xshash holatlarni tahlilga tortishga harakat qildik. Endi bu hodisalar tarkibiga kiruvchi so'zlar o'zbek tilidan boshqa tillarga yoki boshqa tillardan ingliz tiliga qanday tarjima qilinadi? Bu masala, hal qilingandan so'ng kompyuter dasturiga qanday kiritiladi? Bu holatni o'zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ko'rib chiqamiz.

Sintaktik adektivatsiya va sintaktik substantivatsiya hodisalari bilan bog'liq so'zlar har ikki tilga ham qanday bo'lsa, shunday tarjima qilinadi.

cho'loq — *lame, crippled*

temir — *iron*

Bu so'zlarni birikma shaklida ham shunday tarjima qilinishini kuzatishimiz mumkin:

cho'loqning kiyimi — *dress of lame, lame's dress*

temir iroda — *iron power, iron will, iron determination*

oy so'zi omonim bo'lganligi sababli ikkala ma'nosi ingliz tilida ikki xil tushinishda aksini topgan.

oy — *moon*: *yangi oy* — *new moon*; *to'lin oy* — *full moon*

oy — *month*; *shu oy* — *the current month*; *o'tgan oy* — *last month*; \

may oyi — *month of May*

Ushbu holatdagi kabi so'zlarning tarjimasini dasturga o'zlari birikib keladigan so'zlar (misolimizdagi singari) bilan birikma shaklida kiritsak, tarjima sifatliroq chiqadi.

Polisemantik so'zlarning tarjimasiga keladigan bo'lsak, biz o'zbek tilidagi so'zlarning asosiy qismi (ilmiy atamalarini nazarda tutmagan holda) ko'p ma'noli bo'lib keladi. Biz u so'zlarning ko'p ma'noli ekanligini matnda anglatgan ma'nosidan bilib olishimiz mumkin: *iliq mubosabat, aloqani uzmoq, sovuq niyat, boshning ko'zi, daraxtning ko'zi...* Bunday sintaktik qurilmalar har bir tilning so'zlashuvchisi bo'lgan xalq vakillarining milliy an'ana, o'ziga xos dunyoqarashi asosida shakllangan va mana shunday ma'noni anglatuvchi birliklar boshqa til vakillari so'zlashadigan tildagi shaklidan anchayin farqlidir:

iliq — *warm, heat warmly, cordial, sincere*

warm — iliq; do'stona; samimiyat; tetiklashmoq; yanada qiziq boshlamoq, iliq munosabat — warmhearted;

kimnidir iliq kutib olmoq — give somebody a cordial welcome

yuqoridagi misollardan ma'lumki, bir so'z boshqa tilda anglatgan ma'no bilan necha so'zlarda o'z aksini topmoqda. Agar polisemantik so'zlarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qiladigan bo'lsak, g'aliz tarjima hosil bo'ladi. Shunday ekan, polisemantik so'zlarning tarjimasini dasturga kiritishdan avval polisemiyaning hosil qiluvchi birliklarni har ikki tilda ham muqobilini topib, teng taqqoslash asosida birlashtirib chiqishimiz lozim. Xuddi ingliz tilidagi Phrasal Verb larni tarjima qilgan singari Sababi, *ishning ko'zi — eye's work* deb tarjima qilish mantiqsizlik bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirtojiev M., O'zbek tilida polisemiya. —T., 1975.
2. Hojiyev A., Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. —T., 2002.
3. Delavenay E., Ia machine a traduire, —Paris, 1950.
4. Погобня А.А., Из записок по русской грамматике, 1941.



O'ZBEK TILIDA DARAJA SHAKLLARINING O'QITILISHIGA BIR NAZAR

Hudoynazarova Shoira

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida ona tilining o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Bugungi kundagi ta'lim jarayonlari xususida fikr yuritilib, yoshlarning ona tiliga bo'lgan munosabati ko'rsatilgan hamda tegishli taklif va mulohazalar berilgan.

Аннотация

В данной статье широко освещена роль и значение родного языка в процессе воспитания и образования. В ней обсуждаются образовательные процессы сегодняшнего дня показано отношение молодого поколения к родному языку, а также даны соответствующие предложения и рекомендации.

Annotation

In this article, the role and importance of the native language in the process of upbringing and education widely covered. It discusses the educational processes of today, shows the attitude of the younger generation to their native language, as well as the corresponding proposals and recommendations.

Jamiyat a'zolarining nutqiy savodxonligini oshirish bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda ona tili ta'limining yangilangan mazmundagi tizimini, ta'lim jarayoni tuzilishining maqsadi, vazifasi mazmunning bayon etish usullarini belgilab

borish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bilimlar puxtaligi va ongli o'qitishdagi amaliy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tilning qonun — qoidalarini bilgani holda unga amal qilmagan, o'z fikrini mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan talabalar, avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, o'qitish ham qiyin, modomiki til aloqa aralashuv quroli. Ijodiy fikrlash va uni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, ravon, chiroyli, aniq adabiy til me'yorlarida ifodalash vositasi ekan, nutq madaniyatini rivojlantirish maktabda ona tili o'qitilishining bosh maqsadi deb qaralmog'i kerak.

Shu nuqtayi nazardan til o'qitish tizimidan belgilangan bilimlarni o'rgatish bilan turli sharoitlarda bayon eta olish, bir ma'noni turli shakllarda to'g'ri ifodalash, asosiy ish qog'ozlarini yozish, badiiy, ilmiy, ijtimoiy adabiyotlar haqida fikr-mulohazasi, shaxsiy munosabatini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri ifodalash madaniyatini, boshqalar bilan mulqotda bo'lish, ona tilining go'zalligini, rang-barangligini namoyish qilish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va mantiqiy tafakkurni o'stirish kabi turli usullardan foydalanib ish ko'rish va tarbiyachilarning muvaffaqiyatli vazifasi bo'lib qolmog'i lozim.

Ko'rinadiki, ona tili o'qitishda umumdidaktik tamoyillarining dars samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan maqsadga erishishda ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi, ilmiylik va izchillik, amaliyot va nazariya uyg'unligi, aloqadorlik ongli o'zlashtirish, faollik va mustaqillik zamini ekanligi haqida fikr bildiriladi. Ona tili o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos prinsiplari bir-biri bilan chambarchas bog'langan, bir-birini to'ldiradigan yaxlit bir pedagogik hamda metodik talab bo'lib, ularga qat'iy amal qilish dars samaradorligini oshirishda, o'quvchilarga puxta bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanish, ularni ijodiy imkoniyatlarini tobora kengaytirishga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitishda daraja shakllari muammosini o'rganishga doir umumiy holatlarni ko'rsatish va shu bilan bog'liq uslubiy xarakterdagi maxsus ishlarni yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, o'quv mashg'ulotlari har bir o'qituvchining o'zi tomonidan yaratiladigan individual jarayondir. Shunday ekan, o'qituvchilarning uslubiy qo'llanmalariga bo'lgan ehtiyoji kundan-kunga orta boradi, chunki zamon talabi, maktab islohoti talabi o'qituvchidan o'z ustida ishlash, izlanish va yana izlanishni talab qiladi. «Metodika» ga ham fan, ham san'at deb qarash, yosh avlodni talab qilingan daraja va o'qitish uchun uning sirlarini chuqur o'rganish har bir o'qituvchining doimiy ishi bo'lishi kerak. Pedagogik ishga — o'qitish jarayoniga ijodiy yondasha oladigan o'qituvchi maktab tajribasida to'plangan uslubiy yutuqlarni amalda tatbiq etib, ayni vaqtda uslubiyatda eskirib qolgan sxematik va formal ish usullariga qarshi keskin kurash olib boradi. Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitishda daraja shakllari muammosini o'rganishga doir umumiy holatlarni ko'rsatish va shu bilan bog'liq uslubiy xarakterdagi maxsus ishlarni yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Grammatik ma'no va ularning ifodasi bo'lgan vositalar birligi grammatik kategoriya deyiladi. Muayyan grammatik kategoriya o'zaro uzviy munosabatda bo'lgan ikki yoki undan ortiq grammatik ma'no va uni ifodalovchi grammatik shakllar (affiksalar) tizmidan iborat bo'ladi.

Morfologik kategoriyalar bilan sintaktik kategoriyalar o'rtasida uzviy aloq mavjud. Ular o'rtasidagi munosabat pog'onali sanaladi. Sintaktik kategoriyalar morfologik kategoriyalar negizida hosil bo'ladi. Lekin ular bir-biriga teng emas. Xususan, sintaktik zamon kategoriyasi morfologik zamon kategoriyasi negizida hosil bo'lsa ham, ular o'zaro teng emas, sintaktik zamon kategoriyasi kengroq va ifodalanishi xilma-xildir.

O'zbek tilshunosligida, nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham qiyoslash kategoriyasi, odatda, ajratilmaydi. Qiyosiy daraja mavjudligi, albatta, tan olinadi va sifat darajalari yoki qiyoslash darajalari (степен сравнения) kategoriyasi a'zosi sifatida taqdim etiladi.

Hozirgi o'zbek tilida sifat darajalari tizimini ko'rsatishda ham bir xillik yo'q. Xususan, quyidagicha daraja ko'rinishlarini ajratish uchraydi: Hozirgi o'zbek adabiy tilida sifatning daraja formalari quyidagicha:

1. Orttirma daraja — belgining ortiqligini ifoda etish uchun qo'llaniladi.

2. Ozaytirma daraja — belgining kamlik darajasini ifoda etish uchun qo'llaniladi.

3. Qiyosiy daraja — bunda belgining ortiq-kamligi turli chog'ishtirish usullari vositasida aniqlanadi.

Hozirgi va o'tmish lingvistik adabiyotlarda sifatning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari haqida fikr yuritib kelingan va unda rus tili qolipidan kelib chiqilgan. O'zbek tilidagi sifatlar esa bu qolipga tushmaydi, balki oddiy daraja, belgining kamligi darajasi va belgining ortiqligi-kuchaytiruv darajasini farqlash imkoniyatini beradi. Sifatlar singari ravishlar ham turli darajaga egabo'lishi yoki darajalanmasligi mumkin. Masalan, *tezroq chopmoq, juda sekin yurmoq* kabilarida harakatning tezlik darajasi har xil, lekin *hamisha, arang, zo'rg'a* kabilar bildirgan belgi darajalanmaydi.

Xullas, ta'lim jarayonida zamonaviy o'quv-texnik vositalardan foydalanib, ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. O'quvchida fanga qiziqish uyg'otadi va mustaqil ishlash, izlanish malakasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. —T.: O'qituvchi, 1992.
2. Bazarov O. O'zbek tilida darajalanish. DDA. —T., 1997.
3. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. —T., 1999.
4. Elmurodova L. O'zbek tilida daraja funksional-semantik maydoni. Filol. f. nomz. diss. avtoref. —T., 2011.
5. Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. (o'quv qo'llanma) —T.: Fan, 2006.



MASHINA TARJIMA TIZIMIDA LEKSIK OMONIMIYA

Isrofilov Doston

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashina tarjima tizimida leksik omonimiya, u bilan bog'liq muammolar, omonimiya muammosining yechimlari uchun amaliy tavsiyalar va takliflar va shuni o'z ichiga olgan tilmizga tadbiq etish haqida qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: leksikomoniya, mashina tarjimas, muammolar, tavsiyalar, takliflar.

Annotation

The article is about lexical homonymy in machine translation, some researches in the sphere and applied proposals for special aim. Furthermore, it represents implementation of solving problems of homonymy for mother tongue and given brief suggestion how to apply for machine translation in perspective.

Key words: lexical homonymy, machine translation, problems, proposal.

Аннотация

В этой статье освещена лексическая омонимия в машинном переводе, рассмотренные по поводу этой темы. А так-же даны рекомендации и советы по поводу решения этих проблем и применение их в наш родной язык.

Ключевые слова: лексический омоним, машинный перевод, проблемы, рекомендация, предложение.

Uzoq tarixiy va evolutsion jarayonlar natijasida insonning fan-texnika sohasidan foydalanishga bo'lgan ehtiyoji ortib bordi. Shu bilan birga inson qabul qiluvchi yoki uzatuvchi axborot resurslari hajmi bir nechti barobar oshdi. Har bir paydo bo'lgan tushunchaga yangi nom qo'llash tildagi leksik birliklar miqdorining oshib ketishiga olib keldi. Natijada yangi tushunchalarning ma'nosini ifodalashda mavjud leksik shakllardan foydalanildi. Shu tarzda deyarli har bir tilda omonimlik (omonimiya) hodisasi paydo bo'ldi. Darhaqiqat, omonimiya tilning ichki va tashqi imkoniyatlarini hisobga olgan holda til va nutq birliklari o'rtasida paydo keladi. Shu o'rinda insoniyat aql-zakovatining eng so'ngi yutuqlaridan biri bo'lgan mashina tarjimas haqida ham to'xtalib o'tsak.

Mashina tarjimas zamon talabi bilan shiddat bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Bu taraqqiyotning bosh omili iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy va siyosiy matnlarni tez va sifatli tarjima qilishga bo'lgan hayotiy ehtiyojdir. Shu o'rinda tan olish kerakki, mashina tarjimas badiiy adabiyotni tarjima qilishga qodirlik qiladi. Shu boisdan tanqidchilar orasida «mashina Shekspirmi tarjima qilibmikan, u sarflangan vaqt va sarmoyaga arzimaydi» [1-6] degan fikr tez-tez eslatiladi.

Lekin ayni kunda foydalanilayotgan ayrim mashina tarjimas tizimlari ba'zi bir o'zgarish uchun ma'lum turdagi matnlarni talab darajasida tarjima qilmoqda. Ularning ishlash tizimi va sifat ko'rsatkichi inson tomonidan takomillashtirilmoqda. Mashina

tarjimasining yana bir afzallik jihati uning arzonligi va tezkorligidir. Inson bir yil davomida tarjima qilgan matnini tarjima qilish uchun mashinaga ko'pi bilan bir soat kifoya.. Biroq har qanday ilm sohasi kabi mashina tarjimasini ham muammo va kamchiliklardan holi emas. Ushbu maqolada mashina tarjima tizimida ko'p duch kelinadigan dolzarb muammolaridan biri shakldoshlik hodisasi va o'zbek va ingliz tillarida unga doir amaliy jihatlarga bir qadar to'xtalib o'tamiz.

Tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida juda ko'p uchraydigan muammolardan biri leksik shakldoshlik hisoblanadi. Omonimlar ifoda planiga ko'ra bir xil bo'lishiga qaramay, gapda bajaradigan sintaktik vazifasi, tobelanish darajasi, so'z turkumi, grammatik shakllarni qabul qila olish olmasligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi. Og'zaki nutqda ko'pincha leksik urg'u ularni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi. Omonimiya bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha so'z turkumi doirasida bo'lishi mumkin.

Masalan: o'zbekcha qirq (son), qirq (harakat), qirq (marosim nomi), sochiq (artinish uchun ishlatiladigan yumshoq mato), (qutlash uchun sochiladigan shirinlik); inglizcha bark (itning vovillashi), bark (daraxtning postlog'i) yoki bank (tashkilot), bank (bankka pul qo'ymoq), bank (qirg'oq, sohil). Zamonaviy fan va texnologiya taraqqiyoti natijasida tabiiy tilning leksik qatlamiga yangi so'zlar kirib kelishi yoki eskirgan leksika chiqib ketishi mumkin. Tabiiyki, bu omonim so'zlarning ma'no qatorini kengayishi va torayishiga olib keladi.

Inson ongli ravishda nutqda omonim so'zlarni urg'uni to'g'ri qo'yish va umumiy kontekstual mazmun orqali bilib olishi mumkin. Ammo ushbu maqoladagi asosiy masala mashina tarjimasida omonim so'zlarning to'g'ri tarjimasini chiqarib bera olishidir. Chunki tarjima jarayonida omonim so'zning ikkinchi bir ma'nosi berilishi butun bir kontekst ma'nosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va matn mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin. Quyida ingliz tilidagi bir necha misollar yordamida fikrimizni ochib berishga harakat qilamiz.

1. *There is only a little beer left.* = Bu yerda *ozgina* piva qolgan. *I was only to pleased to leave that place.* = Bu yerni tark etishdan *yagona* mamnun odam menman. *If only you had been, you could given me a chance to run business.* = *Qaniydi*, sen bo'lganingda edi, menga biznesimni boshlash uchun imkon bergan bo'larding.


Bu misollarda *only* so'zi uch xil ma'noda qo'llangan. Agar ikkinchi gapni birinchi gapdagi ma'nosi bilan tarjima qilsak: *Bu yerni tark etishdan ozgina mamnun odam menman* — degan tarjima chiqadi va bunda gap mazmuni butunlay o'zgarib ketadi. Bu nafaqat mashina tarjimasini ba'zi holatlarda inson tarjimasida ham jiddiy xatolikka sabab bo'lishi mumkin. Navbatdagi misolimizda inglizcha *board* so'zining omonimik qatorini ko'rib chiqamiz. **Board** 1. pol va boshqa qurilish materiallari uchun foydalaniladigan uzun taxta. 2. havo kemalari, qayiq va tranvaylarning ichi, bort 3. biror joyda qolganingizda buyurtma qilingan oziq-ovqat 4. boshqarma. Ushbu ma'nolarni gap ichida qo'llab ko'ramiz.

1. *Loose boards creaked as I walked on them* – *Ustida yurganimda bo'shab qolgan pol g'ichirladi*. 2. *They would not be able to board without a ticket* –

Ular chiptasiz bortga chiqa olishmaydi. 3. I have to pay for room and board — Men xona va ovqat uchun to'lashimga to'g'ri keladi.

4. He sits on the board of directors — U direktorlar kengashida o'tiradi.

Board leksemasi omonimlikdan tashqari polisemantik ma'nolarga ham ega bunda bu so'z bir qancha so'zlar bilan birikib qo'shma so'zlar, frazemalar hosil qilishi va ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin. Quyida *board* so'zi olibtirokidagi gaplarni tarjima dasturlaridan biri bo'lgan Google translator yordamida tarjima qilib ko'ramiz.



Yuqorida havola qilingan tarjimalarni tahlil qilsak, birinchi gapda omonim so'z tarjimasi qisman to'g'ri, lekin ikkinchi gapda umuman tarjimada berilmagan. Uchinchi gapda esa taxta ma'nosi berilgan va tarjimada xatolik yuzaga kelgan. So'nggi gap esa yaxshi tarjima qilingan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ma'lumotlar bazasida *board* so'zining faqat ikki ma'nosi berilgan bo'lishi kerak va bu mashina tarjimasining yaxshi ishlashi uchun kifoya qilmaydi. Bu muammoni hal qilish tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida muhim hisoblanadi. Bir qancha dunyo olimlari mashina tarjimasida omonimlik masalasini hal qilish bo'yicha o'z yechimlarini ulardan biri Robert Krovetz o'z izlanishlarida shunday degan. «Tildagi omonim so'zlarni o'rniga kontekstda o'sha so'z ifodalagan ma'no o'rniga fraza va idiomalardan foydalanish va omonim ma'nolari hajmini nisbatan qisqartirish mumkin» [1: 19]. Ammo olimning fikri har doim ham o'zini oqlamaydi. Chunki tildagi barcha shakldosh so'zlarning idioma yoki fraza bilan ifodalangan muqobil varianti mavjud emas. Bundan tashqari frazema va idiomalar til foydalanuvchilari uchun noqulaylik tug'dirishi mumkin. Bizningcha, quyidagi tavsiyalar ham mashina tarjimasida omonimiya hodisasiga qisman yechim bo'lishi mumkin.

1. Omonim so'zlarni morfologik xususiyatlari va qaysi so'z turkumlari bilan birikma hosil qila olish imkoniyatiga ko'ra tayyor birikmalarini tuzib chiqish va uni ma'lumotlar bazasiga kiritish.

2. Omonim so'zlarni qanday leksik birliklar bilan sintaktik tobelana olish darajasiga ko'ra o'zaro moslashtirilgan formal shakllarini ishlab chiqish.

3. Omonim so'zlarni yoki tayyor matnlardan jamlangan yirik korporalarni ma'lumotlar ba'zasiga kiritib chiqish.

4. Mashina tarjimasida jarayonida kontekstning umumiy mazmuni va qamrov sohasini inobatga olgan holda sohaviy elektron lug'atlar ba'zasidan foydalanish.

5. Bir vaqtning o'zida omonim so'zlarning hamma ma'nolarini tarjimada taqdim qilish... (Post editor kontekstdan kelib chiqib keraklisini tanlaydi)

Omonimlik masalasiga biroz xususiyoq yondoshsak. Bizningcha, mashina tarjimasida jarayonida o'zbek va ingliz tillaridagi omonimiyalar sifatli tarjima qilinishi uchun quyidagi ishlar qilinishi lozim.

1. Omonimiyaning ifoda plani til bilan bog'liq tarzda kengayishi yoki torayishi mumkin. Shuni hisobga olgan holda har ikkala tilda ham uning ma'lumotlar bazasi qayta ishlab chiqilishi va tahrirlanishi kerak. Xususan, Shavkat Rahmatullayev tomonidan 1984-yilda yaratilgan «O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati» va undagi ba'zi izohlar eskirgan. Bu jihatdan u yangilanishga muhtoj. Masalan: chor — yem, chiqindi, chor — rus podshosi, chor -to'rt son (tojikcha) [6: 155]. Bu yerdagi rus podshosi atamasi istorizm sifatida omonimligini yo'qotmoqda va ba'zi tarix darsliklarida hukumatga nisbatan ishlatilmoqda.

2. O'zbekcha-inglizcha va inglizcha-o'zbekcha omonimiyalar lug'ati shakllantirilishi kerak. Darhaqiqat, omonimiyalar lug'atining quyidagi tiplari bo'lishi mumkin: a) o'zbekcha-inglizcha va inglizcha-o'zbekcha leksemalar lug'ati; b) inglizcha-o'zbekcha frazemalar lug'ati

3. Zamonaviy mashina tarjimasida dasturlarida ovoqli matnlarni ham tarjima qilish imkoni borligini inobatga olsak, o'zbekcha-inglizcha va inglizcha-o'zbekcha omonimiyalar lug'atining urg'u qo'yish bo'yicha to'g'ri talaffuz qilingan ovoqli ma'lumotlar bazasi ham yaratilishi lozim.

4. Bir yoki bir necha so'z turkumi doirasida omonim bo'la oladigan leksemalarning alohida-alohida ma'lumotlar bazasi shakllantirilishi lozim.

5. Har ikkala tilda ham omonimlar qatnashgan har xil uslubdagi matnlarni yig'indisi ma'lumotlar bazasiga kiritilishi lozim.

Mana shu kabi fikrlar Nilufar Abduraxmonovanning bir qator shu mavzuga bag'ishlangan maqolalarida o'z ifodasini topgan. Shu bois omonimlar masalasini shu yo'nalishda olib borilsa, lingvistik nuqtayi nazardan yangilash bo'lmaydi.

Ba'zi bir tarjima dasturlari omonimlarni tarjima qilishda bir qator yutuqlarga erishgan va ancha qoniqarli tarjimalarni amalga oshirmoqda. Ammo bu masala o'zbek tili kiritilgan ba'zi bir tarjima dasturlarida to'raligicha o'z yechimini topgani yo'q. Shu o'rinda aytish joizki, mashina tarjimasida omonim so'zlarni tarjima qilish bo'yicha aniq va samarali yechimlarni ishlab chiqish va ularni ona tilimizga tatbiq qilib, o'zbek tilining ham mashina tarjimasida dasturlarida sifatli ishlashini ta'minlash biz, yosh avlodning oldida turgan dolzarb va ulkan vazifadan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Robert Krovetz Homonymy and polysemy in information retrieval. citeseerx. ist. psu. edu/viewdoc
2. Karole Fabricz Particle Homonymy and machine translation www. aclweb. org/anthology/C86
3. Jitanda Laongphol. Developing ability to translate homonymy and homographs via training in part of speech identification and dictionary use kb. psu. ac. th/psukb/bitstream/ 2010
4. Koshui Andreyeva. Lexical Functions and Homonymy. – Moscow, [https://www. grin. com/document/40316](https://www.grin.com/document/40316)
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1984.
6. [https://en. wikipedia. org/wiki/ List_of_true_homonyms.](https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_true_homonyms)
7. [examples. yourdictionary. com](http://examples.yourdictionary.com) >... > Examples of Homonyms
8. [www. aclweb. org/anthology/C86-1012.](http://www.aclweb.org/anthology/C86-1012)



СОВРЕМЕННЫЕ СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧЕНИКОВ НА ОСНОВЕ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ

Жумамуратова Севара

ГИИ имени Ажинияз, курсант ТГУУЯЛ имени Алишер Навои

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tili fani yo‘nalishida sinfdan tashqari ishlar asosida o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirishning zamonaviy usullari va o‘quvchi nutqini qayta shakllantirish to‘g‘risida atroflicha to‘xtalib o‘tiladi.

Tayanch so‘zlar: o‘g‘zaki nutq, yozma nutq, matn, didaktik o‘yin, dars

Summary

This article gives a detailed overview on how to formulate modern methods of oral speech and learners’ speech on the basis of non-extracurricular science in the mother tongue

Key words: oral speech, written speech, text, dedicated game, lesson

Внутренний мир, духовный облик, характер, обращение, этическое поведение и культура каждого человека выражается посредством языка. Потому что культура, этика, уровень знаний, широта или узкость кругозора, подготовленность или не подготовленность к большой жизни отражается в речи каждого человека. Человек, у которого богатый язык, на основе литературного языка произносит слова правильно, четко, ясно, паразитально и понятно, смотрит на свой родной язык с уважением и почтением, тот считается знающим, заслужит авторитет среди людей.

Устная речь — это речь которой мы пользуемся в непосредственном общении с другими людьми. Это обычная разговорная речь. Это «звуковая» речь, рассчитанная на восприятие при помощи органов слуха других людей. Устная речь произносится голосом, а иногда шёпотом. Во время устной речи, обычно, говорящий сопровождает речь мимикой и жестами, характерная особенность устной речи в том, что эта речь называется диалогом. Собеседники говорят по очереди — один спрашивает, что-то говорит, а другой слушает, отвечает.

Устная речь, как и внутренняя речь является орудием мышления. Здесь, в процессе разговора с другими, мысли человека ясны для себя.

В устной и письменной речи синонимы, антонимы, паронимы, восклицательные слова, слова аргоны и жаргоны, использование крылатых фраз повышает их функциональные возможности. Ученики должны уметь продуктивно пользоваться различными словарями, владеть словарным запасом, достаточным для речевой деятельности, относящихся разговорным и книжным словам. Развитие речи учеником выполняется четырьмя способами:

1. Составление текста.
2. Составление предложений.
3. Составление кратких текстов.
4. Написание сочинений.

Если теоретические знания по родному языку обеспечивают учеников лингвистическими понятиями, закономерностями литературного языка, то новые слова, грамматические средства, речевые образцы — обозначают сферы развития речи. Речевые упражнения, выполняемые на основе этих сфер доводят до конца их ввод в речь. Точнее, если постоянные упражнения служат для правильности речи, выполняют функцию фундамента для развития речи, то определенные виды упражнений выполняют цель построения речевого корпуса. Изучение буквенно-звуковой системы узбекского языка с одной стороны с одной стороны, знакомит учеников рядом терминов и понятий, правилами произношения и правописания, с другой стороны вооружает нормами правильного произношения слов в процессе разговора.

Устная речь учеников изучая язык художественного произведения развивается за счет подражания и творческого использования новых слов. Различные развивающие устную речь средства в 5-8 классах постепенно усложняются, самостоятельным образом служат в развитии творческой речи.

Самым необходимым и простым способом развития устной речи является выразительное чтение и заучивание наизусть прочитанного текста. В развитии устной речи необходимо обратить особое внимание на творческую работу. В такой деятельности основываются на прочитанный текст.

В государственном языке владение монологическим речевым навыком определяется степенью умения связно выражать свою мысль без грамматических, функциональных ошибок. Необходимо придумать меры недопущения ошибок в устной речи учеников на занятиях узбекского языка. Появляется возможность самостоятельного выражения своих речевых навыков в государственном языке. Появляется необходимость информировать по какой-либо интересующей его теме, знаний ведения устной или письменной работы. Но, в последние годы в обучении узбекскому языку больше внимания уделяется диалогической речи. Ошибки, систематически встречающиеся в речи учащихся:

- недостаточное внимание на устную речь учащихся и студентов и недостаточное привитие навыков и умений, направленных на устранение лексических, грамматических, функциональных ошибок;
- недостаточная передача знаний по выполнению часто повторяющихся упражнений, составлению связных текстов;
- отсутствие на занятиях бесед по речевым темам;
- устная речь является звуковой разговорной речью, эта речь больше связана с тоном и жестами. В ней почти не используются сложные грамматические конструкции. Ученик в устной речи больше употребляет простые предложения. Он своему собеседнику может показать что-либо, подчеркнуть какое-либо слово, используя логическое ударение, выразить что-либо посредством мимики, движением глаз, рук и головы. В устной речи в целях компактного выражения мысли широко используются неполные предложения. Этот вид речи выполняется одним или несколькими лицами и выражается в монологической и диалогической формах. Человек на протяжении всей жизни совершенствует и оттачивает свою речь. Стремится к красоте, ясности, выразительности, трогательности речи. Это представляет огромное значение в развитии речи каждого ребенка. Особенно, открывается широкая дорога использованию в речи богатыми возможностями родного языка.

Как нам известно, чем младше ученик, тем больше должно быть интересных игровых элементов, используемых на уроках. Потому что, если используемая на уроке игра, с одной стороны, соответствует таким особенностям некоторых детей, как любознательность, непоседливость, то с другой стороны, у некоторых детей устраняет такие отрицательные свойства характера, как угрюмость, неразговорчивость, стеснительность. Изначит, в процессе игры происходят резкие изменения в психологии ученика. На протяжении игры ученик начинает осознавать значения многих грамматико-орфографических понятий, в его памяти начинают иметь место знаки, являющиеся общими для многих слов, начинают

осознавать орфоэпические и орфографические значения устной и письменной речи, уменьшаются орфографические недостатки в письменной речи. Образовательные игры обеспечивают свободное поведение классного коллектива, повышается эффективность урока. В игре обеспечивается активное участие большинства учеников, появляется возможность проставлять рейтинговые баллы.

Еще одна достойная внимания форма игры в том, что в классе царит дружелюбная и упорная обстановка. Ученики захотят помочь друг другу, еще больше повышается солидарность классного коллектива.

Согласно содержанию родного языка образовательные игры классифицируются следующим образом:

1. Фонетико-графические игры.
2. Игры по словообразованию.
3. Грамматические игры.
4. Орфографические игры.
5. Игры по развитию речи.

Образовательные игры, согласно их характеру проведения делятся на следующие виды:

1. Устные игры.
2. Молчаливые игры.
3. Письменные игры.

Образовательные игры по форме организации делятся на следующие виды:

1. Игры в форме соревнований между группами
2. Игры, проводимые при помощи раздаточных материалов
3. Игры, проводимые при помощи пальцев рук.

По родному языку можно продуктивно использовать образовательные игры, а также, стихотворения, сказки, рассказы, загадки, скороговорки, различные ребусы, головоломки и кроссворды.

При организации игры учитель должен придерживаться следующих принципов:

- игра должна быть интересной, простой, понятной, ясной;
- игра должна соответствовать теме, быть с глубоким содержанием;
- в игре должны участвовать как можно больше учеников;
- в игре должно быть много интересного;
- время и правила проведения игры должны быть четко определены;
- игра должна формировать постоянные навыки и умения учеников;
- победители игры должны быть поощрены.

Учитель должен выбрать вид игры, соответствующий закрепляемой теме, составить форму, соответствующую виду игры, точно обозначить правила игры. А необходимые материалы для игры нужно взять из

орфографического словаря, книги для чтения, детского журнала, сборников различных художественных произведений.

Чтобы переделать материал под форму игры нужно следовать следующим правилам:

- в игровом материале должно быть как можно больше примеров, соответствующих теме;
- материал и форма игры должны соответствовать возрасту ученика, быть понятным, простым и интересным;
- форма и объем материала игры должны соответствовать структуре урока;
- материал и форма игры должны давать возможность развития речи, повышения орфографической грамотности ученика;
- материал и форма игры должны улучшать умственную активность;
- материал и форма игры должны повышать мировоззрение ученика, быть богатым на элементы воспитания.

Учитель должен, в первую очередь, обозначив образовательно-воспитательную цель образовательной игры подготовить необходимые для игры материалы, четко объяснить ученикам правила проведения игры, сам руководить игрой, по ходу игры исправлять ошибки учеников. В конце игры делаются соответствующие выводы и объявляются баллы.

Таким образом, существуют различные современные способы развития устной речи учеников на основе внеклассных работ. Сознание ученика словно чистая тетрадь — чем заполнишь её, тем она и обогатится. Значит, внутренний мир, ум ребенка необходимо заполнить соответствующими его возрасту мыслями, идеями. Для этого целесообразно использовать в процессе образования методы современной педагогической технологии.

Использованная литература:

1. Психология. Учебное пособие. – Т.: Укитувчи.
2. Актуальная тема. Языковое и литературное образование, 2014 год, №6
3. Занятия развития речи. Пособие: А. Гуломов, Б. Кобилова.
4. Мыслительная деятельность учеников. Языковое и литературное образование, 2006 год, №4.



«AROSATDAGI» SO‘Z TURKUMI

Mahmudova Matluba

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya

Taqlid so‘zlar — dunyodagi barcha tillarda o‘ziga xos o‘ringa ega va bu o‘rin boshqa so‘z turkumlariga qaraganda ancha qadimiyroqdir. Jahon olimlarining fikriga qaraganda inson dastavval talaffuz qilgan birinchi so‘z taqlid so‘zlar bo‘lgan ekan. Ushbu maqolada taqlidlarning mustaqil so‘z turkumiga xos xususiyatlar borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: taqlidlar, onomatopiya, geminatsiya, intonatsiya, tasnif, so‘z turkumlari

Onomatopoeia words are essential part of each language and they are much more older than other words. Onomatopoeia are words which very sounds suggest their meaning. According to many linguistic theories the first words spoken by man were imitations of sounds. Our language today contains great many imitative words. The specific characters of these words are learned and explored in this article.

Key words: imitative words, onomatopoeia, gemination, intonation, classification, part of speech.

Слова ономотопеи являются неотъемлемой частью каждого языка, и они намного старше чем другие слова. Ономотопея — это слова, которые, по мнению, самих звуков указывают на их смысл. Согласно многим языковым теориям, первое слово, произнесенные человеком, — это подражания звукам. Наш язык сегодня содержит множество подражательных слов. Конкретные символы этих слов изучаются в этой статье.

Ключевые слова: Ономотопея, словосочетание, геминатсия, интотатсия классификация.

Dastlab Yer yuzida davlatlar bo‘lmagan, insonlar birgalikda yashagan. Shuningdek ular o‘rtasida hech qanday chegara ham yo‘q edi. Keyinchalik, davlatlar paydo bo‘lgan va asta-sekin chegaralash boshlangan. Xuddi shunga o‘xshab, dastlab, so‘zlar ham turkumlarga ajratilmagan. Hamma so‘zdan aralash holda foydalanilgan. Asta-sekin eng ko‘p ishlatilgan so‘zlar «liderlikni qo‘lga olib boshlagan». Jahon tilshunosligi talqiniga ko‘ra, insonning birinchi talaffuz qilgan so‘zi tovushga taqlid so‘z bo‘lgan ekan. Turkiy tillar uchun eng qadimiy yozma manba hisoblangan O‘rxun-Enasoy yodgorliklari leksikasida taqlidlar ko‘zga tashlanmaydi. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida 40 ga yaqin taqlid so‘zning izohi berib o‘tilgan. Keyinchalik esa taqlidlarning tilimizdagi ahamiyati yanada ortgan.

Ma‘lum taraqqiyot bosqichidan so‘ng, so‘zlarning so‘rog‘i va qanday umumlashgan ma‘no ifodalashiga ko‘ra turkumlarga ajratish paydo bo‘ldi. So‘z turkumlariga ajratish, ularning soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham so‘zlarning sematik, morfologik va sintaktik tamoyillari keng tarqalgan.

Semantik jihatdan so‘zlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) mustaqil lug‘aviy ma‘noli so‘zlar.

2) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'zlar.

3) lug'aviy ma'nosiz so'zlar.

Birinchi guruhga biz fe'l, ot, sifat, son, ravish va TAQLIDLARni kiritamiz. Ikkinchi guruhga esa olmoshlar va so'z-gap vazifasida keluvchi birlarni kiritish mumkin. Uchinchi guruhga esa ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kiradi. Taqlid so'zlar — kishilarning va boshqa jonli-jonsiz predmetlar, hodisalar chiqargan tovushlarga ularning turli xil ko'rinishi, holat-harakatlariga monand tasavvurni ifodalovchi so'zlardir. Taqlidlarni tovushga taqlid va holat (obraz)ga taqlid kabi turlarga bo'lamiz. Tovushga taqlid ham o'z ichida ikki turga:

a) fiziologik tovushga taqlid;

b) fizik tovushga taqlid kabi turlarga ajratish mumkin. «O'zbek tili grammatikasi» kitobida esa jonli predmetlar tovushiga taqlid so'zlar uyidagicha guruhlangan:

a) kishilarning harakatlaridan paydo bo'lgan tovushlarga taqlid so'zlar;

b) turli hayvon va jonivorlar tovushiga taqlid so'zlar.

Jonsiz predmetlar tovushiga taqlid so'zlar:

a) qattiq predmetlar tovushiga taqlid so'zlar;

b) har xil mexanizmlar, motorlar transport vositalari tovushiga taqlid so'zlar;

d) gagsimon predmetlar va suyuqliklar harakatidan paydo bo'lgan tovushga taqlid so'zlarga ajratilgan. Tovushga taqlid so'zlarning bu tasniflanishi ularning bamma semantik guruhlarini va xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olmaydi.⁴ Masalan, "shivir-shivir" bu past ovozda gaplashilgan ovoz tonini bildirsa, "shitir-shitir" yomg'ir yoki suv tomchisining yerga tushish tovushini anglatadi. Taqlid so'zlarning semantikasini aniqlashda ko'p o'rinlarda kontekst hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bir tovush kompleksining o'zi turli o'rinda turli xil ma'no anglatishi mumkin. Bir tasviriy so'z ma'lum o'rinda tovushga taqlidni bildirsa, boshqa o'rinda unga omonim sifatida narsa va hodisalarning harakat-holat obrazini ifodalaydi. Bu ma'no esa kontekstda oydinlashadi:

Devor gup etib quladi (tovushga taqlid);

Qor gup-gup yog'moqda (holatga taqlid).

Obrazga taqlid so'zlar. Tovushga taqlid so'zlar eshitish bilan bog'liq hodisalarni ifodalasa, obrazga taqlid so'zlar ko'rish bilan bog'liq hodisalarni ifodalaydi. Predmetlarning holat, harakat, tashqi ko'rinishining hamda yorug'lik tasviri obrazli ko'rinishining ifodasi sifatida maydonga kelib, tilda keng qo'llaniluvchi: lip-lip, jilpang-jilpang, yalt-yalt, milt-milt, mo'lt-mo'lt tipidagi so'zlar obrazga taqlid so'zlar hisoblanadi. Turmushda harakat va holat formalari qunchalik ko'p bo'lsa, til ham ularni ifodalovchi so'zlarga shuncha boydir. Masalan, alang-jalang — kishining biror narsadan hadiksirab yoki hayron bo'lib, turli tomonlarga qarashini ifodalovchi obrazga taqlid so'z. Obrazga taqlid so'zlar semantikasidagi har xilliklarga ko'ra bir qancha guruhlarga bo'linadi:

a) Harakatni, uning xarakteristikasini bildiruvchi obrazli soʻzlar. U guruhdagi soʻzlar koʻproq kishilarning, narsa va jonivorlarning yurishini va boshqa xil harakatdagi turli holatlarning obrazli ifodalanishi sifatida maydonga keladi. Lip-lip, lop, liking-likang, salang-salang.

b) kishi va boshqa predmetlarning holatini, tashqi koʻrinishini tasviriyl ifodalovchi tasviriy soʻzlar. Bular, asosan, tinchlik, muvozanat holatini aks ettiradi. Vakil jiq-jiq terlab, qizarib-pishib, goho koʻtarildi, goho bosildi («Mushtum»);

d) yorugʻlik tasvirini ifodalovchi taqlid soʻzlar. Bu guruhga kiruvchi taqlidlarning asosiy qismi toʻsatdan boʻlganlikni, keskinlikni, bir lahzalikni bildiradi. Oʻrtadagi katta tekis tosh lampa lip-lip yonmoqda.

Taqlidlar biror-bir shaxs, predmet, yoki voqea-hodisaning lugʻaviy maʼnosini anglatmas ekan, unda nega gumbur-gumbur deganda momaqaldiroqdan chiqqan tovushni, miyov-miyov deganda mushukning chiqaradigan ovozi, vov-vov deganda itning ovozi, lip-lip degan soʻzni eshitganda shamning yoki chiroqning holati koʻz oldimizda beixtiyor gavdalanadi?

Soʻz turkumlari morfologik tasnif boʻyicha:

a) oʻzgaruvchi leksemalar.

b) oʻzgarmas leksemalarga boʻlinadi. Oʻzgaruvchi soʻzlar uchun tasniflovchi grammatik shakllar mavjud. Masalan, otlarda son, subyektiv baho shakllari, feʼllarda nisbat, oʻzgalovchi harakat tarzi, sifatlarda daraja. Oʻzgarmas soʻzlar bunday shakllarga ega emas. Ushbu tasnifda olmoshlar taqlidlarga alohida oʻrin berilmagan. Chunki olmoshlar oʻzlari ishora qiluvchi barcha soʻz turkumlariga xos oʻzgarish tizimiga ega. Masalan, ot oʻrnida kelgan olmosh son shaklini, sifati soʻz turkumiga ishora qilgan olmosh esa daraja shaklini qabul qiladi. Taqlidlarning esa oʻziga xos kategoriyasi mavjud emas. Biroq taqlidlar «oʻzgarmas soʻzlar» degani emas. Taqlidlarning morfologik kategoriyalarni qabul qilishi, uning otlashishi qanday gap boʻlagi boʻlib kelishi bilan bogʻliq.

Soʻzlar sintaktik tasnifga koʻra quyidagi turlarga ajratiladi:

a) gap boʻlagiga xoslangan soʻzlar: feʼl, ot, sifat, son, ravish, taqlid olmoshlar kiradi.

b) gap boʻlagiga xoslanmagan soʻzlar: undov, modal, taqlid soʻzlar

d) sintaktik aloqa vositasiga xoslangan soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi yuklama.

Taqlidlar gapda maʼlum bir sintaktik vazifada keladi. Taqlidlar «deb» soʻzi bilan kelsa, gapda hol vazifasida, «degan» soʻzi bilan kelganda esa aniqlovchi vazifasida keladi.

Nazira «piq-piq» deb yigʻladi. Qoʻshni xonadan «piq-piq» degan ovoz eshitildi. Ammo taqlidlar faqat bu soʻzlar bilan emas, oʻzi mustaqil holda gap boʻlagi vazifasida kela oladi:

Taqlid soʻzlar gapda kesim boʻlib keladi. Taqlid soʻzlar gapda kesim boʻlib kelishi uchun, asosan, juft yoki takroriy formaga oʻtadi: Poytaxt — gʻala-gʻovu Childirmamizning ovozi gij-bang (A. Qahhor).

Ega: Odamlarning g'ala-g'ovuri bosildi. Musichaning g'uv-g'uvi eshitildi.

Aniqlovchi: Tars-turs ovozlari baralla eshilib turganligi tufayli uzoq vaqt ushbu bo'lmadi.

Taqlidlar tushum, jo'nalish, chiqish kelishliklari qo'shimchalarini qabul qilib qatnash to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: Yuragining duk-dukini eshitdi. Tovushi bo'lg'iq qattiq miyovga o'xshab eshitaladi («O'zbekiston madaniyati»). Ishlaydilar tashqirgacha, bezor edik g'uv-g'uvlardan (Oybek).

Taqlid so'zlar fe'llarning oldida kelib, harakatning qay ravishda bajarilganligini ko'rsatadi. Bunday xususiyatlari bilan ular ravishlarga yaqin tonda va hol vazifasini bajaradi: Piq-piq yig'laysiz, hayitda kiyimsiz qolgan qizdek (Oybek). Shamol gir-g'ir esmoqda.

O'zbek tili lug'aviy qatlamining sezilarli bir qismini taqlid so'zlar tashkil qiladi. Taqlid so'zlardan so'zlashuv uslubida, badiiy uslubda faol ishlatilib, natijada badiiy bo'yoq, ekspressivlik beradi. Shu bilan birga, umuman, obyektiv baholani aks ettiruvchi, kommunikativ aloqa bajaruvchi va til qurilish material sifatida ham muhim ahamiyatga egadir.

R. Qo'ng'urov hozirgi o'zbek tilida taqlidlarning salmog'i bilan qiziqib ko'rgan va buni aniqlash maqsadida lug'atlarga murojaat qilgan: «Hozirgi o'zbek adabiy tilining imlo lug'atida o'rtaicha 13718 so'zning 600 tasi taqlidlar bo'lib, umumiy sonning 4, 3 foizini tashkil qiladi. Yoki o'zbekcha-ruscha lug'atdagi 40000 so'zning 1500 dan oshiqrog'ini taqlid so'zlar tashkil qiladi. «Bu fakt baholigidan muallif taqlidlarning ishlatilishi yanada ortgan, degan xulosaga kelgan. Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan anglashiladiki, taqlidlar o'zbek tili lug'at bo'yigida salmoqli o'rin tutadi.

Tilning paydo bo'lishi haqidagi nazariyaning biri bu tovushga taqliddir. Natijada turkiy tilda balki barcha tillarda taqlidlarning alohida o'rni mavqeyi bor. Hozirgi kundan oraliq yoki alohida so'z turkumi deb atalgan guruhdan joy olgan taqlidlar hamon arosatdadir. Vaholanki, ular mustaqil so'z turkumi deb atashga ko'proq sazovordir.

Buning bir nechta ilmiy asoslari bor:

- Birinchidan, turkiy tillarda taqlidlar miqdoran ko'p va rang-barang.
- Ikkinchidan, ulardagi tovushlar tizimi ma'lum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi.
- Uchinchidan, ular gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifada keladi.
- To'rtinchidan, taqlidlar morfologik jihatdan o'zgaruvchidir.

Ot, sifat, fe'l turkumlaridan boshqa so'z turkumlari yasalishi ko'p uchraydi. Bu hodisa o'zgarish, son va ravishlarda unchalik ko'p emas. Taqlidning o'zi yasalmaydi, u bor narsaga taqlid qiladi, holatni, hodisani asl holicha ataydi va ko'rsatadi. Shamol guvulladi. Itlar irilladi. Daryo shovulladi. Ho'plamoq purlamoq (fe'l); qarsak, pirqirak, g'ildirak (ot); yaltiroq, qaltiroq, yarqiroq, sharqiroq (sifat).

Taqlid soʻzlar tuzilishiga koʻra yakka (sodda), juft, takror kabi turlari mavjud. Yakka (sodda) taqlidlar: qars, tars, tirs, yalt. Taqlidlarning bu turi etmoq, demoq, qilmoq yordamchi feʼllari bilan birikib keladi va keskinlikni, bu lahzalikni ifodalaydi. Soʻz oxiridagi geminatsiya hodisasi yoki intonatsiyasining xarakteri bilan sodda taqlid soʻzlarning maʼnosida ham davomlilikni koʻrsatish xususiyati paydo boʻlishi mumkin. Masalan, tarrrrrr, gʻirrrr, shirrrr (geminatsiya) moooo, kuuuuh, duuuuud (intonatsiya) kabi. Taqlidlar maʼnosidagi davomiylik asosan ularning takrorlanishi natijasida yuz beradi. Masalan, taq bir martalik eshitilgan tovushni ifodalasa, taq-taq uning birdan ortiqligini bildiradi. Sodda taqlidlar ham bir necha xil koʻrinishda qoʻllaniladi.

Juft taqlid soʻzlar bir hodisaning turli xil oʻzgarib turishi, birgina tovush yoki obrazli harakatning goh kuchayib goh pasayishi, baʼzan yaqinlashishi, uzoqlashishi kabi holatlarni ifodalaydi: shagʻir-shugʻur, qars-qurs, shatir-shutir. Juft taqlidlar komponentlarining bir-biriga munosabati va qoʻllanishiga koʻra ham oʻz ichida guruhlarga boʻlinadi.

Taqlid soʻzlar takrorlanganida harakat obrazini, tovushning bir necha marta bir xilda, bir tekisda takrorlanganini, davomiyligini koʻrsatish uchun xizmat qiladi: gumbur-gumbur, yalt-yalt, qimir-qimir, milt-milt. lik-lik, duk-duk. Takroriy taqlidlar idantik (oʻxshash, bir xil) xarakterda boʻladi. Bular ikki forma ega boʻladi: a) oddiy takror. Bunda maʼlum hodisaning bir tekisda takrorlanganligi ifodalanadi: miyov-miyov, lip-lip, guv-guv. b) kuchaytiruv elementli takror: taqa-tuq, gurso-gurs, tasira-tusur.

Koʻpgina tillarda taqlid soʻzlar onomatopiya deb ataladi. «Onomatopiya» soʻzi grekcha soʻzdan olingan boʻlib, onoma, onomat-nom va poios-qilmoq «harakatning, yoki hodisaning nomi» degan maʼnoni anglatadi.

Taqlidlar deyarli barcha tillarning kesishgan nuqtasi hisoblanadi. Ularning talaffuzi va yozilishi bir-biriga juda oʻxshash. Ingliz tilida mushuk chiqargan ovoz: «miaow» yoki «meow», German tilida «miau», fransuz tilida «miaou», ispan tilida «miau» va xitoy tilida «miao». Oʻzbek tilida esa «miyov». Ammo hayvon tovushlariga taqlidlar aynan bir xil degani emas, baʼzi tillarda bu soʻzlar farqlanadi. Masalan, xoʻroz tovushiga taqlid soʻzni ingliz tilda doodle doo, german tilida kikerki, fransuz tilida cocarico, arab tilida kukukookoo. Bu maʼlumotlar shuni isbotlaydiki, taqlidlar barcha tillarda mavjud. Baʼzi taqlid soʻzlar aynan bir xil boʻlsa, baʼzilari esa bir-biridan farqlanadi.

Demak, xulosa qilib aytadigan boʻlsak, taqlidlar atash maʼnosiga ega, ular otlashib gapda hamma gap boʻlagi vazifasida kela oladi, boshqa soʻz turkumi yasalishi uchun asos boʻla oladi. Mustaqil soʻz turkumi boʻlish talablarining har uchalasiga ham javob bera oladi. Tuzilishiga koʻra hamda oʻziga xos shakl koʻrinishlariga ega. Biz atash maʼnosiga ega boʻlmagan, faqatgina boshqa turkumlarga (jumladan, soʻz birikmasi, gap va matn oʻrnida ham) ishora qiluvchi soʻz turkumi olmoshga mustaqil soʻz turkumi maqomini berganmiz, ammo atash maʼnosiga ega boʻlgan taqlid soʻzlar oraliqdagi soʻz turkumi deb nomlatil kelamiz. Fikrimizcha, taqlid soʻzlarni mustaqil turkum sifatida qayd etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili grammatikasi, I tom. O'zbekiston, Fan, 1975.
1. O'zbek tilidan universal qo'llanma, Mengliyev B., Xoliyorov O', Abdurahmonova N. –T.: Akademiya, 2015.
1. Elena Riabova and Yury Kobenko/ Procedia-Social and Behavioral Sciences 2015 123-126-pages.



INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA DARS ISHLANMASI TAYYORLASH

Muhammadiyah Mohichehra

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsion yondashuv asosida dars ishlanmasi ishlab chiqilgan so'z birikmasi va gap mavzusini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanilgan. «Klaster», «Sinkveyn», «Zinama-zina» usullari orqali mavzu o'rganilgan va mustahkamlangan.

Kalit so'zlar: *innovatsion yondashuv, metod, «Ikki qismli kundalik», «Zinama-zina», «Mantiqiy chalkash zanjir», «Gamburger», «Klaster», «Sinkveyn».*

Аннотация

В статье разработан метод преподавания урока опираясь на инновационные учебные комплексы. Используются интерактивные методы преподавания таких тем как «Слово и словосочетание». Данный урок проведен и закреплен такими методами как «Клстер», «Синквейн» и «Ступени».

Ключевые слова: *инновационные учебные, метод, «кластер», «синквейн», «ступени».*

Annotation

The method of teaching the lesson based on innovative educational complexes is developed in the article. Interactive methods of teaching such topics as «Word and phrase» are used. This lesson is held and fixed by methods such as «Cluster», «Sinquain» and «Steps».

Key words: *innovative educational, «Cluster», «Sinquain», «Steps».*

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Innovatsion yondashuv asosida ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman interaktiv foydalanish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Quyida biz ham 8-sinf o'quvchilari «So'z birikmasi va gap» mavzusini umumiy o'zlashtirishlari uchun interfaol metodlar orqali yangicha o'qitishga qaratilgan dars ishlanmasini ishlab chiqdik.

Mavzu: Soʻz birikmasi va gap

Darsning maqsadi

Taʼlimiy: Oʻquvchilarga soʻz birikmasi va gap haqida maʼlumot berish va ularning oʻzaro farqini qiyoslab tushuntirish.

Tarbiyaviy: Oʻquvchilar ongiga milliy qadriyatlarga hurmat, doʻstlik va ahillik kabi tushunchalarni singdirish.

Rivojlantiruvchi: Oʻquvchilarning aqliy tafakkurini va maʼnaviy dunyoqarashini shakllantirish.

Nutqiy kompetensiya: (tinglab tushunish, oʻqish, yozish, soʻzlash) Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi.

Tinglab tushunish: Sohaviy ilmiy ommabop nutqni tushuna oladi, tinglagan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularning mazmuni, maqsadini idrok etadi, tushuna oladi, nutqning toʻgʻriligi, matnning izchilligi, sofligi va taʼsirchanligini anglaydi, barqaror birikmalar, kashunlar soʻzlarining maʼno xususiyatini anglay oladi.

Kommunikativ kompetensiya: Oʻrganilgan ifoda vositalari asosida oʻzini samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda nutqiy muhitga moslasha olish.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur maʼlumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan unumli foydalana olish, ularning xavfsizligini taʼminlay olish koʻnikmalarini egallash.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: Vatanga sadoqatli, insonlarga mehrobqibatli hamda milliy qadriyatlarga eʼtiborli boʻlish, badiiy asarlarni tushunish, nutqiy madaniyatga ega boʻlish va sogʻlom turmush tarziga rioya qilish.

Darsni tashkil etish texnologiyasi:

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi

Darsning jihozlari: 8-sinf ona tili darsligi, taqdimot, proyektor, tarqatmalar

Darsning usuli: Noanʼanaviy

Metod: «Aqliy hujum», «Ikki qismli kundalik», «Klaster», «Zinama-zinam», «Sinkveyn», «Mantiqiy chalkash zanjir», «BBB» metodlari.

Darsning bosqichlari:

1. Tashkiliy qism: 4 daqiqa
2. Takroriy qism: 5daqiqa
3. Yangi mavzu bayoni: 13 daqiqa
4. Yangi mavzuni mustahkamlash: 15 daqiqa
5. Baholash: 5 daqiqa
6. Uyga vazifa: 3 daqiqa

Darsning borishi.

1. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish;
- b) sinf tozaligini tekshirish ;
- d) davomatni aniqlash;

e) sinf o'quvchilarini guruhlarga bo'lish va ularni nomlash (1-guruh «So'z», 2-guruh «So'z birikmasi», 3-guruh «Gap»).

Dars shiori:

Eshitdim-unutdim
Ko'rdim- eslab qoldim
Bajardim- tushundim

O'quvchilarning dars muhitiga moslashtirish maqsadida «warm up» usulidan foydalanamiz:

1-guruh uchun: Xonada ikkita ota, ikkita o'g'il bor xonada necha kishi bor?

2-guruh uchun: Bir hovlida 3ta xo'roz bor ular har kuni ikkitadan tuxum qo'yishadi. Ular bir kunda nechta tuxum qo'yadi?

3-guruh uchun: Olamda-yu odamda bitta, odoblida ikkita?

2. Takroriy qism: O'tilgan mavzuni takrorlash uchun 1-kursda «Ikki qismli kundalik» metodidan foydalanamiz. Guruhlar taqdimotda aks etgan quyidagi kundalikni to'ldirishadi:

Matn	Matndagi asosiy fikr
<p>Eshmurod doim qo'shnisining pastgina kulbasi qulab tushishini sohlardi. U kutgan kun kuchli seldan bo'ng keldi. Faqat o'z o'g'lining devor ostida qolgani yomon bo'ldi-da...</p>	
<p>Qo'shnimizning iti bolalagach, dadam menga bittasini olib berdi. U kun uyin o'sib eng yaqin do'stinga aylandi. Uning menga juda yaqin bo'lib qolganini buvimnikiga ta'tilda ketib, mensizlikdan itimning vafot etganligini eshitgach angladim.</p>	
<p>Qish kirib keldi. Ertalabdan havo ancha sovib, laylakqor yog'a boshladi. Atrof ajoyib manzara kasb etdi. Men hovliga chiqdim va qorning gupillab yog'ishini tomosha qildim</p>	

2-kurs. O'quvchilarga audio she'riy matn eshittiriladi. «Aqliy hujum» metodi vosita amalga oshiriladigan bu topshiriqda guruhlar matndagi asosiy fikrni va uning yuzaga chiqargan grammatik vositalarni aytishadi.

3. Yangi mavzuning bayoni:

SO'Z BIRIKMASI — ikki va undan ortiq mustaqil so'zning ma'no va grammatik jihatdan birikishi.
So'z birikmasi tushuncha ifodalaydi

GAP — bir voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gap hukmni ifodalaydi.




O'quvchilarga slaydda keltirilgan misol orqali so'z birikmasi va gapning farqi tushuntirib beriladi:



GAP — SO'Z BIRIKMASI

4. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1-topshiriq. 92-mashq «Klaster» metodidan foydalangan holda bajariladi. Mashq ichidan faqatgina gaplar guruhlar tomonidan ajratib olib, klasterga joylashtiriladi: 92-mashq.



2-topshiriq. Guruhlar «Sinkveyn» metodi «o'qish» so'zini so'z birikmasi va gaplar asosida tahlil qilishadi:

“SINKVEYN” METODI O'QISH

- Tushuncha —
- Ikki soʻzdan iborat sifat —
- Uch soʻzdan iborat feʼl —
- Toʻrt soʻzdan iborat munosabat —
- Bir soʻzdan iborat sinonim —

3-topshiriq. «Zinama-zina» metodi asosida guruhlar zinalarni toʻldirib berishadi, bunda dastlabki zinada soʻz birikmasini, keyingisida ikkita soʻz birikmasi qatnashgan gap yozishadi, har bitta zinada soʻz birikmalari soni koʻpayib boradi. Shartni birinchi va toʻgʻri bajarib, zininging eng yuqorisiga koʻtarilgan guruh gʻolib deb topiladi.

“ZINAMA-ZINA” METODI

7 _____

6 _____

5 _____

4 _____

3 _____

2 _____

1 _____

4-topshiriq. Guruhlar darsda egallagan bilimlarni sinash va mustahkamlash maqsadida «Mantiqiy chalkash zanjir» metodidan foydalaniladi. Bunda zanjirda toʻgʻri va notoʻgʻri boʻlgan fikrlar beriladi. Guruhlar esa notoʻgʻri fikrlarni topib, ularni toʻgʻirlashlari kerak boʻladi.

“MANTIQUIY CHALKASH ZANJIR” METODI

Gap biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi

Koʻchat oʻtqazish – gap

Muhandis akam – soʻz birikmasi

Soʻz birikmasi maʼlum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmni ifodalab keladi

G'azalni yodlang – gap

Dars so'ngida esa mavzu yuzasidan erishilgan natijalar ko'rish va umumlashtirish uchun «Gamburger» metodidan foydalaniladi. O'quvchilarga quyidagi savollarga javob beradilar:

- 1) Darsni nima mazmunli qildi?
- 2) Dars davomida nima siz uchun qimmatli bo'ldi?

5. Baholash.

Dars yakunida har bir guruhi to'plagan ballar hisoblanib, g'olib guruhi aniqlanadi. G'olib guruhi a'zolariga a'lo baholar qo'yiladi. Shuningdek dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar ham baholanadi.

6. Uyg'a vazifa.

UYGA VAZIFA:

1. "BBB" metodi asosida hosil qilingan jadvalni to'ldirish.(individual)

Xulosa qilib aytganda, ona tili o'qitishda innovatsion yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan bir qatorda darsning o'zlashtirilish darajasi va yuqori saviyaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxammedov O'X., Usmonboyeva M.H., Rustamov S.S., Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar, – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., 8-sinf Ona tili darsligi, – T.: Cho'pon, 2014.
3. Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva M., Nishonova N., Pedagogika, – T.: O'zbekiston faylasuflari, 2010.

LEKSIKOLOGIYA BO'LIMINI QIYOSIY TAHLILDA O'RGANISH USULLARI

Navruzova Xosiyat

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada 5-sinf Ona tili darsligidagi leksikologiya bo'limi milliylikka asoslangan tabiat detallariga qiyoslandi. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari «Atlas» uslubi orqali yoritildi.

Kalit so'zlar: leksikologiya, omonim, sinonim, antonim, paronim

Annotation

In this article, teaching lexicology section of the 5th grade mother tongue textbook is based on nationality and compares correspond to the details of nature. According to the form and meanings of the words are defined through the method of «Atlas».

Key words: lexicology, omonym, synonym, antonym, paronym

Аннотация

В данной статье рассматривается раздел лексикологии учебника родного языка 5-го класса на основе интегрированного сравнения с природой. Формы и значения слов объясняются методом «Атлас».

Ключевые слова: лексикология, омоним, синоним, антоним, пароним

Til o'qish jarayonida qiyoslash usulidan foydalanish har bir soha uchun zarurdir. Shu usulni ona tilimizning «Leksikologiya» bo'limiga qiyoslab ko'raylik. «Leksikologiya» — 5-sinf ona tili darsligining to'rtinchi bo'limida o'rgatiladi. Mashg'ulot kursni endi tugatgan 5-sinf o'quvchilariga bu bo'limni tabiat o'zmatlariga qiyoslash orqali o'rgatish samaraliroqdir. Quyida atlas matosini leksikologiya bo'limiga qiyoslab «Atlas» uslubi orqali ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, atlas matosi qadimdan o'zbek xalqining o'zligi aks etgan milliyligimiz ramzidir. Bu mato o'zida tabiatimizdagi barcha ranglarni jilolantiradi. Tugorida atlas matosini ona tilimizning leksikologiya bo'limiga qiyosladi. Xo'sh, o'zlashlik nimada?

«Leksikologiya» yunoncha lexisikos — «lug'at», logos — «ta'limot» so'zlaridan iborat bo'lib, so'z haqidagi, to'g'rirog'i, so'z ma'nolar haqidagi ta'limotdir [2:168]. Leksikologiya bo'limining asosi so'z bo'lganidek, atlas matosini ham turli ranglarsiz mavjud etib bo'lmaydi. Atlas matosini leksikologiya bo'limiga, uni tashkil etuvchi ranglarni shu bo'limning asosi bo'lgan so'zlarga qiyoslaymiz. Ranglar har xil bo'lganidek, so'zlar ham bir tushunchani ifodalash bilan birga, so'zlovchining turli munosabatini aks ettirishda turli ko'rinishda qo'llaniladi. Buni quyida so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'rganish orqali ko'rib chiqamiz. So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra to'rt turga bo'linadi:

Omonimlar — shakldosh so'zlar, sinonimlar — ma'nodosh so'zlar, antonimlar — zid ma'noli so'zlar, paronimlar.

Omonimlar — shakldosh so'zlar.

«Aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi» [2: 173] Shu o'rinda xalq og'zaki durdonalaridan topilgan topishmoqlardan biri bilan fikrimizni davom ettirsak:

Bo'zordan oldim bir dona, Ochib qaragam, ming dona. Topishmoqning javobinor [3: 35]. Topishmoqdan anorning o'zi bitta, donasi mingta ekanligini anglash mumkin. Shakldosh so'zlar ham shakli bir xil, ma'nosi esa turlicha bo'lgan so'zlardir. Shakldosh so'zlar — omonimlarni anor mevasiga qiyosladi. Shu o'rinda adabiyot fani bilan bog'lagan holda shoira Uvaysiyning «Anor» chistoniga murojaat qilamiz:

*Ul na gumbazdur: eshigi, tuyenugin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.*

*Sindurib gumbazni, qizlar holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortig'liq, turarlar bag'ri qon. [1: 40]*

Yuqorida shakldosh soʻzlarni anorga qiyosladik. Chistonda esa anor tuyntiq yoʻq gumbazga oʻxshatilgan. Shunday ekan, shu oʻxshatishni shakldosh soʻzlarga ham qoʻllash oʻrinli. Masalan, «uch» soʻzi. Bu soʻzni gaplarning tarkibida qoʻllamasdan qanday atash maʼnoni anglatayotganini sezish qiyin.

Ikkinchi misraga yuzlanamiz. «Necha gulgunpoʻsh qizlar manzil aylabdu makon». Yaʼni «uch» soʻzining turli maʼnolarini gulgunpoʻsh qizlarga oʻxshatib «yuzlarida parda tortigʻliq» jumlasini orqali «uch» soʻzining maʼnolari orasida farq borligi va bu maʼnolar bir-biriga yaqin emasligini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Uch — narsalarning ingichkalashgan, oʻtkir tomoni. *Ignaning uchi.*

2. Uch — son maʼnosida qoʻllanadi. 3 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor. *Uch karra uch — toʻqqiz.*


3. Uch-uchiga paxta oʻrab, yogʻlab, marhum arvohiga atab, payshanba, jumma oqshomlari yoqib qoʻyiladigan choʻp [4: 306].

4. Uch — ish-harakatni bildiruvchi feʼl soʻz turkumi. Uchmoq — qanot vositasida harakatlanmoq, qanot qoqib biror tomonga yoʻnalmoq; parvoz qilmoq [4: 308].

Yuqorida leksikologiya boʻlimini atlas matosiga qiyosladik. Shakldosh soʻzlar leksikologiya boʻlimining bir qismi, ammo anor mevasining atlas matosiga bogʻliqligi qanday? Bugungi kunda qoʻllaniladigan kimyoviy boʻyoqlar mavjud boʻlmagan davrda, ranglar nimalardan olingan? Diyorimiz tabiatidagi turli xususiyatlarga ega boy neʼmatlardan biri boʻlmish anor mevasining poʻchogʻidan sariq rang olinishi va bu rang atlas matosining serjiloligida oʻz aksini topganligi, uni shakldosh soʻzlarga qiyoslashga turtki boʻldi.

Sinonimlar — maʼnodosh soʻzlar.

«Bir umumiy maʼnoni ifodalovchi ikki va undan ortiq soʻzlarga maʼnodosh soʻzlar deyiladi» [2: 177]. Maʼnodosh soʻzlar — sinonimlarning bir qatoriga tizilib kelishiga maʼnodoshlik qatori deyiladi. Birinchi rasmdagi maʼnodoshlik qatoriga eʼtibor bering:



[5]

Boshqa soʻzlarga nisbatan nutqda keng qoʻllaniladigan va maʼnosi bahshapa tushunarli boʻlgan soʻz bosh soʻz deb yuritiladi. Yuqoridagi rasmda chigitdan unib chiqqan paxta poyasi keltirilgan. Atlas matosini tayyorlashda paxta tolasidan ham umumii foydalaniladi. Chigitni bosh soʻz yaʼni *kulmoq* soʻzi deb qarasaik, poyaning oʻng tomonidagi *jilmaymoq*, *qah-qah urmoq*, *xanda oqmoq* soʻzlarida ijobiy maʼno, poyaning chap tomonidagi *xiringlamoq*, *iljaymoq*, *ohjaymoq* soʻzlarida salbiy maʼno mavjud. Yuqorida bosh soʻz paxta poyasi unib chiqqan chigitda tasvirlandi. Eʼtibor bersangiz, ochilgan paxtaning tarkibida ham chigit mavjud. Buni shunday izohlash mumkinki, maʼnodosh soʻzlardagi bosh soʻzning maʼnosi shu soʻzning ijobiy va salbiy maʼnolarining asosidir. Xuddi chigit ochilgan paxtaning asosi boʻlganidek.

Antonimlar — *zid maʼnoli soʻzlar*.

«Qarama qarshi maʼnoli soʻzlarga zid maʼnoli soʻzlar deyiladi» [2: 182]. Zid maʼnoli soʻzlar — antonimlarni rang berish xususiyatiga ega uzum mevasi va piyoz sabzavotiga qiyoslab koʻraylik:

Birinchi zid maʼnolilik uzum — shirin, piyoz — achchiq. Endi uzum mevasining oʻzidagi zid maʼnolilikka eʼtibor beraylik: bu maʼnosi adabiyotimizning dardona asarlaridan biri «Qissasi Rabgʻuziy» asaridagi «Uzum takoyati» ga bogʻlaymiz. Hikoyada Nuh alayhissalom va Shayton orasidagi voqea tasvirlanadi. Unda Shayton uzumni tulki, sher va toʻngʻiz qoni bilan magʻoradi. (Bundan chogʻir-may paydo boʻladi.) Nuh alayhissalom esa zanjabil, jababil savi bilan sugʻoradi. Zanjabildan shinni, salsabildan sirka paydo boʻladi [1: 124]. Hikoyadan angliaymizki, uzumdan ezgulik yoʻlida ham, yovuzlik yoʻlida ham foydalanish mumkin. Bunda ezgulik va yovuzlik oʻzaro zid maʼnoli soʻzlardir. Piyoz sabzavotining oʻzidagi zid maʼnolilik esa piyoz xomligida achchiq, ammo usiz taomlarni tasavvur eta olmaymiz. Taomlarning shirin maʼnosi shu sabzavotdandir. Bunday zid maʼno achchiq-shirin maʼnolaridadir.

Paronimlar.

«Aʼqal bir tovush bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan soʻzlarga paronimlar deyiladi» [2: 182]. Paronim soʻzlarning rang olish uchun poʻchogʻidan umumli foydalaniladigan yongʻoq mevasiga qiyoslaymiz. Yongʻoq chiqqanda, uning ichidan ikkita bir-biriga oʻxshash magʻizlar chiqadi. Shu ikki magʻizni paronim soʻzlarga qiyoslaylik. Magʻizlar bir-biriga qanchalik oʻxshamasin, bir-birini takrorlamaydi. Tuzilishidagi baʼzi farqlar ularni ajratib tundi. Paronim soʻzlar ham bir xil talaffuz qilinsa ham, bir tovush orqali farqlanib turadi.

«Atlas» uslubi orqali soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra ularni koʻrib chiqdik. Bu uslub oʻquvchiga ilmiy yondashuv bilan birga, uning ongiga milliylik ruhini singdiradi. Oʻquvchi ongida diyorimiz tabiatidagi oʻrnatlarning naqadar boy xususiyatlarga egaligi haqida tushuncha paydo boʻladi. Bu jarayon uni tabiatni sevishga va asrashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sariyev Sh. Adabiyot fanidan yaxlit o'quv didaktik majmua, –T.: Sharq, 2014.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. Va boshq. One tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfl uchun darslik. –T.: Ma'naviyat, 2011.
3. Quvnoq topishmoqlar: o'zbek, turk va rus tilida. –T.: Yurist-media markazi, 2014.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. O'zbek milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008
5. <http://www.ziyonet.uz>
6. <http://www.kitobxon.uz>



ALIFBO — TILSHUNOSLIK MUAMMOSI...MI?

Norqulova Maftuna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada o'zbek alifbosi tarixiga doir ma'lumotlar keltirilib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Imlo, alifbo, lotin, kirill, o'zbek alifbosi. fikr, yechim.

Resume: In this article was researched informations about history of uzbek alphabet and reasonings based latin inscription.

Support words: Ortography, alphabet, latin, kirill, Uzbek alphabet, opinion solution.

Резюме: В статье цитирована сведения об истории узбекского алфавита которые основанные на латинском письме и предположении о узбекском алфавите.

Ключевые слова: Написание, алфавит, латын, кирилл, узбекский алфавит идея, решение.

O'zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o'tkazish haqidagi dastlabki qaror 1929-yili 15–23-may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan respublika adiblari, til imlochilari va umuman yetakchi ziyolilar ishtirokidagi konferensiyada qabul qilingan va bu qaror 1929-yil 10-avgustda tasdiqlangan Samarqand konferensiyasida qabul qilingan «lotinlashtirilgan o'zbek alifbosi» 33 harf va bir belgi (apostrof)dan iborat bo'lgan. Konferensiyada singarmonizmi o'zbek tili uchun xos hodisa deb topilishi va alifboga 9 ta unli uchun alohida harflar kiritilgani, shu asosda ishlab chiqilgan imlo qoidalari keyinchalik o'zini oqlamadi, amalda imlodagi boshdoqlik vujudga keldi, ayni bir so'z bir necha marta yoziladigan bo'ldi. Natijada bu masala 1934-yilning yanvar oyida bo'lib o'tgan «Til va imlo qoidalari bag'ishlangan qurultoy» da qayta muhokama qilindi va alifboga tegishli o'zgarishlar kiritiladi. O'tgan asrning 30-yillari ikkinchi yarmidan o'zbek yozuvini rus grafikasi asosida shakllantirish ishlari boshlandi.

bu jamiyon 1940-yilda yangi alifbo qabul qilinishi bilan yakunlandi» [1]. Shu yildan to O'zbekiston mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrda rus grafikasi asosidagi o'zbek alifbosining qo'llanishi rus tili mavqeyining oshib borishi, bunda «ikkinchi ona tili» darajasiga ko'tarilishiga, o'zbek tili mavqeyining esa pasayishiga, qo'llanish doirasining torayishiga olib keldi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng respublikada o'zbek yozuvini rus grafikasidan yana lotin grafikasi asosidagi yozuvga o'tkazish haqidagi fikr-mulohazalar o'rtoqa tashlandi. Bu masala bir yil davomida ommaviy axborot vositalarida, keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilindi va «1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonuni e'lon qilindi. Yangidan qabul qilingan o'zbek alifbosi 31 harf va bir tutuq belgisi (apostrof)dan iborat qilib belgilandi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek xalqining lotin alifbosiga o'tilgan 1929–1940-yillardagi ijobiy tajribasidan foydalanib shu qilib keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarini inobatga olingan holda Respublikaning har tomonlama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. Qonun alifbo sirasida 31 ta harf va 1 ta tutuq belgisi bo'lishini qayd etadi. 1995-yil 6-mayda ushbu Qonunga qisman o'zgartirishlar kiritildi hamda alifbo 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan iborat qilib belgilandi» [2]. 2004–2005-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasini tomonidan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunni amalga oshirish ishlarini yanada jadallashtirish va takomillashtirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi. Yangi alifboni hayotga o'tkazish uchun nihoyatda muhim ish sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

O'zbekiston lotin alifbosida qolgan yuxshimi yoki kirill alifbosiga qaytish kerakmi? tarzidagi savolga tez-tez duch kelib qolyabmiz. Bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan mana shu muammoni zudlik bilan bartaraf etish zarur deb hisoblayman. Negaki, hozirda ijtimoiy tarmoqlar orqali filolog mutalarga, xususan, tilshunoslarga nisbatan aytilayotgan o'rinsiz gaplarning ko'pligi o'z isbotini topardi. To'g'ri, yozuv — bevosita tilshunoslik va talimotlar bilan bog'liq soha. Lekin bu masalani tilshunoslar hal qiladi deyish no'rin. Bo'layotgan bunday bahslarning asosiy ishtirokchilari — jurnalistlar, yozuvchilar va tilga qiziquvchi turli soha vakillaridir. Imlo bilan bog'liq bahslarda asosan, tilshunoslar tanqid obyekti ga aylanib qoldi, ayniqsa ularning atuncha yil ichida yangi alifboni hayotga tatbiq eta olmaganlikda, barchaning talimiga javob bera oladigan yozuv tizimi yarata olmaganlikda, butun bir alifboni ovora qilganlikda» ayblanayotgani achinarli holdir. Biroq o'z fikrlarini gazetalarda, ommaviy axborot vositalarida ifodalaydigan filologlar va talimotlar ham yo'q emas. Biz lotin alifbosini hayotimizga to'liq kirib kelishiga erishishimiz lozim. «Davlatimiz ramzlari bo'lmish bayroq, gerb, rasmiy qunchalik zarur bo'lsa, alifbo ham biz uchun shunchalik muhim o'rin egasidir» [3]. Hammamiz uchun hurmatli va qadrlı davlat arbobi, muhtaram

birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov lotin alifbosini joriy qilishdan oldin shaxsan o'zlari televideniya da chiqish qilib, biz nima uchun lotin alifbosiga o'tishimiz kerakligini, bu juda tarixiy ahamiyatga ega ekanligini, agar farzandlarimiz lotin alifbosini mukammal bilsalar, jahon tillarini o'rganishlari ham oson bo'lishini, misol uchun ingliz tilini o'rganish, lotin alifbosini bilganlar uchun oson ekanligini qayta-qayta ta'kidlagan edilar. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga bu yil 29 yil bo'ldi. Lotin alifbosiga o'tilgan paytda tug'ilgan avlod allaqachon 20 yoshdan o'tib bo'ldi va ba'zilar farzand ko'rishdi. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi ham ikkinchi avlodni qarshi olmoqda. Bugungi XXI asr — «Axborot texnologiyalari asri»da lotin yozuvini to'liq tatbiq etish eng qulay va samarali. Boshqa nashrlarda ham matnda 10-15% joy tejaladi. «Hatto, lotin yozuvidan foydalanmaydigan tillarda so'zlashuvchilarning ko'pchiligiga lotin yozuvi tanish. Masalan, xitoy tilida Pinin, yapon va koreys yozuvining lotinchada yozilish qoidasi, hatto rus tilining xalqaro miqyosda foydalaniladigan bir qancha lotincha transkripsiyalari bor» [4]. Nega shuncha paytdan beri lotin yozuviga o'tishimiz qiyin kechayotganligining asosiy sabablari bizningcha quyidagilar:

- birinchidan, 1995-yildan keyin faqat maktablarda o'quvchi va o'qituvchilar uchun darslik va o'quv qo'llanmalari chiqarildi, xolos. Ta'lim muassasalarida tahsil olmaydigan, ishchi, xizmatchilar va katta avlod vakillari uchun lotin yozuvi targ'iboti bo'yicha ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmadi;
- ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari orqali lotin yozuvining qulayligi, ijobiy xususiyatlari va ommabopligini targ'ib qilish masalasida ham aniq tizimli ishlar amalga oshirilmadi. Jahon talablari darajasida deb aytilayotgan «O'zbekiston 24» telekanali ham kelajakka emas, balki o'tmishga havas qilib efirda kirill yozuvidan foydalanyapti;
- uchinchidan, lotin yozuviga o'tishni nazorat qiladigan respublika darajasidagi tashkilotning amalda mavjud emasligi;
- to'rtinchidan, kadrlarni ishga qabul qilishda, ularni nafaqat lotin yozuvi balki, o'zbek tili bo'yicha ham bilim saviyasi deyarli inobatga olinmayotganligi;
- beshinchidan, telekanallarimizda ingliz tilini o'rgatuvchi bir nechta teledarslar tashkil etilyapti, ammo katta avlod uchun lotin yozuvini o'rganish masalasida biror bir dastur mavjud emas;
- oltinchidan, yoshlar uchun chop etilayotgan ommaviy nashrlarning hali ham kirill alifbosida chop etilayotganligi.

Asosan, kirill alifbosida va lotin alifbosiga hushi yo'q ba'zi insonlar fikricha, O'zbekistonni lotin alifbosiga o'tkazish qiyin masala emish. Bu esa jamoatchilik ichida ishonqiramaslik kayfiyatini keltirib chiqarishi mumkin.

Bu laqat eskichalikni saqlab qolish tarafdorlarining fikri. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, «eskicha ishlash vaqti o'tgan»ini chin ma'nodan his qiladigan, rahbarlar, faollar va eng muhimi turtki yetishmayapti, nasarimda. Osonroq qilib tushuntirganda bu qadamni kimdir boshlab berishi lozim.

Biz aslida lotin alifbosiga qariyib o'tib bo'lganmiz. Ertalab ko'chaga chiqqangiz ko'changizning nomi lotin alifbosida, shahar va tumanlarning nomi yozilish chiqqishida lotin yozuvda yozilgan. Maktab va kollejlarda ta'lim lotin yozuvda olib boriladi. Turli muassasalarning noralari ham kirish peshtoqlarida ham alifbosida yozilgan. Lotin yozuviga to'liq o'tishimiz uchun ommaviy asbobot vositalari va idora-tashkilotlar o'z hujjatlarini to'liq lotin alifbosida olib borishga bo'ldi.

Xo'sh, kirill alifbosini yoqlovchilar, bajarilishi lozim bo'lgan 15–20% ish bo'lgan lotin alifbosiga o'tganimiz yaxshimi yoki o'sib kelayotgan yosh avlodni yoqovdiz qilib, yana kirillga qaytish yaxshimi?

Kirill yozuvini yozishda to'xtamlarning, ya'ni harflarning turli o'rinlaridagi belgilari kamligi balki ayrimlar uchun ma'qul tuyular. Lekin nima uchun shunday shiddat bilan o'sayotgan zamonda biz xuddi uyqusirayotgan odamdek ommamiz tomonga intilamiz? Nega biroz mehnat qilishdan, zahmat chekishdan qo'rqamiz? Axir bugungi XXI asr bolasi oxirgi rusumdagi murakkab telefondan behisob amallarini tezda o'zlashtiryapti-ku? Insoniyat shunday murakkab texnikani tezda o'rganib olayotgan bir paytda nega biz lotin alifbosini o'rganish qiyin, deb hisoblaymiz?

Xulosa qilib aytganda, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida bilimimizdagi barcha tovushlarni ifodalaydigan harflar yetarli. Bu alifbo yetuk mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan. Nima bo'lganda ham, tezroq qo'ldanibolish holatidan chiqib ketishimiz zarur.

Foydalaniilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonuni (1993-yil 2-sentabr). / «Toshkent oqshomi» gazetasi, 1993-yil, 12-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qarori: «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish tartibi haqida // «OTil va adabiyot ta'limi» jurnali, 1994.
3. Luqmonov H. O'zbek o'limasiga raddiya: Lotin alifbosi millatimiz uchun zarur. <http://kun.uz/news/2017/07/30>.
4. Luqmonov M. Kirillcha imlodan to'liq voz kechish vaqti keldi! <http://kun.uz/news/2017/18/08>.

TIL EKOLOGIYASI

Ortiqov Ramazon

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Аннотация

Bugungi axborot-texnologiya va kommunikatsiya davrida, aynan, til sofligi darajasining pasayib ketayotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ushbu maqolada til sofligiga bugungi kunda o'zining salbiy ta'sirlarini ko'rsatayotgan asosiy obyektiv va subyektiv omillar xususida amaliy va ilmiy-tahliliy fikrlar yuritilgan.

Tayanchso'zlar: adabiy til, ekologiya, sinekologiya, biologik ekologiya, ijtimoiy ekologiya, iqtisodiy ekologiya, geoekologiya va lingvistik ekologiya, o'lik til, jonli til, sheva.

Аннотация

В современных информационных технологиях и коммуникации ясно, что уровень чистоты языка уменьшается. В этой статье анализируются практические и научно аналитические соображения основных объективных и субъективных факторов, которые представляют собой негативные последствия чистоты языка.

Ключевые слова: Литературный язык, экология, синэкология, биологическая экология, социальная экология, экономическая экология, геоэкология и лингвистическая экология, мертвый язык, живой язык, диалект.

Annotation

It is clear that the level of language purity is diminishing. In today's information technology and communication. This article discusses practical and scientific analytical considerations of the main objective and subjective factors that present the negative effects of the purity of the language.

Keywords: Literary language, ecology, synecology, biological ecology, social ecology, economic ecology, geo ecology and linguistic ecology, dead language, live language, dialect.

Dunyodagi millatlarni sanaydigan bo'lsak, ular juda ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo, ularning hammasining ham o'z adabiy til normasi mavjud emas. Adabiy tili bo'lmagan millat tili biz xohlaymizmi, yo'qmi, qaysidir tillarning ta'sir doirasida yashashga majbur bo'ladi. Adabiy til har bir millatning tarixini, madaniyatini, an'analarni bugungi kuni va kelajagini o'zida aks ettiruvchi asosiy bir me'zondir. Adabiy til millat tilini bir me'yorga, mezonga, tartibga soluvchi va uning umrboqiyilgini ta'minlaydigan muhim bir omil hisoblanadi.

Tiriklik va jonsiz hayotni o'zida mujassamlashtirgan tabiat XIX asr oxiri—XX asr boshlaridan boshlab shu darajada zararlanib ketdiki, bu insonlar hayotiga va atrof-muhitga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Bu zararlaning oldini olish, tabiatni saqlab qolish va uni asrab avaylash uchun «Ekologiya» termini qabul qilindi. Ekologiya — bu jonli organizmlarning o'zaro munosabati va ularning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganadigan fandir [2: 5]. Shu bilan

birgalikda: sinekologiya, biologik ekologiya, ijtimoiy ekologiya, iqtisodiy ekologiya, geoekologiya va lingvistik ekologiya-til ekologiyasi ham paydo bo'ldi.

Ma'lumki, ekologiya deganda musaffolik, soflik, sog'lomlik; bugungi kunda mavjud tabiat elementlarini (o'simliklar, hayvonlar, okean va tog'lar) keyingi asrda asrab-avaylab yetkazishni tushunishimiz mumkin. Aynan mana shu xususiyat tilda ham mavjudligi, uni ham sof va musaffo holda saqlash, ularning bocha elementlarining bo'y-bastini saqlab qolgan holda, uning unrbuoyligini o'rnatish kerak ekanligini ta'kidlash joizdir.

Bugungi, axborot-texnologiya va kommunikatsiya zamonida davlatlar va millatlar o'rtasida turli ko'rinishdagi aloqalar olib borilmoqda. Buning natijasida tildimizda turli xil salbiy xususiyatlar paydo bo'layotgani ko'zga tashlanadi. Hunday ta'sirlar natijasida tarixan qashshoq, adabiy til normasi mavjud bo'lmagan va o'z tiliga befarq millatlar yutqizib qo'yimoqda. Shu o'rinda aytish kerakki, buyuk millatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat o'zining «Tilimiz» nomli asarida: «Turkcha baxtsizdir. Ming yildan beri ezilib kelmishdir, lekin bitmishdir. Bitmas, yashamishdir — yashar. Negakim boydir» [1: 127] deya ta'kidlaydilar. Yuqoridagi gaplardan turkiy-o'zbek tili tarixan boy tillardan ekanligini bilishimiz mumkin.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, tilga munosabat shu tarzda davom etaversa, yaqin 50-100 yil ichida hozirda mavjud tillarning yarmi tanazzulga yuz tutishi taxmin qilinmoqda. Dunyo tillari miqyosida bugungi kunda «o'lik til» va «jonli til» taluqchalari mavjud. Markaziy Osiyoda tanazzulga yuz tutgan 15 ta tildan biri amalga dungan tilini hozirgi kunda o'lik tillar sirasiga kiritishimiz mumkin. Bu til ham bir vaqtlar barqaror, jonli til sifatida tungoniylar tomonidan iste'molda bo'lgan edi. Bugun bu til o'lik tillar qatorida turibdi. Bunga asosiy sabab, tungoniylarning tiliga bo'lgan e'tiborsizligi, befarqligi va o'z tilini takomillashishi yo'lida yetarlicha bahir amalga oshirmaganligi oqibatida shu ahvolga tushdi. Bunday qismat, o'z tiliga befarq bo'lgan har bir millat tili boshiga tushishi mumkin.

Hozirda bizning tilingiz sofliygiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan holatlarni quydagicha tasniflash mumkin:

1. Shevalardan o'rinsiz foydalanish: *kelyapti* — *kevotti*, *galdim* — *keldim*, *ochiksiz?* — *yaxshimisiz?*, *cho'rak* — *non*, *solmo* — *ariq*, *qapi* — *eshik*, *mishi-qushuk*, *o'nakki* — *o'n ikki*, *opcha* — *opa*, *oka* — *aka* kabi ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin.

2. Nazimlarda ajnabiy so'zlardan foydalanish: «*karochi*», «*srazi*», «*sharof*», «*shis*», «*tak shito*», «*gde eto*», «*aborot*» va b.

3. Ikki til normalariga amal qilmagan holatda so'zlashimiz: *Ishlaring okmi?* *Tilda hammasi yes*, *chao*, *privet*, *brat*, *bratishka*, *menga nima*, *prichom?* kabilar.

4. Yoshlar tomonidan ishlatiladigan yasama ternuinar: «*paxan*», «*mamulya*», «*mamasha*», «*papasha*», «*bratish*», «*pakachuxa*», «*choluxa*», «*salyut*» shu tahlilarni aytish mumkin.

5. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta va kundalik sms yozishmalarida soʻzlarning qisqartmalar va raqamlar yordamida ifodalanishi: *U-n, x. tun, m-n, k. bn, ke4a, biliw, 6qiw* shu kabilar.

6. Koʻchadagi eʼlonlar va joy nomlaridagi imloviy va mazmuniy kamchiliklar: «*Poyarvzal taʼmirlash ustaxonasi*», «*Ochil dasturhon choyxonasi*», «*Mehnat obod qishlogʻi*», «*Sulton Grill*», «*Ahmad choy*», «*ALPomish mahallasi*», «*Hush kelibsiz*», «*Akmal Joʻja*», «... *Chanqoqingni qondir*» va shu kabilar.

7. Korxonalar va tashkilotlarning chetdan kirib kelgan soʻzlar bilan nomlanishi: «*Azia Biskivit*», «*Azia Ais*», «*Sofian Turk*», «*Ice Master*», «*Fuji film*», «*Hotel*», «*Ekskolibur*» va shu kabi ayrim joy va tashkilot nomlari.

8. Kitoblardagi uslubiy va imloviy, ishoraviy kamchiliklar va shunga oʻxshash holatlarga hozirgi kunda tez-tez duch kelmoqdamiz. Bunga mutasaddi shaxslarning eʼtiborsizligi yoshlarning savodxonlik darajasining susayishi asosiy omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Shuni taʼkidlash joizki, tilimizning sofligini saqlash va unga eʼtiborli boʻlish toʻgʻrisidagi harakatlar bizda oldindan boshlangan. 1918-yil Abdurauf Fitrat tomonidan tashkil etilgan «Chigʻatoy gurungi» vakillari ham oʻz davri nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda til sofligini saqlash boʻyicha oʻz munosabatlarini bildirib oʻtgan.

Demak, xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, til sofligining buzilishi deganda nutqimizda har xil argon va jargonlardan, yozishda imloviy kamchiliklardan, biz nomlayotgan nom va ismlarning milliylikdan chekinishini aytish mumkin. Til sofligini saqlash uchun atrofimizga eʼtiborli boʻlib, yuqoridagi holatlarni jamiyatimizda bartaraf etish chora-tadbirlarini koʻrish har birimizning burchimizdir. Zero, til sofligi millat sofligining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. «Tanlangan asralar». Toshkent: «Maʼnaviyat». 2009.
2. Тўхтаев А. С. «Экология». Тошкент. «Ўқитувчи». 1998.
3. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент. 2006.



YURIDIK LEKSIKA VA USLUB

Rizoyeva Mohlaroyim

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oʻzbek tilida ish yuritish uslubi va ulardagi ayrim muammoalar hamda ularning yechimlari haqida soʻz yuritilgan. Shaxsiy maʼlumotnomaning yangicha koʻrinishi tavsifa etilgan.

Tayanch soʻzlar: ish yuritish, hujjatchilik, hujjat uslub, yuridik soha, huquqiy, hujjatnoma

Annotation

In this article analyzed problem of working in uzbek language some problems and offered new own reference.

Key words: stationery, certification, document, style, legal field, legaly

Аннотация

В этой статье обсуждаются способы работы на разговорном языке, а также некоторые из их проблем и их решений

Ключевые слова: деловой посэдыкы, документ, документ, стиль, юридическое документ, шпакка

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi oʻzbek tilini til sifatida belgilanishi uchun poydevor boʻldi. Bu oʻz oʻzidan oʻzbek hujjatchiligi tilini, yaʼni rasmiy uslubni rivojlantirish talabini keltirib chiqardi va bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi, jumladan, Sh. Koʻchirnov tomonidan «Oʻzbekiston Respublikasi davlat tili» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi 2004-yilda esa «Huquqiy hujjatlar oʻzbek tilida ifodalashning ilmiy- nazariy muammolari» mavzusida doktorlik qildi bu oʻzbek hujjatchiligini takomillashuvini boshlab berdi. Hujjatchilik uslubiga yangi terminlar kiritildi. Biroq bu atamalar bugungi kunda talab talab holga kelgan. Hujjatlarimizni koʻzdan kechiradigan boʻlsak ulardagi shakl hamda uslubiy gʻalazliklar yaqqol koʻzga tashlanadi. Birgina ariza «shapkasi» degan soʻzni olaylik. «Shapka» soʻzi oʻrinda **ustxa!** degan atamani hali ham isteʼmolga kiritma olmadik, hatto adabiyotlarimizda ham bu soʻz qoʻshilmoqchi boʻlib qoʻlanilaveradi. Ayni vaqtda bizni tashvishga soladigan narsa hujjatlarimizni tiligina boʻlib qolmay aholimiz orasida hujjatlarni farqlay olmaslik holatining kuzatilishi tashvishlantiradi. Bu holatga sabab hujjatlarimizni uslubiy jihatdan yaxshi tuzilmaganligidir.

Hujjatlar umumiy tarzda quyidagi toʻrt guruhga boʻlinadi:

1. Qonun hujjatlari;
2. Diplomatik hujjatlar;
3. Ish yuritish hujjatlari;
4. Shaxsiy hujjatlar.

Bizda yuqoridagi uch guruh hujjatlar deyarli takomillashgan ammo aholimizning juda koʻp foizi foydalanadigan toʻrtinchi guruh shaxsiy hujjatlarida (ariza, maʼlumotnoma, tarjimaʼyi hol, guvohnoma...) leksik va uslubiy jihatdan ancha eʼqoʻqliklar kuzatiladi. Masalan, birgina biz koʻp qoʻllaydigan va ishlatilgan arizani bir necha turlarini olaylik. Aslida arizaning nechta turi bor? degan savol tugʻilishi mumkin. Bir xil mazmundagi arizani turli xil shakllantirish bu hujjatlarimiz saviyasi ancha pasayishiga olib keladi. Agarda aholimiz orasida yuridik bilim rivojlanmas ekan, ular oʻz haq-huquqlarini ham himoya qila olmaslik muammolari ham kelib chiqadi.

Biz bir hujjat turini koʻpaytirib emas balki rasmiy uslubga xos boʻlgan qisqalik, aniqlik, prinsiplariga amal qilgan holda shakllantirishimiz zarur.

O'zbek hujjatchiligini andoza qilishimiz uchun ayni vaqtda hujjatlarimizni har tomonlama takomillashtirimiz, ularni terminologiyasini ishlab chiqishimiz, har bir hujjatning har qanday turini qoliplashgan ko'rishga keltirishimiz zarur.

Shaxsiy ma'lumotnoma turli faoliyat sohasida faoliyat yurituvchi shaxs haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan hujjat turi hisoblanadi. Hozirgi kunda hujjatchilik doirasida faol ishlatiladigan shaxsiy ma'lumotnomada tavsiflanilayotgan shaxs bilan bir qatorda uning millati, ota-onasining kasbi, ilmiy daraja, unvon kabi ma'lumotlar so'raladi. Bu turdagi ma'lumotnomalar ba'zi hollarda tabaqalanish va shaxsga ota-onasining lavozimi va mansabiga qarab yondashish muammolarini keltirib chiqarmoqda. Vaholanki, shaxsiy ma'lumotnoma tegishli shaxsning o'zini tavsiflashga qaratilgan bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir. Shu sababli biz quyidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan hujjatlar turini taklif qilmoqchimiz.

MA'LUMOTNOMA

F. I. Sh. _____

Tug'ilgan sana _____

Yashash manzil _____

Mutaxassisligi _____

Ta'lim olganlik darajasi — _____

Mehnat faoliyati _____

Yutuqlari _____

Qiziqishlari _____

Qo'shimcha ma'lumotlar _____

Ishga kirishdan maqsadi — _____

Xorijiy tillarni bilishi, darajasi _____

Ishdan kutayotgan maoshi _____

Tel. raqam: _____ E-pochta: _____

Yuborilayotgan manzil _____

Ushbu ma'lumotnomada biz birinchi navbatda ota-onasi, millati haqidagi ma'lumotlarni kiritmaslikni joiz deb bildik. Ma'lumotnomada ota-onasi va ijtimoiy ahvoli haqida beriladigan ma'lumotlar ayrim hollarda tabaqalashtirish muammmosini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli biz asosan ma'lumot berilayotagn shaxsning qobiliyatlari va shaxsiy qiziqishlari hamda o'ziga xosliklariga alohida urg'u berdik. Bunday ma'lumotlar shaxsga nisbatan subektiv baho berishning oldini oladi, shaxsning shaxsiy qobiliyatlariga nisbatan yondashishni talab etadi. Bevosita bunday ma'lumotnomalar ish jarayonida raqobat muhitini yaratish uchun ham xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, xalqimiz yuridik savodxonligi o'sha o'z haq tushuqlarini yaxshi bilishadi va davlatimiz demokratik mustahkamlanishga olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov, M. Mamadaliyev, A. Ish yuritish. – Toshkent, 2003.
2. H. Rafiyev, A. Yo'ldoshev, A. «Davlat tilida ish yuritish» – Toshkent; Cho'pon. 2007. 62-80-betlar.



«RAVISH» SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Xayrullayeva Huriniso

*Misher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi*

Аннотация

Mazkur maqolada interaktiv metodlarining o'qitishdagi ahamiyati ravish so'z turkumini o'qitish misolida ochib berilgan. «Sinchkov o'quvchi», «Taqqoslash usuli», «Charxpalak», «So'rog'ini top» kabi metodlari orqali ravish so'z turkumini o'qitish usullari ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: «Sinchkov o'quvchi», «Taqqoslash usuli», «Charxpalak», «So'rog'ini top», metod

Аннотация

В этой статье объясняется важность интерактивных методов обучения делу. Методы преподавания разнообразных словосочетаний были разработаны с использованием методов «Разумного читателя», «Метода сравнения», «Колесо обозрения», «Найти вопрос».

Ключевые слова: «Разумного читателя», «Метода сравнения», «Колесо обозрения», «Найти вопрос», метод

Annotation

In this article is given us teaching of Uzbek language's important characteristic feature. It has different methods about parts of speech adverb. The methods of parts of speech: «Sinchkov o'quvchi», «Taqqoslash usuli», «Charxpalak», «So'rog'ini top» and that's all.

Keys words: «Sinchkov o'quvchi», «Taqqoslash usuli», «Charxpalak», «So'rog'ini top», method

Hugungi kunda ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu kuzatishlar natijasida o'qitishning yangi va samarali metodlari ta'lim sohasiga kirib kelmoqda. Jumladan, ona tili fanini o'qitishda ham interaktiv metodlardan foydalanish til ta'limi samardorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Buni 6-sinf ona tili fanining «Ravish» mavzusi misolida ko'rib chiqamiz.

Darsning mavzusi: Ravish — mustaqil so'z turkumi.

Darsning maqsadi:

1) Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga «Ravish» so'z turkumiga oid yangi bilimlarni berish.

2) Tarbiyaviy maqsad: Dars jarayonida foydalaniladigan matnlar orqali o'quvchilar ongida o'z ajdodlariga hurmat tuyg'usini singdirish.

3) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqiy kompetensiya hamda yaxshi axloqiy sifatlarni rivojlantirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: «Sinchkov o'quvchi», «Taqqoslash usuli», «Charxpalak», «So'rog'ini top».

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, video-proyektor, kompyuter, ekran, rag'bat kartochkalari va boshqa ko'rgazmali qarollar. Darsning borishi:


I. Tashkiliy qisim: 1) salomlashish, davomatni aniqlash; 2) siyosiy va ma'naviy daqiqa tashkil etish.

II. O'tilgan mavzuni so'rash: O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilar olgan bilimlarni tekshirish uchun «Sinchkov o'quvchi» o'yini o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar navbat bilan bir-birlariga o'tilgan mavzu yuzasidan savol berib borishadi. Ushbu jarayonni nazorat qilish uchun har bir savol (qizil kubik) va har bir javob (yashil kubik) uchun oldindan tayyorlab kelingan kubikchalar berib boriladi. Eng ko'p savol bergan va eng ko'p javob bergan o'quvchilar tabiat manzarasi tasvirlangan surat yoki portret bilan rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni: Yangi mavzu quyidagi slaydlar orqali tushintiriladi: Ravish mustaqil so'z turkumi bo'lib, u yasalish xususiyatiga ega. Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'ini, daraja-miqdor kabi belgilarni bildiruvchi so'zlar ravish hisoblanadi.


So'rog'i	Misol	Gap
Qanday?	Piyoda	Piyoda yurish sog'lik uchun foydali.
Qachon?	Hamisha	Ajdodlar yodi hamisha qalbinizda yashaydi.
Qayerga?	Olg'a	Biz yoshlar o'z yo'limizda olg'a intilamiz.
Qancha?	Ko'p	Kam gapirgan odam ko'p biladi.

Ma'lumki, sifat va ravish so'z turkumlari asosan bir-biriga o'xshash, ko'pchilik o'quvchilar ravish va sifat so'z turkumlarini ajratishda qiynalishadi. Shuni hisobga olib, darslikda berilgan 1-topshiriq «Taqqoslash usuli» yordamida bajariladi. Bunda quyidagicha bo'ladi:



Birinchi gapda keltirilgan «buyuk» soʻzi «siymo» shaxs otiga bogʻlanib uning belgisini bildirib kelmoqda va qanday? soʻrogʻiga javob boʻladi. Demak, «buyuk» afflit soʻz turkumi. Ikkinchi gapdagi «mardlarcha» soʻzi «halok boʻlmoq» feʻliga bogʻlanib harakatning qay holda bajarilganligini bildirgan va qanday? soʻrogʻiga javob boʻladi. Bu yerda «mardlarcha» soʻzi ravish soʻz turkumidir.

(1-topshiriq) 1. Tonggi shabada sokin esardi. 2. Mashina koʻchada sekin yurdi. 2. Quvonchli xabar tarqaldi. Barno matni tez oʻqidi. 3. Aʼlo kayfiyat mustahkam sogʻlik garovidir. Sherzod katta opasiga bu haqida atayin gapirdi. Yuqoridagi gaplardan qaysi birida sifat, qaysi birida ravish ishtirok etayotganini aniqlang va fikringizni izohlang. **Yangi mavzuni mustahkamlash:** Darslikda keltirilgan 440-mashqni «Charxpalak» metodi yordamida bajaramiz. Buning uchun oʻquvchilar 2 guruhga ajratiladi. Birinchi guruh mashq shartiga koʻra ravish soʻz turkumidagi soʻzlarni, ikkinchi guruh ular birikkan soʻzlarni topishi va quyidagi «Charxpalak» ka joylashtirishlari kerak boʻladi:



Oʻquvchilar «charxpalak»ni toʻldirganidan soʻng, ekranga jadval chiqariladi.

Ravish	Ravish birikkan soʻz

Ushbu jadval ravish va u birikkan soʻz bilan muvofiq holda toʻldiriladi. Qaysi guruh barcha soʻzlarni topsa gʻolib, soʻzlarning hammasiga muvofiqini topa olmagan guruh esa magʻlub hisoblanadi. Gʻolib guruh ragʻbatlantiriladi.

Darslikda keltirilgan navbatdagi 441-mashqning 1-topshirigʻini «Soʻrogʻini top» usuli yordamida bajaramiz. Bunda oʻquvchilar berilgan gaplardagi ravishlarni aniqlab unga soʻroq berishi kerak boʻladi. Masalan:

Soʻrogʻi

1-oʻquvchi: Shu vaqt nima uchundir hamma birdan sharaqlab kul qoʻy ib yubordi.

Soʻrogʻi

2-oʻquvchi: Ertaga oʻrtoqlarimga toza maqtanadigan boʻldimda.

Zukko oʻquvchilar ushbu mashq uchun ham ragʻbatlantiriladi.

IV. Dars yakuni: Uyga vazifa: 442-mashq. Mashq sharti qisqacha tushintiriladi.

Xulosa qilib aytganda, interaktiv metodlar mavzuni yaxshi o'zlashtirishga bilimlarni uzoq vaqt saqlanib qolishiga, o'quvchilarni ijodiy ishlashga yordam beradi.

Foydalanilagan adabiyotlari:

1. Mo'minova O. O'zbek tili darslarida modulli o'qitish texnologiyasidan foydalanish. Maqola. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali. – T.: 2017.
2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (Oliy o'quv yurtlarining pedagogika universitetlari va institutlarining filologiya yo'nalishi talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan). T.: 2006.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. T.: 2017.



III SHO'BA.
NAZARIY
TILSHUNOSLIK
MASALALARI

O'ZBEK TILIDAGI QO'SHIMCHALAR
KOMBINATSIYASINI
MODELLASHTIRISH HAQIDA

Abduazizova Munisa

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Morfemika bo'limi sozning eng kichik ma'noli birliklarini o'zida mujassam etadi. Ammo ushbu tilshunoslik bo'limida chalkashliklar anchagina. Ushbu maqolada qo'shimchalar kombinatsiyasidagi g'alizliklar xususida ilmiy tahliliy fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Morfemika, morfema, qo'shimcha, derivatsion ma'no, qo'shimchalar kombinatsiyasi.

Аннотация

Раздел словообразования показывает наименьшие части слова. Но в этом разделе есть проблема неоднозначного подхода к этим части слова. Этой статье дается некоторые обоснование комбинационной проблемы аффиксов.

Ключевые слова: Раздел словообразования, морфема, аффикс, грамматический смысл, комбинация аффиксов.

Annotation

Morphemics include the smallest linguistic categories. But there are lot of differentiations and similitities in this field. Scientific analytic opinions on inappropriate combination of affixes are described in this article.

Key words: Morphemics, morpheme, grammatical meaning, combination of morphemes.

O'zbek leksikasida gap hosil qilish, albatta, grammatik shakllar vositasida amalga oshadi. So'zlarning bir-biri bilan o'zaro bog'lanishida xizmat qiladigan birlamchi vosita — qo'shimchalar. Qo'shimchalarning ongimizda saqlanadigan mavhum shakli esa morfemadir.

Morfema -mavhum lisoniy birlik, mazmun va ifoda jihatining bir butunligidan tashkil topadigan mukammal strukturadir. Morfemalar ifoda jihatini aks ettirganda moddiy holatga keladi. Masalan, *ehtiyomand* birligining oxiridagi *-mand* qismi hozir qo'shimchaga teng, ammo u nutqda qo'llangunga qadar morfema sifatida ongda doimiy mavjud. «Morfema va qo'shimchani

UMIS (umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab) va AHVO (alohidalik, hodisa voqelik, oqibat) tarzida talqin qilinadi»[1: 22]. Qo'shimchalar nutqiy birliklarga qo'shilsa, morfemalar leksemalarga qo'shiladi. Ayrim darsliklarda o'zakni ham qo'shimchani ham *morfema* termini bilan atash kuzatiladi [2: 122]. Aslida qo'shimchani *ko'makchi morfema* deb bo'lmaydi. Morfema va qo'shimcha tushunchalari bir narsaning ikki tomoniga o'xshash. Yoxud o'zakni yetakchi morfema deb atash ham shunday.

«Chunki morfema til qurilishining ma'noviy tomoni bo'lib, leksema (o'zakning ongimizdagi aksi)dan farqli holda derivasion yoki grammatik ma'noga ega» [3: 114]. Nomustaqillik tabiati va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni morfema deb atashga olib kelgan. Bundan ayon bo'ladiki, u o'zak sifatida nomcyon bo'la olmaydi. So'zning o'zagini asos asosga qo'shilib kelib, u bilan grammatik ma'no hosil qiluvchi lisoniy birlikni morfema, grammatik shakl hosil qiluvchi nutqiy birlikni qo'shimcha deb atash maqsadga muvofiq. Shu sababdan o'zakni ham, qo'shimchani ham bir xil — morfema atamasi bilan nomlash mavhumlik sari borishdir.

O'zbek tilida qo'shimchalarning so'zga qo'shilish tartibida ma'lum qonuniyat bor. «Ma'lumki, so'z yasovchi qo'shimchalar so'zning material qismiga, leksik ma'no ifodalovchi qismiga kiradi» [4: 17]. Shunga ko'ra, tabiiy ravishda, bu turdagi qo'shimchalar so'zga shakl yasovchi qo'shimchalardan oldin qo'shiladi. Shakl yasovchi qo'shimchalarning lug'aviy ma'no ifodalaydigan turi sintaktik munosabat ifodalaydigan turidan oldin keladi. Demak, o'zbek tilida qo'shimchalar kombinatsiyasi, odatda (!) quyidagicha tartibda aks etadi:

o'zak + so'z yasovchi qo'shimcha + lug'aviy ma'no hosil qiluvchi shakl yasovchi qo'shimcha + sintaktik munosabat hosil qiluvchi shakl yasovchi qo'shimcha. Masalan, *mehnatkashlarning* so'zini namuna sifatida olaylik. Ushbu so'zda qo'shimchalar odatiy kombinatsiyada qo'shilgan: *mehnat* (asos) + *kash* (so'z yasovchi qo'shimcha) + *lar* (lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha) + ning (sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha). Ko'p darsliklarda so'zlarning morfem tarkibi sifatida shu tartib asos qilib olingan [5: 25].

Ammo shunday holatlar uchraydiki, biz bu tizimni mukammal deb atay olmaymiz. Ya'ni qo'shimchalarning bu tartibda joylashuvini umumiy qonuniyat sifatida qabul qilib bo'lmaydi. Ancha so'zlarda so'z yasovchi qo'shimchalar lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalardan keyin o'zakka qo'shiladi. Bunday so'zlarda qo'shimchalarning quyidagicha kombinatsiyasi kuzatiladi:

asos + lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha + sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha.

Masalan, *qaqshatqich* so'zida «*qaqsha*» — asos, «*-t*» — lug'aviy shakl yasovchi orttirma nisbat qo'shimchasi, «*-qich*» esa sifat yasovchi qo'shimcha. Quyida keltirilgan so'zlar ketma-ketligida ham aynan shunday holatlarni kuzatishimiz mumkin:

№	Soʻz	Turkumi	Asosi	Lingʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha	Soʻz yasovchi qoʻshimcha
1	<i>qaynatma</i>	Ot	qayna	-t	-ma
2	<i>oʻchirgʻich</i>	Ot	oʻch	-ir	-gʻich
3	<i>chiqargʻich</i>	Ot	chiq	-ar	-gʻich
4	<i>hostirma</i>	Ot	bos	-tir	-ma
5	<i>oʻqishli</i>	Sifat	oʻqi	-sh	-li
6	<i>tutatqi</i>	Ot	tuta	-t	-qi
7	<i>eruvchan</i>	Sifat	Eri	-(u)v	-chan
8	<i>qayrilma</i>	Sifat	qayir	-il	-ma
9	<i>egiluvchan</i>	Sifat	Eg	-il	-uvchan
10	<i>koʻrgazma</i>	Ot	koʻr	-gaz	-ma
11	<i>saylanma</i>	Ot	sayla	-n	-ma
12	<i>koʻrsatma</i>	Ot	koʻr	-sat	-ma
13	<i>koʻrsatgich</i>	Sifat	koʻr	-sat	-gich
14	<i>bilishli</i>	Sifat	Bil	-ish	-li
15	<i>yoqilgʻi</i>	Ot	yoq	-il	-gʻi
16	<i>qurilma</i>	Ot	qur	-il	-ma
17	<i>topilma</i>	Ot	top	-il	-ma
18	<i>boʻrtirma</i>	Sifat	boʻrt	-tir	-ma
19	<i>topishmoq</i>	Ot	top	-ish	-moq
20	<i>koʻrishli</i>	Sifat	koʻr	-ish	-li
21	<i>tashlandiq</i>	Sifat	tashla	-n	-diq
22	<i>qaytariq</i>	Ot	qayt	-ar	-iq
23	<i>tortishuv</i>	Ot	tort	-ish	-(u)v
24	<i>joʻnatma</i>	Ot	joʻna	-t	-ma
25	<i>bildirishnoma</i>	Ot	bil	-dir, -ish	-noma

26	<i>yeyishli</i>	Sifat	ye	-ish	-li
27	<i>isitma</i>	Ot	isi	-t	-ma
28	<i>isitgich</i>	Ot	isi	-t	-gich
29	<i>qichitma</i>	Ot	qichi	-t	-ma
30	<i>eritma</i>	Ot	eri	-t	-ma
31	<i>kiritma</i>	Ot	kir	-it	-ma
32	<i>belanchak</i>	Ot	bela	-n	-chak
33	<i>toparmon</i>	Sifat	top	-ar	-mon
34	<i>achitqi</i>	Ot	achi	-t	-qi
35	<i>bostiriq</i>	Ot	bos	-tir	-iq
36	<i>burilma</i>	Sifat	bur	-il	-ma
37	<i>uchrashuv</i>	Ot	uchra	-sh	-uv
38	<i>tuzilma</i>	Ot	tuz	-il	-ma
39	<i>yozishma</i>	Ot	yoz	-ish	-ma
40	<i>uyushma</i>	Ot	uy	-ish	-ma
41	<i>ortinchoq</i>	Sifat	tort	-in	-choq
42	<i>uydirma</i>	Sifat	uy	-dir	-ma
43	<i>urishqoq</i>	Sifat	ur	-ish	-qoq
44	<i>uydirmachi</i>	Sifat	uy	-dir	-ma, -chi
45	<i>egiluvchan</i>	Sifat	eg	-il	-(u)vchan

Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, tilimizdagi barcha so'zlar ham morfemik tahlil jihatidan [asos + so'z yasovchi qo'shimcha + lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha + sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha] qolipiga muvofiq emas. O'zbek tilida umumturkiy so'zlar, o'zbekcha so'zlar va o'zlashma so'zlar mujassamlashganligi tufayli morfemik tahlil jarayonini an'anaviy «qoliplar» bilan cheklab bo'lmaydi. Tilimizning morfem tuzilishini tahlil qiluvchi dastur yaratmoqchi bo'lsak, dastlab bu sohadagi mazkur chalkashliklarni bartaraf etish kerak. Ya'ni lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchadan so'ng qo'shilib yangi so'z hosil qiladigan vositalarni aniqlab, dastur yaratish jarayonida ular uchun maxsus baza tuzish lozim. Aks holda u tilni modellashtirishga katta xalal beradi. Masalan, ot va sifat so'z turkumi doirasida *-ma*, *-gich(-g'ich)*, *-qi(-g'i)*, *-dek*, *-(u)v*, *-mon*, *chak*, *-qoq* kabi qo'shimchalar yordamida so'z yasalganda lug'aviy shakl yasovchi

qo'shimcha so'z yasovchi qo'shimchadan oldinga o'tadi. Ular shu turdagi qo'shimchalarning bir qismi, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (o'quv-uslubiy majmua). -Toshkent, 2017.
2. Nurmonov A, Mahmudov N, Sobirov A, Qosimova N, Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 1-kurs talabarlari uchun). - Toshkent, 2016.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent. Universitet, 2006.
4. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. - Toshkent, 2009.
5. Mahmudov N, Nurmonov A, Sobirov A, Nabiyeva D. Ona tili (6-sinf uchun darslik). - Toshkent, 2013.
6. Gulomov A, Tixonov A. N. O'zbek tilining morfem lug'ati. - O'qituvchi, 1977.



O'ZBEKCHA SO'ZLARNING GRAMMATIK SHAKLLARNI QABUL QILISH IMKONIYATI

Abdualimova Gulhayo

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Tillar dunyo miqyosida bir-biridan andoza olib rivojlangani holda, ayni paytda, har bir til o'z ichki xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflanadi. O'zbek tilining morfemik sathi keng. Bu mavzu yuzasidan tadqiqotlar olib borish tilshunosligimiz oldida turgan navbatdagi muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'zlarning grammatik shakllarni qabul qilish imkoniyatlari va uni korpuslashtirish masalalari haqida ayrim mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: So'z, grammatik shakl, morfemik sath, grammatik lug'at

Annotation

At the same time, each language is classified according to its internal character, although languages are developed on a global scale. Morphemic levels of the Uzbek language are wide. Conducting research on this topic is one of the major challenges facing our linguistics. This article gives you some insight into the possibilities and possibilities to get grammatical forms of words in Uzbek.

Key words: Word, grammatical form, morphemic level, grammatical dictionary

Аннотация

Хотя языки широко развиваются друг от друга одновременно, каждый язык классифицируется в соответствии с его собственными особенностями. Морфемное уровни узбекского языка широки. Проведение исследований по этой теме является одной из основной задач, стоящих перед нашей лингвистикой. Это статья дает вам некоторое представление о некоторых возможностях и возможностях получения грамматических форм слов на узбекском языке.

Ключевые слова: Слово, грамматическая форма, морфемный уровень, грамматический словарь

O'zbek tiliga oid so'zlarning grammatik qo'shimchalarni olib turli shakllarga kira olish imkoniyati biz o'ylaganimizdan ko'ra xilma-xil va rang-barangdir. Bir so'zga grammatik shakllarning qo'shilishi necha xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin? Ayrim olimlar fikrlariga ko'ra taxminan, ikki yuzdan besh yuzgacha bo'lishi mumkin ekanliga aytiladi. Ammo bizningach bu juda kamlik qiladi deb o'ylaymiz. Qanchalik mumkinmas bo'lib ko'rinsa-da, birgina so'zga grammatik shakllarni 5000-10000 dan ortiq ko'rinishda qo'shishimiz va so'zning shuncha xil grammatik shaklli ko'rinishini hosil qilishimiz mumkin. A. Po'latov va boshqalar hammuallifligidagi «Dunyoviy o'zbek tili» kitobida biroz mubolag'ali bo'lsa-da, buni 100 000 xildan ortiq deb aytib o'tilgan.⁵ Shu o'rinda bu ko'rsatkich ingliz tilida 100 xil ekanligi haqidagi fikrni ham keltirib o'tish lozim. Bu jihatdan o'zbek tili, nafaqat, felktiv, balki agglutinativ tillar oilasiga kirivchi tillardan morfemik imloniyati anchayin yuqoriligi bilan farq qiladi. Bunday imkoniyat o'zbek tili morfemik sathining o'ziga xos xususiyati hamdir. Grammatik shakllarni maksimal qabul qila oladigan bir so'zning 10000 xil grammatik shaklli ko'rinishini hosil qilish mumkinligiga tilning agglutinativ ekanligi ham yaxshi sharoit yaratadi. Bunga sabab tilimizda har bir ma'no uchun alohida qo'shimcha borligi, yoki har bir qo'shimcha alohida ma'no ifodalashidadir. Bu grammatik shakllarning har bittasi individual huquqqa ega va to'la ma'noda mustaqil hamdir. So'z negiziga qo'shilgan har bir tarkibiy qism bu so'z doirasida o'ziga xos elementar va semantik mavqega ega.⁶

Buni bir fe'lining kategorial shakllari misolida ko'rib o'tsak, quyidagicha tasniflash mumkin:

«Ko'r» fe'lining grammatik ko'rinishi

I. «Ko'r» fe'lining nisbat shakllari

1. «Ko'r» fe'lining hozirgi zamon birinchi shaxs birlikdagi nisbat ko'rinishi

a) a. n: ko'ryapman, ko'rmoqdaman, ko'rayotirman, ko'rayotibman;

b) m. n: ko'rilyapman, ko'rilmoqdaman, ko'rilayotirman, ko'rilayotibman;

d) o'. n: ko'rinyapman, ko'rinmoqdaman, ko'rinayotirman, ko'rinayotibman;

e) b. n: ko'rishyapman, ko'rishmoqdaman, ko'rishayotirman,

ko'rishayotibman;

f) o. n: ko'rdiryapman, ko'rdirmoqdaman, ko'rdirayotirman, ko'rdirayotibman,

ko'rdirtiryapman, ko'rdirtirmoqdaman, ko'rdirtirayotirman, ko'rdirtirayotibman,

ko'rsatyapman, ko'rsatmoqdaman, ko'rsatayotirman, ko'rsatayotibman;

g) aralash n: ko'rsatishyapman, ko'rsatishmoqdaman, ko'rsatishayotirman,

ko'rsatishayotibman, ko'rishtiryapman, ko'rishtirmoqdaman, ko'rishtirayotirman,

ko'rishtirayotibman, ko'rishtirilyapman, ko'rishtirilmuqdaman,

ko'rishtirilayotirman, ko'rishtirilayotibman, ko'rdirtirishyapman,

⁵ Po'latov A., Mo'minova T., Po'latova I. *Dunyoviy o'zbek tili*. 1-jild. – T.: O'zMU, 2003. – B. 3.

⁶ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunesova Z., Abdusalova M. *Hozirgi o'zbek adbiy tili*. O'quv qo'llanma. – T.: 2009. – B.

ko'rdirtirishmoqdaman, ko'rdirtirishayotirman, ko'rdirtirishayotibman,
 ko'rishtirishyapman, ko'rishtirishmoqdaman, ko'rishtirishayotirman,
 ko'rishtirishayotibman, ko'rsatilyapman, ko'rsatilmoqdaman, ko'rsatilyotirman,
 ko'rsatilyotibman, ko'rdirishyapman, ko'rdirishmoqdaman, ko'rdirishayotirman,
 ko'rdirishayotibman.

2. «Ko'r» fe'lining hozirgi zamon birinchi shaxs birlikdagi bo'lishsiz nisbat ko'rinishi.

3. «Ko'r» fe'lining hozirgi zamon birinchi shaxs ko'plikdagi nisbat ko'rinishi.

4. «Ko'r» fe'lining hozirgi zamon birinchi shaxs ko'plikdagi bo'lishsiz nisbat ko'rinishi;

5. «Ko'r» fe'lining hozirgi zamon ikkinchi shaxs birlikdagi nisbat ko'rinishi va hokazo.

Bu xil tasniflash orqali boshqa turkum (ot, sifat, son, ravish, olmosh)ga oid so'zlarning ham grammatik shakllarini qoliplashtirishimiz mumkin bo'ladi. Maqsad o'zbek tilidagi morfemalarning (ayni damda, shakl yasovchi morfemalar nazarda tutilmoqda) so'zni shakllantiruvchanlik xususiyatini bo'rtirish emas, balki real imkoniyat doiralarini ko'rsatish va uni ba'zi so'zlarni shakllantirish orqali isbotlash. Bunda derivatsion morfemalar chetga chiqadi va faqat grammatik morfemalarning so'zga qo'shilish variantlari ko'rsatiladi. Albatta, jarayonda grammatik shakllarning barcha (kategorial, yondosh, hamroh) ma'nolari hisobga olinadi. Bunga sabab, nutq ularning hammasidan foydalanadi va buningsiz iloji yo'q.

Bizningcha, so'zning o'zgarish asosidagi sistemasi turlicha bo'lishi mumkin.

1. Bir grammatik shakl orqali (ko'r+di, ko'r+ay, ko'r+sat, ko'r+ib).

2. Bir nechta grammatik shakl va ularning aralash holda kelishi orqali (ko'r+il+di, ko'r+giz+gach, ko'r+sat+il+gan+di). Ikkinchi xildagi ko'rinish orqali shakllangan so'z variantlarining ayrimlari faol bo'lmasligi mumkin (ko'r+il+ajak+man), ammo ma'lum bir nutq vaziyatida favqulotda qo'llanilishi mumkinligini inkor qilib bo'lmaydi (*M: Qachonlardir men ham (mening asarlarim ma'nosida) odamlar tomonidan ko'rilajakman*). Va bu nafaollik ularni so'zlik tarkibiga qo'shmaslikka asos bo'la olmaydi. Ya'ni bunday holatda «tarozining bosadigan pallasida» iborasi doirasida ish tutish o'rinsiz. Bir qarashda g'aliz ko'ringan, lekin nutqning ayrim uslublarida beixtiyor qo'llaniladigan bunday so'zlar ishtirok etgan misollar keltirib o'tish orqali bu so'zlarning mujmalligiga muvofiq kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Dunyo tilshunosligida yangidan yangi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar jadral ilgari lab borayotgan bir paytda o'zbek tilshunosligining ham bu borada qilishi kerak bo'lgan vazifalari talaygina. O'zbekistonda, xususan, tilshunosligimizda kompyuter lingvistikasini rivojlantirish, unga material tayyorlash hozirgi davrda asosiy masalalardan biri ekanligini hisobga olsak, fikrimiz yanada oydinlashadi.

So'zlarning bunday grammatik morfemli ko'rinishini qoliplashtirishimiz o'z oldida ikkita maqsadni shakllantiradi. Birinchidan, o'zbek tilining grammatik lug'atini yaratish. Ikkinchidan, bu lug'at turi orqali kompyuter lingvistikasiga manba

hozirlash va o'z navbatida, o'zbek tilshunosligining jahon tilshunosligidagi ahamiyatini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'latov A. Mo'minova T., Po'latova I. Dunyoviy o'zbek tili. 1-jild. -Toshkent, 2003.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunosova Z., Abdusalova M. Hozirgi o'zbek adbiy tili. O'quv qo'llanma. -Toshkent, 2009.
3. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. - Qarshi, 2005.



IBORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Abdurasulova Dilnoza

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilimizdagi milliy va an'anaviy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan frazeologizmlarning lingvokulturrema sifatidagi tadqiqi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologizm, lingvokulturologiya, lingvokulturrema.

Аннотация

В этой статье изложены исследование об особенностях фразеологии как лингвокультурема особенности проявляющие национальные и традиционные ценности нашего языка.

Ключевые слова: фразеологизм, лингвокультуроология, лингвокультурема.

Annotation

This article discusses about investigation of phraseologism as lingvoculturema that reflect traditional as well as national customs in our mother tongue.

Key words: phraseologism, lingvoculture, lingvoculturema.

Har bir millat va xalqning ruhiyati, yashash tarzi, madaniyati hamda tarixi uning tilida aks etadi. Tilning o'ziga xos xususiyati esa uning muhim qatlamlaridan biri bo'lmish turg'un birikmalar — iboralarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, frazeologizmlar kishilar orasidagi munosabatlarni qisqa, aniq va ta'sirchan ifodalaydi. Tildagi turg'un birikmalarining qanchalik ko'pligi, o'sha til imkoniyatlarining shunchalik keng ekanligini ko'rsatadi.

Lingvokulturologiyada turg'un birikmalarining milliy o'ziga xosligining tilda aks etishi o'rganiladi. Xalqimiz tilida purma'no o'git va pandlar benihoya ko'p. Ajdodlarimiz azaldan o'zining hayotiy tajriba va muammolarini, rasm-rusumlarini maqol va matallarda, naql va iboralarda aks ettirib keladi.

Iboralar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi, millat madaniyatini o'zida jamlovchi lingvokulturologik xazinadir. Quyidagi misollar fikrimizning yorqin dalilidir.

Qulog'ini tishlab qo'ymoq. Bu iborada xalqimizga xos milliy va qadimiy urf-odat o'z aksini topgan. Bu odat turkiy xalqlarda qadimdan mavjud. «Qulog'ini tishlab» deyilganda bir qiz va bir yigitning hali go'daklik chug'idayoq, unashirilgan ma'nosi anglashiladi.

Bel olishmoq. Ushbu ibora, asosan, kurashmoq ma'nosida qo'llanadi. Kurash ota-bobolarimizning or-nomus talashib, sha'nlarini himoya qilib bellashgan asriy, merosiy sport turidir. Kurash, nafaqat, milliy sport turi, balki oriyat masalasi hal qilinganligi sabab ham qadriyatga aylangan. Kurash jarayonida «bel olishmoq» iborasi keng qo'llangan bo'lib, polvonlar davraga chiqsa, qo'l-bel olishib, kurashga kirishishgan. Bu ibora ayni shu ma'noni ifodalagan. Iboraning «bel ushlashmoq», «bel bog'lashmoq» kabi variantlari ham keng tarqalgan. Shuningdek, «bel olishmoq» iborasining ko'chma ma'nosi ham bo'lib, ikki raqib tomonning bir-biri bilan kurashga kirishishi ko'zda tutiladi. Buni aql, idrok, tafakkur kurashi desak ham bo'ladi. *Bir novcha bilan bir pakanani bel ushlashtirib, gap bo'ydami yoki g'ayratda ekanini sinunqochimiz (Oybek, "Oltin vodiyan shabadalar")*.

Belida belbog'i bor. Xalqimizda azaldan odamning mard va g'ururliligi «belida belbog'i bor» iborasi orqali ifodalangan. «Belida belbog'i bor» iborasi inoyansa, ishonsa bo'ladigan odam mazmunini beradi. Bu ibora kishi hamiyatiga tegish, yigitmisan o'zi, qabilida raqibning g'ashiga tegish maqsadida ham ishlatiladi. O'zbek xalqida belida belbog'i borlik yigitlik, mardlik, g'ururlilik belgisidir.

Boshini ikkita qilmoq. Xalqimiz ikki yoshning turmush qurishini «boshini ikkita qilish» iborasi bilan ifodalaydi. Bu ibora, asosan, yigitlarga nisbatan ishlatiladi.

Bir yoqadan bosh chiqarmoq iborasi kishilarning hamjihatlik, ahillik va yukdillik bilan bir vazifani ado etishlariga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu iboraga ajdodlarimizdan meros bo'lib o'tib kelayotgan azaliy udumimiz hashar yaqqol misol bo'la oladi. Hasharda insonlar bir yoqadan bosh chiqarib, mehnat qilishgan va yurtni obod qilishgan. Shuningdek, «Bir jon- bir tan bo'lmoq» iborasi ayni shu mazmunni ifodalovchi birikma sanaladi. *Bechoraning hech kimi yo'q; yetim qiz edi. Ikki g'arib bir yoqadan bosh chiqargan edik (Oybek "Qutug' qon")*.

Gapni bir joyga qo'ymoq. Xalqimiz bir ish qilishdan avval o'ylab, yaqinlar bilan maslahatlashib, so'ng bir qarorga kelishga odatlangan. Ayni shu paytda «gapni bir joyga qo'ymoq» yoki «maslahatni bir yerga qo'ymoq» iborasi qo'llanadi. *Ikkovi ahd-u paymon qilishib, gapni bir joyga qo'yishgan yili ursh boshlanib, Burgut frontga ketgan edi (S. Ahmad. "Cho'l burguti")*.

Maslahatni bir joyga qo'yishib, yo'lga chiqishdi (S. Zunnunova, "Gulxan").

Zuvalasi pishiq. Non tayyorlashda xamirdan yoki imorat uchun loydan bo‘lak, ya’ni pishiq zuvala tayyorlanadi. Zuvalasi pishiq iborasi esa ko‘chma ma’noda uddaburon, epchil, ishning ko‘zini biladigan insonga, uning xarakteriga nisbatan qo‘llaniladi.

Izzat-nafsiga tegmoq. Qadimdan ota-bobolarimiz g‘ururli kishilar bo‘lib kelishgan va ular uchun oriyat, insoniylik sha’ni masalasi muhim sanalgan. Hamiyatli kishining haqoratlanishi aynan shu ibora orqali ifodalangan.

Ko‘z tegmoq. Mazkur ibora tasodifiy ko‘ngilsiz voqea sodir bo‘lganda qo‘llaniladi. Diniy tushunchalarga qaraganda, ko‘z, suq, ya’ni nazar bor narsa. Shu tushunchaga tayangan holda «ko‘z tegdi» iborasi keng ishlatiladi.

Shuningdek, bu ibora zamirida fetishga ishonish ham yotadi. Sababi xalqimiz orasida «ko‘z tegmasin» deb ko‘zmunchoq taqiladi va «kinna kirdi» iborasi ham shu mazmunni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Ichagini boshiga salla qilmoq. Bu ibora haqorat, dag‘dag‘a, so‘kish mensimaslik ma’nosida. Salbiy mazmunga ega mazkur iborani ayrim chapani yigitlar bir-birlari bilan dahanaki jang qilishganida ishlatadilar. «Ichagini salla qilish» birovni chavaqlab, ichak-chavog‘ini boshiga o‘rash, uning joniga qasd qilishdir. Bu yerda salla so‘zi bir tomondan ichakning uzunligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan milliy bosh kiyimimiz sifatida madaniyatimizni o‘zida aks ettiradi.

Yelkamning chuquri ko‘rsin. O‘ta norozilik, ozurda bo‘lish, bezor bo‘lish ma’nolarini beruvchi keng tarqalgan ushbu iborada ham o‘zbekona qarash o‘z aksini topgan. «Bu joylarni yelkamning chuquri ko‘rsin», deyilganda qayta bu joylarga kelmaslik tushuniladi. Bilamizki, inson tanasining yelka chuqurida, ya’ni o‘mrov suyagida suv turmaydi. Unda suv saqlash amri mahol. Shuni nazarda tutgan holda iborada bu yerga kelishim, qasamimni buzishim ham xuddi shunday gap, degan ma’no ifodalanadi.

Oyoq uzatmoq. Oyoqni uzatmoq, cho‘zmoq, chigilini yozmoq, dam olmoq kabi bir nechta ma’nolarga ega bu iborada ko‘chma ma’noda insonning o‘limi, hayotdan ko‘z yumish ottenkalari mavjud. Xalqimizga xos bunday iboralarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Misol uchun, «yo‘qolib qoldi», «olamdan ko‘z yumdi» iborasi ham mazmunan «oyoq uzatmoq» iborasi bilan bir xil. Bu iboralar yurtimizning janubiy viloyatlarida faol qo‘llaniladi. Shuningdek, «oyoq uzatmoq» iborasi o‘z ma’nosida odobsizlik, tarbiyasizlik belgisidir.

Xulosa qilib aytganda, xalqning til boyligi — uning bo‘yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o‘lchanadi. Barqaror birikmalarda ifodalanayotgan fikr bilan bir qatorda ma’lum ma’noda millatning madaniyati, urf-odati, tafakkurining serqirra jihatlari ham aks etadi. Badiiy tafakkurning mevasi sanalmish iboralar zamonlar osha sayqallanib, teranlashib boradi. Xalqimizda odob-axloqqa, yaxshilikka undovchi va chuqur ma’noga ega iboralar talaygina. O‘zbek xalqiga xos bu kabi iboralarni tahlilga tortish frazeologizmlarning ma’lum tushuncha bilan birga o‘sha xalqning millati, milliy va an’anaviy qadriyatlarini o‘zida aks ettirishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. O'qituvchi. T. 1978
2. Л. А. Маслова. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М. 2001
3. M. Sherbo'tayeva. «O'zbek tilida «Lingvokulturemalar» va ularning lingvokulturologik tadqiqi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi. Andijon-2014.



SIFATDOSH SHAKLLARINING BA'ZI JIHATLARI HAQIDA

Bultakova Durdona

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada sifatdosh yasovchi qo'shimchalarning turli ma'no ottenkalari haqida so'z boradi. Jumladan, qo'shimchalarning turli yasalmalar uchun asos vazifasini bajarganligi ayrim misollar vositasida aniq ifodalangan.

Kalit so'zlar: grammatik shakllar, sifatdosh, sof fe'l, sifat, ot, belgi.

Annotation

This article discusses the different semantic features of the affixes forming participle. In particular, by means of some examples it is clearly expressed that affixes function a root for various formed words.

Key words: grammatical forms, participle, pure verb, adjective, noun, character.

Аннотация

В этой статье анализируются различные семантические признаки аффиксов образующих причастие. В частности, с помощью некоторых примеров доказана то, что аффиксы выполняют функцию корня для некоторых форм.

Ключевые слова: грамматические формы, причастие, чистый глагол, имя прилагательное, имя существительное, отметка.

Ma'lumki, fe'lning harakat ma'nosi susayib, undagi «belgi» ifodash ma'nosining ortib borgan shakli sifatdosh hisoblanadi. Fe'lning vazifa shakllaridan biri bo'lgan sifatdosh o'zida ham fe'lga, ham sifatga xos bo'lgan xususiyatlarni jumlaydi. «Sifatdoshlar nokesimlik shakllari bo'lib, fe'lni nutqqa voqelantirar ekan, uni o'zidan keyingi ot(ba'zan fe'l)ga bog'lashdek sintaktik va o'zi shakllantirayotgan fe'lga sifatlik belgisini berishdan iborat morfologik ma'nolarni munoyon qiladi» [5: 96]. Sifatdosh sifat kabi narsa-predmetning belgisini ifodalaydi. Ammo bu shakl shaxs va narsa-predmetning turg'un, barqaror belgisini ifodalamaydi. Fe'lni o'zidan keyin kelgan otga bog'lab, uning belgisini miqlashtirish vazifasini bajaradi. Sifatdoshning quyidagi shakllari mavjud:

-(a)r, -gan, -adigan, -ayotgan, -ydigan, -mish, -ajak, -(u)vchi, -gusi, -asi kabilar. Bu shakllarning har biriga bafurja to'xtalamiz. -(a)r so'zlar asosiga

qoʻshilib, oʻzida kelasi zamon maʼnosidan tashqari umumzamonga xoslikni ham ifoda etadi. «Sifatdosh yasovchi affikslerden biri *-(a)r* (boʻlishsiz *-mas*) shaklidir. Tarixan *-(a)r* affiksi yordamida yasaluvchi forma juda koʻp vazifada qoʻllangan. Shuning uchun hozirgi oʻzbek tilidagi keladi, ishlaydi va keladigan, ishlaydigan formalariga xos maʼnolarni ifodalash uchun ham *-(a)r* affiksi bilan yasaluvchi forma qoʻllangan...» [1: 514]. Bu shakl tilimizning qadimgi turkiy til bosqichida ham qoʻllangani maʼlum. Tilshunos olim N. Abdurahmonov qadimgi turkiy tilning grammatik xususiyatlari haqida soʻz yuritib, *-(a)r* affiksining ham qator muqobillarini sanab oʻtadi. «Feʼl negizida *-ur, -yur, -ir, -ar, -er* affixlari qoʻshilishi orqali: saqinur, olurur, kelur, qazgʻanur, yashayur, teger, barir va b.» [2: 87]. Eʼtiborli jihati shundaki, qadimgi turkiy til davrida ham bu shakldagi *r* tovushi barqaror boʻlib, oldingi tovushlar soʻzlikni tanlanishiga qarab oʻzgargan. Keyingi davrlarda esa koʻproq *-ur* shaklida ishlatilganligiga guvoh boʻlamiz. «Qoʻchqor boʻlur qoʻzining peshonasi doʻng boʻlur, bek boʻlur yigitning peshonasi keng boʻlur» [6: 12]. Bu qoʻshimchaning inkor koʻrinishi *-mas* shakli hisoblanadi. Lekin bu shakl ayrim feʼllarga qoʻshilib, hosil boʻlgan soʻz oʻzida belgi maʼnosini kuchaytirib, undagi «belgi» lik qatʼiylashib qolgan va endi uni feʼlga daxldor tushuncha sifatida qaray olmaymiz. Bunday soʻzlar sifat xususiyatlarini oʻzida namoyon qilganligi uchun bugungi kunda ularga sifat turkumiga kiruvchi soʻzlar sifatida qaraladi: *oʻtmas, indamas, bilinar-bilinmas, soʻlmas* kabi. Xususan, shoiri Saida Zunnunova qalamiga mansub quyidagi satrlarda tilga olingan *oʻtmas* soʻzi sifatga xos barcha xususiyatni ifoda etyapti: «Yigʻlasang hali ham qilmasman toqat, Oʻtmas pichoq bilan kimdir soʻyadi». Bu soʻzlar tarixan sifatdoshdan oʻsib chiqqan va belgi maʼnosini ifodalash bunday soʻzlarda qatʼiylashib qolgan. Demak, sifatdoshlarning sifatga, shuningdek, otga koʻchish holatlari ham kuzatiladi. Masalan: beshiktervatar, izquvar, oʻqotar, muzyorar, chopar va hokazo. Bu otlar tarixan sifatdoshdan oʻsib chiqqan, oʻzida harakat belgisini susaytirib, otga xos boʻlgan «shaxslik», «narsalik» maʼnosini barqarorlashtirib, ot soʻz turkumi tarkibiga kirgan. Baʼzan *-(a)r* shaklini olgan soʻz gapda kesim sifatida kelib, zamon maʼnosini ifoda etish, umuman olganda, kesimlik maʼnolarini oʻzida kuchli aks ettirib, sof feʼl mavqeyiga oʻtadi. «Choʻpchak degan choʻp boʻlar, Teraversang, koʻp boʻlar» [7: 18]. Bu oʻrinda *-(a)r* shakli sifatdoshni hosil qilish uchun xizmat qilmayapti. Chunki u oʻzida sifatdoshga xos boʻlgan vazifalar, xususan, belgi ifoda etish, ismlik xususiyatini namoyon qilmayapti. Aksincha, sof feʼlni shakllantirish uchun xizmat qilmoqda. Yana bir sifatdosh shakli *-gan* affiksi hisoblanadi. Bu shakl nutqdan oldin sodir boʻlgan harakat-holat maʼnosi bilan birga belgi ifodalash vazifasini namoyon etadi. Lekin *-gan* affiksi umumzamon maʼnosini ham ifoda etishi mumkin. «*-gan* affiksi *yot, tur, yur, oʻtir* feʼllariga qoʻshilib kelganda oʻtgan zamonni emas, hozirgi zamonni ifodalaydi: oldimida turgan muhim vazifalar; partada oʻtirgan bola; biz bilan yurgan odamlar kabi. Sifatdoshning *-gan* formasi baʼzan kontekstga qarab, zamonda umumiylikni ham bildiradi: aytgan soʻz — oʻtgan oq» [4. 13]. Shuningdek, bu shakl ham *-(a)r* kabi gap tarkibidagi vazifasiga qarab sifatdosh yoki sof feʼlni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, oʻqigan

huda birikmasida belgi ifodalash, ismlik xususiyatlarini namoyon etmoqda. «Menga tashvishlardan yiroq yur deysan, Charchagansan, deysan, shundaylikcha ham» [8]. Bu misoldagi *charchagansan* soʻzida u sof feʼlni shakllantirish uchun xizmat qilmoqda. Sifatdoshning arxaik shakllaridan biri *-mish* qoʻshimchasi hisoblanadi. Maʼnodan, shogird boʻlmish yigit. Bu shakl ayrim soʻzlarda «belgilik» maʼnosidan oʻzgarib, «narsa-hodisa» maʼnosini ifodalash vazifasi muvofiqlashib, ot soʻz turkumiga koʻchgan. Masalan, *oʻtmish, kechmish, qilmish* va shu kabilar. *-mish* qadimgi turkiy til davrida ham faol ishlatilgani maʼlum. «Feʼl negiziga *-mish, -mis* affiksini qoʻshish orqali: masalan, basmis, kelmis, tutmis, armish, qazgʻanmish va shu kabilar. Bunday sifatdoshlr oʻtgan zamonda eshitilganlik maʼnosini bildiradi. Shu maʼnosiga ega boʻlganda esa gapda aniqlovchi funksiyasida ishlatiladi. Masalan: agim qatunugʻ keturmish tangri — onam xotinni koʻtargan (ulugʻlagan) tangri» [3: 87]. Bu shakl ancha qadimdan maʼlum va eʼtiborli jihati oradan shuncha vaqtlar oʻtsada, oʻzining qadimgi turkiy til davridagi shaklini saqlab qolgan. *-mis* varianti esa vaqtlar oʻtishi bilan ishlatilmay, faqat *-mish* shakli barqarorlashib qolgan. Shuningdak, *-(u)vchi* qoʻshimchasi ham sifatdosh hosil qiluvchi shakl hisoblanadi. Badiiy nutqda bu affiks *-guvchi* shaklda ham qoʻllaniladi va soʻzga badiiylik xususiyatini beradi. «Uygʻonguvchi bogʻlarni koʻrdim, Topay dedim qildim izingni» [9: 38]. *-(u)vchi* mahsuldor sifatdosh shakli emas. Ayrim soʻzlarda bu qoʻshimcha shaxs oti yasash uchun xizmat qiladi va bu soʻzlar ham tarixan sifatdoshdan oʻsib chiqqan. Masalan, oʻqituvchi, tikuvchi, yozuvchi va shu kabilar. Bu soʻzlar aslida maʼlum darajada belgi maʼnosini oʻzida ifoda etgan. Masalan, oʻqituvchi odam. Bunda oʻqituvchi soʻzi odam soʻzining belgisini aks ettirgan va oʻtashuv hodisasidan (yaʼni odam soʻzi tushib qolib) hozirgi kunda toʻliq otga oʻtgan va bunday soʻzlarga ot soʻz turkumiga kiruvchi soʻzlar sifatida qaraladi. Chunki bunday soʻzlar otga xos boʻlgan xususiyatlarni oʻzida toʻliq aks ettirib, odamning shaxs ifoda etish maʼnosi barqarorlashib qolgan. Sifatdosh hosil qiluvchi shakllarga *-ajak, -gusi, -asi* qoʻshimchalari ham kiradi. Masalan, kelgusi yil, kelasi bahor, aytilajak soʻz kabi. Bu shakllar koʻproq yozma nutqqa xos va oʻzida kelasi zamon maʼnosini aks ettiradi. Sifatdosh hosil qiluvchi shakllarga mansub boʻlgan *-adigan, -ayotgan, -ydigan* kabi qoʻshimchalarni tom maʼnodagi sifatdosh shakllari deyish mumkin. Chunki bu shakllar boshqa sifatdosh hosil qiluvchilardan farqli oʻlaroq unumdor shakllar hisoblanadi. Boshqa shakllarning baʼzan sifatga, otga koʻchishi holatlarini, shuningdek, *-(a)r, -gan* kabi namunalar gapdagi xususiyatlari, oʻziga qarab yo sifatdosh yoki sof feʼl boʻlishi holatlarini yuqorida koʻrib chiqdik. *-adigan, -ayotgan, -ydigan* kabi qoʻshimchalarda esa bu holatlarni uchratmaymiz. Ular doimo sifatdosh hosil qilish vazifasini bajaradi. *-adigan* affiksi umumzamonga mansub boʻlgan maʼno ifodalaydi. Bu shaklning eski oʻzbek tilida *-adurgʻon* koʻrinishi ham mavjud boʻlgan. Fikrimizning isboti uchun Lutfiy qalamiga mansub quyidagi matnlarga diqqat qilamiz: «Meni shaydo qiladurgʻon bu koʻngildir, bu koʻngil, Xor-u rasvo qiladurgʻon bu koʻngildir, bu koʻngil». Bu satrlardagi *shaydo qiladurgʻon, rasvo qiladurgʻon* kabi soʻzlarni shaydo qiladigan, rasvo qiladigan

deb talqin qilsak bo'ladi. Xulosa qilish mumkinki, *-adurg'on* morfemasi fonetik o'zgarishlar bilan

-adigan ko'rinishiga kelgan. Demak, yuqorida sanab o'tilgan sifatdosh shakllari orasida ba'zilar bugungi kunda sifatdosh hosil qilish vazifasini bajarmaydi, balki sifat yoki ot yasashga o'tgan. Shu taklifni berish joizki, sifatdosh shakllarini tom ma'nodagi sifatdoshlar (*-adigan*, *-ayotgan*, *-yidigan*) va nutqiy sifatdoshni shakllantirishdan tashqari lisoniy lashadigan sifatdosh shakllari (*-(a)r*, *-mish*,

-(u)vchi kabi) kabi ikki turga ajratib olish darkor. Shuningdek, *-(a)r*, *-gan* kabi sifatdoshning grammatik shakllari esa har doim ham sifatdoshni shakllantirish uchun xizmat qilmaydi. Gapdagi o'rni, vazifasiga qarab, qanday xususiyatlarni nutqda namoyon qila yotganligiga qarab yo sifatdosh yoki sof fe'lni shakllantirish uchun xizmat qilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. A. va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. 1- tom. -T.: Fan, 1972. - 514 b.
2. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. -T.: O'qituvchi, 1989. -87 b.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. -T.: O'qituvchi, 1989. -87 b.
4. Asqarova M., Jumaniyozova R. O'zbek tilida ravishdosh va sifatdoshlar. Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar. -T.: O'zfanakademnashr, 1953. -13 b.
5. Baxriddinova B. M. Fe'l lug'aviy shakllari tizimi. Tur kategoriyasi. Filologiya fanlari nomzodligiga yozilgan diss//2002-yil//B 96.
6. Gulxaniy. Zarbulmasal. - T.: O'qituvchi, 1972. - 12 b.
7. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov. O'zbek xalq maqollari. -Sharq, 2005. -18 b.
8. Oripov A. Birinchi muhabbatim. She'riy to'plam. -T.: O'zbekiston, 2006.
9. Oripov A. Tanlangan asarlar. -T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. - 2000. -38 b.



FE'LNING VAZIFA SHAKLLARI TRANSPOZITSIYASI

Ergasheva Nilufar

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada fe'l funksional shakllarining boshqa turkumlarga ko'chishi bilan bog'liq qarashlar tahlili olib borilgan. Turli adabiyotlarda keltirilgan fikrlarga tayanib, fe'l funksional shakllaridagi konversiya hodisasi hamda turkumlararo ko'chgan so'zlar masalasi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: fe'lning funksional shakllari, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh, sof fe'l, affiks, konversiya, derivatsiya, immigratsion va emmigratsion ko'chish.

Аннотация

В этой статье анализируются взгляды на то, как перемещать функциональные формы глагола в другие части речи. Изучено событие конвергенции функциональных форм глагола и слов, перемещаемых между различными частями речи, основанных на результатах различных публикаций.

Ключевые слова: функциональные формы глагола, название действия, причастие, герундий, глагол, аффикс, конвергенция, деривация, иммиграционный и эмиграционный переход.

Annotation

This article deals with views on how to transfer verb's functional forms into other parts of speech. The convergence event of the verb's functional forms and the words transferred between various parts of speech, based on the findings of various publications have been studied.

Key words: functional forms of verb, verbal nouns, participle, gerund, verb, affix, convergence, derivation, immigrated and emigrated transfer.

Fe'l so'z turkumi o'z vazifasidan tashqari boshqa so'z turkumlarining vazifasini bajarishga ham xoslanadi. Bu hodisa adabiyotlarda fe'lining funksional shakllari, fe'ling boshqa turkumlarga monand shakllari, o'zgalovchi kategoriya nomlari bilan yuritiladi.

Adabiyotlarda fe'ning vazifa shakllari turli xil ajratiladi. Masalan, Q. Supayevning «Hozirgi o'zbek tili» o'quv qo'llanmasida fe'ning vazifa shakllari sifatida sof fe'l, harakat nomi (yoki otdosh [1: 174]), sifatdosh, ravishdosh ko'rsatilsa, boshqa bir qator adabiyotlarda, jumladan, R.Sayfullayeva, M.Rahmatullayev kabi olimlarning qo'llanma va darsliklarida sof fe'l vazifa shakllari qatoriga kiritilmaydi. Fikrimizcha ham, sof fe'lni fe'ning funksional shakli sifatida ko'rsatish biroq noo'rin. Chunki o'zgalovchi kategoriya fe'ldan boshqa turkumlarga monand bo'lgan shakllarni yasaydi yoki «nutqda o'zga turkum so'zlarini yopishtiradi» [2: 202]. Fe'lga xos barcha grammatik shakllarni (bo'lishli-bo'lishsizlik, o'timli-o'timsizlik, nisbat, shaxs-son, mayl) ifodalay olmagan sof fe'l shakli esa fe'ning so'z turkumi sifatida anglatadigan birlamchi vazifasidir.

Fe'l vazifa shakllarining boshqa turkumlarga ko'chishi tilimizda ko'p uchraydi. Ma'lumki, ko'chish hodisasi tilshunoslikda konversiya, transpozitsiya yoki transformatsiya atamaları bilan yuritiladi. Manbalarda ko'chishning 2 xil turi ajratib ko'rsatiladi: emmigratsion va immigratsion. Turli so'z turkumlarining birorta turkumga ko'chishi emmigratsion ko'chishni, har bir so'z turkumining boshqa turkumlarga ko'chish imkoniyatlari immigratsion ko'chishni ifodalaydi [3: 28]. Ma'lumki, fe'llarning asosiy qismi tuslanish xususiyatiga ega, fe'ning o'ziga xos xususiyatlari boshqa so'zlarning fe'lga ko'chish imkoniyatlarini nolga tenglashtirib qo'yadi, ya'ni so'z turkumlari paradigmasi a'zolari ichidagi hech biri fe'l bajaradigan funksiyaga moslasholmaydi (predikatsiya) va tabiiyki, unga xos differensial belgilarga ega bo'lolmasligi uchun so'z turkumlari fe'lga ko'chmaydi. Shu sababli fe'lga emmigratsion ko'chish haqida gapirish ortiqchadir.

Fe'llardagi immigratsion ko'chish ko'pincha mohiyatan fe'l, formal-grammatik jihatdan ot, sifat va ravishga bog'liq bo'lgan harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh kabi vazifaviy shakllar vositasida amalga oshiriladi. Funktsional-semantik yaqinlik harakat nomining otga, sifatdoshning sifatga, ravishdoshning ravishga ko'chishiga yordam beradi. Zamon, shaxs, mayl kategoriyalarining mavjud emasligi bu shakllarning ko'chishiga qulay shart-sharoit yaratadi [3: 31].

Fe'lning funktsional shakllaridan harakat nomi bilan bog'liq konversiya ko'p kuzatiladi. -(u)v, -(i)sh affikslari bilan hosil qilingan harakat nomining otga ko'chishiga o'zbek tilida ko'plab misollar topish mumkin. Lekin shu o'rinda savol tug'iladi: turli adabiyotlarda turlicha talqin etiladigan ushbu hodisa ko'chishmi yoki bu so'zlardagi -(u)v, -(i)sh kabi qo'shimchalar ot so'z turkumining derivatsion affikslarimi? Bu savollarga javob berish uchun bir nechta misollarga e'tiborimizni qaratsak: *saylov, tanlov, maqtoV, uchrashuv, yozuv* kabi so'zlar asosiy o'rinda ot so'z turkumi doirasida qo'llaniladi. Masalan: 1. *Ikromjon bu nogahon uchrashuvdan tamomila esankirab qolgan edi.* (S. Ahmad, «Ufq») 2. *Har xonada beshlab, o'nlab munshilar, navisandalar sovuqdan qo'llarini puflab-puflab, engashib, yozuv yozardilar.* (Oybek, «Navoiy») 3. *Man bo'lsam, bobom maqtovini eshitib, g'ururlanib boraman.* (A. Qodiriy, «Uloqda»)

Aslida -(u)v affiksi harakat nomining tarixiy shakli bo'lib, hozirgi o'zbek tilida unumli va keng iste'molli affiks emas [4: 305]. Hozirda deyarli bu affiks yordamida harakat nomi hosil qilinmaydi. Bu affiksning arxaiklashuvi natijasida, -(u)v yordamida yasalgan harakat nomining ko'pchiligi ot so'z turkumiga ko'chgan deb hisoblash mumkin.

Shu o'rinda, tilshunos olim A.Hojiyevning fikrlari ham asoslidir: «Asl fe'lning harakat nomi shaklini yasovchi bo'lgan bu affiks hozirgi o'zbek adabiy tilida o'z vazifasini butunlay o'zgartirgan, ya'ni uning yordamida harakat nomi shaklining yasalishi adabiy me'yor hisoblanmaydi. Fe'llardan ot yasash vazifasi ancha faollashgan» [5: 108]. Biroq olim misol qilib keltirgan *yoZuv, sinov, qishlov, siltov* kabi so'zlar ot turkumida emas, fe'lning harakat nomi sifatida hosil bo'lib, keyinchalik ma'noda umumiylik kasb etgan holda otga ko'chgan bo'lishi mumkin.

Masalan, ilgari *saylov* deb ataluvchi muntazam ravishda tashkil etilish turadigan jarayon bo'lmagan. Lekin ma'lum vaqt o'tgach, siyosiy jihatdan rivojlanish natijasida «muayyan shaxsni keng jamoatchilik ishtiroki asosida biron vazifaga saylash» faoliyatini anglatuvchi *saylov* jarayoni keng tus olgan hamda o'z-o'zidan ushbu leksema ot so'z turkumiga aylana borgan.

-(i)sh affiksiga to'xtaladigan bo'lsak, u hozirgi o'zbek tilida harakat nomini hosil qilishda eng faol va unumli qo'shimchadir. -(u)v qo'shimchasidan farqli ravishda, -(i)sh affiksli harakat nomi ham, ot so'z turkumiga ko'chgan shakllari ham iste'molda keng qo'llaniladi: 1. *Ilg'or mexanizatorlardan bir kishi tabrik nutqi so'zlashi kerak.* (S. Ahmad, «Sobiq») 2. *Gaplarga qaraganda, vatanga qaytish xavfli, u yerda unga o'xshaganlar uchun yana lagerlar tayyor emish.* (A. Muxtor, «Chinor»)

Ushbu misollarda -(i)sh affiksining harakat nomi hosil qilishdagi ishtirokini ko'rsak, quyidagi gaplarda esa otga ko'chish holatlarini kuzatishimiz mumkin: 1. *O'zi qurilishda oddiy ishchi-yu, hamisha oq ko'ylak, bo'yinbog', shlyapada yurishi, muomalasi ziyoli kishilarni eslatadi* (E. A'zamov «Ko'k eshik»). 2. *Keksa shayxning nigohida qilt etgan o'zgarish sezilmadi.* (Sh. Bo'tayev, «Hisomiddin al-Yog'iy»)

Demak, -(i)sh shakli orqali yasalgan harakat nomlarining ham ot so'z turkumiga ko'chishi faoldir. Lekin bu holatlar tilshunosligimizda turlicha talqin qilinmoqda. -(u)v, -(i)sh qo'shimchalari bir qator adabiyotlarda ham ot yasovchi, ham harakat nomi shakli sifatida ko'rsatiladi. Masalan:

-(u)v, -(o)v — yasash asosidan anglashilgan harakat va holat ma'nolarini bildiruvchi ot yasaydi: *maqta+v=maqto'v, sayla+v=saylo'v, qursha+v=qursho'v.*

-sh — yasash asosidan anglashilgan harakat jarayoni oti yasaydi: *uylan-ish, quril-ish, o'piril-ish* [6: 53-54].

Ushbu qo'llanmaning boshqa bir o'rnida esa quyidagicha fikrlar keltiriladi: «Harakat nomi fe'l asosiga -(i)sh, -(u)v affikslarini qo'shish bilan yasaladi... -(i)sh, -(u)v affikslari bilan yasalgan harakat nomlari otga juda yaqin turadi. Shuning uchun bular orqali yasalgan so'zlarning ba'zilar ham harakat nomiga, ham otga teng keladi: *uylanish, uchrashuv, yozuv...*» [6: 225]. Shunday ekan, bu affikslarni ot yasovchi sifatida qayd etish biroq o'rinsizroq, nazarimizda. Agar bular ikki xil so'z turkumi, ya'ni ot va fe'l so'z turkumiga tegishli alohida shakllar yoki biri so'z yasovchi, ikkinchisi shakl yasovchi affikslar bo'lganida ularni omonim morfema deb hisoblash zarur edi. Biroq hech qaysi adabiyotda -(i)sh yoki -(u)v qo'shimchasi omonim sifatida ko'rsatilmagan. *Kirish, chiqish, maqto'v, chanqov* kabi so'zlarni aslida so'zshaklning leksemalashuv hodisasi [2: 228], deb ta'riflash ham maqsadga muvofiq.

«O'zbek tilining izohli lug'ati» da berilgan «So'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning izohli-illustrativ ko'rsatkichi» qismida ham -(u)v affiksini ikki hil vazifada tasniflash holatini kuzatishimiz mumkin [7: 574-588]. E'tibor berib qaralsa, mazkur affikslarga ikki hil holatda ham (otdagi so'z yasovchi va fe'ldagi shakl yasovchi) adabiyotlarda keltiriladigan misollarning deyarli bir xilligi bu konversiya hodisasi ekanligini isbotlovchi bir dalildir.

Faqatgina harakat nomi emas, fe'lning boshqa vazifa shakllari ham turkumlarga ko'chishi mumkin. Masalan, sifatdosh yasovchi -(u)vchi affiksini olgan ko'pgina so'zlar otga ko'chadi. Lekin bu qo'shimcha sifatdosh yasovchilik sususiyatini ham yo'qotmagan. Misol uchun, *gapiruvchi (talaba), keluvchi (mehton), musiqa chaluvchi (sozanda) va b.*

Hozirgi kunda ot turkumi doirasida o'rganilayotgan *saylovchi, o'qituvchi, boshlovchi, bog'lovchi, tuslovchi, o'quvchi* birligi tarixan sifatdoshdan o'sib chiqqan, ya'ni sifatdoshning substantivlashuviga, tamoman otga ko'chishiga sabab bo'lgan. Chunki yuqoridagi birliklarda harakat ma'nosiga qaraganda shaxs ma'nosi ustunlik qiltmoqda [4: 301].

Tilshunos olim Jo'liboy Eltazarov keltirgan ma'lumotlar ham fikrimizni dalillaydi. Olim so'z turkumlaridagi yadro-periferiya munosabatiga e'tibor qaratib, shaxs-sonda tuslanuvchi fe'llar fe'l so'z turkumining yadrosini tashkil etsa, fe'lning vazifa shakllari u ifodalovchi asosiy belgidan (harakat, predikatsiya...) dan uzoqlashganlari uchun periferiyada (kam qo'llanuvchi sohada) joylashadilar, deb qayd etadi. Fe'lning periferial shakllarining otga, sifatga ko'chishini aytib o'til (*O'qish — bizning vazifamiz*), bunday so'zlarni ko'chuvchan yoki bir nechta turkumlarga xos belgilarni o'zida namoyon qiluvchi gibrid so'zlar qatlami deb ataydi [3, 26].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida fe'lning funksional shakllari juda serqirra va keng. Harakat nomi, sifatdash shakllarining otga ko'chish holatlari ko'p kuzatiladi. Muhimi konversiya va derivatsiya hodisalarini bir-biridan ajratib olish zarur. O'zbek tilshunosligida fe'l vazifa shakllarining boshqa turkumlarga ko'chishini aks ettirishda biroz noaniqliklar seziladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun o'zbek tili morfologiyasini yanada mukammal va mufassal tadqiq etish, ba'zi so'zlarning morfemik tuzilishiga oydinlik kiritish, munozarali masalalardan aniq to'xtamga kelish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –T.: Universitet, 2006.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Eltazarov J. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi. Avtoreferat, Samarqand, 2005.
4. Zamonaviy o'zbek tili. I jild. Morfologiya. –T.: Mumtoz so'z, 2008.
5. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. –T.: O'qituvchi, 2007.
6. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (Morfemika, so'z yasalishi va morfologiya). –T.: 2009.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. –T.: 2008.



OLMOSHNING DEYKTIK XUSUSIYATLARI

Faxriddinova Ozoda

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada olmosh so'z turkumining deyktik xususiyatlariga alohida to'xtalangan Olmosh ishora qiladigan so'zlar chegarasi misollar yordamida tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: deyktik, deyksis, semantik-sintaktik

Аннотация

В статье дан подробный обзор местоимению и его главным задачам, в частности указательным. Проведен анализ на примере границ указательных слов местоимение.

Ключевые слова: дейктик, дейкис, семантик-синтактик

Annotation

The article gives a detailed review of the pronoun and its main tasks, in particular, the *ot*. The analysis is carried out on the example of the boundaries of the demonstrative words of the pronoun.

Key words: deictik, deicis, semantic-syntactic

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z turkumlari yuzasidan turli qarashlar mavjud. Avvalo, olmosh so'z turkumida bir qancha turfa xilliklarni ko'rish mumkin. Olmoshning asosiy vazifalaridan biri bo'lmish ishora vazifasining ilmiy adabiyotlarda ifodalanishida ham buni yaqqol kuzatish mumkin. Ma'lumki, ilmiy asarlarda olmoshning so'z turkumlarini semantik-sintaktik almashtirishi, ularning o'rnida qo'llanilish hodisasiga nisbatan deyxsis termini qo'llaniladi.

7-sinf ona tili darsligida bu so'z turkumi va uning vazifalari to'g'risida quyidagicha fikrlar yuritiladi: «Boshqa so'zlar, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llaniluvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh hisoblanadi» [1: 17]. Bunda olmoshning so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llanilishiga urg'u berilgan bo'lsa, o'rta maxsus ta'lim bo'limi uchun darslikda olmoshning yordamchi so'z o'rnida qo'llanilishiga ham alohida urg'u berilgan va olmosh ishora qiladigan so'z turkumlari quyidagicha keltirilgan: «Barcha mustaqil so'z turkumlari va hatto yordamchi so'zlar hamda gap o'rnida almashinib kelgan so'zlarga olmosh deyiladi. Olmoshlar ot, sifat, son, ravish, fe'l o'rnida va ba'zan yordamchi so'z, gap o'rnida almashinib keladi» [2: 111].

Oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan Q.Sapayevning «Hozirgi o'zbek tili» darsligida olmosh ishora qiladigan so'z turkumlari soni chegaralangan, boshqa darsliklarda keltirilgan olmoshning fe'lga ishora qilishi to'g'risida mu'limot uchramaydi: «Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba'zan so'z birikmasi va gap o'rnida qo'llana oladigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'z turkumi olmosh deb ataladi» [3: 138]. Yuqoridagi Q.Sapayev keltirgan ta'rifni kengaytirgan va olmosh ishora qiluvchi so'zlar tarkibiga fe'l so'z turkumini qo'shgan holda R. Sayfullayeva quyidagicha ta'rif bergan: «O'zbek tilshunosligida olmoshning sharti va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib «ot, sifat, son o'rnida qo'llaniluvchi so'z» sifatida o'ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan» [4: 251]. Lekin olmoshning fe'l va gapga ishora qilishi aniq faktlar asosida farqlanmagan, olmosh fe'lga ishora qilgan deb beriladigan misollarda olmoshning aynan gapga ishora qilganini ko'rish mumkin. Masalan, akademik litsey darsligida olmoshning va bog'lovchisi va fe'l o'rnida almashinib kelishiga quyidagicha misollar berilgan: «*Karim gullarni uza boshladi. Bu esa bog'bonning jahlimi chiqardi*» darslikda bu olmoshi «*uza boshladi*» fe'li o'rnida almashinib kelishi ta'kidlanadi. Biroq «*uza boshladi*» fe'li gapda fe'l kesim vazifasida kelishi, kesim gapda asosiy axborotni — hukmni ifoda etuvchi bo'lak va gapning grammatik-semantik markazini tashkil qilishi nuqtayi nazaridan yondashsak, bu fikr birmuncha munozarali ekanligi seziladi. Shunday ekan, olmosh bu o'rinda fe'lga ishora qilyapti desak to'g'ri

bo'larmikin? Bizga ma'lumki, kesim gapning asosiy axborot markazi, gapda ifodalangan axborot «yuk»i bo'lgan bo'lakdir. Bu haqda Fitratning «Nahv» asarida quyidagicha fikr bildiriladi: «Gapdagi so'zlarning oxirig'a kelgan, o'z kelishi bilan so'z qo'shimini gapka aylantirgan so'z — «kesim» so'zdir» [5: 178]. Shularga asoslangan holda aytish mumkinki, yuqoridagi misolda olmosh fe'l emas, balki gap o'rnida almashinib kelishini sezish qiyin emas.

Fe'ning vazifa shakllarida ushbu holatdan chekinilgan. Masalan, *harakat nomini* olaylik: *O'qish foydalidir. U hayot yo'limizni yoritadi.*

Sifatdosh: O'qigan odamning ishi zo'r, bunday odamning omadi keladi. Lekin bu yerda sifatdoshning otlashayotganligini unutmaslik kerak. Yuqoridagi fe'ning ikki vazifa shaklidan ham ko'rinib turibdiki, olmosh aynan fe'l o'rnida kelmaydi. Harakat nomi harakatni nomlagani uchun, sifatdosh ham otlashib bevosita otga xos xususiyatlarni ifodalagani uchun ham keyingi gapdagi olmosh ularga ishora qila olyapti. Olmosh so'z bo'lib kelgan o'rinda aynan fe'lga emas, balki gapga, sifatdosh, harakat nomi bo'lib kelgan o'rinlarda esa otgagina ishora qiladi. Shunday ekan, olmoshning fe'lga ishora qilishi haqidagi fikrlar bir muncha munozarali bo'lib, bu yuzasidan bir to'xtamga kelinsa yaxshi bo'lar edi.

Shu o'rinda qoidadagi yana bir jumla va misol e'tiborimizni tortadi. Olmosh va bog'lovchisi o'rnida ham almashinib keladi deyilgan va shunday misol berilgan. *Va bog'lovchisi o'zaro teng ma'noli gaplarni bog'laydi. Bu teng bog'lovchilar sirasiga kiradi.* Bu yerda va bog'lovchining nomi, bog'lovchi vazifasida emas. Masalan, *Anvar va Ra'no bog'ga bordi* gapida *Anvar bu Ra'no bog'ga bordi* desak ma'no chiqmaydi. Agar yuqoridagi qoidaga asoslansak, har qanday so'zni (*undov, taqlid, moda!*) ham olmosh bilan almashadi deya olamiz: Masalan:

Eh undov so'zi his-hayajonni bildiradi. Bu undov so'z afsus ma'nosini ham ifodalashi mumkin.

Yoki,

Taq-taq taqlid so'zi ovozza taqlid bo'lib, bu so'z fe'l yasalishiga asos bo'ladi. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Hozirgi o'zbek tilida olmoshning ishora vazifasi, ayniqsa, muhimdir. Zero, kommunikativ muloqotda, og'zaki nutqda, yozma nutqda grammatik xatoliklarga yo'l qo'ymaslikda ahamiyatlidir. Shunday ekan, o'quvchilarda bu borada to'g'ri va aniq faktlarga tayangan bilimlarni shakllantirish lozim. Bu bugungi kun pedagoglarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi muammolarni inobatga olgan holda darsliklarning keyingi nashrlarida ushbu o'rinlarni yanada takomillashtirish kerak degan fikrdamiz. Zero, o'quv darsliklari o'quvchilar uchun tayanch manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedov. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik, -T.: «Ma'naviyat», 2017.
2. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (2-kitob) -T.: «ILM ZIYO», 2013
3. R. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: «Fan va texnologiya», 2009

1. Q. Sapayev. Hozirgi o'zbek tili, -T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2009

2. A. Фитрат. Танланган асарлар IV жилд, -Т.. «Маънавият», 2006



LUG'AVIY SHAKL YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING KOGNITIV MA'NO IFODALASHI

G'afurova Maftuna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar, xususan, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar to'g'risida so'z boradi. Bunda shart mayli ma'nosida qo'llanuvchi -sa va kichraytirish qo'shimchasi -chaning o'z ma'nosidan tashqari bir nechta ma'no anglatishi keltirib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: shakl yasovchi qo'shimchalar, semantika, monosema

Annotation

In the article the part derivative affixes, in particular lexical form derivative affixes in Uzbek language are analysed, so. The extra meaning of -sa conditional mood affix and -cha suffix affix is showed.

Key words: Derivative affixes, semantics, monoseme

Аннотация

В этой статье формообразующие суффиксы на узбекском языке в основном идёт речь о лексических формообразующих суффиксах. Здесь суффикс условного наклонения sa уменьшительно-ласкательный а доказано примерами кроме своего значения имеют других форм и значений.

Ключевые слова: моносема, семантический.

Tilshunoslikda qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra ikki turga ya'ni so'z yasovchi va shakl yasovchiga ajratilishi barchamizga ma'lum. Shakl yasovchi qo'shimchalarning tarkibiy qismidan biri bo'lmish sintaktik shakl yasovchilardan foydali ravishda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar so'zlarning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Hatto bitta qo'shimcha bir qancha ma'no ifodalashi mumkin. Buni biz -lar qo'shimchasi orqali kuzatganmiz. Ayni o'rinda biz fe'lning shart mayli shakli -sa va kichraytirish qo'shimchasi -cha ga to'xtalib o'tamiz.

Mustaqil so'z turkumlaridan biri sanalmish fe'l boshqa mustaqil so'z turkumlari singari grammatik kategoriyalarga ega. Bular:

1. Tasdiq — inkor kategoriyasi.
2. Mayl kategoriyasi.
3. Zamon kategoriyasi.
4. Shaxs-son kategoriyasi.

Ayni o'rinda biz mayl kategoriyasiga to'xtalamiz va uning tarkibidagi shart mayli shakli to'g'risida fikr yuritamiz. Bizga ma'lumki bu mayl haqida deyarli barcha adabiyotlarda bir qancha fikrlar keltirib o'tilgan. Ya'ni, «Fe'ning shart mayli boshqa biror harakat, voqea-hodisaning bajarilishi uchun shart, vosita bo'ladigan, istalgan, faraz, mo'ljal qilingan harakatni bildiradi. Shart mayli shakli fe'l o'zagiga -sa mayl yasovchisini qo'shish va tushlash bilan hosil qilinadi». Yuqoridagi fikrlar barchamizga tanish. Shart mayli asosan shart ma'nosini yuzaga chiqaradi va zamon ko'rsatkichiga ega bo'lmaydi.

Ollo taolo faqimi o'z rahmatiga chorlasa, bu taxtga sen o'ltirar eding. (O. Yoqubov)

Yuqoridagi bu fikrlarimiz Qalandar Sapayevning darsliklarida quyidagicha yoritiladi: «Fe'ning -sa qo'shimchali shakli shart ma'nosini bildirganda, harakatning bajarilishi so'zlovchiga aniq bo'lmaydi, ya'ni so'zlovchi bu harakatning bajarilishidan bexabar bo'ladi. Masalan: Birinchi qadamda, birinchi bo'lib ekilgan chigitning avjini ko'rsam, Bitta tup go'zaning mavjini ko'rsam. (Y. Mirzo)» [1: 167].

Shart mayli shakli qo'shimchasi faqat shart ma'nosini ifodalab qolmay, balki yana bir necha ma'nolarni anglatib gapda qo'llanadi. Ular quyidagilar:

1. Boshqa bir harakat va holatning yuzaga chiqishi uchun vosita, shart bo'lgan harakatni bildiradi. Bu vaqtda shart ergash gapning kesimi bo'lib keladi. Masalan: Agar odam bo'lay desang ishda oqla o'zingni. (Uyg'un)

Hozir yozning qozonini hosil bilan to'ldirsak, kuzda rohatini ko'ramiz.

2. ham yordamchisi bilan kelib, voqea-hodisaning bajarilishiga to'siq bo'la olmagan harakat holatni bildiradi. Bunda to'siqsiz ergash gapning kesimi bo'lib keladi, har ikki gap bir-biroviga qarama-qarshi harakatni anglatadi.

Masalan: Tilim kelishmasa ham dilim kelishadi. Sening tiling kelishsa ham diling kelishmaydi. (A. Qahhor)

3. Orzu-istakni bildiradi. Bunda sodda gapning kesimi vazifasida keladi.

Masalan: Qani endi shu topda otasini quchib soqollaridan o'psa. (Oybek)

4. Iltimos, maslahat ma'nolarini bildiradi. Masalan: Onajon, shu suratni menga bersangiz. (A. Qahhor). Shoshmang, ko'rgazmani shu yerda tashkil qilsak ... Nima deysiz. (Oybek)

5. Nahotki so'zi bilan kelganda, to'satdan hukm chiqarish voqea-hodisadan hayratlanish, gumon kabi ma'nolar ifodalanadi. Masalan: Nahotki Muqaddas ham shu yotoqxonada tursa? (O. Yoqubov) Nahotki bu xushxabarni eshitmagan bo'lsangiz? Nahotki o'g'limga o'shandoq qattqlikni ravo ko'rsam? (A. Qahhor)

6. Kerak so'zi bilan kelganda, faraz, gumon, taxmin, noaniqlik ma'nolari ifodalanadi. Masalan: Odam hamma narsaga chidasa ham yolg'izlikka chidamas kerak. (A. Muxtor) Bu yerda sho'r imoratning ofati bo'lsa kerak. (A. Qahhor) Nazarimda egasi bor bo'lsa kerak bu gulning. (Uyg'un) U Charosning onasi jahln ustida shu ishni qilgan bo'lsa kerak deb o'ylagandi. (O'. Hoshimov)

7. Bo'ladi yordamchi fe'li bilan kelganda mumkinlik, imkoniyat, zaruriyat ma'nolari ifodalanadi. Masalan: Imtihonni topshirib bo'lgach kurortga borsa

bo'ladi. Endi paxtadan xavfsiramasak bo'ladi. (Oybek) Bugun universitetga bormasam bo'lmaydi.

Qulandar Sapayev darsliklaridan olingan yuqoridagi misollarga qo'shimcha ravishda R. Sayfullayeva, B. Mengliyev va boshqalarning «Hozirgi o'zbek adabiy oli darsliklarida ma'lumotlar keltirilgan. Ya'ni, «-sa shaklining shart» ma'nosidan tashqari ifodalaydiga yana qator ma'nolari (payt, istak, iltimos, sabab, to'siqsizlik kabi) mavjud, ular shart mayli doirasida qaralmaydi» – deya fikr bildiriladi.

Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalardan yana biri bu otlardagi kichraytirish shakli *-cha* sanaladi. Bu qo'shimcha nafaqat kichraytirish balki, yana bir qancha to'xtatish, hajm — o'lchov, chama — taxmin) ma'nolarni ifodalay oladi. Buni biz o'zaki nutqimizning bir qancha o'rinlarida kuzatamiz.

1) Kichraytirish qo'shimchasi - cha dunyoda yagona turdosh otlarga (quyosh, osmon... h. o) qo'shilib hajm, o'lchov ma'nosini ifodalashiga guvoh bolamiz:

Dilimdagi orzularim *osmoncha* bo'lib, meni oydin xayollar tomon chorlaydi.

2) Kichraytirish shakli qo'shimchasini chama-taxmin ma'nolarini ifodalashga ham xizmat qiladi. Bunda biz o'rin-joy otlariga *-cha* qo'shimchasini qo'shish orqali yuqoridagi ma'noni hosil qilamiz.

Bizning bo'g'imizning kattaligi mana shu *uycha* bor.

3) Kichraytirish qo'shimchasini kishilik olmoshlariga va shaxs olmoshlariga qo'shganimizda o'xshatish, qiyoslash kabi ma'nolarni ifodalashiga ham amin bo'lumiz.

Dildora avval *mencha* bo'lib ko'rib so'zlasin.

Institutda o'qimasa ham, aql-idroki akamcha bor.

4) Kichraytirish qo'shimchasi *-cha* modallik ma'nosiga ham ega bo'lib, kishilik olmoshlariga qo'shilib, ma'lum bir fikr yoxud tushunchani xususiyligini ifodalashga xizmat qiladi.

Menincha bugun ayozli kun bo'lib, qor yog'adi [2: 214].

Biz bir qancha darsliklarni kuzatib, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarning bir emas, bir qancha ma'nolarni ifodalashini kuzatdik. Bunda biz *-sa* shart mayli shakli va *-cha* kichraytirish shakli qo'shimchalari ustida olib borildi.

Bir qancha darsliklarni kuzatib, ulardagi ko'pchilik ma'lumotlarning umumiyiligini angladik, ammo ikkinchi darslikdagi, ya'ni shart maylining «shart ma'nosidan boshqa ma'no ifodalashi shart mayli doirasida qaralmasligi e'tiborni tortadi. Otlardagi ko'plik shakli hisoblanmish -lar affiksi nafaqat ko'plik ma'nosi balki, yana bir qancha ma'nolarni (hurmat, turli xil kuchaytiruv, kesatq, birgalikda ekanlik, umumlashtirish va boshqalar) ifodalaydi. Bu uning uslubiy vazifalari sanaladi. Biz ham shart mayli shaklining «shart» ma'nosidan tashqari ma'nolarini uning uslubiy vazifasi deb qarasa xato bo'lmasa kerak. Uning ifodalaydigan ma'nosiy ma'nosi «shart» bo'lib qoladi va qo'shimcha ravishda boshqa yuqorida sanab o'tilgan ma'nolarni ham ifodalaydi.

Otlardagi kichraytirish shakli qo'shimchasi *-cha* ko'pchilik darsliklarda faqat shu ma'noni hosil qilishi to'g'risida gap boradi. Yuqorida keltirilgan misollar esa,

bu qo'shimchani yana boshqa ma'nolarni ifodalashiga amin bo'lamiz. Bundan anglashimiz mumkinligi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar bizga ma'lum bo'lmagan, ammo ko'p qo'llaniladigan qo'shimchalar sirasiga kirishini anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev va boshqalar «Hozirgi o'zbek adabiy tili», Toshkent 2009
2. Q. Sapayev «Hozirgi o'zbek tili», Toshkent, 2009,
3. N. Erkaboyeva «O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami» T «Akademnashr» 2014



IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA FRAZEOLOGIZMLARNING QO'LLANISHI

Hoshimova Munisaxon

*FarDU 3-kurs talabasi, 2017–2018 o'quv yili 2-jarayonida
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya

Badiiy matnda keng qo'llaniladigan va xalq tilining ajralmas qismiga aylanib qolgan frazeologizmlarning tadqiqi masalasi tilshunoslikda yetarli darajada o'rganilmagan jihatlardan biridir. Frazeologizmlarning tadqiqidagi yana bir xususiyat shuki, ular nafaqat nasrda, balki she'riy asarlarda ham turli ma'no qirralarini kashf etish ko'lamdorligiga ega. Ushbu maqolada frazeologizmlarning aynan nazmdagi keng imkoniyatlari O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'rlari misolida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, leksema, frazeologik sinonim, frazeologik omonim.

Annotation

One of the aspects that have been widely used in literary texts is the survey of phraseologism, which has become an inseparable part of the national language, has not been analyzed yet. Another feature of the phraseologic study is that they have the capability of discovering different meanings not only in prose but also in poetry. In this article, the peculiarities of phraseologisms in poetry are likely to be elucidated in the example of poems of the People's Poet of Uzbekistan Iqbol Mirzo.

Key words: Phraseologisms, lexicon, phraseological synonym, phraseological omonim.

Аннотация

В народном языке, точнее разговорном стиле и в художественных текстах широко используются фразеологические обороты. Но несмотря на это в языкознании применение и употребление фразеологизмов в прозе и лирике недостаточно изучено. В лирике фразеологизмы означают фразеологизмы семантические различия. Исходя из этого в данной статье рассматриваются и трактуются лингвопоэтические особенности применения фразеологизмов в лирических текстах, точнее в произведениях Узбекского народного поэта Икбол Мирзо.

Ключевые слова: Фразеологизм, лексема, фразеологические синонимы, фразеологические антонимы

Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksikologiyaning tarkibiy qismi hisoblangan frazeologiya bo'limini o'rganish ham dolzarb masalalardan biridir. Frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Til frazeologik tabiatini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi.
2. Shu tilning frazeologizmlari majmui [1: 117].

Frazeologizmlar til hodisasi bo'lib, ham lisonga ham nutqqa daxldordir. «Frazeologizmlar tilshunoslikda ibora, turg'un birikma, frazeologik birikmalar atamalari bilan yuritiladi» [1: 117]. Frazeologizmlar nutqning ta'sirchanligini va obrazli bo'lishini ta'minlovchi lisoniy birliklardir. Ko'plab tilshunoslikka oid darsliklarda frazeologizmlar ma'nosi bir leksemaga teng degan fikrlar mavjud. Ammo shuni ham ta'kidlash zarurki, frazeologizmlar va leksemalarning ma'no anglatish darajasi bir xil emas. Bu fikrimizda quyidagi misol orqali asoslaymiz:

Sen bilan biz o'sha qora kunlarni ko'rganmiz, *azobini tortganmiz* [2: 48].

Yuqoridagi gapda «*azob tortmoq*» frazeologizmi «*qiyalmoq*» leksemasi ma'nosida qo'llangan. Lekin badiiy matnda frazeologizmlarning qo'llanishi nutqning ta'sirchanligini oshirish bilan birga o'zi ishtirok etayotgan gapdagi ma'lum bir so'zning ma'nosini konkretlashtirishga yordam beradi. Yuqoridagi gapda ham huddi shunday holat kuzatilmoqda. Ya'ni: gap tarkibida qo'llanilayotgan «*azob tortmoq*» frazeologizmining qo'llanishi, gap tarkibidagi «*qora kunlar*» (azobli, tashvishli) davrlarning mashaqqatlarini boshidan o'tkazganligiga ishora qilib kelgan. Matnda leksema emas aynan iboraning qo'llanganligi emotsional bo'yoqdorlikni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Frazeologizmlar nafaqat nasriy asarlarda shu bilan bir qatorda she'riy asarlarda ham qo'llangan. Frazeologizmlarning nazmda qo'llanishi she'rning badiiy jihatdan yanada jozibador bo'lishini ta'minlaydi. Quyida O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'rlarida frazeologizmlarning qo'llanishi, leksik ma'no qirralari haqida fikr-mulohaza yuritiladi. Shoir o'z she'rlarida vatanga muhabbat, imoniy fazilatlar va shu kabi mavzularni she'riy misralarga solar ekan, ularning yomida xalqona bo'lishini ta'minlash maqsadida ham frazeologizmlardan o'rinni foydalangan.

Masalan: «Aytgil do'stim» [3: 3] she'ridan:

*Hech kimdan kam emassan, kam bo'lmagaysan,
Yerda qolsang, osmon bo'lib kulmagaysan.
Qachon belni mahkam tortib bog'lagaysan?
Aytgil do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

Ushbu misrada keltirilgan «bel bog'lamoq» frazeologizmi Shavkat Rahmatullayev tomonidan yaratilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»da [4: 35] quyidagicha izohlangan: 1) shaylanmoq, o'tlanmoq; 2) astoydil kirishmoq; 3) ahd qilmoq.

Aynan shu she'rning keyingi bandida:

*Shu soylardan suvlar urgil yuzingga sen,
Bir born nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen.
Aytgil do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

Yuqoridagi bandning ikkinchi misrasida «nazar solmoq» frazeologizmi O'TIFL [4, 218]da shunday izohlanadi: 1) diqqat bilan qaramoq; 2) ko'z solmoq.

Bu frazeologizmga sinonim sifatida: 1) ko'zdan kechirmoq; 2) ko'z tashlamoq; 3) razm solmoq kabi iboralar berilgan.

«Toshotar» [5: 8]she'ridan:

Bular juda jiddiy qoshlari tugun,
Sopqonda so'z otib yiqib turibdi.

Sharmandaga kengdir bugun internet,
Sichqon har yerga bosh suqib turibdi.

Birinchi misrada keltirilgan «so'z otmoq» frazeologizmi O'TIFLda [4: 313] quyidagicha izohlangan: 1) gapirmoq; 2) tasodifan gapirmoq.

Sinonim sifatida «gap otmoq», «gap tashlamoq» frazeologizmlari keltirilgan.

Ikkinchi misrada qo'llangan «bosh suqmoq» iborasining lug'atda [4: 51] izohlanishi quyidagicha:

Aralashmoq (biror ish harakatga nisbatan) varianti sifatida «bosh tiqmoq» iborasi keltirilgan. «Dilim xufton» [6: 23] she'ridan:

*Dilim xufton, kunduzimni tunday qilib,
Uchrashuvga kelmadi u shunday qilib.*

«Dili xufton» iborasi lug'atda [4: 81] quyidagicha izohlangan:

1) xafa bo'lmoq; 2) ranjimoq.

Sinonim sifatida: «dili siyoh bo'lmoq», «ko'ngli cho'kmoq» frazeologizmlari berilgan. Frazeologizmlar haqida so'z yuritilganda shunday birikmalar ham bor, ular bir o'rinda o'z ma'nosida boshqa bir o'rinda ko'chma ma'noda (iborasi) sifatida qo'llanilgan. Masalan: «Aytgil do'stim» she'ridan:

*Boshing egib ta'zim ayla, shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.
Osmonlarda yurga bo'lsang tuproqqa qayt,
Aytgil do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

Mana keldim *bosh egib* qaytib,
Mening Bog'dodimning qizlari.
Esiz yigit yoshi, tuzsiz non-oshi,
Farzandiga qarab *egilar boshi*.

Yuqorida keltirilgan misralardagi «bosh egmoq» birikmasini qiyoslaymiz:

Birinchi misrada «bosh egmoq» birikmasi o'z ma'nosida (ya'ni inson a'zosining harakati, egilishi) qo'llanilgan. Ikkinchi misrda esa «bosh egmoq» [1: 43] *afsuslanmoq, taslim bo'lmoq* leksemalariga teng kelgan.

Uchinchi misrada «bosh egmoq» sheʼrdan anglashilib turgan maʼnoga mos ravishda uyalmoq, xijolat chekmoq birikmalari anglatgan maʼnoga mos ravishda qoʻllangan.

Bu misollardan koʻrinib turibdiki, frazeologizmlar sheʼriy nutqda turli maʼno qirralarini kashf etib frazeologik omonimlik va koʻp maʼnolilik hodisasi yuzaga keltirishi ham mumkin.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Iqbol Mirzo sheʼrlarida frazeologizmlarning qoʻllash orqali sheʼrlarning badiiy jozibasini oshirish bilan bir qatorda ijodkorning soʻzlarni qofiyaga solishdagi yuksak mahoratini ham koʻrsatib bergan. Shoir sheʼrlarida frazeologizmlar shunday qoʻllanganki, bir oʻrinda qoʻllangan ibora boshqa bir holatda oʻzgacha xususiyat kasb etadi. Shu va boshqa bir necha omillar birlashgan holda shoirni oʻzbek xalqining yuragiga yetib boradigan sheʼrlarining dunyoga kelishiga zamin yaratgan, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayfullayeva. R. R, Mengliyev. B. R, va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2010.
2. Ahmad S. Qadrdon dalalar. –T.: Choʻlpon, 1949.
3. Mirzo I. Aytgil, doʻstim, nima qildik vatan uchun. –T.: Oʻzbekiston, 2015.
4. Bahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati. –T.: Oʻqituvchi, 1978.
5. Mirzo I. Seni kuylayman. Sheʼrlar toʻplami. –T.: Choʻlpon, 2007.
6. Mirzo I. Seni bugun koʻrmasam boʻlmas Sheʼrlar toʻplami. –T.: Istiqlof, 2005.
7. Mirzo I. Koʻngil. Sheʼrlar toʻplami. –T.: Choʻlpon, 1993



OʻZBEK TILIDA KOʻMAKCHILAR PRESUPPOZITSIYASI

Karimova Shahnoza

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti
universiteti Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya

Presuppozitsiya matnda pragmatik vazifa bajaruvchi hodisadir. Presuppozitsiyaning ilmiy tadqiqotdagi ahamiyatini aniqlash va koʻmakchilar presuppozitsiyaning tilshunoslikdagi oʻziga xosligini koʻrsatish pragmatlingvistikaning markaziy masalalaridandir. Ushbu masalada koʻmakchilar presuppozitsiyasi xususida ilmiy-tahliliy fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: pragmatika, presuppozitsiya, propozitsiya, yordamchi soʻzlar, koʻmakchilar.

Annotation

Suppression is a researching phenomenon of pragmatics in Linguistics. One of the problems of pragmatolinguistics is to define the significance of suppression and showing

features of postpositional suppression. This article deals with the scientific-analysis of postpositional suppression.

Key words: pragmatics, suppression, proposition, helping words, postposition

Аннотация

Пресуппозиция — явление, изучаемое в области лингвистической прагматики. Определение важности пресуппозиции и выявление особенностей пресуппозиции в лингвистике является одним из центральных проблем прагмалингвистики. В этой статье представлены научно-аналитические взгляды пресуппозиции вспомогательных.

Ключевые слова: прагматика, пресуппозиция, пропозиция, дополнительные слова, вспомогательное.

Tilshunoslik nazariy bilish bosqichiga ko'tarilgan hozirgi davrda bu qanday til hodisalari o'zaro bog'liqlikda va sistemaviy munosabatdorlikda tadqiq etilmoqda. Natijada til birliklari o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratildi. Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmidan o'rganila boshlangan presuppozitsiya hodisasi xususida fikr yuritiladi. «Presuppozitsiya» atamasini lotincha «*sub*» — *osti, tagi, «ponere»* — joylashtirmoq, joylashmoq kabi so'zlardan olingan bo'lib, asosga, o'zakka joylashtirmoq ma'nolarini ifodalaydi.

Presuppozitsiya — til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalari bilan ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo'lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoriga asoslanuvchi ko'rinishidir [1: 134].

N. Mahmudov «Presuppozitsiya va gap» [2: 4] maqolasida ilk bor bu tushuncha haqida ma'lumot berdi. Uning falsafadan, mantiqdan lingvistik tahlilga kirib kelish bosqichlarini sharhladi. A. Nurmonov esa bu hodisaning gap semantik qurilishidagi ahamiyatini sharhlash bilan to'ldirdi, uni nutqning tahliliga tatbiq etish qanday natijalar berishini yorqin misollarda ko'rsatib. Presuppozitsiya hodisasini o'rganish bilan amalga oshirilgan ishlarning tahlil asosida [3: 31] presuppozitsiyaga xos quyidagi eng muhim belgilarni ajratish mumkin bo'ladi:

1. Presuppozitsiyada nutq ishtirokchilariga oldindan ma'lum voqelik ifoda o'z aksini topadi. Masalan, *...chang bosgan eski do'ppidan boshqa hech narsa yo'q. (Oybek)* Ushbu gapda «*chang bosgan eski do'ppi bor*» presuppozitsiyasi anglashiladi. Bu axborot nutq ishtirokchilarga oldindan ma'lum bo'lgan voqelikni aks ettiradi.

2. Presuppozitsiya aksariyat hollarda nutqiy tejamkorlik oqibatida namoyon bo'ladi: *Erkaklardan ko'ra ayollar ko'proq yig'ildi. (O'.Hoshimov)* Ushbu gapda «*erkaklar ko'p yig'ilmadi, ayollar ko'proq yig'ildi*» axborotlari ifodalangan, presuppozitsiya hisobiga murakkab mazmun sodda shaklda ifodalantilib, nutqiy tejamlilikka erishilgan.

3. Presuppozitsiya gapning tashqi strukturasi bevosita aks etmaydi. Uning ichki strukturasi orqali yashirin anglashiladi: «*Komil: «Olmaning tagiga olmo*

«tushadi», dedi. (O'.Hoshimov) Ushbu gapda: 1) *Komilning aytganligi*; 2) «*Ohmaning tagiga olma tushadi*» axborotlari anglashiladi. Ikkinchi axborot presuppozitsiya orqali ifodalangan bo'lib, gap tashqi strukturasi ochiq aks etgan.

4. Presuppozitsiya asosiy hollarda gapning tashqi strukturasi mos holatda ochiq ifodalangan propozitsiyaga semantik jihatdan zidlanadi: *Anavi Madiyev degichi kerosindan boshqa narsani ichadi.* (T.Murod) Ushbu gapda «*anavi Madiyev degichi kerosin ichmaydi*» presuppozitsiyasi ifodalangan. Bu axborot gap kesimi orqali ifodalangan «*Anavi Madiyev degichi boshqa narsani ichadi*» axborotiga semantik jihatdan zid.

5. Presuppozitsiya gapda eksplitsit ifodasini topgan tashqi signallariga ishora vositalariga ega bo'ladi. *Masalan, g'azab bilan gazetani yoqdi!* (T. Murod) Ushbu gapda «*g'azablandi*» presuppozitsiyasi ifodalangan bo'lib, unga *bilan* ko'makchisi ishora qilgan.

Misollar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, lingvistik presuppozitsiya so'zlovchi va tinglovchilarning umumiy bilimi, til ko'nikmasi asosida shakllanuvchi til hodisasi bo'lib, gapda yashirin ifodasiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, lingvistik presuppozitsiyani o'rganishda asosiy e'tibor uni yuzaga chiqaruvchi til vositalariga qaratiladi. Presuppozitsiyaga yo'l ochuvchi lingvistik vositalar ichida yordamchi so'zlar alohida ahamiyatga ega. Ular gap ichida o'ziga xos mantiqiy ma'nolar anglatib, o'zi ishtirok etgan gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi hamda turli ma'nodagi presuppozitsiyalarga ishora qiladi.

Umuman presuppozitsiya anglatuvchi vositalar tilimizda juda ko'p va rang-barangdir. Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalarning semantik tahlili hozirgi davr tilshunosligining dolzarb mavzusi hisoblanadi. Uning uchun hozirgi kunda har bir so'z turkumlari, har bir kategoriyani presuppozitsion tahlil etish kuchaydi. Til kategoriyalarini presuppozitsion tahlil etish kuchaydi. Til kategoriyalarini presuppozitsion tahlil etish tilshunoslikning yangi qirralarini ochib beradi.

Quyida ko'makchilar presuppozitsiyasiga e'tibor qaratamiz:

Tashqari ko'makchisi doimo chiqish kelishigidagi ot va otlashgan so'zlar bilan birga keladi va to'ldiruvchi funksiyasida qo'llanilib, o'zi alohida propozitsiyani ifodalaydi. Shuning uchun ham *-dan tashqari* konstruksiyasi tashqari gap semantik tuzilishini murakkablashtiradi. Bu konstruksiya qatnashgan so'zda gap doimo ikki propozitsiyani ifodalaydi. Masalan, «*Mendan tashqari boshqa yaqinlariga ham nomma-nom duoyi salom aytibdi*». (O'. Hoshimov) Ushbu gapda ikki propozitsiya: 1) *menga duoyi salom aytganligi*; 2) *boshqa yaqinlariga duoyi salom aytganligi axboroti mavjud*. Ikkinchi propozitsiya birinchi propozitsiyaga qo'shilmoqda.

Kabi ko‘makchisi o‘xshatish ma‘nosini ifodalab, gap tarkibida propositivni ifodalashga xizmat qiladi [4, 46]. Jumladan, *Men akam kabi uchuvchi bo‘lmoqchiman*. Ushbu gapda ikki propositivni ifodalangan bo‘lib:

- 1) *akasining uchuvchi ekanligi*;
- 2) *uning ham uchuvchi bo‘lmoqchi ekanligi*.

Qaraganda ko‘makchisi qiyos, solishtirish grammatik ma‘nosini ifodalashda gap kesimi bilan bog‘liq holatda shakllanuvchi presuppozitsiyalar ishora qiladi. Masalan, «...*Bobosini avvalgiga qaraganda ham ko‘proq yaxshi ko‘radi*». (T. Murod)

Ushbu gapda presuppozitsiya orqali «*bobosini avval ham yaxshi ko‘radi*» axboroti ifodalangan. Bu axborot gap mazmuniy tuzilishining yashirin (yashir) sifatida yuzaga chiqadi.

Ma‘lumki, presuppozitsiyaning til sathidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan tejamlilik tamoyillari bilan belgilanadi. Ushbu hodisa barcha tillarda kuzatiluvchi hodisadir. U har bir tilda shu tilning ichki imkoniyati ifodalovositalarining o‘ziga xos xususiyati asosida belgilanadi. Demak, presuppozitsiyaning gapda lisoniy vositalar, xususan, ko‘makchilar ishoralari asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asoslidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burhonov Z. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi. F. f. n. diss.. -T.: 2008
2. Mahmudov N. «Presuppozitsiya va gap» O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1986, 6-son
3. Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. F. f. n. diss.. Samarqand 1994.
4. Nurmonov A. Ko‘makchilar konstruksiyalar presuppozitsiyasi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 1986, 6-son



HOZIRGI O‘ZBEK TILI SO‘Z TURKUMLARI TIZIMIDA RAVISH SO‘Z TURKUMINING TASNIFLANISHI

Kenjayeva Zahro

*QarDU talabasi, 2017–2018 o‘quv yili 2-jarayonida Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilshunosligidagi so‘z turkumlari tizimida ravishning tutgan o‘rni, uning boshqa so‘z turkumlari bilan umumiy jihatlari va o‘ziga xosliklari keltirib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: ravish, lingvistik sath, sistem-struktur tilshunoslik, o‘zgarimaslik.

Annotation

In this article illustrated Uzbek linguistics main part of adverb in the part of speech and its general and identical side.

Key words: adverb, linguistics aspect, system-structure linguistics, constant.

Tilshunoslikning eng dolzarb mavzularidan biri bu soʻz turkumlar tasnifidir. Soʻz turkumlari masalasi tilning eng muhim birligi — tushunchaning shakli boʻlishi soʻz bilan bogʻliq boʻlganligi uchun bunga barcha tilshunoslar qiziqishadi.

Har bir tildagi soʻzlar oʻzining grammatik belgisi va semantik xususiyatiga koʻra turli guruhlariga boʻlinadi. Shuning uchun soʻzlarni turkumlarga ajratishda faqatgina tillar uchun umumiy boʻlgan yagona bir tamoyil bolishi mumkin emas. Sistem-struktur tilshunoslikning rivojlanish jarayonida til va nutq hodisalarini ajratish (lisoniy birliklarni nutqiy birliklardan farqlash) soʻz turkumlari tasnifi masalasini yana ham chigallashtiradi. Chunki endi lisoniy birlik leksema va uning nutqiy voqelanishi (nutq parchasida qoʻllanilgan soʻzshakl)ni oʻzaro farqlash masalasi oʻrtaga qoʻyildi. Soʻz turkumlari va ularning tasnifi deganda lisoniy birlik (leksemalar guruhi) tushunilishi kerakmi yoki soʻzshakl majmuasimi?

XX asrning 80-yillaridan boshlab oʻzbek tilshunosligida soʻz turkumlari tasnifiga dialektik mantiq nuqtayi nazaridan qarash (hodisaga substansial yondashuv) uni xilma-xil sifat va belgi-xususiyatlar majmui sifatida qarala boshlandi. Bu esa soʻzlarni turkumga ajratishning mantiqiy, lisoniy mezonlarini ajratish, soʻz turkumlari munosabatidagi oʻziga xosliklarni kuzatish imkonini berish bilan birga soʻzlarni muayyan belgilari asosida izchil tasniflash, istalgan soʻzni maʼlum turlarga ziddiyatsiz ajratishda qulaylik yaratdi. Oʻzbek formal tilshunosligida ham soʻz turkumlarini tasniflashda maʼlum bir yutuqlarga erishildi.

Lingvistik sath tushunchasining paydo boʻlishi va sathlararo darajaviy (gradual) munosabatga eʼtiborning kuchayishi, har quyi sath birligining funksiyasi oʻzidan bir daraja yuqori sath birligi tarkibida namoyon boʻlishining tan olinishi soʻzning mohiyatini belgilashda ham qulay imkoniyat yaratadi.

Antik davr tilshunosligida soʻz turkumlarini tasniflashda ularning semantik tomoni birlamchi omil sanalgan. Soʻzlarning morfologik va sintaktik jihati yondamchi boʻlgan xolos. Hozirgi kunda esa soʻzlarni tasniflashda semantik, morfologik va sintaktik tomoni ham birdek ahamiyatga ega. Bunday yondashish soʻz turkumlari, aniqrogʻi soʻz mohiyatining lisoniy qiymatini chuqurroq, toʻlaroq taqqoslama-qarshiliksiz faqat bir asosda (yo semantik, yo morfologik, yo sintaktik) oʻzlashtirilgan bir necha tasnifda ochilgan soʻzning lisoniy tabiati shu soʻzning mohiyatidan anglashiladi.

XX asrning 90-yillarida tilshunoslikda tabiatan ziddiyatli talqin etilgan turkum mavzuidir. Ravish boshqa soʻz turkumlariga nisbatan yosh soʻz turkumidir. Ravish boshqa soʻzlar guruhidan morfologik va semantik qayta shakllanish tufayli maʼlum darajada kengaygan, kengayib borayotgan turkumdir.

Ravish arablarda «zarf», Yevropa tilshunosligida «adverb», yaʼni feʼl oldi soʻz turkumi sifatida qaraladi.

O'zbek tilshunosligida mazmunan ot, sifat, son va qisman olmoshlarga yaqin bo'lib, morfologik jihatdan o'zgaraydigan mustaqil so'zlarga ravish deyiladi. O'zgaraslik ravishning formal belgisidir. So'z turkumlarini maxsus o'rgangan L. V. Scherba so'z turkumlarini farqlashda mana shu formal belgilarga murojaat qilishni ma'qul topadi va quyidagi fikrlarni bildiradi.

«Har qanday so'zda u mansub bo'lgan kategoriyaning qandaydir tushib berilgan belgilari mavjud bo'lib, bular qandaydir old va so'ng qo'shimcha, ohang, so'z tartibi va hokazo bo'lishi mumkin, hatto o'zgaraydigan so'zlarning mazmun xususiyati ham o'zgaruvchilarga nisbatan belgi sifatida olinishi mumkin».

Hozirgi kunda ravishning murakkabligi morfem tarkibi, so'z o'zgarishi, so'z yasalishi va semantik-funksional jabhalarda kuzatiladi.

Ravishning o'zgarasligiga soya bo'layotgan sabablardan biri bu uning faqatgina semantik tomoniga e'tibor qaratish, ya'ni tarjima usulidan keng foydalanishdir.

Hozirda ko'pgina o'zgarish xususiyatiga ega ot va sifatga tegishli ko'pgina so'zlar ravish sifatida qaralmoqda. Masalan, *keyin, har kun, tun, kun, oqshom, bugun, ko'p, oz, sekin, tez* kabi so'zlar ravishga yaqin bo'lsa ham aslida uning predmedlik ma'nosi ot va sifatga xos olib baholanishi kerak. Chunki ravishning ot va sifatdan jiddiy farqi predmetlik ma'nosining zaifligida.

Ba'zan, hamon, boya, endi, darrov, mudom, hamisha so'zlari o'zgaraslik sifatida sanalgan ravishlar.

Har kuni men yo'l yoqasidagi do'konga kiraman.

Endi yotib uxlasang ham bo'ladi.

Har kuni so'zidagi -i qo'shimchasi uning ravish emasligini tasdiqlaydi. Endi so'zi esa aksincha.

Tezroq harakat qiling.

Bu gapdagi *tezroq* so'zi tarkibidagi *-roq* qo'shimchasi ham shu jumladan Demak, *tezroq* so'zi sifatga xos birlikdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, so'z turkumlari tizimida ravishni tasniflayotganda uning semantik jihatidan tashqari morfologik tomoniga ham alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R. va b. «Hozirgi o'zbek adabiy tili». - Toshkent, 2009.
2. Abdurahmonov G'. va b. «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi». -Toshkent, 1973.
3. Isoqov Z. «So'zlarni turkumlarga ajratishning mantiqiy asoslari». «O'zbek tili adabiyoti» -Toshkent, 2003, 6-son.
4. Щерба Л. В. О частях речи в русском языке// Избранные работы по русскому языку. -Москва. 1957.



MUSTAQILLIK YILLARIDA LEKSIK SATHDAGI AYRIM O'ZGARISHLAR XUSUSIDA

Marjabova Mastura

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvistika yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Har bir jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalar tilning leksik sathida o'z aksini topadi. Mustaqil yillarda ayrim so'zlar iste'moldan chiqib, yangi so'zlar kirib keldi. Maqolada muayyan mavjud so'zlar iste'molga kiritilishi, diniy dunyoqarashni ifoda etuvchi so'zlar tashqi fun-texnika bilan bog'liq atamalar haqida fikrlar bildirilgan.

Gayunch so'zlar: til, leksika, leksema, so'z, sotsiolingvistika, lisoniy vaziyat, ekzogloss lisoniy vaziyat, endogloss lisoniy vaziyat.

Аннотация

Лексические изменения языка связаны с определенным временем. В этой статье были исправлены некоторые изменения лексической части после независимости. Есть некоторые идеи, основанные на текущей ситуации узбекского языка.

Ключевые слова: Язык, лексика, лексема, слова, социоллингвистика, языковая ситуация, экзоглоссная языковая ситуация, эндоглоссная языковая ситуация.

Annotation

In this article was researched some changes of lexical part after independency. Lexical changes of language is connected to specific time. Furthermore, there are some ideas based on current situation of Uzbek language's lexicon.

Key words: language, lexicon, lexeme, word, sociolinguistics, linguistic situation, exogloss linguistic situation, endogloss linguistic situation.

Til — ko'p funksiyali hodisa. Til va jamiyat munsobatini tahlil qilish bugungi kunda tilshunoslarning ham e'tiboridan chetda qolgan emas. Tilshunoslik sohasida yangi yo'nalishlardan biri bo'lgan sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatini o'rganuvchi soha. Sotsiolingvistikada muhim tushunchalardan biri « lisoniy vaziyat » muayyan etnik birliklar yoki ma'muriy -hududiy birlashmalarda muomala, aloqa o'rnatilishini ta'minlaydigan tilning (tillar, mintaqaviy, umumiy tillar, hududiy va shimoliy lahjalarning) yashash shakllari majmui sifatida ta'riflanadi. Lisoniy vaziyatning ekzogloss (turli tillar majmui) va endogloss (muayyan bir tildagi kichik tildagi tillar majmui) guruhleri farqlanadi. Bunda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish kerak: til va millatning o'zar ta'sirlashuvi, bilingvizm, diglossiyaning ijtimoiy shakllari muammosi, til siyosati va uning amaldagi bajarilish holati, adabiy til va yurteri, yangi so'zlarning kirib kelishi va hokazo. Tabiiyki, jamiyatda bo'layotgan turli-tuman o'zgarishlar natijasida yuz beradigan, paydo bo'ladigan voqea-hodisalar maxsus atamalarni taqozo etadi. Ana shunday obyektiv sabablar tashqi tilda yangi-yangi leksemalar paydo bo'ladi, lug'at tarkibi boyib boradi. Mustaqillik davriga kelib o'zbek tili leksikasi keskin ijobiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari va lisoniy zaxiralardan kengroq foydalanishga intilish harakati yuzaga keldi. Buni ayrim leksemalar misolida ko'rib

chiqamiz. *Muharrir, sug'urta, guruh, risola, mavhum, to'garak, fuqaro, istila* amaliyot, *sirf, usul, ta'til, mumtoz, foiz, inqilob* kabi so'zlar ona tilimiz lug'at tarkibida avvaldan mavjud bo'lgan bo'lishiga qaramay, rus istilosi davrida iste'molda bo'lmagan. *Hujjat — document, iqtisodiyot — ekonomika, alifbo — alfavit, badal — vzos, tahlil — analiz, axborot — informatsiya, manzil — adis, mavhum — abstrakt, dalil — argument, risola — broshyura, ko'rgazma — vystavka, nogiron — invalid* kabi so'zlarda esa har ikkala variant ham faol qo'llanilib, hodisasi yuz bergan. Mustaqillik yillari OAVda ulardan milliy tilga mansab variantning qo'llanish doirasi kengayib bordi. *So'rovnoma — anket, buyurtmanoma — zakaz, narxnoma — preyskurant, tavsifnoma — xarakteristika, jo'natma — posilka, vazirlik — ministerstvo, yo'riqchi — instruktor, bo'xona — tamojniya, chegirma — skidka, qadimshunos — arxeolog, usuliyat — metodika, jonlantirish — reanimatsiya, hisobxona — buxgalteriya, elshunos — etnograf* kabi so'zlarda esa ichki manbadan muqobili topilib, faol iste'molga chiqarildi. Buning ular ham og'zaki, ham yozma nutqda qo'llana boshladi. Ayrim so'zlarning adabiy tilga kirib kelishiga ichki manba asos vazifasini o'tadi. Masalan, *muxtoriyat — ma'muriyat, munajjim, muloqot, devonxona, tijorat, vazir, tashxis, zobit, talab, nizom, boj, tuman, viloyat, muqobil, muhandis, sarmoya* kabilar. Bundan tashqari *naqshbandiya, yassaviya, hadis, hadisshunoslik, tasavvufshunoslik, tasavvuf, vahdat, buddaviylik, suluk, jahriya, zohid, orifona, zohidona, islomiyat, imon, qurbon hayiti, ramazon hayiti, qurbonlik* kabi so'zlar millatimizning tarixiy ajdodlarimizning e'tiqodini ifoda etishi bilan bir qatorda ma'naviy olamini ham aks ettiradi. Bu kabi so'zlarning iste'molga kirib kelishida insonlarning diniy qarash va fikrlari yorqinroq namoyon bo'ldi.

Til, asosan, o'z imkoniyatlari orqali rivojlanadi. Shu bilan birga, o'z iqtisodiy, madaniy aloqalar tufayli chetdan so'z olish va o'zlashtirish dunyodagi barcha tillarga xos xususiyat. Bu jarayon o'zbek tili uchun ham begona emas. Mustaqillik tufayli mamlakatimiz dunyo hamjamiyatiga qo'shildi, natijada iqtisodiy va siyosiy aloqalar beqiyos darajada o'sib bormoqda. Fan-texnika asrlar mamlakatimiz taraqqiy etar ekan, tilimizning leksik sathida qator o'zgarishlar namoyon bo'la boshladi. Bugungi kunga kelib predmet bilan birga kirayotgan leksemalar kundalik turmushda faol. Bu leksemalarning aksariyati fan va texnika kommunikatsiya, moddiy-maishiy narsalarga, iqtisodiy sohaga tegishli: *kompyuter, slayd, biznes, transfer, tender, fayl, firma, birja, menejment, marketing, bakalavr, magistr, kollej, investitsiya, xolding, test, kontrakt, super- kontrakt, monitoring, auditor, kadastr, marker, broker* va hokazo.

Mustaqillikning dastlabki yillarida bu kabi so'zlar narsa-predmetlarning o'zidan kirib keldi. Istiqloq yillarining ikkinchi bosqichiga kelib bu so'zlar qatorida yanada kengayib bormoqda. Ularga deyarli har kuni murojaat qilamiz. Masalan, *paynet, terminal, fleshka, bankomat, payme, telegram, instagran, chat, like, post, dostavka, antivirus, klik (klik), smartfon, planshet, smaylik, stikker (stickers), hashteg (hashtag), pereplyot, usb, shareit, diler, lizing, gamburger, chizburger, chikkenburger, bigburger, xot-dog* kabi so'zlar nisbatan yangi va keyingi da

kelon aloqador. Ular adabiy tilga qabul qilinmagan bo'lsa-da, OAVda faol. Zero, bugungi kunda mana shunday yangi, boshqa tillardan bevosita yoki bilvosita o'zlashayotgan so'zlarga nisbatan «yotsirash» holatlari ko'zga tashlanadi. Bunda shuni «majburlab» o'zbekchaga o'girish, muqobilini izlash holatlari uchramoqda. Shuni aytib o'tish kerakki, tildagi har qanday yangi so'zga g'ashlik bilan qarash, boshqa «nokerak, uni almashtirish maqsadga muvofiq emas [5: 158]. Akademik A. Davlatov to'g'ri ta'kidlaganidek, o'zbek tilida o'rmini bosa oladigan so'z bo'lmagani, uni yanashning imkonini yo'qligi uchun boshqa tillardan qabul qilingan *yadro*, *tanqochka*, *elektr*, *radio* kabi minglab so'zlarni o'zbekchalashtirish, almashtirishga hech qanday asos va ehtiyoj yo'q. Yaqin tariximizdagi *traktor*, *samovar* kabi so'zlarni o'tomoch, o'ziqaynar shaklidagi so'zlar bilan almashtirishga urinishlar hamamiz yakunlanganini eslatar ekan, bunday harakatlar hozir ham ba'zan talab ayotganini, ammo foydasiz ekanligini aytadi [4: 13-14].

Xulosa qilib aytganda, til jamiyat tarqiqiyoti bilan birga rivojlanadi, ijtimoiy hayotni o'zida aks ettirib boradi. Biz bugungi globallashuv jarayonida tilni ijtimoiy qadriyat sifatida baholashimiz va uning qo'llanish darajasidan boxabar bo'lishimiz darkor. Zero, « o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, rasmiyati, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi»[1: 85]. Yurtimizning turli millatga mansub bayroqlari o'zbek tilini davlatimizning muqaddas timsoli sifatida o'rganmoqdalar, uning tilni gaplashmoqdalar, unga yuksak ehtirom ko'rsatmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatov A. I. Юсак маънавият — энгилмас куч. —Т.: Маънавият, 2008.
 2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. —Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006.
 3. Ходжени А. Термин танлаш мезонлари. —Т.: Фан, 1996.
 4. Мухамудов Н. Тил тизими тадқиқи. —Т.: Мумтоз сўз, 2007.



O'ZBEK TILIDA BELGI UMUMIY MA'NOLI TERMINLARNING TUZILISHI

Muhitdinova Gulchiroy

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbek tilida belgi umumiy ma'noli terminlarning tuzilishi jarayonidagi fikrlar bayon qilingan. O'zbek tilida belgi umumiy ma'noli terminlarni tuzilish jarayonida terminlar o'zi izohlayotgan soha yoki hodisani yoritib berishi izohlanadi.

Kalit so'z: Termin, terminologiya, keng ma'no, belgi umumiy ma'noli termin.

Аннотация

В этой статье говорится о терминах общих мнений. Они изучают все термины, которые говорится в изучении и в общении.

Ключевое слова: Термин терминология расширенный смысл знаковые общесмысловое слово

Annotatsia

This article outlines ideas for setting general meaning of characters in Uzbek language. In Uzbek language, the terms refers to the context or phenomenon in which the terms are interpreted during the study of general terms.

Key words: Term, terminology, wide meaning, the symbolic meaning of the word

Har bir tilning shakllanishida shu til vakillarining tilga uni o'rganish talab qilishga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning xalq sifatida o'zligini namoyon etishida til muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli mamlakatimizda ona tilimizga alohida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz mustaqillikka erishishi arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, o'zbek tilining davlat tili sifatida e'tirof etilishi buning yorqin isbotidir. Darhaqiqat, til xalq ma'naviyati, madaniyati ko'zgasidir. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida ham bu borada munosabati bildirilgan: «O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy, ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgulik va fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi orqali singadi. Ona tili — bu millat ruhidir» [1: 60].

Til — kishilar orasidagi eng muhim aloqa vositasi, tafakkur quroli. Har bir xalq tilida uning tarixi, xarakteri, badiiy ijodi va tafakkurining o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topadi.

O'zbek tili boy va imkoniyatlari keng. Uning qudratini hazrat Mir Alishir Navoiy o'z asarlari orqali butun dunyoga mashhur qilgan. Shunday ekan, O'zbekistonda yashayotgan o'zbek xalqi uchun ona tilini bilish, uning bebaho boylıklaridan bemalol foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish, o'zbek tilini asrash har bir o'zbek farzandining vazifasi va burchidir.

Termin (atama). Fan va texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z termin deyiladi. Termining chegaralangan qo'llanishga ega bo'lish boshqa soha kishisi uchun tushunarsiz degani emas. Masalan to'g'ri chiziq, gap, so'z turkumi, tezlik atamasi ko'pchilik uchun tushunarli lekin kam qo'llaniladi. Termin ko'pincha umumiste'mol so'zdan ma'lum bir ma'noning maxsuslashuvi asosida hosil bo'ladi. Masalan, fojia, ega, ot, ternik, qo'shish, ayirish so'zi umumisteme so'z. Lekin ular fanga termin bo'lib o'tgan.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek «Xalqning milliy madaniyat va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tili» [2: 19]da mavjud bo'gan so'z va iboralarni atamalar va leksik boylıklarni o'rganish hamda jismoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalarda biridir.

A.A.Potebnaya «keyingi ma'no» deb atagan va «u tilshunoslikning o'rganish obyektiga kirmaydi, uni boshqa fanlar o'rganadi» [3: 19] deb ko'rsatilgan

terminologik leksika uzoq davrlargacha alohida nominativ birlik, atama sifatida qabul qilinmadi. Biz esa A.A.Potebnayaning fikriga qo'shilishdan mutlaqo qo'rqinmiz. Chunki so'zlarning etimologiyasini o'rganish jarayonida biz tarixiy fikr bilan borishimiz shubhasiz. Bunga o'rganilayotgan «obekt» ning tadrijiy o'zgarishi biz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda tilshunoslik fani o'zgarib o'tirib, o'z tadqiqot doirasini kengaytirgani sayin terminlarni o'rganish uning uchun muhim tarkibiy qismidan biriga aylandi. Bu esa biz uchun keng imkoniyatlarni ochib bergani shubhasiz. Hozirgi davrda terminlarni o'rganish tilshunoslikning muhim turlaridan biri bo'lgani uchun — terminologiyani shakllantirdi.

Ammo shuni ham aytilishi kerakki, bu jarayonda rus tili orqali kirib kelgan terminlarni o'rinsiz, sun'iy ravishda yangi yasamalar yoki arab va fors-tojikcha so'zlarni almushtirish hollari ham kuzatiladi. Masalan, *bankrot* — *sinish*, *buxgalter* — *hisobchi*, *gazeta* — *ro'znoma*, *deputat* — *noib (xalq noibi)*, *jurnal* — *majalla (jarida, jurnalka, oynoma)*, *fonetika* — *tovushshunoslik va sh. k.* ma'lum bir termini o'zgartirish uchun uning keying taqdirini ham hisobga olish kerak-ku. Kurs termini bosqich deb atalgan bo'lsak, kurs asosidan hosil qilinadigan yasalmalarning taqdiri nima bo'ladi? Yoki *kursdoshi*ni *bosqichdosh*, *kurs ishini bosqich ishi* deyish kerakmi? Yoki omonim termini bilan bog'liq omofon, omograf, omonimiya terminlariga nima deb nom beramiz. Achinarlisi, sinonim, omonim, antonim terminlari 5-sinfda o'tiladi. Bunday holat ijobiy baholab bo'lmaydi. Aksincha, bu holat ko'pchilikni chalg'itadi. Shuning uchun ham terminlarni, soha terminologiyasini tartibga keltirish, ya'ni unifikatsiya qilish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbek tilida belgi umumiy ma'noli terminlarni o'rganish jarayonida biz shunga qaratib o'z bo'lamizki terminlar o'zi izohlayotgan soha yoki hodisani 80% gacha yoritib berishga xizmat qiladi. So'zimizni birgina tilshunoslikdagi «sifat» termini bilan izohlaydigan bo'lsak bunda, narsa buyumning o'ziga xos sifati oydinlashadi. Ya'ni har bir komponenti sifat atalmish so'z turkumini taqozo qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sohalarni terminologiyasini yanada tartibga solish, o'zgarib ketgan so'zlarni o'rnida mavjud tushunchalarni aniq ifodalaydigan, qadimda o'talib kelgan so'zlarni tomonidan istifoda etilgan asl turkiy so'zlarni qo'llash maqsadga muvofiq. Biz bu orqali yangi o'zlashgan terminlarni qabul qilmaslik kerak degan fikr bilan mutlaq yiroqmiz. Chunki fan va texnika rivojlangani sayin tilimizga yangi terminlarni o'zlasha boradi. Bu esa ma'lum tushunchalarning eskirib, o'rniga yangi tushunchalarning qabul qilinishi bilan bog'liq hodisa sanaladi. Shu sababli ham biz bu holatni ikki holatning ijobiy va salbiy tomonlarini tog'ri baholay olishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008. — B. 60.
2. Karimov I. A. O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat. — T.: O'zbekiston, 1999. — B. 19.
3. Potebnaya A. A. iz zapisok po russkoy grammatike. M.: uchpedgiz, 1958. T. I. —s. 19.
4. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.
5. Begmatov E. Hozirgi o'zbek tilining leksik qatlamlari. — T., 2002.



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA GAP BO'LAKLARI TALQINI TAHLILI

Mullaboyeva Shirin

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti*

Annotatsiya

Sodda gap strukturasi va uni gap bo'laklariga ajratish masalasi tilshunosligimizda olimlarimizning tadqiqiy izlanishlari markazida turadi. Gap bo'laklari va ularni darajalash bosh bo'laklar tarkibi yuzasidan shu kungacha ko'plab ilmiy nazariyalar vujudga kelgan. Umumta'lim maktablarining «Ona tili» darsligida gap va uning sintaktik bo'laklanishi haqida ma'lumotlarni izchillik bilan yoritishda mavjud ikki xillik o'z tadqiqini kutayotgan masalalardan biridir. Ushbu maqolada mana shu masalalar xususida ilmiy-tahliliy fikrlar yuritildi.

Kalit so'zlar: Gap bo'laklari, kesim, ega, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi, egali gaplar, egasiz gaplar.

Annotation

The structure of simple sentences and their separation is in the center of linguists research studies. Many scientific theories have been created on the parts of sentences, their degrees and the composition of the main parts. One of the issues that diversity is looking for in a consistent way to share information about the speech and its syntax in the «the Uzbek language» manuals of secondary schools. This article reviews scientific and analytical considerations on these issues.

Key words: parts of sentences, predicate, subject, object, adverbial modifier, attribute, active and passive sentences.

Аннотация

Структура простых предложений и определение их в частях предложения/предложения находятся в центре внимания наших исследователей в лингвистике. До сих пор появилось множество научных теорий о частях предложения, их уровнях, а также о главных частях. Одной из нерешенных проблем является двухмерность информации о предложении и его синтаксическом делении представленная в учебниках «Родной язык» общеобразовательных школ. В этой статье рассматривается научное и аналитическое мышление по этим вопросам.

Ключевые слова: Части предложения, дополнительное, обстоятельство, определение, предложения с существительным, предложения без существительных.

O'zbek tilshunosligida gapning sintaktik tuzilishini gap bo'laklari termin ostida o'rganish an'ana tusini olgan va unga hozirgi kungacha hech qanday e'tibor bo'lmagan. Tilshunos olimlar N.Mahmudov va A.Nurmonov gap bo'lagi atamasiga quyidagicha ta'rif beradilar: «Tobe aloqa tarkibida muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi» [1: 59]. Gap bo'laklarining sintaktik qurilmani hosil qilishdagi roli bir xil emas. Ayrim bo'laklar gap qurilishida asosiy va markaziy o'rin egallaydi. Bu bo'laklar gap qurilishida chiqarib tashlansa, gap shakliy tomondan ham, mazmuniy tomondan ham o'z xususiyatini yo'qotadi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida ishtirok etib, gapning

kerot hajmini kengaytiradi. Shunga muvofiq an'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklari bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratiladi.

Tilshunosligimizda gap bo'laklarining darajalanishi borasida turli xil qarashlar mavjud. Olimlarning gap strukturasi sintaktik bo'laklanish haqidagi qarashlari natijasida fanda bir qancha nazariyalar vujudga keldi. Olimlar N.Mahmudov va A.Dhumonovlar ularni umumlashtirgan holda uch guruhga bo'ladilar:

1. Ega gapda absolut hokim bo'lak sanaladi. U o'z tarkibiga hokim bo'lish bilan birga, kesim tarkibiga ham hokimlik qiladi. Bu nuqtayi nazar gapning alternativ tomonini aks ettiradi. Bunga muvofiq, substantiv so'zlardan ifodalangan gap predmetini, absolut aniqlanmish sanaluvchi gap bo'lagini bildiradi. Kesim gapning predikativ belgisini, aniqlovchi esa nopredikativ belgisini bildiradi.

2. Ega va kesim teng huquqli bosh bo'lak sanaladi. Bu nuqtayi nazar gapga obyekt-predikat tuzilma sifatida qaraydigan mantiqiy yo'nalish nazariyasiga mosdir. Tilshunoslikdagi mantiqiy yo'nalish nazariyasiga muvofiq, hukmning asosiy a'zosi bo'lgan subyekt va predikatga ikki bosh bo'lak — ega va kesim muvofiq keladi. Ular o'zaro bir-birini to'ldiradi. Ulardan biri ishtirok etmasa, gap to'liqsiz bo'lib qoladi.

3. Kesim — absolut hokim bo'lak. Ega ham unga bo'ysunadi. Bunday qarash o'zbek, fransuz tilshunosi Tenyer nazariyasida ochiq ifodalangan. Kesim alternativlik kategoriyalarini tashuvchi bo'lak, gapning qurilish markazi (tugumi) bo'lganligi uchun ham bu nazariyada kesim asosiy bosh bo'lak sanaladi [1: 65].

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida o'rganilayotgan obyektli sistem-
 o'rganish metodikasi nuqtayi nazaridan yondashish keng amalga
 oshirilmoqda. Shunga ko'ra, gapning eng muhim struktur markazi sifatida kesim
 bo'lagi etila boshlandi va gapning boshqa bo'laklari kesimning kengaytiruvchilari
 sifatida izohlana boshlandi. Ya'ni gapning sintaktik bo'laklanishida bir cho'qqili
 nazariya ustuvor deb belgilanmoqda. Haqiqatdan ham, gapning markazida kesim
 bo'lagining kesimlik shakllari turadi. Boshqa barcha bo'laklar kesimning «bo'sh
 o'ldirib»ni to'ldirib, unga nisbatan ma'lum vaziyatda keladi. Kesimning «bo'sh
 o'ldirib»ni to'ldirib, ma'lum sintaktik vaziyatda (ega, to'ldiruvchi, hol) kelgan
 sintaktik birliklar moddiy jihatdan bir yoki bir necha morfologik shakllardan tashkil
 topadi [2: 18]. Ushbu fikrlarga monand ravishda tilshunos R.Sayfullayeva ham
 kesimni bosh bo'lak sifatida qarab, ega va holni gap kengaytiruvchi bo'laklar deb,
 to'ldiruvchi va aniqlovchini esa bo'laklarga bog'lanib kelgan holda so'z
 kengaytiruvchi deb ataydi [3: 338].

Bundan ham ko'rishimiz mumkinki, kesimdan boshqa barcha bo'laklar
 ikkinchi darajali hisoblanadi.


N.Ortiqova ham bu muammoga bag'ishlab alohida monografik tadqiqot
 olib borgan. Olima aytadi: «Gapning markaziy birligi sifatida belgilangan kesimga
 nisbatan unga tobe gap bo'laklari ega, hol va to'ldiruvchi hisobga olinadi. So'ngra
 aniqlovchi ushbu bo'laklarning kengaytiruvchisi hisoblanadi» [2: 42].

Bundan ko'rinadiki, gap bo'laklari darajalanishiga ko'ra uchga ajratilmoqda.


Umumta'lim maktablarining 8-sinf ona tili darsligida gap bo'laklari quyidagicha tasniflanadi: «gap bo'laklari 5 ta: kesim, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol. Kesim gapning asosini tashkil qiluvchi markazdir. Ega kesimga ergashib kesimda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi.

To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo'laklari ega va kesimga ergashib kelib, ularni to'ldiradi, aniqlaydi va izohlaydi. Shuning uchun ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari deyiladi» [4: 56]. Demak, darslikdagi qoidaga ko'ra, ikki cho'qqili nazariya, ya'ni ega va kesim gapning bosh bo'laklari degan qarash ilgari surilgan. Darslikda shu qarashga muvofiq ravishda eganing ishtirokiga ko'ra sodda gaplarning tasnifi keltirib o'tiladi.

Unga ko'ra:



Tilshunos I.Rasulov ham o'zining olib borgan tadqiqotlarida sodda gap strukturasi tasnifiga alohida to'xtalib o'tadi. Sodda gaplarni bosh bo'laklari ishtirokiga ko'ra, bir strukturali va ikki strukturali sodda gaplarga ajratadi. U ham bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat deb qarab, sodda gaplarni eganing ishtirokiga ko'ra quyidagicha tasniflaydi:



Umumta'lim maktablarining 8-sinf ona tili darsligining kesim va unim ifodalanishi mavzusida quyidagicha fikr keladi: «Kesim gapning markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi hamda gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi» [4: 57]. Bundan kelib chiqadiki, kesim gapning markazi, ya'ni bosh bo'lak. Qolgan bo'laklar esa unga ergashadi, ya'ni ikkinchi darajali bo'laklar sanaladi. Bu qarash biz yuqorida darslikdan keltirib o'tgan ikki cho'qqili nazariyani o'z o'zidan inkor qiladi. Shu bilan birga akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida ham sodda gaplarning ega ishtirokiga ko'ra tasnifi berilmaydi. Tilshunoslar N.Mahmudov va A.Nurmonovlarning «O'zbek tilining nazariy grammatikasi» kitobida ham ega va egasiz gaplar tasnifiga to'xtalilmaydi va quyidagicha fikr keltiriladi: «Ega bilan kesim lingvistik adabiyotlarda bosh bo'lak sifatida tan olinsa ham, lekin

gap qurilishida, uning tasnifida kesim birinchi o'rinda turadi. Kesimning gap qurilishidagi yetakchilik roli, ayniqsa, turkiy tillarda yaqqol ko'rinadi. Turkiy tillarda kesimsiz gap deyarli ishlatilmaydi. Nominativ yoki bo'laklarga bo'linmaydigan gaplar ham aslida kesimli gaplar, boshqacha aytganda, kesimning o'zidir» [1: 66]. Bundan ko'rinadiki, biz yuqorida keltirib o'tgan barcha darsliklar bir cho'qqili nazariyaga asoslanadi. Shuning uchun 8-sinf ona tili darsligidagi ikki xillik mavzu yuzasidan izchillik va uzviylikni buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilshunosligimizda bu xildagi turli qarashlar mavzu yuzasidan muayyan yechimga kelishda chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Bizningcha, darslik qayta ko'rib chiqilib, bir bosh bo'lakli nazariya asosida qayta ishlab chiqilishi lozim. Agar kesim gapning markazi sifatidagi qarash ustuvor deb olinadigan bo'lsa, ega o'z-o'zidan ikkinchi darajali bo'laklar qatoriga qo'shiladi hamda eganing ishtirokiga ko'ra sodda gap tasnifi beriladigan bo'lsa, qolgan ikkinchi darajali bo'laklarni ham sodda gapdagi ishtirokiga ko'ra tasniflab chiqish lozim bo'ladi. Demak, fanda gap bo'laklariga ajratish va uni darajalash yuzasidan hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar yo'q emas. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, gapning struktur markazi kesim deb belgilangan holda, u bilan bevosita bog'lanib, kesimning «bo'sh o'rinlari»ni bildirib kelgan sintaktik birliklar gapning ikkinchi darajali bo'laklari sifatida qo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -T.: O'qituvchi, 1995
2. Usmonova H. O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturasi. Filol. fan. dok. diss. - T.: 2009
3. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Fan va texnologiya, 2009
4. Qodirov M va boshqalar. 8-sinf Ona tili darsligi. -T.: Cho'lpon, 2014
5. Rasulov I. Tanlangan asarlar, I jild. -T.: Mumtoz so'z. 2015



ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA DEYKTIK BIRLIKLAR

Nomozova O'g'iloy

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada deyktik birliklar hamda ularning ishoraviylik xususiyati, shuningdek, deyktik birliklarning Alisher Navoiy g'azallaridagi o'rni va ular orqali ishora qilingan mazmun tahlilga tortilgan.

Tayanch soʻzlar: pragmalıngvistika, deyksis nazariyasi, deyktik birliklar.

Annotation

The deictic singular and their indicative peculiarities, so their position in gazels of Alisher Navai and the meaning which indicated by those are analysed in the article.

Key words: pragmalınguistics, theory of deixis, deictic singulars.

Аннотация

В этой статье обсуждается роль дейктических единиц и свойства их метоморфичности, а также роль подразделений дейктических единицы анализ указанных значений в газелях Алишера Навая.

Ключевые слова: прагмалıngвистика, теория дейксиса, дейктические единицы.

Hazrat Alisher Navoiyning lirik asarlari, nafaqat lirik asarlari, balki bitmas-tuganmas boy mazmunga ega boʻlgan falsafiy, axloqiy asarlari bir necha yillardan beri adabiyotshunos olimlar, filologlar tomonidan oʻrganilib kelinmoqda.

Buning boisini esa Alisher Navoiy asarlarining ham badiiylik, ham mazmundorlik, shuningdek, asar tilining jozibadorligi jihatidan oʻz ahamiyatini yoʻqotmaganligi bilan izohlash mumkin. Shuni alohida taʼkidlash joizki, Hazrat Navoiy asarlari nainki adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham chuqur oʻrganilmoqda. Mazkur maqolada ham Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, ularni hozirgi zamon tilshunosligining yangi yoʻnalishlaridan biri hisoblangan pragmalıngvistika nuqtayi nazaridan koʻrib oʻtamiz.

Maʼlumki, zamonaviy tilshunoslikning til birliklarini inson omili bilan bogʻliq holda oʻrganuvchi yoʻnalishlaridan biri pragmalıngvistikadir. Bu yoʻnalishda til birliklarini tahlil qilish jarayonida ularni nutq vaziyati, soʻzlovchi va tinglovchilarning obyektiv borliq toʻgʻrisidagi umumiy bilimlari singari tashqi omillarga eʼtibor qaratiladi. Pragmalıngvistikada til birligining nutq vaziyati, kontekst bilan bogʻliq holda oʻrganuvchi masalalaridan biri deyksis nazariyasidir.

Deyktik birliklarning muhim xususiyatlaridan biri uning ishoraviyligi boʻlsa, asosiy vazifasi esa soʻz takrori orqali yuzaga kelishi muki boʻlgan uslubiy gʻalızlikdan xalos etishdir. Shuni alohida taʼkidlash joizki, «kontekst qurshovining kuchi, ayniqsa, deyksis hodisasi talqinida namoyon boʻladi» [1: 167]. Deyktik birliklar sifatida olmoshlar guruhini (asosan, koʻrsatish, kishilik, soʻroq hamda belgilash olmoshlari), shuningdek, payt ravishlari, son soʻz turkumiga oid soʻzlarni kuzatish mumkin. Darhaqiqat, deyktik belgilar tasnifi masalasi uzoq muhokama qilib kelinmoqda. «Koʻpchilik tilshunoslar anʼanaga binoan yuzasida shaxs, makon va zamon deyksislarini farqlab kelmoqda» [2: 171].

Alisher Navoiy ham oʻz asarlarida bir qancha deyktik birliklardan oʻta mohirona tarzda foydalangan. Quyida Hazrat Navoiy gʻazallarida qoʻllangan rang-barang deyktik belgilarni koʻrib oʻtamiz va tahlil qilamiz:

*Chu sendin o'ldi quyosh panjasi arosida oltun,
Socharg'a dag'i sen etting anga karam yadi tulo.*

(«Navodir ush-shabob» 2-g'azal)

«Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti tarkibiga kiruvchi «Navodir ush-shabob» devonidan olingan ushbu baytning ikkinchi misrasida qo'llangan *anga* deyktik belgisi orqali birinchi misradagi quyosh panjasi orasida paydo bo'lgan oltinga shom qilingan va predmet deyksisini hosil qilgan.

*Kimki, yetkay ishq dardu dog'idin ofat anga,
Dog' mehri saltanatdur, dard erur sihat anga.*

(«Navodir ush-shabob» 8-g'azal)

Mazkur misrada bir necha deyktik birliklar, ya'ni birinchi misradagi *kimki, anga* hamda ikkinchi misradagi *anga* so'zlari qo'llangan bo'lib, bu uchala birliklarning barchasi birinchi misradagi ishq dardu dog'idin dard yetkan kishiga ishora qilib, shaxs deyksisini hosil qilganligini kuzatish mumkin.

Demak, Alisher Navoiy deyktik vosita sifatida so'roq va ko'rsatish almoshlaridan oqilona foydalangan. Guvohi bo'lganimizdek, yuqoridagi deyktik vositalar baytlar mazmunini ochib berishda katta ahamiyatga ega.

*Ko'zumdin ashk tugandi-yu bo'ldi qon paydo,
Bag'irdin anda bo'lur poralar nishon paydo.*

(«Navodir ush-shabob» 34-g'azal)

Ushbu misralarda ham deyktik belgi mavjud bo'lib, u ikkinchi misradagi *anda* (ko'rsatish olmoshi) so'zi orqali ifodalangan. Mazkur so'z orqali paytga shora bor. Ya'ni ko'zidan ashk tugab qon paydo bo'lganida (birinchi misra), bag'ridan ham o'sha paytda poralar nishoni paydo bo'lgan (ikkinchi misra).

Bu poralar esa ko'zdan ashk tugagach, qon bo'lib kela boshlagan.

Demak, *anda* deyktik vositasi orqali zamon deyksisi yuzaga kelganini ko'rish mumkin.

*Ey navbahori orazing subhig'a jonparvar havo,
Andin gul-u bulbul topib yuz barg birla ming navo.*

(«Badoye' ul-vasat» 1-g'azal)

Yuqoridagi baytning ikkinchi misrasida qo'llangan *andin* so'zi birinchi misradagi jonparvar havoga ishora qiladi. Bu yerda predmet deyksisi yuzaga kelgan.

*Dema mendin ayril, dag'i umr sur
Ki, ul umr o'humdin batardur manga.*

(«Badoye' ul-vasat» 14-g'azal)

Ushbu baytda ham deyktik vosita e'tiborimizni tortadi. Bu deyktik vosita ikkinchi misrada qo'llangan *ul* so'zi bo'lib, bu so'z birinchi hamda ikkinchi

misradagi umr soʻziga ishora qiladi. Yanada aniq aytadigan boʻlsak, ul deyktik birligi bu yerda yordan ayrilqda oʻtgan, oʻlimdan ham battar umrga ishora qiladi.

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, baytlarda keltirilgan deyktik vositalar garchi ishora qilingan mazmunni toʻgʻridan toʻgʻri ifodalagan boʻlsa-da, ular mazmunni tushinishni qiyinlashtirmaydi, aksincha, oʻquvchini fikrlashga, muayyan xulosalar chiqarishga undaydi.

Keltirilgan misollardan xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiy gʻazallarida qoʻllangan deyktik birliklar faqatgina ishoraga xoslanib qolmay, balki shoirning yashirin maqsadini namoyon qilishda ham muhim ahamiyat kasb etgan hamda shoir asarlarining jozibadorligini taʼminlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент.
2. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniyy. («Navodir ush-shabob», «Badoyeʼ ul-vasat»)
3. //www.ziyouz.com



SODDALANISH HODISASINING SOʻZ TURKUMLARIDA KUZATILISHI

Noʻmonova Zulfira

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti
Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya

Soddalanish oʻzbek tilidagi juda koʻp soʻzlarda uchraydigan hodisadir. Soddalanishning soʻz turkumlarida sodir boʻlishi turlichadir. Bundan tashqari bu hodisa asosan joy nomlarida ham sodir boʻladi. Ushbu maqolada bu hodisaning turli soʻz turkumlari doirasida hamda joy nomlarida sodir boʻlishi xususida ilmiy-tahliliy fikrlar yuritildi.

Tayanch soʻzlar: soddalanish, sinxron aspekt, diaxron aspekt, qoʻshimchalar soddalashuvi, soʻzlar soddalashuvi.

Annotation

Prolongation is a phenomenon that is found in many words in Uzbek. The expression of loyalty in the word genus is different. In addition, this phenomenon occurs mainly in place names. This article discusses the phenomenon of scientific and analytic thinking on the occurrence of this phenomenon within the framework of various word types.

Key words: simplification, simultaneous aspect, diachronic aspect, simplification of words.

Til hamisha rivojlanishda, u hech qachon bir joyda qotib qolmaydi. Jamiyatdagi oʻzgarishlar asta-sekinlik bilan tilda ham oʻz aksini topib boradi. Bu oʻzgarishlar birinchi galda tilning lugʻat tarkibida yaqqol koʻzga tashlanadi. Shu bilan birgalikda tilning morfologik, morfemik, sintaktik, frazaeologik qatlami

hamda til strukturasi ham tarixiy taraqqiyot natijasida oʻzgarishlar sodir boʻlishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, «yuqori», «sovchi», «koʻmir», «yemish» kabi soʻzlarni bugungi kunda alohida asos va qoʻshimcha sifatida tahlil qilmaymiz.

Biroq bu soʻzlarning etimologiyasini tahlil etadigan boʻlsak, bu soʻzlar qolida alohida asos va qoʻshimchadan iborat soʻzlar boʻlganini bilishimiz mumkin boʻladi. Shulardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, soʻzning morfologik strukturasi uchraydigan tarixiy oʻzgarishlarning eng asoslari soddalanish va morfologik qayta boʻlinishdir.

Soʻz bildirgan predmet va hodisalar vosita orqali anglashilish xususiyatini yoʻqotgan — bevosita almashiladigan boʻlib qolgan: yasama soʻz tub soʻzga aylangan: *koʻrpacha* aslida *koʻrpa-cha*, *koʻmir* asli *koʻm-ir* yoki *kuy- mir*: *kuygan*, buyadigan, oʻsmir-oʻsadigan, yomgʻir-yogʻadigan, yaxshi (yoqmoq feʼlidan).

Soʻzning morfologik strukturasi bir tarixiy oʻzgarish bir necha qismli soʻzning ajralmas bir boʻlakka aylanishi soddalanish deb ataladi. Yaʼni vaqtlar oʻtishi bilan asos va morfemaning yoki asos va asosning bir maʼnoli qismga, morfemaga aylanib qolishidir.

Tabiiyki, endi soddalanish hodisasi qanday yuzaga keladi, uning yuzaga chiqish sabablari nimalardan iborat degan savol tugʻiladi. Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin. Soddalanish hodisasining fonetik, morfologik, leksik-semantik, grammatik sabablari bor. Masalan, oʻzakning mustaqil maʼnosini yoʻqotganligi (semiz — asl asosi sem), morfemalar oasidagi semantik aloqaning yoʻqolganligi (qishloq — qishlanadigan joy qish-la-q), fonetik oʻzgarish (ista — solilamoq, izla — izidan bormoq singari ikkita soʻzga ajralib ketgan.

Oʻzbek tilida soddalanishning quyidagi koʻrinishlari mavjud:

Asos va soʻz yasovchi qoʻshimchalar soddalashuvi: *sovchi* (sov-chi), *ovloq* (ov-loq), *undamoq* (un-da);

Asos va shakl yasovchi qoʻshimchalar soddalashuvi: *toʻsatdan* (toʻsat-dan), *olpʻa* (ol-gʻa (qadimda -ga joʻnalish kelishigi -qaru tarzida ishlatilgan));

Asos va asos soddalashuvi: *qayragʻoch* (qora+ogʻoch), *ogʻayni* (ogʻa+ini), *odumovi* (odam+ovi), *bugun* (bu+kun).

Shuni taʼkidlash kerakki, yuqoridagi misollar faqat oʻzbek tilida yuzaga kelgan soddalanish namunalari. Bundan tashqari fors-tojikcha *kampir* soʻzi *kam+pir*, yaʼni chol va qari ayol maʼnolarini bildiruvchi soʻzlarining soddalashgan namunasi. Boshqa tillardagi soddalanishlarga yana *boyon* (boy+on), *amaki* (ama va aka), *majoziy* (majoz-iy) soʻzlarini ham misol qilib keltirishimiz mumkin.

Soʻzlarda soddalanish hodisasini kuzatishimiz uchun biz soʻzlarning etimologiyasiga eʼtibor qaratishimiz lozim boʻladi. Chunki bu hodisa soʻzni diaxron jihatdan tahlil qilgandagina namoyon boʻladi. Quyida biz turkiy soʻzlardagi soddalanish hodisasini turkumlar boʻyicha tahlil qilishga harakat qilamiz.

Soddalanishga uchragan ot turkumdagi soʻzlar:

№	Soʻz	Turkumi	Dastlabki maʼnosi	Soddalanishga uchragan asos yoki qoʻshimcha	Bugungi kundagi maʼnosi
1	ayiq	ot	qadimgi turkiy tilda «besoʻnaqay maʼnosini anglatgan ayi sifatining eshi boʻlgan ayi feʼli asos boʻlgan	-gʻ keyinchalik -q ga aylangan	paxmoq yungli, yirik, besoʻnaqay, sutemizuvchi hayvon
2	aka	ot	qadimgi turkiy tilda «yoshi katta boʻl» maʼnosini anglatgan aq feʼli asos boʻlgan	-a ot yasovchi qoʻshimcha	oldin tugʻilgan oʻgʻil farzand
3	Barmoq	ot	«ushla» maʼnosini anglatuvchi bari feʼli asos boʻlgan	-m hamda kichraytirish maʼnosini anglatuvchi -(a)q qoʻshimchalari	Panjadagi har bir harakatchan dumaloq, choʻziq aʼzo
4	belbogʻ	ot	belbagʻi birikmasining bir soʻzga birlashuvi asos boʻlgan	bel -bagʻi keyinchalik egalik qoʻshimchasi talaffuz etilmay qoʻyilgan	Belga bogʻlanadigan chorburchak mato
5	bigiz	ot	«nayza», «oʻtkir narsa» maʼnosini anglatgan bi oti asos boʻlgan	-gi qoʻshimchasi bilan yasalgan feʼlga -z qoʻshimchasini qoʻshib yasalgan	poyabzaldoʻzlarning igna uchli yogʻoch sopli metal asbobi
6	biz	olmosh	«soʻzlovchi» maʼnosini bildirgan bir soʻzi asos boʻlgan	-z qoʻshimchasi qoʻshilib hosil qilingan	birinchi shaxs kishilik olmoshi

7	buyuk	sifat	«yirik» maʼnosini anglatgan biy sifatining boʻy shakli asos boʻlgan		-oʻ qoʻshimchasi bilan yasalgan feʼlga -k sifat yaovchisini qoʻshilgan	juda katta, ulugʻ
8	burka	feʼl	«yop», «oʻra» maʼnosini anglatgan boʻr feʼli asos boʻlgan		-ka kuchaytirish maʼnosini anglatuvchi qoʻshimcha	Biror narsa bilan hamma tomonini oʻra
9	dimla	feʼl	«namlik» maʼnosini anglatgan dum soʻzining dim shakli asos boʻlgan		-la qoʻshimchasi bilan yasalgan	hovuri chiqmaydigan qilib oʻrab qoʻy
10	ikki	son	«ket», «yon» maʼnosini anglatgan ik oti asos boʻlgan		qoʻshimchasi bilan yasalgan -k undoshi ortgan	bir bilan uch oraligʻidagi butun sanoq son

Ushbu misollarni yana ancha davom ettirishimiz mumkin. Oʻzbek tilining etimologik lugʻatini oʻrganish jarayonida shu narsa maʼlum boʻldiki, kelib chiqishi turkiy boʻlgan, qadimda soʻz yasovchi qoʻshimchalar bilan yoki usoslarni birikuvidan hosil boʻlgan hamda bugungi kunda soddalanish hodisasi uchrab tub boʻlib qolgan soʻzlarning aksariyat qismi ot turkumini tashkil qilar ekan.

Biroq yuqoridagi singari soʻzlarni (qadimda yasalgan boʻlsa-da) yasama soʻz deb emas, tub soʻz deb hisoblaymiz. Sababi hozirgi oʻzbek tili sinxron aspektga tayanadi. Tarixiy (diaxron) yasashda esa yasama soʻzning maʼnosi va shu maʼnoning ifodalanish usulini qismlarning maʼno munosabatlari orqali asoslab boʻlmaydi. Bu maʼno maxsus tekshirishlar orqali aniqlanadi. Bir soʻz tarkibida mustaqil maʼnoli qism yoki yasovchi affiksning yoki ikkalasining borligi sezilib tursa-da, lekin bu soʻzning ajralishi mumkindek koʻringan qismlari maʼnosi bilan asoslab boʻlmasa, bu soʻz hozirgi oʻzbek tilida yasalgan hisoblanmaydi va bu soʻz soddalanishga uchragandir. Oʻzbek tilidagi soddalanish hodisasini oʻrganishdan maqsad bugungi kunda ham tublashib borayotgan va tublashish arafasida turgan soʻzlarni aniqlash va ularni tahlil qilishdir. Chunki bunday soʻzlar turli xil tahlillar jarayonida qiyinchiliklar, ikkilanishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Soddalanishga uchrash hodisasi asosan joy nomlarida koʻp kuzatiladi. Quyida bunga bir qancha misollarni keltirib oʻtganmiz.

SODDALANISHGA UCHRAGAN JOY NOMLARI

- Qoraxitoy — *Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi ko'cha nomi. «Qora» so'zi qadimda*
- «buyuk» degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik bu so'z soddalaşib, tub holatga kelib qolgan.
- Ashaul (Ochqishloq) — *Qoraqalpog'istondagi joy nomi. Qadimda bu nom ham Ash va aul ko'rinishida bo'lgan. Bu so'z ham bugungi kunda ma'noli qismlarga ajralmaydi.*
- Kuyganyor — *Andijon viloyati Izboskan tumanidagi qishloqlardan biri. Ushbu so'z ham tarixda yasalgan, biroq bugungi kunda yagona asos hisoblanadi.*
- Tentaksoy — *Andijon viloyati Paxtaobod tumanidan oqib o'tuvchi soy nomi. Bu soyni suvi qadimdan bahor kelgan vaqtda ko'payib ketib, o'z shaklini o'zgartirgani uchun shunday nom berilgan. Hozirda bu nom ham bitta asos bo'lib qolgan.*
- Chilonzor — *Toshkent shahridagi tumanning nomi. Bu so'z dastlab «jilon» — jiyda turi ma'nosini bildiruvchi asosga -zor qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan. «Jilon» so'zi bugungi kunda tovush o'zgarishiga uchragan.*
- Marg'ilon — *shahar. Farg'ona viloyatida. Toponim yozma manbalarda Marg'ilon,*
- *Marg'inot shaklida uchraydi. Toponimning qadimgi variantlarida -on va -ot qo'shimchalari ko'plik belgilari bo'lib kishilar guruhini anglatadi. Marg'i etnonimining etimologiyasi*
- *«o'tloq, o'rmoncha, yashil yer» kabi ma'nolarni bildiruvchi Marg' so'zi bilan bog'liqdir.*
- *Marg'i «o'tloqda yashovchi, o'rmonda yashovchi yoki chorvador» degan ma'nodadir. -i qo'shimchasi boshqa so'zlarda ham uchraydi. Bugungi kunda bu qo'shimcha ham tublashib*
- *qolgan.*
- *Sergeli — joy nomi. Sergeli aslida Sirg'ali bo'lib, «sirg'a va li» affikslari orqali yasalgan. Ma'lumki, qadimda har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Tamg'ada turli belgilar, masalan, taroq, qaychi, bolg'a ifodalangan. Sirg'ali etnonimi ham xuddi shu usulda vujudga kelgan. Keyinchalik qabila yashagan*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. T.: Toshkent, Universitet., 2000
2. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. -T.: Toshkent, 2009
3. Aliqulov Z, Boymirzayeva S. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya T.: Samarqand-2009
4. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili T.: Toshkent 2009



KORPUS LINGVISTIKASI LUG'ATSHUNOSLIKNING RIVOJLANGAN KO'RINISHI SIFATIDA

Nurullayeva Oydin

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya

Maqolada lingvistik tadqiqot o'tkazishda korpusdan foydalanish, korpusning matnga ahlov berishdagi ahamiyati sharhlangan. Matnlar tahriri va lug'atchilik amaliyotida qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: lingvistik korpus, tadqiqotning korpus metodi, matni avtomatik qayta tahrirlash, leksikografiya.

Аннотация

В статье объясняется значение корпусных подходов к лингвистическим исследованиям, важность корпусов при создании программы-переводчик. Используется в редактировании текстов и применяется в лексикографической практике.

Ключевые слова: лингвистический корпус, корпусный метод исследования, редактирование текста, лексикография.

Annotation

In this article the importance of korpus approach in linguistical research, significance of korpus at automatic processing text. It is used in text editing and applied lexicographic practice.

Key words: linguistic corpus, korpus method of researching, text editing, lexicography.


Kompyuter leksikografiyasini elektron matnlar korpusi yoki parallel matnlar korpuslarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki dunyodagi barcha zamonaviy, so'nggi lug'atlar korpusga asoslangan bo'lib, ular misollarining hujjiy, ishonarliligi bilan baholanadi. Chunki korpusda til jamiyatda qanday yashasa, shunday aks etadi, natijada lug'atdagi misol ishonarli hamda asosli bo'ladi. **Matnlar korpusi («korpus» lotincha «tana» degan ma'noni anglatadi)** — bu elektron holda saqlanadigan ma'lum til birliklari bo'lib, ular tilshunoslar uchun turli xil muammolarni hal etish uchun tatbiq etishda va turli yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun zaruriyatga qarab turli shakllarda tuziladi. Bular fonema, grafema, morfemalardan tortib undan kattaroq birliklar: leksema, gap va matnlardan (badiiy yoki ilmiy asar, gazeta va jurnal matnlari) tashkil topishi mumkin. Ularning qay tarzda saqlanishiga qarab maxsus dasturlar yordamida har bir kerakli so'z yoki so'z birikmasi uchun darhol uning qo'llanishi bo'yicha misollar topilishi, imlo bo'yicha variantlari, sinonimik qatorlari topilishi mumkin. Matnlar korpusiga oid ilmiy tadqiqotlar salmog'ining ko'payishi natijasida tilshunoslikda **korpus lingvistikasi** yo'nalishi shakllandi.

Korpus tilshunosligi — bu kompyuter tilshunosligining tarkibiga kiruvchi tilshunoslik bo'limidir, u korpus tuzilishining umumiy tamoyillarini ishlab chiqishda, matnlar korpusiga kompyuter texnologiyasini qo'llash orqali loyihalar

yaratishda ishtirok etadi. Tilshunoslik yoki til nuqtayi nazaridan matnlar korpusining tanasi katta, mashinadan o'qiladigan shaklda ko'rinadigan, yagona tizimli, belgili, filologik jihatdan malakali til majmuasi hamda tilshunoslikka oid muayyan ma'lumotlar beruvchi baza sifatida tushuniladi. Hozirda «korpus» tushunchasini anglatishda ko'plab ta'riflar mavjud. Masalan, E. Finegan «Korpus — bu odatda, kompyuter o'qiy oladigan formatda bo'lgan va bizza matn ishlab chiqilgan vaziyat, informatsiya beruvchi, muallif, adresat yoki auditoriya haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan matnlar to'plamidir», deydi. Turli umumiy ma'lumot beruvchi ijtimoiy saytlar korpusni statistik analiz hamda farazlar tekshiruvi asosida anglangan sohalarda uchrovchi til qoidalari va hodisalarini asoslay oladigan katta hajmdagi, tizimli matnlar to'plami (endilikda odatiy elektron shaklda) sifatida ta'riflaydi.

Kompyuterda yaratilgan birinchi matnlar korpusi Braun korpusi (BK, inglizcha Brown Corpus, BC) hisoblanadi, u 1961-yilda Braun universitetida yaratilgan, har biri 2000 so'zli 500 ta matn fragmentini o'z ichiga oladi. 1970-yillarda 1 mln so'zni o'z ichiga olgan matnlar korpusi asosida rus tilining chastotali lug'ati yaratildi. 1980-yillarda Shvetsiyaning Upsala universitetida ham rus tilida matnlar korpusi yaratildi. Keyinchalik kompyuter leksikografiyasining rivojlanishi natijasida katta hajmli matnlar korpusiga ehtiyoj tug'ildi. Ya'ni 1 mln. ta so'z elektron lug'atlar bazasi uchun yetarli emas. Shu asosda yirik hajmli matnlar korpusi yaratila boshlandi. Ko'pgina mamlakatlarda XX asrning 80-yillaridan boshlab bunday korpuslar tuzila boshlandi. Ular turli maqsad va vazifalarga xizmat qiladi. Buyuk Britaniyada Ingliz tili Banki (Bank of English) hamda Britaniya Milliy Korpusi (British National Corpus, BNC), Rossiyada Rus tilining Milliy Korpusi loyihalari ishlab chiqildi. Masalan, Rus tilining Milliy Korpusi hajmi hozirgi kunda 149 mln so'zdan iborat. Keyingi yillarda Internet tizimining rivojlanishi virtual matnlar korpusi yuzaga kelishiga olib keldi. Ya'ni Internetdagi qidiruv saytlari, elektron kutubxonalar, virtual ensiklopediyalar korpus vazifasini bajarmoqda. Korpusning janri va tematik rang-barangligi Internetdan foydalanuvchining qiziqishlariga bog'liq. Masalan, ilm-fan doirasida Wikipedia katta hajmdagi matnlar korpusi sifatida foydalanilmoqda.

Til korpusi yordamida o'tkazilgan ilk lingvistik tadqiqotlar turli birlikning tilda qo'llanish chastotasini statistik aniqlashni maqsad qilardi. Bundan tashqari, korpus tilning lug'at boyligida bo'layotgan o'zgarish (neologizmning paydo bo'lishi va yo'qolishi hodisasi)ni kuzatishning eng qulay vositasi sanaladi. Bu esa yaqin orada til o'rganayotgan o'quvchi yoki uning biror jihatini tadqiq etayotgan kishi bugungi kunda korpusdan foydalanishi aniqligini ko'rsatadi. Ko'pincha, bunday element so'z, ba'zida grafema, morfema, so'z birikmasi ham bo'lardi. Korpusga ma'lum so'zning turli davrda asarlarda qo'llanilish chastotasini aniqlash bo'yicha berilgan so'rov natijasi taxminan quyidagi shaklda namoyon bo'ladi:



Korpus lingvistikasida parallel matnlar korpusi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Parallel matnlar korpusi esa, o'z navbatida, badiiy asar, qo'llanma, ommaviy axborot vositalari, turli xil hujjatlarning ikki yoki undan ko'p tillardagi elektron holdagi ko'rinishlaridir. Masalan, Yevropa Ittifoqi o'zining barcha qonun va hujjatlarini ingliz, fransuz, nemis, ispan va italyan tillarida nashr qiladi hamda ular Internet tizimiga barchaga oehiq arxiv sifatida qo'yiladi. Bunday korpuslarning afzalligi shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so'z yoki jumlaning, balki butun boshli matnlarning turli tillardagi variantlarini bilish imkoniyati mavjud. Xuddi mana shu imkoniyat tufayli maxsus konkordanser dasturlar ishlab chiqish orqali turli xil ixtisoslik lug'atlari tuzish imkoniyati tug'iladi. Ushbu imkoniyatlar kompyuter leksikografiyasi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Захаров В. П. Корпусная лингвистика. – Иркутск, 2011
2. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T., 2011
3. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – T., 2007
4. Xamrayeva Sh. Til korpusining lingvistik va boshqa sohalardagi ahamiyati // O'zMU xabarlari, – T., 2017



O'ZBEK TILIDA SODDALANISH HODISASI

Utbasarova Hamidaxon

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Maqolada sodalanish hodisasi, uning nazariy xususiyatlari misollar yordamida yoritilgan. Manbalarda ushbu hodisa yuzasidan keltirilgan fikrlar misollar yordamida qiyoslangan.

Tayanch so'zlar: sodalanish, yaxlitlanish, tublanish, morfem tarkib, morfema, asos.

Аннотация

В данной статье описывается способы образования слов и теоритические признаки на основе традиционного исторического приминения употребления. В статье приводится тезисы по образованию слов.

Ключевые слова: упрощение, целостность, коренной, состав морфемы, морфема, основание.

Annotation

In this article simplifying features come with theoretical examples and there are given lots of sources with comparative ideas.

Key words: simplify, foundation, morpheme, morpheme structure.

Tilning boshqa hodisalarda bo'lgani kabi tarixiy taraqqiyot jarayonida so'zlarning morfema tarkibi ham o'zgarishi mumkin. So'zning morfemik tarkibida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga diaxron planda uchraydigan: soddalanish, pleonazm va morfologik qayta bo'linish kabi hodisalarni olishimiz mumkin. Soddalanish hodisasi bugungi kunda biz qo'llaydigan so'zlarning tarixan kelib chiqishi, uning tarkibini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. So'zlarni morfemalarga ajratishda uning hozirgi kunda tub yoki yasama ekanligi hisobga olinadi. Soddalanish hodisasiga tilshunos Q. Sapayev quyidagicha ta'rif beradi: «So'zning morfemik tarkibidagi tarixiy o'zgarish, ya'ni bir necha qismlı so'zning ajralmas bir bo'lakka ay lanishi **soddalanish** deyiladi. Masalan, **ayt** fe'li hozirgi tilda morfemalariga ajratilmaydi, lekin u aslida ikki morfemadan tashkıl topgan bo'lib qadimda uning **ay** elementi o'zak bo'lgan (ya'ni hozirda aytdi fe'li qadimda aydi shaklida bo'lgan)» [1: 21].

So'zning morfemik tarkibida sodir bo'ladigan o'zgarishlar boshqa manbalarda quyidagicha tasniflanadi:

- 1) so'z va qo'shimcha birlashib, so'z **tublashishi** mumkin: yuksak, yuksal;
- 2) so'z va qo'shimcha birlashib, **yaxlitlanishi** mumkin: biron, biror, bezor;
- 3) so'z va qo'shimcha orasidagi aloqa **soddalanishi** mumkin: yumshoq, qattiq;
- 4) so'z qo'shimcha holiga kelishi, murakkab qo'shimchalar bir-biriga qo'shib ketishi, ya'ni **birlashishi** mumkin: borib yotibdi — borib yatibdi boryapti» [2: 141].

Soddalanishning asos va so'z yasovchi qo'shimchaning soddalanishi, asos va shakl yasovchi qo'shimchaning soddalanishi va asos va asosning soddalanishi kabi ko'rinishlari mavjud. Ularning har bir turini «O'zbek tilining etimologik lug'atidan olingan misollar asosida ko'rib chiqamiz.

Asos + so'z yasovchi qo'shimcha:

- «ur+ug' = urug' (ur fe'liga -ug' qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan);
- yaq+in = yaqin («tomon» ma'nosini anglatgan yaq otiga qadimgi vosita kelishigining -in shakli qo'shilishida hosil bo'lgan);
- sav+chi = sovchi (bu so'z «xabar, nutq» ma'nosini anglatgan **sav** otiga -chi qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan)».

«To'nyuquq bitiktoshida «sov», «sab» kalimasi so'z, ran ma'nosida ishlatiladi

«Irq bitigi» («Fol kitobi»)da esa «sab» — so'z, sabchi» — xabarchi, so'z keltiruvchi» ma'nosida qo'llanilgan».

Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atit turk» asarida ham «sav» so'ziga bir necha izohlar keltiradi:

«*ot*W») — otalar soʻzi.

«*q*W») — qissa. Qadimgi voqealardan xabar berish, aytish.

«*h*W») — hikoya. Biror voqeani aytib berish.

«*r*W») — risola. Xat, kichik kitobcha.

«*s*W») — soʻz, nutq.

«*s*W») — ilgari xabarlar, yangiliklarni yetkazuvchi». «Sovchi — kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar eltuvchi», deb yozgan [3: 168].

Bilamizki, sovchilik biror xonadonga voyaga yetgan qizni kelinlikka soʻrab tortish odati boʻlib, bu vazifani soʻzga usta ayollar amalga oshirganlar va xabar yetkazganlar. Misol sifatida quyidagi jummalarga eʼtibor qaratsak: «Sovchini yuborib tinchiy olmadim, ishga qoʻlim bormas va bir joyda toʻxtab turolmas, u yordam turib bu yerga oʻrturar, ming turlik hayol bilan dovdri sifatiga kirgan edim. Yuborgan kishim tezda qayta bermagach, bir ikki bora Saodatlar eshigi yonigʻa borib keldim. Nihoyat, miyam shishib Saodatning uyi yaqinida boʻlgʻan bir yongʻoqning soyasida oʻlturgʻan edim, sovchim chiqib qoldi-ku, yuragim orqamgʻa tortib ketdi. Va oldingʻa tushib yuriy berdim, chunki sovchigʻa uchrashib haqiqatni oqplash ham menga dushvor mushkul kelgan edi.» [4: 201].

Asos + shakl yasovchi qoʻshimcha:

- «oʻgʻul+an=oʻgʻlon (oʻgʻil otiga izzatlash maʼnosini ifodalovchi -an qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan);
- ol+gʻa=olgʻa («old qism» maʼnosini anglatgan al soʻziga qadimda joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi boʻlgʻan -gʻa ni qoʻshish orqali yasalgan);
- *yuq+qaru* > *yuqaru* = *yuqori* («balandda joylashgan» maʼnosini ifodalovchi *yuq* sifatiga joʻnalish kelishigining qadimgi -qaru qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan)». «Bu ishning kengashiga emas, berilgan qarorni amalga oshirib berishlik uchun Yusufbek Hojiga yigit yuborib, hozir uni toʻrt koʻz bilan kutib oʻltirar edi. Nihoyat yarim soatlik bir kutishdan soʻng Yusufbek Hoji eshik ostidan koʻrindi. Azizbek odatiy qarshilash yonigʻa bir navozish ham ilova qilib, hojiga yuqoridan joy koʻrsatdi» [5: 105].

Asos+asos:

«bu+kun=bugun; toʻqqiz+oʻn+toʻqson; ogʻa+ini=ogʻayni;

qora+yogʻoch=qayragʻoch; yoʻl+bars=yoʻlbars;

qayin + aka = qaynagʻa; qayin + ona = qaynona».

Hozirgi kunda biz soʻzlarni asos va qoʻshimchaga ajratishda ikkilanishlarga duch kelamiz. Yuqorida koʻrib chiqqan soddalanish hodisasi bizga soʻzlarning kelib chiqish tarixi boʻyicha oʻrganishimizga, ularning etimologiyasi bilan tanishgan holda toʻgʻri tahlil qilishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q. Sapayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (morfemika, soʻz yasalishi va morfologiya). — T., 2009.
2. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev va boshqalar Hozirgi oʻzbek adabiy tili. — T., 2009.
3. Mahmud Qoshgʻariy. «Devoni lugʻotit turk» 3-jild. —T., 1963.

4. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. –T., 2016.

5. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –T., 2000.



ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA JO'NALISH KELISHIGI

Oydinqulov Olimjon

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek-ingliz tarjima fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy g'azallarida kelishiklarning ifodalanishi, xususan, jo'nalish kelishigi qo'shimchasining versiyalanishi, fonetik variantlari va ularning qo'llanilishi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: jo'nalish kelishigi qo'shimchasi, Alisher Navoiy g'azallari, fonetik variantlar, kelishik qo'shimchalari versiyalati.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы использования падежных конструкций в газелях Алишера Навои, а так же, версии использования окончаний дательного падежа, выявления их фонетических вариантов в контексте.

Ключевые слова: дательный падеж, газели Алишера Навои, фонетические варианты, версии падежных окончаний.

Annotation

The article discusses ways of expressing case endings in Alisher Nava'i's ghazals in particular phonetic versions of dative case endings, and their usage.

Key words: dative case endings, Alisher Nava'i's ghazals.

Buyuk shoir va adib, ulug' mutafakkir olim Alisher Navoiyning adabiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatida umuman tillarda, xususan, ona tiliga munosabati alohida o'rin egallaydi. U deyarli barcha asarlarida o'zining til haqidagi qarashlarini, ona tilini rivojlantirish, uning boyligi va go'zalligi haqidagi, o'z xalqini ana shu tilda yozilgan g'oyaviy-badiiy yuksak asarlardan bahramand etish haqidagi g'oyalarini, fikr-mulohazalarini bayon etadi. Eski o'zbek tilining taraqqiy etishida Alisher Navoiy xizmatlari beqiyosdir. Shoir yashagan davrda eski o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishi qadimgi turkiy til va eski turkiy tilga nisbatan u qadar o'zgarishlarga uchramagan bo'lib, o'sha davr manbalarida, kelishik qo'shimchalarining qo'llanishida bu mushtaraklikni ko'rish mumkin. Xususan, kelishik qo'shimchalarning aksariyati qadimgi turkiy va eski o'zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida yaratilgan yozma yodgorliklar uchun umumiy bo'lgan. Manbalarga nazar tashlasak, XV asr tilida oltita kelishik bo'lib, XIII asrga qadar bo'lgan yodgorliklarda ko'p uchrovchi vosita kelishigi bu davrda qo'llanmagan.

Alisher Navoiy g'azallarida kelishik ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan grammatik unsurlarning ba'zi qadimgi shakllari, fonetik variantlari saqlanganligini, ba'zilarining iste'mol darajasi faol emasligini yoki iste'mol doirasidan chiqqanligini kuzatish mumkin. Shu o'rinda g'azallarda jo'nalish kelishigining fonetik variantlari va ularning qo'llanish o'rni to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

Alisher Navoiy g'azallarida jo'nalish kelishigining -g'a/-ga/-qa/-ka fonetik variantlari bilan o'g'iz dialektiga xos -a/-na shakllari ham uchraydi. Navoiy asarida jo'nalish kelishigi affiksining -g'a/-ga shakli ancha keng qo'llanilgan bo'lib, -qa/-a shakli esa nisbatan kam qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, -g'a variantining unli bilan tugagan so'zlarga qo'shilishi XV asr davrlari tili uchun tipik sanalishi kuzatiladi:

*Zalolat ko'yining mahzunlarig'a,
Jaholat dashtining majnunlarig'a,*

-g'a variantining jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilishi ham tipik sanalgan: *Diyorim ahli birla yordin boshimg'a yuz mehnat* tarzida.

Shuningdek, -g'a varianti g jarangli undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilishi kuzatiladi: *Har tiyra ro'zgorki, vasingg'a yo'l topib* tarzida.

-g'a varianti jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga ham qo'shilgan: *Quyoshg'a gah qizormoq, goh sorg'ormoq erur andin* tarzida.

Misollarning qiyosiy tahlili, -g'a shaklining o'sha davr tili uchun eng umumli variant ekanligini ko'rsatdi.

Bizningcha, -ga varianti ham til oldi unilari qatnashgan so'zlarga qo'shilgan: *Ul quyosh hajrinda bilmonkim, Navoiy ko'ziga* tarzida. Yoki jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilgan: *Bu davr ichida mayi ishqing ichmaganga to'lo* kabi.

Shoir izohlarida -g'a shaklining jarangsiz va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga yonma-yon qo'shilishi kuzatiladi:... *sim muqtazosidin tabiatg'a havo g'olib va havo g'alabasidin tabiat lahvg'a tolib erdi* tarzida. Ayrim o'rinlarda, jo'nalish kelishigining -g'a va -ga formalari ketma-ket qo'llanib, eski o'zbek tilining grammatik xususiyatlarini ko'rsatishga xizmat qilgan:... *mudom may rag'batl ko'ngulga mahbub va hamisha mahbub ulfati xotirg'a marg'ub...* tarzida

-qa qo'shimchasi oxiri q undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilgan: *Jon qushi chiqmoqqa bir yo'l angla har ravzan manga* tarzida. Shuningdek, mazkur qo'shimcha jarangsiz undoshlar bilan tugagan so'zlarga ham qo'shilgan: *O'tqa tushgan qil masallik o'rtanurmen to'lg'anib* kabi.

-ka qo'shimchasining oxiri jarangsiz k undoshi bilan tugagan so'zga qo'shiluvi eski o'zbek tili uchun xosligini misralar misolida ham ko'rishimiz mumkin: *Naylayin malakka bo'lsa mehrobi namoz* kabi.

Eski o'zbek tilida qay hollarda -qa, qaysi hollarda -ga qo'shimchasining qo'shilishini aniqlash birmuncha qiyin, chunki arab yozuvida bu ikki variant ham (kof) harfi bilan yozilgan. Shunga qaramay, jarangli va sonor undoshlar va unilardan so'ng -ga, jarangsiz undoshlardan so'ng -ka qo'shimchasining qo'llanganini fahm qilish mumkin.

-a shaklining undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilishi Alisher Navoiy davri va undan keyingi davrlarda asosan sheʼriy asarlarda uchraydi: *Har uzvum yuz ranj ayon etti xumor kabi*.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy gʻazallari tahlili shundan dalolat beradiki, bu davrda yozma adabiy til taraqqiyotini belgilovchi oʻziga xos boʻlgan oʻzgarishlar yuzaga kelgan. Uning asarlarida qadimdan davom etib kelgan kitobiy yozma til taʼsiri koʻproq uchraydi va ularda qarlugʻ guruhi lahjalarining xususiyatlari ustun boʻlishi bilan birga, oʻgʻuz-qipchoq lahjalariga xos grammatik qoʻllanishlar kuzatiladi. Bu esa Alisher Navoiyning grammatik formalarga ham alohida eʼtiborli boʻlganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. -T.: Oʻqituvchi, 1973
2. http://navoi.natib.uz:8101/uz/badoyi_ul_bidoya_birinchi_tom/debocha/
3. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/erkin-vohidov-alisher-navoiy-harh.html>



OʻZBEK XALQ MAQOLLARIDA «AYOL» LEKSEMASINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Qoraboyeva Xusnidaxon

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti
Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish fakulteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqola oʻzbek xalq maqollarida uchraydigan «ayol» leksemasining lingvistik xususiyatlarini semantik jihatdan tahlil qilishga bagʻishlangan. Oʻzbek xalqida «ayol» ga boʻlgan munosabatlar xalqning urf-odatlariga mutanosibligi jihatidan tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: «ayol» leksemasi, paremiologik birlik, sema, semantik tahlil

Аннотация

Данная статья посвящена семантическому анализу лингвистическому признаку лексемы «женщина», встречающиеся в узбекских народных пословицах. Узбекский народ словом «женщина» передает дух национальных традиций и отношений народа, людей.

Опорные слова: Лексема «женщина», паремиологическая единица, сема, семантический анализ

Annotation

This article is about the analysis of linguistic and semantic peculiarities of the word «woman» in the Uzbek proverbs and some researches based on some national attitudes, viewpoints to the word «woman» in Uzbek language.

Turkiy qabila va urugʻlar tarixiga nazar tashlanadigan boʻlsa, tibetlar otabolalarining erkaklari maymundan, ayollari oʻrmon ruhidan kelib chiqqanligi maqola aytganlar. Enasoy afsonalarida yosh bolalarga bugʻu onalik qilgan[1: 18].

Bundan shu maʼlum boʻladiki, ayol shaxsining paydo boʻlishi haqidagi turkiy xalqlarining qarashlarida ijobiy maʼno ustunlik qilib ayol shaxsi nozik xilqat sifatida taʼriflanadi.

AYOL 1 [a. — oila; xotin] Umuman erkakka qarama-qarshi jinsdagi shaxs; xotin. Bu maʼnoda asosan koʻplik shaklida qoʻllanib, umumlashtirish maʼnosiga ega boʻladi, «xotin-qizlar» maʼnosini bildiradi.

2 Shunday jinsdagi yetuk yoshdagi shaxs (qizga nisbatan).

3 Xotin, rafiqqa (erga nisbatan)[2: 43].

Xalq ogʻzaki ijodining har bir janrida «ayol» bosh gʻoyaviy talqinda namoyon boʻladi. «Ayol» komponentli maqollarimizda oʻzbek xalqidagi milliy mentalitetga xos boʻlgan ayol zotiga qaratilgan munosabat koʻp qirralarda ochib beriladi.

Masalan, «*Ayol degan palaxmon toshi, qayerga otsa shu yerga tushar*». Oʻzbek xalqida azaldan urf-odatlar orasida qoida tusiga kirib qolgan qiz tumushga uzatilgach oʻsha xonadonning bekasiga aylanishi, ota uyiga begona boʻlishi, tumushga chiqqan joyida umrbod yashab qolishi maʼnolari yuqoridagi maqolda oʻz aksini topgan. Yoki «*Ayolning sarishtasi — roʻzgʻorning farishtasi*» maqolida «sarishta» soʻzi semantikasidagi «poklik», «hokisorlik», «ilohiylik» semalari «ayol» soʻziga parallel qoʻyiladi. Oiladagi saranjomlik, pokizalik ayolga bogʻliq, pokiza ostonalarga farishtalar rizq-baraka ulashadi, maqoldagi ilohiy bogʻlanish aynan mana shu oʻrinda koʻrinadi. Sarishta leksemasining kelib chiqishi forscha boʻlib «biror ishni bilish», «habardorlik», «kalavaning uchi» maʼnolarini anglatadi: «ayolning sarishtasi» birikmasiga yuklanayotgan vazifa turmushdagi barcha vaziyatlardan xabardor holatda har qanday ishning kalavasini topa olish va shu orqali oilaning «qutqaruvchi» farishtasiga aylanishdan iborat.

«*Ayolning sunbuli — erkakning dili*» maqolida ayolga xos nozik xususiyatlar koʻrinadi. Tabiatan erkak shaxsiga juda chiroyli, jozibali, hurliqo ayollar yoqadi, ammo maqoldagi «sunbul» leksemasiga xushboʻy, chiroyli gul sifatida qaralsa, maqol tarkibida unga yuklatilgan semalar: ayol nafaqat tashqi chiroy sohibasi, uning ichki goʻzallik sirlari, ayoldagi iffat, malohati, noz-karashma, latofati, ayolning ustalik bilan makr ishlatish etikasi, ayoldan taraladigan hushboʻy ifor erkak shaxsining dilidagi ayolga boʻlgan orzu-intilishining asl mohiyatini koʻrsatadi. Maqolda ayollarni sunbul kabi xushboʻylikka chorlanadi. Ammo hamma erkaklar uchun ham ayolning tashqi goʻzalligi muhim emasligi «*Ayolning husni pardozda emas aqlida*» degan maqolda oʻz aksini topgan. Buyuk Amir Temur katta janglardagi gʻalabasi oldidan rafiqasi tomonidan ruhiy dalda olib jangga kirgani, va bu janglardagi barcha gʻalabalarga erishuvda Bibixonimning aql-idroki katta roʻl oʻynagani tarixdan maʼlum. «*Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin*», «*Ayol soʻm qilar, erkak — chaqa*» kabi paremiologik birliklarning yuzaga kelish asosida ayolning yaxshigina aql sohibasi boʻlishi zaruriyati yotadi. Bu maqollar semantik maʼnoda sinonimlik hosil qiladi.

O'zbek xalq maqollarida «ayol» leksemasida ijobiy semalar ustunlik qiladi. Ammo laqmalik, ko'pgaplik kabi jihatlarni ham ayollarga xos etib ko'rsatilgan maqollar ham uchraydi, jumladan «*Elakka borgan ayolning ellik og'iz gapi bor*». Bu maqolning yuzaga kelish sabablari urf-odatlar bilan bog'lanib ketadi. Bu maqolda nafaqat ayollarning ko'pgapligiga urg'u beriladi, balki o'zbek xalqida qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lik munosabatlarining mustahkamligi ularning elak so'rab borishi bilan belgilanadi. Bu faqatgina ko'chma ma'nodagi birlik hisoblanishi mumkin, ammo tag ma'noda o'ziga xos xususiyat mavjud.

«*Ayolning nozidan qo'rq, ahmoqning so'zidan*» maqolida go'yoki ayollarning noz karashmasi doim ham yaxshilika xizmat qilavermasligi nazarda tutiladi. Masalan, tarixda davlatlar o'rtasidagi urushlar jarayonida josuslik uchun aynan ayollar tanlangan, ular noz- karashmalar orqali har qanday erkakning tilini topib olgan va sirlardan boxabar bo'lib, o'z manfaatlari yo'lida foydalanganlar. Chor Rossiyasi davrida o'zbeklarni ruslashtirish siyosatini yuritgan davrlarda ham ayollar xizmatidan foydalanganligi to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni uchratish mumkin.

«Ayol yerdan chiqqan emas, erkak bolasi,
Erkak ko'kdan tushgan emas, ayol bolasi».

Bu maqol erkak va ayolning tengligiga ishora qiladi, ularning bir butunlikda ekanligini psixologik jihatdan isbotlaydi. Ba'zi xalqlar urf-odatlarida ayolning beva qolishi ayol uchun fojea darajasiga ko'tariladi, hatto ayolning tiriklayin yoqib yuborish holatlari ham kuzatilgan. Qadimda ham arab xalqlarida qiz farzand tug'ilganida ko'mib tashlash, o'ldirib yuborish kabi johiliya davri bo'lgan. Ammo o'zbek xalqida ayolni erkaklarga tenglashtirilishi mana yuqoridagi maqolda o'z aksini topadi, ayollarsiz hayot yo'q ekanligini, erkaklarni aynan ayollar dunyoga keltirganligini isbotlaydi. Bu paremiologik birlik siyosiy jihatdan ham keng tahlil talab qiladi.

«Ayol tilini ayol bilar» maqolida nafaqat o'zbek ayollari psixologiyasi, umuman «ayol» shaxsini juda murakkab psixologik harakterga ega ekanligini ifodalaydi. O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobida ayolga shunday ta'rif beradi «Ayol shunday jumboqlar kitobiki, hali hech kim uni oxirigacha o'qiy olgan emas» deydi. Yozuvchining bu so'zlarining isboti sifatida maqollarimizda ham ayol psixologiyasining murakkabligi, ayol tilini topish murakkab vazifa ekanligini tushunish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek xalqida ayollarga munosabat, jamiyatda ayollarning tutgan o'rni nechog'lik yuqori saviyadaliq xalq og'zaki ijodining katta qismini tashkil etuvchi xalq maqollarida ham o'z aksini topgan va bu maqollardagi semantik mutanosiblik qadim zamonlardan ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan ayolga muhabbat tuyg'ularini bosh o'ringa olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. Samarqand, 2006.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: -T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

2. O'zbek xalq maqollari: -T.: «Sharq» nashriyoti, 2005.



O'SMIRLAR NUTQIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Farida Saidova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 1-kurs magistranti*

Аннотация

O'smirlar nutqi yoshlar nutqidan ancha farqlanadi. O'smirlar nutqida varvar so'zlar, qo'pol so'zlar va chet tili so'zlari ko'p qo'llaniladi. O'zbek tilida o'smirlar nutqi alohida o'rganilishi lozimligi bilan sotsiolingvistik yo'nalishi uchun juda ahamiyatli.

Калит со'злар: Адресант, адресат, argo, ijtimoiy rol, jargon, muloqot, nutqiy akt, nutq birliklari, til birliklari, varvar so'zlar, yoshlar nutqi, o'smirlar nutqi.

Аннотация

Речь подростков гораздо отличается от молодых. В речи подростков много встречаются нецензурные, матершинные, иностранные слова. В узбекском языке, изучения речи подростков имеет отдельное место и поэтому социолингвистическое направление является очень важным.

Ключевые слова: Адресант, адресат, единицы языка, единицы речи, речь понятий, речь подростковых, социальная роль.

Annotation

Adults' speech differs from the youth speech. Varvar, rude and foreign words can be used most in adults' speech. It is urgent for socio-linguistic field to learn individually adults' speech in Uzbek.

Key words: Adults' speech, communication, components of the language, social role, the youth speech.

Tilshunoslikning muhim yo'nalishlardan biri hisoblangan sotsiolingvistika fani shaxs, jamiyat va til munosabatlarini o'rganishni maqsad qiladi. Ushbu sohada o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar anchagina.

Ma'lumki, har bir xalq o'z tarixiga, madaniyatiga, urf-odatlariga ega. Shunga ko'ra har bir shaxsning so'z boyligi shakllangan bo'ladi hamda ular ijtimoiy vaziyatga yoki qaysi ijtimoiy guruhga mansub ekanligiga ko'ra muloqot paytida ko'hlagan til birligini tanlaydilar. Bu fanda ijtimoiy variativlik termini bilan yuritiladi. Bir xil ma'noga ega bo'lgan lisoniy belgilarning shaklidagi, tashqi ko'rinishidagi nomutanosiblikka, har xillikka *variativlik* deyiladi [2: 67].

Shaxslar muloqotga kirishganda o'z ijtimoiy rollaridan, nutqiy aktdan va muloqot sodir bo'layotgan joydan, adresant va adresatning yoshidan kelib chiqqan holda turli xil til birliklarini yoki nutq birliklarini tanlashadi. Adresat va

adrasatning yoshi, ijtimoiy mavqeyi qanday til birliklarini tanlash lozimligini aniqlovchi muhim xususiyatlardan biridir. Masalan, bolalar nutqi bilan yoshlar nutqida qo'llaniladigan til birliklari umuman boshqacha yoki yoshlar va keksalar nutqi o'rtasida ham katta tavofutni ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari o'smirlar nutqi yoshlar nutqidan farqalanadi, chunki yoshlar (18–35 yoshgacha) o'z mustaqil fikriga ega, jamiyatga singib ketgan shaxslardir. O'smirlar (11–17 yoshgacha) esa hali bolalikdan to'la chiqib ketmagan, o'yinqaroq va hayotga boshqacha nigo bilan qaraydigan jamiyat a'zolaridir. Quyida biz o'smirlar nutqiga doir ayrim mulohazalar xususida to'xtalmoqchimiz.

Ma'lumki, yoshlar va o'smirlar nutqi o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Sababi ular jamiyatning eng ilg'or va yangilikka o'ch bo'lgan a'zolaridir. Yoshlar va o'smirlar nutqida neologizmlar, ruscha, inglizcha so'zlar va laqablar ko'p ishlatiladi. Mazkur davr nutqining eng yorqin o'ziga xosligi jargon va argolarning ko'p ishlatilishidir. O'smirlar o'zligini yanada yaqqolroq namoyon qilish va ayrim fikrlarini, subyektiv munosabatlarini o'qituvchilardan yashirish uchun jargon va argolar ishlatadilar.

O'smirlar jargonining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular katta yoshdagi kishilarning tayyor jargonlaridan foydalanmaydilar. Jargonlarni o'zlari yaratadilar. Bunda o'quvchilar ko'p ishlatadigan so'zlarga, reklamalardagi, urf bo'lgan qo'shiqlardagi, komik guruhlarining nutqidagi leksik birliklarga murojaat qiladilar: *zi-zi bormi, kango qani, ummon, boyvachcha* kabi [1: 24].

Hozirgi kunda, ayniqsa turli xil komik guruh vakillari nutqlaridan foydalanishadi. Har mavsumda yangicha so'zlar paydo bo'ladi. Shunday guruhlardan «Million», «Dizayn», «Comedy club», QVZ o'yinlari va boshqalar. Masalan, *makke — buyoqqa kel, unutivoringiztar — unutinglar, biq-biq — internetda tarqalib ketgan mashhur videodan*. O'smirlar, yoshlar, ayniqsa internet bilan bog'langani uchun ularning asosiy suhbat mavzusi ham, ishlatadigan so'zlari internetga oid tushunchalar va virtual dunyo haqida bo'ladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, o'smirlar qo'pol so'zlarga, varvarizm, ekzotizmga murojaat qilishlari, so'z qo'llashda ehtiyotsizlikka yo'l qo'yishlari ko'p uchraydi. Bu, bizningcha, o'smirlik davri psixologiyasi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Bu davrda o'smirlar psixikasi doimiy e'tiborni talab qiladi. Shuning uchun ular har qanday yo'l bilan ham atrofda gilami e'tiborini qozonish uchun dag'al so'zlar ishlatishlari mumkin. Masalan, *ooo g'isht, nima devong, latta, bashara* va h. k.

Shuningdek, o'smirlar nutqida chetdan kirib kelgan va ijtimoiy tarmoqlarga oid so'zlar ko'plab uchraydi:

Ijtimoiy tarmoq tili: *Hello, Privet, Ha* so'zi o'miga *Da* so'zini ishlatish, *ahaaaaa, hmmm, Ishlar okmi?, Shu gapingga bitta like!, Instagramm malikasi* (instagramm ijtimoiy tamog'iga mukkasidan ketgan qizlarga nisbatan ishlatiladi);

Chetdan o'zlashgan so'zlar: *tak chto..., mejduprochim, voobshe, uje, okay, davay, baby girl, normalny* va h. k. Chetdan kirib kelgan so'zlarni qo'llash ayniqsa shahar aholisi orasida tez-tez ko'zga tashlanib turadi.

O'smirlar ismlarni qisqartirish bo'yicha ham ustasifarangdir. Masalan, yosh qolar nutqida o'z dugonlarini *dugoon*, *o'rtooooq* deb yoki ismlarning oxiridagi *o'lni* yoki bir bo'lakni tushirib talaffuz qilish: *Mastura — Mastuuar, Mohinur, Mohlqul — Mohiii, Farida — Fari* va sh. k. Yigitlar nutqida ham qisqartirish talatlari uchraydi va yigitlar ko'proq bir-biriga laqab qo'yib olishadi. Masalan, *Sardor-Sarik, Shohruh-Shoh, Alisher-Alish, Aziz-Azik* kabi. Laqab qo'yishda esa taqriban bir voqeaga yoki o'sha bolaning xarakteriga, ko'rinishiga ahamiyat berishadi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi kompyuter texnologiyalari akademik litseyining sobiq 303-guruh talaba yigitlari bir-biriga laqablar qo'yib olishgan. Masalan, hind filmlarini yaxshi ko'ruvchi Tommijonga do'stlari hind filmi qahramonlaridan biri *Abhimanyu*, sochlari jingalak bo'lgan Jahongirga *Pushkin*, ko'zi qiyiq bo'lgan *Sardorga Xitoy*, 203-guruh talabasi *Baxtiyorga* she'r yozgani uchun *Shoir*, Asli familiyasi *Toshmatov* bo'lgan *Muhzodni Tomshatov* deb chaqirishadi, guruhdagi bir-birini yoqtiradiganlarga *Layll* va *Majnun* deb laqab qo'yishgan.

Yoshlar va o'smirlar jamiyatdagi barcha o'zgarishlarni amalga oshiradigan shiddatli to'liqin misoli harakatlanishadi. Shu jumladan tilda bo'layotgan o'zgarishlarda ham bu jarayonni ko'rish mumkin. O'smirlar nutq faoliyatida ko'pincha ortiqcha ko'ringan til birliklarini ishlatmaydilar. So'zlarni shartli ravishda buzish, boshqa tillardan so'zlarni o'ziga xos tarzda o'zlashtirish, ba'zan sun'iy ko'ringan til birliklarini ishlatish, so'zlarni qandaydir yangi usulda, o'zgartirib nutqqa olib kirishga intilish yoki adresantlar nutqiga tegishli asosiy xususiyatlar amaladi. Ba'zan erish, notabiiy ko'ringan bu usullar adabiy tilga yangi formulalar, muhsus verbal va noverbal vositalar olib kirishiga ham asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetik jihatdan kuzatilganda, yoshlar nutqi katta yoshli kishilar nutqidan ancha qisqa, keskin, ko'pincha pauzasiz bo'lishi bilan ajralib turadi. Yoshlar va o'smirlar til birliklarinigina emas, balki tovushlarni ham bir muncha qisqartirib qo'llaydilar, buni kundalik muloqotda tez-tez kuzatish mumkin [3: 195].

Yoshlar nutqidagi til birliklarining qo'llanishi o'zbek tilida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi. Uning tarkibidagi o'smirlar nutqi ham o'ziga xos jihati bilan boshqa yosh nutqlaridan ajralib turadi. Yoshlar nutqi o'zbek tilida monografik tadqiqda o'rganilgan. Ammo o'smirlar nutqi alohida yirik planda o'rganilmagan. Nafaqat o'smirlar, balki yoshlar, o'rta yasharlar, keksala nutqidagi til belgilarining o'rganilishi har tomondan muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatdagi har bir kishining nutqida milliylik, davlat tilining qay darajada qo'llanishi aks etadi. Shuningdek, o'smirlar nutqida eng zamonaviy so'zlar, davr yangiliklari, slenglar, o'ziga xos leksemalar, o'ziga xos talaffuzlar ko'plab uchraydi. Shuning uchun ham o'smirlar nutqidagi til birliklarining o'zgarib borish darajasini, o'smirlarning ijtimoiy roliga qarab nutqiy odatlarni qo'llashini o'rganish sotsiolingvistikaning muhim masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonova M., Abdullajonova M. Inson yoshining uning nutqida aks etishi xususida ayrim mulohazalar// Universitet talabalarining ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. - T.: «Lesson press», 2017.

2. Qurbonova M. Sotsiolingvistika: O'quv-uslubiy majmua –T.:, 2016.

3. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз... дис.
- Самарқанд, 1993.



AVTOMOBIL NOMLARI NIMANI BILDIRADI?

Sattorova Gulmira

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 301-guruh talabasi*

Annotatsiya

Maqolada avtomobil nomlarining qanday ma'no bildirishi, nima maqsadlarda qo'llanishi haqida misollar bilan keltirilgan. Qator manbalar orqali avtomobil nomlarining o'zbek va boshqa tillardagi ma'nolari tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar: atama, so'z, leksema, avtomobil.

Annotation

The meaning of automobile's names, the aims of these names, usage are written with clear examples in this article. We explained the meaning of automobiles in our country and foreign countries by examples.

Key words: term, automobile, leksema, word.

Аннотация

В статье рассматриваются название и значение автомобилей, а также приведены примеры с какой целью они применяются. Сопоставляются значения названий автомобилей в узбекском языке и в других языках.

Ключевые слова: слова, термин, лексема, автомобиль.

Hozirgi zamon rivojlangan jamiyatni transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki transport har qanday ishlab chiqaruvchi kuchning ajralmas tarkibiy qismi. Ayniqsa, bugungi kunda transportlar sirasida aholining barcha qatlamlarida keng qiziqishga sabab bo'layotgan yengil avtomobillar soni tobora ko'payib bormoqda. Ulardan har birining nomlanishi ham turlicha. «Captive», «Tico», «Lasetti», «Malibu», «Prado», «Damas», «Orlondo», «Epica» va h. Bu nomlarni har kuni nutqimizda ishlatamiz-u, qaysi tildan olingani, qanday ma'noni anglatishini o'ylab o'tirmaymiz. Ba'zan suhbatlarda bu nomlar haqida bahslar bo'lib turadi, ammo aniq ma'lumotlar aytilmagach, suhbat oqimi boshqa yoqqa burilib ketadi.

Izlanishlar natijasida shunga amin bo'ldikki, mazkur atamalar faqat avtomobillarni nomlash uchungina qo'llanmas, balki boshqa ma'nolarni ham anglatar, boshqa narsalar uchun nom vazifasini bajarar ekan.

Avtomobil — «avto» + lotincha «mobilis» — qo'zg'aluvchi, harakatlanuvchi degan ma'noni bildiradi.

Barcha avtomobillar o'ziga xos logotiplarga ega. Mamlakatimizda yetakchilik qiladigan Chevrolet avtomobillari esa xochga o'xshash logotip bilan

toʻliqli. Bu belgi aslida kapalaknusxa galstuk shaklidan olingan. U «boylik va adolatlarga mansublik» degan mazmunga ega. *Chevrolet* soʻzining oʻzi esa kompaniyaga asos solgan sobiq avtopoygachi shveysariyalik Lui Chevrole familiyasidan olingan.

Maʼlumki, mamlakatimizda «Malibu» avtoulovi mashhur. U qulayliklarga ega eng hashamatli avtomobil turi. Malibuning koʻrinishi juda chiroyli, shuning uchun mamlakatimizda keng urfda, koʻpchilikda havas uygʻotayotgani tabiiy. Aslida, malibu soʻzi — koʻplab narsalarning atamasi.

Avvalo, *Malibu* — shahar nomi. U AQShning Kaliforniya shtatidagi Los-Anjelos okrugining gʻarbida joylashgan. Malibu shahri sarhadi Tinch okeanining 43 chaqirimini qamrab oladi. Issiq iqlimi bilan mashhur, plyajlari bor, shuningdek, koʻpchilik Hollivud yulduzlari yashaydigan joy sifatida tanilgan. Qadimgi Malibuda Amerika hindulari yashashgan. Hindu tillaridan biri boʻlgan chumash tilida joy nomi «chumalivo» («poʻrtanalar baland shovullaydi») deyilgan. Bugungi zamonaviy nom shu soʻzdan kelib chiqqan. Shuningdek, spirtli ichimliklarning bir turi ham borki, uning nomi ham Malibu deb ataladi. Ichimlik Barbados degan joyda ishlab chiqarilgan. Ichimlik kokos va palmalardan tayyorlanadi. Tarkibida 21% spirti bor. Brendning egasi — Pernod Richard ismli shaxs. Ichimlikni ichish ilk bor 1980-yilda Kyurasaoda boshlangan.

Cobalt bu atama, avvalo, avtomobillar uchun nom vazifasida qoʻllanadi. U «Cobalt Networks» kompaniyasida ishlab chiqarilgan. Mendeleev davriy sistemasida shu nomdagi element ham mavjud. Bu kimyoviy elementning atom ogʻirligi 27(3). Davriy jadvalning 9-guruhiga mansub boʻlib, SO belgisi bilan ifodalanadi. Oddiy narsalarda oq, kumush, och sariq metall yoki koʻk suyuqlik koʻrinishida boʻladi. Open Cobalt birikmasi — brauzer nomi. U aloqaga kirishish uchun uskunalar toʻplami yaratish va virtual dunyoga tarqatish, lokal tarmoq va Internet orqali yigʻish, tarqatishda vositachi hisoblanadi.

Tico — ixcham avtoulov. Oʻzbekistonda «Asaka» zavodida ishlab chiqarilgan. «*Tico*» soʻzi ispanchadan tarjima qilinganda «omad», «zoʻr» degan maʼnoni ham bildiradi.

Lacetti avtomobillarning komrakt sinfiga kiradi. Janubiy Koreyaning General Motors Daewoo kompaniyasida yaratilgan. Hozir ushbu avtomobilni ishlab chiqarish Oʻzbekiston va Xitoyda davom etmoqda. *Lacertus* lotin tilidan olingan, «baquvvat», «kuchli», «yosh» degan maʼnolarni bildiradi.

Damas atamasi kasalxonalar uchun qoʻllangan. Hattoki, Fransizco Paz Cabrera 1863-yilda tashkil yetgan kasalxonasiga shu nomni bergan. Bu joy «Damas» kasalxonasi nomi bilan mashhur boʻlgan. Bundan tashqari bu atama Maos Abdumur pastligida joylashgan Eriteriyadagi mavsumiy daryoning nomini ham bildiradi. Shu yerda yashovchi aholi uni «Maos Abdumur» ham deyishgan.

Prado fransuzcha «jamiyat» degan maʼnoni bildiradi. Bu atama avtomobillar uchun nom vazifasida ham qoʻllanadi. Ushbu avtomobil oʻzining katta, chiroyli va qimmatligi bilan ajralib turadi. Prado — nomli muzey ham

bo'lib, bu so'zni ispanchadan tarjima qilganda «milliy muzey» degan ma'noni bildiradi. Yevropa san'atidagi katta va mashhur muzeylardan biri. U Ispaniyaning Madrid shahrida joylashgan. Muzeyning binosi eski klatsizni an'anasi bo'yicha bezatilgan. Rim Katolik cherkovida «Prado» nomli jamiyat tuzilgan. Uning ruscha nomi «Obshestvo prado» deyiladi. Fransuzchada «Prado jamiyati» ma'nosini anglatgan. Bu jamiyatga Antuanom Shevrierm tomonidan 1856-yil 25-dekabrda bal o'tkaziladigan zalda asos solingan.

Epica — mashhur avtomobillardan biri. Bu epica so'zining birinchi ma'nosi Epica «changal» degan ma'noni ham bildiradi. Bu so'z Amerikada boshqa ma'noda ham qo'llanadi. «Epica» nomli guruh bor bo'lib, ushbu guruh 2003-yil 3-martda tashkil topgan. Ularda yana Rok opera ham mavjud bo'lib, u ham «Epica» deb nomlangan.

Orlando — inglizcha «maydon» ma'nosini bildiradi. Ushbu avtomobil O'zbekistonda Xazorasp tumanidagi avtomobil zavodida ishlab chiqarilmoqda. Orlando nomli shahar ham bor, u AQShning Florida shtatida joylashgan. «Orlando» nomli roman ham mavjud bo'lib, u Amerikalik yozuvchi Virginiya Vulf qalamiga mansub. Ushbu roman satirik-modernistik uslubda ingliz tilida yozilgan. Roman 1928-yil 11-oktabrda nashr qilingan. Robert Filipp Orlando 1958-yilda tug'ilgan. Amerikada 1980-yilda tashkil topgan ibodatxonada «korol Hi-NRG» arkestrining prodysseri. Silvio Orlando 1957-yil 30-iyunda tavallud topgan. Italiyaliklarning eng sevimli aktyorlaridan biri.

Nexia yengil avtomobillar turiga kiradi. Ushbu mashina Andijon viloyatida joylashgan «Asaka» zavodida ishlab chiqariladi. Bugungi kunda bu avtomashinaning Nexia II va Nexia III kabi rusumlari yaratilgan. Nexia so'zi lotincha «an'analar davomchisi» degan ma'noni bildiradi.

Matiz — yengil, qulay mashina. U «Asaka» avtomobil zavodida ishlab chiqarilgan. Qulayligi bois ko'pchilikda qiziqish uyg'otgan. Ispaniyaliklar uni «nyuans» ya'ni «nozik farq», «so'z ma'nolarining sezilar-sezilmas farqlari» deyishadi.

Spark umidlilik ramzi bo'lib, inglizcha «uchqun», «shu'la» ma'nosini bildiradi. Bu so'z avtomobil uchun nom vazifasini ham bajaradi. U Chevrolet firmasi mahsulotidir. O'zbekistonda «Asaka» zavodida ishlab chiqariladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, avtomobil nomlarining ma'nolarini o'rganish amaliyot uchun ahamiyatli. Bu tilimizning boyish manbalarini tadqiq qilishga daxldor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z. M. Ma'rufov. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zME nashriyoti 2012, 1-jild
2. D. Mahkamova. O'zbek tili avtotransport terminologiyasi. bitiruv malakaviy ishi, 2012
3. D. Mahkamova. O'zbek tili avtotransport terminologiyasi. «O'zbekistonning innovatsion taraqqiyoti yoshlar nigohida» Respublika yosh olimlar va iqtidorli talabalarining ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T. 2010

1 <http://www.Ziyonet.uz>.

2 <http://www.ru.wikipedia>



«YURAKDON»DAN «YURAKBOYLOG'ICH»GACHA

Shodmonov Shahzod

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Har bir badiiy asar o'ziga xos mavzu va g'oyaga, syujet va kompozitsiyaga, o'ziga xos ta'sir kuchi va psixologiyasiga ega. Shu bilan birga o'ziga xos ifoda shakli – tilga ham. Tilshunoslik fanining lingvopoetika sohasi xuddi mana shu badiiy asar tilini o'zlashtirishga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: okkozionalizm, yurako'nglagich, yurakkush, yuraktugun, yurakdosh, yurakparast, yurakilgich, suvyurak.

Аннотация

Каждое художественное произведение имеет свою тему и идею, сюжет и композицию. А также оно обладает своей воздействием и психологией и своим жанром выражения. Лингвопозтика, являясь одним из направлений предмета лингвистики, направлено на изучение языка такого же высказанного художественного произведения.

Ключевые слова: оккозионализм, юракунплагич, юраккуш, юрактугун, юракдони, юракпараст, юракилгич, сувюрак.

Badiiy asar tili haqida gap ketganda, bugungi kunda tilshunoslik fanida keng rivoj topayotgan lingvopoetika va asar tiliga lingvopoetik yondashuv masalasi tilga olinadi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlil qilishda, asar tilida qo'llanilgan fonetik-fonologik, leksik va grammatik sathlarda uchraydigan muayyan maqsad bilan qo'llaniladigan poetik hodisalarga alohida e'tibor qaratiladi. Badiiy til ta'sirchanligini, asar jozibasini orttiruvchi poetik vositalar muvoqafatli. Ana shu vositalar ichida okkozionalizm deb ataluvchi muhim bir hodisa bor. Tadqiqotchilar muallifning til sezzisi, so'z ruhini ilg'ash iqtidori va insonga xos oniy holatlarni payqab, uni asliday tasvirlash mahorati haqida fikr yuritganlarida shu vositaning namoyon bo'lish tarziga ahamiyat beradilar. Okkozionalizmga badiiy til mutaxassislari shunday ta'rif beradilar: «Okkozionalizm — mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan, faqat shu mutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual uslubiy neologizm» [1, 99]. Bu hodisaning bugungi kun zamonaviy she'riyatimizda, ayniqsa, faol ekanligi kuzatish mumkin. So'zimiz isboti sifatida yangicha she'riy shakllar va mantiqiy kashfiyotlari bilan zamonaviy o'zbek she'riyatiga hissa qo'shib kelayotgan xorazmlik shoira Go'zal Begim ijodiga nazar tashlasak. Shu o'rinda shoira

huqida qisqacha: Go'zal Begim Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanida tug'ilgan Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU), Moskvada Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot instituti qoshida tashkil etilgan Oliy adabiyot kursini tamomlagan. Turli xalqaro she'riyat festivallari ishtirokchisi. Shoiraning «Sukunat jarangi», «Uchayotgan yaproq soyasi», «Majnunsoat» kitoblari chop etilgan.

Biz ushbu maqolada Go'zal Begimning «Majnunsoat» nomli to'plamidagi yurak so'zi bilan bog'liq okkozionalizmlar ustida fikr yuritmoqchimiz.

- qop-qora yaproqlar
- hammasi emas
- qanddon
- guldon
- yurakdon
- hammasi sig'ishi kerak
- nafas tasviriga... [3, 36]

Ma'lumki, yurakdon — yurak so'ziga -don qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Atoqli tilshunos Azim Hojiyev mazkur affiksning qo'llanilish imkoni haqida shunday ta'rifni keltiradi: «-don. Bu affiks asosdan anglashilgan narsa saqlanadigan predmetni bildiruvchi otlar yasaydi: kuldon, siyohdon, tuzdon...» [1, 49]. Olim, ayni o'rinda, -don qo'shimchasini so'z (ot) yasash vazifasini butunlay yoki deyarli to'xtatgan qo'shimchalar qatoriga kiritgan.

Ammo ko'rib turganingizdek shoira bu qo'shimcha orqali yangi so'z yasamoqda. «Yurakdon» dan «yurak solib qo'yiladigan idish» ma'nosini anglash mumkin. Balki, ijodkor bu so'zni «inson» ma'nosida qo'llagandir. Yurakdon qanddon va guldon so'zlari qatorida sanalmoqda. Qand shirin ta'mga ega. Gulda esa go'zallik bor. Yurak ham qanddek shirin, gul kabi go'zal va nozik demoqchidir, balki, shoira. Yana yurakni ham qand kabi yeb bitirish mumkin yoki yurak ham qachondir guldek so'ladi. Agar yurakdonni inson deb olsak-chi? Qanddon qand solib qo'yilsagina ko'rkli. Bo'sh qanddonga kim ham qarardi? Guldon ham guli bilan go'zal. To'g'ri, qanddon ham, guldon ham billurdek tovlanib tashqi go'zalligini namoyish etishi mumkin. Biroq ularning asl mohiyati bu emas-da. Yurakdon — inson ham xuddi ular kabi faqat ichida yuragi bo'lgandagina o'z mohiyatiga ega bo'ladi.

Qumparchalar — javdar xatlarim

Qumparchalar — yurako'nglagich... [3, 47].

Bu o'mida ham yurak va o'nglagich so'zlaridan yurako'nglagich ko'rinishidagi neologizm hosil qilingan. O'nglagich so'zi o'nglamoq fe'lidan yasalganligini hisobga olgan holda shu fe'lga izoh berish kerak. O'nglamoqni to'g'irlamoq, yo'nalish bermoq yoki qayta yo'lga qo'yimoq (Masalan: U ishini o'nglab oldi.) ma'nolarida ishlatish mumkin. O'nglagich esa shu vazifalarni bajaruvchi subyekt. Yurako'nglagich nega qumparchalar bilan qiyoslanayapti? Yuqoridagi parcha «Qummaktublar» she'ridan olinganligiga va «3-maktub»

bo'limi «sahroyi so'z...», deb boshlanishiga e'tibor bersak, savolning javobini qanday bo'lamiz. She'r nomi «Qummaktublar». Demak, har bir maktub bitta qumparcha. Qumparchalar esa yurako'nglagichdir.

Maktublar sevgi haqidami, hijron haqidami, umuman, ularga dil hasratlari bildirilgan. Va bu bitiklar har safar o'qilganda yurakni o'nglab — to'g'ri yo'lga olib turadi. Qumparchalar, balki, sahroyi so'zdir. Sahro kabi quruq so'z emas, sahro kabi olovlangan so'z. Sahro suvga tashna bo'lgani singari haqiqatga tashna so'z...

«Sahroyi» deyilganda ko'pincha taraqqiyotdan yiroq, omi odamlar tushuniladi. Va aksariyat o'sha jaydari insonlarning ko'ngli pok bo'ladi. «So'z» ga nisbatan «sahroyi» sifatini qo'llash shuning uchun kerak bo'lgandir. Nima bo'lganda ham «qumparchalar — yurako'nglagich».

- hislar uyum-uyum
- ko'nglim uyum-uyum
- qayrilib qaraydi yurakkush yo'lak
- umrimning eng issiq sohillarida
- girdob gurillaydi
- ilinj qora ko'z [3, 51].

«-kush qo'shimchasi padarkush, xudkush kabi so'zlar tarkibida mavjud bo'lib, bu so'zlar fors tilidan kirib kelgan. Bu so'zlardan birinchisi «ota qotili», ikkinchisi «o'zini o'ldirgan» ma'nolarini beradi. Demak, yurakkush — bu «yurakni o'ldirgan», «yurakning qotili» deganidir. Nega aynan «yurakkush yo'lak?» Yo'lak eslandimi, yo'l, kutish, intizorlik ham yodga tushishi tabiiy. Yo'lakka tikila-tikila hislari uyum-uyum, ko'ngli uyum-uyum bo'lib, ko'pirib, pishqirib oxiri «portlab ketgan» lirik qahramonning yuragi. Tasavvur qiling, «qora ko'z ilinj» ingiz bilan «umringizning eng issiq sohillarida» ham siz tikilib o'tgan va oxiri yuragingizni o'ldirgan yo'lak. Endi siz qaramasangiz-da, yo'lak sizga «qayrilib qaragandek» bo'laveradi. Shoira butun intizorligining kuchini bittagina «yurakkush» sifati orqali ifodalay olgan.

Yo'qdir yuraksoz yo'q dil chegallovchi

Yo'qdir Xayon degan suvyurak shahar...[3, 57].

Yurak va -soz qo'shimchasidan yasalgan okkozionalizm. «-soz. Bu affiks mosdan anglashilgan narsani yaratuvchi, quruvchi, ishlab chiqaruvchi shaxs ma'noli ot yasaydi: aravaso, kemasoz...» [2, 38]. Shu bilan birga -soz qo'shimchasi orqali yasalgan shaxs otlaridan «tuzatib beruvchi» ma'nosi ham anglashiladi: soatsoz — soat yasovchi yoki soat tuzatib beruvchi.

«Yo'qdir yuraksoz» — bu qat'iy hukm. Ya'ni, «yurakni hech kim bunyod etolmaydi, buzilgan yurakni hech kim tuzatolmaydi!»

Suv — tiniqlik, musaffolik, poklik, sharqiroq sho'xlik va shiddat timsoli sanaladi. «Suvyurak» neologizmining suv qismiga shunday ma'nolar yuklangan deb hisoblaymiz. Ammo suvyurak, deyilganda kimningdir xayoliga «qo'rqqoqlik» ham kelishi mumkin. Bunga sabab tilimizda «quyonyurak»

birikmasining mavjudligidir. Yoki odam qoʻrqib ketgan vaqti «yurgim shir (shu shigʻ) etib ketdi» iborasi ishlatiladi. Iborat tarkibidagi shir etmoq (shirillamoq) feʻli ham suvni yodga tushiradi. Yuqoridagi misralarda shoira suvyurak sifatini Xayon shahriga nisbatan qoʻllaydi. Shuning uchun uni salbiy boʻyoqdorlikdan yiroq deb hisoblaymiz. Chunki Goʻzal Begimning «Xayondagi tungi tun» sheʼri uning bu shaharga nisbatan hech qanday salbiy fikrda emasligini isbotlaydi.

...Bordir yuraktugun hech yechilmagan... [3, 57].

«Goʻzal Begimni misrama-misra oʻqimoq kerak, sheʼrma-sheʼr emas degim keladi mening», deb yozadi Ulugʻbek Hamdam. Biz ham yuqoridagi misrani yolgʻiz berishni xohladi. Balki, uni sheʼrning boshqa misralari bilan qiyos qilganda yanada chuqurroq maʼno chiqarish mumkindir. Ammo nimanidir anglamoq uchun shu bir misraning oʻzi ham yetarli. Shoira «yurakda hech yechilmagan tugun bor», desa boʻlardi-yu, ne sababdir, yana yangi soʻz yasab, yurakning oʻzini tugib qoʻya qoldi. Endi gap yurakdagi tugun haqida emas, aslida eng katta tugun yurakning oʻzi ekanligi haqida boradi. Yuraktugun soʻzini ham maʼnoviy, ham shakliy jihatdan original neologizm deb atay olamiz.

Hijron koʻzlarinda quyma dilpardoz
Bahor yuragimda donishmand naqqosh
Qirmizi yurakdosh qaltirar koʻnglim
Izimda buralar
Bir yuvvosh
Koʻz yosh.

«-dosh. Asosdan anglashilgan narsaga bir xilda ega degan maʼnoli sifat yasaydi: maʼnodosh, qofiyadosh...» [2, 74]. Yurakdosh degandagi maʼno koʻpchilikka qiyinchiliksiz tushuniladi. Bu oʻrinda biz uchun birlamchisi shaklning yangiligidadir. Tilimizda tuygʻudosh, darddosh singari soʻzlar mavjud edi. Va ular kimningdir tuygʻusi yoki dardini boshqa bir kishi ham his eta olishini ifodalaydi. Biroq maʼlum bir tuygʻu, dardning emas, butun bir yurakning oʻxshash boʻlishi...

«qirmizi yurakdosh qaltirar koʻnglim», deganda shoira yurak bilan koʻngilni alohida-alohida qilib qoʻygandek boʻladi. Aslida ham koʻngil yurakdosh boʻlishi mumkin-u, har narsani tusayveradi. Yurak esa odil.

Qaygʻuga koʻz suzgan qari qizman men
Umid minib turar uchar otini
Ayol haykalchalar yurakilgichdan
Eritib oqizar mum muhabbatni [3, 63].

«...shoira oʻz badiiy ummoniga shunchalar teran shoʻngʻib ketadiki, ortidan izma-iz kelayotgan oʻquvchi unga yetolmay yoʻlini yoʻqotadi. Natijada shoiraning oʻzidan boshqalarga anchagina mavhum boʻlgan satrlari qogʻoz yuziga sizib chiqadi» (U. Hamdam). Men ham yuqorida keltirilgan misralarni izohlashga ojizman. Muhimi, u yerda ham yangicha shakldagi, yangicha maʼnoli soʻz bor — yurakilgich.

Bo'ysunmas hech menga o'y-xayollarim. Ular tutqich bermas yurakpurastlar [3, 70].

«purast. Asosdan anglashilgan narsa hodisaga berilgan, unga e'tiqod qiyuvchi shaxs ma'nosidagi ot yasaydi: mansabparast, butparast» [2, 39]. Yurakpurast o'y-xayollar. Ular faqat yurakka e'tiqod qilishadi. Yurakka itoat qilishadi, yurakning amridan chiqishmaydi. Haqiqiy ijod kishisining o'y-xayollari yurakparast bo'ladi.

Kundalik nafas, kundalik sog'inch, kundalik azob, kundalik tuyg'ular muqannog'i, kundalik yurakboylog'ich — mana nasibamning to'kilgan uvoqlari [1, 79].


Ko'zboylog'ich nima ekanini bilasiz. Ko'zingizni mato bilan bog'lashadi-da, o'zlari qochishadi. Tutqich berishmaydi, chalg'itishadi. Ko'zboylog'ichlik — Aslida haqiqat bo'lmagan narsalarni sizga ko'rsatib, go'yoki sehr qilishadi.

Shoira yurakboylog'ich neologizmini bejiz o'ylab topmagan. Yana «kundalik yurakboylog'ich». Har kuni qanchadan-qancha odamlar yuragingizni bog'lab qo'yishadi-da, o'zlari qochishadi, tutqich berishmaydi, chalg'itishadi. Yoki yurakboylog'ichlik qilib soxta mulozamatlar, soxta xushomadlar, soxta lutf ko'rsatishadi.

Xulosa qilib aytganda, Go'zal Begim o'z she'rlarida siz nomini topolmay yurgan tuyg'ularingizni, til ojizlik qiladi deb o'ylayotgan narsalaringizni anashunday ochorli va yangi so'zlar bilan ataydi. Eng muhimi u neologizmlarni tilimizning o'z ichki imkoniyatlari asosida yaratadi. Ehtimol, Go'zal Begim she'rlari ko'pchilik uchun anglanishi qiyindir, u yaratayotgan shakllar va so'zlar tilshunoslik nuqtayi nazarida juda qadrlı.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma'rufjon Yo'ldoshev. «Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari». –T.: «Jann», 2007.
2. Azim Hojiyev. «O'zbek tili so'z yasalishi». –T: «O'qituvchi», 1989.
3. Go'zal Begim. «Majnunsoat». –T.: «Akademnashr», 2012.



KISHILIK OLMOSHLARINING DEYKTIK XUSUSIYATLARI

Sobirova E'zoza

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti magistranti*

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tilshunosligida deysis hodisasi, olmoshning deyktik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Olmoshlarning deyktik xususiyatlari misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: *deysis, semantik xususiyat, deyktik birliklar, ishora, ustama ma'no.*

Annotation

The article deals with event deixis in Uzbek linguistics, deixistic features of pronouns. Deixistic features of pronouns are shown on the basis of examples.

Key words: *deixis, significant feature, deixistic units, hint, add meaning.*

Аннотация

В статье рассматривается дейкسيس в узбекском языкознании, дейктические особенности местоимений. Дейктические особенности местоимений освещаются на примере.

Ключевые слова: дейкسيس, семантическая особенность, дейктические единства, указание, дополнительное значение.

O'zbek tilshunosligida olmoshlarni o'rganish bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishilgan. M. A. Asqarova, H. Komilova, I. Suyarov, S. Nizomiddinova, A. Ahmedov, B. Yusufov, Q. Usmonov, S. Muhamedov, M. Hamroyev kabi olimlarning bu borada olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir [1, 9]

Ma'lumki, olmoshlar haqida so'z yuritilganda, ularning mavhum, umumlashgan ma'nolarni ifodalashi va turli so'z turkumlari o'rnida almashib o'rinbosar so'zlar vazifasini bajarishi haqida to'xtab o'tiladi. Olmoshlar oddiy o'rinbosar so'zlar emas. Gap ichida ot, sifat, ravish, ba'zan so'z birikmasi va gap o'rnida qo'llana oladigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'z turkumi olmosh deb ataladi [10]. Ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, shu xususiyatlar asosida ular yagona turkumga birlashadilar. Bu xususiyatlar olmoshlarning semantikasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Olmoshlar, jumladan, kishilik olmoshlarining semantik xususiyatlari tilshunos olimlarimizning e'tiboridan chetda qolib kelyapti. Xususan, olmoshlarning deyktik xususiyatlari borasida tadqiqotlar kam.

Ma'lumki, XX asming ikkinchi yarmidan boshlab jahon tilshunosligida deyksis (grekcha «deixis» so'zidan olingan bo'lib, ko'rsatish, ishora ma'nosini anglatadi. [11]) hodisasi tilning barcha sathlari doirasida amal qiluvchi universal kategoriya sifatida o'rganila boshlandi. Til birliklarining kontekst, nutq vaziyati bilan bog'liq pragmatik jihatini o'rganishga e'tibor kuchaygach, deyksis muammosi pragmatikaning tadqiq obyekti sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Deyksis nazariyasi yuzasidan olib borilgan ilk tadqiqotlar ichida J. Layons, R. Yakobson, Ch. Pirs, A. A. Ufimseva I. A. Sternin, I. V. Shmatova, Y. D. Apresyanlarning ishlari alohida o'g'rin tutadi. Ularning ishlarida tilning deyktik birliklari kontekst bilan bog'liq ravishda o'rganilib, pragmatik tadqiq obyektiga aylantirildi. Bu qarash deyksis muammosi tahlili yuzasidan olib borilgan keyingi yillardagi tadqiqot ishlarida ham rivojlantirildi [12, 15].

Hozirgi kunda tilshunoslikda til birliklari yoki boshqa belgilar orqali kommunikativ muloqot ishtirokchilari, muayyan voqelik, u amalga oshirilgan vaqt, o'rin kabilarga ishora etish deyksis hodisasi sifatida, bunday ishora birliklari esa deyktik birliklar tarzida talqin etilmoqda.

O'zbek tilida shaxs deyksisi ko'pincha kishilik va ko'rsatish olmoshlari orqali ifodalanadi.

Kishilik olmoshlarining deyktik ma'nosi — bu ularning sof ishora qilish xususiyatidir.

Sof ishora qilish jarayonida ikki element: deyktik belgi va referent ishtirok etadi. Bu o'rinda

deyktik belgi olmoshining o'zi bo'lsa, referent ishora qilinayotgan obyektни bildiradi. Kishilik olmoshlarining deyktik ma'nosida esa deyktik belgi ham, referent ham kishilik olmoshining o'zidir.

Kishilik olmoshlari deyktik jihatdan tahlil qilinganda ularni quyidagi semalar bo'yicha o'zaro qarama-qarshi qo'yib tekshirsa bo'ladi:

1) **nutq jarayonidagi ishtiroki** nuqtayi nazaridan:

- men (kamina, faqir, qulingiz) olmoshidagi «so'zlovchi» semasi «tinglovchi» va o'zga»

semalariga; sen (siz) olmoshidagi «tinglovchi» semasi «so'zlovchi» va o'zga» semalariga;

- u olmoshidagi «o'zga» semasi «tinglovchi» va «so'zlovchi» semalariga nisbatan, ya'ni

shaxsda ziddlik munosabatini ifodalaydi.

2) «birlilik» va «ko'plik» semalari bo'yicha ziddiyat hosil qiladi:

- men va biz;

- sen (siz) va siz (sizlar);

- u va ular;

3) II shaxs birlikdagi tinglovchi yoshga nisbatan murojaat semalari bo'yicha ham o'zaro ziddlik munosabatida bo'ladi.

- sen (kichiklarga murojaatda)

- siz (kattalarga murojaatda).

Kishilik olmoshlari uslubiy xususiyatlariga ko'ra quyidagi deyktik ma'nolarga ega:

• «biz» («men» o'rnida qo'llanganda)

✓ kamtarlik: Biz esa taxmin qiluvchi ojizmiz... (T. Malik)

✓ o'zini ta'kidlash: Biz-da shu ko'ngillarni zabt etgan dilgir! Yo shubhadamisiz? O'tkir Hoshimov)

• «sen» olmoshi

✓ o'ta darajada yaqinlik (Allohga nisbatan): Sen har narsaga qodirsan! O'zing to'g'ri yo'lga boshlagin! (T. Malik)

✓ kamsitish: Ochiq so'kdi. Sen go'l ekansan, so'tak ekansan!

(X. Do'stmuhammad)

✓ bepisandlik: Osh topsang, idish topolmaysan-u, senga yangi kiyim kiyishni kim qo'yibdi! (Z. Qurolboy qizi)

✓ nazarga ilmaslik (-lar affiksi bilan qo'llanganda): Senlarni kim qo'ydi oldimga?! (U. Hamdam)

✓ o'z-o'zini tafiish qilish: Sen nomusingni, oringni, shuncha yillik tarbiyang-u butun hayotingni arzimmas narsaga alishding-a? (S. Vaflo)

• «siz» olmoshi

✓ kuchli hurmat: Sanoqsiz jonlarni turli yo'llar va bir-biriga o'xshamagan sabablar bilan Olgan siz — muhtaram zotga gaplarim balki g'alati tuyulayotgandir (T. Malik)

✓ o'zidan chetlatish: «Siz chiqib turasizmi?» dedi suhbatni bo'lgan Davlatqon (S. O'nar)

✓ ta'kidlash: Baribir siz uning orqasidan borib urgansiz-ku, dadasi! (X. Do'stmuhammad)

• «men»

✓ o'ziga urg'u berish: Sezdim: menga qarashlari o'zgacha. (T. Malik)

✓ aybdorlikni his qilish: Men... men... Men qilganim... yo' o'q... (I. Xushvaqto'v)

✓ gapning ma'nosi tinglovchi uchun muhimligini ko'rsatish: Men hech qaysi qog'ozga tushmagan va tushmaydigan gunohni aytyapman. (N. Eshonqul)

• «u»

✓ gap ketayotgan shaxsning o'zigan yashirilishi: Hmm... U to'g'rida keyin gaplashamiz (Sh. Xolmirzayev).

• «ular»

✓ hurmat: Ular kelishi bilan xonadonimiz nurga to'ladi. (Sh. Bo'tayev)

✓ kesatqi: Ularning o'zlari osmonda-ku! (X. Do'stmuhammad).

Yuqoridagilar shuni ko'rsatadiki, kishilik olmoshlari faqat almashinib qo'llanuvchi oddiy so'zlar guruhi emas. Ularning ham o'ziga xos funksional-semantik xususiyatlari mavjud. Boshqa mustaqil so'z turkumlaridan farqli deydik ma'nosiga va kuchli hurmat, o'ziga zeb berish, mensimaslik, kesatish, kamtarlik kabi ustama qo'shimcha ma'nolarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асқарова М. Олмошлар ҳақида баъзи мулоҳазалар//Ўзбек тили ва адабиёти. 1969. №4;
2. Асқарова М. Кўрсатиш олмошларининг баъзи хусусиятлари//Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1970.
3. Комилова Х. Ўзбек тилида сон ва олмош. – Тошкент, 1953.
4. Суяров И. Местоимение в узбекском литературном языке. Автореф. канд. филол. наук. – Самарканд, 1965.
5. Nizomiddinova S. Ko'rsatish olmoshlari haqida//ToshDU ilmiy asarlari. 1975, 475-chiq.
6. Ahmedov A. Hozirgi o'zbek tilida ana va mana soz'lari//O'zbek tili va adabiyoti. №2.
7. Юсуфов Б. Местоимение в староузбекском языке. (вв.). – Ташкент, 1991.
8. Muhamedov S. Olmoshlarning leksik-morfologik strukturasiining statistik analizi//O'zbek tili va adabiyoti. 1978, №3.
9. Ҳамроев М. Ҳозирги узбек тилидаги кўрсатиш олмошларининг функционал-семантик хусусиятлари. Автореф. фил. фан. номз. – Тошкент, 1996.
10. Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили (Морфемика, сўз ясалиши ва морфология). – Тошкент, 2009.
11. Лингвистический энциклопедический словарь: <http://tapemark.narod.ru/les/128d.html>.
12. Стернин. И. А. К проблемы дейктических функций слова. АКД. М., 1973.

- 1) Шмидтова И. В. Дейксис в системе глагола современного английского языка. АКД. М., 1975;
- 2) Уфимцева А. А. Лексическая номинация (первичная нейтральная) // Языковая номинация (виды номинаваний). М., 1977;
- 3) Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику. Пер. с англ. В. А. Звегинцева. М., 1978.



QIYOSIY TILSHUNOSLIKDA UNDALMALAR POLIFUNKSIONALLIGI

(o'zbek va ingliz tillari misolida)

Suyunova Malika

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek va ingliz tili sohasida ta'lim oluvchi izlanuvchilar, bakalavrlar va magistratura talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda o'zbek va ingliz tillaridagi undalmalar polifunksionalligi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, undalmalarning umumlashtiruvchi va farqli jihatlarini tadqiq etiladi. Undalmalar ma'lum xalqning lingvokulturologik xususiyatlarini aks ettiruvchi birliklar ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: undalma, polifunksionallik, lingvokulturologiya, timsol, nutq, tadqiqot, taqqiqlash, tinglovchi, so'zlovchi

Annotation

The article is for learners, bachelors and masters studying Uzbek and English.

The polyfunctionality of words (address) in Uzbek and English languages are comparatively analyzed in it. As well as, generalized and distinctive aspects of words, which reflect the linguistic and cultural features of people are also explained.

Key words: address, polyfunctionality, linguistic, cultures features, distinctive aspect.

Аннотация

В статье в сфере узбекского и английского языках, предназначенных для молодых исследователей, бакалавров и магистров, проанализированы сопоставления полифункциональности междометий на узбекском и английском языках. В нем отражены толкования обобщенности междометий и их различные аспекты, а также этнические лингвокультурологические свойства.

Ключевые слова: Проанализированы, полифункциональность, различные аспекты, этнические лингвокультурология, исследовательский

Yurtimiz mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng barcha sohalarda taraqqiyot jori ilg'or qadamlar tashlandi. Albatta, bu jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga suyangan holda amalga oshirilib borildi. Aytishimiz mumkinki, mazkur jamiyon yurtimizda xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishning keskin oshishiga sabab

bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimiz uchun xorijiy tillar bo'yicha makol mutaxassislar va tarjimonlarga ehtiyoj g'oyat kuchli. Bu esa o'z navbatida che tillariga e'tiborni yanada kuchaytiradi. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidalganidek, «Yurtimizda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet tili sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'q» [1, 126]. Shuning uchun ham biz tadqiqot mavzuimizni qiyosiy tilshunoslikda olib borishga harakat qildik.

Tilda shunday birliklar borki, ularni o'rganish har bir tilshunoslikda dolzarb muammo hisoblanadi chunki bunday til birliklari bevosita xalqlarning madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Shunday til birliklaridan biri undalmadir.

Malumki, «undalma so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi. Undalma II shaxsga qaratilgan bo'ladi. Undalmaning asosiy vazifasi nutqqa aytilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortishdir. Bu xususiyat undalmaning dialogik nutq uchun xarakterli ekanini ko'rsatadi» [2, 237]. Ushbu mavzu o'zbek tilshunosligida ham, ingliz tilshunosligida ham o'z dolzarbligiga egadir. Tilshunosligimizda undalma bo'yicha R. Sayfullayev 1959-yilda «Hozirgi o'zbek adabiy tilida undalma» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ingliz tilshunosligida ham bunday ishlar amalga oshirilgan.

Undalmaga tilshunoslarning qiziqishining sababi shundaki, undalma nihoyatda murakkab, serqirra sintaktik birlik bo'lib, unda fonetik, leksik grammatik, stilistik va pragmatik belgilar mujassam. Undalmaning polifunksional xususiyatlar tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar uchun (matn lingvistikasi, lingvopragmatika, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot, lingvomadaniy prinsiplar) tekshirish obyektiga aylanoqda.

Erkalash, hurmat, murojaat kabi jarayonlarda undalmalarning xalq madaniyati, turmush tarzi bilan bog'liqlikda vujudga kelishi yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida hayvon kulti bilan bog'liq erkalashlar bisyor va keng istemoldagi undalmalardir (qo'zichog'im, toychog'im, qo'chqorim, arslonim, bo'talog'im) *Arslonim, oy borib omon kel!* («*Alpomish*» dostoni). Ingliz tilida esa bunday undalmalar deyarli uchramaydi. Ammo undalma sifatida atab kelinayotgan shaxs o'zining yoshi yoki ko'rinishi jihatidan sifatloveli aniqlovchisi bilan birga keladi. *Yes, little Sara, it is very beautiful.* (*Burnet* I. «*Little Princess*») Tilshunos olim N. Mahmudovning bu boradagi quyidagi fikrlari o'rinnlidir: «Albatta o'xshatish etalonlarining ayrimlari turli xalqlar hayoti va madaniyatidagi umumiy jihatlarni ham ifoda etadi. Masalan, «*shirinlik*» belgisi rus, ukrain, ingliz, mo'g'ul, hind, o'zbek, turk, qozoq, qirg'iz va boshqa bir qancha shakar, qand etalonlari orqali ta'kidlanadi» [3, b. 57] *My sweetie, let's eat this cake.* (*Carrol L.* «*Alice in Wonderland*») Aytish joizki, har bir tilning o'z mentaliteti, qadriyatlari, muqaddas biluvchi hodisalari, narsalari, hududiy o'ziga

o'z iqlim tabiati bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda har bir tilning o'z xos tabiatlari, iboralari, o'ziga xos bo'lishi tabiiy.

Ikki til doirasida ham undalma bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarning ko'pchiligida uning maqomi haqida gapirilmagan, ammo uning vazifasi haqida bir qancha fikrlar bildirilgan [4, b. 78] Bu fikrlarga ko'ra undalmaning vazifalari quyidagilar:

1. Nutq qaratilgan shaxsni (adresatni) atash vazifasi.

Bolalar, gaplashishni to'xtating!/*Children*, stop talking!, *Bill*, get up!

2. So'zlovchining tinglovchi e'tiborini o'z nutqiga qaratish vazifasi.

Muloqot o'rnatib bo'lingandan keyin ishlatiladigan undalmalarda bunday vazifa bo'lmaydi. Masalan, – Siz, o'zbekmisiz? – Ha, *janob*.

Are you uzbek? – Yes, *ser!*

3. Undalmaning baholash vazifasi. Bunday undalmalar baholash so'zlari, birliklari, ma'lum baholash vositalari bilan yoki baholash ma'nosini ifodalovchi sifatning otlashgan shakllari bilan keladi yoki ifodalanadi: *Hoy yaxshi qiz*, yaqinroq kel, bir-ikki og'iz so'zlayin (H. Olimjon). Good morning, *Your Majesty*. Baholash salbiy ham bo'lishi mumkin yuqoridagi misolimizda ijobiy munosabat ifodalangan edi. Masalan, Nima ish qilib qo'yding, *yaramas?* Get out of my way, *buddy!*

4. Undalmaning perlokutiv (tinglovchiga ta'sir o'tkazish) vazifasi:

Erkinjon, mana buni ko'tarishib yubor. Ushbu misolda ijobiy munosabat ifodalaniib, «jon» erkalash affiksi bilan berilgan. Uni ishlatishdan maqsad so'zlovchining tinglovchiga ta'sir o'tkazish, ya'ni so'ragan narsasini bajarishga ko'proq undashdir. *My honey*, come here. Ijobiy munosabat ifodalovchi undalma ishlatilganda tinglovchining so'zlovchi da'vatini bajarish ehtimoli yuqori bo'ladi. Demak, muloqotda so'zlovchi o'z maqsadiga erishish uchun turlicha ijobiy munosabat ifodalovchi undalma shakllarini yaxshi bilishi va o'z o'rnida ishlata bilishi zarur. Ingiliz tilida esa ijobiy munosabat ifodalovchi undalmani *honey (asal)* so'zi ifodalab kelmoqda aytish mumkinki, bu so'zning erkalash undalmasi sifatida qo'llanishi o'zbek tilida ham keng qo'llanadi. Ijobiy munosabat ifodalovchi undalmalar, ayniqsa, biznesda muhim ahamiyatga ega, ya'ni ular biznesni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

5. Undalmaning nutq qaratilgan shaxsni identifikatsiya qilish vazifasi. Masalan, *Kecha yig'lagan qiz*, menga qarang. *Guy*, sitting in the corner, please stand up (Burchakda o'tirgan yigit, o'ringizdan turing). Bunday undalmalar odatda tarkibida turdosh ot, otlashgan sifatdosh yoki sifat qatnashgan so'z birligini bilan ifodalanadi va ular tinglovchilar ichidagi nutq qaratilgan, ammo ularni so'zlovchiga noma'lum bo'lgan shaxsni ataydi.

6. Undalmaning iltifot va hurmatni ifodalash vazifasi.

Bunday undalmalar odatda yuqori lavozimli shaxslarga, hurmatli kishilarga, elchilarning fuqarolariga murojaat qilinganda ishlatiladi va bunda undalma muayyan

soʻzlar, morfemalar bilan keladi. (Muhtaram, hurmatli, janob, xonim, aka, opa, jon, His/Her Majesty, His/Her Excellency, Dear, Mister, Mistress, Miss va b.

Oʻzbek tilida: Muhtaram onajon, hurmatli ustoz, janob elchi

Ingiliz tilida: Dear friend, Her Excellency Prime Minister, Mistress Jekinson.

7. Undalmaning koʻrsatish (deyktik) vazifasi.

Ayonki, olmoshlar predmet va shaxslarni atash yoʻli bilan emas, balki koʻrsatish yoʻli bilan ifodalaydi. Koʻrsatish vazifasiga ega boʻlgan undalma ikkinchi shaxsdagi kishilik olmoshlari (sen, siz, sizlar, you) bilan ifodalanadi va bunda koʻpincha olmosh oldidan „ey», „hoy», „hey» va b. undov soʻzlar ishlatiladi.

Ey sen, bu yoqqa kel / *Hey you*, come here.

8. Undalmaning his-hayajon ifodalash vazifasi.

Undalmaning bu vazifa ogʻzaki nutqda yaqqol koʻrinadi, chunki bunday undalma alohida intonatsiya va logik urgʻu bilan talaffuz qilinadi. [5, b. 95]

Baloga uchragir, kel tezroq.

My God, Are you okay? (David Robbins)

Undalma tilshunoslikda keng oʻrganilgan mavzulardan biri sanaladi ammo tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, undalmaning maqomi, vazifalari va ayrim jihatlar xususan, lingvomadaniy va madaniyatlararo xususiyatlari yetarlicha oʻrganilmagan. Undalma koʻp vazifali sintaktik hodisa boʻlib, uning ikkala tildagi birlashtiruvchi va farqlovchi belgilarini yuqorida keltirib oʻtdik. Aytishimiz mumkinki, ikki tilda ham undalmani muloqotda tanlash va uni tushunish kommunikantlardan muayyan bilimni talab qiladi. Undalmani nooʻrin tanlash kommunikantlar oʻrtasida ziddiyat tugʻdirishi mumkin. Zero, chet tiling oʻsha tilda gapiruvchi millatning madaniyatini yaxshi oʻrganmasdan toʻliq tushunib boʻlmaydi. Izlanishlarimiz davomida shuni koʻrdikki, inglizzabon xalqlar xizmat xati yozganda asosiy matnni albatta undalma (*Dear, Mister, Mistress, Miss*) bilan boshlaydi. Oʻzbek tilida esa bu holat nisbatan passivroq sanalib, xizmat xatlari toʻgʻridan toʻgʻri murojaat bilan boshlanadi. Aytish joizki bu tafovut ildizlari ingliz va oʻzbek xalqlari madaniyati oʻrtasidagi oʻziga xoslikka borib taqaladi. Zero, undalmalar tili oʻrganilayotgan mamlakat madaniyatining bir qismini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Barkamol avlod — Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. — T. Oʻzbekiston, 1998
2. Gʻulomov A. Gʻ., Asqarova M. A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis. — Toshkent, 1965
3. Mahmudov N, Xudoyberganova G. Oʻzbek tili oʻxshatishlarining izohli lugʻati. T.: 2013
4. Ashurova D. U. Comparative Stylistics: aims and directions. Samarqand, 2007
5. J. Seytjanov. Ingiliz va oʻzbek tillarida undalmalarning qiyosiy tadqiqi. Filol. fan. nomz. dis. T.: 2013

O'ZBEK TILIDA [PIYOZ] LEKSEMASI VA UNING AYRIM HOSILALARI HAQIDA

Tursunov Jo'shqin

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Eshboyev Qahramon

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya

O'zbek tilidagi [piyoz] leksemasi — serqirra hodisa. Uning hosilalarida ma'noviy siljish va y bergan. Sememalari hosilalarida tarmoqlangan bo'lib, ayrim hollarda uzilishlar sodir bo'lgan. Leksemani zamonaviy leksikografik maqsadlarda tahlil qilish zarurati mavjud.

Tuyanch so'zlar: leksema, so'z, semema, sema, leksikografik talqin, milliy korpus

Annotation

«Onion» vocabulary / lexima in the uzbek language is complicated. Their derivations and variant mening displacement. The derivations of sememas classified, sometimes it witnessed stopping. Lexima /vocabulary should be translated with analyzing necessity.

Key words: Lexima–leksema–vocabulary, word, sema, lexicographic interpretation, national corps in the uzbek language

Аннотация

В статье анализируется о некотором особенности лексемы «лук» в узбекском языке.

Ключевые слова: Лексема, слово, семема, лексикографический интерпретация, национальный корпус.

O'zbek tilida [piyoz] leksemasi sabzovot nomlari sirasida alohida o'rin tutadi va tilimizdagi eng faol umumiste'mol so'zlardan. Bu uning kundalik turmushimiz bilan bevosita bog'liqligidandir. Zero, hayotimizda piyoz qo'shilmaydigan suyuq va quyuyq taomlar kamdan kam uchraydi.

[Piyoz] leksemasi o'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan. Leksema tilimizda shugllari naychasimon uzun bo'lib o'sadigan, ildiz bo'g'zida yupqa qat-qat po'stlardan yumaloq tugunak hosil qiladigan, tugunagi va yosh bargi ovqatga ishlatiladigan ikki yillik va ko'p yillik sabzavot o'simligi» ma'nosi bilan o'mashgan.

O'zbek tilida [piyoz] so'zi ishtirok etadigan qator hosila leksemalar ham mavjud: [nishpiyoz], [piyova], [piyozni ansuriy], [sarimsoqpiyoz], [piyozgul], [piyozdog], [piyoz], [serpiyoz], [suvpiyoz], [zirapiyoz], [anzur piyoz], [piskom piyoz], [cho'l piyoz], [ko'kpiyoz], [boshpiyoz] kabi. Bu leksemalarning ma'noviy, tarixiy-etimologik va qo'llanish xususiyatlarini o'rganish natijalari zamonaviy o'quv lug'atlarini yaratish, o'zbek tilining milliy korpusini tuzish uchun ma'lum bir ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mavjud lug'atlardagi ularning leksikografik talqinlariga xos ayrim nuqtalarni takomillashtirish zarurati mavjud. Masalan,

O'zbek tilining 5 jildli izohli lug'atida [no'sh] leksemasining ma'nolari izohlashda [no'shpiyoz] leksemasi ham beriladi va u «kuzda tiqma qilib ekilgan piyoz» deb izohlanadi. So'zning izohidan ham ma'lumki, tiqma qilib ekilgan piyoz nish chiqargan, nishlagan bo'ladi. Shuning uchun ham [nishpiyoz] yuritiladi. Ayrim sheva nutqida u [no'shpiyoz] deb talaffuz qilinishi ham mumkin. Lekin [nishpiyoz] so'zidagi [nish] so'zining [no'sh] (forscha-tojikcha «ichma») leksemasiga hyech qanday aloqasi yo'q.

O'zbek tilida [piyova] leksemasi ham mavjud bo'lib, u bugungi kunda xalqimizda «go'sht, suv, sabzi, kartoshka, pomidor (kabilar) dan iborat qovurilgan asosli suyuq ovqat» ma'nosida qo'llanadi. Guruch solinmasligi bilan mastavajdan qaynatma asosli emasligidan sho'rvadan farqlanadi. Ammo leksemaning etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, aslida taomning butunlay boshqarilish mohiyatga egaligiga, va, shunga muvofiq, [piyova] leksemasining ma'nosi loqib o'zgachaligiga amin bo'lamiz. Buning uchun yana O'zbek tilining izohli lug'atiga nazar tashlash kifoya. [Piyova] leksemasining taraqqiyoti quyidagicha. U dastlab forscha [piyozobi] [piyoz+ob+i] (o'zb. piyoz+suvli) qo'shma leksemasi ko'rinishida bo'lgan. Keyinchalik [piyoba] → [piyova] ko'rinishini olgan. [Piyova] leksemasi aslida «piyozdog' va suvdan tayyorlangan go'shtsiz suyuq ovqat; yovg'on sho'rva» ma'nosiga ega. Misollar: 1. *Tur, qizim! Ha, bir kosa achchiqqina piyova qilginki, ko'nglim ozib ketdi.* Hamza, Tanlangan asarlar. 2. *Mazifa opa esa kunora ayvonda o'choqda bir issiq piyova qiladi.* Sh. Xolmirzayev, Tanlangan asarlar.

[Piyova] so'zining ma'nosi uning izohidagi ikki leksema ma'nosi asosida ochiladi: [piyozdog'], [yovg'on]:

- 1) [piyozdog'] — «yog'da qovurilgan piyoz»;
- 2) [yovg'on] — «go'shtsiz, ziravorlarsiz suyuq ovqat; faqirona suyuq osh».

Demak, [piyova] leksemasining sememasi quyidagi semalardan iborat: «suyuq ovqat», «go'shtsiz», «yog' solingan», «piyozi yog'da qovurilgan». Bunda «yog' solingan» semasini «yog'li» deb bo'lmaydi. Chunki u «seryog'» deyilgan tushunchani anglatib qoladi. Shunday qilib, bugungi kunda o'zbek ongida [piyova] so'zidagi «go'shtsiz», «faqirona» ma'no bo'lakchalari unutilgan va bu farovon turmush tarzimiz bilan bog'liq.

O'zbek tilida [piyozi] degan leksema ham qo'llanadi va bu qo'llanish o'z darajada. Leksemani hatto eskirgan deyish ham mumkin. Bu leksemaning grammatik jihatdan sifat turkumiga mansub. [Piyoz] leksemasi o'zbek tilidan fors-tojik tilidan o'zlashgan. U «piyozga o'xshash», «piyozga oid» kabi tarixiy etimologik ma'nolarga, bugungi o'zbek tilida tamomila boshqa ma'no qo'llanadi. Quyidagi misolga murojaat qilaylik: 1. *Uning boshida Buxoro amaldorlarinikidek o'ralgan doka salla, egnida piyozi movutdan chakmonning oyog'ida sariq kavush-mahsi.* S. Ayniy, Doxunda. 2. *Piyozi chakmonining barini qatimiga qisib, qora baxmal hoshiyali oq qalpog'ini bostirib olgan xushro'y yigit baland paxsadan osilib tushgan behi shoxiga qarab borar edi.* M. Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha. 3. *Saman otliq qamchisini buklab, piyozi chakmonining yoqasi bilan gardan orasiga qistirdi-da, otini qistab, devor...*

qaytishadi M. Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha. 4. *Mulla Fazliddin ho'l bo'lib qaytishgan piyoz chakmoni va etigini dahlizda yechib qoldirdi.* P. Qodirov, V. Abdullatipov. Misollarning barchasi o'tmish voqyeligini aks ettirgan tarixiy asarlardan olingan. Shu bilan birga, ikkinchi muhim bir holat borki, u ham bo'lib, [piyoz] so'zining [chakmon] so'zi bilan kelganligi. Demak, [piyoz] so'zi o'zining rangi bilan bog'liq emas. Chunki bu holda u boshqa kiyimlarga nisbatan ham qo'llangan bo'lur edi. Bizning fikrimizcha, [piyoz] so'zi faqat [chakmon] so'zi bilan qo'llanayotganligi chakmonning to'qilish xususiyati bilan bog'liq bo'lsa kerak. Ma'lumki, chakmonlar tuya, qo'y junidan to'qilgan matodan tikilgan. Ular qalin yoki yupqa bo'lgan. Nazarimizda, yupqa matoli chakmonga nisbatan [piyoz] sifati ishlatilgan [1; 2].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o'zbek tilida [piyoz] leksemasi asosida hosil qilingan til ifodalarning ma'no va qo'llanish xususiyatlarini tadqiq qilish ma'lum bir amaliy ahamiyatga ega, navbatdagi maqolalarimizda bu yo'nalishdagi ishlarimizni davom ettiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов О. А. Костюми народов Средней Азии. – М., 1982.
2. Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1989.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli.



OT FRAZEMALARNING LISONIY XUSUSIYATIGA DOIR

Tursuntosheva Fazilat

*Ushsher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Maqolada frazemalarning grammatik xususiyatlari qalamga olingan. Ularni turkumlarga ajratish masalasi tahlil qilingan. Ot frazemalarning turkumlik belgilari o'zlashtirilgan. Qo'llanish xususiyatlari yoritilgan.

Tuyanch so'zlar: frazema, lison, nutq, ot frazema, fe'l frazema, gap bo'lagi, so'z turkumi

Annotation

The following article enlightens the grammatical features of phraseological units classified. The analysis of classifying them into speech parts are also included. The usage of noun phraseologisms are described in it as well.

Key words: frozem, language, noun frozem, verb frozem, speec, combination of words.

Аннотация

В данной статье выявлены грамматические особенности фразем. Сделан анализ вопроса относительности части речи. Так же в статье описаны действительные фраземы и их использование.

Ключевые слова: Фразема, Лисонь, нутк, от фразема, фе'л фразема, булаг, сўз бирикмаси

Frazeologizmlar lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tabiatiga ega bo'lib, nutqda AHVO sifatida voqelanadi.

Frazemalar nutqda asosan lisoniy ma'nosi bilan ishlatiladi. Shuning uchun birga frazemani yangicha lug'aviy mazmun bilan ishlatish ham uchraydi. Masalan, *chakag(i) ochildi* frazemasi odatda «ko'p ma'ra» (hayvonga nisbatan) «uzluksiz jovra» (kishiga nisbatan) ma'nolarini anglatadi. Yozuvch Oybek frazemani juda ustalik bilan yangi bir hodisa — pulemyotning o'q uzilishi ko'chirgan. Bunday yangicha qo'llash muvaffaqiyatli chiqqan, yozuvchi «uzluksiz o'q uz» kabi yangicha ma'noni ifodalashga erishgan: *Pulemyot chakagi ochilib ketdi*[2, 405].

Frazeologik birliklar quyidagi turkumlarga ajratiladi: ot frazemalar, frazemalar, fe'l frazemalar, ravish frazemalar. Frazemalar sirasida son bo'lmish turkumlariga mansublari uchramaydi.

Ot frazemalar «predmetlik» umumiy semasiga ega, boshqa turkum frazemalariga nisbatan oz, tuzilishi jihatidan esa rang-barang. Bunday frazemalarda, odatda, «predmet» tushunchasi «belgi» tushunchasi bilan birga anglashiladi. Tayanch a'zosi asosan ot leksema bilan ifodalanadi.

Ot leksemalarning grammatik qurilishi quyidagicha:

4. birikmaga teng qurilishli ot frazemalar shaklan sifatlovchili birikma teng bo'lib, «sifatlovchi»si quyidagicha ifodalanadi:

- **sifat:** *sog'in sigir, tiriktovon, xomcho't, o'ng qo'l(i);*

- **son:** *etti pushti;*

- **sifatdosh:** *suyangan tog'(i).*

2) qaratuvchili birikmaga teng bo'lib, qaratuvchi asosan qaratuvchi kelishigining belgisiz shaklida bo'ladi: *umr savdosi, umr yo'ldoshi, qalam haqida umrning egovi.*

3) holli birikmaga teng bo'lib, o'rin hollovchisi qatnashgan: *kosani tagida nimkosa.*

Ot frazemaning sintaktik qurilishi gapga teng bo'lib, tayanch a'zosi fe'l leksema bilan ifodalanadi, tarkibida vositasiz to'ldiruvchi qatnashadi: *patirusha supraoqdi.*

Yuqoridagi tasvirlardan ayonki, frazeologik birlikning qaysi turkumga mansubligi iboradan bir butun holda anglashiladigan «turkumlik» semasi asosida belgilanadi. Frazeologik birlikning leksik tarkibi, grammatik shakllanishi ikkilamchi belgilar sifatida hisobga olinadi. Masalan, ot turkumiga mansub frazmadan «predmetlik» semasi anglashiladi, bunday frazema, odatda birikmaga teng qurilishli bo'lib, tayanch a'zosi ot leksema bilan ifodalanadi. Demak, bunday frazemalarda ifoda jihati bilan turkumlik jihati mutanosib bo'ladi. Nutqda son va kelishik ko'rsatkichini olgan *supraoqdi, patirusha*

ga gapga teng qurilishli, lekin ot turkumiga mansub frazemalar ham bundan ibtiroq emas: *patirushatti* (ga chaqir) kabi.

Tayanch a'zosi ot leksema bilan ifodalangan, sintaktik qurilishi birikmaga bog'lanadi. Frazeomalarning bir qismi sifat turkumiga mansub (*og'iroyoq* kabi). Bunday frazeomalarning mazmuni (predmetning sifatli belgisi (semasi bilan) va grammatik belgisi bilan ot frazemadan farq qiladi. Sifat frazema tarkibida sonlovchi va sifatlovchi qatnashmaydi, nutqda sifatlovchi vazifasida keladi (shunga ko'ra, sonlovchi sintaktik semasi qo'shiladi).

Frazeomalarning valentlik imkoniyati asosan ularning qaysi turkumga bog'lanishi bilan belgilanadi.

OT frazeomalari:

1) Ega vazifasida kelib, kesimni o'ziga bog'laydi: *Umr yo'ldoshim — o'ta ko'ntakush* kabi;

2) to'ldiruvchi vazifasida kelib, fe'l leksemaga bog'lanadi: *Umr yo'ldoshimni cheksiz hurmat qilaman. Umr yo'ldoshimdan jonimni ham qo'ymayman* kabi;

3) qaratuvchi vazifasida kelib, qaralmish bo'lib kelgan leksemaga bog'lanadi: *Umr yo'ldoshimning sog'lig'i juda yaxshi* kabi;

4) egaga bog'lanib (ega qatnashmagan, ega qatnashmaydigan gapshakllarda bo'lsa) kesim vazifasida keladi: *Bu kishi — umr yo'ldoshim* kabi.

Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati etarli darajada o'rganilmagan. Demak, frazeologizmlarni turkumlik belgisi nuqtayi nazaridan maxsus o'rganish uchun yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. - Toshkent, 1978.

Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent, 2006.

Buyullayeva R., Mengliev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent, 2006.



ANTONIMIYA HODISASI PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA O'RGANILISHINING AHAMIYATI

Ubaydova Hulkarbegim

BuxDU 2-kurs talabasi, 2017–2018 o'quv yili 2-jarayond

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi talabasi*

Annotatsiya

Xalq ma'naviy mulki hisoblanmish maqol va matallar, garchi shakliy-ma'naviy jihatdan ilg'iq qamrovda tadqiq qilingan bo'lsa-da, uslubiy qurilishi jihatdan hali to'raligicha yoritilgan Ushbu maqolada paremiologik birliklar vujudga kelishi uchun muhim uslubiy vosita

bo'lib xizmat qiluvchi antonimiya hodisasi va u bilan bog'liq ayrim jihatlar haqida boradi.

Tayanch so'zlar. Paremiologik birlik, antonimiya, uslubiy vosita, olish va son turkumlari, kontekstual antonimiya.

Аннотация

Пословицы и поговорки, которые являются духовной собственностью людей широко изучены, но еще не нашли полного отражения в методологической структуре. В этой статье обсуждается феномен антонимии и связанные с ней аспекты, которые служат важным методологическим средством для создания паремиологических единиц.

Ключевые слова: Паремиологических единиц, антонимия, методологическое средство, местоимение и имя числительное част речи, контекстуальная антонимия.

Annotation

Proverbs and adages which are the spiritual property of the people, have been widely studied, but have not yet been fully reflected in the methodological structure. This article analyzes the phenomenon of antonymy and related aspects that serve as an important methodical means for the formation of paremiological singular to come into existence.

Key words: Paremiological singular, antonym, methodical means, pronouns and numeral parts of speech, contextual antonym.

Qarama-qarshi birliklar zidlanishiga asoslangan antonimiya hodisasi, garchi qadim davrlardan ma'lum bo'lsa-da, dunyo tilshunosligida ushbu masalaga nisbatan ilmiy jihatdan yondashuv o'tgan asrning 15-20-yillariga borib taqaladi. O'zbek tilshunosligida esa 50-yillardan e'tiboran antonimiyaga oid ayrim maqolalar e'lon qilina boshlandi. Jumladan, S. Mutalibov tomonidan 1955-yil «Antonim so'zlar» nomli maqola «Sovet maktabi» jurnalining 4-sonida, S. Usmonov tomonidan 1957-yil «Antonimlar» nomli maqola «O'zbek tili va adabiyoti masalalari» jurnalining 1-sonida,

A. Ishaev tomonidan 1967-yil «Shakldosh antonimlarga oid etyudlar» nomli maqola «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalining 1-sonida e'lon qilindi[1, 4], [2, 17]. 70-yillardan e'tiboran ushbu masala doirasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borila boshlandi va 1973-yilda R. Shukurov tomonidan «Лексико-семантическая природа антонимов», 1977-yilda esa «O'zbek tilida antonimlar», bundan tashqari 1973-yil yana bir muallif B. Isabekov tomonidan «Лексическая антонимия в современном узбекском языке» nomli zid ma'nolik hodisasining ko'pligi masalalari atroflicha yoritib berilgan ilmiy asarlar yaratildi. 1980-yilda S. Rahmatullaev, N. Mamatov,

R. Shukurov hammuallifligida «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati» yaratildi[2, 173]. Keyingi davrlarda milliy tilshunosligimizga yangi talqin metodlari kirib kela boshladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqan holda, mazkur masala yuzasidan ham qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2010-yilda D. Abdullayev tomonidan «O'zbek tilida antisemiya» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi e'lon qilindi[3, 13]. 2016-yilda esa leksemadagi zid ma'nolikka asoslangan yana bir hodisa enontiosemiya yuzasidan Y. Odilov tomonidan doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Yuqoridagi ilmiy ishlar misolida ham ko'rish mumkinki, filologiyaning keng qamrovga ega bo'lgan ushbu sohasi atroflicha o'rganilgan.

matnlar tarkibidagi antonimiya hodisasi esa o'zbek tilshunosligida hali belgilanmagan yoritilgan emas. Mazkur hodisani maqol va matallar tarkibida o'rganish fanidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri.

Antonimlar maqol va matallarda muhim uslubiy vosita hisoblanadi [2, 176]. Maqol va matallar hayotiy xulosalarni ixcham shaklda ifodalash uchun xizmat qiladigan sababli ularda, asosan, qarama-qarshi birliklar zidlanishi orqali fikr ifodalashga harakat qilinadi va bu ta'sirchanlikni yanada oshirishga yordam beradi.

↕
Och holini to'q bilmas

↕
Kasal holini sog' [4, 118].

↕
Yoz bor, qish bor dangasaga na ish bor [4, 26].

- 3. Achchiq savol berib,
- Shirin javob kutma [4, 84].
- 4. Oshkora savob-u,
- Pinxona gunoh yomon [4, 65].

Yuqoridagi misollarda kontrast usuli orqali ma'no kuchi yanada ortishiga erishilgan. Bundan tashqari, *zid ma'nolik hodisasini maqollar tarkibida o'rganish* antonimik juftliklarni bevosita kontekst tarkibida ko'rish imkoniyatini yaratadi. Bu hodisani turli shakliy va ma'noviy qirralari to'la namoyon bo'lishida muhim o'rin tutadi, zero har qanday imkoniyat voqeilikda aks etadi. Tilimizdagi so'zlar to'g'ri ma'nosi bilan ham ko'chma ma'nosi bilan ham antonim bo'la olmagan vaziyatda ma'no qarama-qarshi mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma'nolarda qarama-qarshilikning ifodalanishi mumkin [1, 54].

Aksariyat zotiy tabiatiga ko'ra zid ma'noga ega bo'lmagan birliklar kontekstda zidlik talabidan kelib chiqib o'zaro qarama-qarshi ma'no hosil qilishi mumkin. Bu hodisani qarama-qarshi birliklar tarkibida yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol uchun: «*Yolg'izning yoyi yo'qolsa, topilmas, Ko'pning o'qi yo'qolsa, topilur*» [4, 313], - maqolidagi «yoy» va «o'q» leksemalari aslida antonimik xarakterga ega emas, ammo ayni shu matn tarkibida ular «kattalik» va «kichiklik» kabi okazional ma'no ifodalab, bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma'nolarni yuzaga keltirgan. Yoki: «*Chivin ko'plashsa, filni yiqitadi*» [4, 121], -maqolida «chivin» va «fil» leksemalari «kuchlilar» va «kuchsizlar» ma'nolarini ifodalab kontekstual antonimlik hodisasini yuzaga keltirgan. Yoki bo'lmasa: «*Dushmaning sichqoncha bo'lsa ham, Kuching arsloncha bo'lsin*» [4, 304], «*Dushmanning o'zi qildek, kuchi fildek*» [4, 304], «*Alqam bilan bitadigan ishga juvoldizga na hojat*» [4, 295], -kabi maqollarda ham bunday zidlik kabi holat kuzatilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Kontekstual antonimlik olmosh hamda son so'z turkumlari doirasida ham kuzatiladi [1, 172], chunki ushbu so'z turkumlariga oid leksemalar bevosita zid

ma'nolik hodisasini yuzaga keltira olmaydi. Ular faqatgina matn tarkibida, ma'nolardan kelib chiqib, kontekstual antonimlik hosil qilishi mumkin. O'z navbatida bu jarayon ham paremiologik birliklar tarkibida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan «Bizniki — xaltada, sizniki — o'rtada» [4, 293], «O'zinikida jinchiroyq yoqmasa, Birovnikida shamchiroyq yoqar» [4, 291]; «Bir kalla kalla, Ikki kalla tilla» [4, 281]; «Bir kishi ming kishi uchun, ming kishi bir kishi uchun» [4, 19] maqollari misol sifatida xuddi shu hodisaning guvohi bo'lishimiz mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish joizki, matniy zidlanish, asosan, she'riyatda, misol uchun tarkibida, kuzatiladi deb qarab kelingan bo'lsa-da, paremlar tarkibidan ham bunday hodisaga juda ko'plab misollar topish mumkin.

Antonimiya hodisasini xalq maqollari tarkibida o'rganish tilshunoslikning yangi sohasi hisoblangan lingvokulturalogiya taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Zamonaviy ma'nolik hodisasiniga bu kabi yondashuv paremiologik birliklarning turli ma'nolarda qirralari namoyon bo'lishiga, hamda antonimiya hodisasining yangicha nazar bilan o'rganilishiga turtki bo'ladi.

Umuman olganda, asrlar osha shakllangan xalq maqollari millat ongi, hayotiy xulosalari inkosidir. Buyuk rus yozuvchisi M. A. Sholoxov aytganidek: «Inson tafakkuri va tajribasining boqiy xazinalari ming yillar osha maqollarda jamlanib va abadul-abad yashaydi» [5]. Mazkur mavzuni o'rganish davomida shuni kuzatish mumkinki, xalq maqollari paremiologik birlik sifatida ham, folklorshunoslik namunasini sifatida ham yana ko'plab ilmiy ishlar uchun tadqiqot manbayi sifatida xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. —Тошкент., Фан, 1977.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. —T., Talqin, 2005.
4. Odilov Y. O'zbek tilida onentiosemiya: Filol. fan. dok...diss. —T., O'z FA TAI, 2016.
4. Mirzayev T., Musaqlulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari —T., «Sharq» NMAK, 2013.
5. www. ziyouz. com sayti.



NUTQIY ODATLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Nozima Yuldashева,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tilidagi nutqiy odatlarning ba'zi ko'rinishlari ifodalangan bo'lib, ularning lingvokulturologik xususiyatlarining ifodalanish holatlari bayon etilgan.

Tayunch soʻzlar: Til va madaniyat, nutqiy odatlar, pretsendent birliklar, muloqot

Аннотация

В данном статье с тегами выражаются в некоторых формах речи на узбекском языке, которые объясняются особенности лингвокультурологии.

Ключевые слова: Язык и культура, речевой этикет, единицы прецедента, процесс диалога

Annotation

This article described some of the customary forms of speech in the Uzbek language. The speech etiquette describes the features lingvokulturologiya.

Key words: Language and culture, speech etiquette, pretsendent units, speech etiquette

Tilshunoslikda XX asrning soʻnggi choragida yangi yoʻnalish sifatida yuzaga kelgan antroposentrik paradigma fan oldiga dolzarb muammolarni koʻndalang qoʻymoqda. Lisoniy hodisalarni keng tadqiq etuvchi mazkur soha boʻyicha koʻplab tadqiqotlar yaratilmoqda. Antroposentrik tilshunoslik markazida inson turadigan tilshunoslik boʻlib, lingvokulturologiya uning tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Atroqli tilshunos N. Mahmudov taʼkidlaganlaridek, «lingvokulturologiya tilni «til va madaniyat — inson «uchligi doirasida oʻrganib, bu fan bugun keng isteʼmolda boʻlgan milliy ong, milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy maʼnaviyat, milliy mentalitet, milliy xarakter kabi juda koʻplab tushunchalarning asosini til tashkil etadi, tilsiz ularning mohiyati barqaror boʻla olmasligini ochib berishni asosiy maqsad deb biladi» [3. 7].

V. Gumboldt til va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro harakat borasida quyidagicha yozadi: «Millat ruhi va xarakterining koʻrinishlari ichida faqatgina til millat ruhi hamda xarakterining oʻzgacha (alohida) tomonlarini namoyon qila oladi. Agar tilni ruhiy (maʼnaviy) rivojlanish bosqichlarini tushuntirish uchun asos sifatida qaralsa, u holda ularning paydo boʻlishini millatning intellektual oʻzgarishiga bogʻlash mumkin. Mazkur qarashni yakunlash uchun, tillar tabiatini chuqurroq oʻrganish zarur hamda turli xil tillarning ruhiy (maʼnaviy) rivojlanishga taʼsirini oʻrganmoq zarur [2. 108].

Har bir millatning ongi bilan hamnafaslikda taraqqiy etuvchi tili oʻziga xos ravishda xalqning madaniyatini ifoda etish uchun ham xizmat qiladi. Shunday qilib, xalq vakillarining nutqida mentalitetdan kelib chiqqan holda oʻziga xos **NUTQIY ODATLAR** (etiketlar) shakllangan boʻladi.

• **NUTQIY ODAT** deganda muloqotning turgʻun qoliplashgan maxsus birliklari tizimi tushuniladi.

Nutqiy odatlarning yana bir oʻziga xos jihati shundaki, ular aksariyat holatlarda parallel ravishda, yaʼni bir- birini talab qiluvchi birliklar oʻrtasida amalga oshadi.

Masalan: Hormang — Salomat boʻling

Hormang — Bor boʻling

Marhamat — Rahmat

Rahmat — Arzimaydi va sh. k.

Nutqiy odatlar shakllanishi jarayonida xalqning mental xususiyatlari bilan birga milliy qadriyatlari ham aks etadi. Shu jarayonga bog'liq holda nutqiy odatlarning shakllanishida ham «xalq ruhi» — madaniyati aks etib turadi. Jarayon har bir xalq vakili nutqida o'ziga xos jihatlardan ifodalanadi.

Nutqiy odat vaziyatlari uyda, ko'chada, ish joyida, magazinda, bozorda, kasalxonada turli joylarda, turli paytlarda yuzaga keladi. Turli rasm-odatlar an'analar natijasida nutqiy xalqning ijtimoiy belgilangan shakllari yuzaga keladi. Ana shu belgilangan shakllar yig'indisi bilan ma'lum vaziyat guruhlari hosil bo'ladi, ya'ni nutqiy odat vaziyatlarida ishlatilayotgan maxsus nutq birliklari ko'p hollarda javob talab qiladi. «Salomlashish» vaziyatidagi «Assalomu alaykum — vaalaykum assalom», «Xush kelibsiz — xushvaqt bo'ling», «Hormang — bor bo'ling», «**Bardammisiz, salomatmisiz, tuzukmisiz, shukur, alhamdulillah**»; «Xayrlashish» vaziyatidagi «**Xayr — omon bo'ling**», «**Yaxshi boring — yaxshi qoling**»; «Qutlash» vaziyatidagi «**Muborak bo'ling — qulluq**», «**Tabriklaymiz — rahmat**» kabi maxsus turg'un birliklar o'zining nutqiy odati uchun aloqa vositalari sanalib, ularsiz nutqiy odat me'yori buziladi. Nutqiy vaziyatni bir me'yorda ushlab turish nutqiy odatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nutqiy odatlarning nutqida namoyon bo'lishi bevosita madaniyatimiz, mentaliteimizga bog'liq hodisa hisoblanadi.

Masalan: ingliz tilidagi salomlashish jarayonining o'zi so'zlovchining yoshini so'zlashish payti kabi sabablar bilan voqealanadi. Hi (hay), hello kabi salomlashishlar ko'proq yoshlar nutqida kuzatilsa, yoshi kattalar nutqida yoki rasmiy suhbatlar chog'idagi salomlashish payti bilan bog'liq holda

Good morning (ertalab), Good afternoon (tush paytida), Good evening (kechqurun) tarzida amalga oshadi.

Nutqiy etiketlarni, ya'ni qotib qolgan birliklarni bilish, ongda ularni saqlanishi va tayyor holda insonlar nutqida qo'llanishi ham bunday birliklardan aynan shaxsning ruhiyati aks etib turishini isbotlab beradi.

Nutqiy etiketga oid birliklarni quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

- 1. Salomlashish
- 2. Xayrlashish
- 3. Rozilik
- 4. Maqtash
- 5. Tasalli
- 6. Tashakkur
- 7. Ma'qullash
- 8. Xushomad qilish
- 9. Tabrik
- 10. E'tiroz

Insonlar o'rtasida qulay muloqot yuzaga kelishi uchun oson va qisqa so'zlashuv jarayoni bo'lib o'tadi. Aynan shu muloqot jarayonida turli nutqiy odatlardan foydalaniladi. Har bir til vakilining milliy madaniyatidan va

tabiatidan kelib chiqqan holda o'z nutqiy odatlari mavjud bo'ladi. Tilimizda odatlar jarayonidagi nutqiy odatlar quyidagi xususiyatlar asosida tarkib topadi:

• **Mentalietimizda kelib chiqqan holda:** – Farzand muborak bo'lsin! – Farzand bilan bergan bo'lsin!

• **Milliy etnik qadriyatlarni ifodalagan holda:** – Xush kelibsiz! – Xush kelib qabul bo'ling!

• **Tarjima qilib bo'lmaydigan holda:** Hormang! – Iymoni boy bo'ling!

Til ham madaniyat ham tabiat hodisasi sifatida mavjud. Til madaniyatning tabiiy qismi bo'lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiatini namoyon bo'ladi. Bu o'rinda ko'p narsa nutqiy faoliyatning fiziologik va psixofiziologik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Barcha tillarda mavjud bo'lgan tabiiy va undoshlar tabiat bilan bog'liqdir. Madaniyat esa tilning mazmin jihatini namoyish qiladi. O'zbek tilshunosligida til va madaniyat tushunchalari quyidagicha tushilgan: «til va madaniyat deganda, ko'pincha, «nutq madaniyat» deyiladigan madaniyatni asosiy qism sifatida ko'rsatish mumkin. Bu ikki o'rindagi madaniyatning tabiiylikini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni o'rganish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturalogiyadagi madaniyatning ma'nosi aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan bilim, saviya (nutq madaniyati) emas, balki «kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlar majmuyi (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati) demakdir» [3. 10].

Foydalanilgan adabiyotlar

- Миселова В. А. Введения в лингвокультурологию. – М.: Наследие, 1992.
Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М., 1985.
Мухомудов Н. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti. – T.: 2012. – № 5.
Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari. fil. f.f.n. dis. Samarqand-1993
Кудийберганава Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент.: Фан, 2013



IV SHO'BA. MUMTOZ ADABIYOT MASALALARI

NIZOMIY VA QUTBNING «XUSRAV VA SHIRIN» DOSTONLARIDA BOSH QAHRAMONLAR QIYOSI

Abdivaliyeva Shodiya

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qutb Xorazmiyning «Xusrav va Shirin» dostoni hamda Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostonlaridagi bosh qahramonlar qiyosi hamda Qutbning asarga ijodiy yondashganligi o'z aksini topgan.

Tayanch so'zlar: doston, obraz, timsol, mubolag'a, bosh qahramon.

Аннотация

Это статья описывает героев Кутб Хоразмий и Низами Ганжави в одноименному эпосу «Хусрав и Ширин». Кроме этого дается ударение креативному подходу Кутба.

Ключевые слова: эпос, образ, символ, преувеличение, главный герой.

Annotation

This article describes the comparison in Nizami's «Xusrav and Shirin» and Kutb Xorazmi's «Xusrav and Shirin» it also researches Kutb's positive approach to the work.

Key words: epos, character, symbol, exaggeration, main character.

Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan va hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan doston «Xusrav va Shirin» dir. Bu doston mashhur ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy qalamiga mansub shu nomli dostonning turkiy tildagi erkin tarjimasidir. Bu tarjima 1340-yilda shoir Qutb Xorazmi tomonidan yuksak badiiy mahorat bilan tarjima qilingan. Qutbning bu tarjimasida X asrdan to XIV asrgacha bo'lgan tarjima asarlari ichida nisbatan mukammal badiiy mahorat bilan tarjima qilingan asar hisoblanadi.

Biz ushbu maqolada Nizomiy va Qutbning dostonlarida bosh qahramonlar timsolini qiyoslashni maqsad qildik. Maqola uchun obyekt sifatida Qutbning 1986-yilda nashr etilgan «Xusrav va Shirin» hamda Nizomiyning 2005-yilda o'zbek tilida nashr etilgan asari asos qilib olindi.

Qutb asarni tarjima qilish davomida o'z asarini asl asarning o'ziday qiyoslanmasini tasvirlamaydi. To'g'ri, u «Xusrav va Shirin» dagi asosiy obrazlar: Shirin, Xusrav, Farhod, Mehinbonu, Shopur, Sheruyalarning xarakter xususiyatlarini turkiy tilda asl nusxaning aynan o'ziday berishga tirishadi, voqea va syujet

chluzig'ini to'raligi bilan saqlashga harakat qiladi. Biroq ba'zi o'rinlarda: obrazlar, timsolllar tavsifida, geografik joy nomlarini berishda, yuqorida aytilganidek, uning tarjimaga ijodiy yondashganligining guvohi bo'lamiz.

Shunday bo'lsa-da, Qutb o'z asarini Nizomiyning shu nomdagi dostoni tarjimasini ekanligi to'g'risida kamtarlik ila shunday yozadi:

*Ozondek qaynab ush savdo pishurdim,
Nizomiy bolidin halvo pishurdim.
Xonim otig'a ushbu forsi tilni,
Chevurdim, tuzdum, ush nazm uzra qilni.
Chiqordim xush yizig'liq suv bu ko'ldin,
Ko'ngullar qonsu teb bu sofiy suvdin [1:40].*

Garchi Qutb o'z tarjimasini «Nizomiy bolidan pishirilgan holva» deb aytsa ham, tarjima nihoyatda katta mehnat samarasi va buyuk iste'dodning namunasi deb ayta olamiz.

Nizomiy va Qutbning «Xusrav va Shirin» idagi farqlar shuni ko'satadiki, Qutbning asarida ijodiy yondashuv bor, tarjima uning ijod mahsuli ekanini ko'satadi. Asarning hamma boblarida Qutb tarjimaga ijodiy yondashgani muhim bo'lib turadi. Masalan, dostonning asosiy qahramoni Xusrav, ikkinchi darajali qahramonlari Farhod, Shopur obrazlari tasvirida o'garishlar Nizomiy dostoni bilan qiyoslanganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ushbu farqlardan birini Nizomiyda Xusravning yoshlikdagi ta'rif-tavsifiga oid lavhalar bilan Qutbdagi ta'rif-tavsiflarni solishtirish orqali keltirish mumkin:

Nizomiyda:

*Yetib o'n yoshga agr qo'l cho'zgay erdi,
O'ttiz yoshlig'ni boshin uzgay erdi.
Edi sherga barobar dov solishda,
Qilich chopmak ila ham chov solishda...[39]
Yetib o'n to'rtta yoshi topti iqbol,
Chiqordi murg'i donishi paru bol [39].*

Qutbda:

*Yetib o'n yoshqa kish bog'landi belga,
O'kush dushman boshini berdi yelga.
Aning xavfidin arslon titrar erdi,
Qilichidin yog'iylar qo'rqar erdi...[343]
Tamomkim umri o'n to'rt yoshqa yetti,
Bilik semurg'i tan Qofini tutdi [343].*

Xusravning jismonan ulg'ayishi emas, balki ma'naviy tomondan kamol topishiga oid ushbu lavhalar Qutbda birmuncha mubolag'ali va xalqona tilda bayon qilinadi. Bu bilan Qutb Xusrav obrazini yangicha talqin qilmoqchi emas, ammo turkona obraz — xalq og'zaki ijodiga xos mubolag'ali tasvir yaratish Qutbning asosiy maqsadi edi. Xusravning chashmada Shirinning oydek jamolini

ko'rgach, uning qay ahvolga tushganligi tasvirida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Nizomiy ushbu holatni quyidagicha ta'rif etadi:

*Nolib chashma bo'yida yurdi bir dam,
Yig'idan ilgin ishqab ko'ga purdam.
Yiqildi bir zamon u yerga behush,
Ochib ul chashmaga gul misoli og'ush [82].*

Qutb esa Xusravning aynan shu ta'rifini yoritishda o'zining ne chog'liq mohir tarjimon ekanligini yana bir bor namoyon etadi.:

*Havasda oh teb behush bo'di,
Chechakdek ol engi o'zukda so'ldi.
Chinordek qaddi tuproqqa yiqildi,
Bir anchadin so'ng o'z holing'a keldi [385].*

Qutb ushbu lavhada ikki narsani: Xusravning yor diydori hijronidan tushgan ko'yi va uning jismonan tashqi qiyofasini kuchli mubolag'a vositasida o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandirgan. Bu tasvir oshiq qalbida yor visoliga musharraf bo'lish ishtiyoqining haddan ortiq darajaga yetganligini bildiradi.

Quyida keltirilgan baytlar ham oshiq qalbining yor hajridan ezilgani, ichki hayajonining kuchayganligidan dalolat beradi. Darvoqe, Nizomiy ham oshiqning aynan mana shu kechinmalarini go'zal ifodalar bilan bezagan. Qutb esa uni biroz avjlantirgan, xolos. Ma'no-mazmun ikkisida ham deyarli bir:

Nizomiyda:

*Yashindek yoqayin jondan charog'e,
Chala sabrim etibon anga dog'e.
Agar ul chashmadan ichsaydim obe,
Dilim bo'lmas edi bundog' kabobe [81].*

Qutbda:

*Bu kundan so'ng aning ishq'i charog'in
Yoqib kuydurgaman bu sabr yog'in.
Agar ul chashmadin ichsam sharobin,
Yemas erdim bu bag'rimning kabobin [384].*

Endilikda asarning bosh qahramonlaridan yana biri bo'lmish Shirin tasviriga e'tiborimizni qaratsak.

Xo'sh, badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanuvchi ikkala shoirimiz Shirinning husn-u malohati, sarv-qomati va albatta, ishq tufayli tushgan ichki kechinmalarini qay darajada maromiga yetkazib tasvirlagan ekanlar. Buni ikkala asardan olingan parchalar misolida aniq bilib olishimiz mumkin bo'ladi.

Nizomiy Shirinning tengsiz go'zalligi-yu noz-karashmalarini quyidagicha tasvif etgan:

*Aqiadek dudoqlar edi misli qand,
Edi ikki kokul misoli kamand... [48]
Yuzidin yuz mato tufrog' bo'lg'ay,
Na oy yanglig' yuzida dog' bo'lg'ay.*

*Erur parvonasi sham'ini bisyor,
Qiyo boqmas vale naz bila bir bor [48].*

Qutb Shirin vasfini qay darajada mukammal tasvirlaganini navbatdagi baytlar orqali ko'rib o'tamiz:

*Ajoyibroq ikki la'li Badaxshon,
Ko'rarman bo'lmish ul dur uzra g'alton... [352]
Yuzin ko'rgan kishi oy teyu soqnur,
Ko'rukli ko'ga oy yuzi berur nur.
Aning sham'inga parvona bolur jon,
Yoruqluqiga yo'q hech boqq'u imkon [353].*

Keltirilgan har ikkala parchada ham ma'no-mazmun bir: Shirinning oy qamoli tengsiz go'zalligi ohoriy badiiy ifoda va tasvirlar bilan ifodalangan. Ammo bir mazmuni turli yo'sinda izohlash mumkin.

Qutb ana shu ikkinchi yo'sindan bordi: Yorning yuzi oyga qiyoslangan, u yuzidan oy shu'lasidek yorqin nur taratadi. Uning yuzidan taralayotgan nur shu qadar yorqinki, hatto unga bir bor boqishning ham imkoni yo'q.

Nizomiy esa bu holatni shunday tasvirlagan: U ham yor yuzini yorqin nur soluvchi oyga mengzarkan, uning bir bor noz ila qiyo boqmasligidan shikoyat qiladi, xolos.

Qutb Shirinning Xusrav suratini ko'rganidan keying holatini ham yuqorida aytilganidek, mubolag'a san'atidan mohirona foydalanganligini namoyon etadi. Mubolag'adan qanchalik ustalik bilan foydalanganligini bilish uchun uning Nizomiydagi tavsifi bilan qiyoslashning o'zi kifoya:

Nizomiyda:

*Uning diydoridan sarxush bo'lardi,
Ichib har jomidan behush bo'lardi.
Ko'rib bo'lgan edi shavqida holsiz,
Nihon aylashsa izlardi majolsiz... [57]
Bu g'am qalbinni ko'p abgor qilmish,
Tanim nargis kabi bemor qilmish [67].*

Qutbda:

*Anga ko'z solmishincha ishq'i ortti,
Vale rozin alardin saqlar o'rtti.
Ayoq ichmishcha aldin bordi o'zi,
Socha boshladi qon yosh ikki ko'zi... [362]
Kim ushbu qazg'u jong'a kor qildi,
Tiriklikdin meni bezor qildi [370].*

Endi har ikkala parchani izohlar ekanmiz, asosan, e'tiborni Qutbning tarjimasiga qaratish lozim. Qutb tarjimasida Shirinning ushbu holatini quyidagicha gavdalantirgan: Shirin Xusrav suratini ko'rgach, ishq'i haddan ortiq oshib ketib, g'am ustiga g'am soladi, biroq pinhon tutishga qanchalik urinmasin, haribir ikki ko'zining yoshi qon bo'lib oqib oshkor bo'ladi. Nizomiyda Shirin

dilidagi g'am uni bemor qilib qo'ygan bo'lsa, Qutbda bu g'am shunchalaki kuydiradiki, hatto tiriklikdan bezor qilib yuboradi.

Yana shunday tasvirlardan birini Shirin chashmadaligida Xusrav uni ko'rib qolgach, Shirinning noz ila uyalgani suratida aks etgan:

Nizomiyda:

*Sumanbar sezmayin shoh ko'rganini,
To'sib sochi uning ko'zu tanini.
Chiqib mumkin bulutdan o'ying o'zi,
Tushib podshohga so'ng Shirinni ko'zi [78].*

Qutbda:

*Qatig' boqdisa shoh, Shirin uyaldi,
Ne qilg'u emdi teb andisha qildi.
Qolib bechora, izlab chora topti,
Bulut yanglig' sochin oy uzra yopti [381].*

Nizomiy Shirinning Xusrav ko'rganidan uyalib sochlari uning «ko'z-u tanini» yashirganligini tasvirlarkan, Qutb bu tasvirga biroz bo'yoq kirgazgan holda, «ko'z-u tanini» yopgan sochlarini bulutga mengazgan.

Qutb go'zal tashbihlar, mubolag'alar, timsollar, iboralar orqali bosh qahramonlarning takrorlanmas obrazini yaratdi. U bu obrazlarni shunday tasvirladiki, ularning qiyofasi kitobxon ko'z o'ngida muhrlanib qoladi.

Qutb shu orqali o'zining so'z qo'llash mahoratini, portret yaratish san'atini puxta egallaganligini namoyon qildi. Ushbu tasvirlar ishq tufayli qahramon ichki kechinmalarini, o'y-xayollarini o'quvchining tasavvur olamida teran va yorqin aks ettirishda birinchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, chinakam shoir asar qahramonlarining fikr, tuyg'u, hissiyotlarini, kechmish-kechilmishlarini ifodaga ko'chiribgina qolmay, uning kitobxonga qay tarzda ta'sir etishi haqida ham qayg'urishi lozim. Qutb ana shunday chinakam shoirlarimizdan biri bo'lib qoldi. Qutb Xusrav hamda Shirinning o'ziga xos ta'rif-tavsiflarini yaratish bilan bir qatorda ulkan shoir — Qutb uslubini ham yaratdi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kutb Xorazmiy Xusrav va Shirin («Уч булбул гулшани» китобидан) —Т.: Фафун Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. — 645 б.
2. Низомий Ганжавий. Хусрав ва Ширин (Форсийдан Олимжон Бўрис таржимаси). — Техрон: «Ал-Худо» халқаро нашриёти, 2005. — 392 б.
3. Ганиханов М. Сравнительный анализ поэм «Хусрав и Ширин» Низами и Кутба. Автореферат по соисканию ученой степени кандидата филологических наук. — Ташкент, 1994. — 24 с.
4. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. —Т.: Sano-standart, 2017. — 555 б.



LUTFIY IJODIDA RADD UL-QOFIYA SAN'ATI

Bekmurodova Dinora

*Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Sharq mumtoz adabiyotida badiiy san'atlarning o'rni muhim sanaladi. Badiiy san'atlar lirik asarlarning jozibasini namoyon etishda g'oyat ahamiyatlidir. Ular naqshli she'r va g'azallarning ta'sirchanligini, balki o'ynoqiligin ham oshiradi. Shoirning shoirlik mahoratini ham ko'rsatib beradi.

O'zbek mumtoz adabiyotida ham badiiy san'atlarga bag'ishlangan noyob, haqiqiy kunimiz uchun juda kerakli bo'lgan asarlar yetarlicha. Bunga Ahmad Luroziyning «Funun al-balog'a», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» kabi asarlari misol bo'la oladi. Ushbu asarlarda badiiy san'atlar haqida tushunchalar berilib, shoirlar ijodidagi namunalar misolida yoritilgan. Forsiyda qalam tebratgan Atonilloh Husayniyning «Badoyi us-sanoyi» (San'at yangiliklari) risolasida badiiy san'atlar lafziy, ma'naviy va lafziy ma'naviy (mushtarak) kabi turlarga ajratadi hamda lafziy san'atlarga quyidagilarni kiritadi: tarse', at-tajnisot, ishtiqaq, al-maqbulot, tardu aks, al-murabba', radd-ul-ajz alas sadr, radd ul-matla', mukarrar, nakir. Jumladan, radd ul-qofiya ham yuqoridagi turga kiritiladi. Radd ul-qofiya ummaba «qofiyaning qaytishi», «takror kelishi» degan ma'nolarni anglatadi. Adabiyotshunos Y. Is'hoqov radd ul-qofiya haqida shunday fikr bildiradi: «Radd ul-qofiya deganda biz she'rdagi har qanday qofiyaning shunchaki jo'n takrorini emas, balki g'azal yoxud qasida matla'idagi qofiyadosh so'zlardan biri yoxud ikkalasining bo'luk baytlarda (shuningdek maqta'da ham) muayyan poetik maqsadlarda anonimik qofiya sifatidagi takrorini tushunamiz». Mumtoz adabiyotimizdagi Atoiy, Gadoiy, Bobur, Mashrab, Munis, Ogahiy, Navoiy, Maxmur kabi ijodkorlar ijodida radd ul-qofiyaning ajoyib namunalarini ko'rish mumkin.

Lutfiy g'azaliyotida ham ushbu san'at salmoqli o'rin egallaydi. Alisher Navoiy o'zining yuksak iste'dod sohibi ekanligini ta'kidlab: «Mavlono Lutfiy o'z amonasining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi, ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir...», deb ustoziga ta'rif beradi. Sa'diy Sheroziy, Xusxav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy kabi ulug'lar bilan bir qatarga qo'yadi. Lutfiy ijodiy merosini bizgacha yetib kelishida, hayoti va ijodini o'rganish va tadqiq qilishda o'zbek olimlaridan A. Fitrat, Olim Shuraliddinov, A. Hayitmetov, V. Zohidov, A. Qayumov, Oybek, Hodi Zaripov, N. Mullayev, S. Erkinov, S. Rasulovning xizmati beqiyos. Xususan, bu o'rinda devonini tuzgan adabiyotshunos olim Sodir Erkinovni alohida ta'kidlash o'rinlidir. Lutfiy g'azaliyoti xalq tiliga yaqin, o'ynoqi, ohangdor va musiqali. U o'z lirikasida badiiy san'atlardan ham mohirona foydalangan. Jumladan, radd ul-qofiya san'atining go'zal namunalarini ijodida kuzatish mumkin:

Husn-u jamol ichinda nechakim kamoli bor, matla'
Oyning qachon sening kibi husn-u jamoli bor.

Nuqsoni ko'p har ishda bechora Lutfiyning, maqta' }
 Dilbar jamoli vasfida lekin **kamoli** bor. }

Xush kelding, ayo jon tilagi, banda **murodi**, matla' }
 Kim qildi muborak qadaming qayg'uni shodi. }

Gar o'zga kishilar tilagi mol-u manol, ul maqta' }
 Vaslingdurur onjoq, sanamo, Lutfiy **murodi**. }

Ushbu baytda shoir nafaqat radd ul-qofiya san'atini, balki so'zlarni mohirona qaytarish orqali radd-ul-sadr ilal ajuz (yoki zarb) san'atini ham yuzaga keltirgan. Bu esa o'z o'rinda baytning ta'sirchanligini oshiradi. Sodda, ravon o'qilishini ta'minlaydi. Lutfiy o'z mashuqasini oydan ham ustun bilib, «oyning qachon seningdek husn-u jamoli bo'lgan», -deya ajoyib o'xshatish orqali ushbu baytning birinchi misrasidagi «kamoli» so'zi maqta'ning so'nggi misrasida ham takror qo'llab, radd ul-qofiya san'atini yuzaga keltiradi.

Lutfiy yana bir g'azalining matla'sida «Husningga bir boqib «oh» deyman-u yana o'laman, Sensan menga dildosh, sirdosh deyman-u yana o'laman», deya matla'da «oh» chekib, ushbu «oh» larini maqta' so'ngida yana bir bora yodga olib, juda chiroyli radd ul-qofiya san'atini hosil qilgan:

Husning'a boqib **oh** degumgur dag'i o'lgum,
 Sensen manga dilxoh degumdur dag'i o'lgum.

Lutfiy o'larin xayli xayoling tobug'inda,
 Gar yo'lluk-u bir, **oh**, degumdur dag'i o'lgum.

Mumtoz adabiyotimizda radd ul-qofiya san'atining turli xil ko'rinishlari bor. Ushbu san'at faqatgina matla'dagi ohangdosh so'zning maqta'da takrorlanishidan hosil qilinmaydi, ya'ni radd ul-qofiya san'ati matla'dan keyingi yoki maqta'dan oldingi yoki bo'lmasa baytlarning istalgan misrasida keladi. Bir so'z bilan aytganda ushbu san'atning rang-barang ko'rinishlari mavjud. Bu fikrning tasdig'ini esa Lutfiy g'azaliyotidagi misollar orqali ham ko'rish mumkin:

1. G'azal matla'sidagi ohangdosh so'zning matla'dan keyingi baytda ham takrorlanishi:

Joduluqtin har dam ul o'tlug' ko'zung **jon** kuydurur, matla' }
 Nor mengizlik ikki iining la'lu marjon kuydurur. }

Burqa' olg'onda yuzungni sham ko'rmish tun kecha, 2-bayt }
 Ul sabab boshdin ayoqqa rishtai **jon** kuydurur. }

Yo'qtur yuzung qoshonda quyoshning **zarofati**, matla' }
 Kunduzgi shamningki ne bo'lg'ay latofati. }

Yolg'uz jamol birla emas dilraboyliq, 2-bayt }
 Sentek kerak turur yana chindin **zarofati**. }

2. G'azal matla'sidagi qofiyadosh so'zning matla'dan keyingi (yoki maqta'dan oldingi) istalgan baytda takrorlanib kelishi:

Dilbar eshigingda **tursa** bo'lmas, matla' }
 Burqasiz ul oyni ko'rsa bo'lmas. }

Bir dam raqib ilgidin qoshinda, 3-bayt }
 Ko'z yoshi mengizli **tursa** bo'lmas. }

So'zlarda qachonkim ko'zi **qoshi** bila o'ynar, matla' }
 Har go'shada yuz ming kishi boshi bila o'ynar. }

Ko'guzsa qaro, barham urar Chin-u Xitoni, 4-bayt }
 Ko'z ustidagi xoli chu **qoshi** bila o'ynar. }

Ey, yanoqing vohidiyat bog'ining xurmo **guli**, matla' }
 Kuntu kanzan maxfiy ganjidur sochning sunbuli. }

Xijlatingdin chiqmag'ay rizvon qusr ichra yo'qolib, 6-bayt }
 Pardadin nogoh agar chiqq'ay saning husning **guli**. }

3. G'azal matla'sidagi ogangdosh (qofiyadosh) so'zning odatiy tarzda maqta'da qayta qo'llanishi:

Etak yig'ib yugursa, jilvasi **balo** qiladur, matla' }
 O'tarda yeng solishi elni muhtalo qiladur. }

Balo-yu fitnag'a Lutfiy qolibtur ondinkim, maqta' }
 Nigohi fitna-u boqmasligi **balo** qiladur. }

Jamol-u husn ila ulkim, **yagona** qildi seni, matla' }
 Xilof-u va'dada qoni bahona qildi seni. }

Jamol shukrina Lutfiy'ga iltifot etgil, maqta' }
 Oning rizosi uchunkim, **yagona** qildi seni. }

Lutfiy ijodida radd ul-qofiya san'atining tajnisli yo'lda bitilgani ham uchradi, ya'ni bunda biz matla'ning aynan maqta'dagi takrorini ko'rishimiz mumkin. Lekin bu faqat matla'ning maqta'dagi takrori i emas, balki bir xil shaklda turli ma'noni berishdir. Bu esa o'z o'mida shoir mahoratidan dalolat:

Shakardek og'zini pista dedim, yamon qildim,
 Esiz, og'zini tuhmateki, **man qildim**.

Adamg'a chun meni tekurdi ui og'iz, Lutfiy,
 Vujudtin kechibon tarki ma'voga **man qildim**.

To'g'ri, bunday baytlar juda kam uchraydi, ammo g'azalga mazmundor yuk va salobat taqdim etadi. Yana Lutfiy ijodida radd ul-qofiyaning datiy shakliga o'xshamagan, ya'ni matla'dagi qofiyadosh so'zning maqta'dan oldingi biror bir baytda metal, hikmatli so'z, ibora tarkibida keladigan shakllari ham kuzatildi:

To jamolingdin tushubturmen yamon ko'zdin **yiroq**,
 Bu tiriklikdin ko'rarmen ko'p ajalni yaxshiroq.

Yerg'a kirsam koshki, chun yetmas ul oyg'a ilik,
 Mushkul ahvole tushubtur: «**Yer qatiq-u, ko'k yiroq**».

Umuman olganda, Lutfiy lirikasi soddaligi, xalqonaligi va ohangdorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. O'z o'rnida radd ul-qofiya san'atini Lutfiy o'z she'riyatida qo'llashi ham uning soddalik va ravonlikni qanchalar xush ko'rganidan dalolatdir. Bir qaraganda, radd ul-qofiya san'ati boshqa, anchayin murakkab san'atlar (mutallavun, husni ta'lil, muammo)ga nisbatan sodda va amaliyot bilan qo'llash oson bo'lishi mumkin, ammo u ijodkordan salohiyatni, leksik birliklarning qo'llanish tartibini, o'ziga xosligini aniqlashni talab qiladi. Bu kal xususiyatlarining barchasi Lutfiy ijodida mavjud bo'lib, ularning amaliy natijasi lirik merosda aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a. –T., 1996.
2. Atoulloh Husayniy. Badoyi us-sanoyi. Forschadan Alibek Rustamov tarjimai. Toshkent. Adabiyot va san'at. 1981.
3. Lutfiy she'riyatidan. –T., 1985.
4. Badiiy san'atlar. Boboyeva To'xta, Boboyeva Zebo. –T., 2001.



BOBUR SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI

Bektemirova Nafisa

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Аннотация

Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida, mahoratining shakllanishida badiiy san'atlarning vazifasi va o'rnini aniqlashga harakat qildik. Ruboiylari, ayrim g'azallari misolida shoir ijodining o'ziga xosliklarini aniqladik.

Tayanch so'zlar: tazod, tanosub, tajziya, takrir, tamsil, istiora, mubolag'a, qaytarish, ishtiyoq, tardi aks.

Annotation

We tried to find out the significance of literary arts in order to form Bobur's great skill and poems in this article. We discovered the specific characters of Bobur's works in the favour of this some rubais.

Key words: tazod, tanosub, tajziya, takrir, tamsil, istiora, mubolag'a, qaytarish, ishtiyoq, tardi aks.

Аннотация

Мы стремились определить в лирике и формирование мастерства Захириддин Мухаммада Бобура задачу и роль литературно художественных средств. На примере рубай и отдельных газелей определили особенности творчества поэта.

Ключевые слова: тазод, таносуб, тажзия, такрир, тамсил, истиора, муболага, кайтариш, иштиқок, тарди акс.

Zahiriddin Muhammad Bobur jahon adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega shoir. «Boburnoma» va boshqa barcha asarlarida so'z qo'llashdagi mas'uliyat sezilib turadi. Xususan, she'riyatida shoir so'z yordamida mo'jizalar yaratgan inson ko'nglining betakror va teran hududlarini yoritib bergan. Shoirning bunday aniqlik va samimiyatga yo'g'rilgan asarlar yaratishida mumtoz badiiy san'atlarning o'rni muhim.

She'riy san'atlar Bobur she'rlarida ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq mavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, joribadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Boburning salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratish kerak. Mazkur maqolada Bobur she'riyatida ma'no va badiiy san'atlar uyg'unligini ochib berishga harakat qilamiz. Shoir asarlarida badiiy san'atlarning deyarli barcha turini uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, uning she'riyatida tazod san'atining o'rni muhimligini kuzatamiz. Jumladan, uning quyidagi ruboysiga e'tiboringizni qaratamiz:

*Ne ishratu aysh uchun mayi nob manga,
Ne toat uchun go'shai mehrob manga,
Ne fisq qilurg'a bordur asbob manga.
Ne zohid o'lurg'a toqatu tob manga [2, b-70].*

Har bir misra boshida takrorlangan «ne» so'zi ruboiyning go'zalligini, ulamgirdorligini ta'minlayapti. Bu joyda takrir san'atining ruboiydagi ma'noni anglashimizda jozibasi va muhim o'rnini ko'rishimiz mumkin.

Misra oxiridagi «manga» so'zi radif bo'lib kelgan. Ruboiyda ishratu, aysh, toat so'zlari vositasida tanosub san'ati ham yaratilgan.

Shoir she'rlarida so'zlargina emas hatto misra va baytlar tuzilishi, tartibiga ham ma'no yuklaganligining guvohi bo'lamiz. Mazkur ruboiyning har bir misrasi ikkiga bo'linadi. 1- va 2-misralarda «uchun» so'zigacha birinchi qism, «toat» so'zidan keyin ikkinchi qism bo'ladi. 3-misrada «qilurg'a» so'zigacha birinchi, «qilurg'a» so'zidan keyin ikkinchi qismni tashkil qiladi. 4-misrada «o'lurg'a» so'zigacha dastlabki «o'lurg'a» so'zidan keyin esa ikkinchi qismni tashkil qiladi. Misralardagi bunday bo'linish ilmi bade'da tajziya san'ati deb ataladi. Ruboiyda qo'llangan bu san'atlar asar zamiridagi chuqur ruhiy holat sa'yirini yuzaga chiqarishda muhim vazifani bajargan. Unda shoirning mahzun, ayrtirliq va yolg'izlik iskanjasidagi kayfiyati teran ifodalangan.

*Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz
Har kimki, yomon bo'lsa, jazo topqusidur [2, b-72]!*

Bu ruboiyda ham «har kimki» so'zi orqali takrir san'ati qo'llanmoqda. Misralar oxiridagi «topqusidur» radif. So'zlar takrori muallifning dardini, ichki kechimmalarini anglashimizda muhimdir. Undan tashqari, shoir so'zning

grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib, uning yangi ma'no qirralarini yuzaga chiqaradi.

Vafo qilsa (qo'shma fe'l)-vafo (belgisiz to'ldiruvchi) topqusidir.

Jafo qilsa (qo'shma fe'l)-jafo (belgisiz to'ldiruvchi) topqusidir.

Bu birinchi baytda qaytarish san'atini «vafo qilsa-vafo», «jafo qilsa-jafo» so'zlarida ko'ramiz. Bu san'atlar boshqa san'atlarning yuzaga chiqishi uchun ko'maklashyapti. Jumladan, tazod san'ati vositasida «vafo va jafo», 3-misrada «yaxshi va yomonlik» so'zlarida qarama-qarshilik, zidlik ma'nolarini ko'ramiz. Sifatlash san'atini 3-misra boshidagi «yaxshi kishi» jumlasida kuzatamiz. Boburning bu ruboiysi orqali uning hayotiy tajribasi kattaligini anglaymiz. Bilamizki uning boshidan o'tkazgan kechinmalari bunga yaqqol misol bo'ladu.

Bizga qurbon iydi Shohruhiyada bo'ldi. Betavaqquf o'tub, xon qoshig'i Toshkandga bordim. Bu ruboiyni aytib edim, ma'mul qofiyasida taraddudim bo'ldi edi, ul mahalda she'r mustalaqotig'a muncha tatabbu' qilmaydur edim, xos xushtab' kishi edi, she'r aytur edi, agarchi saru somonliq g'azali kamroq edi, bu ruboiyni xong'a o'tkarib, taraddudimni arz qildim. Ko'ngul ting'udek shohi javob topmadim. G'olibo she'r mustalahotig'a kamroq tatabbu' qilg'ondur. Ruboiy Budur:

Yod etmas emish kishini mehnatta kishi,

Shod etmas emish ko'ngulni g'urbatta kishi.

Ko'nglum bu g'aribliqta shod o'lmadi hech,

G'urbatta sevunmas emish, albatta, kishi [1, b-90].

Uning she'r ilmiga munosabatini «Boburnoma» dan olingan parchada ko'ryapmiz. Adabiyotshunoslikda ma'mul qofiya-mumtoz to'laligicha mos keluvchi qofiyadir. «Mehnatta», «g'urbatta», «albatta» qofiyalari to'laligicha mos kelyapti, ammo 3-misra bunday emas.

Bunda radifda qo'llangan «kishi» butun insoniyatga qaysi zamon va makonda bo'lishidan qat'iy nazar ta'lluqliligini va shunday bo'lishi aniqliligini urg'u beryapti. Tazodni «g'ariblik va shodlikda» ko'ramiz.

Netgaymen ul rafiq bilakim, qilur base,

Mehru vafo raqibg'a, javru jafo — manga.

Begona bo'lsa aql meni telbadin, ne tong,

Chun bo'ldi ul parisifatim oshno manga [2, b-17].

4-misrada Bobur she'rilarida mashhur yana o'sha 2 ta so'zga «vafo va jafo» g'uruch kelamiz. Keyingi baytdagi «begona va oshno» so'zlarida tazod borligini ma'noviy jihatdan sezamiz.

Chun falak qo'ymas meni bir lahza vasl ayyomida,

Tong yo'q, ey bemehr, agar o'lsam firoqing shomida,

Ey ko'ngul, yuzin ko'rub, zulfi parishonin sog'in,

Shomi hijrondin tavahhum ayla vasl ayyomida [2, b-18].

1-baytda «vasl va firoq» so'zlari qarama-qarshi qo'yilgan. 2-baytda «hijron va vasl» da tazod san'ati bor.

*Boburo, hargiz quloq she'ringg'a ul gul solmadi,
Gulga ne parvoki yuz faryod qilsa andalib [2, b-19].*

Boburning shu birgina baytida tanosub san'atini «gul va andalib» so'zlarida, qaytarishi san'atini 1-misra o'rtasidagi «gul» so'zining 2-misra boshida qaytalganligidan topamiz. Ul gul ya'ni yor she'ringga quloq solmadi. Gul parvoyiga ham keltirmaydi, bulbul faryod qilsa ham deb misol keltiryapdi bunda tanosub san'ati bor. Haqiqatda tabiatda biror qushning sayrashi gulning holatini qaytarmagan. Yana bu misrada istiora san'atini ma'no jihatdan anglaymiz.

*Ya'ni Bobur o'zini andalib, yorni gul sifatida tasvirlayapdi.
Ne jafu tavridda bor dunyoda ul bemehrdek,
Ne vafo bobida bor olamda men shaydo kibi [2, b-59].*

Tazod san'atini Bobur 1-misrada dunyoda jafu xulq-atvorida ul bemehrdek ya'ni yordek inson borligini va 2-misrada Bobur o'zini shaydo kabi vafo borasida olamda yagonaligiga urg'u berayapdi. Yorni jafu timsolida, Bobur esa o'zini vafo timsolida tasvirlayapdi. Jafu va vafo so'zlari orqali 1 va 2-misra o'rtasida xulq-atvor borasida qarama-qarshilik vujudga kelyapdi. Tazod san'ati orqali keskinlik kuchaygan.

*Ul qaro ko'z hajrida tundeq qarordi kunduzum,
Yorab, andoq kunni ul ko'zi qaro ko'rsatmag'ay [2, b-60]!*

She'ming birinchi misrasida keltirilgan «qaro ko'z», keyingi misrada o'mini qaytarib qaytarishi orqali tardi aks bo'lib kelyapdi. Mumtoz badiiy san'at bo'lgan nido «yorab» da aks etgan. «Tun», «kun» so'zlari orqali tanosub san'atini ko'rdik. Bobur u qaro ko'z ya'ni yori hajrida kunduzi tundeq qorayganini ko'rdi deyapdi. Qaro ko'zning ishqida kunduzi tundeq qorayganiga ishonish qiyinligidan mubolag'a san'atini anglaymiz. Boburning she'rlarida holatni ko'rsatishda ajoyib o'xshatishlar va so'zlar «qaro ko'z», «tun», «kun» ni qo'llagan ta'bir baytni o'qisak, Bobur shaxsiyati va iste'dodigi tan bermay ilojimiz yo'q.

2-misrada 1-misradagi kabi «ko'zi qaro» va «kun» so'zlarida tazodni ham ma'noviy ham lafziy tomondan ko'ramiz.

*Orazi qaddingni ta'rif etsalar yuz yil, hamuz.
Ey yuzi gul sarvqad, yuzdin biri aytilmag'ay [2, b-61].*

Orazi qaddini yuz yil ta'riflasalar yuzi ya'ni chehrasi gul yorning yuzdan bitta xislati ham aytilmagay. Bunda tajnis san'atining ma'noni anglashda yordamini ko'ramiz. Birinchi yuz so'zida son ya'ni yil ma'nosida, ikkinchi yuz chehra oraz, uchinchi yuz ya'ni yuzdan bir xislati ma'nosida kelyapdi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning deyarli hamma turki asarlari tili sodda va xalqona yozilgan. Uning she'rlarida tazod san'ati ko'proq uchraydi. Bunga sabab uning ichki kechinmalari bilan bog'liqdir yoki bu san'atning ma'noni tashishda kuchli ta'sirini sezgan deyishimiz mumkin. Chunki Bobur adabiyotshunoslikdan ham bilimga ega bo'lgan. U falsafiy-ijtimoiy tafakkur sohibi, davlat, siyosat arbobi, mutafakkir va ijodkor sifatida she'rlarida umuminsoniy ma'nodagi qadriyatlar, xususiyatlarni tasvirlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boburnoma. Zahiriddin Muhammad Bobur. -Toshkent, Yulduzcha, 1989.
2. Devon. Zahiriddin Muhammad Bobur. -Toshkent, Fan, 1994.
3. www. ziyonet. uz.



ALISHER NAVOIYNING «NAZM UL-JAVOHIR» ASARI GENEZISI

G'iyosova Hilola

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Аннотация

Hozirgi kunda matnshunoslarning oldida turgan muhim vazifalaridan biri asarning adabiy-badiiy qimmatini oshiradigan, mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligi ta'minlaydigan matnga ega bo'lishdir. Maqolada Alisher Navoiyning «Nazm ul-javohir» asari yaratilish tarixi, yuzaga kelish omillari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Matnshunoslik, pandnoma, qo'lyozma, hikmat so'zlar.

Аннотация

Одна из самых важных задач, стоящих перед сегодняшними текстологами, редакторами, иметь текст, который улучшает литературную художественную ценность работы, которая, обеспечивает ее содержание и сущность совершенными. В статье представлена информация об истории создания «Назмул жавохир» Алишер Навоий факторов его возникновения.

Ключевые слова: Текстология, дидактик, рукопис, афоризмы.

Annotation

One of the most important tasks facing textwriters today is to have a text that enhances the literary artistic value of the work, which provides for its content and essence perfect. This article provides information on the history of creation of Alisher Navai's «Nazm ul-javohir» factors of its occurrence.

Key words: Textology, didactic, script, aphorisms.

Biz ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g'oyalar ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy meroslarni yaxlit holda o'rganish davriy siyosati darajasiga ko'tarilgan davrda yashayapmiz. Bu esa asrlar davomida yaratilgan boy ma'naviy merosga, uning jahon xalqlari madaniyatiga va adabiy badiiy tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasini to'g'ri baholash imkonini beradi.

Hozirgi kunda matnshunoslikning oldida turgan muhim vazifalardan biri asarning adabiy-badiiy qimmatini oshiradigan, mazmun va mohiyati jihatidan mukammalligini ta'minlaydigan matnga ega bo'lishdir. Shu jumladan Navoiy asarlarining turli kamchiliklardan holi mukammal matnlarini tuzish matnshunoslik oldida turgan muhim masaladir. Chunki «tekstologiya (matnshunoslik) fani yangi

qatibular bilan boyib bormoqda. O'tmish madaniy merosga, shu jumladan, Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqish tobora o'sib bormoqda. Shuning uchun ham endi navoiyshunoslik kun tartibiga Navoiy asarlarining akademik nashrini tayyorlash masalasi birinchi bo'lib kirmoqda» [1. 232].

«Nazm ul-javohir» Navoiyning pandnoma ruhdagi asarlardan biri bo'lib, uning nomi o'rganish borasidagi ilk izlanishlar asar yaratilgan paytdayoq boshlangan [3. 16]. Mazkur asar matnshunos olim Porso Shamsiyev tomonidan akademik Aziz Fayzulin so'zboshisi bilan nashrga tayyorlangan va shoir asarlarining 15-jildida choplangan holda chop etilgan. Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi munosabati bilan chop etilgan 20 tomlik asarlar to'plamining 15-tomida berilgan» Nazm ul-javohir» asari ham muqaddima, ham arabcha hikmatli so'zlar tarjimalari va izohi bilan olim Suyuma G'aniyeva tomonidan nashrga tayyorlangan. Shuningdek adabiyotshunos olim Tamila G'ofurjonova o'z maqolasida O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan «Nazm ul-javohir» asarining to'rtta qo'lyozmasi haqida ma'lumot beradi [2. 344].

Ma'lumki, «Nazm ul-javohir» ning yaratilish tarixi, uni yuzaga kelish omillari haqida navoiyshunosligimizda birqancha fikrlar bildirilgan. Xususan, asar 1485-yilda Husayn Bayqaroning Navoiy ijodini tahlil qilishga bag'ishlangan «Risola» ga javoban yaratilgan degan fikr yetakchilik qiladi. Shuningdek Navoiy asar muqaddimasida «... Bu lulularnikim, Arabshoh viloyatining bahri kafi sochibdur, turki uslub bila nazm silkiga tortadur va ul injularnikim, Mag'rib daryosi yaqosig'a to'kulubtur, intizom rishtasig'a chekadur. Parishon xotirg'a va oshufta zamirg'a bu savdo ko'p dag'dag'a solur erdikim, turkiy til bila men ham ul laolini orasta qilg'aymen va bu muddao ko'p taraddud yetkurur erdikim, mo'g'ul uslubi bila men ham ul javohirmi pirosta etgaymen». Demak har biri gavharga teng so'zlar arab tilida bitilgandir. Fors tilida esa ularning har biri ushuncha yaratilgan. Endi Navoiyda ana shunday nazmiy javohirlarni turkiy tilda yaratish orzusi paydo bo'ldi.

Ammo filologiya fanlari nomzodi olim Ma'rifat Rajabova masalaga chuqurroq yondashib, «Nazm ul-javohir» ning yaratilishiga uchinchi sabab bo'lib e'tibor qiluvchi quyidagi yana bir holat haqida ma'lumot beradi [4. 13].

«1944 (1325 h.) yilda afg'on olimi Hofiz Nurmuhammad Kahgadoiy Kobulda «Tarixi Mazori Sharif» nomli kitob chop ettirgan. Bu kitobning keyingi nashri «Tarixchayi mazori Shoh avliyo» nomi bilan ataladi (nashr yili va joyi ko'rsatilmagan). Unda yozilishicha, Sulton Husayn Bayqaro hukmronligining 1481-1487-yillarida Hindistonning Mo'ltan shahridan va Balxdan topilgan ikki qadimiy kitobga asoslanib, Abu ibn Abu Tolib hokining Balx viloyatda ekanligidan voqif bo'lishadi. Ammo mo'g'ullar hujumi oqibatida bu ma'lumot unutilgan, qabr joylashgan yer yo'qolib ketgan va Hazrat Ali qabri haqidagi gaplarga mahalliy aholi afsona deb qaray boshlagan edi. XV asrning 80-yillarida Balx viloyati hokimi bo'lgan Mirzo Bayqaro mazkur topilmalar haqida Hirotga ma'lum qiladi. Qayd qilingan voqea «Tarixchayi mazori Shoh avliyo» kitobida quyidagicha bayon etiladi: «Kunlarning birida Mirzo Bayqaro (Sulton Husayn Bayqaroning akasi,

Balx hokimi — M. R.) Hirot dorussaltanasiga bu voqeaning tafsiloti yozilgan maktub yo'llab, uni ta'mirlash uchun ko'rsatma berilishini so'radi. Oliy darajali Sulton (Husayn Bayqaro) ushbu sharh-u tafsillarga ishonqiramay, uni tahqiq etish uchun amiri kabir Alisherni Balxga yubordi. Vaziri ravshanzamir, ya'ni Alisher Navoiy sheri Xudo (Hazrat Ali)ning diydoridan ko'ziga nur olib, haqiqiy ahvoli batamom mushohada qilib ko'rdi, o'zlikdan lol-u ilhaqlik bilan Hirot sariyati batafsil xabar yubordi va o'z maktubini «Musulmonlarga xushxabar beringki, shubha shubhasiz, ular uchun kata fazl-u marhamatlar bordur» oyati karimasi bilan boshlab ushbu (matla'li) g'azal bilan yakunlaydi:

*Dardkash Balx komida may bazmi paydo bo'ldi,
Bu boshlanishlarning bari Balxning tugashida paydo bo'ldi.*

Bunday olamshumul voqeadan Navoiy ta'sirlanganini shoir Hirotga yuborgan maktubdagi oyat va g'azaldan ham ko'rish mumkin. Hazrat Ali shaxsiga hurmat va ixlosi azaldan baland bo'lib kelgan Navoiyning ushbu voqealar tufayli to'rtinchi xalifa shaxsi va ma'naviy merosiga qiziqishi yanada ortgan bo'lsa, ajab emas. Binobarin, bu tuyg'ular yanada mustahkamlanganiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Ayni voqeadan uch yil o'tgach, 1485-yilda Navoiy Hazrat Ali hikmatlarining tarjima va she'riy talqiniga kirishadi hamda «Nazm ul-javohir» asarini yaratib Navoiyning Hazrat Ali hikmatlariga qo'l urishiga yana bir sabab, uning Balxga otkazgan hayajonli kunlaridan qolgan yorqin xotiralari bo'lishi kerak. Demak Hazrat Ali qabriging topilishi uyg'otgan taassurotlar «Nazm ul-javohir» matnini yaratilishining uchinchi sababidir».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 15-jild Toshkent.: Fan, 1999.
2. Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. Toshkent.: Fan, 1968.
3. Rashidova M. Alisher Navoiy «Nazm ul-javohir» asarining matniy tadqiqi. Monografiya Toshkent. 2011.
4. Rajabova M. Alisher Navoiy «Nazm ul-javohir» asarining manbalari va badiiyati //Avtoreferat. Samarqand. 2006.



ALISHER NAVOIYNING «FARHOD VA SHIRIN» DOSTONIDA TAZOD SAN'ATI

Xabibullayev Muzaffar

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Maqolada tazod san'atining o'rganilish darajasi Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi ba'zi misollar yordamida keltirib o'tilgan. Bir qator asarlar bilan solishtirilgan holda maqolada aks ettirilgan tazod san'ati yanada chuqurroq tahlil etilgan.

Tayanch soʻzlar: balogʻat ilmi, ilmi sanoye, tazod, doston.

Annotation

This article deals with the research level of tazod (the art of using anonyms) in the couple of Alisher Navoiy's «Farkhod and Shirin». This type of art is deeply researched having been compared with other works.

Key words: approach to adolescence, sanoye and tazod, epos.

Аннотация

В статье художественное средство «тазод» показано на отдельных примерах произведения Алишера Навоий «Фарход и Ширин». В статье через сравнение ряда произведений проведен более глубокий анализ художественного средства.

Ключевые слова: Наука о красноречии, наука о художественных приёмах, поэтика (тазод), поэма.

She'riy san'atlar mumtoz adabiyotimizda qofiya ilmi kabi alohida ilm sifatida o'rganib kelingan. Sharqda bu ilm «balogʻat ilmi», «ilmi sanoye» nomlari bilan o'rganilgan. She'riy san'atlarga she'rning ta'sirchanligini, badiiyligini, qimmatini tohiruvchi vosita sifatida qaralgan. Bu haqida alohida ilmiy asarlar ham yaratilgan. Jumladan, Rashiddin Vatvotning «Hadoyiq us -sehr fi dahoyiq ush-she'r» asarida bu xususida alohida to'xtalib o'tilgan. Xudoydod Taroziyning «Funun ul-balogʻa» asarida 100 ga yaqin she'riy san'atlar, Atoullloh Husayniyning «Badoyi' us-sanoyi» asarida 143 ga yaqin she'riy san'atlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Sharq mumtoz namunalari badiiy g'oyaga katta e'tibor qaratilgan, ayniqsa, ma'naviy san'atlar orqali badiiy g'oya ifoda etilgan, zohiriy ma'nolarga chuqur badiiy mazmun yuklash yetakchi bo'lgan. Masalan, Alisher Navoiy asarlari orqali chuqur tahlil etilgan tazod badiiy san'ati xususida shunday deyish mumkin. Z. Hamidovning «Lison ut-tayr» bo'yicha olib borgan kuzatishidan undagi tazod san'ati namunalari: 1) parallel qo'llanilgan zid tushunchali soʻzlar; 2) yonma-yon kelgan qarama-qarshi ma'noli soʻzlar; 3) bayt misralarining asosini tashkil etgan zid tushunchali soʻzlar; 4) bayt misralarida stilistik sinonimik xususiyatga ega bo'lgan zid tushunchali soʻzlardan hosil bo'lganini ko'rsatgan [1. 53-56]. U «Lisonut-tayr» dagi tazodlar lugʻaviy materialiga ko'ra turkiy soʻzlar asosida yaratilgan tazodlar, arabcha antroponimik soʻzlar asosidagi tazodlar, fors-tojik tiliga ko'ra soʻzlar asosidagi tazodlarga bo'linishini qayd qilgan.

Darhaqiqat, shoir asarlaridagi tanlangan soʻzlar, poetik obrazlar ma'naviyatiga qaramasdan, ko'p hollarda o'z mazmun-mohiyati va imkoniyatining yangiligi bilan e'tiborni tortadi. Alisher Navoiy qo'llagan birgina tazod badiiy san'ati orqali milliy tilimizning imkoniyatlarini, adabiy-badiiy qimmatini, poetik obrazlarning tarbiyaviy ahamiyatini chuqurroq anglash mumkin bo'ladi.

Shoirning «Farhod va Shirin» dostonida ham ta'zod san'ati qo'llanilib, qahqahmonlar xarakteridagi, xatti-harakatidagi, holatidagi qarama-qarshi bo'yoqlarni berishga xizmat qilgan. Dostonning XXV bobida Farhodning Suqrot tog'iga borib Suqrot hakim bilan uchrashgani bayoni berilgan. Shoir Suqrot tog'ini mubolag'ali ta'virlaydi, shoiring yozishicha, Farhod buyukligi to'qqiz osmoncha keladigan,

etaginging doirasi kenglikda ikki jahoncha keladigan, atrofi sonsiz g'oz chuqurliklar bilan o'ralgan:

*Yo'q anda g'orning boshi-ayog'i,
Ne oning uchi paydo, ne qirog'i* [3. 116].
Suqroti hakim Farhodni ko'rishi bilan unga shunday deydi:
*Safo kelturdungu xush kelding oxir,
Qorong'u uyni ravshan qilding oxir* [3. 120].

Ikkinchi misrada tazod san'atini hosil qilgan unsurlar *qorong'u* → *ravshan* so'zlaridir. *Qorong'u* so'zi «*qorong'ilik bosgan, qorong'ilikka cho'mgan, ziyofat nurdan mahrum bo'lgan*» [2. 345] ma'nosi bilan *ravshan* so'zining «*yorug', ma'yoriqim*» [2. 335] ma'nosiga zid qo'yilgan.

Dostonning XLIV bobida Xisravning Farhodni bandi qilgani, Shopun va Shiringa Farhod tirikligi xabarini yetkazgani, Farhodga Shirinning xat yozgan xususidagi hikoya berilgan. Bobda keltirilishicha, Farhod va Xisravning savdo javobidan so'ng Farhodning oddiy inson emasligi barchaga ma'lum bo'lgan. Qo'riqchilar uning Chin xoqoni ekanligini, lekin bu bilan maqtanmaganini, ularda o'ylab zindondan qochib ketmaganini anglab yetishgach, Farhod xalq ichida mashhur bo'lgach, u haqda Xisravga yaxshi yoki yomon so'z aytishga o'jiz qoladilar.

*Bo'lub erdi xaloyiq ichra mashhur,
Yamon, yaxshi demaktin erdi ma'zur* [3: 262].
Shu bobning boshqa baytida:
*Bu dam holi dag'i mafhum emas lek,
O'luk yoxud tirik ma'lum emas lek.*

So'zlarning zid ma'nolari orqali tazod yaratishda ular to'la zidlashga bo'lishi shart emas (masalan, keltirilgan birinchi misolda), so'zlarning ma'nosi qirralaridan foydalangan holda tazod yaratilgan. Shuningdek, ikkinchi misoldagi *qorong'i* va *yorug'* so'zlari, uchinchi misoldagi *yaxshi* va *yomon* so'zlari to'rtinchi baytda *o'lik* va *tirik* o'zaro to'liq zidlantirilgan, ya'ni Farhodning sifatlarini bo'rttirishga xizmat qilgan.

Yuqorida keltirilgan tazod namunalari shuni ko'rsatadiki, A.Navoiy tazod uchun asos qilib olingan materialni tub antonimlar yoki kontekstual (matniy) ziddiyat asosida tanlagan. Kuzatilgan misollarda tazod san'ati orqali zohiriy ifodalarga chuqur botiniy ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidov Z. «Lisonut-tayr» da tazod san'ati // O'zbek tili va adabiyoti. — 1981.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 5-jild. T., 2008.
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. —T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2006.



TASHXISDAGI TABIAT JILVASI

Ismoilova Muxlisa

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz adabiyotida «jonlantirish» san'ati qo'llanilishidagi boshqarilgan va farqli jihatlar yoritilgan. Sharq va G'arb adabiyoti namoyandalari asarlaridan olingan misollar orqali izohlangan.

Калиф so'zlar: adabiyot, jonlantirish, tashxis, intoq, personifikatsiya, xarakter, xususiyat, boshqarilgan san'at, tashbih, metafora va boshqalar.

Annotation

Personification are compared in this article and are found similarities and differences. They are explained by works of West and East literature.

Key words: literature, personification, character, quality, literary art, metaphor and others.

Аннотация

Персонализация сравнивается в этой статье и обнаруживает сходства и различия. Они объясняются работами западной и восточной литературы.

Ключевые слова: литература, персонификация, характер, особенность, литературного мастерство, аналогия, метафора и отдельные.

Jonlantirish san'ati o'zbek adabiyotida juda keng qo'llanilgan san'at turidan biridir. Bu san'at tanlangan obyektini keng ta'riflash, tavsiflash jihatidan boshqarilgan o'ringa ega. Tabiatdagi oddiy predmet-ashyolarni odamlarga xos bo'lgan xususiyatlar orqali obrazli qilib, shuningdek, tabiat hodisalari, hayvon, parranda, qush kabi hayvonlarga ko'chirish orqali hosil qilinadi [1: 75] hamda 2 qismga bo'lindi: tashxis va intoq. «Tashxis» arabcha «shaxs» o'zagidan hosil bo'lgan bo'lib, «shaxslantirish» ma'nosini bildiradi [2: 156]. U orqali shoir yoki yozuvchi chiroyli tasvir va obrazlilikka erishadi. Navoiyshunos olim Y. Is'hoqov ushbu san'at turiga shunday ta'rif beradi: «Tashxis — hayvonot va nabotot, hatto jonsiz ob'ekt olamidagi ashyolarga inson uchun xos bo'lgan xususiyatlarni (kechinma, hissiyot, xatti-harakat) bahsh etib tasvirlashdan iborat [3: 232]. Misol tariqasida o'zbekning ushbu misralarini keltirib o'tamiz:

*Nafis chayqaladi bir tup na'matak,
Yuksakda quyoshning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na'matak*

(«Na'matak») [4: 109].

«Tashxis» Yevropa adabiyotshunosligida «personifikatsiya», xalq og'zaki adabiyoti uchun xarakterli bo'lgan qadimiy badiiy usul [3: 232]. Ko'rinadiki, «shaxslantirish» san'ati nafaqat o'zbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham

keng ifoda yo'siniga ega. «School Dictionary Macmillan» lug'atida «personification», ya'ni «jonlantirish» ga shunday izoh keltirilgan: personification-a figure of speech in which human characteristics are given to an animal, thing, idea or quality [5]. Ya'niki, «shaxslantirish» gapning shunday turiki, unda kishi xarakteri hayvonlar, narsalar yoki boshqa shu kabi g'oya va qarashlarda aks etadi. Shuningdek, keltirilgan ba'zi ilovalarda ushbu san'atiga turiga yana ham tushunarli tarzda shunday izoh keltirilgan: Personification is a type of metaphor and a common literary tool. It is when you assign the qualities of a person to something that isn't human or that isn't even alive, like nature or emotions. It can be used to emphasize a point (shaxslantirish-metaforaning turi va adabiy atama hisoblanadi. U shaxslarga xos bo'lgan xususiyatlarni borliqdagi u o'xshash va noo'xshash, jonli yoki jonsiz narsalarga ko'chirish san'atidir)[6].

Demak, bundan ko'rinadiki, ingliz adabiyotida «shaxslantirish» nuqtai nazar ko'chirish turlaridan biri hisoblangan metaforaga uyg'un tarzda tahlil qilinadi. Lekin biz yaxshi bilimizki, metafora ko'proq o'zbek badiiy adabiyotida «tashbih» «o'xshatish» san'atiga mos qo'yiladi. Misol uchun, Alifnavo Navoiyning quyidagi baytida xunrez johil tashqi ko'rinishi bilan ham, mohiyat (vazifasi- qon to'kish) bilan ham qilichga o'xshatilgan:

*Qatl ishida garchi qilichdek samar,
Aylab uni shoh murassa kamar [3: 239].*

Bir qarashdayoq baytdagi «dek» qo'shimchasi orqali «tashbih» san'ati qo'llanganligi oydin bo'ladi. Lekin tasvir usuliga diqqat qiladigan bo'lsak, «qilich» so'zi o'zida johil shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarni ifodalash orqali «tashxis» «shaxslantirish»ni ham ifodalagandek tuyuladi. Aslida baytda aynan metafora (ko'chirish) orqali «tashbih» san'ati keltirilyapti. Ammo quyidagi misralar orqali biz metafora san'atining «tashxis» san'ati negizidagi ifodasi haqida guvoh bo'lamiz:

*Rahmi kelib bulutning
Yig'lab to'kar yoshini.
Qushlar qochar, majnuntol
Ko'taradi boshini.
Bulutning orasidan
Quyosh kulib qaraydi,
Majnuntolning yuvilgan
Sochlarini taraydi*

(E.Vohidov «Manzara»)[7: 3]

Ushbu misradagi «bulutning yosh to'kishi», «majnuntolning bosh ko'tarishi», «quyoshning kulib qarashi» kabi tasviriy birikmalarda biz qarashdayoq «shaxslantirish» san'atini ilg'ash qiyin emas.

Metafora atamasining izohiga diqqat qiladigan bo'lsak, «metaphora» yunoncha «ko'chirish» («ko'chim»), ya'ni so'z yoki iborani o'xshashlik yoki o'xshatishga asoslangan ko'chma ma'noda ishlatish va shunday ma'noda

Obidjonning «G'alati maktublar» turkumidan olingan «Osmo chiroqning oymomaga yozgan xati» nomli she'ridan olingan quyidagi satrlarga c'tib» qaratamiz:

*To'lishibsiz, Oymoma, kirib olib darmonga,
Shisham sindi... Buguncha chiqib turing osmonga.
Men ham yordam qilarmen, nochor qolgan chog'ingiz,
Omon bo'ling baxtinga, tugamasin yog'ingiz [12: 44].*

Ushbu she'rni o'qigan kishida bolalarcha pok kayfiyat, beg'araz va ezg'orzu-umidlar tugunchasini yelkasiga ilgan samimiy tuyg'ular jo'sh uradi. She'rda hayotiy haqiqat va favqulodda quvnoqlik ifori qorishib, ajib haqiqat go'zallik kashf etgan. Nafaqat Anvar Obidjon she'rlarining, balki butun bolalar adabiyotining bebaho marvaridi ham mana shu soddalik va samimiyat, ashk va yashuklik. Ingliz adabiyotida birgina «personification» atamasi o'zbek adabiyotidagi ham «tashxis», ham «intoq» san'atini ifodalash uchun xizmat qiladi. Misol uchun ingliz bolalar adabiyoti mashhur namoyandalarning «Snow White and the Seven Dwarfs» ertagidan olingan quyidagi parchani keltirishimiz mumkin:

*For ten whole years the silly Queen
Repeated this absurd routine
The suddenly, one awful day
She heard the Magic Mirror say
«From now on Queen, you're number two
Snow-White is prettier than you» [13].*

She'rda sehrlil ko'zgu qirolichaga shunday deydi: «Siz go'zallikda ikkinchi o'rindasiz. Oppog'oy sizga qaraganda chiroyliroq». Bilamizki, ko'zgu so'zlash imkoniyatiga ega emas. Lekin she'rda «personification» orqali insonga xos bo'lgan «so'zlash» xususiyati buyumga ko'chirilyapti. Bu o'zbek adabiyotida «intoq» san'ati hisoblanadi. Qaysi bir millat adabiyotini olmaylik, ularning har birida inson ichki dunyosini, hissiyotlarini, hayotiy qarashlarni tasvirlashda favqulodda o'ziga xoslik ko'zga tashlanadi. Kelajakda Sharq she'riyatiga xos bo'lgan ushbu ustunlik yanada rivoj topishi va uning o'rganilmagan qirralari tahlil etilishida biz yoshlarning vazifamiz ekanligini yodda tutmog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Matchonov, Sh. Sariyev. Adabiyot(to'ldirilgan va qayta ishlangan yangi nashrlar). Toshkent: Sharq, 2011.
2. Q. Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot (umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua). –T.: Yangiyo'l Poligraph service, 2006.
3. Yo. Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. Toshkent. O'zbekiston, 2014.
4. Мусо Тошмухаммад Ўғли Ойбек. Созим. Тошкент: Ғофур Ғулом нашриёти. 1980.
5. William D. Halsey/Editorial Director. School Dictionary Macmillan. 2014.
6. «Examples of Personification. «YourDictionary, n. d. Web. 10 April 2018. <http://examples.yourdictionary.com/examples-of-personification.html>

1. Нохидов. Сайланма. 1-жилд. Ишқ савдоси. Тош: «Шарқ» нашрийоти.
2. Узбек тилининг изоҳли лугати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат тасвиқ нашриёти. 2006.
3. William Shakespeare. Romeo and Juliet. Москва2008.
4. W. Шекспир. Танланган асарлар. Тошкент Ғофур Ғулом нашриёти. 1981.
5. Hojimatmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: Sharq, 1999.
6. Анвар Обиджон. Масхарабоз бола. Тошкент: Ёш гвардия, 1986.
7. Brother Grimms. Snow White and the Seven Dwarfs. «Sharq» nashriyot-matbaa kompaniyasi bosh tahririyati. –T.: 2014.



ARUZ SHE'R TIZIMIDA DOIRALARNING O'RNI

Keldiyorov Asomiddin

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Aruz vaznini tez va oson o'rganish, mukammalroq tushunish maqsadida Xalil ibn Ahmad, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ulug' ajdodlarimiz ish olib borgan. Ular o'z asarlarida aruz ilmini o'rganishda doiralardan foydalanishgan va uning muhimligini ta'kidlashgan. Biz ushbu maqolamiz orqali bu doiralarning haqiqiy ma'lumot berdik va aruz ilmini o'rganishda doiralarning o'rni qanchalik muhimligini qiyosiy ko'rsatib berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: Aruz doiralari: «Doirai muttafiqa», «Doirai mu'talifa», «Doirai montajia», «Doirai muxtalifa», Xalil ibn Ahmad, Jomiy, «Risolai aruz», «Majolis un-nafois», «Abustasr», «Doirai mujtamia», «Doirai muxtalita», «Doirai mushtabiha», «Mushtabihai ilmi», «Me'yor ul-ash'or», Fitrat, «Risolai aruz».

Annotatsion

To investigate and comprehend deeply aruz meter, it was studied well by our ancestors like Xalil ibn Ahmad, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy and Bobur. They used the circles to investigate the aruz meter and mentioned it as an important factor. We have provided detailed information about these circles and tried to reveal their importance in studying aruz meter comparatively.

Mumtoz adabiyotni o'rganishda aruz ilmi kalit vazifasini bajaradi. Aruzni anglamay turib, g'azal ohangini his qilib bo'lmaydi. «Aruz vazni adabiyotning matematikasi», deydi ustozimiz Dilnavoz Yusupova. Matematikani o'rganishning har xil usullari va formulalari bo'lgani kabi aruzni o'rganishning ham o'ziga xos usullari bor.

Aruz vaznini tez va oson o'rganish maqsadida qadimda ko'plab aruzshunoslar ish olib borishgan. Bularning eng birinchisi «arab filologiyasining asoschisi» deb atalib etilgan olim Xalil ibn Ahmad (715/719–786/791)dir. U aruz ilmini bir butun ilmiy holiga keitirdi va aruz bahrlarining o'zlashtirilishini osonlashtirish maqsadida

ruknlar, ulardagi sokin (yopiq hijoning oxirida keluvchi undosh) va mutahar (shunday harfki, undan keyin «a», «u» va «i» tovushlari (harakatlar) kelishi lozim) harflar sonining tengligiga ko'ra o'zaro yaqin bo'lgan bahriarni guruhlashtirib ularning ritm-ohang xususiyatlarini, o'zaro yaqinligi va farqlarini doira ichiga keltirilgan bir misra she'r misolida ko'rsatishni ma'qul ko'rdi va 15 bahrni o'z ichiga oluvchi 4 doira ixtiro qildi [2: 6].

Aruz ilmiga doir manbalarda doiralar va ularning nomi haqida turli fikrlar keltiriladi. Xususan, Abdurahmon Jomiy o'z risolasida shunday yozadi:

*Doirai she'ri Ajam Mu'talifa, Muxtalifa,
Solisi on Muntazia, robei on Muttafiqa [1: 23].*

(mazmuni:

Ajam she'ri doiralari, Mu'talifa, Muxtalifa,
Uchinchisi Muntazia, to'rtinchisi Muttafiqa).

Har qaysi doira qancha bahrni o'z ichiga olsa, shuncha bo'lakka bo'lingan bo'lib, 6 yoxud 8 ruknli solim yoki zihofli vaznlarning ruknlari ham keltiriladi. Doira atrofida berilgan misrani birinchi so'zdan boshlab o'qilsa, bir bahr, ikkinchi so'zdan boshlab o'qilsa, ikkinchi bahr, uchinchi so'zdan boshlab o'qilsa, uchinchi bahr shu tarzda doiraga birlashgan bahrlar asoslarining bir-biridan faqat cho'qqin yoki qisqa hijolar o'rni bilangina farqlanishi o'zlashtiriladi.

Xalil ibn Ahmad 4 aruz doirasiga asos soldi. Shams Qays Roziyning «Ar-Roziy mo'jam fil maori ash'or il-ajam» asarida ham 4 ta doira, Nosiruddin Tusiyning «Me'yor ul-ash'or» asarida 5 ta, Sayfi Buxoriyning «Aruzi Sayfiy» asarida 5 ta, Atoulo Husayniyning «Badoye us-sanoye'» asarida ham beshta, Volodimir Tabriziyning «Jami muxtasar» asarida 6 ta, Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida 7 ta, Boburning «Muxtasar» asarida esa 9 ta aruz doirasi mavjud [2: 6].

Xalil ibn Ahmad ramal, hazaj, razaj bahrlarini bir doiraga solarkan, bu doira «Doirai mu'talifa» deb ataydi. Bu nom «qo'shilgan, uyg'unlashgan» ma'nolarda beradi. Jomiyning «Risolai aruz», Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida ham shu nom bilan atalgan. Jomiy bu doira uchun misol sifatida:

Shud ba xuni dil zi shavqi maygunat ruham tar [1: 23]

misrasini keltiradi. Navoiyda esa:

Bil visolingda g'ami hijron xayolidin ko'ngul qon [2: 145]

misrasi misol qilib ko'rsatiladi. Ammo Boburning «Muxtasar» asarida bu doira «Doirai mujtaliba» (jozibali) deb atalgan. Bobur mazkur bahr uchun:

Qilma, ey mahvash, jafo sendindurur nohush jafo ko'p [4: 31]

misrasini ko'rsatadi.

Bu doira asosida Bobur yana 2 doira: «Mujtalibai muzohifa» va «Mujtalibai muxtaria» doiralarini ixtiro qilgan. «Mujtalibai muzohifa» doirasi ramal, hazaj, razaj bahrlarining zihofli vaznlarini o'z ichiga olgan. Bobur bu doirada «Mening ko'radur yor, meni kim so'radur yor» misrasini keltiradi.

Ikkinchi doira «Mujtalibai muxtaria» ham ramal, hazaj bahrlarining zihofli vaznlarini o'z ichiga olgan. Bu vaznlar hazaji musammani maqbul va ramal musammani makfuf vaznlardir.

Yana bir doira «Doirai muttafaqa» bo'lib, mutaqorib va mutadorik bahrlarini o'z ichiga olgan. Navoiyning «Mezon ul-avzon» ida bu bahr haqida shunday deyiladi: «Va mutaqorib va mutadorik ajzosi xulosiyotqadurki, mutaklub 3 mutaharrik va 2 sokindurur. Mutaqorib ajzosi 8 qatla «foilun» va mutadorik ajzosi 8 qatla «foilun» va bu ikki bahrni bir darajada qo'yub otin muttafaqa» debdurlar [3: 148]. Navoiy bu doiraga «Kelib dardima chora qilsang bo'lg'ay» misrasini keltiradi. Jomiyning «Risolai aruz» asarida ham bu doira doim bilan tilga olinadi. Jomiy bu doiraga quyidagi misrani keltiradi: «Atakun bo man ey bevafo in jafoho» [1: 23].

Yana bir doira «Doirai muxtalifa» bo'lib, u mutqazab, mujtas, muzori, munsarih bahrlarini o'z ichiga oladi. Navoiy bu bahr haqida shunday deydi: «Animo munsarihi matviy va muzoriyi matviy va makfuf va mutqazabi matviy va mutotoni makfuf va maxbunniki, musammanul ajzodurlar, bir doiraga qo'yub, ul doirani «Muxtalifa» debdurlar [3: 147]». Navoiy bu doiraga quyidagi baytni misol keltiradi: «Ishq etar tan figor, shavq qilar jon zaiif».

Bu doira Jomiyning «Risolai aruz» ida ham shu nomda keltiriladi. Jomiy bu doiraga «Dil zabud shavq zi man jon sitand ishq zi man» [1: 23] misrasini keltiradi.

Boburning «Muxtasar» asarida esa bu nom ostida mutlaqo boshqa: tavil, madid, basit, amiq va ariz bahrlarini o'z ichiga oluvchi aruz doirasi nomi bo'lib keltiriladi. Bu doira o'zbek aruzshunosligida yangi hodisa bo'lib, Navoiyning «Me'zon ul-avzon»ida uchramaydi. Bobur har 5 bahr uchun misol qilib: «Kel menga qil menga sen, kel qil guzar sen» misrasini keltiradi. «Kel» so'zidan boshlab o'qilsa, amiq musammani solim, «Menga» so'zidan boshlab o'qilsa, tavili musammani solim, «Qil» so'zidan boshlab o'qilsa, madidi musammani solim, «Guzar» so'zidan boshlab o'qilsa, arizi musammani solim, «Sen kel» so'zidan boshlab o'qilsa, basiti musammani solim vaznlari yuzaga keladi. Ma'lumki, ushbu beshala vazn ham arabek she'riyatida qo'llanmagan [5: 52].

Yana bir doiraning nomi «Doirai mushtabiha» Navoiyning «Me'zon ul-avzon»ida tavil, madid, basit bahrlarini o'z ichiga oladi. Bu doiraga «Bir nafas otir qaror-u tahammul yo'q mango» [3: 148] misrasini keltiradi.

«Mushtabiha» so'zi «o'xshash» degan ma'noni ifodalaydi. Bu doira Boburning «Muxtasar» asarida berilmagan. Boburda «Mushtabiha» nomi tamoman boshqa: munsarih, muzori, mutqazab, mujtas bahrlarini o'z ichiga olgan doira keltiriladi.

Bobur tavil, madid, basit, bahrlariga ariz va amiq bahrlarini qo'shib «Doirai muxtalifa» doirasini tuzadi. Boburning «Muxtasar» asarida yana bir doira «Mushtabihai solim» doirasi keltiriladi. Bu doira muzori, hafif, mujtas, munsarih, mutqazab, qarib, mushokil, jadid (g'arib) va sari' bahrlaridan ya'ni 9 ta bahrni o'z ichiga oladi. Navoiyda esa shu 9 bahrni o'z ichiga olgan doira boshqacha: «Doirai mujtamia» deb ataladi. Bu doira haqida Navoiy shunday yozadi: «Bu mazkur bahrlar to'g'ri asl bahrning soliminiki, zihofot duhulidan salomat qolmish bahrlar, bir doirai azimada jam qilib, har birining o'mig'a alohida misol kelturub, muqattasini yana bir misradin ham istihroj qilib, ul «Doirai mujtamia» deyildi. Va

bu doira rasmi zamon zurafosidin ba'zining hayolig'a kelib erdi, ammo faqir anjir tartib berdim [3: 147]». Navoiy bu doiraga yuqoridagi 9 bahming musaddasi solim vaznlariga bittadan, jami 9 misra she'r ayni vaqtda barcha bahrlar uchun «Vah-val-yigit, bir-bir yangib kelgil bizga» misrasini keltiradi. Bu xil doira ushbu 9 bahringa ruknlar tarkibi, ohang xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi va bir-biridan farqini oson tushunib olishga yordam beradi [5: 52]. Bobur bu doiraga munosabat bildirib: «Xo'jay Nosir «Me'yor ul-ash'or»ida bu doirani kelturubtur, jadid bila mushokil bahrlarining vaznini ko'rsatub bu bahrlarni mustamal emastur debtur. Mir Alisher Navoiy bo to'quz bahming doirasin o'ziga isnod qilibtur. G'oliban «Me'yor ul-ash'or»ni mutola'a qilmag'andur [4: 31]», deb yozadi. Navoiyning «Me'zon ul-avzon»idagi «Doirai mujtamiya»ni ko'rsangiz uning hamma bahr uchun bir misra she'rda tashqari, har qaysi bahr uchun alohida misralar ham keltiradi. Xuddi shu jihatdan Navoiy o'z doirasining yangiligini ta'kidlagan bo'lishi mumkin [5: 52].

So'nggi doira «Doirai muxtalita» bo'lib, aruzning komil va vofir bahrlarini o'z ichiga oluvchi doira nomidir. «Muxtalita» so'zi «qorishiq, aralash» ma'nolarini ifodalaydi. Navoiy bu haqda «Va komil bahri bila vofir bahrida chun nazm kam voqi' bo'lubtur, agar solim va matbu' bahrlardur, ammo doirasig'a taarraf qilibdurlar, ul ikki bahrg'a dag'i doira qo'yuldi va aning otin «Doirai muxtalita» deyildi» [3: 148], deydi. Navoiy bu doiraga «Boqishning balo, borishning alamu turishning jafu, qilishning sitam» misrasini keltiradi.

Aruz doiralari turli asarlarda har xil yondashilgan. Masalan, Fitratning «Aruz haqida» risolasida aruz doiralari nisbatan salbiy fikr bor. Fitrat aruz doiralari aruz ilmini o'rganishni murakkablashtiradi deydi. Ammo bizning fikrimizcha, bir nechta elementlarning bir-biriga o'xshashlarini ma'lum bo'lgan to'plamlarga joylashtirib chiqilsa, ham o'rganilishi oson bo'ladi, ham inson xotirasida uzoq saqlanadi.

Qanday yo'ldan borilmasin, aruzni o'rganish, uni oliy ta'lim, kollej, maktab o'quvchilariga o'rgatish kelgusida ulug' ajdodlarimiz yaratib ketgan she'riyat ummonidan qimmatbaho dur-u javohirlarni izlab topishimizda ko'makdosh bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмон Жомий. Рисолаи аруз (Фурс тилидан таржима, изоҳ ва шарҳлар) муаллифи Д. Юсупова). – Т.: Tamaddun, 2014. – 134 б.
2. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Т.: Akademnashr, 2015. –128 б.
3. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. Асарлар. 14-том. – Тошкент, 1976. –272 б.
4. М. Бобур. Мухтасар. Ўзбекистон: Фан, 1971. – 627 б.
5. Хожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: «Шарк», 1998. – 224 б.
6. Fitrat. Aruz haqida. –Т.: O'qituvchi, 1997. – 185 б.



O'ZBEK ADABIYOTIDA MUSTAZOD JANRI

Mamarasulova Maftuna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 103-guruh talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek mumtoz adabiyotining janrlaridan biri mustazod xususida bo'lib, mustazodning kelib chiqishi, o'ziga xos xususiyatlari hamda shoirlar ijodidagi o'rni aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: mustazod, asosiy misra, yarim misra.

Аннотация

Эта статья посвящена одному из жанров узбекской классической литературы о Mumtoz. В ней рассказывается о происхождении, своеобразии и об его месте в поэзии поэтов.

Ключевые слова: mustazod poststroki osnovnaya stroka.

Annotatsion

The article reports mustazod which is one of the genres of Uzbek Classical Literature. It depicts deprivation of mustazod, its special peculiarities and its importance in poetries' creativity.

Key words: mustazod, the main line, the half line.

Mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan janrlardan biri mustazod hisoblanadi. «Mustazod» so'zi arabchadan olingan bo'lib, «orttirilgan», «ziyoda qilingan» degan ma'noni anglatadi. Mustazod maxsus hazaji musammani axrabi maklufi mahzufi mustazod vaznida (Taqte'si: - - V/V - - V/V - - V/V - - V/V - -) yoziladi. Taqte'sidan hamda lug'aviy ma'nosidan ham shu narsa ko'rinib turibdiki, bu janrda har bir misradan keyin yarim misra orttiriladi va bu orttirilgan yarim misra o'zidan oldingi bir misraning birinchi va to'rtinchi tokulariga teng bo'ladi. Mustazod mumtoz adabiyotimizning muhim janri hisoblangan g'azaldan o'sib chiqqan. Matla' va maqta'ning mavjudligi, taxallusning qo'llanilishi, baytlar soni jihatidan g'azal bilan umumiylikni hosil qiladi (G'azalning qofiyalanishi: a-a, b-a, v-a....; mustazodning qofiyalanishi: A-A-a₁-a₁, B-A-b₁-a₁; V-A-v₁-a...) [A, B, V-asosiy misralar a₁, b₁, v₁-yarim misralar]. Mustazodning maxsus vaznda yozilishi va maxsus yarim misraning orttirilishi uni g'azaldan farqlaydi.

Alisher Navoiy ham ushbu janrga «Mezon ul-avzon» asarida alohida ta'rif beradi: «...xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi maklufi mahzuf vaznida anga bayt hoshlab bitib, aning misraidan so'ngra hamul buhrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'motiga rost keltururlar ermish va ani «mustazod» derlar ermish, andoqkim,

Ey husniga zarroti jahon ichra tajalli

Maf'uvlu mafoilu mafollu faulun

Mahzar sanga ashyo

Maf'uvlu faulun

*Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,
Olam sanga mavlo»*

Alisher Navoiyning ushbu ta'rifini mustazod janrining kuyga (qo'shiq qilib aytishga) mutanosibligini isbotlaydi. Turkiy adabiyotda mustazodning ilk namunasi Hofiz Xorazmiy ijodida uchraydi. Hofiz Xorazmiy devonida ikkita 7 baytli oshiqona mavzudagi mustazod mavjud. Hofiz Xorazmiyning birinchi mustazod quyidagicha boshlanadi:

*Ey ko'zlari bodom-u sochi dom-u yuzi ol,
Kel tarki jafo qil, Solma bu havodorni ko'zdin,*

o'zini ol

*Oshiqqa vafu qil.
Ko'zim haqqi bor ol yuzing uzra o'zingni
Bilmasga qo'sharsan.
Nodon ko'runub qilma o'qish hiyla taqi ol
Ul haqni ado qil [3: 263]!*

Yuqoridagi ikki misradan ko'rinib turibdiki, ikkala baytda ham aynan «ola so'zi orqali tajnis san'ati yuzaga keltirilganini hamda kichik misralarda «qil» so'zi radif sifatida takrorlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Hofiz Xorazmiyning «Jononakim, aning so'zi jonimga yoqadur» boshlanmali ikkinchi mustazodi ham vazn jihatidan mukammallikka ega. Matla'si:

*Jononakim, aning so'zi jonimg'a yoqadur,
Shirin dahani bor.
Din yo'lida kofir ko'zi ham ayni balodur,
Ko'p makr-u funi bor.*

Matla'dagi asosiy misrada «yoqadur-balodur» so'zlari orqali och qofiy qo'llanilgan bo'lsa-da, yarim misrada «dahani-fani» so'zlari orqali bu saktalik bartaraf etilgan hamda «bor» so'zi radifga olingan.

O'zbek adabiyotida Hofiz Xorazmiy boshlab bergan mustazod yozish an'anasini Gadoiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar kabi ijodkorlar davom ettirishgan.

Gadoiy devonida «Ey g'amzasi fitna ko'zi fatton» deb boshlanuvchi 7 baytli bir mustazodi mavjud bo'lib, bu mustazod oshiqona mavzuda yozilgan.

Ey g'amzasi fitna ko'zi fatton, o'zi ofat,

rahm ayta bu jonu.

Hatm o'ldi sanga saltanati mulki latofat,

Ey shohi yagona [4: 110]

Yuqorida keltirilgan matla'dan ham ko'rinadiki, ushbu mustazodning hech istisnosiz maxsus vaznga tushishi uning ravon o'qilishini ta'minlaydi. Matla'dan boshlangan ushbu ravonlik maqta'gacha davom etgan.

Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» devonining har bir qismida ham biri 7 baytdan iborat bittadan mustazod uchraydi. Birinchi devoni «G'aroyib ussig'ar» devonidagi mustazod quyidagicha boshlanadi:

Ey husnunga zarroti jahon ichra tujalli
Mahzar sanga ashyo.
Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli
Olam sanga mavlo[1: 98].

Alisher Navoiyning barcha mustazodlari kabi vazn qoidasiga qat'iy amal qilgan. Matla'dan ko'rinadiki, asosiy misralar ham, yarim misralar o'zaro qo'fiyulangan. Bu holat maqta'gacha qat'iy davom etgan.

«Navodir ush-shabob» devonidagi «Din ofati bir mug'bachai mohiliqodur» deb boshlanuvchi mustazodi, «Badoye' ul-vasat» devonidagi «Ne vo'smavu ne bo'mudur ul zulfi sumansoy» deb boshlanuvchi mustazodi hamda «Favoyid ul-kibar» devonidagi «Bordim bu sahar dayri fano sari urub gom» mustazodlari ham asosiy misralar, ham yarim misralarning qo'fiyalanishiga asoslanadi. «Favoyid ul-kibar» devonidagi mustazodida nargilaridan biroz farqli jihlatlar mavjud. Yuqoridagi uch mustazod oshiqona mavzuda yozilgan bo'lsa, ushbu mustazod rindona mavzuda yozilgan. Mustazodda qo'llanilgan «maxmur», «hodai gulform», «soqiy» «mug'bachai», «jomi mayoshom», «mast», «may» kabi birliklar uning uning rindona ruhda ekanligini asoslaydi. Shuningdek, ushbu mustazodda boshqa mustazodlarga nisbatan o'ynoqi kuy ohangining yuqoriligini ko'rish mumkin.

O'zbek adabiyotida mustazod janri bo'yicha eng samarali ijod qilgan qalokor Mashrab hisoblanadi. Hozirgi kunda Mashrab qalamiga mansub 21 ta mustazod ma'lum. Bu mustazodlar ichida hajman eng qisqa baytli, ya'ni 3-4 baytli mustazoddan tortib 12-15 baytli mustazodlargacha uchraydi. Mashrabgacha bo'lgan va undan keyingi ijodkorlar ijodida hajman bunday qisqa va uzun baytli mustazodlar uchramaydi. Quyida uning eng qisqa mustazodi:

Rahm ayla manga emdi, ayo ruhi ravonim -
Jon chiqqali yetti.
Turdi bu zamon ishq o'tida kuygani jonim, -
Boqsang manga netti?
Ko'nglum kalidin iturub topmadim aslo, —
Hayrona bo'libman,
Olibsiz ani jurm turur, sizda gumonim, -
Xushum bari ketti.
Holimni so'rab ko'nglumi olsang nima bo'lgay -,
Ey tosh yuraklik ?
Bul Mashrabi dilxastaga ey shohi jahonim, —
So'zini tugatti[5: 352].

«Aytay senga dard-u alamim ofati jonim», «Ishqing o'tida kuydum-u yondim, xabaring yo'q» kabi boshlanmalarga ega ikki mustazodi 4 baytlidir. «Nogoh ko'runub ko'chada ul sarvi xiramon», «Ey moh, netay, ishqing o'ti ayladi rasvo», «Nozik badano, sun'iy Xudovondi jahonsan», «Ul husni jumolingga bu olam chidayolmas», «Sen shohi muluk saltanating olama to'lg'on», «Ishqingda yurak ham jigirim xun» kabi boshlanmalardan iborat

mustazodlari 5 baytdan iboratdir. «Ko'zi uchi bilan dilbari ra'no menga boqti», «Ko'rmakka sani tun-kechalar uyg'onadurman», «Ishqingda kuyub ko'rib bo'lubman, xabaring yo'q», «Bul xasta vujudim meni o'rtadi butkul» kabi mustazodi 6 baytdan iborat. «Nogoh ko'runub jilva qilib o'tti parizod», «Haddam meni kuydurguvchi ul ishvanamodur» boshlanmalaridan iborat 2 mustazod g'azllarda mukammal hajm hisoblangan 7 baytdir. «Ko'rdum yana bir mahluq ofati jone», «Vaslingni topay deb sanamo» deya boshlanuvchi 2 mustazodi 9 baytdan iborat. «Mujgoni xadaning yurakim qildi makone», «Ko'rdumki, bu kun parivashi dilbari ra'no» boshlanmali mustazodlari 10 baytdan iborat. «Shirin suxane mohi bashar hur liqoye» deb boshlanuvchi 12 baytli hatto 15 baytli «Fay alif ilmi qadiming oloyi Muhammad» boshlanmali mustazodlari mavjud. Hozirgi kunda Mashrab ijodida ma'lum bo'lgan mustazodlardan 20 ta oshiqona mavzuda yozilgan bo'lib, yuqorida nomi keltirilgan 15 baytli mustazodi esa payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v)ga bag'ishlangan.

Shermuhammad Munis Xorazmiy devoniga ham ikki mustazod kiritilgan. Munisning hajm 10 baytni tashkil etuvchi «Ishqing o'tida o'rtanadur jon nazorim» mustazodi hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod vaznida yozilgan.

*Ishqing o'tidin o'rtanadur joni nazorim,
Ul nav'ki mash'al,
Hokistar o'lub elga borur gardi g'uborim,
Jismim bo'lubon hal [2: 104].*

Matla'sidan boshlangan ushbu qofiyalanish tizimi maqta'gacha davom etadi. Demak, chin ma'noda mustazod talablariga javob beradi. Ammo Munis devonidagi ikkinchi mustazod sifatida berilgan she'riy janr mustazod talablariga javob bermaydi.

*Oy yuzung hajrida har tun qilib ohim sharari
Avji gardunga surud,
Yoqadur anjumi oy sham'ini aning asari
Charxni bil anga dud [2: 106].*

Shakl jihatdan mustazodga o'xshasa-da, vaznini tahlil qilganda 12 ruknli ramal bahrida yozilgan g'azal ekanligi namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, ba'zi mutatavval (8 rukndan ortiq g'azal)da qo'llanilgan ichki qofiyalanishlar mustazod bilan adashtirishga olib kelishi mumkin.

Ogahiy devonida ham ikki mustazod mavjud. «Xurshidi kibi qiz» deb nomlanuvchi birinchi mustazodi an'anaviy shakida bo'lib, oshiqona mavzudagi 7 baytli mustazod hisoblanadi. Ogahiyini o'zbek adabiyotida «mukammal mustazod kashfiyotchisi» nomiga sazovor bo'lishiga sabab bo'lgan «Diydoringga shaydo» nomli mustazodidir. Kashfiyot darajasiga ko'tarilgan ushbu oshiqona mavzudagi 9 baytdan iborat mustazodning matla'si quyidagicha:

*Ey yor, sanga ushbu jahon bog' aro gul,
Bir oshiqi hayron*

*Diydoringa shaydo,
 Bir shiftdur kokuli mushkinga sunbul,
 Ham holi parishon
 Ham boshida savdo [4: 88].*

Mustazod janrining kuy ohangiga mutanosibligini vazndagi qisqa ijodlarning yonma-yon kelishi, shuningdek, bir misradan keyin uning davomi sifatida kelgan yarim misralar belgilaydi. Ogahiy mustazodning asosiy unsuri qoʻllanilgan yarim misralarni bittaga oshirgan. Bu ijodkordan katta mahorat talab etadi. Negaki, bunday mustazod bir baytning oʻzida 3 ta alohida-alohida qoʻlga qoʻllashni talab etadi. Ushbu mustazod matlaʼsida quyidagi 3ta toʻq qoʻlga qoʻllanilgan: gul-sunbul, hayron-parishon, shaydo-savdo. Demak, 9 baytli mustazodda 10tadan 3 xil qoʻfiya qoʻllanilgan.

Ogahiydan keyingi davrda ijod qilgan Komil Xorazmiy devonida ham bir mustazod uchraydi. Xorazmiyning ushbu mustazodi Ogahiyning «Diydoringga shaydo» mustazodiga mavzu, ohang hamda hajm jihatidan juda yaqin yozilgan. Xorazmiy mustazodining matlaʼsi:

*Ruxsorai gulnoringadur gulshan aro gul
 Bir oshiqi hayron
 Ul oshiqi hayroningadur sheftayi bulbul
 Tun-kun ishi afgʻon [6: 169].*

Ikkala matlaʼni taqqoslasak, Ogahiyda «bogʻi aro gul» jumlasida boʻlsa, bu jumla Xorazmiyda «gulshan aro gul» shaklida uchraydi va ikkala matlaʼdagi birinchi yarim misralar aynan bir xildir. Bu oʻxshashlik keyingi baytlarda ham davom etib borgan. Ikkala mustazodda uchraydigan qoʻfiyalar asosiy misralarda: gul-sunbul-bulbul-tagʻofil; yarim misralarda: hayron-afgʻon-parishon-davron-hayron. Bundan koʻrinadiki, original yozilgan bir mustazod asosida yangi mustazodlar yaratilishi mumkin. Mustazodlar tahlili orqali shu narsa maʼlum boʻldiki, barcha mustazodlarda taxallus qoʻllanilgan hamda ular asosan oshiqona mavzuda yozilgan ekan. Xulosa qilib aytish mumkinki, mustazod janrining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish ijodkorning badiiy mahorati va adabiyot tarixida tutgan oʻrni muayyan tarzda belgilashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А. Навоий Хазойинул-маоний. Т., Фанлар академияси нашриёти, 1960 й.
2. Ш. М. Хоразмий. Сайланма. Т., Фафур Фулом нашриёти, 1980.
3. Х. Хоразмий. Девон II китоб. Т., Комитетнинг нашриёти, 1981.
4. Мухаммад Ризо Огаҳий. Девон II жилд. Т., Фафур Фулом номидаги нашриёт, 1973.
5. Машраб. Девон. - Т.: Янги аср авлоди, 2006.
6. Комил Хоразмий. Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёти, 1975.
7. Авваз Ўтар. Девон. Т. 6 Фафур Фулом номидаги нашриёт, 1984.



G'ARB ADABIYOTI NAMUNALARIDA AMIR TEMUR SIYMOSI

Najimova Dilnavoz

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Shu kungacha Amir Temur haqida nafaqat sharqda, balki g'arbda ham ko'plab turli badiiy asarlar yaratilgan. Ammo g'arb adabiyotida Amir Temur siymosi qanday tasvirlangan? Ushbu maqolada shu masalaga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: G'arb adabiyoti, tarixiy asarlar, Temur siymosi, sahna asarlari.

Annotatsion

A lot of researchs have been written about Amir Temur not only in the East, but also in the West so far. But How figure is Amir Temur described in the West literature? I have emphasized it in this paper.

Key words: West literature, historical works, figure of Temur, scenic works.

Uzet

Bugunlere dek Emir Timur hakkonda hem Dopu'da, hem de Bat's'da tarihi bedii eserler yaratilmaktot. Ancak, Bat's edebiyatonda Timur simas3 nas3l tasvir edilmiotir? Makalede bu mesele izerine durulmuotur.

Anahtar kelimeler: Bat's edebiyat3, tarihi uyky, Timur simas3, sahne eserleri.

XVI–XX asrlar oralig'ida g'arb mamlakatlarida Amir Temur siymosi tasvirlangan 60 dan ziyod drama, opera, tragediya; turli janrlarda ko'plab asarlar yaratilgan. Ammo ularda Sohibqiron siymosi qanday tasvirlangan? Badiiy asar yaratishda mualliflar qanday dalil va manbalarga tayanishgan? Ulardagi Amir Temur qiyofasi tarixiy haqiqatga qanchalik yaqin? Biz ushbu jajji tadqiqotimizda shu mavzuni imkon qadar ochib berishga e'tibor qaratamiz. Amir Temur, uning Markaziy Osiyo va jahon xalqlari hayotida tutgan o'mi borasida juda ko'p ilmiy ishlar qilingan. Lekin sohibqiron haqida yaratilgan badiiy asarlarda uning siymosi mavzusidagi tahlillar, maqolalar ko'p deb bo'lmaydi. Ularning aksariyati sahna asarlari bo'yicha yozilgan [1: 9-10]. Shuning uchun ham biz sahna asarlaridan tashqari g'arb nasri va lirik she'rilarida Amir Temur qiyofasi qanday tasvirlanganligi masalasiga ham to'xtalmoqchimiz.

Sohibqiron haqida Franchesko Gasparini «Amir Temur» operasini, Jak Pradon «Amir Temur yoxud Boyazidning o'limi» tragediyasini (1676), ingliz dramaturgi va shoiri Nikolas Rou «Amir Temur» operasini, shuningdek, Fortunato Chelleri (1720), Leonardo Leo (1722), Jovani Antonio Nini (1728), Nikolo Porpora (1730), Antonno Vivaldi (1735), Petro Guglielmi (1764), Antonno Sakkini (1773), Ferdinando Payer (1796), Jovani Tadolini (1818-yil), Antonio Sapientisa(1824- yil) sahna asarlari yaratishgan. Bu asarlarning nomlanishi deyarli bir xil, suyjet yo'nalishi ham o'zaro o'xshashdir [1].

Yevgeniy Berezikovning «Buyuk Temur» (Toshkent, 1995) tarixiy romani, Vladimir Cherevanskiy «Amir Temur bolaligi. Jangovar yoʻli. Vafoti. Tarixiy romani» (Toshkent, 1993), Xilda Xukxem «Yetti iqlim hukmdori» [2] (Toshkent, 1995), Kristofer Marlo, Yohann Volfgang Gyote, Edgar Allan Po, Xorxe Luis Borses, Ivan Bunin, Lyusen Kerenning Temur togʻrisidagi asarlari oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Quyida ularning ayrimlari bilan batafsilroq tanishamiz.

Yohann Volfgang Gyotening «Gʻarb-u sharq devoni» da «Temurnoma» nomli maxsus bob mavjud. Undagi lirik sheʼrlarda Amir Temur nafs yoʻlida dindandaydalanib, oʻzini karomatgoʻy qilib koʻrsatuvchi taqvodorlarga emas, faqatgina haqqa buyuk ishonch bilan qaraguvchi inson sifatida namoyon boʻladi va soxta taqvodorlik qoralanadi:

Temur soʻzi:

*Kibr-u havo xurujimi bu?
Yolgʻonga band siz, ahli taqvo!
Bilmaysiz, qurt boʻlardim yohu!
Yaratsa gar qurt qilib Alloh [3] !*

(tarj. Sadriddin Salim Buxoriy)

Bu sheʼrlarning lirik qahramoni — Temur tarixiy shaxs sifatida emas, sharq muntoz adabiyotiga, tasavvufona adabiyotga ehtirom bilan munosabatda boʻlgan Gyotening xayolidagi siymo sifatida aks etadi.

Amerikalik shoir, nosir, munaqqid Edgar Allan Poning «Buyuk Temur» nomli dostonida yarim jahonni egallagan, ammo muhabbatning sirli tilsimiga asir boʻlibqiron tasviri berilgan [4]. Dostonda aytilishicha, insonni yashashga undovchi doimo harakat qilishga majbur qiluvchi ikki tushuncha bor — shon-shuhrat va muhabbat. Maktab oʻquvchisidan davlat rahbarigacha har bir inson eʼtiborli shaxs boʻlishni, uni hamma hurmat qilishini istaydi. Bunga erishish uchun umrini sarflaydi. Inson bir vaqtning oʻzida ikki narsaga eʼtibor bera olmaydi. Natijada umrimizning muhabbat ustuni nuraydi. Ammo bu ustun qulagan chogʻ inson tutilgan shon-shuhrat, boylik, toj, mansab aslida sahrodagi roʻyo ekanini, mansab va boylik deb oʻylangan baxt asli azob ekanini anglaydi:

*Hayot aynan menga toj etdi ravo,
Kimgadir bu faqat qilgulik havas.
Cheksiz azoblari bor buning, ammo—
Ki doʻzax oʻtlari bir chaqa turmas.
Ilgari men bunday emasdim. Shu toj—
Shu chakkamni siqib turgan baloni
Olganman yurtimni aylagan taroj,
Bosqinchini urib yengib qazoni.
Qaysar ham Rumoni olgan-ku arang,
Qanchalar qon toʻkib sermab qilichin.
Butun dunyo bilan qilmoq kerak jang,
Yerda adolatni oʻrnatmoq uchun...
Yugur-yugur bilan lim toʻla hayot,*

*Bag'rida shomlarni tashidan tonglar
Bari yo 'q bo 'lardi yengil tutunday,
Nurli xayol kabi uchib butunlay.
Qo 'sh qanot ikki so 'z qolardi faqat,
Biri shon-shuhrat-u, biri muhabbat.*

(tarj. Miraziz A'zamov)

Muhabbatsiz hayot g'amga to'la. Mehrsiz yurakni navqiron deb bo'lmaydi. U yerda muhabbat — barcha insoniy tushunchalar jamlanmasi, moddiy va ma'naviy hayotdagi ma'naviyat. Shuhratparastlik esa biz ruju qo'ygan moddiy hayot. Baxt ikki tushunchaning birlashmasi. Baxtga ikki tushuncha jamuljam bo'lgandagina erishish mumkinligini inson umr pillapoyalarini bosib o'tganda va ikkinchi marta eshigiga yetgandagina anglaydi. Ungacha bu kabi so'zlar uning uchun qiymatli va arzon nasihat. Doston qahramoni Temur ham buni alamli kunbotar paytida his qilgan edi:

*G'ussaga cho 'mganda odamning boshi,
Ajaj tasviriga o 'xsharkan oy ham.
Yoshligimiz nima? Bu yoz quyoshi!
Kunbotardan ortiq yo 'q ekan alam.
Muhabbat burgutin ko 'zidan hatto,
Qocholmas edi-ku chibin ham aslo!
Shuhratparastlikning zahari qachon
Tomirlar ichiga qanday quyildi?!
Qay taxlit surbetlik bilan beomon
Sevgining muqaddas sochlarin yuldi?*

(tarj. G'ulom Mirzozoda)

Aslida, doston orqali Edgar Allan Po hayotga bo'lgan qarashlari, umrining mazmunini haqidagi falsafiy mulohazalarini Amir Temur timsolida ochib berishni harakat qilgan.

Nobel mukofoti sovrindori Ivan Bunin ham 1921-yil Parijda «Temurxon» nomli hikoya yozgan. Bu hikoya adibning 1943-yil Parijda chop etilgan «Qorong'u xiyobonlar» nomli to'plamiga kiritilgan [5: 66–77]. Ivan Bunin oktabr to'ntarishidan keskin qoralagan va bu uning asarlariga ham ta'sir etgan. Bu hikoyada yanto jahonni zabt etgan sohibqirondek botirlarni tarbiyalagan zamin ham nocho ahvolga tushib qolgani, sho'roviy zulm ostida borligidan ayrilayotganidan kuyunchak aks etgan. Hikoya devona kishining Temur to'g'risidagi monologi ko'rinishi bilan Asar nasriy she'r usulida saj san'atiga asoslanib yaratilgan:

– *Vooo-oh sadqang bo'lay, Temurxon! Shonli zamoning qani? Ko'ksingiz ketdi armon, dardga darmoning qani? Bu dunyoning bisotin bir pulga olmay otib bedillarni uyg'otib ketding, karvoning qani?*

Endi shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy. Nahotki bunday kuyunchaklik bitta devonaga qolgan bo'lsa? Qani ziyolilar, qani ma'rifatparvarlar? Balki, Temurxon Temur kabi buyuklarni eslaganlarni davr devonaga aylantirgandir? Shuning uchun ham ular shunday nochor ahvolga tushgandir?

Temur haqidagi navbatdagi asar Georg Fridrix Gendelning «Amir Temur» uch pardali musiqali dramasi [1]. Asarda Temur yengilgan Boyazidga muruvvatlar ko'rsatadi. Ammo Boyazid bu bag'rikenglikning samimiy ekaniga shubha bilan qaraydi. U o'zini o'ldirishga urinadi. Ammo bu ishni qila olmaydi. Bunga halal bergan birgina sabab yolg'iz qizining taqdiri. Temur Asteriyaga uylanish niyatida Andronikni «sovchilikka» jo'natadi. Bu ishni uddalasa, uni Yunoniston qiroli etib tayinlashga va Irina ismli qizga uylantirib qo'yishga va'da beradi. Biroq Andronikning o'zi Asteriyaga, unga va'da qilingan Irina Temurga ko'ngil qo'ygan. U bu bois Asteriya makkorona reja tuzadi va nikohga rozi bo'ladi. U Temurni zaharlab o'ldirish va shu yo'l bilan otasinini qutqarishni ko'zlaydi. Ammo bu oryungdan xabar topgan Temur Asteriyaga uylanish fikridan voz kechadi. Boyazid va Asteriya mamlakat qo'ldan ketgani uchun zahar ichishmoqchi bo'lganida Andronik ularni to'xtatib qoladi va Temurga norozilik bildiradi. Ularga marhamat va saxovat ko'rsatib kelayotgan Temur g'azablanadi. Bu kimsalarga dukronalikdan saboq berish maqsadida to'kin dasturxonga chaqiradi. Afsuski, qaduhlarga zahar solingan edi. Andronik va Asteriya qadah ko'tarishganda Irina ortib yuboradi. Boyazid esa zaharli mayni ichishga ulguradi. Bu fojia manzarasini ko'rgan Temurning rahmi keladi. Barchaning gunohidan o'tadi. Voqealar yakunida Temur Irinaga uylanadi. Andronik va Asteriyaga oq fotiha berib, Yunoniston qirolligini tuhfa etadi:

*Qirol, yunonlarning senga qarashli,
Davlatni izminga berdilar hozir.
Toj-taxtingni olgin, senga yarashgay,
Temurbek yot mulkdan etadi hazar.*

Tarixiy manbalarga ko'ra Boyazidning qizlari ko'p bo'lgan, ammo ulardan birortasining ismi Asteriya shaklida uchramaydi [6]. Demak, bu sahna asarini G.F.Gendelning fantaziyalari, tasavvurlari mahsuli deyish mumkin.

Yuqorida sanalgan asarlar makon, zamon va janr nuqtayi nazaridan turlicha. I.V.Giyotening lirik she'rlari XVIII asrda Germaniyada, Amerikalik adib H.A.Poning dostoni XIX asr boshida, I. Buninning «Temurxon» hikoyasi XX asr boshida, G.F.Gendelning operasi 1724-yil yaratilgan. Ammo ularda faqat Temur, Boyazid kabi shaxs nomlarigina tarixga xos. To'g'ri, badiiy ijod sarhad bilmas uchuncha. Lekin tarixiy mavzuda asar yaratishning o'ziga xos me'zonlari bor. Asarning mukammal chiqishini istagan har qanday ijodkor tarixiy dalillarga hech bo'lmasa bir bora ko'z yugurtirib chiqadi. Yuqoridagi asarlarda Temur qanchalik shufqatli, mard, romantik inson sifatida tasvirlanmasin, unda sharqona ruh yo'q. Bu hodisani boshqa ko'plab asarlarda ham uchratishimiz mumkin. Bizningcha, buning bir nechta sabablari bor:

Birinchidan, tarixiy asar yaratayotgan mualliflar aniq dalillarga emas, Amir Temur haqidagi afsonalarga, ko'proq arab muarrixlarining rivoyatlariga tayanishganlar. Ulardagi Temur obrazini salbiy yoki ijobiy deb bo'lmaydi. Sababi, g'arb kishisi Temurni qanday tasavvur qilsa, o'z asarlarida shunday aks ettirgan.

Ikkinchidan, G'arb adabiyotidagi aksar asarlarda Temur Sharq kishisi emas, Yevropaliklar ham, amerikaliklar ham Temurni g'arbone dunyoqarashli inson sifatida tasvirlashgan.

Uchinchidan, Amir Temur, xoh tengi yo'q sarkarda, mard inson sifatida ma'rifat etilsin, xoh bosqinchi qiyofasida gavdalansin ko'plab asarlarda tarixiy shaxs emas, balki g'arb kishisining fantaziyalari mahsulidir, tasavvurlari natijasi sifatida ko'rinadi.

Demak, tarixiy va haqqoniy Amir Temur obrazini yaratish va dunyo adabiyotiga «mana haqiqiy Temur bu» deya ko'rsata olish bugunning adiblarining oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G. F. Gendel. Amir Temur: uch pardali musiqli drama/ Rus tilidan o'zbek tiliga G'ulistan Mirzo tarjimasi / so'z boshi muallifi Akmal Saidov. – T.: Yangi asr avlodi, 2015.
2. L. Keren., Saidov A. Amir Temur va Fransiya. – T.: Adolat, 1996.
3. J. V. Gyote. G'arb-u sharq devoni/tarjimon, Sadriddin Salim Buxoriy. Xikmatdur dunyo saylanma – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2011
4. E. A. Po. Buyuk Temur. Doston: /Tarjimon M. A'zam. «Jahon adabiyoti» jurnali, 2003 – 4-son.
5. Amir Temur g'arb adiblari nighida. / tuzuvchi A. Saidov. Davr press.: T –. 2016/ma'ruziy yaratilgan nazmiy durdona
6. S. J. Shaw. History of Ottoman Empire and Modern Turkey. – Cambridge University Press, 1976



ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA MAY TIMSOLI

Nasimova Farog'at

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Аннотация

Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarida uchraydigan may, boda timsollarining ramziy ma'nosi izohlangan. Shoimning ijodiy mahoratini ko'rsatishga harakat qilingan.

Annotation

In this article, symbolistic meaning of may, boda to be present in Navoi's works is explained. It is tried to celebrate his creative ability.

Аннотация

В этой статье разъясняется символическое значение май, boda встречающихся в произведениях Алишера Навои мастерство поэта была рассмотрена.

Tayanch so'zlar: boda, may, soqiy, sog'ar, qadah, jom, ilohiy ishq, vahdati vujud

Support words: boda, may, soqiy, sog'ar, qadah, jom, divine love, vahdati vujud

Опорные слова: boda, май, согар, кубок, илохий ишк, вахдати вужуд.

Turkiy xalqlarning betakror shoiri, soʻz mulkingning sultoni boʻlgan Alisher Navoiy ijodini biz tasavvufdan ayro holda tassavvur etishimiz qiyin. «Buning boisi shuki, tasavvuf haqiqiy maʼnoda insonparvar taʼlimot hisoblanadi. Tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va maʼnaviy hayotiga chuqur kirib bordi: bu madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijtimoiy taʼsir koʻrsatdi. XI asrdan boshlab Sharqning deyarli barcha mufuzli shoir va yozuvchilari, mutafakkir va shoiri tasavvufdan oziqlanib, uning insonparvarlik va xalqsevarlik gʻoyalariidan shiklanganlar» [1].

Darhaqiqat, Alisher Navoiy lirik merosining katta qismini gʻazallar tashkil etgan ekan, bu gʻazallarni mutolaa qilgan chogʻimizda biz Ollohning vasfini koʻramiz, Unga boʻlgan muhabbatni his qilamiz. Bu muhabbatni Navoiy turli xil tushunchalar yordamida ifodalab beradi. Misol uchun, gʻazallaridagi boda, may obrazini olaylik. «Shoir asarlarida uchraydigan ishq, may, mayxona, xarobot, soqiy, koʻngil, qadah, xum, koʻngil, mahbub singari koʻpdan koʻp kinoya-timsollar, ramziy oʻsnoli soʻzlar va ular zaminida yotgan yashirin maʼnolar asrori hamda uning ijodi uchun bir butunlikda olib tekshirilib, olam va odam haqidagi mushohada-tushunchalari ichida shartlansagina mazmuni kerakli darajada ochiq oydinlashishi mumkin» [2]. Biz shoir ijodida qoʻllangan bodani barcha oʻrinda oʻz maʼnosida tushunmasligimiz lozim. Agar shunday qiladigan boʻlsak, biz shoirmi devonayi naqli chiqarib qoʻyamiz. Aslida ham Navoiy mayxoʻr lekin mayga uning vujudini oʻz koʻngli chanqoq. Shuning uchun ham u «Gʻaroyib us-sigʻar» ning fотиha gʻazalida:

*«Sen gumon qilgʻandin oʻzga jomu may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido»* [3], -deydi.

Barchamizga maʼlumki, tasavvuf ilmida may ilohiy ishq, qadah esa koʻngil ramzidir. Demak, oʻz jomini boda bilan toʻldirgan kimsa — haqiqiy taqvodor inson. Bu fikrni Alisher Navoiyning quyidagi baytida ham uchratishimiz mumkin:

*«Halol boʻlidi xarobati ishq ahligʻa may,
Tutarbiz ahli varaʼ7 kimki oni tutsa muboh».*
Navoiy yana bir oʻrinda shunday deydi:
*«Ne erdi maykada gʻavgʻosi, raz qizin goyo,
Bu shom qildi Navoiyga piri dayr nikoh».*

Garchi uning oʻzi raz qizi, yaʼni mayga nikohlanganini aytgan boʻlsa ham, biz Navoiyni hayotda yolgʻiz yashab oʻtgan deb bilamiz. Biroq bu bayt uning hamisha shohiy ishq bilan birga yashaganligini bildiradi.

Bundan tashqari, Navoiy gʻazallarida soqiyga murojatni takror va takror uchratishimiz mumkin. Masalan:

*«Soqiyo, bir navʼmen labtashna yoʻqkim ogʻzima,
Hur yaram ogʻzigʻa qoʻysang bir qadahni sipqarur.
Soqiyo, gar davr taʼjilin koʻrib qon yigʻlama,
Bas Navoiydek surohij⁸ ashki nevchun ol erur.*

Soqiyo, ul kavsaroso bodadin bir jur'a tut.

Kim meni hayrong'a bo'lg'ay kashf sirri «lav kushif» kabi.

Navoiy uchun may najot bo'lsa, soqiy najotkordir. Shuning uchun ham u bafafokor dunyoning jafolaridan aziyat chekkan vaqtida soqiyning yo'qlaydi va ko'nguljomini may bilan to'ldirishini so'rab, to'yguncha ichishga ixtiyor etadi. Hattobu o'zgalarni ham o'zi kabi bazmi ishrat qilishga quyidagi g'azali asosida da'vat etadi:

*«Yetishsa ishq aro yuz mehnatu balo, qadah ich,
Nafas-nafas quyibon may to'lo-to'lo qadah ich.*

*Mukaddar⁹ o'lsa zamiring zamona mehnatidin,
Agar desang, beray ul ko'zguga jilo, qadah ich.*

*Nishot bazmida soqiyi mohvash sarhush
Bosh ursa dag'i ayog' tutsa, qo'l sola qadah ich.*

*Jahon ishida hoqib xalq ibtilolarig'a,
Alardek istamasang o'zni muftalo, qadah ich.*

*Desang xalou-maloda¹⁰ bo'lay nishot bila,
Agar malo, qadah ichkil, vagar xalo, qadah ich.*

*Riyo ichinda nekim hosil etting, ey zohid,
Desang xalos o'lg'ay, et rahmu hosilo, qadah ich.*

*Sangaki dayr elining shohisen, Navoiy agar
Yo'luqsa dayrda maxmur, urib salo, qadah ich».*

Bu g'azalning birinchi baytida Navoiy kitobxonga qarata, ishq ko'yida sening qiyinchilig-u mashaqqatlar yetgan bo'lsa, may ich. Har nafas qadahingni to'ldirib ich deya mayxo'rlikka undaydi. Ikkinchi baytda esa «zamona qiyinchiliklarida zamiring, ya'ni ichki olaming g'uborlangan bo'lsa, o'sha zamiring ko'zqusiga jil beray desang, ich», deyar ekan, go'yoki:

*«Dard debon kim aytmish oni
Dardlarimga dori ishq...».*

qabilidagi fikrni yana bir bora eshitgandek bo'lamiz. Shoir oxirgi baytda ham Navoiy, sen mayxonada ahlining shohisan. Agar mayxonada may xumori tutgan bir kishi uchrasa, uni chaqirib, birga qadah ich, deydi va bu bilan o'zining may ahlining (muhabbat ahlining) shohi deb ataydi.

Chindan ham, o'z devonlarida Navoiy bejizga rindona g'azallarni biyoz keltirmaydi, biz shoir ijodidagi may obrazini ilohiy ishq deb qabul qilar ekanamiz demak, bu may gunohlardan poklaguvchi, ko'ngildagi g'uborlarni aritib, Olibi bilan vahdati vujud hosil etishga ko'maklashuvchi ne'matdir. Alisher Navoiyning o'zi ta'kidlaganidek:

*«Jomi may gar bo'yladur, ul jom uchun qilmoq bo'lur,
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido»*

8 May ichiladigan idish

9 G'ubor bosmoq, quadrati

10 Hamisha, bo'agan va to'lgan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аlisher Navoiy. Farойиб ус-сигар. –Т.: Tamaddun, 2011.
2. Компилов Н. Тасаввуф. –Т.: Movarounnahr, 2009.
3. Компилов Н. Тимсоллар тимсоли. –Т.: www. kh. – Davron. Uz.



XIROMIYNING «CHOR DARVESH» ASARIDAGI UCHINCHI DARVESH HIKOYASI POETIKASI

Nazarova Mohitobon

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Maqolada mumtoz adabiyotimiz poetikasiga oid tushunchalar ifodalangan. Ilmlar ahli: vazn, qofiya, badiiy san'atlarning Xiromiyning «Chor darvesh» asarida qo'llanilishi va badiiy xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: vazn, qofiya, radif, badiiy san'atlar, tashbih, tazod, talmeh, tajnis.

Abstract

There are some thoughts in this article devoted to poetics classical literature.

Also, there is some explanation of the literature characters regarding to the work Chor darvesh by Khiromis by using triangle reflection in poetry such as rhyme, rhyme scheme and literature science.

Key words: poetry such as rhyme, rhyme scheme and literature science, tashbih, tazod, talmeh, tajnis.

Аннотация

В статье изображены понятия классической поэтики. Рассматривается использование в произведении Хирами «Чор дарвеш» литературного треугольника: стихотворного размера, рифмы и художественного изображения, а также их особенности.

Ключевые слова: стихотворного размера, рифмы и художественного изображения, ташбих, тазод, тазод, тажнис.

«Chor darvesh» asari mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan boshqa asarlar kabi pand-nasihat ruhida bo'lib, u diniy-tasavvufiy xarakterga ham ega. Bugungi kungacha «Chor darvesh» asari bir necha olimlarimiz tomonidan o'rganilgan. Jumladan, ushbu asar muallifi va uning ijodi bo'yicha T.Qorayev «Shoir Xiromiy va uning adabiy merosi», I.A.Yo'ldoshev esa «O'zbek yozma adabiyotidagi «Chor darvesh» asarining qo'lyozma manbalari va matniy tadqiqi» nomli nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlaganlar. Shuningdek, S.Ayniy, P.Shamsiyev, X.Zarifov, I.Sulton, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallayev kabi bir qator olimlarimiz ham ushbu asar bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ammo

yuqoridagi ishlarda «Chor darvesh» asaridagi hikoyatlar poetikasi haqida ta'rif yuritilmagan edi. Biz ushbu maqolamizda «Chor darvesh» asaridagi 3-darvesh hikoyatining poetikasi haqida soʻz yuritamiz va shu orqali ijodkorning badii mahorati, poetik uslubini maʼlum darajada ochib berishga harakat qilamiz.

«Chor darvesh» asari masnaviy shaklida yozilgan boʻlib, qofiyalanish tizimi a-a, b-b, d-d... tarzidadir:

*G'arazkim chiqibon topib chor goh
Tikibon anga xonai xayirxoh (1: 241)*

Asar aruzning *mutaqoribi musammani mahzuf yoki maqsur* (afoyili: fauflun fauflun fauflun fauflun) vaznida yozilgan. Mumtoz epik sheʼriyatda keng qoʻllanilgan bu bahr asarni tez va oson oʻqilishini taʼminlagan. Shuningdek, turkiy va forsiy mumtoz adabiyotda shohlar haqidagi asarlar, asosan, mutoqorib vaznida yozilgan. Asardan parchani tahlil qilib koʻraylik:

*Ki bir dam tavaqquf qil, ey rahnavard
V - - v - - v - - v ~
Yuzingdin dame dur qil changu gard
V - - v - - v - - v ~ (1: 244).
Yana jam ulub barcha fahmida el
V - - v - - v - - v -
Kelib xizmatimgʻa jahondiyda el
V - - v - - v - - v - (1: 140).*

«Chor darvesh» hikoyatida, asosan, hikoya qilish ustunlik qilsa-da, ijodkor mumtoz adabiyotimizda ilmlar uchligining biri boʻlgan ilmi badiʼdan keng foydalangan. Xususan, ushbu baytda *tashbih* sanʼati qoʻllanganligiga guvoh boʻlamiz:

*Mulavvan guli har taraf rang-rang
Degaysanki bir shohidi shoʻx shang (1, 140-bet).*

Ushbu baytda «mulavvan guli» — oʻxshatilmish (mushabbih), «shohidi shoʻx shang» — oʻxshamish (mushabbih) bih) vosita (vosita tashbih) va sabab(vajhi tashbih) keltirilmagan va muqayyad tashbih qoʻllangan. Quyidagi baytlarda ham tashbihning goʻzal namunalari uchraydi:

*Qalandar sifat boshga qoʻydim quloq
Chiqib Basra sori boʻldim roʻbaroh (mutlaq tashbih) (1: 243).*

*Farishta sifat koʻkdin etting muzul
Ki, qildi seni moh talʼat qabul (mutlaq tashbih) (1: 249).*

*Akobir sifatlik maqomi biyik
Valeʼ men alarni baridin kichik (mutlaq tashbih) (1:250).*

Mumtoz adabiyotimizda mavjud barcha dostonlarda mubolagʻa sanʼati uchraganidek, bu asarda ham mubolagʻ sanʼatidan mahorat bilan foydalanilgan:

*Uray boshinga tig'ni shu zamon,
Ki qoning misoli suv o'lsin ravon (1: 261).*

Ushbu baytda tashbihi mutlaq asosida mubolag'a san'ati qo'llangan bo'lib, «qon» — o'xshatilmish (mushabbih), «suv» — o'xshamish (mushabbihli bish), «misoli» — misoli, ravon oqishi esa o'xshatilish sababi (vajhi sabab)dir.

*Yana tig'ini menga qildi alam
Ki bir zarb ila qilsa boshim qalam (1: 258).*

Asar davomida shoir tarixiy shaxslarga murojat qilib, talmih san'atini qo'llashga erishgan:

*Chunon shavqidin ishqim afzun bo'lib,
Biyobon aro misli Majnun bo'b (1: 256).*

Ushbu baytni o'qigan kitobxon xotirasida «Layli va Majnun» dostonidagi Majnunning sahroda sarson-sargardonlikda yurgan holat ko'z oldida namoyon bo'ladi. Shu orqali asar qahramonining qay darajada qiynalganliga birgina Majnun timsolining keltirilishi bilan yitarlicha izohlanadi. Bu esa ijodkorning kitobxonga yetkazmoqchi bo'lga maqsadini osonlashadi.

*Dedim bog'i firdavsi a'lo erur
Biri Odamu biri Havo erur (1: 265)*

Quyidagi baytda esa shoir «vatan» so'zi orqali iyhom san'atini yuzaga keltirgan:

*Zamone o'tib chiqdi pirazan
Harir ichra a'zosi qilgan vatan (1: 249).*

Baytni o'z ma'nosida talqin etadigan bo'lsak, quyidagicha ma'no hosil bo'ladi: «Oradan vaqt o'tib bir pir chiqdi, uning tanasi harir libosga to'lgan edi». Agar uning yashirin ma'nosiga nazar tashlaydigan bo'lsak, baytni quyidagicha talqin qilish mumkin: «oradan vaqt o'tib bir pir chiqdi, harir(go'zal)yurtning a'zosi (fuqarosi) edi».

Badiiy san'atlardan biri ruju san'ati tasvir kuchining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shoir ushbu asarda ruju san'atiga muayyan ma'noni kuchliroq ifodalash uchun bir necha bor murojaat qilgan:

*Tun-u kun muningdek tafakkurdadur
Tafakkur emaskim, tahayyurdadir (1: 254).*

Bu bilan ijodkor qahramonning o'sha maqsad haqida faqat o'ylabgina qolmay, butun o'y-xayoli u bilan band ekanligini ta'kidlaydi.

Quyidagi baytda adib tajnisi zoyid san'atini qo'llagan:

*Otang toj-u taxtiga sohib eding
Ulus birla tun-u kun musohib eding (1: 258).*

«sohib» va «musohib» so'zlari jinsdoshlikni hosil qilgan.

Adib asar davomida qofiyaning bir necha turlaridan unumli foydalangan. Masalan, baytda cho'ziq unlining raviviy bo'lib kelishi mujarrad qofiyani yuzga keltirgan:

Necha ayladim keynidin iltijo
Vale boqmadimen sari ul gado (1: 242).

Cho'ziq unidan so'ng bir undoshning kelishi murdaf qofiyani yuzum keltitgan (2: 201):

Chu kirdimki bir samtida chorbog'
Eram ko'nglida tarxidintoza dog' (1: 244).

Qofiyaning nisbatan murakkab turi bo'lgan muassas qofiyadan ham unumd foydalangan. Bu qofiyalanish turida cho'ziq «o» unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va unda keyin bir unli keladi:

Yugurdim chu yig'lab Muborak sari
Muborak nekim toju torak sari (1: 286).

O- ta'sis; r- daxil; a- ishbo; k- raviy (2: 203).

Raviydan so'ng ham qofiyaning davom etishi mutlaq qofiyani yuzum keltiradi:

Bukim banda xizmatiga aftodamen
O'zim fors mulkida shahzodamen (1: 240).

Shoir qofiyadosh so'zlarni qo'llash davomida bir baytda kelgan qofiyadosh so'zlarni keyingi baytda teskari holatda qo'llaydi.

Masalan:

Nisob etmoqg'iga bo'libon qarın
Chekib munzaviy o'tiribon arba'in
Yana qaytadan ulturub arba'in,
Iki chand g'ayratga bo'ldim qarın (1: 278).

Shuningdek, adib asar davomida radifli baytlardan keng foydalanadi:

Zamone muallim kelur bog' aro
Ko'rar, men yotib toshu tuorog' aro.
Bari hikmat ahlini hozir qilib,
Alarni yana manga hozir qilib (1: 269).

Xulosa qilib aytganda, Xironiyning «Chor darvesh» asaridagi uchinchi darvesh hikoyasi shaklan mukammal, mazmunan yetuk badiiy asar bo'lib, asrlar davomida mumtoz adabiyotimizning sara namunasi sifatida e'zozlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хиромий. Чор дарвеш. ЎзССР Давлат бадий адабиёт нашриёти –Т., 1960. 340 бет.
2. Анвар Ҳожиахмедов. Мумтоз бадийят малоҳати. –Т.: ШАРҚ, 1998, -240 бет.
3. И. Йўлдашов. Ўзбек ёзма адабиётидаги «Чор дарвеш» асарининг қўлёзма манбалари ва мантиқий тадқиқи. дис. –Т., 1999 йил.



UVAYSIYNING BANDLI SHE'RLARIDAGI MAHORATI

Nutfullayeva Mafzuna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek filologiyasi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Maqolada mashhur o'zbek shoirasi Uvaysiy ijodida muhim o'rin egallagan bandli she'rlar, xususan, musammatlar borasida fikr yuritildi. Ildagi bahs-munozarali masalalarga oydinlik kiritildi. Shoira mahoratining ayrim qirralari yoritildi.

Tayanch tushunchalar: Musammat, tarje'band, mutasavvuf, tazod, g'uluvv, ruju'.

Аннотация

В данной рассуждается о лирических жанрах в творчестве великой узбекской поэтессы. Были раскрыты некоторые противоречия в науке аспекты мастерство Увайси.

Ключевые слова: Мусаммат, таржийьбанд, мутасаввуф, tazod, гулувв, ружу'.

Annotation

Couplet genres especially musammats, which stand on special places in the works of literature which was written by famous uzbek poet Uvaysi, have been spoken about in this article. Disputable issues of science have been crystal clear. Some brims of poet skills have been illuminated.

Key words: Musammat, tarje'band, mutasavvif, tazod, g'uluvv, ruju'.

Mashhur o'zbek adibi Oybek: «Dilbar g'azallarga boy bo'lgan Uvaysiy she'riyatidan nazokatli ayol qalbining munis tebranishlari va zamon ziddiyatlari ulurib turadi» [1: 494], deya Jahon Otin Uvaysiy ijodiga yuksak baho bergan edi. Haqiqatdan ham, o'zining nozik qalbi, yuksak tuyg'ulari va yoniq misralari bilan inson qalbining torlarini cherta olgan Jahon Otin Uvaysiy adabiyotimiz tarixida muhim iz qoldirdi.

Vaqt o'tadi. Inson umri o'tkinchiligini inkor etib bo'lmaydi. Ammo so'z deb atalmish ilohiy qudrat abadiy qoladi. Inson va uning nomini abadiyatga muhrlaydigan ham aynan o'sha so'zdir. Uvaysiyning ijodini ko'plab olimlar va tadqiqotchilar o'rgandi va o'rganyaptilar. Uning ijodida o'sha sirli, sehrga boy va abadiyatda qoladigan so'zlar bor. Uning ijodini o'rganganimiz sari mahorati va qo'llagan so'zlarining ma'no qirralari ochilaveradi:

*Vaysiy dema haq menga berar jabru jafoni,
Sabr aylaguchi jabrga mardonatururmen.*

Shoira umr bo'yi g'am yukini yelkasiga mardonavor orqalab, mehnat va mashaqqat yo'llarida sarsari kezsada, haqiqatdan yuz o'girmaydi. Sabr uning doimiy hamrohi bo'ladi. Shoira lirikasida, asosan, mahzun lirik qahramon va uning ehtirosli tuyg'ulari, ichki dardlari tasvirlanadi. Xususan, Uvaysiy musammat shaklida ham samarali ijod qilgan bo'lib, ular chinakam mahorat mahsulidir. Shu o'rinda musammat so'zining lug'aviy ma'nosiga biroz to'xtalib

o'tsak. Musammat-arabcha «marvarid donalarini ipga termoq» degan ma'no bildiradi. Ammo uni tarse' she'riy san'atining lug'aviy ma'nosi bila adashirmaslik, ya'ni farqlash lozim. Tarse' ham arabcha «gavharni ipga tizish» demakdir. Ammo ularning istilohiy ma'nosida farq bor. Tarse' badiiy san'at bo'lib, baytdagi so'zlarning ohangdosh va vazndoshligiga asoslangan. Musammat janri 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 misrali bandlardan tarkib topgan she'r shaklidir.

Shoira devoni 10 ga yaqin turli janrdagi asarlarni o'zida jamlagan. Bularning orasida bandli she'r shakllaridan musallas, murabba', muxammal, musaddas janridagi asarlari bor.

Maskur maqolamizda shoiraning musammat turkumidagi she'rlarini o'rganishni maqsad qildik. Xususan, musaddas, uning nomlanishi, shoiraning she'riy mahorat qirralari masalalarini ilmiy izlanishlarimizga asos qilib oldik. Shoira devonlarini kuzatish jarayonida bandlari olti misrali she'r shaklining turli nashrlarda turlicha nomlanganining guvohi bo'ldik. Jumladan, 1959-yil va 1961-yillarda nashr etilgan devonida musaddas, 1983-yil «Ko'ngil gulzori» nomi bilan chop etilgan devonida tarkibband va tarje'band sifatida nomlangan. She'rlarning har bir bandi olti misradan iborat. Qofiyalanishi a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a tarzida. Band oxiridagi bayt aynan takrorlangan. Ushbu xususiyat musaddasda ham, tarje'bandda ham mavjud. Biroq, Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul balog'a» asarida keltirilgan quyidagi fikrlar ushbu she'rlarning tarje'band ekanligini inkor etadi:

«Tarji ul bo'lurkim, she're ayturlar, band-band barchasi bir bahrd, har bandning ozi besh bayt bo'lur va ko'pi to'qqiz bayt bo'lur...» [2: 108]. Uning qofiyalanish tizimi, hajmi, ma'no ko'lami ham musaddas shakliga mansubligini isbotlaydi. Undan tashqari, tarje'band va tarkibbandlar g'azal singari a-a, b-a, d-a, e-a,... tarzida qofiyalanadi. Buni Alisher Navoiy tarje'bandidan parcha keltirish orqali ko'rib o'tsak:

*Topay deb xabar ushbu maqsuddin,
Tutashdi base qavm ila suhbatim.
Ne qildi bu dardim ilojin hakim,
Ne shayx ayladi daf' bu illatim.*

Bu ikki lirik janr haqida berilgan manbalarning hech qaysida Uvaysiyning tarje'band va tarkibband yozganligi haqida ma'lumotlar uchramaydi. Yuqoridagi fikrlarning barchasi bu she'rlarni Uvaysiyning o'zi ijod qilgan mustaqil, ya'ni tab'i xud musaddaslar ekanligini dalillamoqda va buni yanada aniqlashtirish uchun ushbu she'rlarning biridan parcha ko'rsak:

*Qildim senga, yor, iqtido men,
Bu mazhab ichinda porso men,
Ham soliki rohi purjafo men,
Jo'lidayi mardi beibomen,
Majnuni hazini dil adomen,
Avvorayi zoru benavomen.*

*Ohimga tutashti garduni dun,
Bir Layli etib meni jigarchun,
Vaysiyga kelibdurki Majnun,
Kimga deyin emdi zor mazmun,
Keltirmisham emdi iltijo men,
Ko'toh qusur norasomen.*

Ko'rinadiki, Ahmad Taroziy fikricha, tarje'band bandi eng kamida besh bayt bo'ladi. Ushbu bandlar esa uch baytni tashkil etmoqda. Shunga asosan, biz uni musaddas deb belgiladik.

Shu o'rinda shoiraning musaddaslaridagi o'ziga xos mahorati va yaratuvchanligi borasida fikrlashsak:

*Jism-u jonim ostoni dargahing tuprog'idur,
Rahm qil, davlatli sultonim, muruvvat chog'idur.*

Uvaysiy ijodidagi asarlarga e'tiborimizni qaratar ekanmiz, bevosita botiniy va zohiriy ma'nolarga duch kelamiz. Zohiriy tomondan jism-u jon va tuprog' so'zlari orqali insonning, ya'ni Odamotaning loydan yaralganligiga nozik ishora mavjuddir. Botiniy jihatdan bu baytda oshiq ayol qalbidagi haqiqiy ishqqa ishora seziladi. Buni shoiraning yorga murojaatidan ham (davlatli sultonim) anglash qiyin emas.

Undan tashqari, she'rlarida badiiy san'atlardan ustalik bilan foydalanganligi Uvaysiyning ilmi balog'ani chuqur bilganligidan dalolat beradi:

*Bag'rimni so'rsang, misoli lola gul yaprog'idur,
Vahki, yaprog'i na o'lsun, bag'rin ichra dog'idur,
Ko'hkandek qozg'onim Homun aro g'am tog'idur,
Qo'ldagi teshamni so'rsang, sabrning tirnog'idur.*

Shoiraning yor visolida intizorligi, ishq sharobidan mastligi bag'rini gul yaprog'iga yoki ishq bobida o'zini Ko'hkan timsoliga qiyoslayotganida o'ziga xos mahorati namoyon bo'ladi. Lola gul yaprog'i tashbih san'atini yuzaga keltirgan va keyingi misrada undan ham kuchliroq fikr keltirib, ruju' san'atini qo'llagan. Shoira nega aynan o'zini va bag'rini lola yaprog'iga o'xshatmoqda? Sababi lolaning rangi qizil va shu qizil rang ichida yaprog' uning bag'ridagi dog', ya'ni bitmas jarohatdir. Lola va uning yaprog'iga o'xshatish orqali ayol ko'nglidagi o'ziga xoslik ifodalangan.

Ko'hkan an'anaviy timsol bo'lib, Farhod obraziga ishora qilingan. Farhod va Homun timsollari orqali talmih san'ati yaratilgan. Homun afsonaviy oshiq majnun kezgan cho'lu biyobon; tog' homun iborasida birinchi so'z Bistun tog'iga va unda kanal qazigan afsonaviy oshiq Farhodga, ikkinchi so'z esa Majnunga ishoradir. Shoira bu bilan ikki afsonaviy oshiqning ishqini uyg'unlashtiryapti va bu uyg'unlashgan ishqning sabridan g'am tog'i vujudga kelgan. G'am tog'i shoira ishqining darajasini belgilab berish bilan birga, mubolag'a san'atini paydo qilgan.

Demak, shoira cho'l-u biyobonlarda MajnundeK sarsari kezib, Farhoddal tog' qaziydi. Ammo shoira o'zining ishq bobidagi sabrini tirnoqlari teshtiga aylangani orqali tasvirlagan. Bunday sabr va matonat haqiqiy o'zbek ayoligagum xos.

Shu o'rinda shoiranning mahorati, ayniqsa, so'z qo'llashda namoyon bo'ladi. Birgina «sabrning tirnog'i» jumlası, lirik qahramon ruhiy dunyo tasvirini tiniqlashtirib yuboradi.

*Kufr etib, zulfini to bo'ynima zunnor etting,
Misli parvonadek o'tiga sazovor etting.*

Zunnor atamasi bevosita fikrimizni o'ziga tortadi. Zunnor xristianlarning beliga bog'laydigan belbog' bo'lib, u Alisher Navoiy lirikasida quyidagicha qo'llangan:

*Bog'labon rust belimg'a zunnor,
Ayladim mast but ollında sujud.*

E'tibor beradigan bo'lsak, Uvaysiyda ham, Navoiyda ham zunnor atamasining qo'llanilish maqsadi bitta, ammo ma'nosini ifodalash yo'llari har xildir. Bu atamaning Navoiyda tasavvufiy ma'nosi oshkora, Uvaysiyda esa pinhona ifoda etilgan. Uvaysiyda yor zulfini bo'yniga zunnor qilib bog'lash orqali yor oldida uning hukmiga itoat etishi va bosh egishi ifodalangan. Bu ma'noni zulf atamasi yanada oydinlashtirib bermoqda.

*Mastlig'dan xabar etdi meni majnun aylab,
Meni rasvo ko'ziming yoshini Jayhun aylab.*

Shoira ishq sharobidan shunchalar mastki, go'yo u Majnunga aylantir qolgandek, yor visolida ishq harorati shunchalik kuchliki, ko'z yoshlari Jayhun daryosi kabi. Jayhun timsoli talmih san'atini yuzaga chiqargan. Ko'z yoshlarini Jayhun daryosiga mengzash natijasida mubolag'a san'atining eng kuchli darajasi bo'lgan g'ulu turi qo'llangan.

Quyidagi she'riy parchada Uvaysiy musaddaslaridagi asosiy bosh g'oya mukammal ifodasini topgan:

*May berib, mast qil, ey mug'bacha, sulton o'lay,
Bu gadolig' unutay, men jamshidi davron o'lay,
Rahm qil holima, maqrubayi jonon o'lay,
Yo tirik dafn qiling, xalqqa pinhon o'lay,
Toki ishq o'ti aro qil kabi so'zon o'lay,
Yo ajal jomini tutqil, bugun oson o'lay.*

Shoira lirik qahramoni jununvor kayfiyatda ekanligi sezilib turadi. May istilohi visolga eltuvchi ishqqa va ishqdan xabardor qiluvchi vosita hisoblanadi. Qalbi ishqqa limmo-lim to'lgan oshiq yanada ko'proq mast bo'lishni istaydi. Bu maqsad mug'bachaga murojaatdan ham yaqqol seziladi.

Oshiq ishq o'tining taftida haroratlanib o'lishni o'ziga sharaf deb biladi, ammo shu narsani aytish joizki, bu o'lim oddiy o'lim emas, u oshiqni visol lazzatiga eltadi. Shoira ishqdan mastlikni sultonlik, ishqsiz yashashni

qolig‘ deb biladi. Sulton va gado so‘zlari esa zidlanib tazod san‘atini hosil qilgan. Shoira Uvaysiy o‘z musaddaslarida dialog shaklini ham mohirlik bilan qo‘llagan:

*Gul yuzli, shaxd so‘zli, qaro ko‘zli ul nigor,
Nargizlari uzori aro misli navbahor,
Yuz mingta jon bir nigahigadurur nisor.
Yo rab, qachonda yor bilan aylading duchor?
«hajr rahini turfa uzoqdur!» -dedim, dedi:
Sabr aylayolmaganki shitobingdurur saning!».*

Yor ta‘rifiga aytilgan gul yuzli, shaxd so‘zli, qaro ko‘zli kabi ta‘riflar uyg‘unlikda tashbihi muyaqqad san‘atini yaratgan. Zidlik baytda aytilmoqchi bo‘lgan ma‘noni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Band oxiridagi baytda keltirilgan savol-javobda Ollohga murojaat qilingan. Shoira bu murojaatda o‘zining taqdir bitigini bilishga intilgan. Bu savol-javob musaddasdagi fikrni aniq ko‘rsatib, so‘z o‘yini qilish vositasida ramziy ma‘noni kuchaytirgan.

Shoira musaddasidagi dialog shakli mazkur janrga originallik va ruhiy tahlildagi ma‘no izchilligiga erishish imkonini bergan. Uvaysiy lirikasidagi har bir yangi kashfiyot va original tasvirlar she‘rlarining jozibasini oshirgan. Shoira she‘rlarida Ollohga bo‘lgan ishq kuylanadi.

Uning tasavvuf vakilasi ekanligini hatto taxallusidan ham bilish mumkin. Shoira Mashrab va Navoiy izidan borib, adabiyotimizda o‘zining yo‘lini yarata oldi. Uning she‘riy mahorati har bir misradagi so‘z qo‘llashida ham namoyon bo‘ladi. Shoira lirikasida haqiqiy o‘zbek ayoli va yetuk, komila ijodkor qalbi butun bo‘y-basti bilan yoritilgan.

Xulosa qilib aytganda, Uvaysiyning turli xil qarashlar orqali turli nomlar bilan atalib kelingan yuqoridagi bandli she‘rlari nazariy ma‘lumotlarga tayangan holda musaddas shakliga mansubligi aniqlandi. Shoiraning she‘riy mahorati, so‘z qo‘llash uslubi va she‘riy san‘atlardan foydalanishi usuli, misralari qatidagi noyob ma‘no qatlamlari yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oybek. 13-tom, –T. 1979. 494-b.
2. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a. –T.: Xazina, 1996.
3. Is‘hoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. –T.: O‘zbekiston, 2014.
4. Uvaysiy. Devon. –T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.
5. Uvaysiy. Ko‘ngil gulzori. –T.: Adabiyot va san‘at, 1983.
6. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. –T.: Sharq, 1990.



«ZUBDATU-T-TAVORIX» ASARIDAGI MASNAVIYLARDA MUQAYYAD QOFIYA

Qodirova Guli

URDU 3-kurs talabasi, 2017–2018 o'quv yili 2-jarayonda Alisher Navoiy
nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek filologiyasi talabasi

Annotatsiya

Qofiya mumtoz she'riyatda asosiy vosita bo'lgan. Muhammadrizo Ogahiy she'rlar qofiyalarni go'zal na'munalarni yaratgan. Xususan, «Zubdatu-t-tavorix» asaridagi masnaviyalarda muqayyad qofiyaning turli ko'rinishlarini uchratamiz. Ushbu maqolada muqayyad qofiya yuzasidan ilmiy-tahliliy fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: qofiya, muqayyad qofiya, mutlaq qofiya, qofiyayi muqayyadi muassasa muqayyadi mujarrad qofiya.

Аннотация Рифма была главным средством классической литературы. Мухаммадризо Огахий творил прекрасные примеры рифма в своих стихах. Особенно на маснавиях «Зубату-т-таварих» мы увидим разные формы мукайяд рифма. В данной статье приводятся научно — аналогические размышления по поводу мукайяд рифма.

Ключевые слова: рифма, мукайяд рифма, мутлак рифма кофияи мукайяди муассаса, мукайяди мужаррад кофия.

Annotatsiya

Rhyme has been main of classical poetry. Muhammadrizo Ogahiy wrote the best models of rhyme in poems. Especially we can see that different forms of muqayyad rhyme in «Zubdat-t-tavarix». In this article scientific-analytic opinions of muqayyad rhyme.

Key words: rhyme, muqayyad rhyme, mutlaq rhyme, qofiyayi muqayyadi muassasa muqayyadi mujarrad qofiya

Qofiya she'rdagi ifodalangan kechinmaning ta'sirli va jozibador chiqishini ta'minlaydigan hamda she'riy nutqni oddiy nutq shaklidan farqlovchi asosiy omil hisoblanadi. Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida she'riy shaklning 3 ta asosiy sohasidan biri sifatida qaralgan qofiya alohida mavqe egallab kelgan. Bu poetik hodisaga bo'lgan adabiy-estetik munosabat adabiyotshunoslikka doir asarlarda, shuningdek, badiiy ijod namunalarida o'z aksini topgan. Zero, Shayx Ahmad Taroziyning «...she'rning asli qofiya. Va qofiyasiz she'r mumkin emas» degan fikrida yuqoridagi mulohazaning tasdig'ini ko'ramiz.

Azaldan sharqda qofiya maxsus o'rganilib, u bilan bog'liq ilmiy yuzaga keltirilgan. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ijodkor qofiyani faqat amaliy jihatdan emas, balki nazariy tomondan ham mukammal bilishi lozim sanalgan. Qofiya haqidagi nazariy mulohazalar mazkur tushunchaning badiiy butunlikni yuzaga keltiruvchi maxsus hodisa ekanligini anglatishga qaratilgan.

Qofiya — arabcha (قافية) so'z bo'lib, «ergashuvchi, izidan boruvchi» degan ma'nolarni anglatib, o'zaro ohangdosh so'zlarning she'r misralarida tizimli bo'lib kelishidir [1: 108]. O'zbek adabiyotshunosligida qofiya bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan [3: 24]. Bu ishlar ichida eng ahamiyatlisi filologiya

lari doktori To'xta Boboyevning «She'r ilmi ta'limi» risolasidir. Unda she'r ilmi asoslari, xususan, qofiya mukammal tarzda tasniflab, misollar yordamida ilmiy asoslab berilgan. Qofiya Sharqda she'riy shaklining muhim bir tarmog'i sifatida alohida mavqe kasb etib kelgan. Qofiyaning she'riy asardagi ahamiyatini muqimiyatini his qilgan Ogahiy «Zubdatu-t-tavorix» dagi o'z masnaviyalarida uni janr nomuniviatlaridan kelib chiqqan holda mahorat bilan qo'llagan.

Shoir o'z masnaviyalaridagi qofiya ustida ishlar ekan, ustozlar izidan borib, qofiyalarning, avvalo, xalqchilligiga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun ham har bir qofiyaning o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, ayni chog'da talaffuz uchun qulayligini ta'minlashga o'z diqqatini qaratadi. Ma'lumki, masnaviy janri a-a, b-b, d-d tarzida qofiyalanish tizimiga ega. Qofiya tarkibida o'zak va qo'shimchalarning muhtirokiga ko'ra 2 xil bo'ladi: 1) Muqayyad qofiya (o'zak qofiya) — bunda qofiya o'z faqat o'zakdan iborat bo'ladi, ya'ni raviydan so'ng qo'shimcha kelmaydi. 2) Mutlaq qofiya — bunda qofiya so'z o'zak (negiz) va qo'shimchalardan tashkil topadi.

Bundan tashqari har bir qofiya tipi tarkibidagi tovushlar (*ta'sis, ridf, qayd, daxil; vasl, xuruj, mazid, noyira*) taqozosiga ko'ra ham bir necha turga bo'linadi. Shunday hodisa qofiya ilmida qofiya turlari deyiladi [1: 24].

Muqayyad va mutlaq qofiya tiplarining har biri tarkibida bir qancha qofiya turlari mavjud bo'lib, ularning adadini aniq belgilab berish mushkul masala. Biz bu borada T.Boboyev va A.Hojiahmedovlarning ilmiy yondashuvlariga tayanamiz.

Mumtoz qofiya tarkibini 9 ta tovush tashkil qilib, 4 tasi (*ta'sis, ridf, daxil, qayd*) raviydan oldin (o'zak qofiya unsurlari), 4 tasi (*vasl, xuruj, mazid, noyira*) raviydan so'ng (qo'shimchali qofiya unsurlari) keladi.

Raviyning o'zi esa qofiyaning o'q tomiri hisoblanadi. Qofiya turlari esa ana shu elementlarning o'zaro ma'lum tartibda mujassamidan yuzaga keladi. Biz quyida Ogahiyning muqayyad qofiya qo'llash mahoratini tadqiq qilib o'tamiz.

1. Muqayyadi mujarrad qofiya — bunday qofiya turi bir o'zakdan iborat bo'lib, qisqa unli tovushga tayanadigan yopiq hijodan tashkil topadi. Bunda, ko'pincha, raviy harakatsiz undosh tovush bilan ifodalanadi. (safari — zar qofiyasida «r» tovushi raviy — harakatsiz undosh). Shunday qofiyalar «mujarrad», ya'ni «yalang'och qofiya» deb yuritiladi.

Bir makonda doimo tutma maqar,

Istiyor etki gahi sayr-u safari. [2: 98]

Bo'lub kar falak uzra xayli malak,

Yer ostida ham borib o'zdin samak. [2: 158]

Edi Afrosiyob-u Iskandar,

Xizmatida kamina Bandai dar. [2: 248]

2. Qofiyayi muqayyadi muassasa — ta'sisli (mustahkam) qofiya. Ushbu qofiya turida raviydan oldin bir harakatli undosh bo'lib, undan ilgari bir cho'ziq unli «o» keladi:

*Iqboli buyuk, maqomi oli,
Kelmay bu jahon aro misoli...
...Bo 'lmish durri shar' zebi toji,
Tun-kun ishi rasmi din rivoji...
... Yo 'q, charxki, bir nafas qarori.
Mehridin aning bu izzirori. [2: 231]
Ko 'rki olamda bahr-u bar shohi,
Hukmronlig' rumuzi ogohi. [2: 131]*

3. Ta'sisli va daxilli muqayyad qofiya. Bu qofiya ta'sisli va daxilli o'zbek tovushlaridan tashkil topadi. Masalan., qoyil — zoyil: «b» raviy, «o» cho'ziq unlisi ta'sis, «i» — daxil.

*Yurub ham o 'truda yuz berki mohir,
Adadsiz zeb-u far har birda zohir. [2: 49]*

Bu baytdagi «r» raviy, «o» cho'ziq unlisi ta'sis, «i» daxil hisoblanadi. Bunday qofiya asarda juda ko'plab uchraydi.

*Havoda har paranda ersa soyir,
Barin sayd aylagay to nasri toyir. [2: 53]
Gohi uchurub havog' u lochin,
Hayratdin etib ulusni sokin. [2: 105]*

4. Ridf-i asliy muqayyad qofiya. Bu qofiya turi ridf-i asliy (*undosh raviydan oldidan «o» cho'ziq unlisi va vazn talabiga ko'ra «u», «o'», «i», «e» cho'ziq unlilarining kelishi*) unsurlari ishtirokida hosil qilinadi.

*Razm ichra sinoni oqizib qon,
Yuz oncha xadangi olibon jon. [2: 36]
Paridek xo 'bshakl-u chu zahr dum,
Sabodek xushxirom-u ohanin sum.
Vale kelmish anga changol-u minqor,
Ajaj tig'i kibi burron-u xunxor.*

Bu misollarda 1-baytda «u» ridf-i, 2-baytda «e» ridf-I, 3-, 4-baytlarda «o» ridf-i kuzatiladi.

5. Ridf-i mufradli muqayyad qofiya. Bunday qofiyaning tarkibida ridf-i mufrad unsuri (raviyga old tomonidan qo'shilgan undosh tovush) bo'ladi.

*Mango himmat ul nav' ermas baland --
Ki, tushgay jahon shag'lig'i dilband...
Birov bo 'lg'usi lutf ila arjumand,
Birov bo 'lg'usi qahr ila mustamand.*

6. Ridf-i murakkabli muqayyad qofiya. Bunday qofiya tizimida ridf-i murakkab (raviy bilan ridf-i asliy orasida keladigan x, r, s, sh, f, n undoshlari qatnashgan qofiya) ishtirok etadi.

*Birov aylab sinoni no'gini tund --
Ki, sancharda aduvni bo 'lmag'ay kund.*

Ba'zi otibon kamandini chust.

Band ayladi xasm bo'ynini rust.

7. **Qaydli muqayyad qofiya.** Bunday qofiyalar tarkibida qayd unsuri (naviydan oldin kelgan **b, n, z, r, s, f, x, sh, g', h** undoshlari **qayd** deyiladi, lekin uning ridf-i mufraddan farqi qayd unsuridan keyin qisqa unli talaffuz qilinadi) qatnashadi.

Chiqib har yon marokib na'lidin barq,

Jahonni shu 'la ichra aylabon g'arq'¹.

Har biri bir taraf qilib azm,

O'lmakni o'zig'a aylabon jazm'².

Ushbu misollarda **barq** so'zi **bar'q** tarzida, **g'arq** so'zi **g'ar'q** tarzida, **azm** va **jazm** so'zlari ham tegishli tartibda **az'm** va **jaz'm** holda talaffuz etiladi.,

Ushbu tadqiqotimizdan quyidagicha xulosaga keldik:

Qofiya she'riyatning asosiy ritmik bo'lagi sifatida har bir ijodkordan e'tibor talab etadi;

Ogahiy tarixiy asarlaridagi she'riy parchalarda mumtoz qofiyaning go'zal namunalarini yaratgan;

Asardagi har bir lirik janrni kuzatar ekanmiz, shoir tomonidan birorta ham qofiyada nomutanosiblik kuzatilmadi. Ya'ni ijodkor qofiya qo'llashda jiddiy mas'uliyat his qilgan;

Asarda mutlaq qofiyaga nisbatan muqayyad qofiyalar ko'proq uchraydi;

Qofiyalar mukammalligi jihatidan shoir lirik devonidagi she'r-laridan aslo farq qilmaydi;

Qofiyalar muarrix-ijodkorning badiiy g'oyasiga xizmat qilgan;

Asardagi qofiyalar she'r mavzusiga ko'ra yangi so'z va atamalar hisobiga boyib boravergan;

Qofiya misralararo shoir fikrini jamlıkda ushlab turishga xizmat qilgan. Agar qofiyalarga alohida e'tibor qaratilganda ijodkor fikri tarqoq holda bo'lardi;

Ogahiy qofiyaning ham turli-tuman shakllaridan unumli foydalanishga astoydil qo'l urishgan. Shu bilan birga, ular o'z asarlarining musiqiy kompozitsiyasiga katta e'tibor qaratishgan.

Xullas, «Zubdatu-t-tavorix» dagi masnaviyalarda qofiya va radifning go'zal namunalarini qo'llanilib, mazmun va shakl birligiga erisha olinishi ko'rsatilgan va boshqa shoirlar uchun namuna vazifasi bajarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. – T.: O'qituvchi, 1996
2. Zubdatu-t-tavorix. Nashrga tayyorlovchi: N. Jabborov. –T.: O'zbekiston NMIU, 2009
3. To'ychiyev Ummat. Qofiyada tirgak // O'zbek tili va adabiyoti. – 1962.
4. To'ychiyev Ummat. Qofiya va she'r sistemasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1975.
5. To'ychiyev Ummat. «Badoyi' ul – bidoya» devonida qofiya. – 1993.

¹ "Zubdatu-t-tavorix", 84-bet.

² "Zubdatu-t-tavorix", 124-bet.

6. Sarimsoqov Bahodir. Saj' va qofiya. // O'zbek tili va adabiyoti. – 1972.
7. Sarimsoqov Bahodir. Sodiq Mirzayevning «O'zbek adabiyotida qofiya» nomli ilmiy maqolasi va uning matni. – 1972.
8. Mirhaydarov H. Qofiyaning lirik she'r kompozitsiyasini yaratishdagi roli. // O'zbek tili va adabiyoti. – 1972.
9. Rustamov Alibek. Qofiya strukturasi haqida bir «nazariya» haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1976.
10. Sharofiddin Xursand. O'zbek she'riyatida qofiya va urg'u munosabati // O'zbek tili va adabiyoti. – 1998.



BOBUR SHE'RIYATIDA MA'NO VA BADIY SAN'ATLAR UYG'UNLIGI

Qodirova Maftuna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs talabasi*

Annotasiya

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida ma'no va badiiy san'atlar uyg'unligi masalasi o'rganilgan. Yosh tadqiqotchining Bobur ijodi bo'yicha kuzatishlari bayon etiladi.

Annotatsion

Speaks of the personality and spiritual legacy of the outstanding writer Zahiriddin Muhammad Babur to his contemporaries, in particular, in decent service in the behavior of youth.

Mumtoz adabiyotimizda yorqin yulduz bo'lib porlagan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining munosib o'miga egadir. Bobur inson va adib, madaniyat arbobi va sarkarda, e'tiqodi butun taqvodor va shoh, rostgo'y adabiyotshunos va g'amxo'r otin maqomida bag'oyat murakkab, ziddiyatlar to'lqini bilan yo'g'rilgan taqdir sohibi edi. Bobur Mirzo shoir, adib, she'rshunos-adabiyotshunos, donishmand, faqih (islom qonunshunosligi), tilshunos, tabiatshunos, mantiq va riyoziyot ilmlaridan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o'zidan bebaho ma'naviy meros qoldirdi.

Bobur Mirzo she'rlarida badiiy san'atlarning yuksak mahorat bilan talqin etilganligi bilan birga, Bobur Mirzo she'riy bisotida bunday san'atga murojaat ikki yo'nalishda yuzaga chiqadi. «Elga shoh, vale sanamlarga qul» maqomida yashab, qalam surgan salohiyatli shoirning an'anaviy g'azal va ruboiylarida «san'atlar qozonida qaynagan» baytlar anchagina nazarga tashlanadi. Mana bu baytga e'tibor bering:

*Labing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi,
Nega holim yomon qildi, men andin bir so'rorim bor.*

Bayt tahlilidan avval bir haqiqatni dadil aytmoq lozim: Bobur Mirzo badiiy soʻz sanʼatining jamiyat oldidagi vazifasini gʻoyat toʻgʻri anglagan va ana shu yuksak tamoyillarga mos ravishda unga munosabatda boʻladi. Yaʼni badiiy adabiyotning vazifasi oʻquvchiga faqat fikr aytish emas, balki oʻsha soʻz javohirini oʻziga yarashliq, husnini ochishga xizmat qiluvchi badiiy libosda yetkaza olish shoirlikdir.

Zabardast soʻz sanʼatkori nuqtayi nazaridan masala tahlil qilinadigan boʻlsa, shukl-u mazmun muvozanati rost kelgan nuqtada moʻjiza sodir boʻladi. Misralardagi soʻzlar tanosub sanʼati (satrdagi kalimalararo mantiqiy rishta, aloqadorlikni taʼminlash) vositasida biri ikkinchisini taqozo etadi. Mahbubaning nafis tablari – qon rangida, tiniq. Bunday koʻrk unga ayricha tarovat tuhfa qilgan. Mashuqadagi ayni moʻjiza oshiqning shaydiligini oshirishdan tashqari, uning yurak-bagʻrini tilka-pora qilib qoʻyadi. Qon (rang) labdan oshiq koʻksiga koʻchadi, uni iztiroblar girdobiga gʻarq qiladi, sheʼr qabramonining koʻzlaridan yosh oʻrmda qon marjonlar oqa boshlaydi. Birgina misrada shuncha mazmuni pinhon qilishga muassar boʻlgan shoir qilcha boʻlsa-da, hayot haqiqatdan, oʻxshatish va oʻxshatilmish oʻrtasidagi aloqadorlikdan yiroqlashgani yoʻq. Satrdagi bir tashbih ikkinchisini taqozo qilganidek, band(bayt) misralararo mazmuniy bogʻliqlikka birinchi qatordagi oʻxshatish, mubolagʻa kabi sanʼatlar yoniga tajohuli orifona ham qoʻshiladi. Hamma narsani oʻz jismida sinovdan oʻtkazayotgan oshiq oʻzini bilib-bilmaslik holatiga (nega holim yomon qildi) soldi va oʻzicha soʻroq qoʻyib, unga javob (men andin bir soʻrorim bor) beradi. Birinchi misrada «qon» soʻzi uch maʼnoda keladi: qon — rang(labga nisbatan); qon — inson tomirlaridan oqadigan suyuqlik; qon — bagʻridagi jarohat va koʻzdan oqadigan yosh tomchilaridir. Shunday gapni («soʻrorim» ga nisbatan ham aytish mumkin: Soʻrorim — men undan(maʼshuqadan) albatta, soʻrayman; soʻrorim — mashuqa labini soʻrmoq. «Qon» va «soʻrorim» soʻzlari ayni paytda iyhom sanʼatini (soʻzning koʻp maʼnolilik xususiyatidan kelib chiqib, uni «oʻynatish», maʼno jilolarini ochish) hosil qilgan. Koʻrinadiki, Bobur Mirzo birgina baytda tashbih, mubolagʻa, tanosub, iyhom kabi katta-yu kichik oʻnlab sanʼatlarni istifoda etgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Kobul» devoniga kiritilgan quyidagi qitʼasiga eʼtibor beraylik:

*Tariqi faqr suluk ahligʻa ne xush yoʻldur,
Vale bu yoʻlda keraklikturur rafiqi shafiq.
Tariqi faqr agar istasang, beri kelkim,
Suluk ahli demish: «alrafu summa tariq».*

Bu doʻst tanlash mavzusida yoritilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan qitʼadir. Hayotda inson uchun tanlashi kerak boʻlgan yoʻl koʻp, shu yoʻlda avval habib-yor tanlashi kerakdir, biroq bu mushkul hamdir. Ayniqsa, Bobur yashagan zamon va u hukmronlik qilgan chogʻlarida unga shunday sadoqatli doʻst zarur edi, har tomondan xiyonatga uchraganida, uning ustiga, tabiatan qalbi nozik bu siymo oʻz orzularini shu misralarga jo qila olgan edi, xolos. Avlodlarga meros

qoldirgan bu ibratli fikr: avval do'st tanlash va katta yo'lga chiqish kerak degan mazmun kelib chiqadi.

Bobur poeziyasida mavzular ko'lami turfa-xildir. Uning ota haqida yozgan quyidagi qit'asi ham o'ta jozibador ko'rinish kasb etgan:

*Otani chunki qibla debturlar,
Qibla yanglig'anga nazar qilg'il.
Ota og'ritma, ey otam, zinhor,
Ota ozoridan hazar qilg'il.*

Mazkur qit'ada, ayniqsa, «ey otam» undalmasining o'z vorislariga qanqa aytgan murojati ko'ngillarni to'liqlantirmasdan qolmaydi, o'zidan keyingi vorislarga, farzandlarga qoldirgan boy ma'naviy meros, oltin nasihatdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur tuyuq janrida barakali ijod qilgan molu qalamkash edi:

*Kimki, mubtal etar ul yotishini,
Sindirurlar boshini yo tishini.
Negakim, o'z ishini tark etibon,
Hazargard o'lub, etar yot ishini.*

Keltirilgan tuyuqda g'aflatda qolgan inson qiyofasi chizilgan. 1-misrada namozga erinchoqlik qilgan insonning «yotishini» ko'r, uni oxiratda boshini «yotishini» sindirurlar(2-misra); u bu ishi bilan musulmonchilikka «yot ishi» ni (begona ishini) ko'rsatmoqda (4-misra) deb baho bermoqda.

Bobur ijodida tasavvuf g'oyasi ham, Boburning Allohga bo'lgan ishqiy ham go'zal edi. U o'z his-tuyg'ularini quyidagi masnaviyasida to'kiib solgan:

*Ey qodiri barkamol, tangrim,
Vey qohiri zuljalol, tangrim.
Ey berguvchi bir-u bor, tangrim,
Vay olg'uchi girudor, tangrim.
Bo'lmas sifatini desa, nechun?
Kim borsen, ey xudoy, bechun.
Ar tufroq erur kamoling andin,
Afzunroq erur jaloling andin.
Ko'b so'z eshitildi mag'firattin,
Ko'b nukta deyildi marhamattin.*

«Allah Asma ul-Husna» Allohning 99 sifatlaridan keltirib nihoyatda jarangdor yaratilgan bu masnaviyda Allohning «zuljalol», «jalol», «qodir» kabi sifatlarini keltirgan, oshiqona muhabbatini izhor etib, yaratganning ulug' zot ekanligini ta'kidlagan.

*Habib bo'lsa edi, yo raqib o'lsa edi,
Raqib o'lsa edi, yo habib bo'lsa edi.
Ko'ngulga mehnat-u g'am har ne bo'lsa, bo'lsa edi,
Ki yorcha qotilib, g'ayrdin qutulsa edi.
Firoq shahrida bo'lg'uncha kosh ko'yingda,*

Tanim so'ngak bo'lubon, so'ngakim o'kulsa edi.

Mazkur g'azalning birinchi misrasida o'ta chiroyli holatda tardi aks namo'atining aks etganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu g'azalda ham raqibga o'lim, muvofiqatli yorga tashna ko'ngilning iltijosi vobastadir.

Bobur merosi ulkan — xazina. Ham lirik, ham epik janrda bir maromda ijod qilish, yoinki, yuksak mahorat bilan adabiyotga hissa qo'shish oson emas, albatta. Shoh Bobur yashagan davr ziddiyatlarga to'la edi. O'zida ikki xislatni ham ulohlikni, ham shoirlikni jonlantira olgan Bobur mumtoz adabiyotimizda o'lmas o'limoga aylanib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Almaz Ulvi. Azarbaycan-O'zbek (cigatay) adabi alaqalari. Baku-Qartal-2008.
2. «Biz bilgan va bilmagan Bobur» Rahim Vohidov. Toshkent «Ma'naviyat» 2008.
3. Almaz Ulvi. Adabiy duyg'ularim. 2-kitab. Baku. «Nurlan» -2008.
4. «Bobur devoni Kobul nashriga takmila» Shafiqa Yorqin. «Sharq» nashriyoti Toshkent-2004.



**FARIDUDDIN ATTOR VA ALISHER NAVOIY IJODIDA
ABDULLOH IBN MUBORAKNING ZIKRI**

Qo'ldosheva Sevvara

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shayx Abdulloh ibn Muborak xususidagi rivoyatlar, Fariduddin Attor hamda Alisher Navoiy tuzgan tazkiralardan parchalar keltirilib, tahlil qilingan. Yoshlarni Allohga muhabbat ruhida tarbiyalovchi bunday hikoyatlarning ahamiyati o'rganib chiqilgan.

Аннотация

В этой статье анализируются рассказы об Шейхе Абдулле ибн Мубараке, фрагменты Фаридуддина Аттара и Алишера Навои. Рассматривается важность такие истории, которые воспитывают молодежь в духе любви.

Annotatsion

In this article, narratives about Sheikh Abdullah ibn Mubarak were analyzed and analyzed by Farididdin Attar and Alisher Navoi. The importance of such stories in the love for God is illustrated by love for God.

Bizdan ilgari zamonlarda ko'pgina shayxlar, iml-u donishda, fazl-u kamolotda tengsiz zotlar o'tgan bo'lib, ularning hayot yo'llari, ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari o'sha davr insonlari uchungina emas, hozirgi kun kishilari uchun ham chin ma'noda ibrat bo'la oladi.

Maqolamizdan asosiy maqsad, ana shunday ulug' shayxlardan bo'lmish Abdulloh ibn Muborakni zikr etganlar ijodiga nazar tashlash orqali mavjud ma'lumotlarni solishtirishdir. Shuningdek, Abdulloh Muborak to'g'risidagi hikoyatlar va rivoyatlar bilan tanish bo'lmaganlarni tanishtirish, bu hikoyatlarining mazmun-mohiyatini biroz bo'lsa-da anglatish hamda shu orqali u zotning muborak nomlarini yod etish ham ezgu niyatimizdir.

Abdulloh ibn Muborak o'z zamonasining mashhur, fazl-u karamda tengi yo'q insonlaridan bo'lgan. Fariduddin Attor hamda Alisher Navoiy o'z asarlarida tazkiralari ushbu shayx haqida juda qimmatli ma'lumotlar keltirishgan. Xususan Fariduddin Attor o'zining «Tazkirat ul-avliyo» asarida yozishicha, Abdulloh Muborak zamona posboni, shariat va tariqatning peshvosi, o'zi singari ulamolarning chin ma'noda eng yuksagi, taqvodorlarning sultoni bo'lgan ekan. Shuningdek, ushbu asarda Abdulloh Muborakning barchaga xush yoquvchi, ko'ngillardan joy oluvchi, «kunbotish va kunchiqish mamlakatlarining eng yaxshi kishisi» bo'lganligini hatto zamonasining buyuklari bo'lmish So'fiyoni Savriy va Fuzayldek zotlar ham ta'kidlaganliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tazkirada keltirilishicha, Abdulloh Muborakning Alloh yo'lida tovba qilib, tariqat yo'lini mahkam tutishiga sabab bo'lgan voqea quyidagicha bo'lgan ekan. Buyuk shayx Abdulloh Muborak bir kanizak ishqiga giriftor bo'lib qoladi. Qish kunlaridan birida mashuqa uyi tomon yo'l olib uni devor ostida poylaydi. Mashuqa ham devor tepasiga kelgach, ular bir-birlariga uzoq vaqt tikilib qoladilar. Tong otadi. Muazzin namozga azon aytsa, Abdulloh Muborak buni xufton namozi uchun deb o'ylaydi, lekin bilsaki, bu bomdod namoziga aytilgan azon ekan. Shunda mashuqasi unga qarata, «Ey Muborakning nomuborak o'g'li, uyalmaysanmi? Nafsing uchun bir yor deb ertalabgacha tunni oyoq ustida o'tkazing. Qorni, sovuqni sezmading. Agar masjidida imom orqasida turganingda, imom qiroatni uzunroq qilsa, malol kelardi. Alloh uchun turishga chidamasdan, nafsing uchun tik oyoqda o'tgan tundan beri xor-zor turasan-u, tong otganini sezmayсан!» Abdulloh undan bu so'zlamini eshitib, ichiga o't tushadiki, darhol tavba qilib, ilohiy ilmga mashg'ul bo'ladi.

Xuddi shu hikoyat Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasining Abdulloh Muborakka bag'ishlangan qismida ham keltirilgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy Abdulloh Muborak bilan bog'liq bu ibratli voqeani «Mahbub ul-qulub» asarining — «Hamida af'ol va zamima xisoli xosiyatida» deb nomlangan, axloq masalalariga bag'ishlangan ikkinchi qismida ham keltiradi. Xususan, bu qismning birinchi fasli «Tavba zikrida» deb atalib, bunda Navoiy tavbaga juda go'zal ta'riflar keltiradi. Najmiddin Komilovning «Tasavvuf» asaridan ma'lumki, Abu Nasr Sarroj tasavvufda mavjud tariqatning to'qqizta maqomini qayd etib o'tgan bo'lib, tavba shu maqomlardan birinchisidir. Bunda solik Haqqa yetishish yo'lida g'ov bo'ladigan jamiki narsalardan yuz o'g'irishga qat'iy jazm qiladi.¹³ Tavbaga ta'rifdan so'ng Navoiy tavba maqomiga oid eng yaxshi namuna sifatida Abdulloh Muborak bilan bog'liq yuqoridagi

¹³ Qarang: Комиллов Н. "Тасаввуф". Т.: Ўзбекистон, 2009-й

hikoyatni keltiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy asarlarida bu hikoyat Attorning tazkirasidan biroz farqli o'laroq, Abdullohga berilgan tanbeh uning yori tomonidan emas, bevosita Abdulloh Muborakning o'zi tomondan berilishi shaklida keltirilgan.

Alisher Navoiy Abdulloh Muborakning muborak nomini «Xamsa» ning birinchi dostoni bo'lmish «Hayrat ul-abror» da ham qalamga oladi. Dostonning 16-maqolati «Xunasasifat oliftalar xususida» bo'lib, bu maqolatda dunyo zeb-ziynatiga berilgan, maqtanchoq, dunyoga ko'ngil bog'lagan kishilar bilan Allohga bo'lgan jonnfido muhabbatga ega kishilar bir-biriga solishtiriladi. G'azavot maydonining buyukligi-yu, bu maydonda mard-u nomardning namoyon bo'lishi haqidagi mulohazalarini ham ayni shu maqolatda keltirib o'tadi Navoiy.

Maqolatga ilova qilingan hikoyat ham juda go'zal bo'lib, bunda g'azot — kofirlarga qarshi olib boriladigan jangning manzarasi tasvirlangan. Hasan ibn Rabe'ning hikoya qilishicha, dushman qo'shinining tarkibidagi g'ayridin qotillar juda kuchli bo'lib, ular hammani qon qaqshatib, bir hamla bilan jon ola boshlaydilar. Dushmanga tobora yengilib borayotgan islom askarlari g'alabadan butkul umidlarini uzib, tushkunlik kayfiyatiga tushib qoladilar. Shunday qaltis paytda barchani hayajonga solib jang maydoniga bir inson ot solib kirib keladi. Yuzini niqob bilan to'sib olgan, bilaklaridan kuch-quvvat ufurib turgan bu mard kishi kofir qo'shini soniyalar ichida qirib tashlay boshlaydi. Bundan shukuhlangan islom askarlari ham yangi umid, ishonch bilan g'azotga qayta kirishib ketadilar va kofirlarning bayrog'ini quyiga egadilar.

Jang so'ngida barcha askarlarni qayta ruhlantirgan, hamon niqobini yechmagan bu qahramonga hamma qiziqqa boshaydi. Biroq g'olib o'zini ma'lum qilmaydi.

Hasan ibn Rabe'ning bu insonga ishtiyoqi tobora ortib, uning yoniga boradi va unga qarata «Ey g'alaba yo'ldoshi bo'lgan g'oziy! Tig'ingga ham, zarbingga ham ming ofarin! Yuzingni ko'rish orzusida o'lishga ham tayyorman. Tangrining rizoligi haqqi, niqobingni och» deya xitob qiladi. Tangrining nomini eshitgach u inson niqobini yechib tashlaydi. Hasan ibn Rabe' qarasaki, bu zot ibn Muborak edi! Darhol uning oyoqlariga bosh urib, tavof qilib, unda nega yuzlarini yashirganini so'rab, xalqqa o'zini hoziroq namoyish qilishini iltimos qiladi. Biroq hazrat Muborak «Men jihodni xalq meni tanisin uchun emas, Alloh buyurgani uchun, ko'nglinga solgani uchun qildim! Meni tanimasalar aslo ranj emaski, meni Alloh tanisa, Alloh ko'rsa bo'ldi» deya javob berib jang maydonini tark etadi.

Boshdan oxir hayajon bilan o'qiluvchi ushbu hikoyatning tarbiyaviy ahamiyati juda yuksak bo'lib, behuda maqtanchoqlik qilmaslik, kamtarin va mard bo'lishga undaydi.

G'azot jangi bilan bog'liq yana bir go'zal hikoya Fariduddin Attorning «Tazkirat ul-avliyo» asarida ham keltirilgan. Hikoyada yozilishicha, Abdulloh Muborak g'azot janglaridan birida dushman bilan mardona kurashayotgan paytda namoz vaqti bo'lib qoladi. Dushmanga aytadiki, «Men namoz o'qiy, bir soat poylab turgil. «Namozlarini o'qib bo'lgunlaricha dushman kutib turadi va

so'ng ular jangni davom ettiradi. Bir muddatdan so'ng dushman ham o'z ibodat payti kelganligini aytib, muhlat so'raydi va but-sanamlariga cho'qinib ketadi. Shunda Abdulloh Muborakning xayoliga «Hozir ayni paytidir, hujum qilib, muhalok qilishim kerak» degan fikr keladi. Tig'ni qo'llariga olib endi qadara tashlay deganida, g'oyibdan: «So'zingda turgilkim, qiyomat kunida hurobi so'ralur», degan ovoz eshitiladi. Bundan Abdulloh ibn Muborak qat'iy ta'sirlanib, chetga chiqib yig'lay boshlaydi.

Ibodatini tugatib qaytgan dushman undan nega yig'layotguninga so'raganida:

– Seni o'ldirishga qasd qilgan edim. Allohdan ovoz eshiltildikim, «U kufir bilan so'zida turib senga ziyon yetkazmadi. Sen islom dinida bo'la turib nechi va'dangni buzib uni o'ldirmoqchi bo'lasesn?» Shu so'zlardan ta'sirlanib yig'layurman, deya javob beradi. Kofir dushman ham aytadiki: «Hayf mena! Sening Allohingdek mehribon va rahmdil zot turganda butga sig'inarman! Men ham islom dinini qabul qildim!»

Shu tariqa kalima qaytarib u ham musulmon bo'ladi...

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bunday mazmundagi axloqiy kishilarga ma'naviy zavq ulasha oladigan hikoyatlarga boy bo'lgan asarlarni tazkiralarni o'qish orqali kishining qalbi ham, ongi ham yomon o'y-fikrlardan, g'arazli maqsadlardan tozarib, ma'naviy tafakkuri yana-da kengayishi shubhasiz.

Shayxlar orasida din ulamolari bilan bir qatorda shoirlar, san'atkorlar ham bo'lganligi bizga Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» asaridan ham ma'lum. Yuqorida keltirib o'tilgan asarlardan ularning hayotini o'rganishda qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanish yaxshi samara beradi, deb o'ylaymiz.

Faqatgina Abdulloh ibn Muborak emas, tazkiralarda tilga olingan Bibi Robiya Adaviya (ayrim manbalarda Adviya), Boyazid Bistomiy, Hasan Basriy, Uvays Qaraniy, Junayd Bag'dodiy, Abdulla Ansoriy, Jaloliddin Rumiy kabi shayxlar, ulamolar hayoti bilan tanishish, ularning ibratidan ibrat olish, shu tariqa diniy bilimlarni ham bir qatra oshirishga erishish har birimizga nasib etsa qanday ezgu ish bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy, Hayrat ul-abror. T.: G'afur G'ulom, 2006.
2. Агтор Фаридулдин, Тазкират ул-авлиё. Тошкент: Гафур Фулом, 2013-й.
3. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т.: Тамаддун, 2016.
4. Навоий Алишер, Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 жилдлик. –Т.: Фан, 2001. Т17.
5. Комилов Н. «Гасаввуф». Т.: Ўзбекистон, 2009-й.
6. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар /Масъул муҳаррир III Сирожиiddинов. – Т.: Sharq, 2016
7. Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тузувчи Б. Ҳасанов. –Т.: Фан, 1993.



HOJANING HIKOYANAVISLIK MAHORATI

Ro'ziyev Elbek

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada Xoja hikoyachiligining o'ziga xos xususiyatlari, mumtoz hikoyachilik an'analari zamirida qiyosiy uslubda talqin etilgan. Muallif iste'dodining mahorat qirralari yoritilgan. Adib hikoyalari mohiyatidagi ma'nolar ko'lami va badiiyati borasidagi xulosalar bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: Mumtoz hikoyanavislik, tazod, tanosub, iyhom, o'xshash syujetlar, kichik hikoya.

Аннотация

В статье особенности истории Хожы интерпретируются в сравнительном стиле классической традиций. Иллюстрируется шедевр талантов автора. Сущность статьи суммируется в терминах масштаба и характера сущности.

Ключевые слова: Классический рассказ, ийхом, tazod, tanosub, похожие сюжеты, мини рассказ.

Annotation

In the article, the features of Khoja's storyline are interpreted in the comparative style of the classical tradition. The masterpiece of the author's talents is illustrated. The essence of the essay is summarized in terms of the scale and nature of the essence.

Key concepts: Classical story, tazod, tanosub, iyhom, similar subjects, mini story.

O'zbek adabiyoti tarixida Xoja taxallusi bilan ijod qilgan Poshshoxo'ja binni Abduvahobxo'ja munosib o'ringa ega. U «Miftoh ul adl» va «Gulzor» asarlari bilan o'zbek mumtoz hikoyachiligini bir qadar boyitdi.

Mumtoz hikoya qadim o'zbek nasrining bir qismi hisoblanadi. Ko'pincha unda payg'ambarlar yarim tarixiy, yarim afsonaviy shaxslar, pir-murshidlar, hukmdorlar, fan madaniyat, san'at aboblari hayoti, ular bilan bog'liq turli xil hodisalar ixcham tarzda aks ettiriladi.

Sharq adabiyotida mumtoz hikoya janri qadimdan mavjud bo'lib rivojlanib kelgan. Muhammad Avfiyning «Ibratli hikoyatlar» i, Nizomulmulkning «Siyosatnoma» si, Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy», Fariduddin Attorning «Ilohiynoma», Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» kabi asarlari bunga yaqqol misoldir. Bu asarlarda axloqiy-didaktik xarakterga ega bo'lgan, hayotning turli tomonlari ochib berilgan hikoyatlar aks etgan. Ularda o'xshash syujetlar mavjud ekanligini ko'ramiz, lekin har bir ijodkorning ifoda uslubi bir-birlaridan ajralib turadi.

Xoja sharq mumtoz adabiyotini munosib ravishda o'rgangan va yaxshi xabardor bo'lgan deyishimizga bir qancha asoslarimiz bor. Uning Bobur Mirzoga g'azallaridan na'munalar yuborganligi va bu g'azallarga Bobur Mirzo yuqori baho berganligi, Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asarida keltirilgan. «...va bu turkiy g'azalni aytib, Bobur podshoh huzuriga yuborgan edilar. Podshohga ma'qul bo'lib, maqtagan edilar. G'azal budir:

Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur,
Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur...»

[6, b. 275]

Mazkur baytdanoq, Xojaning shoir sifatida ham mahoratli bo'lganligini sezib qiyin emas. Unda qo'llangan tazod, tanosub, iyhom san'atlari shoir ifodalamoqchi bo'lgan ruhiy holatni aniq va ta'sirli o'quvchiga yetkazib berishga xizmat qildirilgan. Ayniqsa, radif sifatida kelgan «Kechadur» so'zi orqali «iyhom» san'ati ham qo'llanilganki, bu bizga ijodkorning so'zga munosabati, ular ma'nolarini olmos qirralaridek jilolantirib ifodalash mahorati borasida tasavvur beradi.

Xoja hikoyachilikda ham sharq an'analarini munosib davom ettirdi. O'z uslubini yaratdi va hikoyachilikni bir qancha yangiliklar bilan boyitdi. Jumladan ijodkorning «Iskandar va chob» haqidagi hikoyasida ham bu holni kuzatamiz. Mazkur syujet an'anaviy bo'lib, xalq og'zaki ijodida mavjud edi. Undan tashqari yozma manbalardan, XII asr boshlarida yaratilgan Abu Bakr Muhammad Toptushiyning «Siroj ul mulk» asarida, shuningdek, Xoja hikoyatlaridagidek voqea bayoni Abdurahmon Jomiyning «Xiradnomai Iskandariy» asarida ham uchratamiz. Ularda mazmun deyarli bir xil lekin, Xoja nasrda, Jomiy nazmda yaratgan. Sharq adabiyotida nazm, nasrga qaraganda yuqori turib, asosan xoslar uchun mo'ljallanib hisoblangan. Oddiy avom uni tushunishi qiyin bo'lgan. Xoja xalqona, tushunarli yozish uchun ham nasrdan foydalangan.

Bunday o'xshash hikoyatlar syujetini «Qisasi Rabg'uziy» da ham uchratamiz. Luqmoni hakim bilan bog'liq hikoyat «Qisasi Rabg'uziy» da ham «Miftoh ul adabiyat» da ham mavjud. Jumladan, «Qisasi Rabg'uziy» da hikoyat shunday beriladi: «...bir kun xojasi Luqmonni bug'doy ekkali izdi. Luqmon borib arpa ekdi. Xojasi aydi: «Bug'doy ek, dedim, ne uchun arpa ekting? «Luqmon aydi: «Arpa eksa bug'doy unmasmi?» Xojasi aydi: «Unmas». Luqmon aydi: «Andag' bo'lsa sen ham yomonliq ekib yaxshiliq umid etmagil» [2, b. 74]. Ushbu hikoyat Xoja asarlarida o'zgargan versiyada uchraydi va bir qator o'ziga xosliklarni namoyon qiladi. Bular:

1) muallif hikoya voqeyasini o'z tilidan bayon etadi; muallif nutqi hikoya syujetini bayon qilishda nutqlarni bir-biriga ulash, mazmuniy g'oyalarni ochib berishda qatnashish vazifasini bajaradi;

2) hikoya qahromonlari nutqi orqali ham asar mazmuni ochib beriladi;

3) personajlarning savol-javobi orqali voqea hodisalar aniqlasha boshlaydi;

4) hikoyatda kontrast vositalardan unumli va munosib foydalanilgan: «...arpa yerinda bug'doy bitar va bug'doy yerinda arpa bitar», «...yozuq o'rinda savob bitar, savob o'rinda yozuq bitar» («Yozuq» يازوق يا يازوق ma'nosi gunoh, ayb)[4, b. 101]

5) hikoyat mashhur «Har kim ekkani o'rar» «xalq maqoliga mutanosib ravishda, xulosaviy tarzda «Har kim bu dunyoda ne eksa, oni o'rar» tarzida yakunlanadi.

Xojagacha mavjud bo'lgan, mumtoz hikoyalar jamlangan asarlardan yana biri Nizomulmulkning «Siyosatnoma» yoki «Siyar ul -mulk» asaridir. Bu asar fors adabiyotining dastlabki badiiy asarlaridan bo'lib, saljuqiy sultonlarning siyosiy dasturi sifatida baholanadi. Asarda davlat boshqaruviga aloqador qonun-qoidalar,

qozixona ishlari, umuman, o'sha davr siyosiy tuzumlari haqida ma'lumotlarni uchratamiz. Shuningdek, asarda didaktik mazmundagi, axloqiy-ta'limiy bir qancha hikoyalar keltirilgan. Bu hikoyalar syujetlarining ayrimlari Xoja hikoyalarida ham uchraydi. Bu hikoyalarning asosiy o'xshashliklari podshohlar hayoti, ijtimoiy-siyosiy mavzular doirasidagi o'xshashliklardir. Shuni e'tiborga olish lozimki, Nizomulmuluk ham, Xoja ham ijtimoiy hayotda, davlat boshqaruvida yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan. Nizomulmuluk saljuqiy sultonlar saroyida vazir lavozimiga ko'tarilgan bo'lsa, Xoja Muhammad Shayboniyxon va shayboniy sultonlar davrida sadr, shayxulislom, viloyat hokimi vazifalarida ishlagan. 1508-yilda Muhammad Shayboniyxon Xojani Dorun viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Ubaydullaxon zamonida (1522-1530) 1529-yili Buxoroda shayxulislomlik qiladi. Bu lavozimga diniy bilimlarni yaxshi egallagan, insofli, diyonatli shaxslar tayinlangan.

Xalq hayotida muhim o'rin tutuvchi muqaddas din bilan bog'lagan holda, tarixda mashhur bo'lgan hukmdorlar hayoti aks etgan ibratli hikoyalarni har ikkala ijodkor ijodida ham uchratamiz. Bahrom Go'r va uning vaziri Rostravshan bilan bog'liq hikoya ham bunga misoldir. «Siyosatnoma»da uchraydigan hikoyaning qisqacha mazmuni quyidagicha: Bahrom Go'r ismli podsho davlat ishlarini butunlay vaziri Rostravshanga topshirib qo'yadi. Bundan foydalangan Rostravshan shaxsiy manfaatlari uchun xalqdan nohaq soliqlar talab qiladi. O'ziga bo'ysunmaydiganlarni zindonband qiladi. Eng yomoni Bahrom Go'rga dushman bo'lgan qo'shni hukmdor bilan til birliktiradi. Dushman hujumi arafasida xazinada boylik, qo'shinda navkar qolmaydi. Shunday paytlarda Bahrom Go'r cho'ponning kapasida osig'lik itni ko'radi. Bu it cho'ponga xiyonati tufayli, shunday holga tushganligini biladi. Sodiqlik timsoli bo'lgan itning xiyonatini eshitgandan so'ng, podshohning ham ko'nglida vaziriga nisbatan shubha paydo bo'ladi va tez orada bu shubha asosli bo'lib chiqadi. Hikoya yakunida Rostravshan qilmishlariga yarasha munosib jazolanadi. Aynan shu syujetli hikoyani Xoja o'z uslubida ixcham tarzda ifodalaydi. Xoja variantida dialoglar, syujetlar miqdori ko'p emas. Voqealar asosan muallif tomonidan hikoya qilinadi. Har ikkala ijodkor ham hikoya ichida hikoya keltirish uslubidan foydalangan. Bu uslub xalq og'zaki ijodida ko'p uchraydigan uslubdir. Yuqoridagi har ikkala hikoyada ham podshohlik, davlat boshqaruvi muhim ish ekanligi, davlatni boshqarayotgan shaxs boshqaruva hushyor va adolatli bo'lish kerakligi aks etgan, umumiy g'oyalar ixcham ko'rinishda jamlangan. Xoja hikoyasining so'ngida quyidagi ibratomuz jumlar keltiriladi: «...Emdi sulton yo bek bo'lg'on kishi vazirig'a ishonib g'ofil bo'lmoq kerakmas» Yetakchi rahbar mas'uliyati masalasiga o'quvchi e'tibori tortilgan. Bu fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. «Xoja hikoyalari qissadan hissalarning farqi orqali o'z parallellaridan ajralib turadi. Bu hol Xoja hikoyalarga xos bo'lib, hikoya so'ngida muallif hikoyada ko'tarilgan masalalarga munosabati axloqiy-ta'limiy yakunlarda ifodalanadi» [3, b. 126].

Ko‘rinadiki Xoja hikoyachilikda o‘z uslubini yaratdi va bu uslub amalda o‘zini yetarli namoyon qila oldi. Necha asrlardan beri uning asarlari kitobxonlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘qib kelinmoqda. Xoja sharq adabiyotida mavjud an‘anaviy syujetlar asosida, o‘ziga xos ifoda uslubi, badiiy tasvir vositalarini qo‘llash yordamida, yangi, o‘ziga xos, original kichik hikoyalar yaratishga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Poshshoxoja. Miftoh ul adl. Gulzor. -T.: Davlat badiiy adabiyoti, 1962.
2. Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. -T.: Yozuvchi, 1990. 74-bet.
3. Mirzaahmedova M. Xoja. T: Fan, 1978.
4. «O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at». T: «Fan» 1953. 101-bet.
5. Nizomulmulk. Siyosatnoma. -T.: Adolat, 1997. 77-bet.
6. Hasanxo‘ja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. 1993. 275-bet.



«FARHOD VA SHIRIN» DOSTONIDA CHIN MAMLAKATI TASVIRI

Ruzmetov Shahzod

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

Аннотация

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Chin mamlakatining tasviri hamda dostonida qo‘llanilgan badiiy san‘atlar va komil inson g‘oyasining joy va atrof-muhitga bog‘liqligi haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: Chin, husni ta‘lil, tashxis, mubolag‘a, tadrij, ruju.

Аннотация

В данной статье дается описание стране «Чин» из произведения Алишер Навои «Фархад и Ширин», а также рассматриваются использованные художественные искусства в дастане и вопросы идеологии всесторонне-развитого человека и его отношение к окружающему миру.

Ключевые слова: Чин, хусни таълил, ташхис, муболага, тадриж, ружу.

Abstract

This article describes about the country Chin in the epic poem «Farhod and Shirin» by Alisher Navoi and illustrates the tools of imagery used in this epic poem and relations of perfect person thoughts to places and environment.

Key words: China, husni talil, tashxis, mubolaga, tadrij, ruju.

Ma‘lumki, sharq she‘riyatida didaktik xarakter asosiy o‘rin egallagan. Komil inson g‘oyasi umumturkiylar uchun mushtarak g‘oya bo‘lib insonni kamolotga yetaklovchi omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Komil insonni voyaga yetkazish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va uning usullari haqida

ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. Ayniqsa, bu borada hazrat Alisher Navoiyning xizmatlari salmoqli o'rin egallaydi. Shoir ijodining katta qismi ayni shu masalaga bag'ishlangan desak, aslo xato bo'lmasa kerak. Xususan, Alisher Navoiyning «Xamsa» dostonlari sirasiga kiruvchi «Farhod va Shirin» dostonida ham ushbu mavzuga duch kelamiz. Dostonda shoir majoziy yo'l va turli ishoralar vositasida komil inson g'oyasini tatbiq etadi. Bunda Navoiy badiiy san'atlardan keng foydalanadi, bular orasida ma'naviy san'atlar salmoqli o'rin egallagan. Bular asarning ta'sirchan va badiiy jihatdan yuksak darajada yozilishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Dostonda komillik belgilari va unga erishish usullari keng yoritilgan, biz dostondagi tarixiy joylardan biri bo'lgan Chin mamlakati xususida so'z yuritmoqchimiz. Zero, Navoiy bejiz Chin mamlakatini Farhodning yurti sifatida keltirmaydi, Chin qadim zamonlardan beri taraqqiyot, madaniyat va san'at beshigi sifatida qayd etiladi. Lekin bu tasvirlarni ayni hozirgi Xitoy sifatida qabul qilish noto'g'ridir, bu shoir tasavvuridagi chinakam obod mamlakatdir. Bu komil insonning shakllanishi uchun nafaqat ilm, balki joy ham muhim rol o'ynashini, tinch va rivojlangan yurtdagina yuksak natijalarga erishish mumkinligiga o'ziga xos ishoradir. Biz quyida dostondagi Chin mamlakatining tasviri aks etgan ayrim o'rinlarga murojaat qilamiz.

Dostonning XII bobida Chin mamlakatining ta'rifi, shuningdek, Farhodning yo'qlik olamidan borliq gulshaniga kelgani o'ziga xos ravishda yoritib beriladi. Navoiy Chin mamlakatini ta'riflar ekan, Tangri taoloni ipak matolarga naqsh soluvchi usta sifatida keltirib o'tib shunday deydi:

*Bu chiniy hullag'a bo'lg'on raqamkash
Yuzin bu tarh ila qildi munaqqash*

Shoir Chin mamlakatining yaratilishi va paydo bo'lishini she'riy misralarda keltirar ekan, bunda badiiy san'atlardan o'rinli ravishda foydalanadi. Yuqoridagi baytda husni ta'lil asosida fikr bag'oyatda go'zal asoslanadi. Husni ta'lil arabcha so'z bo'lib, «chiroyli asoslash» degan ma'noni anglatadi [2, b. 389]. «... shoir o'zining birorta fikri yoxud maqsadini asoslash uchun munosib dalil keltiradi. Bu dalil shoir bayon qilayotgan fikr uchun real bo'la olmaydi, balki uni quvvatlash uchun keltirilgan poetik dalil hisoblanadi...» [3, b. 72]. Shu o'rinda Alisher Navoiy Chin mamlakatining botiniy moddiyatini ta'riflar ekan, bunda tashxis san'atidan foydalanadi, buni qaysidir ma'noda husni ta'lil sifatida ham qabul qilish mumkin. Tashxis arabcha so'z bo'lib «shaxslantirish» degan ma'nolarni anglatadi [4, b. 113]. Ya'ni baytdagi turli narsalar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni ko'chirish san'ati.

*Ki Chin mulkiki rashki naqshi Chindur,
Savodi g'ayrati xuldi barindur.*

Bu misralarni shunday idrok qilish mumkin: Chin mamlakati shunchalik go'zalki, bundan hatto chinlik rassomlar chizgan naqshlar ham xijolat tortadi, bu go'zallik oldida jannat bog'lari hasad ichra yonadi. Bu yerda shoir tashxis

san'atidan o'rinli ravishda foydalanib mubolag'a orqali chinning betakrorligiga ishora qiladi. Mubolag'a arabcha so'z bo'lib «lof urish, bo'rttirish» degan ma'nolarni anglatadi, uning yunoncha nomi «huperbole» [5, b. 120]. Navoiy Chin mamlakatining ta'rifini bir baytga sig'dirar ekan, keyingi misralarda va baytlarda mubolag'a san'ati orqali Chinning buyuk davlat ekanligi ochib beriladi

*Iki olamcha mulki vus'at ichra
Yeti garduncha taxti rif'at ichra*

Ya'ni Chinning sarhadlari va buyukligi go'yo ikki olamcha bor, uning hukmdori shunchalar buyukki, go'yo uning taxti yettinchi osmondadir, deb keltiriladi. Keyingi baytlarda xoqon qo'shinlari yer yuzidagi qum zarralaridan ham ko'pligi aytiladi va ruju san'ati asosida Navoiy o'z fikridan qaytib yo'q bu qo'shinlar samovatdagi yulduzlardan ham ko'p deya fikrini tadjir asosida davom ettiradi. Tadjir arabcha so'z bo'lib «asta-sekin, peshma-pesh» degan ma'nolarni anglatadi [5, b. 124].

Ruju san'atidan Navoiy o'z asarlarida samarali foydalangan, xususan «Layli va Majnun» dostonida Layli ta'rifi to'laqonli ravishda ruju asosiga qurilgan bo'lib, bu fikrning dalilli va asosli chiqishiga xizmat qilgan. Ruju arabcha so'z bo'lib «qaytish;...yuklash» degan ma'nolarni anglatadi [6, b. 531]. «Farhod va Shirin» dostonida esa Navoiy Farhodning otasini tasvirlar ekan, uni xon emas, balki xoqon deyish lozim deb takidlaydi.

*Shahi erdi muazzam xoni oning
Dema xoni oning, xoqoni oning*

Bu yerda Navoiy odil shoh va komil insonni voyaga yetkazishga qodir bo'lgan vosita va shaxslarni majoziy yo'l bilan to'laqonli ravishda ochib beriladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ushbu dostonida nafaqat ilohiy ishq, balki komillik g'oyalari va unga erishish usullari qayd etiladi. Bunda insonning tug'ilgan joyi va yashayotgan muhiti ham o'ziga xos vazifa bajarishi husni ta'lim san'ati orqali ochib beriladi. Bunda Navoiy she'riy san'atlardan o'rinli ravishda foydalanib asarning badiiy qiymatini yanada oshiradi. Navoiy «Xamsa» dostonini turkiy tilda yozib, ayni turkiylar orasida ham komil insonlar borligi va kelajakda yetishib chiqishiga ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Фарход ва Ширин. –Т.: Ф. Фулом, 1989.
2. Тўхта Бобоев. Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон, 2002.
3. Исҳоқов. Ё. Ўзбек тили ва адабиёти, 1-сон, 1971.
4. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийат малюхати. –Т.: Ф. Фулом, 1999.
5. Нотам Умуров. Адабиёт қoidalari. –Т.: О'қитувчи, 2003.
6. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972.



MAQOL JANRINING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOTI

Salimova Mavzuda Mavlonbek qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetining talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada maqol janrining vujudga kelishi, taraqqiyoti, xalq orasida qo'llanish doirasi tadqiq etildi. Shuningdek, o'zbek xalq maqollarining to'planishi, nashr etilishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: maqol, matal, folklorizm, Devon, tarbiyaviy ahamiyat.

Аннотация

На этой статье изложены мысли о появлении жанра пословиц, развитие, круг применения среди населения, а также собрание узбекских народных пословиц.

Ключевые слова: пословица, притча, фольклоризм, воспитательное значение.

Annotation

In this article it is investigated forming genre of the proverb, progress, sphere of utilization among people. So, the ideas are expressed about being collected and printed the proverbs of uzbek-people.

Key words: proverb, saw, folklore, devan, educational significance.

Biz bilamizki, har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'playdi va shu tajribani ma'lum vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so'zlar ana shunday bebaho ma'naviy me'rosimiz hisoblanadi. [1: b-7] Maqol qisqa hajmda bo'lsa-da, o'zida olam-olam ma'no saqlovchi janr hisoblanadi. Maqollarda har bir tarixiy davr ijtimoiy-siyosiy voqealari ma'lum darajada o'z izini qoldiradi. Shuningdek yangidan yangi maqollar yaratilib xalqning so'z xazinasi boyib, takomillashib boradi. Maqollar biror bir xalqning tushunchalari hayot tajribalari va fikr-mulohazalarining unumlashma xulosasigina bo'lib, hayot haqiqatlari ifodasi, u yoki bu masala ustidan chiqarilgan hukm hamdir. Maqol qadimiy janr bo'lib, ajdodlarimiz undan kundalik faoliyatida u yoki bu munosabat bilan keng foydalanganlar. Maqol arabcha «qavlun» so'zidan olingan bo'lib «aytmoq», «hikoya qilmoq» degan ma'nolarni anglatadi va o'zbek tilida xalq donishmandligining namunasi hisoblangan janr hisoblanadi. Maqoldan ajdodlarimiz har bir davrda o'z ijodida keng foydalangan. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Gulxaniy ijodlarida maqol janrining eng sara namunalarini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari biz bu janr namunalarini ko'ha bitiktoshlarda ham kuzatishimiz mumkin. O'rxun-Enasoy bitiklarida, «Yupqa qalin bo'lsa, Tor-mor qiladigan bahodir, Ingichka yo'g'on bo'lsa, Uzdigidan bahodir emish» kabi hikmatli parcha namunalarini o'qiymiz.

Maqol janri namunalarini o'z ijodida keltirib o'tgan Mahmud Koshg'ariy maqolni «sav» atamasi bilan qo'llagan. Uning devonida biz turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallarni

uchratishimiz mumkin va bu maqollarning aksariyati ma'lum o'zgarishlarga uchragan bo'lsa ham yetib kelgan. Asarda keltirilgan maqollarda o'sha davr ruhi, kishilarning dunyoqarashi, ularning mehnatga — ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati akslangan. Bu maqollar o'sha davrda qadimgi turk urug'lari va qabilalari orasida keng tarqalgan ularning ayrimlari hozirgacha o'zgarishsiz yetib kelgan bo'lsa, ayrimlarining variantlari bizgacha yetib kelgan. Masalan, «Devon» dagi

«Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tishtin» maqoli hozirda «Odam olasi ichida, mol bolasi tashida» tarzida qo'llanadi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida ham biz maqol janrini uchratishimiz mumkin. Masalan: «Yesa, ichsa oxir bari och to'yar, ko'zi och ochligin o'lganda qo'yar», yoki «Kishiga chiroydir uyat andisha, u asrar nojo'yu ishdan hamisha».

Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» dostonida «Vale kiysang atlas, unutm bo'zing» misrasini yozadi. Shuningdek, Muhammad Sharif Gulxaniyning Zarbulmasal asarida ham maqol janridan keng foydalanib, o'z asarida 300 dan ortiq maqollarni kiritgan. Yoki Sulaymonqul Rojij o'zining Zarbulmasal asarida 400dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi olimlar tomonidan ta'kidlab o'tiladi. [2: b-4].

O'zbek xalq maqollarini o'rganish, ularni to'plam yoki xrestomatiya quritish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Jumladan, venger olimi X. Vamberining 1867-yilda nashr qilingan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya lug'atida o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, xrestomatiyada ularning nemis tilida tarjimai ham berilgan. U shuningdek, o'lkamizga qilgan safarida quyidagicha yozgan edi: «Sharq qadimiy she'riyat o'lkasi bo'lib kelgan ...Shuning uchun ham o'tovda istiqomat qiluvchi kishilarda she'riyatga bo'lgan ishtiyok Parij va Londondagi ma'lumotli jamiyat azolaridagiga qaraganda kuchliroq ekanligi hech kimni ajablantirmasa kerak... O'rta Osiyoda bir-biriga muhabbat qo'ygan yosh oshiq-ma'shuqlar ham, ruhoniylar va oqsuyaklar ham — xullas, hamma poetik ijodiyotga bir xilda qiziqadi... Maqollarni yozma tilda ham, jonli tilda ham uchratish, yurak kazolarning uyida ham, ko'chmanchining o'tovida ham eshitish mumkin... Sahro o'g'loni bunday otalar so'zini hamma vaqt yuziga jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi. Maqol ma'nosiga zid bo'lgan hech qanday oqilona gap, hech qanday inontiruvchi so'z uning fikriga ta'sir eta olmaydi». [3: b-4] Darhaqiqat venger olimi kuzatishlaridan maqolning xalqimiz orasida qo'llanilishi va unga bo'lgan munosabatni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, maqollarimiz rus tiliga tarjima qilinib, tadqiq etilgan. Bu borada E. Chernyavskiy, V. Ro'zmatov (1959), N. Gatsunayev (1983, 1988), A. Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tiliga tarjima qilganligini ko'rishimiz mumkin. [4: b-5]

O'zbek xalq maqollari uzoq davrlar yashab, alohida janr sifatida shakllandi va avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib kelmoqda.

Maqollar o'zida tarixiylik xususiyatini ham akslantiradi va ular maxsus ijod qilinmaydi. Ular zamonlar osha sayqallanadi, shakllanadi, pishib yetiladi va

muzmuni teranlashadi. Odatda ma'lum bir tarixiy sharoit va ma'lum tarixiy voqea hodisa ta'sirida yuzaga keladi. Bundan tashqari biz maqollarda tarixiy haqiqatni ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, Mo'g'ullar istilosi, Chingizxon zulmi davrida juda ko'p xalq maqollari, matal, afsonalari vujudga kelgan:

*Buji keldi, buji keldi,
Chingiz bilan Jo'li keldi. [5: b-110]*

Maqollar xususiyatiga ko'ra milliy va umuminsoniy mohiyat kasb etgan. [6: b-291] Ularda o'sha xalqning o'y-fikrlari, orzu umidlari, qadriyatlar akslangan bo'ladi. Bundan tashqari biz maqolda o'sha xalqning milliy qiyofasini ham ko'ramiz. Maqollarning mavzu doirasi ham juda xilma-xil hisoblanadi. Ularda ijtimoiy tuzum, hukmron sinf vakillari bilan mehnatkash xalq orasidagi munosabat, oddiy xalqning qiyin ahvoli va boshqa ko'plab mavzular yoritilgan bo'ladi. Masalan: xolvani hokim yer, kaltakni yetim yer. Maqollarda qofiyalash ham o'ziga xosdir. Masalan:

*Yigit g'ami elida
El g'ami dilida.
Yurt qo'ri, eling o'sar
Qo'rimasang, uying to'zar.*

Maqollarda sifatlash, o'xshatish kabi badiiy tasviriy vositalardan, omonim, antonim so'zlardan keng foydalanish ularning badiiyligini yanada oshirib, fikrning tinglovchiga tez yetib borishini ham ta'minlaydi.

Maqol janri kishilarni ogohlantiradi (Og'zimga keldi deb, dema, Oldimga keldi deb, yema) maslahat beradi (Taroziga qarab tosh qo'y), tanbeh beradi (Cholni ko'rib, buvam dema), mehnatni ulug'laydi (Mehnat qilib topganing — qundu asal totganing), hajviy kulgu ostiga oladi (Ishtonsiz, tizzasi yirtiqqa kular). Xalq maqollari insonni kamol toptiruvchi, ma'rifatli bo'lishga xizmat qiluvchi, ma'naviyatini oshiruvchi purhikmat so'zlar jamlanmasidir. Davr, odamlar dunyoqarashi o'zgarishi bilan yangidan yangi maqollar paydo bo'ladi, eskilari unutiladi, ammo uning mazmun mohiyati yo'qolmaydi.

O'tmishda yaratilgan va hozirda ham xalq orasida ishlatililib kelayotgan maqollar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, xalqimiz donishmandligining namunasi hisoblanadi. Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir va maqollar qaysi tilda, qaysi mavzuda yaratilmasin inson kamoloti uchun xizmat qilib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomaqsudov Sh. Hikmatnoma. -T., 1990.
2. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. -T., 2003.
3. Razzoqov X. O'zbek xalq poetik ijodi. -T., 1980.
4. Oxunjon Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -T., 2010.



ATOYI IJODIDA TABIAT TASVIRI

Sayfullayeva Mehrangiz

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Mavlono Atoyining tabiat tasviri bilan bog'liq bayt-u g'azallari tahlil qilingan. Shoir tabiat go'zalligini oshiqning ichki kechinmalari, orzu-havaslarini bilan uyg'un tasvirlab diltortar satrlar, hayajonli misralar bitishi va uning g'azallarida bahor go'zalligi, tarovati va gul-lolalar jilosi lirik qahramonni o'ziga maftun etishi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: peyzaj, tashbih, tanosib, mashuqa, ruhiyat.

Аннотация

В этой статье были проанализированы известные поэты Атои (первая половина XV века), связанные с описанием природы, и выяснены их значения. Были упомянуты описание характера поэта в гармонии с внутренними мыслями, мечтами, амбициями любовника, его стихотворными стихами, куплетами, полными эмоций, и увлекательным лирическим героем с красотой, сиянием весны и блеском цветов.

Ключевые слова: пейзаж, метафора, таносиб, любовник, дух.

Annotation

In this article the famous poet Atoi's (the first half of XV century) ghazals related to the description of the nature were analyzed and their meanings were clarified. The poet's description of the nature in the harmony with the lover's inner thoughts, dreams, ambitions, his writing attractive verses, couplets full of emotion, and fascinating the lyric hero with the beauty, glow of spring, and lustre of flowers were mentioned.

Key words: paysage, metaphor, tanosub, lover, spirit.

XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan Mavlono Atoy haqida Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida shunday deydi: «: «Mavlono Atoy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq va munbasit (ochiq ko'ngil, xushhol, shod-xandon) kishi erdi. Turkigo'y erdi. O'z zamonida she'ri atrok (turklar) orasida ko'b shuhrat tutti va bu matla' aningdurkim:

*Ul sanamkim suv qirog'inda paridek o'tlurur,
G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur.*

Qofiyasida aybg'inasi bor. Ammo mavlono ko'b turkona (sodda va xalqona) aytur erdi. Qofiya ehtiyojig'a muqayyad emas erdi. Qabri Balx navohisidadur»[1, b. 75-75].

Atoyidan bizgacha 260 ta turkiy g'azalni o'z ichiga olgan yagona devon yetib kelgan. Bu devon hozir Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining Sharq qo'lyozmalari bo'limida 22 V-2456 raqami ostida saqlanadi. Devonni Rus sharqshunos olimi A. N. Samoylovich, o'zbek olimlaridan Fitrat, E. Rustamov, S. G'aniyeva kabilar turli yillarda Atoy g'azallaridan namunalar e'lon qilishgan. Devonni to'liq holda so'zboshi, izoh va arab matni bilan birgalikda adabiyotshunos olim S. Sayfullah 2008 yilda «Fan» nashriyotida nashr qilgan.

Adabiyotshunos olim S. Rafiddinovning tasnifiga ko'ra Atoyi g'azallarining g'oyaviy mavzusi asosan:

a) oshiqona;

b) diniy-tasavvufiy;

v) peyzaj xarakteridadir[3, b. 29].

Shoir she'riyatida boshqa mavzular qatorida peyzaj, ya'ni tabiat tasviri ham alohida o'rin tutadi.

Tabiatdan zavqlanish va poetik obraz sifatida foydalanish har bir shoir ijodiga xos narsa. Rus tanqidchisi V. G. Belinskiy ta'kidlaganidek, «Tabiat Gyote uchun g'oyalarning ochiq kitobi bo'lgan. Pushkin uchun esa u to'liq tavsifga sig'maydigan, ammo sokin va sehrli, jonli surat edi... Pushkin tabiatni hayratomuz jonli va ishonchli mushohada etdi, ammo uning sirli tili darajasigacha chuqur kirib bormadi. Ana shundan u tabiatni chizadi, ammo u haqda tafakkur qilmaydi. Bu Pushkin she'riyatining pafosi sof artistona, san'atkorona ekanligini, shundan uning she'riyati insonda his-tuyg'un shakllantirish va tarbiyalashga qattiq ta'sir, qilishini tasdiqlovchi yangi isbot bo'lib xizmat qiladi»[4, b. 271].

Atoyi she'rlarida lirik qahramon o'zining oshiqona munosabatlarini, ichki kechinmalarini, falsafiy mushohadalarini, olam va odamga bo'lgan munosabatlarini gohida aynan tabiat tasviri vositasida bayon etadi. Ayniqsa, bahor tasviri, gul va bulbul, g'uncha, rayhon, sarv, bodi sabo kabi obrazlar uning bir qator g'azallarida tez-tez uchrab turadi. Shoiming visol ilinji, firoq dardi va ruhiy tug'yonlari «Soqiyo, keltur qadahkim, bo'ldi vaqti gul latif», «Kel, ey dilbar, ki bo'ston vaqti bo'ldi», «Soqiyo, keltur mayi gulgun, ki xush damdur bukun», «Bahor o'ldi, kel, ey gulrux, gulistonlar sari keza» misralari bilan boshlanadigan g'azallarda mahorat bilan o'z ifodasini topgan. Shoir she'rlarida zamondoshlaridan farqli o'laroq bahorga oshnolik, bu dilbar fasldan zavqlanish ko'proq ko'zga tashlanadi.

S. Rafiddinovga ko'ra ham Mavlono Atoyi sevgan fasli bahor ko'rkini g'azallarida qayta-qayta qalamga oladi. Bahorda tabiatning jonlanishi uni ham shavqlantirib, visolga ishtiyoq uyg'otadi. Bulbul gul qoshida afg'on cheksa, lirik qahramon ham o'z yori birlan sirlashmoq, unga dil dardlarini izhor qilmoqqa oshiqadi[4, b. 82].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Atoyi tabiatni, bahoriy go'zallikni, tongdagi lutofatni, umuman ko'zni quvontiradigan chor-atrofnii san'atkorona tasvirlar ekan, asosiy maqsad tabiat chiroyini madh etish emas, balki shu go'zallikdan ta'sirlanib, oshiqona his-tuyg'ularini, dard-u alamlarini qiyoslab, obrazli tarzda bayon etganini ko'ramiz. Masalan:

Bahor o'ldi, kel ey gulrux, gulistonlar sari keza,

Jamoling naqshi aksidin gul-u gulzorni beza

Misralari bilan boshlanadigan g'azali bevosita va bilvosita bahor go'zalligidan ta'sirlanib yozilgan she'rlardan biridir. Shoir g'azal matlasidayoq yoriga xitob qilib bahor boshlangani va gulistonlarni kezish payti kelganini eslatadi. Shoir tasviricha ma'shuqa gul-u gulzordan ham go'zal va so'lim. Oshiq ma'shuqaga xitob qilib aytadiki, bahor keldi, gulistonlarni kez, toki sening jamoling naqshi (chiroyi)

aksidan gul-u gulzorlar bezanib, yashnab ketsin! G'azalning boshqa baytlarida ham nargis, savsan, qizil gul, sabo, bulbul obrazlari tilga olinib, ularga xos chiroy va holatlar ma'shuqaning husni jamoli oldida arziyas va g'arib ekanligi tashbih, istiora va tashxis san'atlari orqali o'tli misralarda aks etadi:

*Sochiq sochsun qizil oltun, kumush gul birla ushkufa, (gul, chechak)
Sabo darveshlar yanglig' qilib yo'lungda daryuza.*

Ma'shuqasini ta'rif-tavsif etgan shoir g'azal maqtasida ishqda sodiqligini va ma'shuqasiga vafodorligini ta'kidlab o'tadi:

*Atoyini gar o'ltursang, o'shal oydin ko'ngul uzmas,
Falak sen ham necha qilding bu munglug' birla isteza.*

San'atkor shoir Atoyi favqulodda o'xshatishlar orqali oshiqning ruhiy holatini g'oyat go'zal tarzda ochib beradi.

*Yig'lab yuzungizdin olayin zulf niqobin,
Gul yaxshi ochilmas, kechalar yog'masa yomg'ur.*

Yuqoridagi baytda yuz gulga, zulf tunga, ko'z yoshi yomg'irga o'xshatilgan. Baytda holatlar o'rtasida munosabat, yaqinlik ko'zga tashlangani bois, tashbihdan tashqari tanosub san'ati ham bor. Boshqa bir baytda gulzorda yor jamoli vasf qilinganda, chamanzordagi gul uyaliib, qizarib ketganligi tasvirlanadi:

*Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizardi gul uyotdin anjumanda.*

Ya'ni oshiq gulzorga kirib yor jamolini maqtab ta'riflaganida, gul uyatdan qizarib ketadi. Aslida gulning qizarishi tabiiy hodisa. Lekin shoir bilsa ham bilmagandek gulning qizarishiga ma'shuqaning husni ta'rifini sabab qilib ko'rsatadi. Bu usul mumtoz adabiyotimizda tajohuli orif deyiladi. Atoyi zamondoshlaridan Gadoiy ham g'azallaridan birida bu san'at vositasida mahbusasini shunday vasf qiladi:

*Gul yuzungni ko'rmaganda urar edi lofi husn,
Tal'ating ko'rgach, ravon bo'ldi xijolatdin gulob. (gul suvi)*

Atoyi zamondoshlaridan Lutfiy va Sakkokiylar ijodida ham tabiat bilan bog'liq bir qator o'xshash va original baytlar ko'zga tashlanadi. Ularni qiyoslash va shoir mahoratini belgilash esa alohida mavzulardan biridir.

– She'riyat, avvalo ruhdur, – deydi adabiyotshunos olim I. Haqqulov, – shuning uchun ham shoirda sof go'zallikka muhabbat va mutlaq haqiqatga sig'inish e'tiqodi shakllangan bo'lishi kerak[5, b. 122].

Atoyi ham islom dini vakili sifatida tabiatni, umuman koinotni Allohning sun'i ya'ni yaratig'i deb biladi. Shuning uchun ham butun dunyoda Alloh jamolining partavi (yorug'lik, nur) tushib turadi.

*Jamoling partavidur jumla olam,
Kunishtu dayr yo Baytul-Haramkim[6, b. 147].*

Kunisht — o'tparastlarning ibodatxonasi. Dayr — butxona. Baytul Haram musulmonlarning Makkadagi ibodatgohi. Demak, dunyoning qaysi burchagida

bo'limasin Allohning nuri tushib turar va hayot Yaratuvchining izni-irodasi bilan davom etar ekan...

Mohiyatan tabiat va inson olamning bir bo'lagi. Odamzod hayotining davom etishi va tabiatning gullab-yashnashi uchun ular biri-birini taqozo etadi. Inson aynan go'zalliklar qarshisida hayratga tushadi. O'zining eng toza va samimiy tuyg'ularini bayon etadi. Tabiat ilhom manbayi sifatida shoirga yangi-yangi fikr-u mushohadalarni kashf qilishga turtki bo'ladi.

Biz Atoyining tabiat bilan bog'liq she'rilarni o'qiganimizda qaysidir ma'noda hayrat va junbushga kelamiz. Ayni paytda bunday she'rlar Vatanni va undagi go'zal manzaralarni sevish va ardoqlashga ham undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Ilmiy-tanqidiy matn. Toshkent, 1961.
2. . Самойлович А. Н. Чагатайский поэт XV века Атаи. — Записки коллегии востоковедов. II вып. 2. Л., 1927, стр. 259
3. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. Toshkent. «Fan». 1995.
4. Белинский В. Г. Сочинения Александра Пушкина. Москва, 1985
5. I. Haqqulov. «Haqiqatga sig'inish». O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1989. 29 dekabr.
6. Atoy. Devon. «Fan». 2008.
7. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV в. М., 1963.
8. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent. 1972.
9. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik, 1 tom. Toshkent, 1977.
10. O'zbek adabiyoti bo'stoni. Hayot vasfi. Toshkent. «G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988.



BOBUR SHE'RIYATIDA TASHBIH SAN'ATINING O'RNI

Tursunpo'latova Sevara

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada tashbih san'atining Bobur ijodidagi o'rni yoritilgan. Bu boradagi shoirning o'ziga xos uslubiy xususiyatlari aniqlangan. Tashbihning ma'no bilan munosibligiga e'tibor qaratilgan.

Tayanch tushunchalar: tashbih, badiiy san'at, kinoya, tashbihi mutlaq, tashbihi izmor.

Annotatsiya

This article narrates such styles as tashbekh in the works Bobur. In this direction, there is found a distinctive special style of the Bobur. In this case, attention to the concept of tashbekh and its proportional qualities.

Support conception: tashbekh, literature art, allegory, absolute tashbekh, tashbekh izmor.

Аннотация

Данная статья повествует такие стили как ташбих, произведениях Бобура. В этом направлении найден своеобразный специфический стиль Бобура. В этом случае предпринимается внимание к понятию ташбиха и его пропорциональным качествам.

Опорные понятие: ташбих, литературная искусства, сарказм, абсолютный ташбих, ташбих измор.

Sharq mumtoz adabiyotining, shu jumladan, o'zbek mumtoz she'riyatining o'ziga xosligini, milliyiligini, latofati-yu nazokatini, rang-barangligini, estetik go'zalligini, jozibadorligi-yu ta'sirchanligini namoyon qiluvchi vositalardan biri bu badiiy san'atlardir. Ming yillik tarixga ega bo'lgan adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. U yoki bu ijodkor salohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, uning nimalarni tasvirlaganini emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma davrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholanganini bejiz emas.

She'riy san'atlar nafaqat badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalanirishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ham ta'minlashga xizmat qiladi. U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lanini, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'mi va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida e'tibor qilinganining guvohi bo'lamiz. Mumtoz she'riyatimizda juda keng qo'llanadigan she'riy san'atlardan biri tashbihdir.

«Tashbih — o'xshatish, ma'naviy san'atlar ichida eng faollaridan biri bo'lib, uning mohiyati so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki xususiyatni ular o'rtasida mavjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylik (sifat, belgi yoki vazifa) nuqtayi nazaridan qiyoslashdan iboratdir. O'xshatishdan maqsad esa tasvir obyektini bo'lgan jism yoki hodisani yoxud ularning biror xususiyatini yorqinroq tasvirlash va chuqurroq ochib berishdir» (1, 232).

Adabiyotimiz gulshanida barcha shoirlar tashbih san'atidan ustalik bilan foydalanganlar. Ularning o'zgacha topilmalari, ohoriy bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Bobur ijodida ham buni kuzatishimiz mumkin. Bobur g'azallarining ko'pi shaklan yetuk, badiiy jihatdan barkamoldir. Xalq jonli tilidan keng foydalangan shoir juda ravon, kishi dilini maftun etuvchi misralar bitadi, esda qoluvchi obrazlar yaratadi. She'riyat nazariyasini, xususan, aruz qonun-qoidasini butun nozikliklari bilan egallagan shoir g'azal va ruboiylari nihoyatda yengil o'qiladi, tinglovchiga zavq-shavq bag'ishlaydi. O'rinli ishlatilgan xalq iboralari, turli-tuman so'z o'yinlari, chiroyli tashbih va tajnislar, bayonning o'ta samimiyligi shoir lirikasiga alohida joziba bahsh etadi. Uning quyidagi baytlarida tashbihning go'zal namunalari uchratarniz:

*Sarvdek qaddi firoqida fig'onimdur baland,
Gul kibi ruxsori hajrida yoshimdur lolagun(2, 63).*

Boburning har ikki misrasida tashbihi mutlaq qatnashgan. Tashbihi mutlaqni «tashbihi tom, tashbihi sarih» deb ham yuritiladi. Birinchi misradagi tashbih unsurlari: o'xshalmish-qad, o'xshamish-sarv, o'xshatmish belgisi-bo'y, qomatning go'zalligi, o'xshatish vositasi-dek go'shimchasi. Ikkinchi misrada: o'xshalmish-ruxsori(yuz, chehra), o'xshamish — gul, belgi-rang (lola rangi), vositasi — kibi ko'makchisi(3, 632). U nihoyatda go'zalligi sabab, oshiq qalbini har lahza tirnamoqda. Oshiqning ayriliqdagi fig'oni, qalbining iztiroblari shu darajada kuchliki, yorning sarv ya'ni tik qaddidan ham balandligini ta'kidlaydi. Keyingi misrada bu o'tranish yorning gul yuzi hajrida yig'layverganidan, ko'z yoshlari qonga aylanganinining guvohi bo'lamiz.

*Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko'zni yumub ochquncha bu gulzor topilmas(2, 30).*

Bu baytda tashbihning tashbihi kinoyat turidan foydalangan. Unda faqat o'xshatilgan va o'xshash narsalar bo'ladi, kinoyat tashbihda esa: o'xshatilgan narsa qatnashib u ham pardalangan bo'ladi(3, 632). Misralarda, „gul“ so'zi bilan go'zal yor nazarda tutilgan (istoria), «gulzor» esa uning chehrasi uchun tashbihi kinoyadir. Yoriga zorlanib, meni husnungni go'zalligida zor etma, shunchalik mushtoqmanki, ko'zimni yumub ochquncha bu gulzorni, ya'ni sening husnungni topa olmasligim mumkin.

Bobur tashbihlari hamisha o'zining hayotiyiligi bilan ajralib turadi: u tabiatdagi hamma ko'rib, lekin hech kim e'tibor bermaydigan narsa-hodisalardan o'z fikrini go'zal va ta'sirchan shaklda ifodalash uchun favqulodda ajoyib va ohorli qiyoslar, o'xshatishlar topadi:

*Oningdek bo'lmisham hayron quyosh yanglig' yuzungakim,
Quyoshdek nayzalar tegsa ko'zumga, ko'z ola olmon(2, 28).*

Tashbih yordamida yorning yuzini — quyoshga, yuzidan taralayotgan nurni esa, quyoshning nayzalari sifatida, ya'ni quyosh yanglig' yuzungga har gal boqqanimda, uning go'zallik bahsh etuvchi nurlari-quyoshning nayzalarini ko'zumga tekkanday his qilaman, shuning uchun ko'zumni ola olmayman.

*Ochildi zulfiyu xaylar namudor o'ldi yuzida,
Gul uzra chun bo'lur paydo kecha ochilsa shabnamlar(2, 45).*

Shoir bu baytda tashbihi izmordan ustalik bilan foydalangan. Tashbihi izmordan o'xshatish... „Badoye us-sanoye« da, izmor — ko'ngilda saqlamoq» deya izohlangan. U tashbihning murakkab turidir(3, 633). Yorning sochlari. ochilib yuzida ter tomchilari ko'rindi, chunki kecha tarqab tong otsa, gul yuzida shabnamlar paydo bo'lishi nazarda tutilgan. Tashbihlar: zulf-kecha, xay-(yuzdagi ter)-shabnam; yuz-gul.

*Sen gul kibi to g'amzadasen husnungga mag'rur,
Bulbul kibi men g'amzadamen, husnungga xayron(2, 57).*

Yorini gulga qiyoslab, uning g'amzasini — boqishlarini xuddi shu gul kabi tik boqishga mengzaydi. O'zini shu gul atrofidagi bulbulga o'xshatadi. Bulbul nima uchun hayron? Bulbul ham uning husniga g'amzadaligidan, kuylashni-da unitib hayron. Bobur lirikasida yuqorida sanalganlardan tashqari yana tashbihning ko'plab turlari mahorat bilan qo'llangan.

Sharq mumtoz so'z san'atida nafaqat yangi fikr bildirish, o'sha yangi fikrni qanday shaklda, qaysi badiiy san'atlar vositasida aks ettirish ham juda muhim ahamiyat kasb etgan. Shoirga faqat hayotiy dolzarb va muhim mavzularda qalam tebratish emas. balki badiiy barkamol asarlar yaratganligiga qarab baho berilgan. Shuning uchun ham Sharqda she'rning va shoirming qadri baland tutilgan.

Bobur — yirik san'atkor. Turli-tuman she'riy va lafziy san'atlardan badiiylikka erishishda, tasvirning real va jonli bo'lishini ta'minlashda ustalik bilan keng foydalanadi. Shoirning ijodida badiiy san'atlardan xoli she'r tugul, bayt ham yo'q. Albatta, u tazod, talmeh, tashbih, iyhom, tajnis, istiora, tamsil, tanosub, ruju, takrir, tarse, laff va nashr, tardi aks, savolu javob zulqofitayn kabi ko'pdan-ko'p san'atlarning barchasidan mahorat bilan foydalangan. Ayniqsa, mo'jaz badiiy lavhalar, jonli sahnalar yaratishda she'riy san'atlarning noyob qirralarini jilolantira oldi. Z. M. Bobur ijodi yuksak bir tog'ga o'xshaydi: shundoqqina qo'l yetguday masofada ko'rinsa-da, bu beqiyos ijod olamiga kirib borganingiz sari uning naqadul ulug'vorligini his qilasiz. Bugungi adabiyotimizda qalam tebratayotgan yosh shoirlar uchun Boburdek so'z san'atkorlarining ijodi bu borada mahorat maktabi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Y. Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. O'zbekiston. Toshkent. 2014.
2. Bobur. Devon. -Toshkent. Fan, 1994
3. Bobur ensiklopediyasi. Sharq. Toshkent. 2014.



TUSH MOTIVI OSHIQ-MA'SHUQA QISMATINING BADIY IFODACHISI SIFATIDA

Umaraliyeva Chinoroy

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*

Annotatsiya

Tush motivi qadim zamonlardan badiiy tasvir vositasi bo'lib, bu xalq dostonlarida ham, yozma asarlarda ham oshiq-ma'shuqa qismatining badiiy tasvir etuvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» asarida tush motivi, uning Otabek va Kumush taqdirini gavgalantirishda muhim vosita ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Tayanch soʻzlar: motiv, Qurʼoni karim, «Oʻtkan kunlar», ramz, detal, badiiy obraz, rahmoniy tush, shaytoniy tush.

Аннотация

Мотив мечты с древних времен являясь средством художественного представления, служил и служит в народном эпосе и произведенных после них произведениях представителем влюбленных судеб. В том числе, в этой статье говорится о произведении «Минувшие дни», автором которой является Абдулла Кодирий, именно в этом произведении мотив мечты в олицетворении судьбы Атабека и Кумуша является опорой этого средства.

Ключевые слова: мотив, священная книга «Коран», «Минувшие дни», символ, деталь, художественный образ, божественный сон, дьявольский сон.

Annotation

The notion of dream has been one of the literar arts in folk eposes and it has served as a picture of people's fates who are in love with each other. For instance, dream is told as a vital stimul to describe Otabek and Kumush's fates in «Oʻtkan kunlar» By A. Kodiriy.

Key words: motive, Qorʼani karim, «Oʻtkan kunlar», symbol, detail, literary image, devil dream, rehman dream.

Insonlar uyqu asnosida koʻrgan narsalarini, voqea-hodisalarni tush deymiz). Oʻzbek tilining izohli lugʻati «da ham: «Roʻyo — koʻrish, tush koʻrish, tushda koʻrilgan narsa». Tush haqida ikki nuqtai nazarga koʻra fikr yuritish mumkin:

1. Ishonch jihatidan.
2. Ilm-fan jihatidan.

Ishonch-eʼtiqodga koʻra tush haqida gapirilganda, uch xil tush koʻzga tashlanadi:

1. Rahmoniy tushlar.
2. Shaytoniy tushlar.

3. Kundalik voqea-hodisalarning taʼsiri ostida yoki vujuddagi bezovtalik natijasida yuzaga keluvchi tushlar.

Rahmoniy tushlar — xushxabar yoki ogohlantirish mohiyatida farishtalar vositasida uxlaganlarning ruhlariga taʼsir etuvchi tushlardir. Bu tushlar haq-rostdir va ularga ishonish kerak.

Qurʼoni karimda ham ochiq-ravshan tarzda bu xil tushlar haqida soʻz yuritiladi. Bu tushlar odatda yoki biror voqea-hodisa xushxabarini yetkazadi yoxud yuz berajak biror falokatdan ogoh etadi.

Tush motividan xalq ogʻzaki ijodida, qadimgi adabiyot namunalarda, mumtoz adabiyotda, maʼrifatchilik adabiyotida, jadid adabiyotida, jumladan, XX asrning 2-yarmi adabiyotida va mustaqillik davri adabiyotlarida ham unumli foydalanilgan.

Shuningdek, oʻzbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy «Oʻtkan kunlar» romanida asarning bosh qahramonlari Otabek va Kumush qismatini yoritishda tush motividan yuksak mahorat bilan foydalangan. Tush asardagi asosiy voqealar rivojini boshqarishda, oshiq-maʼshuqa holatini va taqdirini batafsil tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning «Bek oshiq» bobida

keltirilgan parchaga diqqatimizni qarataylik¹⁴: «Hujra ichiga birmuncha quloq solib o'tirgandan keyin uzun tin olib, boshini tirqishdan uzdi, Otabekning pishillab uxlag'an tovushini eshitib bir darajada tinchlandi. Vasvasadan ariyozg'an bo'lsa ham, o'midan qo'zg'almasi, nima uchundir tag'in ham sovuqqa junjib o'ltira berdi. Oradan yana bir nech daqiqa fursat o'tib, Hasanali tamom tinchlandi ham turib ketmakchi bo'ldi va shu holatda ichkaridan uyqusirash eshitdi.

– Qora ko'zlari, kamon qoshlari...

– Aaa, – dedi Hasanali va qaytadan qulog'ini tirqishg'a olib bordi. Endi uning butun borlig'i quloq bo'lib aylangan, o'zini unutilib barcha diqqati hujra ichiga oqg'an edi. O'rtadan ko'p fursat o'tmadi, boyag'i uyqusirash yana takrorlardi.

– Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff...

– Hasanali uchun birinchida onglashilmay qolg'on ma'nolar bu keyingi gap bilan yeshildi. Hasanali endigi o'lturushni ortiqcha topib o'midan turdi, hujrasiga kirar ekan, boshini chayqab o'zicha so'zlandi:

– Bek oshiq!»

Bu parchadan anglashilgan holat shuni isbotlaydiki, tush inson ruhiyatining ko'zgusi, insonning botinida kechayotgan jarayon tushida ham aks etishi, ya'ni uyqu holatida inson ruhiy dunyosining erkinligi, ong osti hislarini aql kabi qolipda saqlab bo'lmasligi, ulardagi axborot aqliy axborotdan haqqoniyroq ekanini ta'kidlamog'ida. Shu sababli uyquda odam rost dunyo bilan to'qnashadi, uyqu paytidagi faoliyat jismning emas, ma'naviy dunyoning faoliyatidir. Boshqacha aytganda uyg'oq odamda soxtalik ko'proq bo'ladi. Uyqu payti inson haqiqiy hislar bilan yaqinlashadi. Uyqu payti — inson dunyosining eng katta rostgo'yiligidir.

O'z his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini yuzaga chiqarishga iymangan o'zbek yigiti timsoli — Otabekning ruhiy holatini tush oshkor qildi. Otabekning bu holatidan Hasanali o'zining tilidan yoki xat orqali emas aynan tush vositada xabar topadi. Qodiriy o'zbekona uyat, sharm-hayoni tush motivi orqali tasvirlaydi. Xuddi shu tush tasviri Otabekning hayotiga keskin burilish yasadi.

Asardagi yana bir tush tasviriga diqqatimizni qarataylik: ¹⁵ «Otabek shu yo'sun ivir-jivir, achchiq va chuchuk holat ichida uxlab ketdi. Bir-ikki kun miyonasidagi kechinmalar turlik rang bilan uning uyquliq dimog'ida akslana boshladilar... Cho'chib uyg'ondi...Yonida Kumush... Zaynab yo'q edi. Uyquliq ko'zi bilan narigi uyga quloq soldi, hanuz boyag'i tovushni eshitdi va o'ng yonini ko'rpaga bosib ko'rpaga burkandi, mundan keyin tinchib uxlab ketdi...

Tush ko'rar edi: «Chamanda gullar ochilg'an emish... Bu gulshan uning o'ziniki emish...Ul rango-rang chechaklardan ko'zini ololmas emish. Tevarakka kelgan yovdan xavf bor emish... Xanjarini ushlab yovg'a qarshi chiqq'an emish... Yov qochqan emish... Yov orasida onasi ham bor, otasi ham ko'rinar emish...qaytib chamanga kirsa bir sigir gulni bosib, yanchib o'tlab yurg'an emish...Bu holdan o'zini unutkan va qo'lidag'i xanjari bilan sigirga yugirgan emish... Sigir emas sariq sochlik albasti emish... Darmonsizlang'an va xanjari qo'lidan tushkan emish...

14 A. Qodiriy. O'tkan kunlar. –T.: Sharq 2016, 23-bet

15 A. Qodiriy. O'tkan kunlar. –T.: Sharq 2016, 23-bet

Dunyoni qorong'ulik bosqan emish...» Bu tush — Otabek uchun ogohlantirish tushidir. Bitamizki, islom dinida o'ng tomon ibtido sifatida qaraladi. Ishni o'ngdan boshlash sunnatlardan biri sanaladi. Uyg'a qadam qo'yganda birinchi o'ng oyoq bilan kiriladi, dasturxonga avval o'ng qo'l uzatiladi, namozda avval o'ng yelkaga salom beriladi. Xo'sh, Otabek nega aynan o'ng tomoni bilan uxlaganda shu tushni ko'rdi? Bu tush rahmoniy tush ekanligini anglatadi va Otabekning qismatini tush orqali o'ziga ayon qilish vositasi hisoblanadi.

Asardagi hech bir detal, motiv, ramz tasodifiy emas, ularning har biri yozuvchi tomonidan nimanidir tasvirlovchi vosita sifatida asarga olib kiriladi. Tan olib aytish kerakki, Qodiriy tush motivini asarga olib kirish bilan bir qatorda undan samarali, to'g'ri va o'z o'rnida foydalana olgan. Fikimizning isboti sifatida tush tasvirida aks etgan ramzlarga to'xtalib o'tsak: tushdagi chaman — Otabekning hayoti bo'lsa, gullar — kelajagidir. Yov o'sha-davr va ota-onasi sigiri esa Zaynab deyish mumkin. Otabek farzandli bo'ldi, hayotining gullagan davri shuning uchun tushida ham gulzor. Tushda yov haqida gap ketar ekan, quyidagi gapga e'tiborimizni qaratsak, YOV ORASIDA ONASI HAM BOR... OTASI HAM KO'RINAR EMISH... Otabekning Zaynabga uylanishi asosan, O'zbekoyimning va O'zbekoyimning tazyiqlari natijasi o'laroq Yusufbek hojining ham boshqa so'z bilan aytganda bu to'y «Ota-ona orzusi» emasmi? Kumush Yusufbek hojining xonadoniga kelgandan keyin uni uzoqroq muddat xonadonlarida olib qolish O'zbekoyimning orzu-havasi emasmi? Kumush qolgandan keyin Kumushni Zaynabdan ko'ra ustunroq qo'yishi, Yusufbek hoji «Zaynab siz bilan va manim orzu havasimiz emasmi deyishlariga javoban: «Zaynabni xudoy ko'tarsin, ayb o'zida...» deguvchi O'zbekoyim emasmi? O'zbek millatida hech qaysi xonadonda ota-onaga «Siz aybdorsiz» deb farzand tomonidan aytilmaydi. Zukko Qodiriy asardagi ota-ona aybini va oshiq-ma'shuqa qismat chizgilarini tush motivida mujassamlashtirishni uddaladi. Endi tushdagi sigir timsolidagi Zaynabga to'xtalsak: Zaynab shu kungacha xuddi sigirdek, faqat kundalik mayda tashvishlarga o'ralashib yurgan, o'z taqdiriga, o'z qismatiga butunlay e'tiborsiz edi. Keyin esa u qotilikka qo'l urdi. Endi u insoniylik darajasidan chiqdi, nimadandir himoyalinish uchun emas, balki oxirini o'ylamay faqat Kumushdan qutulish uchungina qotillik qildi. Endi u xuddi tushdagidek alvastiga aylandi. Bundan tashqari, yozuvchi alvastining sochini aynan sariq rangda deyishi ham bejiz emas. Bu yerda sariq rang ayriliq ramzi sifatida berilgan va shu rangdagi soch ayriliqning sababchisiga tegishli. Asardagi nafaqat tush motivining to'g'ri tanlanishi, balki hamma ramzdan, detaldan o'z o'rnida foydalanish yozuvchining mahoratini ko'rsatib, asarning uzoq vaqt yashovchanlik qobiliyatini oshiradi.

Tush inson ruhiy dunyosining ajralmas, murakkab va muhim qismidir. Sharqda qadim zamondan tushga shunchalik teran e'tibor bilan munosabatda bo'linganki, inson tabiatidan tortib u yegan taomgacha tushga ta'sir qilishi mumkinligini yaxshi bilishgan. Dunyoda biror badiiy asar yo'qki, unda milliylik ruhi o'z xalqi mentaliteti aks etmagan bo'lsa.

Yozuvchi badiiy asar g'oyasini o'zi yashayotgan jamiyatdan, asar qahramonlarini o'z atrofidan, undagi detallarni, ramzlarni, motivlarni esa o'zi ko'rgan, ishongan va ming yillar davomida o'z xalqi orasida avloddan avlodga o'tib kelayotgan va qon-qoniga singib ketgan narsalaridan oladi. Haqiqiy yozuvchi hayotda hech qachon bo'lmagan va bo'lishi mumkin bo'lmagan voqelikni, tushunchani, obrazni o'z asariga kiritmaydi. Adabiyotda ixtiro, ya'ni yo'q narsani bor qilish mavjud emas, adabiyotda kashfiyot bor, unda insonlarga noma'lum va mavhum bo'lgan tushunchalarni gavdalanitirish, tasvirlash bor. Adabiyot ana shu kashfiyoti orqali bizning ruhimizga dalda va tarbiyachi bo'lishi bilan qadrlil va ardoqlikdir. Qodiriy ham o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan siymolardan, oltin qalam sohiblaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. -T.: Sharq, 2016.
2. Jabbor Eshonqul. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. -T.: Fan, 2011.
3. Imom Nabliisuy. Tush ta'birlari to'plami. -T., 2016.
4. Uzoq Jo'raqulov. Nazariy poetika masalalari. -T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2015.



NAVOIY IJODIDA FUTUVVAT G'OYALARI

Uroqova Ra'no

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*

Аннотация

Mazkur maqolada futuvvat va uning mohiyati Alisher Navoiy asarlari misolida tahlil qilingan. Mutafakkir Navoiy ijodida targ'ib etilgan ezgu xislatlarning tarbiyaviy ahamiyati ko'rsatilgan.

Аннотация

В этой статье анализируется качество великодушие и ее сущность в примерах книг А. Наваи. Отражено воспитательную ценность хороших качеств, пронизанных произведениями великого мыслителя Наваи.

Annotation

This article deals with the analysis of kindness and its essence in the examples of Alisher Navai's books. It reflects the educational value of good characters propagated in scholar Navai's works.

Tayanch so'zlar: futuvvat, muruvvat, axiy, Hotami toy, muhabbat.

Ключевые слова: великодушие, доброта, ахий, Хатам Тои, любовь.

Key words: kindness, generosity, axiy, Hotami toy, love.

Hazrat Alisher Navoiyning ibratli hayot yo'li-yu, yaratgan asarlari butun insoniyat uchun ma'rifat ummonidir. Shu ma'rifat ummonidan bahra olayotgan bashar ahli hayotning, umr mazmunining asl ma'nosini anglab yetadilar. Alisher

Navoiyning barcha asarlarida yuksak axloqiy sifatlarni kamol toptirish, faqat va faqat ezgu ishlarga o'zni safarbar qilish g'oyalari tarannum etiladi. Shoir targ'ib etgan ulug'vor g'oyalar makon va zamon tanlamaydi, ular har doim yuqori pillapoyalardan o'rin egallaydi. Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev shoir ijodining bugungi kundagi ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildiradilar: «Mutafakkir shoirimizning «Odamiy ersang, demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami», degan satrlarida qanchalik chuqur ma'no bor. Ya'ni bu dunyoda insonlarning dard-u tashvishlarini o'ylab yashash odamiylikning eng oliy mezonidir. Xalqning g'amidan uzoq bo'lgan insonni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi, deb uqtirmoqda ulug' bobomiz. Bu o'lmas satrlar bugun bizning hayotimiz, bizning orzu-intilish va amaliy harakatlarimiz bilan naqadar hamohang ekani odamni hayratga soladi»¹⁶.

Yuqoridagi fikrlarni hayotga tatbiq qilib aytish mumkinki, Navoiy ijodida kishini asl insoniylik sari eltuvchi futuvvat g'oyalari alohida o'rin egallaydi. Shu o'rinda futuvvatning asl mohiyatini anglab yetish uchun tasavvufshunos olim N. Komilovning «Tasavvuf» asariga e'tibor qaratamiz: «Futuvvat — umrni do'stlar xizmatiga bag'ishlash, faqat yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgu xulq-atvoriga ega bo'lish, borini o'zгалar bilan baham ko'rib, muhtojlarning hojatini chiqarish, pir-u ustozlar, do'st-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zohiran va botinan pok yurib, halol-pokiza insonlar suhbatini qozonishdir»¹⁷.

Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomayi sultoniyy» asarida futuvvat haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: «Futuvvat bilan daraxt orasida qanday o'xshashlik bor, deb so'rasalar, degilkim, daraxtda tana, po'stloq, ildiz, shox-u barg va gul-u meva bo'lganiday, futuvvatning ham tanasi, ildizi, po'stlog'i, shoxi va gul-u mevasi bor. Agar bularning har biri nimalardan iborat deb so'rasalar, javob berib aytkim, futuvvat daraxtining ildizi, ya'ni unga quvvat berib yashnatadigan, gul va meva keltiradigan asl manba — pok muhabbatdir... Ushbu daraxtning tanasi — tavoze', shoxlari — sabr-u toqat, yaproqlari — parhez, po'stlog'i — odob va hayo, gullari — xushfe'llik va marhamat, mevasi — karam bilan saxovatdir»¹⁸.

Agar hazrat Navoiyning ijodiy merosini butun boshli bog' deydigan bo'lsak, shu bog'ning tuprog'i, zamini futuvvatdir. Donolarimiz aytadilarki, daraxtning tomirlari qancha chuqur ketsa, uning tanasi ham shuncha baquvvat, bo'yi ham shuncha baland bo'ladi va uning uzoq umr ko'rishi ham tomirlarining zaminga qanchalik chuqur kirib borishiga bog'liqdir. Navoiy ijodi ma'naviy-ma'rifiy jihatdan futuvvat g'oyalari bilan sug'orilganligi bois xuddi shunday chuqur mazmunga ega. Xususan, Alisher Navoiy futuvvatni shunday tavsiflaydi:

*Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmoqdir, demak yo'q.*

16 Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va otiyanob xalqimiz bilan birga quramiz. —T.: O'zbekiston, 2017. — B. 111.

17 N. Komilov. Tasavvuf. —T.: Movarounnahr—O'zbekiston, 2009. B. 105.

18 Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniyy. —T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. — B. 12.

Ya'ni o'zing yemagin-da, boshqalarga bergin, bu chin muruvvat bo'ladi, yaxshilik qil, hojatini chiqar, amino minnat qilma, bu chin futuvvatdir.

Navoiy asarlarini o'qir ekanmiz, ularda futuvvat g'oyalarining singdirib yuborilganligini ko'ramiz. «Sab'ayi sayyor» da Farrux va Axiy hikoyati aynan futuvvat mazmunini ochib bergan. Navoiy Axiyni shunday tasvirlaydi:

*Ko'ngli behad rahimu tab'i saxiy,
Shahr xalqi ichinda oti Axiy.
Qayda topsa g'aribi mazhume,
Xastau nomurodu marhume.
Bo'lubon bir nafas anga hamdam,
Yoqibon ko'ngli xaxmiga marham¹⁹.*

Hikoyatda aytilishicha, Axiy Halab shahrining boylaridan bo'lsa ham hamisha hammani bir xil mavqeda ko'rgan. Hatto qiyin ahvolda qolganlarni o'zi izlab topib unga muruvvat qo'lini cho'zgan, biroq hech kimdan da'vo qilmagan. U o'zining xayr-u saxovati bilan barchaga tanilgan:

*Shahr eli andin erdi sharmanda,
Karami borchani qilib banda²⁰.*

Farrux tushida ko'rgan yorini izlab Halabgacha kelganini, u axtarayotgan go'zal o'zining jufti haloli ekanini bilgan Axiy xotinini Farruxga beradi.

*Dedi, fikr aylabon muruvvat ila,
Topti bu nuktani futuvvat ila²¹.*

Axiy shu darajada oliyjanob inson ediki, ko'p jafo tortib shahriga kelgan Farruxning baxtini o'zining baxtidan ustun qo'yadi. Garchi o'zi ming qiynalsa ham yorini Farruxga nikohlab beradi. Shu o'rinda Axiyni haqiqiy javonmard deyish olamiz.

O'zini emas, o'z yaqinlarini o'ylash, ular uchun qayg'urish ham futuvvatdan nishonadir. «Hayrat ul-abror» dostonida 8-maqolatdan so'ng ikki vafoli yor hikoyati keltiriladi. Hikoyatda Hind xalqi bir boshdan qatl qilinayotgan, hamma o'z jonini o'ylab har tarafga qochib yurgan vaqtda ikki yor bir-birini himoya qilib, yorining o'limini ko'rmaslik uchun avval o'zining o'limini tilaydi:

*Ki meni qatl ayla burun, tez bo'l,
Toki men o'lguncha tirik bo'sin ul²².*

Ular bir-birini avaylab turganlari chog'da xalqqa omonlik beriladi:

*Bir-biriga kechti alar jonidin,
Shoh dog'i kechti ulus qonidin.
Fosh etib ul sidqu mavaddat xavos,
Ham el-u ham o'zlari bo'ldi xalos²³.*

19 A. Navoiy. Xamsa. Sab'ayi sayyor. To'la asarlar to'plami 10 jildlik/ 7-jild. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011 B. 408.

20 O'sha mamba. - B. 408.

21 O'sha mamba. - B. 414.

22 A. Navoiy. Xamsa. Hayrat ul-abror. To'la asarlar to'plami 10 jildlik/ 6-jild. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011 B. 162.

23 O'sha mamba. - B. 163.

Xuddi shu kabi futuvvat madh etilgan satrlarni yana «Hayrat ul-abror» dostonidagi Hotami toy hikoyatida, «Mahbub ul-qulub» asaridagi «Karam va futuvvat tariqida» deb nomlanuvchi 13-tanbehdada, «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat» da va boshqa bir qancha asarlarda ham uchratamiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Hazrat Alisher Navoiy o'z asarlariga futuvvat g'oyalarini singdirishi zaminida ulkan maqsad mujassam bo'lib, bu maqsad esa yuksak axloqli, teran fikrli, xalq koriga yaraydigan, ezgu ishlar bilan shug'ullanib o'zidan yaxshi nom qoldiradigan insonlarni tarbiyalashdir. Shu jihatdan ham mutafakkirning ijodiy merosiga bo'lgan ehtiyoj barcha zamonlarda o'sib boradi, kelajak avlod undan ma'naviy naf olaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.
2. N. Komilov. Tasavvuf. –T.: Movarounnahr.–O'zbekiston, 2009.
3. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniy. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
4. A. Navoiy. Xamsa. Sab'ayi sayyor. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik/7-jild. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2011.
5. A. Navoiy. Xamsa. Hayrat ul-abror. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik/6-jild. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2013.



NAVOIYNING HARF SAN'ATI

Usmonova Iroda

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*

Annotsatsiya

Maqolada harf (kitobat) san'atining asar badiiyligini yuzaga chiqarishdagi o'rniga to'xtalangan. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonida keltirilgan harf san'ati namunalari va ular yuzaga chiqargan mazmun yuzasidan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *harf san'ati, kitobat, tashbih, leksik-semantik.*

Аннотация

В статье уделено внимание на роль выявления искусства письма (kitobat) и сделан подробный анализ данного вопроса. В частности приведен анализ искусства письма на примере эпизода Алишера Навои «Hayrat ul-abror», а также были проанализированы понятия содержания вышеизложенным примеров.

Ключевые слова: *искусства письма, kitobat, ташбих, лексик-семантик.*

Annotation

The article focuses on the role of revealing the art of writing (kitobat) and a detailed analysis of this issue is made. In particular, the analysis of the art of the letter is illustrated by

the example of Alisher Navoi's epilogue «Hayrat ul-abror», and also the concepts of the content of the above examples were analyzed.

Key words: *art of writing, kitobat, tashbih, lexical-semantic.*

Ma'lumki, nasriy va she'riy asarlar jozibadorligini ta'minlashda badiiy san'atlar o'ziga xos o'rin tutadi. Akademik Alibek Rustamovning ta'kidlashicha, «Badiiy asarda haqiqat ham, uning ifoda vositalari ham badiiy tus oladi» [1, b-3]. Ayniqsa, mumtoz adabiyotdagi she'riy asarlarda badiiy san'atlar yangi-yangi ma'no qirralarini ochishda, leksik-semantik imkoniyatlardan mohirona foydalangan holda so'z kashfiyotlari hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Harf san'ati — kitobat ham shunday san'atlardan biridir. Kitobat badiiy tasvirda arab alifbosidagi harflardan foydalanish san'atidir. Alisher Navoiyning «Hayrat-ul abror» asarida harf san'atining e'tiborga molik namunalari kuzatish mumkin. Navoiy kitobat san'atini shunday mahorat bilan qo'llaydiki, butun bir jumla yoki fikrning ma'nosini bitta qo'llangan harf orqali ochib berishga erishadi:

«Bo» si (ب) *ibodin urar avval salo,*

«Yo» ki (ك) *degay lo ne bo'lur juz balo.*

«Bismillohir-rahmonir Rahim» (Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan) jumlasini izohlash uchun undagi har bitta harfning qanday ma'no ifodalashiga alohida e'tibor qaratadi. Ya'ni «Bo» si iboga chorlab nido qiladi, «yo» deyilganda esa yuz balo yo'q bo'ladi.

«Sin» i (س) *nahang arqosining arrasi,*

Yuz kemandi ofati har parrasi.

«Sin» i nahangning orqa umurtqa suyagidagi arrasidekdir, uning har parrasi yuz kemani yakson qiladigan ofatdir. Kemalar nafs, yomonlik, balo-yu kulfat yuklari ortilgan kemalardir. Bir jumladagi «sin» harfi esa mana shu kemalarni chilparchin qiladi.

«Sin» (س) *bila «mim» i (م) yo'lida ko'r humum,*

Yo'li humum aningu yeli samum.

«Sin» bilan «mim» i orasida mashaqqatli yo'l bo'lib, bu yo'l issiq shamoli bilan mashaqqatlidir.

«Mim» i (م) *yiloni damidin o't sochib,*

Yo'l boshida yotibon og'zin ochib.

«Mim» i ilon kabi nafasidan o't sochib, yo'l boshida og'zini ochgan ko'yi yotadi. Bu o'rinda «mim» harfning so'z boshidagi ko'rinishi og'zini ochib yotgan, ya'ni yo'l boshida yotib, nafsni, yomon niyatni kuydirish uchun o't sochuvchi ilonga o'xshatiladi.

Uch «alif» (ا), uch «lom» i (ل) solib rustaxe,

Olti jihatdin chekibon tig'i tez.

Bu jumladagi uch «alif» va uch «lom» g'avgo ko'tarib, olti tomondan yomon niyatlar, yomon xulqlar sari qilich tortib kelmoqda.

*«He» lar uchi qatl ishida tez o'lib,
Rumh uchidek har biri xunrez o'lib.*

«He» lari qatl qilishda mohir bo'lib, har biri nayzaning uchidek qon to'kuvchi, qonxo'r. Bu qonxo'r nayzalar ham nafs, yovuz kuchlar, insonni Allohdan uzoqlashtiruvchi xislatlarga qaratilgan.

*«Re» (ر)larikim zohir etib iqtiron,
Fosh o'lib andin zarari begaron.*

«Re» lari yaqinlashishganda ularning nihoyasiz zarari borligi yuzaga chiqadi.

*«He» si halok etgali qullobvash,
Mahlaka qalbi aro qullobkash.*

«He» si halok etishi uchun qarmoq vazifasini o'tayotgandek, xavf-xatar markazida turib changak solmoqda.

*«Nun» (ن)chekib el sahni uchun yosini,
Balki baqo zar'i uchun dosini.*

«Nun» i xalqni qo'rqitish uchun kamondek tortilgan, aniqrog'i, abadiyat oltinini o'rib oladigan o'roqdir.

*«Yo» si (ي) muxolif sari harfi nido,
Ya'ni, et ollimda hayoting fido.*

«Yo» si dushmanlarga qarshi nido belgisidir. Ya'ni bu mening uchun oldimda hayotingni fido qil, demakdir.

*Nuqtalari ul yo'l aro toshlar,
Toshlar o'lmayki, kesuk boshlar.*

«Yo» harfining nuqtalari esa ushbu nafsqa qarshi toshlar, toshlar emas, balki nafs sari qilingan jang maydonidagi kesilgan boshlardir.

*«Mim» lar (م) anda girih uzra girih,
Jazmlar anda zirih uzra zirih.*

«Mim» lar urushdagi insonlarning o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari singari tugun-tugun, ya'ni chigalliklarga to'la bo'lsa, fikrlar xuddi sovutlar kabi qat'iy bo'ladi: kurashdingmi — yengishing shart.

*Har sori «tashdid» (ت) taaddud bila.
Zohir o'lib elga tashaddud bila.*

Har yerda undosh harflar takror-takror «tashdid» bilan keladi. Har tarafga «tashdid» orqali ko'p sonli bo'lgan el bog'lam singari yig'ilgani ko'rinadi.

*«Bo» si (ب) burun «bo» i bashorat durur,
Shamrasi kirmakka ishorat durur.*

«Bo» si, avvalo, bashoratdan darak bersa, belgilar («bo» harfining ichidagi nuqtasi) ichkariga kirishga ishoradir, ya'ni o'zlikka, ichiga nazar solish, o'zini anglash demakdir.

*«Sin» (س) salomat yo'lining zinasi,
Balki saodat yuzi binosi.*

«Sin» i salomatlik yoʻlining zinasi, zinasi emas, balki saodat binosining koʻrinishidir.

*«Mim» i (م) ochib manzili maqsadga yoʻl,
Balki bu manzil aro sarchashma ul.*

«Mim» i maqsadga eshik ochuvchi yoʻl. balki bu maqsadga olib boruvchi buloqning boshidir. Darhaqiqat, «mim» harfi shakl jihatidan yoʻlga, ayniqsa, soʻz oxiridagi yozilish holati chashmaga oʻxshaydi. Endi uning mazmuniga keladigan boʻlsak, «Bismillohir-rahmonir Rahim» (Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan) jumlasidagi «mim» harfi ezgu maqsadlar sari eltadigan yoʻl, balki yuksak manzillar tomon sarchashma hisoblanadi.

*Har «alif» ikim(!) yeridur jon aro,
Sham oʻlub ul toza shabiston aro.*

«Alif» harfi «jon» soʻzining oʻrtasida keladi, bu joylashish jihatidan ham qorongʻu kechani yorituvchi sham kabidir. Jon ham inson jismining shamidir.

*«Lom» (ل) lari barcha livoyi zafar,
Berib anga jilva havoyi zafar.*

«Lom» ning soʻz oʻrtasidagi koʻrinishi yuksakka intilganga oʻxshaydi, shu jihatdan ushbu jumlaning «lom» lari gʻalaba bayrogʻidek boʻlib, zafar quchish orzusi unga jilva berib turibdi.

*«Ho» si huviyatni qilib jilvagoh,
«Lom» i (ل) bila qoyili «Al-mulku lah».*

«Ho» si chigalliklar ichidagi mohiyat sifatida namoyon boʻlib, undan keyin kelgan «lom» bilan esa «Podsholik uningdir» deyilgan.

*Ravzai jannatgʻa eshik «ro» lari (ر),
Gʻunchai vahdatgʻa beshik «ho» (ه)lari.*

«Ro» lari jannat bogʻining eshiklari, «ho» lari boʻlsa, vahdat, yaʼni birlik gʻunchalari uchun beshikdir («ho» beshikka oʻxshaydi — ه).

*«Yo» (ي)bila «mim» i (م) qilib izhor yam,
Aylagali gʻarqai bahri karam.*

Karam dengiziga gʻarq boʻlish uchun «yo» bilan «mim» oʻzaro qoʻshilib, daryo, ummonni, kenglik, cheksizlikni namoyon qiladi.

Bundan tashqari, asarda sheʼriy emas, saʼjda yozilgan qismlarda ham kitobat sanʼati namunalarini uchratish mumkin:

«Vafo bobidakim, «vov» i semurgʻ«sin» ining zimnida dahyakidek nihon durur va «fo» si Qof togʻi ostidagʻi «fo» dek ayon va «alif» i kimyo tubidagi «alif» nishonasi va nuqtasi mehrigiyo butasining donasi». Yaʼni vafo haqidakim, «vafo» soʻzining «vov» (و) «semurgʻ«soʻzidagi «sin» harfining oʻndan biri son eʼtibori bilan «vov» — 6 ga teng boʻlgani kabi yashirindir, «fo» si Qof togʻi ostidagi «fo» dek ayon va «alif» i «kimyo» soʻzining oxiridagi «alif» ning oʻzidir, nuqta esa dunyodagi eng aziz (nomi bor-u oʻzi yoʻq) oʻsimlik (mehrigiyo) chanogʻidagi (kamyob) urugʻdir.

Navoiy asarlarida qoʻllangan harf sanʼati namunalari shunday mohirona hosil qilinganki, ular asarda qoʻllangan asosiy fikrning toʻliq mohiyatini ochib bergan, muallifning fikriy maqsadini yuzaga chiqarishda, jummalarning toʻliq va aniq mazmunini yoritishni bu sanʼat samarali vosita boʻlgan. «Bismillohir rahmonir Rahim» jumlasining tub mohiyatini Navoiy kitobat sanʼati yordamida koʻrsatib bera olgan va asarda tutgan oʻrmini misollar orqali goʻzal tashbihlar qoʻllash bilan mohirona bayon etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T.: Gʻafur Gʻulom, 1979.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –T.: Gʻafur Gʻulom, 2006.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati, 1-tom. –T.: Fan, 1983.
4. Hamidov Z. Boqiy soʻz. –T.: Tamaddun, 2017.



IJODGA AYLANGAN QISMAT

Xushvaqtova Dildora

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbek filologiyasi fakulteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hasbi hol yoʻnalishida yozilgan gʻazal va ruboiylari tahlil qilingan. Unda shoirning hayotiy voqealardan olgan taassurotlari, uning kayfiyati bilan bogʻliq boʻlgan holatlari, ichki ruhiy kechinmalari shoir lirikasida oʻz aksini topganligi bayon qilingan.

Tayanch soʻzlar: hasbi hol, gʻazal, ruboiy, yor, chogʻir, taqdir.

Аннотация

В этой статье анализируются газели и рубаи, написанные в биографии Бобура. В текстах поэта говорится, что впечатления от жизненных переживаний поэта связаны с его настроениями внутренних духовных эмоций.

Ключевые слова: автобиография, газели, рубаи, любимая, фортуна.

Annotation

This article analyzes the ghazals and quatrain written in Bobur's biography. It is stated in the poet's lyrics that the impressions of the poet's life experiences are related to his moods inner spiritual emotions.

Key words: biography, ghazal, quatrain, beloved, wine, fate.

Oʻzbek xalqi oʻzining tarixiy oʻtmishi davomida koʻplab daholarni yetishtirdi. Ularning koʻplari nafaqat oʻz yurtida, balki dunyoning koʻplab mamlakatlarida ilmu maʼrifat, madaniyat, adolat urugʻlarini sochdilar. Ana shunday buyuk zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur murakkab bir davrda yashadi. Uning hayoti ziddiyatlar, alam-iztiroblar, qarama-qarshiliklar bilan oʻtdi. Bobur hayotining yaxshi-yomon kunida ham,

saltanat muammolari qurshovida qolganda ham she'riyatdan bir lahza ham uzoqlashmaydi. Aksincha, o'zining yurak nolalarini, afsus-nadomatlarini, quvonch-u shodliklarini o'z lirikasida aks ettiradi.

Bobur devonining katta qismi g'azallardan iborat. G'azallarining ma'lum guruhi hasbi hol yo'nalishida bo'lib, shoir hayotining muayyan lavhasi bilan bog'lanadi. Uning mashhur «Topmadim» radifli g'azali atrofi sotqinlar bilan to'lib toshgan, sarson-sargardonliklar boshiga tushgan davrda yozilganligini «Boburnoma» da ham keltirib o'tadi. 1500 -1501- yillarda Bobur Samarqandni ikki bor qo'lga kiritib, yana uni boy beradi. Shunday holatda u bobosi Toshkent hokimi Yunusxondan yordam so'raganda, Boburning dushmani bo'lgan Ahmad Tanbal bilan murosaga kelib, nevarasiga yordam qo'lini cho'zmaydi. Bu holatdan ta'sirlangan Bobur o'z tuyg'ularini «Jonimdan o'zga yori vafoder topmadim. Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim «tarzida ifodalaydi. [1. bet 119] Bobur komillik yo'lga tushgan bir solik sifatida o'zgalardan ham yuksak ma'naviy sifatlarga egalik, odamgarchilik kutadi. Lekin inson hayot o'yinlarida ezgu maqsadlariga kamdan kam holatlarda erishadi. Bu holat Boburni qattiq ranjitadi:

*Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig',
Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'.
Gar zamonnin nayf qilsam ayb qilma ey, rafiq,
Ko'rmadim hargiz netoyin, bu zamondin yaxshilig'.*

Shoir nafaqat atrofidagi insonlardan, balki suygan yoridan, yaxshi deb bilgan insonlaridan ham yomonlik ko'rganini aytib o'tarkan, uning ruhiyatida tushkunlik paydo bo'ladi va umuman insonlardan yuz o'girish, tarkidunyochilik ohanglari ham ko'rinadi:

*Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?*

Dunyo tashvishlaridan charchagan, bu olamning azob-u sitamlari tuganmas ekanligini anglab yetgan shoir:

*Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu?!
Xasta ko'nglum chekmagan jabr-u jafosi qoldimu?!*

deya nola qila boshlaydi va endi shoir bu olamdan ko'ra u olamni afzal biladi:

*Ey ko'ngul, gar Bobur ul olamni istar qilma ayb,
Tengri uchun de bu olamning safosi qoldimu?!*

yoki

«O'lum uyqusig'a borib jahondin bo'ldum osuda» radifli g'azalida taqdiringdagi neki bo'lsa, ko'rding endi bu dunyo g'amlariga kuyish befoyda doim shod bo'lib yashagin, deya o'ziga taskin beradi va misralar so'nggida tashvish-g'amlardan bu olamni tark etibgina qutilish mumkinligini aytib o'tadi:

*Ulusdin tinmadim umrimda hargiz lahzaye, Bobur,
Magar o'lsam bu olam ahlidin bo'lg'aymen osuda.*

Akademik Oybek Bobur ruboiylari haqida shunday yozgan edi: «Bobur ruboiylari uning poeziyasining cho‘qqisidir». Hayotining mashaqqatli damlari, yaqin do‘st yor-u birodarlaridan tortgan azoblari, ranj-u malomatlari shoir ruboiylarida ham o‘z aksini topadi va «Boburnoma» da ham keltirib o‘tadi:

*Bu olam aro ajib olamlar ko‘rdim,
Olam eliding turfa sitamlar ko‘rdim.
Har kim bu vaqoeni o‘qur, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mehnat-u ne g‘amlar ko‘rdim.*

Umri hayot to‘s-to‘palonlarida o‘tgan bu zot diniy arkonlarni hamisha ham bajara olmagan, hayotining tushkin davrlarida shariat man etgan ichkilikka ruju qo‘ygan. Keyin o‘zini anglab tavba qilgan. Mushkul va chorasiz vaziyatga tushganda tavbasini buzgan va yana tavba qilgan, hatto ichkilikka qarshi maxsus farmon chiqargan. O‘zining bu holatini shoir quyidagicha ifodalaydi:

Keldi ramozon-u men taqi bodaparast,
Iyd o‘ldi-yu, zikri may qilurman payvast.
Ne ro‘za-yu ne namoz — yillar, oylar
Tun-kun may-u ma‘jun bila devona-yu mast.

Bu holatda shoir dardkash bir insoni yo‘qligi va shu sababdan chog‘ir bilan yaqin bo‘lganligini bayon qilarkan bu ishidan pushaymonligini, tavba qilishini quyidagicha ifodalaydi:

To tarki manohiyu sharob etmishmen,
Nafsimg‘a xudoy uchun azob etmishmen,
Tavba eshigi hanuz ochuq erdi,
Bu tavbada bir shitob etmishmen.

yoki

May tarkini qilg‘ali parishondurmen,
Bilmon qilur ishimni-yu hayrondurmen,
Ei barcha pushaymon bo‘lur-u tavba
Men tavba qilibmenu pushaymondurmen.

Boburshunos Sabohat Azimjonovanning ma‘lumotiga ko‘ra, Boburning umri oxirida yozgan to‘rtligi fors tilida bo‘lib, uni mazkur olimam shunday tarjima qilgan:

Umrim hama firoq-u hijronda o‘tdi g‘am-u g‘ussa bila,
Bu qimmatbaho umr arzon o‘tdi ranj-u alam-la,
Samarqandu Hirotida o‘tmagan umr aysh-u ishrat-la,
Afsus Agrada vayrona bo‘ldi jabr-u sitam-la.

Bobur ijodi har tomonlama tadqiqot qilinsa ham, mohiyatining yangi qirralari yana ochilib boraveradi. She‘rlarining ma‘nolari teran va yetuk ekanligi namoyon bo‘laveradi. Uning hasbi hol yo‘nalishidagi she‘riy bayt-u misralari biz avlodlar uchun ibrat va saboq bo‘lib, hayotni g‘animat bilishga, uni ezguliklar yo‘lida yashab o‘tishga da‘vat etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T. Sharq, 2007.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. T. Fan, 1994.
3. Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. T.: 2007
4. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. T. «O'qituvchi», 1980.



KOMIL XORAZMIY TALQINIDA ISHQ

Yusupova Surayyo

URDU 3-kurs talabasi, 2017–2018 o'quv yili 2-jarayonda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola Komil Xorazmiyning «Aynu shinu qoqing'a to bo'ldi ko'nglim mubtal...» deb boshlanuvchi g'azalining tahliliga bag'ishlanadi. G'azal arab alifbosi harflari asosida yaratilgan.

Tayanch so'zlar: oshiq, ma'shuqa, hajr, ishq, Majnun, Layli, kitobat san'ati, arab alifbosi harflari.

Аннотация

В данной статье приводятся анализа газель Комил Хоразмы «Айну шину кофинга то будди кунглим мубтало...». Газель создала основания арабская алфавита.

Ключевые слова: влюблённый, влюблённая, расставание, страсть, Мажнун, Лайли, Арабский алфавит.

Annotation

The article is intended analysis of poem which is beginning «Aynu shinu qoqing'a to bo'ldi ko'nglim mubtalo...» of Kamil Kxorazmiy. This poem is created under Arabic alphabet.

Key words: love, divorce, love, Majnun, Layli, Arabic alphabet.

XIX asr nafaqat Xiva xonligi, balki O'rta Osiyo hududi ilm-faniga sezilarli hissa qo'shgan Komil Xorazmiy o'z davrining yetuk ijodkorlaridan biri edi. Komil shoir, xattot, bastakor, musiqashunos, tarjimon, davlat arbobi. O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib toshbosma va harf terish usulini yo'lga qo'ygan. Feruz saroyida 30 yildan ortiq davr mobaynida davlat ishlari bilan band bo'lsa-da, qalamni qo'ldan qo'ymagan. Yog'iy bosqini, og'ir siyosiy ahvol davrida ham go'zal va betakror asarlar yarata oldi. Ayniqsa, g'azal, murabba', muxammas, mustazod masnaviy, musabba' janrlarida barakali ijod etdi [1].

Komil Xorazmiyning kitobat san'ati asosiga qurilgan g'azali («Aynu shinu qoqing'a to bo'ldi ko'nglim mubtalo...») mumtoz adabiyotimizning eng sara namunalardan biri hisoblanadi.

Kitobat (harf san'ati) badiiy tasvirda arab alifbosidagi harflardan foydalanish san'atidir. Bunda arab alifbosidagi harflar badiiy tasvirga tortiladi [2].

Ijodkor ham o'z g'azalida arab harflaridan mohirona foydalanib go'zal tashbihlar yaratgan. Har bir bayt, har bir misra tarkibida qo'llanuvchi arab harflarini

qo'shib o'qish natijasida muayyan so'z kelib chiqadi. Ana shu so'z esa bayt yoki misraning asosiy ma'no tashuvchi so'ziga aylanadi. Bu esa g'azal mazmuni va ohangdorligini yanada boyitadi.

Komilning bu g'azali mazmun jihatidan ishqiy g'azal turiga mansub. G'azal o'zida 9 baytni mujassamlashtirgan. Tarkibida arab harflarining jami 19 tasi qo'llangan. Ular 63 o'rinda o'z ifodasini topadi. Bular: Ayn (3), shin (2), qof (3), dol (2), ro (5), mim (5), jim (2), nun (4), vov (4), lom (9), yo (4), xo (1), alif (6), g'ayn (1), bo (3), kof (2), zo (2), to (9), ho (4) harflaridir.

Har bir arab harfi asar mazmuni ochib berishga xizmat qiladi. Buni asar mazmini orqali ko'rib o'tamiz.

Aynu shinu qofing'a to bo'ldi ko'nglim muhtalo,

Dolu rou dolu hajringdin dame erman judo [3].

Yuqoridagi misrada, yani, mat'lada ijodkor ayn (ع), shin (ش), qof (ق) harflaridan ishq (عشق) so'zini yasagan. Izoh: Bu o'rinda «ayn» harfi «i» tovushini ifodalamoqda. Chunki «ayn» harfi so'z boshida kelganida «i» tovushini ham anglatishi mumkin [4].

Keyingi misrada dol (د), ro (ر), dol (د) harflaridan dard (درد) so'zini yasaydi. Birinchi misrada shoir arab harflaridan ishq so'zini yasaydi va ishqqa ko'ngli muhtalo bo'lib qolganini aytadi. Ikkinchi misrada esa muhtalo bo'lgan ko'ngilni dard chulg'aydi. Bu ishq azobi dardidan esa endi judo bo'lolmasligini anglaydi. Shu tariqa ishq timsoli asarga kirib keladi.

Mimu jimu nunu vovu nun kibi ko'nglim mudom,

Hajr aro sargashtadur, ey lomu you lomu yo [3].

Ikkinchi baytda esa arab harflari asosoda Majnun (مجنون) va Layli (لایلی) so'zlari yuzaga chiqadi. Matlada ishq so'zini yelkasiga otgan badiiy qahramonning sevgisi shu darajadaki, uni isbotilash uchun ikkinchi baytga kelib, o'zini Majnun, yorini esa Layli demoqda. O'z Laylisi qo'lida sargardon ekanini va ko'ngli har doim Majnunsifatligini aytadi. Bu orqali ikkinchi baytdan oshiq va ma'shuqa obrazlari ochib berilganini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi ikki baytda tasvir yor go'zalligi alqoviga ko'chadi:

Xou alifu lomu zulfing ko'rgali ko'nglim qushi-

Bo'ldi bad g'aynu mimu bastai domu balo [5].

3-baytda xo (خ), alif (ا) va lom (ل) harflaridan xol (خال) so'zini yasaydi. Yana g'ayn (ع) va mim (م) harflaridan g'am (غم) so'zini ham yaratadi. Oshiq yorning yuziga go'zallik bag'ishlab turgan xolini, zulfini ko'radi. Ularni ko'rgach oshiqning ko'ngil qushi ma'shuqaning domu balosiga band bo'lib qolganini tasvirlanadi. Bu yerda basta-bog'liq, band ma'nosini bildiradi [5].

Istaram laylivashimdin majlis ichra lomu bo

Dedi: ey Majnun, magar ichmishdurursan mimu yo [3].

To'rtinchi baytda lom (ل) va bo (ب) harflaridan lab (لب), mim (م) va yo (ی) harflaridan may (می) so'zlari yuzaga chiqqan. Bu misrada noodatiy hol uchraydi. Xuddi oshiq istagiga nisbatan ma'shuqa javob qiladi. Oshiq muddaosi yorining

vasliga yetishish ekanligini aytadi. Shunda ma'shuqa tilga kirib sen maydan mastsan, shekilli, deydi. Aslida oshiq dunyoviy maydan emas, ishq mayidan sarxushdir. Bu misrada ma'shuqani so'zlatish orqali asar ta'sirchanligini oshirish ko'zda tutilmoqda. Har bir misrada oshiq yorini tasvirlasa, bu misrada ma'shuqa tomonida oshiq tasviri chiziladi. Ma'shuqa o'z tilidan oshiqni Majnun deb ataydi. Bu birgina misra orqali oshiqni ishq mayidan sarxushligi telba bo'lgan kishiga qiyoslanadi. (Majnun-junun Telba [5].

*Kofu vovu zolarimdin to yuzing bo'ldi nihoh,
To-u you rou ho bo'lmish mang subhiy maso [3]*

5-baytda arab harflari orqali yaratilgan so'zlar — ko'z (كوز) va tiyr (طير) (kamon) [5]. Ko'z va tiyr so'zlarini keltirishdan maqsad ko'zni kamonga qiyos qilish. Shoir bu o'rinda an'anaviy o'xshatish yo'lidan bormoqda. Kamonning yoyitq yassi shaklini ko'zga o'xshatib, ko'zning ochilishi, kamonning tarang tortilishiga qiyoslangan. Ma'shuqa necha bor ko'zini shu zaylda ochib yumarkan, u oshiq ko'ngliga shuncha kamon o'qlarini qadaydi. Bu holat esa ertadan to kechgacha davom etmoqda.

*Aynu rou zodima solg'in quloq, ey sangdil,
Tokay aylarsn manga hijron jimu vovu ro [3].*

Yuqoridagi baytta ayn (ع), ro (ر), zod (ز) harflaridan arz (عرز) va jim (ج), vov (و), ro (ر) harflaridan jo'r (جور) so'zlari paydo bo'lgan. Oshiq oshiqlik dardini cheka-cheka charchagan, kamon o'qlaridan jarhatlangan holda tasvirlanib, ma'shuqadan arz qilmoqda. Ma'shuqani esa toshyurak deb atab qo'ya qoladi. Toshyurak yoridan arziga quloq solishini so'raydi. Va endi hijron ovozigga jo'r bo'lmasligini tilaydi. Chunki ma'shuqa tomonidan oshiqqa tinimsiz ravishda hijron so'zi aytilgan.

*Vovu alifu lomu ho bo'ldi ko'ngil ruxsoring'a,
Bou lomu bou lomos qilur dim navo[3].*

Oshiq ahvolini 7-baytda ham davom ettirgan. Yor ruxsoriga ko'ngli muftalo bo'lib qolgan oshiq o'zini navo qilayotgan bulbulga mengzaydi. Bo (ب), lom (ل), bo (ب) lom (ل) harflaridan bulbul so'zi kelib chiqadi. Yor ruxsorini ko'rganda xuddi bulbul chamanzorni ko'rib navo qilayotganday tuyiladi.

*Har kishi bo'lsa sanga gar ayn alifu shinu qof,
Hajr aro ish onga ohu nunu alifu lomu ho [3].*

Begona baytta ayn (ع), alif (ا), shin (ش), qof (ق) harflaridan oshiq (عاشق) so'zi kelib chiqqan. Oshiqlik bor joyda hijron azobi ham borligini tan olgan oshiq ma'shuqaga oshiq bo'lgani uchun ham hajr azobini chekishi tasvirlangan. Hajr azobi behad yuqori ekanligidan oshiq hayrat domiga g'arq bo'lgan.

Bu baytda ko'proq oshiq o'z holatini emas, balki butun oshiqlar dardini tasvirlagan. Oshiq bo'lishning sharti esa hijron ekanini aytgan.

*Qofu alifu nun yutar ko'b kofu alifu mimu lom,
Rou hou mim qil holig'a ey shirin liqo [3].*


Bilamizki, sharq she'riyatida maq'tada ijodkor taxallusi ham keltirilishi mumkin. Komil Xorazmiy ham o'z ismini ma'qtada keltiradi. Ismini kof (ك), alif (ا), mim (م) va lom (ل) arab harflarida ifodalaydi. Maqta'da ism keltirish orqali oshiq obrazi yanada oydinlashadi. Komil ishq dardida qon yutayotganini aytadi, bu holga aybdor sifatida shirin yuzli dildorini ayblaydi. Mahbusidan ro (ر), ho (ح), mim (م) harflari yordamida rahm (رحم) qilishini so'raydi. Yordam kerakligini aytib zorlanadi.

Kitobat san'atidan foydalanib yaratilgan bu g'azalning dastlabki 3 baytida oshiq holati tasvirlanadi. 4-baytda yorning oshiqqa murojaati haqida gap ketsa, 5, 6, 7, 8- baytlar yor tasirini o'zida mujassam qiladi. Shu oqali ma'shuqa holati tasvirlanadi. Maqta'da oshiq va ma'shuqa obrazlari yonma-yon keladi. Ishqning bunday mukamalligi Alloh ishq tamon o'sib boradi. Komilning har bir g'azalida yor tasviri chiroyli o'xshatishlar bilan beriladi.

Mana shunday o'lmasa asarlar yarata olgan Komil Xorazm adabiy muhitining so'nmas ijodkori sifatida adabiyotimizda gavdalansa, xon saroyidagi xizmatlari, yetuk siyosatchilik faoliyati bilan Xiva xonligi tarixiga kirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. va bosh. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. -T.: Ma'naviyat, 2004
2. Umarov H. Adabiyot qoidalari. -T., 2010
3. Komil. Devon. -T: G'. G'ulom, 1975.
4. Ashirboyev SH. va boshqalar. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. -T., 2006
5. Shamsiev P, Ibrohimov S. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. -T., 1953.



«NAHJ-UL FARODIS» DA AYRIM HIKOYATLAR TAHLILI

Choriyeva Murotoy

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya

«Nahju- l- farodis» («Jannatlarning ochiq eshiklari») — insonga ma'naviy, diniy va falsafiy jihatdan ozuqa beradigan, komillik sari yetaklaydigan, ta'limiy didaktik asar hisoblanadi. Asarda qo'yilgan diniy-falsafiy aqidalar turli rivoyat va hikoyatlar orqali ochib berilgan. Asar muallifi kitobxonni va'z-nasihatlar orqali emas, balki real voqelikka asoslangan hikoyatlar orqali xalifalar hayoti va faoliyatidan xabardor qiladi, axloqiy- ta'limiy mazmundagi hikoyatlar bilan insoniyatga komillik yo'llarini ko'rsatadi.

Tayanch so'zlar: «Nahju- l- farodis» asari, agiografik asar, voqeyiy hikoya, qahramonlik motivlar, amirul- mo'minin.

Annotation

The book 'Nahju- l- farodis' ('Open door of the Paradise') – is about spirituality, religion and philosophical nourishment, and it leads to wisdom moral education. The religious-philosophical beliefs of this book are expressed by various legends and stories. The author of this book was showed real stories about the life and the works of xalifas instead of preaching.

Key words: novel 'Nahju- l- farodis', agiografic novel, real story, heroism encouragement, amirul mo'minin.

Аннотация

«Нахжул-фародис (Открыты двери Рая) — это духовное, философское, религиозное, совершенствующее, обучающее произведение.

В произведении религиозные и философские учения представлены через реалии. Произведение раскрывает жизнь и деятельность халифов, показывает пути становления совершенного человека.

Ключевые слова: произведение «Нахжул-фародис», агиографические рассказы, история, героические мотивы, амирул-муминин.

«Nahjul-farodis» — payg'ambarlar tarixi haqidagi asardir. O'zbek adabiyotida agiografik asarlar haqida so'z ketganda, birinchi o'rinda «Qisasi Rabg'uziy» yoki shu asarga yaqin davrda yaratilgan «Nahjul-farodis» ko'z oldimizga keladi.

Mahmud ibn Ali as-Saroyi — «Nahju- l- farodis» («Jannatlarning ochiq eshiklari») asarini hijriy 761 (milodiy 1360) yili yozgan. Asarning so'ngida berilgan ma'lumotga ko'ra (ehtimol, kotibning ma'lumoti bo'lishi mumkin) Muallif asarni tugatganidan 2 kun o'tib vafot etadi. Mahmud ibn Ali as- Saroyidan bizgacha birgina shu asari yetib kelgan xolos. Ushbu asari orqali musulmon dunyosida o'z o'miga ega bo'lishi shubhasiz.

Asar to'rt bobdan va har bir bob o'nta fasldan — jami qirq fasldan iborat. Har bir hadis — o'ziga xos hikoyatlar bilan bezalgan. Mahmud Ali asarni yozishda turli ishonchli manbalarga tayanadi. Payg'ambarlar tarixini bayon etishda afsonalarga emas, tarixiy faktlarga tayanadi. Shu sababli, bu asarga ko'pgina allomalar murojaat etgan.

«Nahjul-farodis» da eng diqqatga sazovor dalil bu — hadislardir. Asarning birinchi bobida Muhammad alayhissalomda payg'ambarlik sifatlarining zohir bo'lishi, va uning islom yo'lidagi faoliyati bayon qilingan. Berilgan ma'lumotlar quruq tarixiy dalillar bayonidan iborat bo'lib qolmay, balki tarixiy hikoyatlar ham hikoya qilinadi. Asarda hadislardan, Imom Bag'aviyning «Mashobih», shayx Imom Is'hoq Quloboziyning «Tariif», Imom Sog'oniyning «Mashoriq ul Anvor», Imom Abul Muhammad Ispijobiyning «Tafsir», Imom Abul Alayh Ushiyning «Nishob ul- Axbor» kitoblaridan, Shayx Abu Yazid Bustomiy, Abdulloh ibn Ma'sud va boshqalarning so'zlaridan foydalangan. Barcha ulamolarning Muhammad a. s ga tug'ilgan paytidayoq Payg'ambarlik sifatleri va fazilatleri ato qilinganini bayon qiladilar Har bir bobning, fasllarning nomlanishi, o'ziga xos, bo'lib, hamma boblarni birlashtirib turuvchi asosiy omil- hikoyatlarning bir maqsadga ya'ni insoniyatni yuz bergan voqealarga ishonitirishdan iboratdir. ²⁴

Bu mazkur asardagi xalifa Usmonning hayotiga, shu jumladan, uning o'limiga oid lavhaga alohida e'tibor qaratdik. Zotan, xalifa Usmon haqidagi hikoyatlar nihoyatda ta'sirchanligi, voqealar tasvirida muallif real hodisalarni tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'gani bilan alohida ajralib turadi. Quyida bir hikoyatni sizlarning e'tiboringizga havola qilamiz:

«Abu Qalaba aytur: Shomdin Madinaga keldim. Usmon raznu shahid bo'lmishdin so'ng Madina ichida yurar ekan, bir mahallada ko'rar man xalayiqlar yig'ilishib tururlar. Bu xalayiq ichida bir kimarsa chaqirur. Men taqi keldim, baqar man bir kimarsa yotur, yekki ko'zi, elgi tirsagidin yo'q taqi yekki adag'i tizidin yo'q taqi ham qulaqi sag'ir. Bu kimarsa faryod qilur kim: Men dunyaning badbaxti bo'ldum taqi axiratning ham badbaxti bo'ldum taqi abadiy tamuqlug' bo'ldum tep chaqirur. Men aytim: «Sen kim bo'lur san?» tedim ersa, ul kimarsa aytdikim: Men O'smanni o'lturganlar chiqmishdin so'ngyevinga kirdim. Baqar men O'sman qanqa bulg'aship yatur erdi, valekin hanuz jani bar erdi; taqi xatuni Naila O'sman uzaringa baqip turur erdi. Ani bir urdum ersa, o'l yig'ladi, O'sman taqi yig'ladi, taqi manga qarq'adi taqi aydi: Haq taalo ekki ko'zumgni alsun taqi ekki qulaqingni alsun taqi ekki elgingni alsun taqi ekki adaqingni alsun taqi seni abadiy tamug'lug' qilsun tep qarq'adi. Evunka bardim taqi kecha yattim. Tushumda bir kimarsa keldi taqi ekki ko'zumni chiqardi taqi ekki qulaqimni chiqardi taqi ekki elgimni kesdi taqi ekki adag'imni kesti ersa qoptum, baqarman, ekki ko'zum taqi ekki qulaqim yo'q taqi ekki elgim yo'q taqiekki adaqim yo'q. O'smanning qarq'ishi manga jumlası yetti. Emdi tamug' o'ti qalip turur, har ayna ol taqi kelgusi turur, aning qarq'ishi bolg'usi turur, tep chaqiru yatur. Men aydim: Halakatlik bo'lsun sanga mundin artuqraq kerak, aning teg xalifani, Payg'ambarning qudagusini o'lturdung, tedim taqi aning qatindin yiraq kettim, tedi» (96-bet)

Ko'rinib turibdiki, hikoya juda ta'sirli, ayni paytda mo'jizalarga asoslangan. Mahmud Ali bu hikoyatni bevosita keltirar ekan, xalifa Usmonning qarq'ishi bir kechada bir nokasni qo'lsiz, oyoqsiz, ko'zsiz qilib qo'ygani, qarq'ishning o'qi insonning har ikki dunyosini ham kuydirgan. Qolaversa, asardagi hikoyatlar bir-biridan ibratli, mazmunli va hayratli.

Amir ul- mo'minin Usmondan so'ng xalifalik taxtiga o'tirgan Ali obrazi va u bilan bog'liq muhim voqealarga Mahmud Ali to'xtalar ekan, u bilan voqealarni Imom Muslim Nishoburiyning «Sahih» nomli kitobidan hadis keltirish bilan boshlaydi. Hadisda Muhammad a. s o'zini Muso Payg'ambar bilan, Alini Xorun bilan qiyoslaydi, ya'ni Xorun Musoning vaziri bo'lgani kabi, Alini o'zining vaziri deb e'tirof etadi. Bu e'tirofni dalillash uchun Mahmud Ali Enas ibn Malikning quyidagi hikoyasini keltiradi.

Bir kuni Payg'ambar a. s xizmatida edim, Payg'ambar alayhissalomga bir qush etini keltirdilar. Payg'ambar a. s aytdi: «Ey bor Xudoyo, xaloyiq orasida shunday bir zot borki, u Sening huzuringda to'g'ri, suyuqli bo'lsa o'sha zotni mening huzurimda hozir qilginki, men mana shu qush etini o'sha zoti bilan birga tanovul qilayin». Payg'ambar a. s duosini tugatishi bilanoq bir zot eshikka kelib, kirish uchun izn so'radi. Men o'rnimdan turib, eshikni ochdim. Ne ko'z bilan

ko'rayinki, Ali ibn Abu Tolib eshik oldida turardi. U uyga kirib, qush etini Payg'ambar a. s bilan birga tanovul qildi.

Mahmud Ali hikoyatlaridan ko'rinib turibdiki, u mo'jizakorlik payg'ambarlar va xalifalar hayotida aniq yuz berganini dalillash yo'lidan ketgan, kitobxonni ishonirish va har qanday shubhalarga barham berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Bu hikoyatda xalifa Ali, hadisda aytilganday, Payg'ambarning eng yaxshi ko'rgan hamrohi ekani bayon qilinsa, Suxayl ibn Saidning hikoyasida Ali qudratli pahlavonlar singari jasoratli, qo'rqmas. bahodir lashkarboshi sifatida hech kim ololmagan Xaybar qal'asini bir hamla bilan olgani hikoya qilinadi, xalifa Alining xatti-harakatlari xuddi xalq og'zaki ijodidagi yakka qahramonlik motivlarini eslatadi, Ali epos qahramonlari singari qahramon kitobxon ko'zi oldida gavdalanadi: «Bir hamla qildi, taqiquvvat qildi erdi, hisor qapug'ini yiqti, Taqi jumla cherik hisor ichinga kirdilar taqi juhudlarni halok qildilar taqi Haybar elini oldilar». (98-bet) Ali haqidagi hikoyatlar xalq orasida ham aytilib kelgani mazkur hikoyatning mazmunidan anglashilib turadi.

Alining yuqoridagiday eposlardagi yakka qahramonga xos sifatlari Abu Rafining hikoyasi orqali ham dalillanadi.

Xalifa Ali –jasoratli, dushmanlarga ayovsiz, farzandlariga esa mehribon ota. U hatto vafotidan keyin ham birinchi navbatda, inson sifatida, qolaversa, shijoatli va qahramon amir ul- mo'minin sifatida ulug'lanadi. Alining vafotidan keyin ham ulug'langaniga oid ikki rivoyatni Mahmud Ali keltirar ekan, o'z davridan keyin ham xalq orasida ulug' bir zot sifatida e'tirof etilishiga loyiq inson sifatida talqin qilinganini ko'rsatadi.

Rivoyatlarga ko'ra, Ali o'g'illari Hasan bilan Husaynga shunday vasiyat qiladi: «Mening dushmanlarim ko'p. Men kofirlarning va dushmanlarimning o'n ming bahodirini o'ldirdim, ularning avlodlari ham menga dushmandirlar. Agar meni oshkora dafn qilsangizlar, dushmanlar meni qidiradilar. Men vafot etganimdan keyin, tun yarmida hamma xaloyiq uyquga ketgandan so'ng bir tuyaga yuklab, Kufadan olib chiqinglar. Ikki yig'och yo'l yursangizlar, sahroda Izzi degan bir tepalik bor, o'sha tepani qazsangizlar, u yerda bir tosh lavha chiqadi. Lavha yuzasiga bu yerda Odam a. s va Nuh payg'ambar yotgan yerlaridir, deb yozilgan. Men o'sha ikki payg'ambar yoniga dafn qilsangizlar», deb vasiyat qiladi. Hasan bilan Husayn otalari vasiyatini bajo qildilar, hech kimsaga o'sha joyni aytmadilar. Oradan ancha vaqto'tgach, Jafar Sodiq xizmatkori bilan u yerga borib ziyorat qilganda, xizmatkori so'radi: «Ey payg'ambarzoda, bu kimning ziyoratgohiki, siz uzoq joydan kelib, bu joyni ziyorat qilgani keldingiz?» Jafar Sodiq aytdi: «Ey xizmatkor! Bilgin, ogoh bo'lginki, bu joy amir ul- mo'minin Ali ibn Abu Tolibning qabridir. Dushmanlardan qo'rqib, shu paytgacha hech kimga aytmagan edik. Endi dushmanlarning bironyasi qolmadi. Endi istagimiz shuki, Haq Taoloning amri bilan bu qabrnı ziyorat qilishni mo'minlar orasida oshkora qilsak».

Xalifa Ali obrazining bu tarzda talqin qilinishi shubhasiz, xalq orasida ham uning to'g'risida rivoyatlar keng tarqalganiga ishoradir. Odatda, inson o'zi

bilmagan ammo bilishga qiziqqan narsalar to'g'risida ko'p mulohazalar qiladi, rivoyatlar paydo bo'ladi. Xalifa Ali to'g'risida turli manbalarda qoldirilgan rivoyatlar shundan dalolat beradi.

Mumtoz adabiyotimizda Ali ibn Abu Tolib haqida bir qancha hikoyatlar bor, ammo, «Nahju- l- farodis» («Jannatlarning ochiq eshiklari») asarida keltirilgan hikoyatlar o'zining ustunligi bilan ajralib turadi.

Xulosa o'rinda asarning badiiy qiymati yuksak, haqqoniy rivoyat va hikoyatlari dalillar bilan boyitilgan. Asarda diniy va dunyoviy bilimlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmonov, N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent. «Sano-standart». 2017.
2. «Nahjul-farodis». II METIN. Cevriyazi Janos ECMANN. TURK DIL YAYINLARI: 518



MUNDARIJA

► UMRBAXSH JARAYON (Soʻz boshi)..... 3

I SHOʻBA.

OʻZBEK TILI TARIXI VA DIALEKTOLOGIYASI MASALALARI

► ALISHER NAVOIYNING «MUHOKAMAT UL- LUGʻATAYN ASARIDA TURKIY TIL MAVʻQEYINING DALILLANISHI • Ashurova Nasiba ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi* 5

► YANGIARIQ SHEVASI LEKSIKASIDAGI AYRIM SOʻZLAR IZOHI MASALASIGA DOIR • Bekmatova Dilnoza ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi* 8

► BUXORO SHEVALARIDA KELISHIK KATEGORIYASI • Boboqulova Gulmira ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish fakulteti 1-kurs talabasi* 11

► «DEVONI LUGʻOTIT TURK» DA OʻGʻUZ LAHJASIGA OID BAʼZI SOʻZLAR TAVSIFI • Boltayeva Zilola ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbek tili va adabiyotini oʻqitish fakulteti 1-kurs talabasi* 14

► УРХУН-ЭНАСОЙ БИТИКТОШЛАРИДАГИ БАЪЗИ ТОПОНИМИК ЛЕКСЕМАЛАР • Дустмуродов Маъруфжон ■ *Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш факультети 4-курс талабаси* 18

► OLMOS SHAHARCHASI SHEVASIDA KELISHIK SHAKLLARINING QOʻLLANILISHI • Haydaraliyeva Yulduz ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti Universiteti Oʻzbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi* 23

► XX ASRDA OʻZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING OʻRGANILISHI HAQIDA • Hayitova Munisa ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti Oʻzbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi* 26

- ▶ **TURKIY XALQLARDA ALIFBO MASALASI: O'ZBEK VA QOZOQ LOTIN YOZUVI MISOLIDA** • Mahkamova Dilafuz ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi.....30
- ▶ **«LUG'ATI SITTA ALSINA» — TARJIMA LUG'AT** • Muhammadova Munisa ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi*.....38
- ▶ **O'ZBEK TILIDA FAOL QO'LLANILUVCHI AYRIM O'ZLASHGAN SO'ZLAR ETIMOLOGIYASI** • Najmiddnova Dildorabegim ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetining 1-kurs talabasi.....40
- ▶ **BA'ZI O'ZBEK TAOM NOMLARINING ETIMOLOGIYASI** • Zarina Olimova ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*.....43
- ▶ **«DEVONU LUG'AT-T-TURK»DAGI BA'ZI LEKSIK BIRLIKLARGA DOIR** • Soliyeva Madina ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*.....46
- ▶ **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBIDAGI HUMO QUSHINING TARIXIY ILDIZLARIGA DOIR** • Tursunov Jaloliddin ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiya fakulteti 1-kurs talabasi.....49
- ▶ **«BUYUQ» SO'ZINING ETIMOLOGIYASIGA DOIR** • Tursunov Shokirjon ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi*.....52
- ▶ **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING TILSHUNOSLIKKA OID BA'ZI QARASHLARI** • Xo'jamberdiyeva Shohida ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi*.....55
- ▶ **ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI BA'ZI TAOM NOMLARI** • Nazarova Marhabo ■ *O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*.....60

II SHO'BA.

ONA TILI TA'LIMI VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI MASALALARI

- **TILNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'RGANISH ISTIQBOLLARI** • Abdullayeva Shaxnoza ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*..... 63
- **TIL TA'LIMIDA INNOVATSION METOD VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH** • Abduqodirova Madina ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi*..... 66
- **YOZMA NUTQ VA SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA WRITER H AND X DASTURINING O'RNI** • Abdurahmonova Sayyora ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi*..... 69
- **MASHINA TARJIMASIDA FRAZEMALAR OMONIMIYASI** • Ahmadova O'g'iloy ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*..... 74
- **MASHINA TARJIMASIDA KONTEKSTUAL SINONIMLARNING TARJIMASI** • Anvarova Durдона ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi*..... 77
- **BOLALAR NUTQIY FAOLIYATIDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI** • Dustmurodov Ma'rufjon ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi* • Ergashev Mavlon ■ *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 2-kurs talabasi*..... 82
- **TARBIYA BIZ UCHUN YO HAYOT, YO MAMOT MASALASIDIR** • Eshqulova Go'zal ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti*..... 86
- **NAVOIY ASARLARINING KORPUSINI YARATISH** • Hamrayev Bobur ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*..... 88

▶ O'ZBEK TILIDAGI GRAMMATIK KATEGORIYALARNING
INGILIZ TILIDAGI KOORDINATSIYASI

(otlarning son kategoriyasi misolida) • Hamroyeva Mohinur ■
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*..... 91

▶ O'ZBEK ALIFBO VA IMLOSI MUAMMOLARI •

Xalilova Mahfuza ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
4-kurs talabasi*..... 95

▶ MASHINA TARJIMASIDA POLISEMIYA •

Haydarov Muhammad ■ *Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*..... 98

▶ O'ZBEK TILIDA DARAJA SHAKLLARINING

O'QITILISHIGA BIR NAZAR • Hudoynazarova Shoira ■
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi*..... 102

▶ MASHINA TARJIMA TIZIMIDA LEKSIK OMONIMIYA •

Isrofilov Doston ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi*..... 105

▶ СОВРЕМЕННЫЕ СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ РЕЧИ
УЧЕНИКОВ НА ОСНОВЕ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ •

Жумамуратова Севара ■ *ГИН имени Ажипияз, курсант
ТГУУЯЛ имени Алишер Навои*..... 109

▶ «AROSATDAGI» SO'Z TURKUMI • Mahmudova Matluba ■

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*..... 114

▶ INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA DARS

ISHLANMASI TAYYORLASH • Muhammadiyeva Mohichehra ■
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*..... 119

▶ LEKSIKOLOGIYA BO'LIMINI QIYOSIY TAHLILDA

O'RGANISH USULLARI • Navruzova Xosiyat ■
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish
fakulteti*..... 124

- ▶ **ALIFBO — TILSHUNOSLIK MUAMMOSI..MI?** •
 Norqulova Maftuna ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*
O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi..... 128
- ▶ **TIL EKOLOGIYASI • Ortiqov Ramazon ■**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi..... 132
- ▶ **YURIDIK LEKSIKA VA USLUB • Rizoyeva Mohlaroyim ■**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi..... 134
- ▶ **«RAVISH» SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH • Xayrullayeva Huriniso ■**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi..... 137

III SHO'BA. NAZARIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

- ▶ **O'ZBEK TILIDAGI QO'SHIMCHALAR KOMBINATSIYASINI MODELLASHTIRISH HAQIDA •**
 Abduazizova Munisa ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*
O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi..... 141
- ▶ **O'ZBEKCHA SO'ZLARINING GRAMMATIK SHAKLLARNI QABUL QILISH IMKONIYATI • Abdualimova Gulhayo ■**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi..... 145
- ▶ **IBORALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI •**
 Abdurasulova Dilnoza ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi*..... 148
- ▶ **SIFATDOSH SHAKLLARINING BA'ZI JIHALARI HAQIDA • Bultakova Durdona ■**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi..... 151

▶ FE'LNING VAZIFA SHAKLLARI TRANSPOZITSIYASI • Ergasheva Nilufar ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi</i>	154
▶ OLMOSHNING DEYKTIK XUSUSIYATLARI • Faxriddinova Ozoda ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi</i>	158
▶ LUG'AVIY SHAKL YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING KOGNITIV MA'NO IFODALASHI • G'afurova Maftuna ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi</i>	161
▶ IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA FRAZELOGIZMLARNING QO'LLANISHI • Hoshimova Munisaxon ■ <i>FarDU 3-kurs talabasi, 2017–2018 o'quv yili 2-jarayonida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi</i>	164
▶ O'ZBEK TILIDA KO'MAKCHILAR PRESUPPOZITSIYASI • Karimova Shahnoza ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi</i>	167
▶ HOZIRGI O'ZBEK TILI SO'Z TURKUMLARI TIZIMIDA RAVISH SO'Z TURKUMINING TASNIFLANISHI • Kenjayeva Zahro ■ <i>QarDU talabasi, 2017–2018 o'quv yili 2-jarayonida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi</i>	170
▶ MUSTAQILLIK YILLARIDA LEKSIK SATHDAGI AYRIM O'ZGARISHLAR XUSUSIDA • Marajabova Mastura ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvistika yo'nalishi magistranti</i>	173
▶ O'ZBEK TILIDA BELGI UMUMIY MA'NOLI TERMINLARNING TUZILISHI • Muhidinova Gulchiroy ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi</i>	175

- ▶ O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA GAP BO'LAKLARI
TALQINI TAHLILI ● Mullaboyeva Shirin ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti*..... 178
- ▶ ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA DEYKTIK BIRLIKLAR ●
Nomozova O'g'iloy ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*..... 181
- ▶ SODDALANISH HODISASINING SO'Z TURKUMLARIDA
KUZATILISHI ● No'monova Zulfira ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi*..... 184
- ▶ KORPUS LINGVISTIKASI LUG'ATSHUNOSLIKNING
RIVOJLANGAN KO'RINISHI SIFATIDA ● Nurullayeva Oydin ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi..... 189
- ▶ O'ZBEK TILIDA SODDALANISH HODISASI ● Utbasarova
Hamidaxon ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*..... 191
- ▶ ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA JO'NALISH KELISHIGI ●
Oydingulov Olimjon ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek-ingliz tarjima fakulteti talabasi*..... 194
- ▶ O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA «AYOL»
LEKSEMASINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI ●
Qoraboyeva Xusnidaxon ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi*..... 196
- ▶ O'SMIRLAR NUTQIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ●
Farida Saidova ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistranti*..... 199
- ▶ AVTOMOBIL NOMLARI NIMANI BILDIRADI? ●
Sattorova Gulmira ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*..... 202

▶ «YURAKDON»DAN «YURAKBOYLOG‘ICH»GACHA •
Shodmonov Shahzod ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*.....205

▶ KISHILIK OLMOSHLARINING DEYKTIK XUSUSIYATLARI
• Sobirova E‘zoza ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*.....209

▶ QIYOSIY TILSHUNOSLIKDA UNDALMALAR
POLIFUNKSIONALLIGI (o‘zbek va ingliz tillari misolida) •
Suyunova Malika ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti talabasi*.....213

▶ O‘ZBEK TILIDA [PIYOZ] LEKSEMASI VA UNING
AYRIM HOSILALARI HAQIDA • Tursunov Jo‘shqin ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi • Eshboyev Qahramon ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi.....217

▶ OT FRAZEMALARNING LISONIY XUSUSIYATIGA DOIR •
Tursuntosheva Fazilat ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi*.....219

▶ ANTONIMIYA HODISASI PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR
TARKIBIDA O‘RGANILISHINING AHAMIYATI •
Ubaydova Hulkarbegim ■ *BuxDU 2-kurs talabasi, 2017–2018 o‘quv yili 2-jarayond Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi talabasi*221

▶ NUTQIY ODATLARNING LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI • Nozima Yuldasheva ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti*.....224

IV SHO‘BA. MUMTOZ ADABIYOT MASALALARI

▶ NIZOMIY VA QUTBNING «XUSRAV VA SHIRIN»
DOSTONLARIDA BOSH QAHRAMONLAR QIYOSI •
Abdivaliyeva Shodiya ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi 1-kurs talabasi*.....228

● Talabalarining II ilmiy-amaliy anjumani materiallari ■ ~~~~~ ■	
▶ LUTFIY IJODIDA RADD UL-QOFIYA SAN'ATI ● Bekmurodova Dinora ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti</i> 2-kurs talabasi.....	233
▶ BOBUR SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING O'RNI ● Bektemirova Nafisa ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti</i> talabasi.....	236
▶ ALISHER NAVOIYNING «NAZM UL-JAVOHIR» ASARI GENEZISI ● G'iyosova Hilola ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi</i> 1-kurs magistranti.....	240
▶ ALISHER NAVOIYNING «FARHOD VA SHIRIN» DOSTONIDA TAZOD SAN'ATI ● Xabibullayev Muzaffar ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti Universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi.....</i>	242
▶ TASHXISDAGI TABIAT JILVASI ● Ismoilova Muxlisa ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi.....</i>	245
▶ ARUZ SHE'R TIZIMIDA DOIRALARNING O'RNI ● Keldiyorov Asomiddin ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti</i> 1-kurs talabasi.....	249
▶ O'ZBEK ADABIYOTIDA MUSTAZOD JANRI ● Mamarasulova Maftuna ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti</i> 1-kurs talabasi.....	253
▶ G'ARB ADABIYOTI NAMUNALARIDA AMIR TEMUR SIYMOSI ● Najimova Dilnavoz ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti</i> talabasi.....	258
▶ ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA MAY TIMSOLI ● Nasimova Farog'at ■ <i>Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti</i> 1-kurs talabasi.....	262

- ▶ XIROMIYNING «CHOR DARVESH» ASARIDAGI UCHINCHI DARVESH HIKOYASI POETIKASI •
Nazarova Mohitobon ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*.....265
- ▶ UVAYSIYNING BANDLI SHE'RLARIDAGI MAHORATI • Nutfullayeva Mafzuna ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek filologiyasi 1-kurs talabasi*.....269
- ▶ «ZUBDATU-T-TAVORIX» ASARIDAGI MASNAVIYLARDA MUQAYYAD QOFIYA • Qodirova Guli ■ *URDU 3-kurs talabasi, 2017–2018 o'quv yili 2-jarayonda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi talabasi*.....273
- ▶ BOBUR SHE'RIYATIDA MA'NO VA BADIY SAN'ATLAR UYG'UNLIGI • Qodirova Maftuna ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi*.....278
- ▶ FARIDUDDIN ATTOR VA ALISHER NAVOIY IJODIDA ABDULLOH IBN MUBORAKNING ZIKRI • Qo'ldosheva Sevara ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi*.....281
- ▶ XOJANING HIKOYANAVISLIK MAHORATI • Ro'ziyev Elbek ■ *Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi*.....285
- ▶ «FARHOD VA SHIRIN» DOSTONIDA CHIN MAMLAKATI TASVIRI • Ruzmetov Shahzod ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi*.....288
- ▶ MAQOL JANRINING VUJUDGA KELISHI VA TARAQQIYOTI • Salimova Mavzuda ■ *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetining talabasi*.....291
- ▶ ATOYI IJODIDA TABIAT TASVIRI • Sayfullayeva Mehrangiz ■ *Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi*.....294

- ▶ **BOBUR SHE'RIYATIDA TASHBIIH SAN'ATINING O'RNI** •
Tursunpo'latova Sevara ■ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
1-kurs talabasi.....297
- ▶ **TUSH MOTIVI OSHIQ-MA'SHUQA QISMATINING
BADIY IFODACHISI SIFATIDA** • Umaraliyeva Chinoroy ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti
talabasi.....300
- ▶ **NAVOIY IJODIDA FUTUVVAT G'OYALARI** •
Uroqova Ra'no ■ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini
o'qitish fakulteti talabasi.....304
- ▶ **NAVOIYNING HARF SAN'ATI** • Usmonova Iroda ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti talabasi.....307
- ▶ **IJODGA AYLANGAN QISMAT** • Xushvaqtova Dildora ■
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti.....311
- ▶ **KOMIL XORAZMIY TALQINIDA ISHQ** • Yusupova Surayyo ■
URDU 3-kurs talabasi, 2017–2018 o'quv yili 2-jarayonda
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti O'zbek filologiyasi talabasi.....314
- ▶ **«NAHJ-UL FARODIS» DA AYRIM HIKOYATLAR TAHLILI** •
Choriyeva Murotoy ■ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek filologiyasi
fakulteti talabasi.....317



Ilmiy-ommabop nashr

Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo'lidagi ilk odimlar. Talabalarning II ilmiy-amaliy anjumani materiallari. I qism. –T.: «Navoiy universiteti» nashriyot-matbaa uyi. 2018-yil. 336 bet.

Nashriyot direktori: To'liqin Tog'ayev
Muharrir: Ulug'bek Hamdam
Texnik muharrir: Ulug' BEK
Musahhah: Shoira Saydullayeva

Litsenziya raqami: AI 310. 2017-yil 24-noyabr sanasida berilgan.

Bosishga 2018-yil 12-may sanasida ruxsat etildi.
Bichimi: 60x84 ¹/₁₆; Shartli bosma tabog'i: 21,0;
Nashriyot hisob tabog'i: 21,7. 04-sonli buyurtma.
Adadi: 170 nusxa.

Original maket «NAVOIY UNIVERSITETI» nashriyot-matbaa uyida tayyorlandi va «IMPRESS MEDIA» MCHJning matbaa bo'limida ofset usulida chop etildi. 14/05-sonli buyurtma.

Nashriyot manzili: Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.
Tel.: +998 (94) 639-0344; (97) 344-0241; (90) 909-5401.
Web: navoiy-uni.uz E-mail: navoiyuniversiteti@mail.ru

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.
Tel.: +998 (99) 865-2411.

«NAVOIY UNIVERSITETI» NMUning marketing bo'limi: +998 (97) 701-5401.



ISBN 978-9943-5075-5-5



9 789943 507555